ularning semantik xususiyatlari, morfologik va sintaktik tuzilmalari, ularning kontekstda qo‘llanishi, tarjima masalalari bilan shug‘ullanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anna Vierbitzka,1988., The semantics of grammar. Page – 562
2. Даниленко В.П.,1977 Русская терминология. опыт лингвистической описание. стр 2-3.
3. H.Dadaboyev.,2019. O’zbek terminologiyasi. 6-bet.
4. O’zbek tilining izohli lug’ati,2006. T- harfi. A.Madvaliyev. 77-bet. Toshkent.
5. Wikipedia.com.

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

ISLOMDA ERKINLIK VA MAS'ULIYATGA BO'LGAN YONDASHUVLAR

Nizomov Fazliddin Baxodirbek O'G'Li
"Sayyid Muhyiddin Maxdum" Islom Bilim Yurti
Mudarrisi

Islom ta'limoti bo'yicha inson Allohning Yerdagi xalifasi-o'rinbosaridir. Unga aql idrok va shu bilan birga ixtiyor ham bergan.. Bu quydagi oyatda ochiq oydin bayon qilinadi.

"Albatta, Biz bu omonatni osmonlarga, yerga va tog'larga taklif qildik.

Bas, ular uni ko'tarishdan bosh tortdilar va undan qo'rqdilar. Uni inson ko'tardi"[1]. *(Ahzob surasi 72-oyat)*

Boshqacha qilib aytganda, Alloh taoloning O'z haqqiga, insonlarning haqqiga va boshqa mahluqotlarining haqlariga bog'liq amrlarni, nahyilarni, ko'rsatma va hukmlarni o'z joyiga qo'yish bo'yicha uning ishongan vakili bo'lish taklifi demakdir. Bu esa o'z ixtiyori bilan bo'ladigan narsadir. Ya'ni o'sha takliflarni amalga oshiradiganlar o'z hurriyatiga – xohlasa, amal qilib, xohlamasa, qilmaslik ixtiyoriga ega bo'ladi[2].

Bu o'rinda shunday xulosa chiqarish mumkinki, islomda ixtiyor ayni paytda Yaratganning va jamiyatning oldida mas'uliyat hamdir. Bu mas'uliyat Allohning insonga aql va ixtiyor berganligidan kelib chiqadi.

Islom xatto insonga imon masalalsida ham erkin tanlov huquqini beradi.

"Bas, kim xohlasa, iymon keltirsin; kim xohlasa, kufr keltirsin", degin"[3].

(Kahf surasi 29-oyat)

Islomda erkinlik jamiyat qonunlariga va shariatga ongli ravishda bo'ysunishdir.

Tarixan ma'lumki, Islom sivilizatsiya va ozodlik omili bo'lgan.

"Agar (kishilarning) xulqi o'zgaruvchan bo'lmaganda edi, u holda aqlning bilish quvvati foydasiz, tarbiya va siyosat haqiqiy bo'lmagan bo'lur edi. Unda faqat din bilan xudojo'ylikning o'zi yetarli bo'lar edi" , deb yozadi Dovoniy. Mazkur fikridan u insonning iroda erkinligini qo'llab-quvvatlagan, - degan xulosaga kelish mumkin . Uning fikricha, insonning taqdiri o'z qo'lida bo'lib, u xohishga ko'ra o'z xulqini o'zgartirishi ijobiy xislatlarni kasb qilishi, yaramas odatlardan xalos bo'lishi mumkin. Shuni ham e'tibroga olish zarurki, iroda erkinligi, shaxs amaliy faoliyatida boshqa ob'yektiv

[1] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. 3-juz. "HILOL NASHR" nashriyoti. Toshkent. 2019. B. -611. 614-b.
[2] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. 3-juz. "HILOL NASHR" nashriyoti. Toshkent. 2019. B. -612. 614-b.
[3] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. 3-juz. "HILOL NASHR" nashriyoti. Toshkent. 2019. B. -476.

jarayonlar, unga mutanosib holatdagi sub'yektiv omillar bilan o‘zaro aloqadorlikda shakllanib, erkinlikni mohiyatan takomillashib borishiga imkon beradi.

Islom qoidalarida jamiyat a'zolariga tenglik asosida yondashadi va Qur'on oyatlarda insonning ma'lum huquqlarga ega ekanligi alohida ta'kidlanadi. Erkinlik avvalo tenglik va adolatdadir. Odamning birlamchi huquqi hisoblangan yashash huquqi bilan birga iqtisodiy huquqlarga ega bo'lish va ularni himoya qilish, tasarruf etish huquqlari ham bor. Bu huquqlardan foydalanishda jamiyatning barcha a'zolari tenghuquqlildir. Shu bilan birga, kishilarning bir-birlari bilan o‘zaro munosabatlari qoidalari, ayollar, bolalar, yoshi ulug‘lar va boshqa jamiyatning qatlamlari o‘rtasidagi munosabatlar mezonlari mavjud. Shuni ham aytish eslatib o‘tish kerakki, islom qoidalarida jamiyat a'zolarini bir sinfga jamlash boshqacha qilib aytganda bir hil tabaqa tashkil qilish normalari mavjud emas. Aksincha, islomda jamiyat a'zolariga bir xil shart-sharoitlar yaratib berilishi zarur. Jamiyat a'zolari anashu imkoniaytlardan o‘z qobilyati va harakati bilan foydalanib, o‘z o‘rinini topishlari talab etiladi. Bunda barchaga teng imkoniyatlar yaratib berish bilan birga imkoniyati cheklanganlar, yetimlar, miskinlar va boshqalar jamiyat tomonidan himoya qilinadi va ularga ko‘maklshiladi. Qur'oni karimda butun insoniyat bir insonning farzandlari va bir-biriga akauka ekanligi ta'kidlangan.

“Ey odamlar! Biz sizlarni bir erkak va ayoldan yaratdik va sizlarni o‘zaro tanishishingiz uchun xalqlar va qabilalar qilib qo‘ydik. Albatta, Allohning huzurida eng hurmatligingiz eng taqvodoringizdir”[4]. *(Hujurot surasi 13-oyat)*

Kishilar mezon tuzib o‘zaro afzalliklarini o‘lchab yurishadi. Molu mulk, mansab, nasab, irqiy xususiyatlar ila ustunlik talab qiladilar. Qur'on ta'limotiga ko‘ra, bu kabi o‘lchovlarning hech qanday ahamiyati yo‘q. Ularning hammasi bekor qilinadi va yagona mezon sifatida ilohiy o‘lchov joriy etiladi. Bu o‘lchov insonlar qadrini faqat bitta narsaga qarab, ya'ni insonning taqvosiga qarab o‘lchaydi.

Xuddi shu oyatning ma'nosida Muhammad sollallohu alayhi vasallamdan quydagi hadis ham fikrimizni ochib beradi. Imom Muslim Abu Hurayradan rivoyat qilgan hadisda, “Albatta, Alloh suratingiz va molu dunyolaringizga qaramaydi, balki qalbingiz va amalingizga qaraydi”, deyiladi[5].

Qur'onda tenglik va adolatga ko‘p urg‘u berilgan. Oyatlarda insonlarga o‘ziga dushman deb bilgan odamga ham insoniy munosabatda bo‘lishga buyuradi. .

Musulmonlarning adolatli va solih bo‘lish burchi Qur'oni karimda yuqori o‘rinda turadi va shunday ta'riflanadi:

“Ey iymon keltirganlar! Adolat ila turing hamda agar o‘zingiz, ota-ona va qarindoshlar ziddiga bo‘lsa ham, Alloh uchun guvohlik beruvchi bo‘ling. Agar u boy bo‘lsa ham, kambag‘al bo‘lsa ham, Alloh unga bularga yaqinroqdir. Havoyi nafsga ergashib, adolatsizlik qilmang. Agar tilingizni bursangiz yoki yuz o‘girib ketsangiz, albatta, Alloh nima qilayotganingizdan o‘ta xabardordir”[6]. *(Niso surasi 135-oyat*

Ijtimoiy mas'uliyat - bu shaxsning jamiyat oldidagi boshdan kechiradigan va biladigan mas'uliyati, unga ko'ra u boshqa odamlar, jamoat tashkilotlari va davlat bilan o'zini tutadi. Ijtimoiy mas'uliyat - bu shaxs va jamiyat o'rtasidagi o'zaro manfaatli munosabatlar nimaga asoslanadi.

[4] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. 5-juz. “HILOL NASHR” nashriyoti. Toshkent. 2019. B. -558.
[5] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. 5-juz. “HILOL NASHR” nashriyoti. Toshkent. 2019. B. -559.
[6] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. 1-juz. “HILOL NASHR” nashriyoti. Toshkent. 20. B.

Ijtimoiy javobgarlik murakkab, jamoaviy axloqiy, huquqiy, falsafiy va axloqiy-psixologik kategoriya bo'lib, ko'plab fanlar tomonidan turli tomonlardan o'rganiladi. Mas'uliyatning ma'naviy, siyosiy, huquqiy, jamoat, fuqarolik, kasbiy va boshqa turlari mavjud].

Eng universali quyidagi ta'rifdir: ijtimoiy mas'uliyat - bu iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, axloqiy va huquqiy sohalarning ajralmas qismi bo'lgan va jamiyatning zamonaviy ehtiyojlariga mos keladigan soha. Uning barcha ishtirokchilarining keng ijtimoiy javobgarlik tizimi fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy shartlaridan biridir.

Klassik islomda ijtimoiy mas’uliyatning ma’nosi “ahliyat al-ada” (“moslik”, “kompetentlik”) tushunchasi orqali ochib beriladi, bu mohiyatan shaxs zimmasiga mas’uliyat yuklash shartidan boshqa narsa emas.

Shundan kelib chiqib, ijtimoiy mas’uliyat uch toifaga bo‘linadi: al-mas’uliyya ad-diniyya (diniy mas’uliyat) – shaxsning diniy me’yorlarga rioya etishi, ularni buzganlik uchun jazo olishga va to‘g‘ri bajarganligi uchun mukofot olishga tayyorligi; al-mas'uliya al-ahlyakiyya (axloqiy mas'uliyat) - insonning ichki dunyosi, axloqi va vijdoni bilan bog'liq; al-mas'uliyya al-ijtimoiyya (ijtimoiy mas'uliyat) - jamiyat tomonidan taqdim etilgan tamoyillar, asoslar, qoidalar, talablarga rioya qilishni talab qiladigan mas'uliyat

Birinchi turdagi mas’uliyatning mavjudligiga Qur’oni karim oyati dalolat beradi: “Sizlarni xuddi shunday [hech bir hikmatsiz] yaratganimizni va Bizga qaytib kelmaysiz, deb o‘yladingizmi? iz]” [3, 23:115]. “Inson yolg‘iz qolishiga [va hukm va qasos bo‘lmasligiga] chindan ham ishonadimi” [3, 75:36].

Ma’suliyatning ikkinchi turiga at-Termiziy to‘plamidan kelgan hadis dalolat qilib, shunday deyiladi: “Inson qiyomat kuni to‘rt narsa haqida so‘ramagunicha o‘z joyidan chiqmaydi: hayot haqida, uni qanday yashaganligi, yoshligi, uni qanday o‘tkazgani, mol-mulki, uni qanday topib, qayerga sarflagani, bilimi bilan nimalar qilganligi haqida» [4, b. 481].

Uchinchi turga Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning quyidagi so‘zlari dalolat qiladi: “Alloh taolo jamiyatga ko‘proq foyda keltiruvchi bandani ko‘proq sevadi. Mo‘minning qalbiga singdirayotgan quvonch, uni qandaydir tashvishlardan xalos qilish, ehtiyojini qondirish va qarzini qaytarish, uni ochlik va azob-uqubatlarga majburlovchi omillarni bartaraf etish Alloh taoloning huzuridagi eng qimmatli amallardan sanaladi.

3. Kalom Sharif. Ma'nolarni tarjima qilish. Qozon: "Huzur" nashriyoti - "Tinchlik"; 2020. 652 b.

↑4. At-Termiziy. Sunan at-Termiziy. Bayrut: Rizal'alamiyya; 2009. T. 3. 615 b.

↑5. Abu ash-Shayx al-Asbahoniy. At-Taubih va at-tanbih. Abu al-Ashbal Hasan ibn Amin ibn al-Manduh (tahr.). Qohira: Maktabat al-Furqon; 1408 x. 278 b.

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

МИНТАҚА САНОАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ

Исмоилова Г. А,
Ботирова Камола Боходир қизи
Қарши Давлат университети
Иқтисодиёт факултети
2-босқич талабаси

Аннотация: *Мамлакатимизнинг иқтисодиётини ривожлантиришда минтақаларнинг ўрни катта. Бунда аввалambор вертикал интеграцияни кучайтиришни тақозо этади. Чунки хар бир вилоятни ўзининг минерал ва ресурс бойликларидан келиб чиққан ҳолда, ишлаб чиқариш кучларини жойлаштириш ва ривожлантиришни талаб қилинади. Айниқса кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик, экспорт салоҳиятини ошириш диверсификацион сиёсатни кучайтириш минтақалар иқтисодиётини барқарорлигини таъминлайди.*

Калит сўзлар: *Минтақалар саноати, минтақавий ривожланиш, бозор иқтисодиёти, ресурслар, ишлаб чиқариш, миллий иқтисодий, интеграция, салоҳият, бозор коньюнктураси, стратегик дастур, иқтисодий зона, саноат зона, диверсификация, минерал бойлик, оптимал, барқарор, субвенция, инвестиция, инновация.*

Кириш

Ўзбекистонда ҳозирги жадал ижтимоий-иқтисодий ислоҳотлар шароитида аниқ ва илмий асосланган минтақавий сиёсат ишлаб чиқиш ҳамда уни амалиётга жорий этиш иқтисодиётнинг самарали фаолият кўрсатишида ва мавжуд ресурслардан мақсадга мувофиқ фойдаланишда муҳим рол ўйнайди. Минтақавий омиллар мамлакатимизда амалга оширилаётган иқтисодий ислоҳотлар характери ва йўналишига, ишлаб чиқариш омиллари ривожланиш суръатлари ва нисбатларига, иқтисодиётдаги таркибий ўзгаришларнинг жадаллашувига ҳал қилувчи таъсир кўрсатади. Миллий иқтисодий тараққиётни белгилаб берувчи саноат тармоғининг минтақавий ривожланиш муаммоларини тадқиқ этиш ва саноат ишлаб чиқаришини ҳудудий жиҳатдан оқилона ташкил қилиш юзасидан илмий асосланган таклифлар ва амалий тавсиялар ишлаб чиқиш иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида устувор вазифалардан ҳисобланади.

Таҳлил ва натижалар

Ватанимизда иқтисодни ривожланишини инновацион типдаги янги модели шакллантирилмоқда. Мамлакатимиз раҳбари Ш.Мирзиёев таъкидлаганларидек 2017 йилда ватанимиз ривожланишининг янги босқичи бошланди. 2017 йилда амалга оширилган чора-тадбирлар ҳисобига барқарор иқтисодий ўсиш суръатлари 5,3 фоиз, эскпорт ҳажми 15 фоиз ошди. Ташқи савдодаги ижобий сальдо 854 млн. АҚШ долларини, олтин – валюта захиралари 26,5 млрд. АҚШ долларини ташкил қилди. Жорий йилда мамлакатда 12 эркин иқтисодий зона ва 45 саноат зоналари фаолият олиб бормоқда, янги корхоналар, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожланиши ҳисобига 336 мингта янги иш ўрни яратилди. Мамлакатда қисқа


Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

муддатда 161 катта саноат объектлари ишга туширилди, бу эса 2018 йилда 1,5 трлн. сўмли янги маҳсулот ишлаб чиқариш имконини яратади [1].

Саноат ишлаб чиқаришини ҳудудий жиҳатдан оқилона ташкил этиш деганда, бозор иқтисодиёти хусусиятлари, жаҳон хўжалиги ривожланишидаги замонавий тенденциялар, мамлакат ва ҳудудий бирликларнинг манфаатлари ҳисобга олинган ҳолда саноат ишлаб чиқаришининг ҳудудий меҳнат тақсимоти имкониятлари, минтақаларнинг табиий-иқтисодий салоҳияти ва минтақалараро иқтисодий муносабатлардан самарали фойдаланиш асосида аҳолининг саноат маҳсулотларига бўлган эҳтиёжларини тўлароқ қондириш ва минтақа саноат ишлаб чиқаришининг ижтимоий-иқтисодий самарадорлигини таъминлашга эришиш тушунилади.

Айрим ҳудудлар ўртасида бу соҳада ҳам номутаносибликлар мавжуд. Бунга асосий сабаблардан бири корхона ва хўжалик юритиш субъектларини инвестицион фаолликни пастлигини айтиш мумкин. Ҳудудлар ўртасида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ривожланишидаги номутаносибликлар ҳам бор.

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 553.3 trln. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 84.4% ni tashkil etadi[2].



Минтақалар саноатини ривожлантириш ва мувофиқлаштириш жараёнига давлат қуйидаги дастак ва воситалар орқали таъсир кўрсатади:

- давлат маблағларини жалб этган ҳолда саноат корхоналарига хизмат кўрсатувчи инфратузилма объектларини қуриш;
- хусусий инвесторлар сарф-харажатларини камайтириш учун бюджетдан капитал қўйилмаларнинг бир қисмини ажратиш;
- саноат корхоналарини қуришда иштирок этиш;
- саноат корхоналарини қуришга имтиёзли кредитлар ажратиш;
- солиқ имтиёзларини жорий этиш;
- давлат маблағлари ҳисобидан янги саноат корхоналари учун кадрлар тайёрлаш;
- иқтисодий жиҳатдан қолоқ минтақаларда саноат корхоналари қурилганлиги учун имтиёзлар, мукофотлар бериш;
- экологик вазиятдан келиб чиққан ҳолда саноат корхоналари қурилишини таъқиқлаш ёки чеклаш ва ҳоказо.

Тадқиқотлар кўрсатишича, турли ривожланган мамлакатларда минтақавий сиёсат соҳасида марказий ва минтақавий ҳокимиятлар ўртасидаги вазифалар тақсимланиш тамойиллари ўзига хос бўлиб, улар минтақалар ривожланишига таъсир кўрсатишнинг макро [монетар, фискал ва савдо сиёсати дастаклари] ҳамда микро [меҳнат ва капиталга бевосита таъсир кўрсатиш] воситаларидан бошқаришнинг муайян даражасида фойдаланишига қараб фарқланади.

Ушбу ҳолатлардан келиб чиқиб, бизнинг фикримизча, республикамизнинг ички хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда Ўзбекистонда минтақавий сиёсат юритишда федерал тизимнинг баъзи жиҳатларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

Биринчидан, минтақавий сиёсат, хусусан, минтақавий саноат сиёсати давлат ва вилоятлар миқёсида юритилиши лозим. Иқтисодий ривожланишнинг ҳозирги босқичида Ўзбекистон учун штатлар ҳуқуқи катта ўринга эга бўлган АҚШ ёки Австралия модели тўлиқ мос келмайди, чунки минтақаларнинг саноат ривожланишидаги тафовутлари юқорида номлари зикр этилган мамлакатларга нисбатан анча катта. Бундай ҳолатда фақат давлат минтақалар ўртасида молиявий маблағларни оқилона тақсимлаши ва шу орқали бутун мамлакат миқёсида иқтисодий ўсишни таъминлаши, қолоқ минтақаларга ёрдам бериши ва ижтимоий тангликни юмшатиши мумкин. Бу эса, саноат ишлаб чиқаришидаги кескин минтақавий тафовутларнинг қисқаришига олиб келади. Мазкур минтақавий саноат сиёсати мамлакатимизнинг бугунги иқтисодий ислоҳотларига ҳам мос келади.

Иккинчидан, барча минтақалар макро воситалар - монетар, молия ва савдо сиёсатидан фойдаланишда тенг ҳуқуққа эга бўлишлари керак. Минтақаларга монетар ва савдо сиёсати соҳасида катта ҳуқуқлар бериш мақсадга мувофиқ эмас, зеро мамлакат миқёсида ягона иқтисодий ҳудуд, ягона бозор шаклланишига салбий таъсир кўрсатади. Айни вақтда фискал сиёсатни амалга оширишда минтақалар ҳуқуқи кенгроқ бўлиши лозим. Негаки, ҳукуматнинг фискал сиёсати минтақавий хусусиятларни тўлиқ ҳисобга олмайди. Бу эса, минтақавий тенгсизликни кучайтиради.

Мамлакатимиз ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий ривожланишнинг келгуси даврга ривожланишни белгилаб берувчи асосий ҳужжат бешта йўналиш бўйича қабул қилинган “Ҳаракатлар стратегияси” бўлди [3].

Саноатни минтақавий жиҳатдан оқилона ташкил этиш бўйича жаҳон тажрибасининг умумлаштирилиши улардан Ўзбекистонда қуйидаги йўналишларда фойдаланиш мақсадга мувофиқ эканлигини кўрсатади:

- ишлаб чиқаришни ташкил этишни яхшилаш, “ноу-хау” ва технологиялар учун фирмаларга грантлар тақдим этиш йўли билан маҳсулотлар рақобатбардошлигини ошириш;
- фирмаларга кейинги фаолиятининг муқобил режаларини ишлаб чиқишга ёрдам бериш;
- қолоқ минтақаларни инфратузилмалар билан таъминлаш, ходимларни ўқитиш ва қайта ўқитиш, ижтимоий муассасалар ташкил этиш;
- кичик бизнес ва тадбиркорликни ривожланишини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш ва рағбатлантириш;
- минтақаларнинг ички хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда эркин иқтисодий зоналар ташкил этишни жадаллаштириш.

Минтақаларнинг иқтисодий ўсишига тўсқинлик қилаётган муаммоларга минтақа ва туманлар, саноатни номутаносиб ривожланганлиги, унинг диверсификация даражаси қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари, инвестициялар жалб қилиш бўйича номутаносибликлар, аҳоли жон бошига кўрсатилган хизматлар, давлат бюджети даромадларни шакллантиришдаги номутаносиб-ликлар, бюджет харажатларини қоплашдаги ўз даромадларини етишмовчи-лиги, экспорт ҳажмининг тақсимланиши, кичик бизнес ва хусусий тадбиркор-ликнинг ривожланишдаги номутаносибликлар ва бошқалар. Шулардан келиб чиққан ҳолда “Ҳаракатлар стратегияси” дастурида минтақаларнинг мувозана-тини иқтисодий ривожлантириш, уларнинг салоҳиятидан самарали фойдала-ниш учун қуйидагилар белгиланган:

- ижтимоий-иқтисодий жадал ривожланиши, халқнинг турмуш даражасини ва даромадларни ошириш учун ҳар бир ҳудуднинг табиий, минерал ва хомашё, саноат, қишлоқ хўжалиги, туризм ва меҳнат салоҳиятидан комплекс ва самарали фойдаланишни таъминлаш;
- ҳудудлар иқтисодиётини модернизация ва диверсификация қилиш миқёсларини кенгайтириш ҳисобига ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш даражасидаги фарқини камайтириш, энг аввало, саноат ва экспорт салоҳиятини ўстириш йўли билан қиёсланган туман ва шаҳарларни жадал ривожлантириш;
- янги саноат ишлаб чиқариш ва сервис марказларини ташкил қилиш ҳисобига шаҳар типидаги кичик шаҳар ва шаҳарчаларни актив ривожлантириш;
- йирик хўжалик бирлашмаларининг маблағларини, инвестицияларни жалб қилиш;
- субвенцион туман ва шаҳарларни иқтисодиётини жадал ривожлантириш ҳисобига маҳаллий бюджетларнинг даромад базасини кенгайтириш;
- саноат ва бошқа ишлаб чиқариш объектларини жойлаштириш учун шарт-шароитлар яратиш, хусусий тадбиркорликни кенг ривожлантириш ҳамда аҳолининг турмуш даражасини яхшилаш мақсадида ҳудудларнинг ишлаб чиқариш, муҳандислик-коммуникация ва ижтимоий инфратузилмасини янада ривожлантириш ва модернизация қилиш[4].

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси 2017 й. 22.12.

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги статситика агентлиги stst.uz
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги фармони. //Халқ сўзи, 2017 й. 08.02. №28 (6722).
4. *Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № январь-февраль, 2018 йил*

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

YUQORI ANIQLIKDAGI SUN'IY YO'LDOSHLI NAVIGATSIYA TIZIMLARI UCHUN SIGNAL ISHLOV BERISH ALGORITMLARI

Sharopov Akramjon Akmaljon o‘g‘li
“TATU” magistranti, (Akramjon)

Isroilov Jamshid Dilshodovich
“TATU” t.f.n phd.

Annotatsiya: *Sun'iy yo'ldoshli navigatsiya tizimlari geolokatsiyadan tortib aloqa va ekologik monitoringgacha bo'lgan keng turdagi qo'llanmalar uchun juda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy tizimlarda yuqori aniqlikdagi ma'lumotlarga bo'lgan talab ortib borayotganligi sababli, navigatsiya signallarini ishlov berish bo'yicha samarali algoritmlar kerak. Ushbu maqola sinxronlash, filtrlash va tuzatish usullariga qaratilgan algoritmlar yordamida aniqlikni oshirish va shovqinni kamaytirishga mo'ljallangan tadqiqotlarga bag'ishlangan. Signalni optimallashtirish nafaqat ma'lumotlar aniqligiga, balki murakkab sharoitlarda ishonchlilikka ham hissa qo'shadi. Ushbu tadqiqotda mavjud usullarni qiyosiy tahlil qilish orqali yuqori aniqlikdagi sun'iy yo'ldoshli navigatsiya uchun samarali yondashuvlar aniqlangan.*

Kalit so'zlar: *signalni ishlov berish; sinxronizatsiya; yuqori aniqlikdagi navigatsiya; shovqinni kamaytirish; Kalman filtri; ko‘p yo‘llilikni kamaytirish; differensial GPS; RTK.*

Kirish. Yuqori aniqlikdagi sun'iy yo'ldoshli navigatsiya tizimlari (*GNSS*) bugungi kunda turli sohalarda muhim ahamiyatga ega. Transport, qishloq xo'jaligi, harbiy amaliyotlar, to'g'ri joylashuvni aniqlash va boshqalar kabi sohalarda keng qo'llanilmoqda. Ular yuqori aniqlik va ishonchlilikni ta'minlash uchun zamonaviy signal ishlov berish algoritmlariga tayanadi. Ushbu maqolada bunday algoritmlar va ularning asosiy bosqichlari batafsil ko'rib chiqiladi. Har bir bosqichning mohiyati, texnologiyaning rivojlanishida yuzaga keladigan muammolarni tushunishga yordam beradi va algoritmlarning har bir qismiga alohida e'tibor qaratiladi.

Yuqori aniqlikdagi sun'iy yo'ldoshli navigatsiya tizimlari uchun signal ishlov berish algoritmlari ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishda muhimdir. Ular real vaqt rejimida joylashuv ma'lumotlarini to'playdi, tahlil qiladi va foydalanuvchilarga taqdim etadi [1-2]. Bu, masalan, transport vositalarining harakatini optimallashtirish va xavfsizlikni oshirishga yordam beradi.


Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz



1-rasm. Yuqori aniqlikdagi sun'iy yo'ldoshli navigatsiya tizimlarida signal ishlov berishning tarmoqli tuzilishi.

Bu tasvir yuqori aniqlikdagi sun'iy yo'ldoshli navigatsiya tizimlari uchun signal ishlov berish algoritmlarini ko'rsatib, undagi tarmoqli struktura turli signallarni va ularning bir-biri bilan aloqasini ifodalaydi, ya'ni har bir tugun (*doira*) alohida signal komponentini yoki yo'ldosh signalini ifodalaydi. Rangli bog'lanishlar esa turli signallarni qabul qilish va ishlov berishdagi murakkab algoritmik jarayonlarni aks ettiradi.

Qorong'u va yorqin rangli tugunlar kuchli va zaif signallarning farqini, shuningdek, signalning zichligi yoki aniqlik darajasini ifodalaydi. Bunday algoritmlar sun'iy yo'ldosh signallarini tahlil qilishda va ularning shovqin yoki boshqa muammolar ta'sirida to'g'ri ishlov berilishini ta'minlashda yordam beradi. Shu tarzda, bu tasvir yuqori aniqlikdagi navigatsiya tizimlaridagi signal ishlov berishning murakkab tarmoqlarini vizualizatsiya qiladi.



2-rasm. Sun'iy yo'ldosh signallarini qabul qilish va ishlov berish algoritmi

Signal qabul qilish. Sun'iy yo'ldoshli navigatsiya tizimlarining asosiy bosqichi signal qabul qilishdir. Ushbu jarayonda sun'iy yo'ldoshlar tomonidan yuborilgan radio to'lqinlari qabul qiluvchi antennalar orqali qabul qilinadi. Qabul qiluvchi uskunalar, odatda, yuqori chastotali va sifatli antennalardan iborat bo'lib, bu ularning signalni aniq va tez qabul qilishini ta'minlaydi. Signal qabul qilish jarayonida signalning kuchi va sifati muhim ahamiyatga ega. Yaxshi signal kuchi, aniqlik va ishonchlilikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, ko'p sonli sun'iy yo'ldoshlar bir vaqtning o'zida bitta qurilmaga signal yuborishi mumkin, bu esa qabul qiluvchi tomonidan kuchli signalni qabul qilish imkoniyatini oshiradi. Har bir qabul qiluvchi qurilma, sun'iy yo'ldoshlar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqada bo'lishi va zaruriy ma'lumotlarni to'plashi kerak. Ushbu jarayon, sun'iy yo'ldoshlar yordamida qulay va ishonchli joylashuv ma'lumotlarini olish imkonini beradi.

Signalni filtrlash. Qabul qilingan signal ko'pincha shovqin va boshqa noaniq signallar bilan aralashadi. Signalni filtrlash jarayoni bu shovqinlarni ajratish va asosiy signalni kuchaytirishga qaratilgan. Analog va raqamli filtrlash usullari qo'llaniladi, masalan, Butterworth yoki Chebyshev filtrlari yordamida shovqinni kamaytirish mumkin. Filtrlar signalning har bir chastota oralig'ida aniqligini oshirishda yordam beradi, bu esa shovqinli muhitda signalning sifatini yaxshilashga imkon beradi. Shuningdek, filtrlar signalning har bir qismida o'zgarishlarni kamaytirishga yordam beradi, bu esa navigatsiya tizimining aniqligini oshirishda muhimdir. Bunday filtrlash jarayoni yuqori tezlikda amalga oshiriladi, shuning uchun muhim ma'lumotlarni vaqtida olish va ulardan foydalanish imkoniyatini beradi. Filtrlar yordamida qabul qilingan signalni yanada aniq va ishonchli qilish, navigatsiya tizimining asosiy maqsadlaridan biridir[3].

Signalni modulyatsiya qilish. Signalni modulyatsiya qilish jarayoni, ma'lumotlarni uzatish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Modulyatsiya orqali signalning ma'lumotlarni o'zgarishlari orqali ifodalash imkoniyati paydo bo'ladi. Bunday holda, PSK (*Phase Shift Keying*) yoki FSK (*Frequency Shift Keying*) kabi modulyatsiya turlari qo'llaniladi [4]. Modulyatsiya, signalni uzatish samaradorligini oshirishga va shovqinli muhitda signalni aniqlik bilan uzatishga imkon beradi. Modulyatsiya jarayonida signalning shakli va chastotasi o'zgarishi orqali ma'lumotlar uzatiladi. Bu, shuningdek, signalning ma'lumot uzatish hajmini va tezligini oshirishga yordam beradi. Modulyatsiya, shuningdek, qo'shimcha xavfsizlik va ma'lumotlarni himoya qilish imkonini beradi. Signalning modulyatsiya qilingan holatda bo'lishi, navigatsiya tizimining uzatish jarayonida shovqin va boshqa xatolarni kamaytirishga yordam beradi, bu esa aniq va ishonchli joylashuv ma'lumotlarini olish imkonini beradi.

Signalni dekodlash. Dekodlash jarayoni modulyatsiyalangan signalni asl ma'lumotlariga qaytaradi. Ushbu bosqichda signalning yuqori aniqlikda dekodlanishi maqsadida mos keluvchi dekoderlar va algoritmlar qo'llaniladi. Dekodlash jarayonida ma'lumotlarni tiklashga qaratilgan xatoliklarni bartaraf etishga yordam beradi. Olingan natijalar, navigatsiya tizimining ishonchliligini oshirishga yordam beradi. Ushbu jarayonda dasturiy ta'minotning murakkab algoritmlari, shovqinlar va noaniqliklarni hisobga olish orqali signalni yanada aniqroq va ishonchliroq dekodlash imkonini beradi. Bunday jarayon ko'p hollarda real vaqt rejimida amalga oshiriladi, bu esa navigatsiya tizimining tezkorligini oshiradi. Signalni dekodlash, navigatsiya tizimining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega va foydalanuvchiga aniq joylashuv ma'lumotlarini taqdim etish imkoniyatini beradi.

Sinov va nazorat. Dekodlangan ma'lumotlarni sinab ko'rish jarayoni, kelib chiqishi aniq bo'lmagan signal va shovqinlardan olingan xatoliklarni aniqlashga yordam beradi. Sinov va nazorat jarayonida qabul qilingan signalni tasdiqlash va ishonchli ma'lumotlarni olish uchun statistik usullar qo'llaniladi. Bu jarayon, shuningdek, signal sifatini nazorat qilish imkonini beradi. Sinov jarayoni, signal ishlov berish tizimining samaradorligini va aniqligini baholashda muhimdir. Olingan natijalarni tahlil qilish orqali xatolar aniqlanadi va zarur bo'lgan tuzatishlar kiritiladi. Ushbu bosqichda olingan natijalar navbatdagi jarayonlarni yanada samarali amalga oshirishga imkon beradi, bu esa navigatsiya

tizimining ishonchliligini oshiradi. Shuningdek, bu jarayon olingan natijalarni baholash va foydalanish uchun zaruriy asos yaratadi.

Fazani o'lchash. Fazani aniqlash bosqichida, sun'iy yo'ldoshdan olingan ma'lumotlar asosida joylashuv koordinatalari aniqlanadi. Signalning vaqtida qabul qilinishi va qabul qiluvchi qurilmalar orasidagi masofa o'lchanadi. Olingan ma'lumotlar, GPS (*Global Positioning System*) va GNSS (*Global Navigation Satellite System*) orqali aniqlanadi [5]. Ushbu jarayonda joylashuv ma'lumotlarini olish uchun turli metodlar va algoritmlar qo'llaniladi. Fazani o'lchash jarayonida, har bir sun'iy yo'ldoshdan olingan ma'lumotlar ko'rib chiqiladi va bu ma'lumotlar asosida qabul qiluvchi qurilmalar orasidagi masofalar hisoblanadi. Bunda, bir nechta sun'iy yo'ldoshlarning signalini qabul qilish orqali aniqlikni oshirish mumkin. Ushbu jarayon, transport vositalarining joylashuvini va harakatini aniqlashda muhimdir. Fazani o'lchash, sun'iy yo'ldoshli navigatsiya tizimlarining asosiy maqsadlaridan biri bo'lib, harakatdagi ob'ektlarning joylashuvini aniq belgilash imkonini beradi.

Haqiqiy vaqt rejimida qayta ishlash. Qayta ishlash jarayoni haqiqiy vaqt rejimida o'tkaziladi. Bu jarayon, real vaqt nazoratini ta'minlaydi va qabul qilingan signal va joylashuv ma'lumotlarini tezda qayta ishlashga imkon beradi. Haqiqiy vaqt rejimida qayta ishlash, transport tizimlarining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Olingan ma'lumotlar, navigatsiya tizimining harakatini yanada tez va samarali boshqarishga imkon beradi. Bu jarayon, shuningdek, qo'shimcha nazorat mexanizmlarini joriy qilish imkonini beradi. Haqiqiy vaqt rejimida o'tkaziladigan analizlar, navigatsiya jarayonini yaxshilashga va transport vositalarining harakatini yanada samarali boshqarishga imkon beradi. Bu jarayon, shuningdek, foydalanuvchiga aniq va tezkor ma'lumotlarni taqdim etish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratadi.

Ma'lumotni tahlil qilish. Qayta ishlangan ma'lumotlar tahlil qilinadi va zarur bo'lgan ma'lumotlar ajratiladi. Ushbu bosqichda joylashuv koordinatalari, tezlik va yo'nalish kabi ma'lumotlar aniqlanadi. Tahlil jarayoni, navigatsiya tizimining samaradorligini va ishonchliligini oshirishga yordam beradi. Ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonida statistik metodlar va algoritmlar qo'llaniladi. Bu jarayon, transport tizimlarining samaradorligini baholashda muhim ahamiyatga ega. Ma'lumotlar tahlili, harakatning tezligini va yo'nalishini aniqlashga yordam beradi, bu esa transport vositalarining harakatini yanada xavfsiz va ishonchli ravishda boshqarishga imkon beradi. Tahlil natijalari, navbatdagi bosqichlarda qabul qilinadigan qarorlarga asos bo'lib xizmat qiladi va harakat strategiyalarini ishlab chiqishda muhimdir.

Xulosa

Yuqori aniqlikdagi sun'iy yo'ldoshli navigatsiya tizimlari uchun signal ishlov berish algoritmlari, navigatsiya tizimlarining samaradorligini va aniqligini ta'minlaydi. Ushbu algoritmlarning har bir bosqichi muhim ahamiyatga ega bo'lib, birgalikda ishlash orqali yuqori aniqlikdagi joylashuv ma'lumotlarini taqdim etadi. Sun'iy yo'ldoshli navigatsiya tizimlari zamonaviy hayotda tobora muhimroq bo'lib bormoqda va ularning rivojlanishi, o'z navbatida, yangi texnologiyalar va ilg'or algoritmlarni yaratishga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda. Signal ishlov berish jarayonidagi har bir bosqichni yanada takomillashtirish, navigatsiya tizimlarining ishonchliligini oshirishga yordam beradi va turli sohalarda foydalanishni kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Khan, M. A. "Satellite Navigation: Principles and Applications." John Wiley & Sons, 2018.
2. Cheng, Y., va Zhang, H. "High Precision GNSS Positioning Algorithms: A Review." Remote Sensing, 2020.

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

3. Abdelkader, M., va Rouabhia, A. "Satellite Navigation Systems: Technologies and Applications." Springer, 2021.
4. Google Scholar - scholar.google.com
5. ResearchGate - www.researchgate.net

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGLARIMIZ RIVOJLANISH MARKAZLARIDA FOYDALANISHLARI YARATILAYOTGAN SHART SHAROITLAR

Tursunova Nargiza Najmiddin qizi
Qibray tumani 2- sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada "klaster" tushunchasi ta'lim-tarbiya sohasidagi innovatsion klasterga taalluqli bo'lib, uning zaruriyati, mexanizmlari, tamoyillari va maktabgacha ta'lim muassasalarida amalga oshirish shakllarini yoritib beradi. Unda ushbu klaster yondashuvi orqali maktabgacha ta'lim muassasalaridagi rivojlanish markazlari qanday tashkil etilishi va muvofiqlashtirilishi tushuntiriladi. Bundan tashqari, maqolada innovatsion pedagogik ta'lim klasterini tushunish, baholash va natijalari muhokama qilinib, uning maktabgacha ta'lim markazlari faoliyatini faollashtirishdagi ahamiyati ta'kidlangan.*

Kalit so'zlar: *"Ilk qadam", rivojlantiruvchi markazlar, faoliyat, klaster, raqobatbardoshlik, pedagogik ta'lim innovatsion klasteri.*

KIRISH

Rivojlangan mamlakatlarda maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim sohasini kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha tizimlararo hamkorlikni yo'lga qo'yish va ijtimoiy buyurtma talablarini qondirishga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Pedagogik ta'limga innovatsion klasterlarni keng joriy etish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yondashuv bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun hamkorlik muhitini yaratish, ularning aqliy, ma'naviy va axloqiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlagan holda ularni shaxs sifatida shakllantirishga yordam berish zarurligini ta'kidlaydi.

O'zbekistonda maktabgacha yoshdagi bolalarda innovatsion fikrlashni rag'batlantirish, ta'lim mazmuni, usullari va vositalarini optimallashtirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy baza yaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va ta'lim to'g'risida"gi qonunida bolalarga ta'limning muqobil shakllarini rivojlantirish uchun zamonaviy innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ularning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash kabi asosiy vazifalar belgilab berilgan. Bundan tashqari, maktabgacha ta'limda pedagogik innovatsion klasterlarni qo'llash orqali bolalarni boshlang'ich ta'limga tayyorlash jarayonini takomillashtirish dolzarb ustuvor vazifalardan biri sifatida e'tirof etilgan.[1, 459- 464]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan keyingi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish borasida muhim qaror va farmonlar ishlab chiqilmoqda. 2017-yil 30-sentabrdagi PF-5198-sonli "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2019-yil 8-maydagi "Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son qarorlari shular jumlasidandir. 2019-yil 13-may va 11-iyundagi

“O‘zbekiston Respublikasining maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha” va boshqa qarorlari bilan maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini faollashtirish, tizimga ilg‘or axborot-pedagogik texnologiyalarni joriy etishga alohida e’tibor qaratilgan.

Mazkur hujjatlar innovatsiyalarni joriy etish, xorijiy tajribani o‘rganish va moslashtirish, zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish orqali maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan. Ularda asosiy e’tibor bolalarning har tomonlama intellektual, ma’naviy-estetik va jismoniy kamolotini ta’minlash, ularning har tomonlama o‘sib-ulg‘ayishini ta’minlash, boshlang‘ich maktab ta’limiga sifatli tayyorlashga qaratilgan.[2]

Taraqqiyotning hozirgi bosqichida har tomonlama barkamol shaxsni voyaga yetkazish, ularga zamonaviy ta’lim-tarbiya berish eng muhim vazifalardandir. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda turli uslub va innovatsiyalardan foydalanish ta’lim natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu vazifalarni hal etishda maktabgacha ta’lim muassasalaridagi faoliyat markazlari (MTT) uchun pedagogik innovatsion klaster konsepsiyasi, uning tarixiy evolyutsiyasi, rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish katta ahamiyatga ega.

MTTda innovatsiyalarni joriy etish oldingi usullarga nisbatan yangicha yondashuvlarni talab qiladi. Ana shunday yangiliklardan biri klaster modeli bo‘lib, hozirda ta’lim sohasida keng qo‘llaniladi. "Klaster" atamasi ingliz tilidan olingan bo'lib, "to'plam", "guruh" yoki "kontsentratsiya" degan ma'noni anglatadi. Dastlab bu atama asosan statistika va informatika fanlarida qo‘llanilgan bo‘lsa, keyinchalik iqtisod va sotsiologiyada o‘z o‘rnini topdi.

Klaster nazariyasini yaratgan Garvard biznes maktabi professori Maykl Porter klasterni raqobatbardoshlikni oshiradigan o'zaro bog'liq tarmoqlar yig'indisi sifatida belgilaydi. O‘zbekistonda G.I. Xizmat ko‘rsatgan fan arbobi Muhamedov o‘z tadqiqotida mamlakat hududlari o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikning strategik va pedagogik imkoniyatlarini o‘rganib chiqdi.[3, 537-547]

Ta’lim klasteri O‘zbekiston milliy pedagogikasida innovatsion yondashuv sifatida paydo bo‘ldi. U nafaqat ta'limning turli turlarini birlashtiradi, balki ta'lim, fan va ishlab chiqarishni ham bog'laydi. Ushbu yondashuv ta'limni boshqarish, vositalar va formatlar bilan bog'liq bo'lgan sohalarni ham qamrab oladi. Klaster usulida asosiy e’tibor o‘qitish, o‘quv materiallarini yaratish, pedagoglarning ilmiy salohiyatini oshirish, ta’limda uzluksizlikni ta’minlashga qaratilgan. Bu esa ta’lim tizimi oldida turgan vazifalarning yanada kengroq uslubiy ko‘lamga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida tashkil etilgan rivojlanish markazlari bolalarning o‘sib-ulg‘ayishida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Maktabgacha ta'limning asosiy maqsadi bolalarni rasmiy maktabga tayyorlashdir. Maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalar muhim shaxsiy fazilatlarni rivojlantiradilar. Bundan tashqari, ular ijtimoiy hayotga qo'shilishga va unda o'z o'rnini topishga yordam beradigan ijtimoiy va kognitiv kompetentsiyalarni shakllantiradilar.[4, 488-494]

Oliy ta’lim muassasalarining maktabgacha ta’lim pedagogikasi yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv dasturlariga “Markazlar faoliyati va metodikasi”, “Rivojlanish markazlarida o‘qitish” kabi fanlar kiritilgan. Bu fanlar bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy va xalqaro miqyosda raqobatbardosh innovatsion bilimlar bilan qurollantiradi, ularning kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish imkonini beradi.

Klasterni hamkorlikka asoslangan tizim sifatida tavsiflash mumkin, ammo u oddiy tizimdan farq qiladi. Bu noyob, maxsus tizim bo'lib, unda elementlarni qo'shish uning ish faoliyatini yaxshilaydi, lekin ularni olib tashlash halokatli oqibatlarga olib kelmaydi.

Tadqiqotlar asosida klaster va tizim o'rtasidagi farqlar quyidagicha umumlashtiriladi:

Tizim elementlari muayyan vazifalarni bajaradi, lekin ahamiyati jihatidan farq qiladi, klaster elementlari esa umumiy ahamiyatga ega teng qismlardan iborat.

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

Tizimda bitta elementning ishdan chiqishi butun tizimning noto'g'ri ishlashiga yoki to'xtab qolishiga olib kelishi mumkin, klasterda esa bitta elementning ishdan chiqishi samaradorlikni pasaytirishi mumkin, ammo qolgan elementlarning ishini to'xtatmaydi.

Tizim mexanik ulanishlar orqali tuzilishi mumkin, klaster esa ongli, tabiiy va maqsadli ulanishlarga asoslanadi.

Tizim o'z elementlarining ishlashi uchun har doim ham shaxsiy manfaat talab etmasligi mumkin, klasterda esa shaxsiy manfaatlarga ega bo'lmagan sub'ektlar ishlamaydi.

Tizim yagona maqsadga ega bo'lib, barcha elementlar ushbu maqsadga bo'ysunadi, klaster esa har bir element uchun umumiy maqsad va individual maqsadlar bilan ishlaydi, bunda ikkala turdagi maqsadlar bir xil ahamiyatga ega.

Tizim alohida qismlardan tashkil topgan butunlik bo'lsa, klaster o'zaro bog'langan, individual yaxlitliklardan tashkil topgan butunlikdir.[5, 19-20]

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, klaster yondashuvi an’anaviy tizimdan farqli o‘laroq, yanada moslashuvchan va innovatsion bo‘lib, uni ta’lim jarayonida samarali qo‘llash uchun ayniqsa qulaydir. Bolalarni rivojlantiruvchi markazlarda faoliyat yuritish ularning maktab ta'limiga tayyorlanishida muhim ahamiyatga ega. Bu markazlar bolalarning har tomonlama yetuk, aqliy va jismoniy barkamol bo‘lib ulg‘ayishlariga katta hissa qo‘shadi, ularda milliy qadriyatlar va urf-odatlarga sodiqlikni shakllantiradi hamda ularning kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aliqulova M.Sh. Shaxsga yo’naltirilgan ta’lim – bola imkoniyatlari poydevoridir. Oriental renaissance: innovate, educational, natural and social sciences 1/9 2021, 459- 464-bet.
2. G’.I.Muxamedov Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri: ehtiyoj, zarurat, natija Xalq so’zi 15.02.2019.
3. Xodjamqulov U.N. Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri (O’zbekiston ta’lim tizimi misolida) Academic research in educational sciences 1/4 2020 537-547-bet.
4. Botirova Sh.I. Pedagogik ta‟lim innovatsion klasterivyangi ustuvor yo’nalish sifatida Academic research in educational sciences 1/3 2020 488-494-bet.
5. U.Xodjamqulov “Pedagogik ta’lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari” DSc ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya Chirchiq 2020 19-20-bet.

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

OLIY TA‘LIM MUASSALARIDA “ZOOLOGIYA” FANINI O’TISHDA MEDIATEXNOLOGIYADAN FOYDALANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Qoyilova Mexriniso Djurayevna
Buxoro davlat pedagogika instituti,
Biologiya kafedrasi p.f.f.d(PhD), dotsenti

Kalandarova Dilnoza Samandarovna
Buxoro davlat pedagogika instituti,
Biologiya kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida “Zoologiya” fanini o‘qitishda mediatexnologiyalardan foydalanishning nazariy va metodologik asoslari tahlil qilinadi. Mediatexnologiyalar — axborotni yaratish, saqlash, uzatish va qabul qilish jarayonlarini osonlashtiradigan vositalar bo'lib, ta'lim jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Maqola kognitiv nazariya va ijtimoiy konstruktivizm kabi nazariy asoslarni ko‘rib chiqadi hamda pedagogik dizayn, o‘quv jarayonini baholash va integratsiya kabi metodologik yondoshuvlarni taqdim etadi. Ta'limda mediatexnologiyalar masofaviy ta'lim, interaktiv o‘qitish va multimedia ta'limi kabi yo‘nalishlarda qo‘llanilishi mumkin. Mediatexnologiyalarning samarali qo‘llanishi ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. Maqola kelajakdagi istiqbollarni belgilaydi va o‘qituvchilar hamda ta'lim muassasalari uchun mediatexnologiyalarni integratsiya qilishning muhimligini ta'kidlaydi.*

Kalit so'zlar: *Mediatexnologiyalar, ta'lim jarayoni, kognitiv nazariya, ijtimoiy konstruktivizm, pedagogik dizayn, o‘quv jarayonini baholash, integratsiya, masofaviy ta'lim, interaktiv o‘qitish, multimedia ta'limi, samarali qo‘llanish, innovatsion yondashuv, ta'lim samaradorligi, o‘qituvchilar uchun qo‘llanma, ta'lim muassasalari.*

Kirish

Zamonaviy ta'lim jarayonida texnologiyalarning o‘rni katta. Xususan, mediatexnologiyalar ta'limni samarali va qiziqarli qilishda muhim ahamiyatga ega. Bu maqolada oliy ta'lim muassasalarida “Zoologiya” fanini o‘qitishda mediatexnologiyalardan foydalanishning nazariy va metodologik asoslari ko‘rib chiqiladi. Mediatexnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini yanada samarali, qiziqarli va interaktiv qilish mumkin. Ushbu maqolada mediatexnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodologik asoslarini ko'rib chiqamiz.

➢ Mediatexnologiyalarning ta’rifi va ahamiyati

Mediatexnologiyalar - bu axborotni yaratish, saqlash, uzatish va qabul qilish jarayonlarini osonlashtiradigan vositalar majmuasi bo‘lib, ular ta'lim jarayonida quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

Qulaylik va Moslashuvchanlik: Mediatexnologiyalar talabalarga istalgan joydan va istalgan vaqtda

Interaktivlik: Talabalarning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishiga yordam beradi.

Turli Formatlar: Ta'lim materiallarini matn, audio, video va interaktiv ilovalar shaklida taqdim etish imkonini beradi.


- **Metodologik Asoslar**

Mediatexnologiyalardan foydalanishda quyidagi metodologik asoslar muhim ahamiyatga ega:

- **Pedagogik dizayn:** Ta'lim jarayonini rejalashtirish, mediatexnologiyalarni qo'llash uchun zaruriy strategiyalarni ishlab chiqish.
- **O'quv jarayonini baholash:** Mediatexnologiyalar yordamida o'quvchilarning muvaffaqiyatini va ta'lim jarayonining samaradorligini baholash usullari.
- **Integratsiya:** Mediatexnologiyalarni an'anaviy pedagogik usullar bilan birlashtirish, bu bilan ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish.
- **Mediatexnologiyalarni ta'limda foydalanish**


Mediatexnologiyalar ta'lim jarayonida quyidagi yo'nalishlarda qo'llanilishi mumkin:

- **Masofaviy ta'lim:** O'z-o'zini o'qitish va masofaviy kurslar orqali ta'lim berish.
- **Interaktiv o'qitish:** O'quvchilarga interaktiv materiallar va mashg'ulotlar yordamida faol ishtirok etish imkonini berish.
- **Multimedia ta'lim:** Turli xil formatdagi axborotni birlashtirish va taqdim etish orqali o'quvchilarning qiziqishini oshirish.
- **Nazariy asoslar**



Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

➢ **Metodologik asoslar**



➢ **Mediatexnologiyalarning amaliy qo‘llanilishi**

“Zoologiya” fanini o‘qitishda mediatexnologiyalardan foydalanish quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

Virtual Sinflar: Onlayn platformalar orqali darslarni o‘tkazish, masofaviy ta'limni ta'minlash.

Interaktiv Taqdimotlar: Vizual va interaktiv taqdimotlar yordamida zoologik bilimlarni tushuntirish.

Simulyatsiyalar va O‘yinlar: Turli simulyatsiya va ta'limiy o‘yinlar orqali talabalarning bilimini mustahkamlash.

Onlayn Testlar: Talabalar bilimini tezkor tekshirish uchun onlayn testlardan foydalanish.

➢ **Mediatexnologiyalarning nazariy asoslari quyidagi prinsiplar va konseptlarga tayanadi:**

➢ **Kognitiv nazariya:** O'quvchilarning bilimlarni qanday qabul qilishlari va qanday ishlatishlari haqida tushuncha beradi. Bu nazariya mediatexnologiyalarning o'quv jarayonidagi o'rnini tushunishga yordam beradi, chunki ular o'quvchilarni ma'lumotlarni ko'proq anglash va samarali ishlatish imkoniyatini yaratadi.

➢ **Ijtimoiy konstruktivizm:** Ta'lim jarayonida o'quvchilarning bir-biri bilan o'zaro aloqalari va tajribalaridan qanday foydalanishlari haqida fikr yuritadi. Mediatexnologiyalar ijtimoiy interaktsiyalarni kuchaytiradi va o'quvchilarning o'zaro tajriba almashishiga yordam beradi.

Kelajakdagi Istiqbollar

Kelajakda mediatexnologiyalardan foydalanishning yanada kengayishi kutilyapti. Zamonaviy texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish imkoniyatlari yaratilmoqda. Ta'lim muassasalari va o‘qituvchilar mediatexnologiyalarni ta'lim jarayoniga

integratsiya qilish orqali talabalarning bilimini oshirish va o‘quv jarayonini yaxshilashga hissa qo‘shishlari mumkin.

Xulosa

Mediatexnologiyalardan foydalanish ta'lim jarayonini zamonaviy, qiziqarli va samarali qiladi. Ular yordamida talabalar mustaqil ravishda bilim olish, interaktiv darslarda ishtirok etish va o‘z bilimlarini chuqurroq o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Mediatexnologiyalar nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro muloqotni ham yaxshilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Chowdhary K.R. *Fundamentals of Artificial Intelligence.* Springer; Delhi, India: 2020. [Google Scholar]
2. Xu Y., Liu X., Cao X., Huang C., Liu E., Qian S., Liu X., Wu Y., Dong F., Qiu C.W., et al. Artificial Intelligence: A Powerful Paradigm for Scientific Research. *Innovation.* 2021;2:100179. doi: 10.1016/J.XINN.2021.100179. [PMC free article] [PubMed] [CrossRef] [Google Scholar]
3. Turing A.M.I. —Computing Machinery and Intelligence. *Mind.* 1950;59:433460.doi: 10.1093/MIND/LIX.236.433. [CrossRef] [Google Scholar]
4. Buchanan B.G. A (Very) Brief History of Artificial Intelligence. *AI Mag.* 2005;26:53. doi: 10.1609/AIMAG.V26I4.1848. [CrossRef] [Google Scholar]
5. Akman V., Blackburn P. Editorial: Alan Turing and Artificial Intelligence. *J. Logic Lang. Inf.* 2000;9:391–395. doi: 10.1023/A:1008389623883. [CrossRef] [Google Scholar]
6. Collins C., Dennehy D., Conboy K., Mikalef P. Artificial Intelligence in Information Systems Research: A Systematic Literature Review and Research Agenda. *Int. J. Inf. Manag.* 2021;60:102383. doi: 10.1016/J.IJINFOMGT.2021.102383. [CrossRef] [Google Scholar]
7. D. Kalandarova, & D. Karimov (2022). BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA MULTIMEDIADAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI. Science and innovation, 1 (B8), 2276-2279. doi:10.5281/zenodo.7445311
8. Husenov Behruz Qobil o'g'li, Ibodullayev Muzaffar Ubaydullo o'g'li, Karimov Diyorbek Toshtemir og'li, & Boqiyeva Tojibar Rustam qizi. (2022). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDIDA UCHROVCHI BALIQXO'R QUSHLAR. *Ta'lim sohasidagi kashfiyotlar va gumanitar fanlar bo'yicha xalqaro konferentsiya materiallari* , *1* (2), 69–76. https://econferenceseries.com/index.php/icedh/article/view/
9. Husenov, B., Ibodullayev, M., Karimov, D., & Boqiyeva, T. (2022). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDIDA UCHROVCHI BALIQXO 'R QUSHLAR. *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* , *2* (2).
10. Husenov, B., Jalilova, C., & Jamolova, N. (2022). Protoplastning kimyoviy tarkibi va fizikaviy xususiyatlari. *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali*, *2*(2).
11. D. Kalandarova, & D. Karimov (2022). BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA MULTIMEDIADAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI. Science and innovation, 1 (B8), 2276-2279. doi: 10.5281/zenodo.7445311
12. Kalandarova Dilnoza Samandarovna, & Karimov Diyorbek Toshtemir o’g’li. (2024). AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING BIOLOGIYA FANLARIGA TA’SIRI. *TECHNICAL SCIENCE*

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

RESEARCH IN UZBEKISTAN, *2*(2), 243–249. Retrieved from https://universalpublishings.com/index.php/tsru/article/view/4565

13. Samandarovna, K. D., & Toshtemir o‘g‘li, K. D. (2024). AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING BIOLOGIYA FANLARIGA TA'SIRI. *O'ZBEKISTONDA TEXNIKA FAN TADQIQOTLARI* , *2* (2), 243-249.
14. Каландарова Дилноза Самандаровна Преподаватель Зарипова Зайнаб Нарзулло кизи Студентка Каримов Диёрбек Тоштемир угли Студент. (2024). МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ БИОЛОГИИ ИХ ОСОБЕННОСТИ И УСЛОВИЯ ПРИМЕНЕНИЯ ПРАКТИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ. Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.10804291

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI PEDAGOG HODIMLARINI RIVOJLANTIRISH MARKAZLARIDA OLIB BORILADIGAN TA’LIM TARBIYA FAOLIYATI

Sodikova Odinaxon Abdug’apporovna
Andijon davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagog hodimlarini rivojlantirish markazlarida olib boriladigan ta’lim tarbiya faoliyati to’g’risida ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim tarbiya, pedagogic jarayon, markazlar faoliyati, kreativlik, mavzuli rejalashtirish, ijtimoiy hissiy rivojlanish, ta’limiy materiallar.*

KIRISH

Maktabgacha ta`lim tashkilotlaridagi olib borilayotgan ta’lim-tarbiya ishlarining barchasi bolalarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida shaklantirishga yo‘naltirilgan. Maktabgacha ta’lim sohasida faoliyat olib boruvchi har bir pedagog tarbiyachi bolalarni qadr-qimmatini hurmat qilish, ularda mehnatsevarlik, vatanga muhabbat, odamlarga yaxshilik qilish va mehr-muruvvat tuyg‘usini uyg’otish vazifasini izchil olib borishlari kerak.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tarbiyalanuvchilarga aqliy axloqiy ta’lim-tarbiya berishga mas’ul bo‘lgan tarbiyachilarning o‘zlari ma’naviy-axloqiy jihatdan barkamol bo‘lishlari zarur. Tarbiyachilik sharafli, lekin juda murakkab kasbdir. Shunday ekan malakali tarbiyachi bo‘lish uchun pedagogikadagi nazariy bilimlarni to’liq o’zlashtirgan bo’lishlari kerak Bolalar bilan amalga oshiriladigan barcha faoliyat turlarida ularning yosh va individual xususiyatlarini e’tiborga olish zarurdir. Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi amalga oshiriladigan amaliy pedagogik jarayon esa juda xilma xil va murakkabdir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga ta’lim tarbiya berishda asosan beshta rivojlantiruvchi markazlar orqali olib boriladi .

“Ilk qadam ” dasturi va Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan davlat talablari asosida maktabgacha ta’lim tashkilotining turli yosh guruhlarida quyidagi markazlarda ta’lim tarbiya jarayoni olib boriladi:

1.Til va nutq

2.Ilm-fan va tabiat

3.Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika

4.San’at

5.Syujet-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

Maktabgacha ta’lim tashkiloti har bir tarbiyachisida guruh yoshiga mos bo’lgan “Maktabgacha talim tashkilotlarida ta’lim jarayonini mavzuli rejalashtirish qo’llanmasi “ bo’lishi shart. “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim jarayonini mavzuli rejalashtirish” metodik qo‘llanmalari O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari hamda “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi asosida yaratilgan. “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim jarayonini mavzuli rejalashtirish” metodik qo‘llanmalari Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan har bir yosh guruh uchun ishlab chiqilgan va barcha maktabgacha ta’lim tashkilotlari ta’minlangan. “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim jarayonini mavzuli rejalashtirish” metodik qo‘llanmasi Ilmiy metodik kengashning 2018yil 28 sentyabrida o’tkazilgan 2-yig’ilish bayonnomasi qarori bilan tasdiqlangan va nashrga tavsiya etilgan.

“Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim jarayonini mavzuli rejalashtirish” metodik qo‘llanmalarida bolalar bilan tashkil etiladigan rivojlanish markazlaridagi erkin faoliyat jarayonlari ishlanmalari bayon qilingan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining barcha guruhlari uchun mo‘ljallangan ta’limiy-tarbiyaviy faoliyatni mavzuli rejalashtirish tarbiyachilarga yordam sifatida ishlab chiqildi.

Barcha guruhlardagi ta’limiy-tarbiyaviy jarayon “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturida tavsiya etilgan mavzular asosida hududiy, milliy, madaniy xususiyatlar va bu jarayonda maktabgacha ta’lim tashkilotining imkoniyati va o‘ziga xos tomonlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Bir hafta davomidagi mashg‘ulotlarda bitta mavzu o‘tiladi va o‘zlashtiriladi. Mavzu umumiy guruh va rivojlanish markazlarida olib boriladigan faoliyatlarda o‘z aksini topadi.

Ta’lim faoliyati mazmunini mavzuli rejalashtirish quyidagi ta’lim sohalarini o‘z ichiga oladi:

- jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish
- nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalar
- bilish jarayonining rivojlanishi
- ijodiy rivojlanish.

Ushbu ta’lim jarayonini mavzuli rejalashtirish asosi bolalar faoliyatining barcha sohalarini maktabgacha ta’lim mazmunining ichiga to‘liq kiritilishini ta’minlaydi.

Turli yosh guruhlarida o‘zaro bog‘liq o‘xshash mavzularning kiritilishi tarbiyalanuvchilarning individual imkoniyatlariga muvofiq uyg‘un rivojlanish va butun maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishda o‘quv maqsadlari birligini va uzluksizligini ta’minlash orqali ta’limiy maqsadga erishilishiga olib keladi.

Mavzuli rejalashtirish optimal va moslashuvchan bo‘lishi lozim. Boshqacha aytganda, ob-havo o‘zgarishi va bolaning qiziquvchanligini hisobga olgan holda rejalashtirilayotgan faoliyat boshqasiga almashtirilishi yoki faollik vaqti biroz ko‘proq yoxud kamroq vaqtga mo‘ljallanishi mumkin. Masalan, agar tarbiyachi bahorgi gullagan bog‘ga borishni rejalashtirgan bo‘lsa-yu, ob-havo yomg‘irli bo‘lsa, bu tadbirni xonada o‘tkazishning imkoni bo‘lgan boshqa tadbirga almashtirish mumkin.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlar ishi davomida tarbiyachi bolar ishini kuzatadi, tavsiya etilgan ko’gazmali qurollarning bolalar uchun qanchalik qiziqarli, tushunarli va osonligi hamda xavfsizligiga e’tibor qaratadi. Agar kerak bo‘lsa, tarbiyachi ta’limiy materiallarni to‘ldiradi yoki o‘zgartiradi. Tarbiyachi markazdagi ishlarni diqqat bilan tahlil qiladi va guruhning barcha bolalari besh kun davomida har bir markazda bo‘lishini ta’minlaydi. Bundan tashqari kimga bajarish oson, kimga qiyin bo‘lganini kuzatadi. Kuzatuv natijalari asosida tarbiyachi bola va uning ota-

onalari bilan yakka tartibda ishlashni rejalashtiradi.Har hafta oxirida tarbiyachi bolalar faoliyatini tahlil qiladi, bolalar nimalarni bilib olganini, nimani bilishni hoxlashlarini o‘rganadi, xulosalaydi. Shu bilan birga materiallar qay darajada qiziqarli va savodli tayyorlanganligi, qo‘yilgan maqsadga erishildimi yoki yo‘qmi chuqur tahlil etiladi. Shundan so‘ng keyingi haftaga tayyorgalik ko‘riladi.

Shunday qilib, rivojlanish markazlarida to‘g‘ri tashkil etilgan ish har bir bolaga o‘zi yoqtirgan faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lishga, o‘z kuchi va qobiliyatini sinab ko‘rishga, kattalar va tengdoshlari bilan birgalikda faoliyat yuritishga, ularning his-tuyg‘ulari va xatti-harakatlarini tushunish va baholashga imkon beradi, aynan shular rivojlantiruvchi ta’lim negizini tashkil etadi.

Yuqorida aytib o’tilgan pedagogik jarayonni qiziqarli, samarali, guruh yoshiga mos tashkil qilish tarbiyachi pedagoglarni kreativligiga hamda tashabuskorligiga bog’liqdir.

Pedagog shaxsiga qo’yiladigan talab – eng avvalo o’z ustida izlanishlar olib borishidir. Shunday ekan, maktabgacha ta’lim tizimida eng muhim ehtiyoj maktabgacha ta’lim tashkiloti mutaxassislarining kasbiy yetukligi bilan birga kreativ kompetentligi hamdir.

Shu o’rinda bir savol tug’iladi, hozirgi kundagi murabbiy tarbiyachi pedagogik mahoratga ega bo‘lishi uchun qanday talablarga javob berishi lozim. Tarbiyachining shaxsiy xislatlariga ularning bolalar jamoasidagi vazifalari, ularning ish faoliyatidagi fidoyiligi, bolasevarligi, bolaning istiqboliga qiziqishlari bilan aniqlanadi. Umuman olganda, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yurituvchi tarbiyachi pedagoglar quyidagi psixo-fizologik xususiyatlarga ham ega bo‘lishi kerak:

➢ mustahkam sog‘liq, sog‘lom fikrlilik, jismoniy baquvvatlilik, irodalilik, chidamlilik, ishchanlik, g‘ayratlilik, bayroqdor bo‘lishga ishtiyoqlilik bo‘lishi kerak;

➢ ular konstruktiv, analitik va ijodiy fikrlashlarga ham qodir bo‘lishlari kerak;

➢ nutq madaniyati, muomala madaniyati hamda kommunikativlik.

Xullas tarbiyachi pedagoglar o’zlarining kasbiy mahoratiga qo’yilgan talablarga amal qilsa, birinchidan, bolalar bilan ishlashda ularning tarbiyasi va rivojlanishiga qayg‘uradi, hamda ularga ishonish orqali bolalarning faollik va ijodiy qirralarini namoyon qila oladi. Bunda bolalarni tushuna olish qobiliyati ularning pedagogik mahoratiga o‘ta muhim sifatli ko‘rsatkich sifatida namoyon bo‘ladi. Ikkinchidan, ular tashkilotchilik faoliyati orqali bolalarda mashg‘ulotga qiziqishni, jamoaviy ishlarni tashkil etishda bolalarga ijobiy-jamoaviy ta’sir etishni, ularda havaskorlik va tashabbuskorlik hamda javobgarlik hislarini shakllantira oladi. Bunday holatda ularning o‘zidagi bor kuchni boshqalarga o‘tkaza olishi va o‘z bilim, ko‘nikma, malakalarini to‘liq ishga solib bolalarga ta’sir o‘tkazishi o‘ta muhim sanaladi. Ularning bolalar jamoasida ishlashiga bo‘lgan moyilligi, qiziqishi, layoqati va fidoyiligi tufayligina bolalar jamoasining ma’naviy jihatdan bilimliligi ta’minlanadi, bolalardagi ijodiy faoliyat va tashabbuskorlikka ijobiy turtki bo‘ladi.Uchinchidan, tarbiyachi pedagoglarning bolalar bilan ishlashdagi kommunikativligi va bolalarga bo‘lgan samimiyligi hamda muloyimligi bolalardagi barcha bilan muloqot qila olishligini, bolalarning tezda o‘z o‘rtoqlari bilan til topisha olishligini, erkin muloqot qila olishligini, sezgirlikni, mehribonlikni, o‘zaro hamkor bo‘lishlikni va shu kabilarni shakllantirishga samarali ma’naviy asos bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni qayd etish joizki, mamlakatimizda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar bevosita barkamol avlodni har tomonlama tarbiyalab voyaga yetkazishga qaratilgan. Komil inson va yetuk malakali mutaxassis maxsus tashkil etilgan pedagogik faoliyat jarayonida shakllanar ekan, ushbu jarayonda pedagoglar dars mashg‘ulotlarini shunday tashkil etishlari kerakki, bo‘lajak

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

kadrlar kuzatuvchanlik, ijodkorlik, ilg‘or pedagogik tajribalarni mustaqil o‘zlashtirish orqali o‘z bilimlarini yanada oshira olishlari kerak.

Adabiyotlar

1. SH.Qodirova, Maktabgacha pedagogika “darslik.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF -60-son “2022 — 2026-YILLARGA MO‘LJALLANGAN YANGI O‘ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI TO‘G‘RISIDA”
3. Turdiyev N.Sh., Asadov Y.M., Akbarova S.N., Temirov D.Sh. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari. –T., 2015. 10-17-betlar.
4. Rasulov R., Mo‘ydinov Q. Nutq madanyati va madanyati san’ati. O‘quv qo‘llanma.–T., 2010.

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

SO'Z O'ZLASHUVINING MADANIY XUSUSIYATLARI

Qo'ziyev Umidjon Yandashaliyevich
Namangan davlat universiteti dotsenti, PhD

Annotatsiya: *Mazkur maqolada so'z o'zlashtirish jarayonida ehtiyoj va prestij omillarining o'rni tahlil qilinadi. So'z o'zlashtirish jarayonini harakatlantiruvchi asosiy omillar sifatida yangi tushunchalarning jamiyatga kirishi va milliy tilga singishida semantik va shakliy muqobillarning yo'qligi, asimmetriya hodisasi, taqlid va psixologik omillar hamda tarjima adabiyotlar ta'siri keltiriladi. Jumladan, til o'zlashmalarining maxsuslashtirish hamda maqomni ko'tarishga intilish jarayonida qo'llanishi, terminologiya va jargonni milliy tilga integratsiyalashgan holda izohlash borasida turli lingvistik nazariyalar o'rtasidagi bog'liqlik muhokama etiladi. Milliy mentalitetning so'z o'zlashtirish jarayoniga ta'siri va til o'zgarishlari borasida turli psixolinguistik va ijtimoiy tamoyillar asosida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga tayaniladi. Ushbu maqola so'z o'zlashmasining o'ziga xos jihatlarini va uning milliy tilga integratsiyalashuvdagi jarayonlarini o'rganishni maqsad etilgan.*

Kalit so'zlar: *So'z o'zlashtirish, ehtiyoj, prestij, semantik moslik, asimmetriya hodisasi, tarjima adabiyotlar, milliy mentalitet, lingvistik integratsiya, terminologiya, psixolinguistika.*

So'z o'zlashtirishda asosan ikkita omil mavjudligi aytiladi: ehtiyoj va prestij (yorqinlikka intilish). Biroq jamiyatning boshqa qoidalari ham kichikroq bo'lsa-da, sabab sifatida ishtirok etadi.

So'z o'zlashtirish va uning milliy tilga singishi quyidagi ehtiyojlar natijasida amalga oshadi:

1.Yangi tushunchaning ayni shu jamiyat bag'rida yuzaga kelmaganligi. Odatda tushuncha biror jiddiy ijtimoiy hodisa bilan birga kirib keladi. Jumladan, diniy terminologiyaga oid o'zlashmalar asosan arabcha, qisman fors-tojikcha, ilmiy-texnik terminlar asosan Yevropa tillaridan kirib kelgan. Oqim katta bo'lgani uchun muqobil topish uchun tabiiy sharoit yetishmagan. Nizomiddin Mahmudovning bu mavzudagi ko'plab maqolalari fikrimiz dalilidir.

2. Yangi so'zga tilda semantik va shaklan muqobil yo'qligi. Ko'pincha yangi tushunchani ifodalash uchun chet so'zga semantik jihatdan muvofiq so'z bo'lmasa, murakkab birliklarni qo'llashga to'g'ri keladi. Bu lingvokulturologiyada lakuna deb ham ataladi. Nutqdagi tejamkorlik tamoyili tushunchani bir so'z bilan atashni taqozo qiladi. Arab tilidan kirgan bale, fors-tojik tilidan kirgan ore so'zlari o'zbek tilidagi ha so'ziga sinonim bo'ladi, biroq ularning o'ziga xos boshqa semantik jihati mavjud. Arab tilidagi bale o'zi sinonimi na'amdan farq qiladi, ya'ni unda inkorni inkor qilib tasdiqlash funksiyasi mavjud. Masalan, O'shanda men senga eslatmaganmidim? – Bale (Eslatmagan emassan, ha, eslatgansan). Kesimi inkor shaklda bo'lgan va tasdiqni talab qiladigan ritorik so'roq gaplarga ha (o'zbek va fors-tojik tillarida), na'am (arab tilida) so'zlari bilan javob berib bo'lmaydi. Bale hamda ore so'zlari aynan shu vazifa uchun xoslangan shakllar bo'lib, o'zbek tiliga diniy matnlar orqali kirib kelgan.

3. Asimmetriya hodisasi. Sharqda mantiq fanida tazyif kategoriyasi mavjud bo'lib, unga ko'ra bir tushunchaning bo'lishi o'z-o'zidan unga bog'liq bo'lgan ikkinchi narsaning borligini bildiradi: Xoliq (yaratuvchi) – maxluq (yaratilmish), Ikki – Bir. Shu kabi turkiy tillarda shaxs jinsini bildiruvchi

alohida so‘zlarning mavjudligi (ayol, moya, bo‘rchin) boshqa tillardan jinsni bildiruvchi qo‘shimchali so‘zlarning kirishiga to‘sqinlik qila olmagan, o‘zbek tilida o‘qituvchi so‘zi semantikasida faqat «jinsi erkak» semasi uning «jinsi ayol» bo‘lgan tushunchani ifodalashiga yo‘l qo‘ymaydi. Natijada tilga muallima, murabbiya, shuningdek, muallim, murabbiy kirib keladi.

4. Taqlid, ibrat olish va boshqa psixologik omillar. Muayyan atoqli shaxsning jamoat oldidagi nutqi, albatta, uning qo‘l ostidagi xodimlar yoki suhbatdoshlarga ta’sir qiladi. L.Milroy va V.Labov fikrlariga ko‘ra, tilning barcha egalari ijtimoiy tarmoqlarga turli jihatlar bilan bog‘liq bo‘ladi, ularning ichidan ijtimoiy tarmoqda statusi baland (muxlislari ko‘p) vakillarning tilni o‘zgartirishga ta’siri kuchliroq bo‘ladi. J.Hindl esa o‘rta tabaqaga mansub, biroq jamoada ijtimoiy aloqalari ko‘p bo‘lgan ayollarning tilni o‘zgartirishda o‘rni sezilarli ekanligini yozadi .

5. Tarjima adabiyotlar. Chet tilidagi ilmiy va badiiy manbalar bilan ishlayotgan mutaxassislar nutqida chet tilidagi so‘z va terminlarni ko‘p qo‘llash holati kuzatiladi. Hozirgi kunda turk tilidan tarjima qilinayotgan badiiy adabiyotlar tillardagi yaqinlik tufayli aslida o‘zbek tilidagi lug‘aviy birlik va qoliplarni olib kirmoqda, bu ham lingvistik tadqiqotlar uchun alohida mavzu bo‘ladi.

6. Terminologiya yoki jargonning kelib chiqish manbasiga ko‘ra bir xil bo‘lishiga intilish. Chunonchi, geografiya – tabiatshunoslik. Geografik landshaft – birikmasida o‘z qatlamdagi so‘zning vazifasi torayganligi ko‘rinadi.

7.Atalayotgan narsaning maqomini ko‘tarishga intilish natijasida muayyan davrlarda chet tilidagi so‘zlarni qo‘llashga qiziqish kuchayadi : zal – xoll, namoyish – prezentatsiya, boshqaruvchi – menejer. Mustaqillikning dastlabki yillarida o‘zbek tiliga kirib kelgan biznesmen so‘zi statusni bildiruvchi so‘z sifatida faol qo‘llangan, so‘zlashuv nutqida ham qo‘llanadi, biroq vaqtlar o‘tishi bilan tabiiy jarayon sifatida unga ikkita muqobil variant taklif qilindi: bizneschi , ishbilarmon.

Qabul qilinishida alohida status sifatida qabul qilingan bo‘lsa-da, keyinchalik o‘z o‘rnini ishbilarmon so‘ziga bo‘shatib berdi. Ishbilarmon rasmiy uslubga xos termin sifatida faol qo‘llana boshladi: O‘zbekiston va Qatar Savdo-sanoat palatalari (SSP) o‘rtasida anglashuv memorandumi va o‘zbek-qatar Ishbilarmonlar kengashini tuzish bitimi imzolandi. (sputnik.uz)

Yangi ijtimoiy muhit yangi nomlar va konseptlarni talab qiladi. Ko‘pgina yangi islohotlar albatta oldingi yutuqlar ustiga quriladi, biroq bu yangi tushuncha ekanligini ko‘rsatish uchun alohida so‘zlardan foydalaniladi. Mazkur vazifa uchun odatda o‘zlashma so‘zlar saylanadi. Zamonaviy sharoitda strategiya (harakatlar strategiyasi), xarita (yo‘l xaritasi) kabilar turli birikmalar tarkibida faol qo‘llanib bormoqda.

8. Ma’noni maxsuslashtirish. Garchi o‘zbek tilida mos muqobili bo‘lsa ham, riyeltor, makler, kredit, menejer kabi so‘zlar maxsuslashtirish ehtiyoji natijasida umumqo‘llanishda ishlatilmoqda.

9. Tabudan qochish. Xalqona qarashlar bilan bog‘liq ravishda ayrim so‘zlarni aytishdan qochish ularning o‘rniga o‘zlashmalarni qo‘llashga ham sabab bo‘ladi. Bernard Komri (Bernard Comrie) Haruai qabilasida o‘tkazgan tajribada bu qabila tiliga o‘zlashgan barcha so‘zlar qo‘shni Kobon qabilasi tilidan tabu so‘zlarning o‘rnini to‘ldirish uchun qabul qilingani ma’lum bo‘ladi . Yoki ingliz tilidagi hostess (uy bekasi) so‘z koreys tilida “tungi klubda ishlovchi yengiltabiat ayol” ma’nosida ishlatiladi.

Shuningdek, tuberkulyoz kabi tibbiyotga oid terminlar tushuncha mohiyatini yumshatish uchun qo‘llanadi.

10. Olinma so‘zlarning sinxron ahamiyatga egaligi. Ularning kundalik nutqda tez-tez qo‘llanishi birdaniga uning foydalanish darajasini oshirib yuborishi mumkin. Vaholanki, vaqt o‘tishi bilan ular tilga singimasligi va foydalanishdan chiqib ketishi ham kuzatiladi.

Birgina so‘z turli tillarga o‘zlashganda semantik o‘zlashma sifatida ma’lum semanigina saqlab qoladi xolos. Shu xususiyat qabul qiluvchi til egalarining madaniy qarashlarini o‘zida aks ettiradi.

Arab tilida metaforik ko‘chish bilan computer – juda kichkina odam , o‘zbek tilida “aqlli odam”, robot – biror siyosiy partiyaning topshiriqlarini og‘ishmay bajo keltiradigan odam, o‘zbek tilida “o‘z aqli bilan ish qilmaydigan, farosati yo‘q”.

Shuningdek, rus tilidan tilimizga kirib kelgan lug‘aviy birliklarning hozirda iste’molda nisbatan kamligini quyidagicha izohlashimiz mumkin: 1.Rus tilining o‘zbek tiliga bevosita ta’siri bir asrga ham bormaydi. 2.Rus tilidan hamda bu til orqali boshqa tillardan o‘zbek tiliga o‘zlashgan aksariyat so‘zlar mustaqilligimizdan so‘ng o‘zlarining arabcha yoki fors-tojikcha muqobillari bilan o‘rin almashdi.Masalan: aslida lotincha so‘zlar hisoblangan “redaktor”, “injener”, o‘zagi rus tilidagi “gorod-shahar” so‘zidan olingan “grajdanin” kabi so‘zlar o‘rnida hozirda arab tilidan o‘zlashgan “muharrir”, “muhandis”, “fuqaro” atamalaridan foydalanmoqdamiz .

O‘zlashma so‘zlarning eng ko‘p qo‘llanayotgan o‘rinlaridan biri – media sohasidir. Jumladan, reklamaning dastlabki ko‘rinishi og‘zaki bo‘lganligi, ya’ni jar solish, chorlash, jalb qilishdan iboratligi ma’lum. Jumladan, qadimiy Sharqda, O‘rta Osiyo hududida reklama, asosan, og‘zaki ko‘rinishda, bozorlarda shakllangan. Ko‘pincha nomi olinma bo‘lgan mahsulot bozorda o‘z egasini tezroq topishi reklamada shiorlarni turli usullarda tuzish taklif qilinadi, maqsad iste’molchi ongida o‘rin egallashdir. So‘zlarning olinma ekanligi, tilda o‘rnab qolishi dargumon ekanligi ma’lum bo‘lsa-da, ayrim misollar buni rad qiladi: akfa (umuman, alyuminiy profilli derazalar uchun), tefal (umuman elektr choynaklar uchun), kamaz (yuk mashinalar uchun) singari. Xalq tilida ular keyinchalik umumiy nomga aylanib qolishi mumkin. Reklama shiorlari shu qo‘llanmalarni epifora, ellipsis, anafora, takror kabi lingvopoetik usullar, musiqa, qo‘shiq, videoklip, takror kabi nolisoniy vositalar yordamida singdirishga harakat qiladi. Aslida, bu marketing va lingvistik vositalarning aralashmasi. Birinchisi reklama shiori yaratishni boshlaydi, ikkinchisi esa lingvistik vositalar to‘plamini (fonologik, leksik, semantik, stilistik va sintaktik) taqdim etadi. Ikkalasining kombinasiyasi reklamaning ishonchliligini kuchaytirishi mumkin, bu esa reklama tilini murakkab va ko‘p qirrali qiladi.

Milliy mentalitet so‘z o‘zlashtirish, uning semantikasini anglash jarayoniga ta’sir qilmasligi mumkin. “Milliy mentalitet degan tushunchani ko‘pchilik muhim deb o‘ylaydi. Tilda o‘ta muhim rol o‘ynaydi deb taxmin qilinadi. Aslida esa tilga bog‘liq kechadigan umuminsoniy jarayonlar bilan solishtirilsa mentalitetning ta’siri o‘ta ahamiyatsiz” . Biroq keyingi yillarda ilmiy davralarda yuzaga kelib qolgan soxta etimologiyalar ham o‘z qatlamdagi so‘zlarni o‘zlashmalar qatoriga qo‘shish tendensiyasi ham mavjud: Samarqand, Buxoro, er, xotin, xoqon, Xazorasp, Axsi, sumalak, alla. Mazkur holat etimologiya, jumladan, tarixiy onomastika sohasida qat’iy etimologik tadqiqotlar olib borishni talab qiladi va milliy mentalitet ilmiy haqiqat uchun xizmat qilishi kerakligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamdi, Sami Abdullah. The Impact of Ideology on Lexical Borrowing in Arabic: A Synergy of Corpus Linguistics and CDA. PhD diss. at Educational Linguistics University of New Mexico – USA: Albuquerque, New Mexico December, 2018
2. Kuziyev U.Ya. The issue of classification and description of complex structural compounds in uzbek language // International Journal of Evaluation and Research in Education (IJERE), 2023, №4. – Pp.309-314.
3. Saidova M., Qo’ziyev U. L. Uslubiy qo ‘llanma //Namangan: Kamalak. – 2017. – T. 127.
4. Маҳмудов Н. Ўзбек тилида ўзлашма сўзлар: меъёр ва миллийлик //Ўзбек тили ва адабиёти. №1, 2010

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

5. Маҳмудов Н. Ўзбек тилининг софлигини қандай сақлаб қолиш мумкин? (+видео). Манба: https://uza.uz/posts/593833
6. Митирова Л.Н. Психолингвистический анализ неологизмов, заимствованных из английского языка: автореферат дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2002. 64 с.
7. Свицова А.А. Лингвокультурная доминанта “дом – родина – чужбина” в русских и английских пословицах. Автореф....канд.филол.наук. – Ижевск, 2005.
8. Худойберганова Д. Лингвокультурологик терминларнинг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент, 2015.

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

ODAM SAVDOSI JINOYATINING JINOIY-HUQUQIY TAVSIFI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Subanov Olimjon Suyarkul o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Malaka oshirish instituti Yuridik fanlar kafedrasi
katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada «Odam savdosi jinoyatining jinoiy-huquqiy tavsifi» tushunchasi va ularning mazmuni, odam savdosi jinoyatining ob’ekti, ob’ektiv tomoni, sub’ekti, sub’ektiv tomonining mohiyatini yoritish asosi ochib berilgan. Odam savdosi jinoyatining kvalifikatsiya qilish masalalari ko‘rsatib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Odam savdosi jinoyati, «Odam savdosiga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida»gi qarorida berilgan tushuntirishlar, «Nomusga tegish va jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirishga doir ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida»gi qarorida berilgan tushuntirishlar, Odam savdosi jinoyatining jinoiy-huquqiy tavsifi.*

Bizga ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida, “O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi” deyilgan [1].

Jinoyat qonunchiligida odam savdosi uchun javobgarlik belgilanganligi shaxs erkinligining konstitutsiyaviy kafolatlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda odamlardan qonunga xilof tarzda foydalanishga, ularning g‘ayriqonuniy mehnat migratsiyasiga va odam savdosiga qarshi kurash yuzasidan davlatimiz tomonidan tadrijiy, aniq chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksining 135-moddasiga muvofiq, *odam savdosi deganda,* odamni olish-sotish yoxud odamni undan foydalanish maqsadida yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilishda ifodalangan qilmishlar tushuniladi[2].

Mazkur jinoyatning *ob’ekti* – shaxsning ozodligini ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Shu bilan birga, shaxsning sha’ni va qadr-qimmati, hayoti va sog‘lig‘i ham jinoiy-huquqiy muhofaza qilinadi. *Odam savdosi jinoyatidan jabrlanuvchi* sifatida har qanday shaxs tan olinadi.

Jinoyatning *ob’ektiv tomoni* Jinoyat kodeksi 135-moddasida nazarda tutilgan quyidagi ijtimoiy xavfli qilmishlarda ifodalanadi:

- *odamni olish-sotish;*

odamni undan foydalanish maqsadida –

- *yollash,*
- *tashish,*
- *topshirish,*

- *yashirish*
- *qabul qilish.*

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2009 yil 24 noyabrdagi «Odam savdosiga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida»gi 12-son qarorida berilgan tushuntirishlarga ko‘ra, *oldi-sotdi tariqasidagi odam savdosi* odamning bir shaxs tomonidan boshqasiga pul, boshqa moddiy qimmatliklar (mulk), mulkiy xarakterdagi xizmatlar, mulkiy yoki pul shaklidagi qarzdan voz kechish va h.k.lar sifatidagi haq evaziga berilishi to‘g‘risida yozma yoki og‘zaki bitim tuzilishini nazarda tutadi. Bunday ko‘rinishdagi odam savdosida odam qanday maqsadlarda sotib olinganligi (sotilganligi) huquqiy ahamiyat kasb etmaydi[3].

Olish-sotish tariqasidagi odam savdosidan farqli ravishda, Jinoyat kodeksining 135-moddasida nazarda tutilgan boshqa barcha hollar (yollash, tashish, topshirish, yashirish, qabul qilish)da jinoiy javobgarlik yuzaga kelishining zarur sharti odamni ekspluatatsiya qilishga qaratilgan maqsad mavjudligi hisoblanadi. «Odamni ekspluatatsiya qilish» tushunchasiga O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Odam savdosiga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida»gi qarorida *«odamni ekspluatatsiya qilish* – boshqa shaxslar fohishabozligidan foydalanish yoki boshqa ko‘rinishdagi shahvoniy ekspluatatsiyani, majburiy mehnat yoki xizmatlar, qullik yoki qullikka o‘xshash odatlar, erksizlik holati yoki odam a’zolari yoki to‘qimalari olinishini anglatadi» deya sharh berilgan.

Demak, odamni yollash, tashish, topshirish, yashirish, qabul qilishda ifodalangan qilmishlar mazkur odamni ekspluatatsiya qilish maqsadida sodir etilgan taqdirdagina Jinoyat kodeksining 135-moddasida nazarda tutilgan jinoyat uchun javobgarlik vujudga keladi.

Jinoyat kodeksi 135-moddasida nazarda tutilgan qilmishlardan biri – *yollash deganda,* ekspluatatsiya qilish maqsadida odamni biror-bir faoliyat bilan shug‘ullanishga jalb etishga qaratilgan faoliyat (ekspluatatsiya ob’ektini qidirish, to‘plash, u bilan muzokara yuritish va h.k) tushuniladi.

Tashish – shaxsni olish-sotish bitimi tuziladigan (ijro etiladigan), boshqa shaxsga topshiriladigan joyga yoki undan ekspluatatsiya maqsadida foydalaniladigan joyga yetkazib berish (transportda tashish)ni anglatadi. Bunda yetkazib beriladigan shaxs odam savdosini amalga oshirish uchun mo‘ljallanganligi tashuvchiga oldindan ma’lum bo‘lishi lozim. Tashish bitta aholi punkti doirasida ham, O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqish bilan bog‘liq tarzda ham amalga oshirilishi mumkin.

Topshirish – odamni boshqa shaxsga ekspluatatsiya qilish maqsadida jismoniy tarzda berishda ifodalanadi.

Yashirish – jabrlanuvchini hokimiyat vakillaridan, qarindoshlaridan yoki uning taqdiridan manfaatdor boshqa shaxslardan har qanday joyda xufiya saqlashda ifodalanadi.

Qabul qilish – odamni o‘z maqsadlarida ekspluatatsiya qilish uchun egalikka olish (masalan, hadya tariqasida, vaqtincha tekin foydalanish uchun yoki qarz evaziga va h.k.) ni anglatadi, odamni sotib olish hollari bundan mustasno.

Odam savdosi jinoyatida *fohishabozlikda foydalanish deganda,* odamdan uning haq evaziga nomuayyan doiradagi jinsiy sheriklar bilan shahvoniy munosabatlarga kirishishidan muttasil foydalanish tushuniladi. *Boshqa ko‘rinishdagi shahvoniy ekspluatatsiya deganda,* odamning undan pornografik tasvirlar tayyorlash, buzuq harakatlar sodir etish va h.k. maqsadlarda foydalanish uchun berilishi tushuniladi.

Majburiy mehnat – biron-bir jazoni qo‘llash bilan tahdid qilish orqali ish bajarishga majburlashni anglatadi. Harbiy yoki muqobil xizmat to‘g‘risidagi qonunlar asosida, favqulodda holat yuz bergan

sharoitlarda, sudning qonuniy kuchga kirgan hukmiga binoan, qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda bajarilishi lozim bo‘lgan ishlar majburiy mehnat deb hisoblanmaydi.

Qullik – o‘ziga nisbatan mulk huquqiga xos ayrim yoki barcha huquqlar amalga oshirilayotgan shaxs ahvoli yoki holatini anglatadi.

Erksizlik holati – shaxsning muayyan omillar majmui ta’siri ostida o‘z erkiga xilof ravishda har qanday ish yoki xizmatni bajarishga majbur bo‘lganligini anglatadi.

Odam savdosi jinoyatining *sub’ekti* mazkur jinoyatni sodir etgan vaqtida 16 yoshga to‘lgan, aqli raso jismoniy shaxs hisoblanadi.

Jinoyatning *sub’ektiv tomoni* aybning qasd shaklida ifodalanadi. Shu bilan birga JK 135-moddasining uchinchi qismi «b» bandi (jabrlanuvchining o‘limiga yoki boshqa og‘ir oqibatlarga sabab bo‘lsa)da nazarda tutilgan jinoiy oqibat ehtiyotsizlik oqibatida yetkazilgan bo‘lishi talab etiladi. Agar mazkur oqibat qasddan yetkazilgan taqdirda, qilmish JK 135-moddasi hamda mazkur oqibatlarni kasddan yetkazganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalari (masalan, JK 97-moddasi va h.k.) bilan qo‘shimcha kvalifikatsiya qilinadi.

O‘g‘irlash deganda, odamni qonunga xilof ravishda, yashirin yoki oshkora qo‘lga kiritish va uning erkiga xilof ravishda uni olish-sotish yoki ekspluatatsiya qilish maqsadida boshqa joyga olib ketish tushunilishi lozim.

Zo‘rlik ishlatish yoki zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish deganda, bog‘lash, ozodlikdan mahrum etish, urish-do‘pposlash, ushlab turishdan boshlab, jabrlanuvchining sog‘lig‘iga yengil yoki o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish, shuningdek, jabrlanuvchining sog‘lig‘iga ziyon yetkazmagan bo‘lsada, biroq qo‘llanilgan paytda bunday ziyon yetkazishga real imkoniyat tug‘dirgan zo‘rlikkacha bo‘lgan har qanday majburlash tushunilishi lozim.

Agar odam savdosida shaxs badaniga qasddan og‘ir shikast yetkazilgan bo‘lsa, qilmish Jinoyat kodeksining 135-moddasi ikkinchi qismining «a» bandi (zo‘rlik ishlatish yoki zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish yoxud majburlashning boshqa shakllarini qo‘llash orqali) bilan qamrab olinmaydi. Bunday hollarda aybdorning harakatlari Jinoyat kodeksining 104-moddasi tegishli qismi bilan qo‘shimcha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Boshqa shakldagi majburlash deganda, jabrlanuvchi yoki uning yaqin kishilarining mulkiga shikast yetkazish yoki uni nobud qilish yoxud shikast yetkazish yoki nobud qilish bilan tahdid qilish, jabrlanuvchi yoki uning yaqin kishilari obro‘sini to‘kadigan ma’lumotlarni yoki ularning huquqlari yoki qonuniy manfaatlariga jiddiy ziyon yetkazishi mumkin bo‘lgan boshqa ma’lumotlarni tarqatish yoxud jabrlanuvchini aybdorning u yoki bu ko‘rsatmalarini bajarishga majbur etadigan vaziyatni vujudga keltiradigan har qanday harakatlarni amalga oshirish tushunilishi kerak.

Ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan umumiy qasd bilan sodir etilgan odam savdosi bilan bog‘liq harakatlar, bu harakatlar bir necha shaxslarga nisbatan bir vaqtning o‘zida yoki ularning har biriga nisbatan turli vaqtda sodir etilganligidan qat’i nazar Jinoyat kodeksining 135-moddasi ikkinchi qismi «b» bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Jinoyat kodeksining 135-moddasi ikkinchi qismi «v» bandi bilan ojiz ahvoldaligi aybdorga ayon bo‘lgan shaxsga nisbatan sodir etilgan odam savdosi bilan bog‘liq harakatlar kvalifikatsiya qilinadi.

Ta’kidlash joizki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohot va yangilanishlar natijasida fuqarolarimizning turmush sharoiti uzluksiz yuksalib bormoqda, ularning huquq va erkinliklari to‘la ro‘yobga chiqarilishi uchun barcha qulay imkoniyatlar yuzaga kelmoqda.

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

Bularning barchasi shaxs erki, uning hayoti, salomatligi va shaxsiy huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish, fuqarolar huquqiy muhofazasi samaradorligini oshirish, shaxs-davlat munosabatlarida shaxs manfaatlari ustuvorligi tamoyiliga og‘ishmasdan amal qilish ehtiyojini qondirishga xizmat qilmoqda.

Shaxs erki va qonuniy manfaatlarini ta’minlash ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida olib borilayotgan tadbirlar orqali amalga oshirib kelinmoqda.

Bugungi kunda aholi migratsiyasi, shu jumladan, mamlakat tashqarisida mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish maqsadidagi migratsiya jahon ko‘lamidagi voqelik bo‘lib, o‘zining ko‘pgina ijobiy jihatlari bilan bir qatorda salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarmoqda.

Bu salbiy hodisa global jarayon sifatida bizning mamlakatimizni ham chetlab o‘tmayapti. Afsuski, ayrim fuqarolarimiz, odam savdosi orqali daromad topishga intilish, yuzaga kelgan moddiy yetishmovchilikni bartaraf etish, axloq qoidalariga zid turmush tarziga odatlanish omillari ta’sirida odam savdosi qurbonlariga aylanmoqda. Bularning barchasi davlat va jamiyat tomonidan ushbu illatga qarshi qat’iy choralar ko‘rishni, odam savdosiga jalb etilgan va undan jabr ko‘rgan hamyurtlarimizni muhofaza etishni dolzarb vazifa qilib qo‘ymoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. https://lex.uz/docs/6445145
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi https://www.lex.uz/acts/111453
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori, 24.11.2009 yildagi 12-son https://lex.uz/docs/1616053

SCIENCE BOX

Analytical Journal of Education and Development

Volume: 04 Issue: 11 | Dec-2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

Assessment and reflection in teaching foreign language

Ruzmatova Durdona Rustamovna
English Teacher of public School N298 in Tashkent

Abstract The article emphasizes assessment and reflection how to teach for preparing "Multilevel" national exam of Uzbekistan based on CEFR (Common European Framework of Reference). Additionally to this exam, it should be given some essential differences between the national testing system of language ("Multilevel") in Uzbekistan and CEFR. For example, in "Multilevel" examination there are given just 5 levels (A1, A2, B1, B2 and C1) except C2 level which is stated in CEFR, because English is taught as a foreign language in Uzbekistan not as ESL (English as a Second Language). At the same time, listening, reading, writing and speaking skills differ not only type of tasks but also in the way of variation as computer-based or paper-based one. Moreover, they have been studying for 2 weeks to achieve C1 band score from the language proficiency exam for getting monthly 50% bonus in their salary. They are in different levels according to CEFR assessment criteria, such as, B1 and B2 levels.

Key words: CEFR, IELTS, multilevel, CLT, Bloom's taxonomy,

Introduction

Multilevel test based on CEFR and IELTS in general assesses the level of language due to cognition and this feature will be increased by speaking and listening skills mostly, as it is known as CLT. Moreover, for assessing their knowledge I exactly use these tests' criterion to gain the top level as C1 which gives a salary bonus for my learners. As it is easy to find criteria of IELTS from the Internet and it is familiar to the English teachers that they know every levels requirements at all. According to Benati (2018) "L2 learners should be exposed to learning conditions and tasks (e.g., solving tasks, dialogue making, plan making, etc.) to use the target language" (p.3).

According to the learners' needs regarding 4 skills, it will be grateful, if 4 skills and each task given in the test are studied during the course. That is why, they must be supported with several practices on all skills via advanced grammar rules as well. As Figueras (2012) noted in his article that "for the sake of certification, it was necessary to identify different levels of mastery along the learning continuum" (p.477). Studying grammar has to be changed the structure of sentence temporarily while using L2 (Benati, 2018). Since, there is diverse background knowledge with miscellaneous acquired skills. The most crucial one is reading that takes much more time to comprehend the gist or in details as skimming and scanning data. Due to Bloom's taxonomy a learner firstly can be able to understand then analyze it. Thus, they are taught as the monitor hypothesis as Krashen (1981) noted that the monitor hypothesis shows realizing and learning result of the practice and a learner focuses on form particularly with the help of grammar rules. For these reasons, it should be created reading task mostly with True/False/Not given option that is misleading majority of candidates in the real exam. Initially, learners should learn easier texts in B2 level in the first lesson, then, it will be developed as i+1 theory by Krashen to C1 texts which

are written with advanced vocabulary. Consequently, this method proves the idea that encourages a learner to boost his/her comprehension and skill to one upper stage instead of practicing a lot in the same level

Main part

As a result of the statements that are given as a language standard, the students have to do a wide range of reading tasks due to B1 level acquisition without any hesitations and mistakes. Furthermore, they will be able to write every kind of letter with giving appropriate reasons, even though it will be unfamiliar topic. And, also they will be able to write a letter by utilizing the complex sentences and cohesive devices after the course. It is obviously aligned that the first language standard as a language objective is related to the reading task, and at the same time, other 2 language standards represent writing task outcomes.

According to the tasks, there are clearly given some standards of language proficiency test as Multilevel, which is based on CEFR and besides this test there is described 3 language objectives, such as:

- B1 level – a learner is able to read and understand easily it related to common topics like work, history, etc.
- B2 level – a learner is able to produce detailed text and explain his/her thoughts with giving reasons as pros and cons.
- C1 – a learner is able to write well-structured and clear text with the help of advanced grammar such as using complex sentences, cohesive devices and connectors.

Instructional outline

Given test type of reading task below is the similar example to the Part 1 in reading section of Multilevel test which is shaped by CEFR in Uzbekistan and it is taken from Gram's book which is named "Gladiator". This kind of test usually checks not only reading comprehension but also using appropriate vocabulary in a sentence. Thus, in the 1st lesson of the course the reading task should be distributed to learners with clear instruction beforehand as they are going to read a text and they will find missing words which are come in the text in other sentences.

Reading and vocabulary

Read the text. Fill in each gap with ONE word. You must use a word from the text.

Gladiator: Farmer and Soldier

"At the height of its power, the great Roman Emperors stretched from the deserts of Africa to the borders of northern England. Over one quarter of the world's population lived and died under the rule of the Caesars. In the winter of A.D.† 180, 1._____ Marcus Aurelius's twelve-year war against the people of Germania was coming to an end. There was one last battle to win. Then there would be peace across the Roman Empire.

The man walked through the sun-warmed Spanish field, his hand touching the wheat. He 2._____ past apple trees to a farmhouse. He heard a child laughing somewhere near. A bird flew onto the branch of a tree close to him and they looked at each other. The man smiled. Suddenly, the sound of shouts and horses frightened the bird and it flew up into the air. The noise

broke through the man's daydream and he came back to the real world with a crash. He was not dressed in farmer's clothes, as he had imagined, but in the proud armor of the Roman army. The 3._____ was burnt and muddy from battle, without a green leaf on it. Beyond the tree line ahead, somewhere in the forest, the German armies were preparing to attack again. The man knew that behind him an enormous 4._____ waited.

Maximus the farmer was Maximus the Commanding General of the Army of the North for one more battle. One last 5._____, and then he could go home to Spain. He turned his horse and rode back to his men. Thirty-year-old Maximus was a great 6._____ —a man they could trust. He moved among them, checking that they were ready for battle. He looked back frequently to the line of trees. Some of his officers were warming themselves around a fire, and Maximus joined them."

Key: 1. Emperor 2. Looked 3. Field 4. Army 5. Battle 6. General

Conclusion

It is necessary here to clarify exactly that Multilevel test requires simultaneously 4 skills with the help of grammar and vocabulary. Thus, preparing for such kind of language proficiency test takes more time from a candidate, particularly, communicative skill is examined in higher rates. Because of this perspective, CLT (Communicative Language Teaching) is taken one of the most essential approaches in practicing and preparation of taking exam. By CLT approach my learners are able to get much more information from each other also, and in the future they will not face with some troubles that will be occurred within comprehension of a speech. Hence, the main key point of learning language is to understand someone's and explain own ideas undoubtedly. As I mentioned above, the course aim's is to gain C1 certificate with doing a several and efficient practices in 4 skills that are described by the rubric. In this case, it is seen that alignment of the course is designed truly as step by step they learn levels "Can do" descriptors and self-analyses. That is to say, learners "Can do" descriptions are the same with the branches of assessment. For instance, if a learner uses an appropriate vocabulary and idioms or acceptable grammar structures in his writing and speaking skill, it will be equalized as C1 level. As Hughes (2002) noted in his book that "the content specifications are similar to those for" the tests of listening, reading, speaking and writing (p.114).

When it comes fairness and equity there should be all necessary facilities for a candidate. And it is just assumed that there is a student with special needs in my group it should be created appropriate atmosphere for him/her. If there is a test taker who is visually impaired but knows braille alphabet, we have to give him a chance that writing or reading in braille keyboard or text written in this version. Yet some candidates may have "partial sight" in this situation they will be demonstrated texts and answer sheets with a large-print (Taylor & Chen, 2016, p.384). As Taylor and Chen (2016) reported about accommodation and testing scores related to students with learning and other disabilities:

> It is also important that test-score users can place confidence in the meaningfulness of scores from accommodated tests and test providers therefore need to bring forward evidence in

support of any claims they make about the usefulness of scores from their modified tests. Examination boards and testing agencies are often in direct contact with test candidates and testing centres requesting accommodated tests and may therefore be well-placed to undertake some of this much needed research, perhaps in the form of small-scale but well-designed case studies.

Furthermore, it is an area that should be improved again according to a test taker who has physical or learning challenges and hearing impairment.

References

Benati, A. (2018). Interlanguage and grammar. In J. I. Liontas (Ed.), *The TESOL encyclopedia of English language teaching*

Figueras, N. (2012). The impact of the CEFR. *ELT Journal*, 66(4).

Gram, D. (2001). Gladiator. London, Penguin Longman Publishing.

Hughes, A. (2002). Testing for language teachers. Cambridge University Press.

Krashen, S. (1981). *Second language acquisition and second language learning*. Oxford: Pergamon.

Taylor, L., & Chen, N. N. (2016). Assessing students with learning and other disabilities/special needs. In D. Tsagari & J. Banerjee (Eds.), *Handbook of second language assessment*

Weigle, S. C. (2012). Assessing writing. In C. Coombe, P. Davidson, B. O'Sullivan, & S. Stoynoff (Eds.), The Cambridge guide to second language assessment (pp. 218–224). Cambridge University Press.

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

O‘QITISHNING FAOL VA INTERFAOL METODLARI YORDAMIDA AMALIY MASHG‘ULOTLARNI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Sattarov Karim Karshiyevich,
Tuxtamishova Gulnoza Karshiboyevna,
Ashurmatova Zamira Abduvali qizi
Guliston davlat universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Texnika yo’nalishi ta’lim muassasalarida o‘qitilayotgan fanlarning mazmunini modernizatsiyalash va ta’lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat bosqichiga ko‘tarish masalalari o‘z aksini topgan. Unda ushbu tizimda o‘qitilayotgan amaliy mashg‘ulotlar darslari Bo‘yicha ishlab chiqilgan texnologiyalar to‘g‘risida fikrlar bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *ta‘lim, erkin fikirlovchi, Innovatsiya, psixologik-pedagogik, trening, savol, aqliy xujm, interfaol metod.*

Kirish: Bugungi kunda ta’lim sohasida pedagogik texnologiyalar, faol va interfaol o‘qitish metodlari kabi tushunchalardan keng foydalaniladi.Ko‘p pedagoglar ushbu tushunchalarning mazmun-mohiyatini to‘liq anglamaydilar va pedagogik texnologiya deganda faqat interfaol metodlarni qo‘llashni tushunadilar.

Ushbu masalaga oydinlik kiritish maqsadida pedagogik texnologiya va interfaol o‘qitish jarayonining mazmun-mohiyatini ochib berish maqsadga muvofiqdir.

Texnologiya so‘zi pedagogikaga ishlab chiqarish sohasidan kirib kelgan. Bizga ma’lumki, har qanday texnologiya yakuniy natijaga qaratilgan bo‘lib, bu natijani oldindan rejalashtiradi va bosqichma-bosqich amalga oshiradi. Eng muhimi shundaki, har qanday texnologiyada yakuniy natija kafolatlanadi.[2]

Yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo‘lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz.

Tadqiqot metodologiyasi: Texnika yo‘nalishda o‘qitiladigan talabalar o‘rtasida biz tomondan olib borilgan kuzatishlarda shu narsa ma’lum bo‘ldiki, talabalarni Internet yordamida fanlarni o‘zlashtirish jarayonida: bir toifa talabalar fanni to‘laroq, chuqurroq o‘zlashtirishsa,ikkinchi toifa talabalar aksi, talab darajada o‘rganolmayotgani ma’lum bo‘ldi.Chunki, fanga doir maqbul variantdagi internet ma’lumotini tanlab olish uchun ko‘plab vaqt mobaynida adabiyotlarni ko‘rish, o‘rganish zarur bo‘ladi.

Yuzaga kelgan holat darsdan keyin talaba va o‘qituvchini hamkorlikda induvidual ko‘proq ishlashini talab etmoqda.

Keltirilgan ko‘rsatmalar asosida informasion axborot texnologiyasiga oid fanlar bo‘yicha yo‘nalishda biz tomondan quyidagi tadqiqot ishlari amalga oshirildi:

- Texnika yo‘nalishi fanlariga kompyuter texnologiyasini qo‘llashga doir ilmiy izlanishlar;
- Texnika va ishlab chiqarish sohaga axborot texnologiyasini qo‘llash yo‘nalishidagi ilmiy izlanishlar.
- Texnika sohasida kompyuter texnologiyasini qo‘llash yo‘nalishida olib borilgan ilmiy izlanishlardan iborat.

Bu tadqiqot ishlarimizni asosiy maqsadi: talabalarni kun sayin oshib borayotgan axborot-ta’lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko‘rsata olishga, sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo‘llash va axborot oqimidan oqilona foydalanishga o‘rgatishdan iborat edi.

Zamonaviy ta’lim sharoitida oliy o‘quv yurtlari talabalarining mustaqil ishlash va o‘rganish faoliyatini oshirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ilg‘or innovatsion pedagogik texnologiyalardan hamda yangi avlod elektron video o‘quv adabiyotlaridan foydalanishni talab etadi. Shu bilan birga bugungi kunda axborot va kommunikasiya texnologiyalarining kirib kelishi bilim uzatilishining yangi shakllari va vositalarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bunday shakllardan biri fanlarni elektron ta’lim zahiralari vositasida o‘qitishdir.

Elektron ta’lim zahiralari vositasida ta’lim berish pedagogik adabiyotlarda kompyuterli o‘qitish texnologiyasi deb yuritiladi.

Mamlakatimizda texnika yo‘nalishi ta’limini modernizatsiya qilish, ushbu sohaga xalqaro ta’lim standartlarini joriy etish, yil bo‘yi sifatli mahsulotlari bilan ta’minlash kabi dolzarb muammolari bo‘yicha kompleks ilmiy tadqiqotlar olib borish, shuningdek, ta’lim olayotgan yohlarga ma’naviy-axloqiy tarbiya berishning samarali tizimini yaratish bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Hurmatli yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev belgilangan vazifalarni bajarish uchun intellektual rivojlangan, keng mushohada qiluvchi, yangilik yaratishga intiluvchan shaxsni tarbiyalash uchun oliy ta’limning o‘zi yangiliklarga boy bo‘lishi, uning mazmunida ijodkorlik ruhi va motivlari hukm surishi lozim. Bunda innovatsion faoliyat subyektining talablarini qondirishdan innovatsion faoliyat subyekti ehtiyojining majmuaviyligini anglash va shakllantirishgacha bo‘lgan amaliy faoliyati jarayonida yuzaga keluvchi subyektning yangilikni yaratish va o‘zlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj va qiziqishlarini o‘zida ifoda etuvchi, undovchi kuch bo‘lmog‘i lozim. Bugungi kunda mamlakatni oziq-ovqat tizimini mazmunan modernizatsiyalash va ta’lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat bosqichiga ko‘tarishdan asosiy maqsad talabalarimizning zamonaviy bilim va kasbga ega bo‘lishi o‘ta murakkab va tahlikali zamonda mavjud bo‘lgan har qanday xatar, zararli ta’sir va oqimlarga nisbatan ogoh, sezgir va hushyor bo‘lib yashashini va jamiyatimiz hayotida munosib o‘rin egallashini ta’minlashdan iborat hisoblanadi.[3]

Bugungi kunda texnika yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalar uchun amaliy mashg‘ulotni quyidagi bosqichlarda o‘tkazish maqsadga muvofiq:

Amaliy mashg‘ulot keng ma’noda seminar (uning barcha turlari), mashq, laboratoriya ishini umumiy xolda ifodalanishidir. Ma’lumki, savollarsiz dars o‘tib bo‘lmaydi. Savollar asosida dars o‘tish bu eng ko‘hna va shu bilan birga hech qachon eskirmaydigan metoddir. Ta’lim jarayonini qanday metodlar asosida tashkil qilishimizdan qat’iy nazar, albatta savollardan foydalanamiz.

Aniq yo‘naltirilgan savollar asosidagi suhbat o‘qituvchining ko‘rsatmalari bo‘yicha olib boriladi. Suhbatning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan savollarni to‘g‘ri qo‘yishga bog‘liq Ilgarigi mavzuda ko‘rib o‘tilgan savollar alohida yoki tizim shaklida qo‘yilishi mumkin. Savollar oddiy yoki murakkab bo‘lishi mumkin.

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

Savollar qo‘yilishi tarzi, mazmuni, maqsadi va boshqa jihatlari bilan farqlanadi. Ularni shartli ravishda quyidagicha tavsiflash mumkin.

1. Axborot xarakteridagi savollar. Qo‘yilgan muammo bo‘yicha dalillarni, sanalarni aniqlashga qaratiladi. Bu guruhga kiradigan savollar ikki xil bo‘ladi: ular ochiq va yopiq savollardir.

Ochiq savollar - turli so‘roq g‘oyalar orqali ifodalanib, turli-tuman javob berilishi ko‘zda tutiladi. Masalan; Siz daromadlarga belgilangan professiv soliq stavkalariga qanday qaraysiz?

Yopiq savollar bu savollarga javob “xa”, “yo‘q” “ehtimol to‘g‘ri” tarzida olinishi mumkin bo‘lgam savollar bo‘lib, odatda ular fe’lga “mi” qo‘shimchasi qo‘shilib hosil qiladi Masalan; egri chizig‘ini siljishiga moddaning o‘zgarishi ta’sir qiladimi? Yoki yalpi ichki maxsulot hisoblaganda transfer to‘lovlarini qo‘shamizmi?

2. Muqobil savollar ikki variantda bo‘lib, ulardan nisbatan ishonchlirog‘i tanlanishi kerak. Berilgan savolni tushunish qiyin bo‘lsa, uni boshqacha tushunarliroq variantda beriladi.
3. Tasdiqlovchi yoki mustahkamlovchi savollar vaziyatni aniqlash maqsadida beriladi. Masalan: a) talaba bildirilgan fikrlarni tushundimi, yoki tushunarli bayon qilindimi? Aytilgan fikrlarga hamma tushundimi? Yoki men aytganlarim tushunarlimi? - tarzida qo‘yilishi mumkin.

Faraz, taxlil qilshga, undashga qaratilgan savollar ikkilanishni bartaraf qilishga yordam beradi. Odatda bu savollar, “aytaylik”, “faraz qilaylik”, “ko‘z o‘ngimizga keltiraylik” degan so‘zlar bilan boshlanadi.

4. Muloqot o‘rnatish uchun qo‘yiladigan savollar auditoriya bilan muloqot o‘rnatishga, keskin vaziyatlarni yumshatishga xizmat qiladi.
5. Yo‘llovchi, esga soluvchi yordamchi savollarning mazmuni voqea, xodisaning bajarilishi, ro‘y berishi, ehtimoli yuqori darajadaligini ta’kidlaydi. Savol ohangi bilan to‘g‘ri javob berishga undaydigan savollar bo‘lib, talabaga to‘g‘ri javob berishga yordamlashadi.
6. So‘zsiz savollar o‘qituvchining qarashi, mimikasi, imo-ishorasi bilan beriladi. U auditoriyada talabalar o‘rtasida diqqat e’tibor, jiddiylik tug‘diradi. Bu holda o‘qituvchining yuzida, imo-ishorasida xayrixohlik ifodasi bo‘lmasa, talaba noto‘g‘ri javob berdimmi degan xayolga esankirab, sarosimaga tushib qolishi mumkin.

Savollarni tuzishda va uni talabalarga berishdan qo‘yilgan maqsadga ko‘ra taxmin, sintez qilingan savollar, sharhlashga doir, qo‘llashga doir savollar bo‘lishi mumkin.

Savollar bilan bir qatorda hoxish, istak tug‘diruvchi so‘zlardan xam foydalanish mumkin. Bunday so‘zlar talabalarning bildirayotgan fikriga, gapirishiga turtki beruvchi yoki qisqa muloxaza, maslahat tarzidagi masalan, “xa”, “davom eting”, “to‘g‘ri”, “shunday qilib”, “to‘g‘rirog‘i”, “aniqrog‘i” kabilardir. Ko‘pincha bunday ta’kidlar keng fikrlash imkonini berib, nisbatan yaxshi natijalarga erishishga olib keladi. Bunday savol esa, fikr doirasini anchagina cheklaydi va qisqa mulohaza, do‘stona ohangda yoki iltimos shaklida ifodalanadi. Ular ko‘rsatma tariqasida “asoslab bering”, “xulosa chiqaring”, “yakun yasang”, “xarakterlang” va xokazo tarzida ifodalanadi. O‘qituvchi doimo o‘z oldiga qanday savol berish kerak yoki qanday qilib to‘g‘ri savol bersam bo‘ladi, degan masalani qo‘yadi. Masalani quyidagicha hal qilish mumkin:

Savolni barcha talabalarga berish, butun auditoriya oldiga qo‘yish kerak. Hamma talabalar o‘ylab ko‘rsin. Ma’lum pauzadan so‘ng aniq bir talaba javob berishga chiqishi mumkin.

Auditoriyaga xos savollar talabalarning bilim darajasi, darsga tayyorgarligi kabilarni hisobga olgan holda berilishi kerak. Bunda guruhdagi talabalarning individual xususiyatlarini ham hisobga olish kerak. Nisbatan bo‘sh talabalarga uncha murakkab bo‘lmagan savollar berish, so‘ngra bilimi kuchli talabalarga murakkab savollar berib borish kerak. Natijada oddiydan murakkab tomon borilaveradi.

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

Dastlab, ixtiyoriy javob bermoqchi bo‘lganlarga diqqat qaratish kerak, so‘ngra bosiq, o‘z ishtiyoqi bilan javob bermaydigan talabalarni javob berishga jalb qilish, xaddan tashqari faol talabalarni birmuncha tiyib turish kerak. Darrov javob berishlariga urinmaslik, balki bir necha javob berishni xoxlovchilarni aniqlab, bir necha talaba javob berishi mumkinligini xis qilgach so‘ray boshlash lozim. Muhim va murakkab savollar tashlanganda ko‘proq pauza saqlab, talabalarni tayyorgarlik darajasini ko‘zdan kechirish zarur.

Aniq, maqsadga qaratilgan savol berish kerak. Ma’lum narsalar haqida savol berish zerikarlidir. Talabalar fikr yuritishini zarur yo‘nalishga solib, unchalik kerak bo‘lmagan masalalarga etibor berish, atrofda aylanish, chetga chiqishdan qochish kerak. Xaddan tashqari uzun savollar darsni maqsadidan chetga chiqib ketishga olib kelsa, haddan tashqari qisqa savol esa, ”fikr yuritish” uchun kam “joy” qoldiradi. Tushundingizmi, degan savol ko‘pincha javobsiz qoladi. Shuning uchun yaxshisi aniq nazorat shaklida savol bergan maqul. Bitta so‘roq gapdagi bir necha savollar talabalarni chalkashtiradi. Shuning uchun savolni oddiy, tushunarli qilib tuzish kerak.

Savollarni xotirjam tarzda berish kerak. Chunki bunday savol tushunishni osonlashtiradi. Savoldan keyin fikr yuritish, javobni shakllantirish uchun ma’lum muddat qoldirish kerak. Xar doim savol bilan javob berish o‘rtasidagi muddat savol beruvchiga ham, javob beruvchiga xam nisbatan uzoq davom etganga o‘xshab ko‘rinadi. Shuning uchun shoshilmaslik kerak. Auditoriyadagi samimiy muhit unga talabalarni darsga faol qatnashishlariga yordam beradi va darsni muvaffaqqiyali o‘tishini ta’minlaydi. Vaqti-vaqti bilan o‘qituvchi o‘zining savol qo‘yish texnikasi, mazmunini tekshirib turishi kerak.

Guruhni juftlik yoki kichik guruhlarga bo‘lib dars o‘tganda avval savolga javob o‘ylanishi va muhokama qilinishi kerak. So‘ngra auditoriyada muhokama qilish boshlanadi. O‘qituvchi bildirilgan fikrni asoslash yoki mustahkamlash uchun qo‘shimcha savollar beradi: «Nima sababdan?», «Siz shu fikrga qo‘shilasizmi?», «Misol keltiringchi?», «O‘rtog‘ingiz bildirgan fikr to‘g‘rimi?», «O‘zingizning xulosangizni aytingchi?» tarzda savollar bilan kichik guruhlarni bir birlariga murojaat qilishga yo‘naltiriladi.[8]

O‘z fikrini bayon qilayotgan talabaga: «aytingchi, siz yoki guruhingiz bermagan savolga ana shunday javob berishiga nima sababdan qaror qildingiz?»- deb murojaat qilib, javobni eshitgach, auditoriyaga «boshqalar ham shu fikrdami, uni noto‘g‘ri deb hisoblovchilar, marhamat o‘z fikringizni bildiring” deb talabalar fikrini aniqlash mumkin.[7]

Agar to‘g‘ri javob yagona bo‘lmasa, o‘qituvchi «qani, o‘ylab ko‘ringlarchi, yana qanday muqobil javoblar bo‘lishi mumkin?» degan savolni tashlashi mumkin.

Xulosa: Xuddi shunday ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, tarbiyaning ta’sirchan mexanizmlarini izlab topish, o‘qitish jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tatbiq qilish, shu va shunga o‘xshash barcha savollarga javob topish uchun o‘qituvchi doimo izlanishda va kreativ fikr yuritishi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoyev Sh.M. «Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqidan iqtiboslar» Toshkent: «Тасвир», 2021. - 52 bet.
2. Mirziyoyev Sh.M. «Birashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 75-sessiyasida so‘zlagannutqini o‘rganish bo‘yicha» o‘quv qo‘llanma Toshkent: «Ma’naviyat», 2021. - 280 bet.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son.

4. “O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 21.12.2022-yil.
5. Usmonov B.Sh., Xabibullayev R.A. Oliy o`quv yurtlarida o`uv jarayonlarini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O`quv qo`llanma. T.: “Tafakkur” nashryoti, 2020 y. 120 bet.
6. Alimdjanova D.I., Aliev I.T. Kimyo va oziq- ovqat texnologiyasiga oid fanlarni o’qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar.Toshkent: “Iqtisod-moliya”. 2015. 278 bet.
7. Саттаров, К. К., Тухтамишева, Г. К., & Нуриддинов, Б. Р. (2021). Совершенствование технологии получения муки из зерна пшеницы. Образование и право, (7), 236-241.
8. Тухтамишева, Г. Қ., & Саттаров, К. К. (2021). МАХАЛИЙ БУҒДОЙ ДОНИДАН ЮҚОРИ СИФАТЛИ УНЛАРНИ ОЛИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ. Scientific progress, 2(4), 1003-1101.
9. Suvanova F., Qobilova N., Tuxtamishova G. IMPROVEMENT OF SOLVENT RECOVERY TECHNOLOGY IN OIL EXTRACTION PRODUCTION //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. A1. – C. 209-212.
10. Tukhtamishev, S., R. Xudayberdiyev, and G. Tukhtamishova. "MECHANIZED APPARATUS FOR CUTTING MELON FRUIT INTO ANNULAR SLICES." Science and innovation 2.A1 (2023): 252-255.

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

SUV TANQISLIGI SHAROITIDA OQJO'XORI YETISHTIRISHNING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ne'matova Gulafruz Nasrulloyevna
Teacher of the "General Sciences" department of the Asian International University Osiyo Xalqaro Universiteti

Annotatsiya: *Oq jo'xori eng muhim don ekinlaridan hisoblanib, oziq-ovqat, yem-xashak texnik va agrotexnik ahamiyatga ega. Uning doni uy parrandalari va hayvonlar uchun to'yimli ozuqa hisoblanadi. Undan xashak va donining sut-mum pishish davrida o'rilganda sifatli silos tayyorlanadi. Oq jo'xorining texnik ahamiyati shundan iboratki, uning donidan spirt va kraxmal olinadi. Jo'xori agrotexnik ahamiyatga ham ega, u qurg'oqchilikka, tuproq sho'riga chidamli o'simlik hisoblanadi.*

Asosiy tushunchalar: *oqjo'xori, qo'qonjo'xori, silos, ko'k massa, protein, lizin, spirt va maltoza ishlab chiqarish sanoatlari, qurg'oqchil, o'rtapishar navlar, vegetatsiya navlar.*

Kirish. Oqjo'xori xilma-xil maqsadlarda foydalaniladigan ekinlar qatoriga kiradi. Uning doni chorva mollari uchun to'yimli oziq va omuxta yem, kraxmal-potoka va spirt ishlab chiqarish sanoatlari uchun qimmatli xomashyo hisoblanadi. Undan krupa ham olinadi. Afrika, Hindiston va Sharqiy Osiyo mamlakatlaridagi ko'p hududlarda oqjo'xori asosiy g'alla ekini sifatida ekiladi. O'rta Osiyo respublikalarida ham oqjo'xori yuqorida aytilgan maqsadlarda ishlatiladi. Oqjo'xori oziq-ovqat ekini sifatida dunyo bo'yicha bug'doy va sholidan keyingi o'rinda turadi.

Oqjo'xorining ko'k massasi mollarga beriladi yoki silos bostiriladi. Uning silosi sifat jihatidan makkajo'xori silosiga yaqin turadi. Oqjo'xori poyasi dag'allashguncha o'rilsa, yaxshi pichan bo'ladi. Keyin u yana qayta ko'karadi, undan ko'kat oziq sifatida va mollarni o'tlatishda yaylov o'ti sifatida foydalaniladi.

Oqjo'xorining 100 kg doni 119, ko'k massasi 23,5, silosi 22,0 va pichani 49,2 oziq birligiga teng. Doni tarkibida 15% protein bo'lib, lizinga boy. Shirin jo'xori navlari poyasida 10-15% shakar bo'lib, ular sirop tayyorlash uchun ishlatiladi. Oqjo'xorini qor to'suvchi hamda garmseldan himoyalovchi ixota ekini sifatida ekish mumkin.

Oqjo'xori urug'chiligida asosiy vazifalardan biri yuqori sifatli navdor urug'larni ko'paytirish bilan birga ularning hosildorlik sifatini saqlab qolishdan iboratdir. Ma'lumotlarga ko'ra, oqjo'xorining don hosili gektariga 25-50 s, siloslanadigan ko'k massa hosili 200 dan 300 s gacha bo'lishi mumkin. Sug'oriladigan yerlarda gektaridan 800-1000 s gacha ko'k massa hosili olish mumkin.

Respublikamizda jo'xori avlodining 4 ta madaniy turi: yem-xashak, texnikaviy va oziq-ovqat maqsadida ekiladigan jo'xorilar - qo'qonjo'xori, sudano't keng tarqalgan. Ildiz sistemasi popuk ildiz bo'lib, tuproqqa qariyb 2 m chuqur kirib va atrofga 60-90 sm gacha taralib o'sadi. Poyasining bo'yi 2-2,5 m, tropik mamlakatlarda 6-7 m gacha yetadi. Ichi yumshoq parenxima bilan to'lgan, ko'pincha sershox bo'ladi. Barglari enli, tuksimon g'ubor bilan qoplangan, har tup o'simlikda 10-25 ta va undan

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

ko'p bo'ladi. To'pguli ro'vak, ro'vagi har qaysi shoxchasining uchida ikkitadan boshoqcha joylashgan. Ularning biri 2 jinsli, ikkinchisi erkak boshoqcha bo'lib, gullagandan keyin to'kilib ketadi. Jo'xori asosan (70%) chetdan changlanadi. Doni po‘stli va po'stsiz yumaloq, tuxumsimon, oq, jigarrang, sariq, qo'ng'ir tusda bo'ladi. 1000 donining vazni 25-45 gr keladi. Har qaysi ro’vagida 1600 dan 3500 tagacha don bo'ladi. Endospermi qo'ng'ir yoki qizg'ish bo'lgan doni tarkibida tanin guruhiga kiradigan oshlovchi moddalar bor. Bu moddalarning bo'lishi uning oziqlik jihatidan kamchiligi bo'lsa, lekin spirt va maltoza ishlab chiqarish sanoatlari uchun muhim rol o'ynaydi, chunki ular chirish jarayonlarining oldini oladi. Oqjo'xori ro'vagining shakliga ko'ra 3 ta turga bo'linadi osilib o'suvchi ro'vagi uzun shoxli, siyrak bo'ladi; tig'iz, ro'vagi tig'iz, qisqa poyasining uchi tik o'sadigan yoki egilgan bo'ladi; g'uj, asosan g'uj ro'vakli jo'xori ko'p ekiladi.

Jo'xori eng qurg'oqchil o'simlik hisoblanadi. Uning transpiratsiya koeffitsienti 200 ga teng. U jazirama issiqqa, tuproq va havoning-quruq bo'lishiga yaxshi chidaydi. Issiq vaqtda uning barglarida assimilyasiya jarayoni davom etadi, makkajo'xori barglari esa turgor holatini yo'qotadi va buralib qoladi. Oqjo'xori chala dashtdagi eng uzoq hududlarda sug'orilmay yetishtirilganda ham yaxshi hosil beradi. Oqjo'xori yozning ikkinchi yarmida va kuzda yog'adigan yomg'ir suvlaridan ham foydalanadi. Umuman olganda, issiqsevar o'simlik, urug'i 10-12 gradus haroratda unib chiqadi. Maysalari qisqa muddatli sovuqda nobud bo'ladi. Gullashi uchun maksimal harorat 14-15, yetilishi uchun 10-12 gradus bo'lib, vegetatsiya davridagi foydalı haroratlar yig'indisi 2250-2500 ga teng.

Tuproqqa unchalik talabchan emas, shunga ko'ra sho'r yerlarda ham o'sadi. Lekin, qizigan, yumshoq, suv va havoni yaxshi o'tkazadigan tuproqlar uning uchun juda mos keladi. Hamma tariqsimon o'simliklar singari oqjo'xori ham dastlabki paytda sekin o'sadi va dalani o't bosishiga chidamsiz bo'ladi.

O'rtapishar navlar ekilgandan 10-15 kundan keyin maysalaydi, 25-30 kundan keyin tuplanish bosqichiga kiradi. Maysalagandan 40-45 kundan keyin nay o'raydi, 55-65 kundan keyin ro'vak chiqaradi. Ro'vak chiqargandan 5-6 kundan keyin gullaydi. Navlarining tezpisharligiga qarab vegetatsiya davri 90-145 kun davom etadi.

Xulosa: Yuqoridagilardan ko’rinib turganidek, hozirgi kunda aholi orasida suvga bo’lgan talablarning oshishi, aholi va o’simliklarga suv yetkazib berish, aholini oziq-ovqat, chorvachilik sohasini esa, yem-xashak bilan ta’minlash muammolari sababli oq jo’xori iste’moliga bo’lgan talab kundan kunga ortib bormoqda. Oqjo'xori ekishda tuproqning 3-5 sm li yuza qatlami 12-15 haroratgacha qiziganda qator oralarni 60-70 sm dan va qatordagi uyalar orasini 15-20 sm dan qilib punktirlab ekiladi. Shuningdek, 65x65, 70x70 sm va 90x90 sm sxemada kvadrat-uyalab ekilsa ham bo'ladi. Bunda har qaysi uyaga 4-6 tadan urug' tashlanadi va har gektar maydonga 60-80 ming tup ko'chat bo'lishi ta'minlanadi. Oqjo'xori ko'kati va pichan qilish uchun ekiladigan bo'lsa, qatorlab va 45x15 sm sxemda qo'sh qatorlab ekish ma'qul.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Oripov R.O, N.X.Xalilov. O’simlikshunoslik. Toshkent 2007. B. 166.
2. Fayzimurodov J., Xalilov N., Normurodov D. Oqjo‘xori navlarining o‘sishi, rivojlanishi, hosildorligiga tup qalinligi va ekish muddatlarining ta’siri // Agro ilm – O’zbekiston qishloq va suv xo’jaligi. 2020. -№1. –B. 25.
3. Fayzimurodov J.B, Xalilov N, Sanaqullv A.L. Jo‘xori ayrim navlarining biometrik va mahsuldorlik ko‘rsatkichlari // Toshkent davlat agrar universiteti tashkil etilganligining 90 yilligiga” bag‘ishlangan xalqaro konferensiyaning Materiallar to‘plami 2020 yil 14-15 dekabr, -B. 741-743.

4. Fayzimurodov J.B, Xalilov N, Sanaqullv A.L. Oq jo‘xori yetishtirish nav, ekish muddati va meyori // “DEVELOPMENT ISSUES OF INNOVATIVE ECONOMY IN THE AGRICULTURAL SECTOR” International scientific-practical conference on March 25-26, 2021, -B. 772-776.
5. Shorin P.M., Zangieva F.T., Ikoeva V.A. Produktivnost sorgo v zavisimosti ot srokov seva i udobreniy v predgoryax RSO-Alaniya // Izvestiya Gorskogo gosudarstvennogo agrarnogo universiteta. – Vladikavkaz, 2010. -№2. Tom 47. –S. 22-25
6. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi, Davlat statistika qo‘mitasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar boshqarmasi ma’lumotlari. https://stat.uz/uz.
7. Tuyg’unovna, S. S. (2024). CULTIVATION OF MEDICINAL PLANTS AND FORMS OF PREPARATION. EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE, 4(5), 71-75.
8. Tuyg’unovna, S. S. (2024). SYSTEMATIC ANALYSIS OF MEDICINAL PLANTS. Лучшие интеллектуальные исследования, 19(5), 159-164.
9. Tuyg’unovna, S. S. (2024). MEDICINAL PLANTS THAT ARE WIDELY USED IN NATURE, RICH IN VITAMINS. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 39(3), 242-247.

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

СОВРЕМЕННЫЙ ПОДХОД НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ОПЫТА В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Маджидов Абдинаби Аманавич
Преподаватель Азиатского международного университета, доктор философии (PhD) технических наук

Абстрактный: *Статья основана на инновационном опыте в системе высшего образования.Проанализирована литература по подходам. На основе исследований и анализа литературы раскрыто содержание современных подходов. Также уделяется внимание существующим проблемам в преподавании точных и естественных наук. Даны предложения по решению проблем и повышению качества образования.*

Ключевые слова: *Инновации, современный подход, междисциплинарная интеграция, цифровые образовательные технологии, образовательные модели, качественное образование.*

Большое значение сегодня имеет анализ литературы о современных подходах, основанных на инновационном опыте в системе высшего образования. Потому что глобальная экономика, цифровые технологии и постпандемические изменения в образовательном процессе требуют новых подходов и методов. Современные подходы, сформированные на основе инновационного опыта, играют важную роль в повышении качества образования, развитии практических навыков студентов и адаптации их к рынку труда.

Исследования и анализ литературы об инновационном опыте и современных подходах в системе высшего образования включают следующие основные направления:

1. Цифровые образовательные технологии и онлайн-образование

В последние годы технологии цифрового обучения и модели онлайн-обучения значительно возросли. В условиях пандемии высшие учебные заведения были вынуждены перейти на дистанционное обучение, и этот процесс потребовал использования современных онлайн-платформ. Например, образовательные платформы, такие как Moodle, Blackboard и Google Classroom, создают прекрасную возможность укрепить взаимодействие между учениками и преподавателями и эффективно обмениваться информацией [1]. Важность цифровых технологий в образовании и их эффективность широко освещены в анализе литературы.

2. Образовательные подходы STEM и STEAM

Образовательные подходы STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) и STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) рассматриваются как один из основных элементов инновационного обучения. Эти подходы предоставляют студентам возможности для интегрированного обучения, создания науки, технологий, инженерии и математики [2-3]. В последние годы в высших учебных заведениях стал широко использоваться такой подход,

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

который учит студентов аналитически мыслить, решать задачи, проявлять творческий подход. Литература по этой теме подтверждает, что она эффективна для улучшения творческих способностей учащихся и навыков критического мышления.

3. Проблемное обучение (Problem-Based Learning, PBL)

Проблемное обучение (ПОБ- **PBL**) – это современный подход, направленный на развитие практических навыков учащихся. Эта образовательная модель знакомит студентов с реальными проблемами и побуждает их самостоятельно находить решения. Студенты, обучающиеся на основе модели PBL, совершенствуют свои навыки исследования, анализа и решения проблем [4-5]. При анализе литературы было отмечено, что модель PBL важна для улучшения взаимодействия преподавателей и студентов и повышения эффективности практического обучения.

4. Gamifikatsiya (Gamification)

Геймификация, то есть добавление в процесс обучения элементов игры, является одним из инновационных образовательных подходов. Благодаря этому методу студенты активно участвуют в процессе обучения, развивают свои навыки посредством конкуренции, вознаграждения и мотивации [6-7]. В современной литературе широко обсуждается роль и эффективность геймификации в образовании. В частности, подчеркивается важность такого подхода в повышении интереса у студентов и повышении эффективности обучения.

5. Совместное обучение (Collaborative Learning)

Кооперативное обучение – один из самых популярных методов среди современных подходов. С помощью этого метода студенты работают в небольших группах и делятся своими знаниями для достижения общей цели. Модель кооперативного обучения эффективна для укрепления социальных связей между обучающимися и формирования навыков командной работы. Значимость кооперативного образования как инновационного образовательного подхода показана в анализе литературы [8-10].

6. Окончательный анализ

Современные подходы, основанные на инновационном опыте в системе высшего образования, гарантируют, что студенты будут более активны и самостоятельны в процессе обучения. Современные образовательные методы и подходы служат повышению международной конкурентоспособности высших учебных заведений, развитию способности студентов творчески мыслить, адаптации их к рынку труда в будущем.

Следует отметить, что проблемы и их решения в преподавании конкретных и естественных наук являются одними из актуальных вопросов системы образования. Потому что эти науки играют ключевую роль в формировании научных подходов, технологического развития и инноваций в обществе. Тем не менее, в преподавании точных и естественных наук возникает ряд проблем, эффективное решение которых важно для повышения интереса к этим предметам и ориентации учащихся на достижение высоких результатов.

Проблемы.

а) Отсутствие интереса

Точные и естественные науки требуют от учащихся развития сложных, логических и математически обоснованных навыков. Многие студенты ощущают отсутствие интереса к этим предметам, поскольку зачастую они преподаются на основе сухой теории и недостаточно

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

внимания уделяется их применению в повседневной жизни. Студенты могут потерять интерес к этим предметам, поскольку не видят их практического значения.

b) Отсутствие образовательных инструментов

В Узбекистане и во многих других странах ощущается нехватка современных лабораторий, научно-экспериментального оборудования и технологических ресурсов, необходимых для преподавания точных и естественных наук. Это ограничивает способность студентов углубленно изучать естественные науки. Отсутствие опыта и практической подготовки привлекает студентов к образовательному процессу, основанному только на теоретических знаниях.

c) Недостаточная квалификация и инновации учителей.

Развитие в области точных и естественных наук меняется очень быстро. Но большая часть учителей не знакома с новыми технологиями, научными достижениями и инновациями в образовательном процессе или испытывает трудности с их правильным применением. Это создает необходимость повышения квалификации учителей и ознакомления их с современными методами обучения.

d) Отсутствие междисциплинарной интеграции

Точные и естественные науки связаны друг с другом, но эта связь зачастую не полностью интегрирована в систему образования. Преподавание этих предметов учащимся отдельно ограничивает их возможности развивать логическое мышление и решать реальные жизненные задачи.

e) Авторство и качество распространяемых материалов

Качество учебников и учебных материалов является серьезной проблемой для учителей и учащихся. Многие учебники могут быть устаревшими, устаревшими или наполнены неверной информацией.

В качестве решений допустимо указать следующее:

a) Соединение науки с жизнью для повышения интереса

Интерес можно повысить, предоставив учащимся больше информации о практическом применении точных и естественных наук в повседневной жизни. Например, демонстрация того, как концепции математики или физики применимы к достижениям в области технологий, инженерии или естественных наук, может привлечь студентов к этим дисциплинам. Для этого необходимо уделять больше внимания практическим лабораторным занятиям, экспериментам и научным проектам.

b) Внедрение современных технологий и лабораторий

Необходимо организовать современные лаборатории и привлечь технологические средства для эффективного преподавания точных и естественных наук. А в условиях дистанционного образования можно создавать виртуальные лаборатории и площадки экспериментов. Это дает учащимся возможность самим экспериментировать и анализировать результаты.

c) Подготовка учителей

Постоянное профессиональное развитие преподавателей расширяет возможности использования достижений современных точных и естественных наук. Проведение регулярных семинаров и тренингов по инновациям, технологиям и междисциплинарным подходам в сфере образования будет эффективным в повышении квалификации учителей. Повышение знаний об

инструментах онлайн-обучения и использовании цифровых технологий сегодня особенно актуально.

d) Развитие междисциплинарного подхода

Необходимо усилить междисциплинарную интеграцию в преподавании физических и естественных наук. Например, демонстрируя связи между математикой и физикой или химией и биологией, можно развивать у учащихся логическое мышление и междисциплинарные навыки решения проблем. Благодаря этому учащиеся сравнивают один предмет с другим и получают более глубокие знания, связанные друг с другом.

e) Разработка качественных учебных материалов

Для повышения качества учебников и учебных материалов необходимо обогащать их современными научными достижениями и инновациями. Кроме того, авторы и издатели должны стараться предоставлять интересные и практические знания, соответствующие возрасту и способностям учащихся. Использование новых технологий, анимации, видеоуроков и интерактивных элементов эффективно при создании учебных материалов.

Краткое содержание

Повысить качество образования можно за счет решения существующих проблем в преподавании физических и естественных наук. Преодолев такие проблемы, как отсутствие интереса, отсутствие технологических инструментов или квалификации учителей, можно улучшить отношение учащихся к этим предметам и повысить их способность применять свои знания на практике. В то же время есть возможность внести большие изменения в образовательный процесс за счет развития современных подходов и междисциплинарной интеграции.

Ссылки:

1. Андерсон, Т. (2016). Теория и практика онлайн-обучения. Издательство Университета Атабаски.
2. Бауд Д. и Фелетти Г. (2013). Проблема проблемного обучения. Рутледж.
3. Гаррисон, доктор медицинских наук, и Воган, Северная Дакота (2008). Смешанное обучение в высшем образовании. Джосси-Басс.
4. Ну и дела, JP (2007). Чему видеоигры могут научить нас в области обучения и грамотности. Пэлгрейв Макмиллан.
5. Джонсон, Д.В., Джонсон, РТ, и Смит, К.А. (2014). Совместное обучение: улучшение университетского обучения путем практической реализации проверенной теории. Журнал «Отличное преподавание в колледже».
6. Рейгелут, КМ, и Битти, БиДжей (2017). Теории и модели учебного дизайна: личностно-ориентированная парадигма образования. Рутледж.
7. Савери, младший (2006). Обзор проблемного обучения: определения и различия. Междисциплинарный журнал проблемного обучения.
8. Сименс, Г. (2005). Коннективизм: теория обучения в эпоху цифровых технологий. Международный журнал педагогических технологий и дистанционного обучения.
9. Смит, Б.Л., и МакГрегор, Дж.Т. (2014). Что такое совместное обучение? Национальный центр преподавания, обучения и оценки послесреднего образования.
10. Тарп Р.Г. и Галлимор Р. (1988). Пробуждение разума к жизни: преподавание, обучение и обучение в социальном контексте. Издательство Кембриджского университета.4o

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

O‘QUVCHILARDA QADRIYATLI MUNOSABAT TAJRIBASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK -PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

SH. Z. Taylanova
Prof.

Hasanova Chexroz Ulug’bekovna
O’zbekiston Finlandiya pedagogika instituti
Ta’lim tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta’lim) 1 bosqich magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqola o‘quvchilarda qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Qadriyatli munosabat o‘quvchilarni jamiyatga moslashishga, ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga va ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni anglashga yordam beradi. Tadqiqot davomida o‘quvchilarda qadriyatli munosabatning shakllanishi o‘qituvchilarning pedagogik yondashuvlari va jamiyatning ijtimoiy talablari asosida amalga oshishi kerakligi ta’kidlanadi. Shaxsning qadriyatli munosabati uning hissiy, kognitiv va xulq-atvorga asoslangan munosabatlaridan kelib chiqadi. Maqolada qadriyatli munosabatni shakllantirishda o‘qituvchining asosiy vazifasi va ta’lim jarayonida foydalaniladigan samarali usullar tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *qadriyatli munosabat, ma'naviy rivojlanish, o‘qituvchi va o‘quvchi munosabati, ijtimoiy moslashuv, psixologik yondashuv, ma'naviy-axloqiy rivojlanish, kognitiv munosabat, xulq-atvor, pedagogik jarayon.*

Kirish

Jamiyat rivoji, qadriyatlar va g‘oyaviy yuksalishning shakllanishi insonni oliy qadriyat sifatida e'zozlash zarurligini ta'kidlaydi. Maktabgacha yoshdan boshlab o‘quvchilarda qadriyatli munosabatni shakllantirish jarayoni ularni jamiyatga uyg‘unlashtirishga va hamkorlik qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Inson qadriyatlari orqali jamiyat a'zolari tomonidan ma'qullangan xulq-atvor me’yorlarini o‘zlashtiradi va bu orqali hayotiy faoliyatga kirishadi. Shunday qilib, ijobiy nuqtai nazar va qadriyatlar yosh avlodda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilarda qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirish o‘qituvchilarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi, chunki bu jarayon yoshlarda ma'naviy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi. Pedagogik-psixologik tadqiqotlar qadriyatli munosabatlar jamiyat talablariga, xalqning turmush tarzi va o‘qituvchilarning yondashuvlariga bog‘liq holda shakllanishini ko‘rsatadi. Bu tajriba avval oila va maktab muhitida, so‘ng jamiyatda mustahkamlanadi.

Mazkur jamiyatdagi rivojlanish g‘oyaviy yuksalish va qadriyatlarning namoyon bo‘lishiga keng yo‘l ochmoqda. Shu tariqa, insoniylik sifatlarining namoyon bo‘lishi jamiyatda insonning oliy qadriyat sifatida e`zozlanishiga imkoniyat yaratmoqda.

Bizning jamiyatimizda ijtimoiy rivojlanish taraqqiyotning negizini belgilaydi. Bugungi kunga kelib, jamiyatning taraqqiyotida insonning o‘rni va ahamiyati, uning oliy qadriyat ekanligini anglash ehtiyoji kuchaydi. Chunki, “Inson – ijtimoiy mehnat asosida shakllangan tafakkur va nutqqa ega bo‘lgan, mehnat qurollari yasash va atrof-muhitga faol ta`sir ko‘rsata oladigan oliy darajadagi tirik mavjudot” hisoblanadi. Shuning uchun ham u oliy qadriyat darajasiga ko‘tarilgan.

Demak, bugungi kunda jamiyatdagi eng qimmatli, qadrlanadigan fenomen inson va uning bunyodkorlikka asoslangan faoliyatidir. O‘quvchilarda maktabdayoq insonga oliy qadriyat sifatida yondashish ko‘nikmasini shakllantirish jamiyat hayotini ma`naviy jihatdan boyitishda alohida ahamiyatga ega. Chunki qadriyatlar jamiyatda kishilarni o‘zaro hamkorlik qilishga undaydi. Uning yordamida shaxs jamiyat hayotiga uyg‘unlashadi. Inson qadriyatlar yordamida jamiyat a`zolari tomonidan ma`qullangan xulq-atvor me`yorlarini o‘ziga singdiradi hamda hayotiy faoliyatga kirishadi. O‘sib kelayotgan yosh avlodda ijobiy nuqtai nazarlar, hayotiy ko‘nikmalar qadriyatlarga yo‘naltirilgan taqdirdagina vujudga keladi. Hozirgi mavjud vaziyatda o‘quvchi-yoshlar sarosimaga tushmasligi, ularda xudbinlik kayfiyatining kuchaymasligi uchun ham, shaxslararo qadriyatli muloqot ko‘nikmalarini egallashlari muhim.

O‘qituvchining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarda qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirishdan iboratdir. Chunki o‘qituvchi pedagogik faoliyatining asosini yosh avlod ma`naviyatini shakllantirish tashkil etadi. Q.Yo‘ldoshev[80], S.Nishonova[108], O.Musurmonova[103], P.Ya.Gal`perin[66], V.A.Petrovskiy[115] kabi olimlarning ta`kidlashlaricha, tarbiyaning usullari, nuqtai nazarlar nafaqat jamiyat hayotining o‘ziga xos talablari bilan bog‘liq holda tarkib topadi, balki xalqning an`analari, davlatning siyosiy qurilishi, o‘qituvchining o‘ziga xos xarakteri, nuqtai nazarlari va xalqning turmush tarzi bilan ham bevosita bog‘liqdir. Jumladan, ta`lim jarayoni sub`ektlarining oilaviy hayoti, atrof-muhit va jamiyat a`zolariga bo‘lgan munosabati hamda ular o‘zlashtirgan qadriyatlar bunga misol bo‘la oladi. Shuning uchun ham jamiyat a`zolari orasida qadriyatlarga nisbatan xaqqoniy munosabatni shakllantirish tobora dolzarblashmoqda. Chunonchi, ustoz-shogird munosabatlari, ota-onaga hurmat, 28 do‘stlikni qadrlash, Vatanni sevish, oilani muqaddas deb bilish, ajdodlarimizga nisbatan hurmat va e`tibor shular jumlasidan. Buning uchun o‘qituvchi muayyan nuqtai nazarlarning yaxlitligiga erishishi, o‘quvchilarda shakllantiriladigan qadriyatli munosabatlarning o‘ziga xos jihatlarini yaxshi bilishi lozim. Qadriyatli munosabatlar dastlab ota-onalar bilan farzandlar, o‘qituvchi va o‘quvchilar orasida vujudga keladi. O‘quvchilarda qadriyatli munosabatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonda o‘qituvchilar shaxslararo munosabatlarga asoslanishlari lozim. O‘qituvchi o‘quvchilarning shaxs sifatida o‘ziga xosliklarini namoyon qilishiga ko‘maklashishi, o‘z hayotiy nuqtai nazarlariga ega bo‘lishlarini qo‘llab quvvatlashi nihoyatda zarur hisoblanadi.

Pedagogika qadriyatni inson tomonidan qabul qilingan ideal, uning uchun muhim hodisa, tushuncha, munosabat sifatida tushunish keng tarqalgan.Shaxsning qadriyatli munosabati muammosi fanlararo muammodir. Falsafada “qadriyatli munosabat” tushunchasi obyekt-subyekt munosabatlari tizimida joylashgan ma’naviy faoliyat turlaridan biri sifatida talqin qilinadi.

M.S.Kagan qadriyatli munosabat shakl va mazmunga ega deb hisoblaydi: “mazmun – aniq qadriyaviy ma'no tug‘iladigan va u ishlaydigan umumiy sotsiomadaniy kontekstdan kelib chiqadigan dunyoqarashli-semantik, uning shakli esa – qadriyat ong tomonidan “ushlab qolinadigan” psixologik jarayondir” [81]. Sotsiologiyada “qadriyatli munosabat” shaxsiy ma'nolar tizimi asosida yotadigan individning ijtimoiy tajribasining ma'naviy sinishi sifatida namoyon bo‘ladi, u, o‘z navbatida, shaxsning o‘zi uchun uning hayotiy faoliyatida ahamiyatga molik bo‘ladi.

Psixologiyada “qadriyatli munosabat” tushunchasining quyidagi talqini keltirilgan: qadriyat munosabati – sub’ekt ehtiyoj va manfaatlari asosida obyektning muhimligi munosabati (B.G. Ananiev, V.V. Davydov, B.F. Lomov, S.A.Rubinshteyn va boshqalar konsepsiyalari).

Psixologlarning ta`biricha, shaxsni tushunish, unga qadriyatli munosabatda bo‘lish uchun avvalombor uning hissiyotlarini anglash lozim. Har bir o‘qituvchi o‘quvchilarni anglashi, ularda qadriyatli munosabat tajribasini samarali shakllantirishi uchun qadriyatlarning o‘ziga xos jihatlarini yaxshi bilishi talab qilinadi. O‘qituvchi o‘quvchilarga e`tibor qaratar ekan, ularning xulq-atvori, faoliyati, bilimlarining mavjud darajasini aniq baholay olishi muhim ahamiyatga ega. Qadriyatli munosabatlar o‘quvchilar qiziqishlarining ko‘rsatkichlari, ehtiyojlari, qarashlari va aqliy rivojlanishlarini mujassamlashtiradi. O‘quvchilarda hosil bo‘lgan qadriyatli munosabatlar tajribasi ularning xulq-atvori va istiqboldagi faoliyat yo‘nalishini belgilaydi. Har qanday fikr murakkab shaxsiy tajribaning mahsuli sifatida o‘quvchilarda qadriyatli munosabatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Agar o‘quvchilarda qadriyatli munosabatlar tajribasi shakllantirilmasa ular jamiyat a`zolari bilan shaxslararo munosabatga kirisha olmaydilar. O‘quvchilarda hosil bo‘ladigan nuqtai nazarlar, dunyoqarash, qadriyatlarga oid bilimlar, ma`naviy ko‘nikmalar, qadriyatli munosabatlarning asosini tashkil qiladi.

Pedagoglar hamda psixologlar shaxslararo munosabatlar doirasini o‘rganar ekanlar, kognitiv, xulq-atvorga asoslangan hamda affektiv munosabatlar doirasini ajratadilar. Kognitiv munosabatlar doirasida sub`ektning ob`ektni anglashi nazarda tutilsa, xulq-atvorga asoslangan munosabatlarda faoliyatning natijasi va hatti harakatlar sifatida tushuniladi. Affektiv munosabatlar doirasi esa, shaxsning holati bilan bog‘liq barcha ko‘rsatkichlarni mujassamlashtiradi. Jumladan, A.A.Bodalev shaxslararo munosabatlar doirasida tadqiqotchilik, amaliy hamda affektiv munosabatlarni ajratib ko‘rsatadi. I.S.Kon esa, o‘z tadqiqotlarida kognitiv, xulq-atvorga asoslangan, affektiv munosabatlar va ularning qismlari, Z.A.Zorina tadqiqotlarida esa boshqaruvchilik, affektiv va axborotli munosabatlarni ajratadi.

Ta`lim-tarbiyani yaxlit bir hodisa sifatida tushunish natijasida pedagogikada shaxs faoliyati va munosabatlar doirasining vujudga kelishi tarzida talqin etiladi. Ta`lim-tarbiyani o‘quvchilarda qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirish jarayoni sifatida talqin etar ekanmiz, bunda o‘quvchilar ma`naviy rivojlanishga jalb etiladilar. O‘quvchi ta`lim olish davomida tabiat va jamiyat xodisalarini o‘z ongida aks ettirishi va uni tahlil qila olishi lozim. Bunda quyidagilarga alohida e`tibor qaratiladi: – ijtimoiy, ma`naviy-ahloqiy me`yorlarni o‘zlashtirish imkonini beradigan o‘quv materiallarini o‘quvchilarga taqdim etish; – pedagogik jarayon maqsadiga moslashtirilgan vaziyatli, funktsional yondashuvlarni tatbiq qilish; – o‘quvchilarning ma`naviy-axloqiy rivojlanishlari, qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirishga xizmat qiladigan yondashuvlardan foydalanish.

Xulosa

O‘quvchilarda qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirish ularning ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda, o‘quvchilar o‘zlarining ijtimoiy xatti-harakatlarini qadriyatlarga asoslab shakllantirishlarida aks etadi. Ushbu tajribaning shakllanishi o‘quvchilarni jamiyat a'zosi sifatida ulg‘ayishiga yordam berib, ularning kelajakdagi faoliyatlari uchun zarur asosni yaratadi. Pedagoglar va psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kognitiv, xulq-atvorga asoslangan va affektiv munosabatlar orqali qadriyatli munosabatlar shakllanadi. Bu esa o‘quvchilar uchun muhim hayotiy ma'naviy ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oripov, X., & G‘aniyeva, R. (2022). *O‘quvchilar shaxsida qadriyatlarni shakllantirishning dolzarb masalalari.* Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti Nashriyoti

2. Sodiqov, B. (2022). "Ta’limda qadriyatlarni shakllantirish: Pedagogik va psixologik jihatlar." *O‘zbekiston Ta’lim Jurnali*, 34(2), 45-57.
3. Sodiqov, B. (2022). "Ta’limda qadriyatlarni shakllantirish: Pedagogik va psixologik jihatlar." *O‘zbekiston Ta’lim Jurnali*, 34(2), 45-57.
4. Ahmedova, N., & Karimova, S. (2022). *Ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda innovatsion ta'lim usullari.* Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti.
5. www.Ziyonet.uz
6. www.edu.uz
7. www.pedagog.uz
8. www.tdpu.uz

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

INGLIZ TILI MASHG'ULOTLARIDA TARBIYALANUVCHILAR TEXNIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIC-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Sh. Z. Taylanova
Prof.

Qurbonova Nigina Asqarjon qizi
O'zbekiston Finlandiya pedagogika instituti
Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta'lim) 1 bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqola ingliz tili mashg'ulotlarida tarbiyalanuvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlarini o'rganadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida texnik tafakkur bolalarning mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Umuman olganda, maqola maktabgacha yoshdagi bolalarning texnik tafakkurlarini rivojlantirishga yordam beradigan samarali pedagogik va psixologik strategiyalarni taklif etadi.*

Kalit so'zlar: *Tafakkur, ijodkorlik, mantiqiy va kommunikativ tafakkur, faoliyat, interfaol ta'lim, o'yin, mashg'ulot, psixologik va pedagogik xususiyatlar.*

KIRISH

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkuri

Maktabgacha yosh — bolalarning rivojlanishida muhim davr bo'lib, bu davrda ularning tafakkuri, mantiqiy fikrlash qobiliyati, ijodiy ko'nikmalari va o'z-o'zini ifoda etish qobiliyati formalanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi va bu vaqt ichida tafakkur jarayonida ko'p o'zgarishlar sodir bo'ladi.

1. Tafakkurning Rivojlanishi

1.1. Muammolarni Hal Qilish

Maktabgacha yoshdagi bolalar muammolarni hal etish jarayonida o'z fikrlarini ifodalashni, yangi g'oyalarni yaratishni va mavjud bilimlarni qo'llashni o'rganadilar. Ularning muammolarni hal qilish qobiliyati, ko'pincha o'z tajribalariga va atrof-muhitga bog'liq bo'ladi.

1.2. Tasavvur va Ijodkorlik

Bolalar o'z tasavvurlari orqali ijodiy fikrlay oladilar. Ular o'yinlar, hikoyalar yoki rasm chizish orqali ijodkorlik ko'nikmalarini namoyon qiladilar. Tasavvur qobiliyati bolalarning mantiqiy fikrlashida ham muhim rol o'ynaydi, chunki ular ma'lumotlarni taqqoslash, wadoning ko'rinishini anglash va yangi holatlarni tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

2. Tafakkur Turlari

2.1. Kommunikativ Tafakkur

Bolalar o'z fikrlarini ifoda etish va boshqalar bilan muloqot qilishni o'rganadilar. Bu yaratuvchanlik va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhimdir. O'zaro muloqot bolalarni yangi bilimlarni o'rganishga, til ko'nikmalarini rivojlantirishga va emotsional intellektni oshirishga yordam beradi.

2.2. Mantiqiy Tafakkur

Maktabgacha yoshdagi bolalar mantiqiy fikrlashni va muammolarni hal qilishni o'rganadilar. Mantiqiy o'yinlar va vazifalar orqali, bolalarda tafakkur ko'nikmalari shakllanadi. Ular sabab-natija munosabatlarini anglashadi va oddiy mantiqiy muammolarni hal qila oladilar.

3. Ta'lim Jarayonida Tafakkur Rivoji

3.1. O'yin orqali o'qitish

O'yin — maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlash, tafakkur va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali usulidir. O'yinlar orqali bolalar izlanish, kuzatish va tajribalarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

3.2. Amaliy Faoliyatlar

Amaliy mashg'ulotlar va tajribalar bolalarning tafakkurini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Ularning o'zlari yaratgan yoki boshqalar bilan birgalikda ishlab chiqqan loyihalarida ishtirok etishlari, keng miqyosda bilim olishlariga imkon beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkuri ularning atrof-muhit bilan muloqoti, o'z tajribalaridan o'rganishi va ijodiy faoliyati orqali rivojlanadi. Bu yoshda, bolalar uchun rivojlanish jarayonini qo'llab-quvvatlash, ya'ni ta'lim va tarbiyaning qiziqarli usullarini qo'llash, ularning tafakkuri va ijodkorligini oshirishga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida berilgan yaxshi ta'lim, bolalarning kelajakdagi muvaffaqiyatiga asos bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini rivojlantirishning metodlari turli xil usullarni o'z ichiga oladi, bu usullar bolalarning muammolarni hal etish, mantiqiy fikrlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradi. Ushbu metodlar bolalar uchun qiziqarli, faol va interfaol bo'lishi kerak.

1. O'yin Asosidagi Ta'lim

O'yin — maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishda eng samarali metodlardan biridir. O'yinlar bolalar uchun qiziqarli bo'lib, ularning mantiqiy fikrlashini va ijodkorligini oshirishga yordam beradi. O'yinlar orasida quyidagilarni kiritish mumkin:

- Rolli o'yinlar: Bolalarning muloqot qilish qobiliyatini va ijodiy tafakkurini rivojlantirishda yordam beradi.
- Qiziqarli testlar va viktorinalar: Bolalarga qiziqarli savollar berish orqali ularning mantiqiy tafakkurlarini oshiradi.

2. Amaliy Faoliyatlar

Bolalar o'z tajribalarini oshirish va bilimlarini amalda qo'llashga yordam beradigan amaliy faoliyatlar. Misol uchun:

- Qo'l mehnati va ijodiy loyihalar: Rasm chizish, qum va plastilinddan narsalar yasash orqali bolalar o'z ijodkorliklarini namoyon etadilar.

- Tabiat bilan muloqot: Tabassum, o'simliklar yoki hayvonlar bilan faoliyatlar orqali bolalar tabiatni bilishadi.

3. Muloqot va Munozara

Bolalarni o'z fikrlarini ifoda etishga va boshqalar bilan muloqot qilishga undash, ularning kommunikativ tafakkurlarini rivojlantiradi. Muloqot jarayonida:

- Guruh muhokamalari: Bolalar birgalikda fikr va g'oyalarni muhokama qilish orqali o'zaro fikr almashadilar.
- Suhbatlar: Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan oddiy, qiziqarli savollar orqali muloqot qilish.

4. Vizuallar va Ko'rgazmali Materiallar

Ko'rgazmali materiallar bolalarning tushunish va xotirasini kuchaytiradi. Masalan:

- Infografikalar, chizmalar va diagrammalar: O'quv jarayonini jonlantiradi va bolalarga o'z fikrlarini aniq ifodalashga yordam beradi.
- Videolar va ko'rsatuvlar: Bu ko'rish orqali bilimlarni yaxshiroq olishga yordam beradi.

5. Kreativ Faoliyatlar

Ijodiy faoliyatlar bolalarning tasavvurini kengaytiradi va innovatsion fikrlashni rag'batlantiradi. Misollar:

- Qo'shiqlar va raqslar: Musiqa va harakat orqali bolalar o'z his-tuyg'ularini ifoda etishga o'rganadilar.
- Yozma faoliyatlar: Qisqa hikoyalar yoki rasmli kitoblar yaratish orqali bolalar o'z ijodkorliklarini namoyon etadilar.

6. Tashkilot va Rejalashtirish

Bolalarga faoliyatlar va o‘zaro munosabatlarni rejalashtirishga imkoniyat berish ularning tahliliy va texnik tafakkurlarini rivojlantiradi. Bolalar guruhlar ichida ish olib borish, vazifalarni taqsimlash va natijalarni muhokama qilish orqali tashkilot ko‘nikmalarini oshirishadi.

7. O‘zbekistonning O‘rganilgan Tajribasi

O‘rganish jarayonida mahalliy an'analar, madaniyat va urf-odatlarni kiritish bolalarning tafakkurini hosil qilishda muhim ahamiyatga ega. Ularning atrof-muhitga qiziqishlarini oshirish va ta'lim jarayoniga integratsiyalashishiga yordam berish uchun:

- Mahalliy tabiat haqida o'qitish: O'quvchilarni atrof-muhit va tabiat bilan tanishtirish.
- Urf-odatlar va bayramlar: Mahalliy bayramlar va urf-odatlar haqida o'rganish bolalar uchun qiziqarli va foydali bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkurini rivojlantirish jarayoni ko'p qirrali va qiziqarli bo'lishi lozim. O'yinli, ijodiy va amaliy faoliyatlar orqali bolalar o'z fikrlarini ifoda etishga, yangi bilimlarni o'zlashtirishga, mantiqiy fikrlashga va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berish kerak. Ushbu metodlar bolalarning kelajakdagi muvaffaqiyatining poydevorini yaratishga xizmat qiladi.

Ingliz tili mashg‘ulotlarida tarbiyalanuvchilar texnik tafakkurini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari

Ingliz tilini o‘rganish, nafaqat til ko‘nikmalarini rivojlantirish, balki bolalar tafakkurini kengaytirish, mantiqiy fikrlash va ijodkorlikni oshirish uchun ham muhimdir. Texnik tafakkur, muammolarni hal

qilishda innovatsion va analitik fikrlash jarayonini o‘z ichiga oladi. Ushbu maqolada, ingliz tili darslarida tarbiyalanuvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirishda pedagogik va psixologik xususiyatlar haqida so‘z boradi.

1. Pedagogik xususiyatlar

1.1. Interfaol ta'lim metodlari

Interfaol ta'lim usullari bolalar uchun qiziqarli va motivatsion muhit yaratadi. Ular jamoaviy ishlar, muammolarni hal etish va o‘rganish jarayonida faol ishtirok etishni ta'minlaydi. Masalan, rolli o‘yinlar yoki muammolar asosida yaratilgan o‘yinlar yordamida tarbiyalanuvchilar ingliz tilidagi so‘z boyligini va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

1.2. Amaliy mashg‘ulotlar

Amaliy faoliyatlar bolalarga teoriya va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Texnologiya, tabiiyot yoki kundalik hayotda ingliz tilini qo‘llash orqali bolalar muammolarni hal qilish va yangi g‘oyalarni ishlab chiqishga o‘rgatadilar. Shuningdek, amaliy mashg'ulotlar o'z fikrlarini ifoda etish imkonini beradi.

1.3. Fikrlarni tahlil qilish

Bolalarni fikrlarini tahlil qilishga, munozara yoki muhokama qilishga jalb etish, ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshiradi. Talabalar o'z fikrlarini tushuntirib berish va boshqalar bilan baham ko'rish orqali bilimni yanada chuqurlashtirishlari mumkin.

2. Psixologik xususiyatlar

2.1. Motivatsiya

Talabalarning ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyati ularning ichki motivatsiyasiga bog‘liq. O'qituvchilar darslarni qiziqarli va foydali qilib tashkil etish orqali bolalarni o'z bilimlarini oshirishga undashlari kerak. Motivatsiya kuchli bo'lganida, bolalar o'z fikrlarini ifoda etishga va yangiliklarni o'rganishga ko'proq tayyor bo'ladilar.

2.2. O'z-o'zini o'rganish

O'quvchilarga mustaqil o'rganish imkoniyatini berish, ularning o'z bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, texnik tafakkurlarini kuchaytiradi. O'quvchilar o'zlarini qoniqarli va muvaffaqiyatli his qilish orqali o'ziga bo'lgan ishonchni oshirishadi.

2.3. Tajriba va izlanish

O'quvchilarga jihozlar, o'yinlar va laboratoriya ishlarida tajriba o'tkazish imkonini berish, ularning izlanish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bu jarayon bolalarni o'z fikrlarini amalda qo'llashga undaydi va o'z kelgusida muammolarni hal qilishda yanada samarali bo'lishlariga yordam beradi.

3. Yondashuvlar

- Guruh ishlarini tashkil etish: Talabalarni jamoalarda ishlashga va birgalikda muammolarni hal qilishga undash. Bu ularning jamoaviy fikrlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi.
- Muammoni hal qilish o'yinlari: Texnik muammolarni ingliz tilida hal qilishga qaratilgan o'yinlar va vazifalar yordamida bolalarning tafakkur qobiliyatini rivojlantirish.
- O'zaro fikr almashish: O'quvchilar o'z fikrlarini muntazam ravishda baham ko'rishlari va boshqa talabalarning fikrlarini tinglashlari orqali o'z fikrlarini jalb qilishadi.

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

XULOSA

Ingliz tilida tarbiyalanuvchilarning texnik tafakkurlarini rivojlantirish jarayonida pedagogik va psixologik xususiyatlarni birlashtirish ajralmas ahamiyatga ega. O'qituvchilar interfaol yondashuvlar, amaliy faoliyatlar va ijobiy motivatsiya orqali bolalarning tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayon natijasida talabalar nafaqat ingliz tilini mukammal o'rgana, balki hayotiy muammolarni hal qilishda ham qobiliyatlarini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bolalar yondashuvlari va ko'nikmalari rivojlanishi natijasida, kelajakda ularning kasbiy muvaffaqiyatlari uchun mustahkam poydevor o'rnatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdulazizov, A. (2022). Ta'lim tizimidagi innovatsion texnologiyalar. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
2. Yusupova, N. (2022). Pedagogik psixologiya: nazariya va amaliyot. Toshkent: TDTU.
3. Pirmatov, X. (2022). Bolalar tafakkurini rivojlantirish: o'zbek bolalariga mo'ljallangan metodik qo'llanma. Toshkent: O'qituvchi
4. Qodirov, S. (2022). Ingliz tilini o'qitishda interfaol metodlar. Toshkent: O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining nashr.
5. Sharipova, D. (2022). Zamonaviy ta'limda psixologik yondashuvlar. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi.
6. Rahmonov, A. (2022). Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘yin va ta'lim: amaliy qo'llanma. Toshkent: Ma’naviyat
7. Xolicheva, L. (2022). Ta'lim va tarbiyani integratsiyalash: nazariy asoslar va amaliyot. Toshkent: O'zbekiston davlat pedagogika universiteti.
8. Isroilova, M. (2022). Fikrlash va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish: metodik qo'llanma. Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti.
9. Tamberg Yu.G. Bolaning ijodiy tafakkurini rivojlantirish SanktPeterburg, tq. 2002 yil.
10. www.Ziyonet.uz
11. www.edu.uz
12. www.pedagog.uz
13. www.tdpu.uz

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

«ФАНТОМНОСТЬ» КАК СОЦИАЛЬНО-ИСТОРИЧЕСКАЯ И ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ПАТРИКА МОДИАНО

Азамжонова Сарвиноз Шухратовна
Студентка 2 курса Узбекского государственного университета мировых языков

Аннотация: *Данная статья посвящена исследованию явлений текущего литературного процесса в его незавершенности, в частности, многоаспектному изучению творчества Патрика Модиано как феномена литературы конца XX века, а также рассматриваются произведения П.Модиано как вариант современного полижанрового, всеобъемлющего «тотального романа», порожденного интегрирующими тенденциями времени, как новую художественную целостность.*

Ключевые слова: *фантомность, исторические реалии, роман, персонаж, концепция, интерпретация, жанр, контекст.*

«Фантомность» в произведениях П.Модиано читается как социальная категория, порожденная историческими реалиями XX века: войнами, миграцией, отрывом от корней. Его персонажи принадлежат к определенной социальной среде — «маргинальной» среде сомнительных личностей, бродяг, сутенеров, «безнадежных прожигателей жизни»; апатридов, живущих на краю мира, на «задворках» истории, людей с сомнительным прошлым и неустойчивым настоящим. Поэтически осмысляя образ этих «никчемных существ», каждый из которых хранит свою трагедию, свою тайну, П.Модиано называет их «призраками», «ночными мотыльками», которые «рассеиваются с первыми лучами солнца», «статистами» («comparses»), «силуэтами, смутно различимыми на заднем плане пейзажа».

Эти персонажи – «бильярдные шары» («boules d'un billiard»), ни в чем не уверенные, вырванные из социума – социальное явление времени, всеобщего бегства и неуверенности XX века. П.Модиано находит для них точное определение – «герои дня», вкладывая эти слова в уста Виктора Хмары («Вилла "Грусть"»), долгие годы хранившего газетную фотографию, где изображены Ивонна и Мейнт – победители конкурса элегантности «Улиган» на небольшом швейцарском курорте: *«Однажды вечером я с грустью смотрел на нее и вдруг схватил красный карандаш и написал: "Герои дня"». Но быть «героем дня» — это и значит, быть героем времени, ибо таков закон современности, центром которой является жизнь многомиллионного города с его сумасшедшим ритмом, поминутной сменой декораций, мельканием лиц и судеб в средствах массовой информации, где «каждый может стать знаменитым на пятнадцать минут».*

«Фантомность» определена войной — периодом оккупации, когда каждый был вовлечен в военное безумие, был вынужден скрываться, прятаться, отказываться от своего прошлого. «Он

создает полицейский климат...», - пишут о П.Модиано в «Магазин литтерер»; «П.Модиано одержим темой оккупации»; «П. Модиано кажется человеком, которого всю жизнь преследует призрак оккупации»; «П. Модиано дышит тем же воздухом, что и его отец в период оккупации»; «оккупационный Париж — «вечная» тема для П. Модиано, с которой он не может порвать» - подобные фразы можно найти практически во всех рецензиях и критических статьях.

Оккупация — «эпоха драм и смятения», атмосфера бегства не покидает сознание людей, по наследству передается детям. Фотограф Мансур боится ходить по улице Кусту, ибо воспоминания военных лет не стираются из его памяти; Риго и Ингрид («Свадебное путешествие») во время оккупации прятались, стремились не привлекать к себе внимания, «притворялись мертвыми», но и через много лет после войны они продолжали скрываться и «притворяться мертвыми». Виктор Хмара чувствует себя беженцем после войны: *«Помните Лиссабон во время войны? Люди набивались в бары и вестибюль отеля «Авис» со своими чемоданами и коробками, ожидая пароход, который никогда не придет? Так вот, через двадцать лет после тех событий я чувствовал себя одним них».*

П.Модиано, сравнивал полицейскую атмосферу 60-х годов с полицейской атмосферой оккупации: «Война в Алжире наложила отпечаток на людей моего поколения. В то время весь Париж был наводнен полицейскими», - говорит о своих романах сам автор. В памяти его персонажей сохраняется и атмосфера неустойчивости, неуверенности, и «инстинкт» бегства, когда важно уметь «растворяться в декоре», сливаться с серыми домами, исчезать в тумане. Это умение персонажи П. Модиано не утрачивают никогда: *«За двадцать лет она прошла со мной хорошую школу и научилась искусству прятаться, избегать назойливых людей, скрываться в толпе. Она умела уклоняться от нежелательных встреч: укрыться в шкафу, выпрыгнуть в окошко, ускользнуть через черный ход или по пожарной лестнице, сбежать по эскалатору против хода... А дальние путешествия... Каждое из них было бегством».*

П. Модиано не создает определенную концепцию периода оккупации, ибо не ставит перед собой такой задачи, он воссоздает дух времени, образ Смуты, который наиболее ярко проступает в период второй мировой войны, но который характерен для всей атмосферы жизни второй половины XX века. Образ «смутного времени» предстает как некая внеисторическая категория. Не теряя надежды постичь себя, «стертые» персонажи, «бильярдные шары», хотя и не могут уйти от «смуты», в которой кочуют, тем не менее стремятся вырваться из нее, обрести твердую почву, и отправляются в свою вечную Одиссею — к «корням».

Диалектика забвения-памяти-воображения в романах П.Модиано дает возможность увидеть еще один аспект категории «фантомности». В романах П.Модиано забвение, амнезия — это основная плоскость существования персонажей, то пространство, в котором они живут, если использовать выражение Хайдеггера, это их «основной модус бытия». Такая трактовка как будто приближается к трактовке М.Бланшо, который говорил, что «бытие — еще одно имя забвения», и только забвение дает возможность вспоминать: *«Сначала забыть. Вспоминать только там, где ничего не помнишь. Забыть: вспомнить обо всем как бы через забвение... Тот, кто вспомнит, глубоко забудет о самом себе и об этом воспоминании, которого не отличит от своего забвения...». Но «фантом-кочевник» П.Модиано отличается от «последнего человека» М.Бланшо невозможностью существования в Забвении, отсюда и пафос Поиска, стремление вырваться из «лап» амнезии, перейти на другой уровень существования, обрести свое «я».*

«Фантомность реальности», эффект неустойчивости, «мерцания» мира усиливается при столкновении трех «плоскостей» сознания — амнезии, памяти, воображения. В «Улице Темных лавок» в сознании Ги Ролана, погруженного в белый туман амнезии, вдруг «проблескивают» «картины», «кусочки» воспоминаний: *«Я повернул выключатель... Потом снова зажег свет и*

снова погасил. Зажег в третий раз и погасил. Это движение... я видел себя, зажигающего свет в какой-то комнате, размером с эту... И жест этот я повторял каждый вечер, в один и тот же час»; «Круглый плафон... освещал подъезд белым, очень резким светом... На миг в моем сознании вспыхнула картина... Я увидел себя, увидел, как иду по темному Парижу и открываю дверь этого дома на улице Камбасерес...».

Вспышка света, «динамический стереотип» поворота выключателя — и сквозь плоскость амнезии «просвечивает» плоскость памяти. С одной стороны, яркое пятно костюма, стук трости Скуффи, толстяка с бульдожьим лицом-это плоскость памяти, «пробивающаяся» сквозь плоскость амнезии. Такой «просвет», «вспышку» А.Бергсон называл «самопроизвольным воспоминанием», которое обнаруживается «внезапными проблесками» памяти. С другой стороны, это и «ниточка», дающая выход на уровень воображения: встречи с Дениз, кафе, кинотеатры, поздние возвращения домой. «Все это, наверное, было в самом начале, когда мы с Дениз только познакомились», - предполагает Ги Ролан.

В романе «Дора Брюдер» плоскости памяти – судьбы Патрика, и воображения – судьбы Доры — сосуществуют и постоянно сменяют одна другую: то Патрик вспоминает, как он ходил по Парижским улицам, что думал и чувствовал, то воображает, где могла бывать Дора во время оккупации, что она чувствовала в этом враждебном городе. Такие детали, как гостиница на бульваре Орнано, полицейский участок, «корзина для салата» становятся точками пересечения этих плоскостей.

В романе «Цветы на развалинах» плоскость воображения – жизнь молодой пары, покончившей самоубийством – наслаивается на плоскость воспоминаний — жизнь персонажа, его маршруты, встречи: *«Этой ночью 1933 года Т. должны были идти той же дорогой, что и я.... Квартал Монпарнаса... улица Деламбр...»; «дом с красным лифтом»,* о котором упоминала умирающая Жизель Т. переносит «исследователя» в его воспоминаниях на Волчий остров, где он встречался с фотографом Клодом Бернаром, а воображение — в апрель 1933 года, когда в этом доме с красным лифтом решилась судьба самоубийц.

Постоянно меняя ракурсы повествования, «переключая» сознание своих персонажей с одного уровня на другой, П. Модиано и воссоздает, возможно, неосознанно, эффект «мерцания» мира, а точками пересечения — перемещения из одной плоскости в другую — становятся улицы, переулки, тупики, отели, кафе, а также документы, газетные заметки, записные книжки (на другом уровне — в предыдущей главе — мы показывали, что они же являются и точками бифуркации, «начальными условиями», нередко меняющими судьбу персонажей, «переключающими» ее на другую «ветвь развития»).

Представляется, что подобное «мерцание» разных «пластов» сознания — забвения-памяти-воображения — усиливает эффект неуверенности персонажей — не только в окружающем мире, но и в реальности собственного «я» — и становится одной из проекций «фантомности».

ЛИТЕРАТУРА:

1. Modiano Patrick « Villa Triste ». Paris, 1977.
2. Modiano Patrick « Quartier perdu ». Paris, 1984.
3. Modiano Patrick « Rue des Boutiques Obscures ». Paris, 1997.
4. М.Бланшо Ожидание забвения. Москва, 2000.
5. А.Бергсон Материя и память // Творческая эволюция. Материя и память. Минск, 1999.
6. Делез Ж., Гваттари Ф. Различие и повторение. Москва, СПб, 1998.

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr:11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

AYOLLAR NUTQIDA TABU VA EVFEMIZM (NAMANGAN SHAHRI MISOLIDA)

Qo‘ziyev Umidjon Yandashaliyevich
Namangan davlat universiteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi mudiri PhD, dotsent

Maxmudjonova Muborak Farxodjon qizi
Namangan davlat universiteti
Filologiya fakulteti o‘zbek tili yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Abstract: *Ushbu maqolada o‘zbek nutq madaniyatining bir qismi sifatida evfemizmlarni hududiy tahlil qilish va Namangan shahri aholisi hayotida ularning nutqiy qatlam sifatidagi qo‘llanish xususiyatlariga doir ilmiy izlanish olib borilgan.*

Keywords: *evfemistik vosita, denotativ ma’no, nutqiy qatlam, tabu, ma’no ottenkasi.*

Introduction:

O‘zbek lingvistikasi rivojlanishida, nutq madaniyatining takomillashuvida evfemistik vositalarning ahamiyati beqiyos. Evfemik nutq tafakkurning, inson aql-zakovatining oliy formasi, “qaymog‘i”, voqelikning pardozlangan, “parda ichiga olingan”, beozorlashtirilgan, yumshatilgan obrazli ifodasidir.[1,293] Xalqimiz evfemizmlarni nihoyatda barakali tarzda qo‘llashi sababidan uning milliy ibo va nazokatni qanchalik ustuvor tutishiga amin bo‘lish mumkin. Evfemistik vositalarning ko‘lami esa makon va zamon xususiyatlariga ko‘ra kengayib boradi. Ta’kidlash kerakki, O‘zbekistonning turli hududlarida o‘ziga xos evfemizmlardan foydalaniladi. Namangan ayollari nutqi alohida o‘rganilsa, salmoqli miqdorda yangi evfemizm namunalarini aniqlash va ularni tadqiq qilish imkoni mavjud bo‘ladi.

METOD VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Evfemizm atamasi grek tilidan olingan bo‘lib, ko‘pchilik mualliflar fikriga ko‘ra , noo‘rin birliklarning o‘rinli birlikka almashinuvi sifatida qaraladi. Evfemik ma’no yuklangan ifodalar antik davrdan boshlab olimlarda qiziqish uyg‘otgan. O.M.Freydenbarg tahriri ostida chop etilgan “Античные теории языкознания и стиля” nomli asarda “evfemizm” tushunchasi Demokrit, Platon, Aristotel tomonidan ham tilga olinganligi haqida ma’lumot beriladi.“Лингвистический энциклопедический словарь” da “Evfemizm – bu so‘zlovchi nazarida qo‘pol, noqulay bo‘lgan so‘z yoki ifodalar o‘rnida qo‘llangan, ularga ma’nodosh bo‘lgan emotsional betaraf so‘z yoki ifodalar” deyiladi.[2, 5] O‘zbek tilshunosligida evfemizm disfemizmga nisbatan kengroq o‘rganilgan bo‘lib, olimlar tomonidan evfemizmning ko‘proq nutqiy qatlam sifatidagi xususiyatlari sistemali tadqiq etilgan. A.Hojiyevning 2002-yilda qayta nashr qilingan “Lingvistik terminlar izohli lug‘ati” da evfemizmga quyidagicha izoh beriladi: “Evfemizm narsa hodisaning ancha yumshoqformasidagi ifodasi; qo‘pol, beadab so‘z, ibora va tabu o‘rnida qo‘pol bo‘lmagan, botmaydigan so‘z, iborani qo‘llash. Mas., *homilador* so‘zi o‘rnida *ikkiqat, og‘ir oyoqli* so‘zlarini qo‘llash”. [2, 5] Evfemizmning yondosh hodisalarga munosabati, turdosh

bo‘lgan troplari, til sathidagi o‘rni belgilanganligi, lisoniy va nutqiy evfemalar farqlanib, evfemik ma’no kategoriyalari funksional-uslubiy jihatdan tasnif qilinganligi ahamiyatlidir. Qolaversa, o‘zbek tilshunoslari orasida ayni masala yuzasidan hanuz bahs-munozaralar olib borilayotganligi uning turli sohalar bo‘yicha chuqurroq o‘rganilishi lozimligidan dalolat beradi. Yana bir jihat borki, nutqiy faoliyatda erkaklar va ayollar o‘rtasida lingvistik tafovutlar mavjud. Ovoz toni va ohang, odob strategiyalari, his-tuyg‘ularning ifodalanishi, til uslubi va noverbal muloqot xususiyatlari erkaklar va ayollarda farqlanadi. Ayollar nutqida emotsional-ekspressiv va baho beruvchi leksika, intensifikatorlar ko‘proq uchraydi. O‘zbek ayollari erkaklarga qaraganda, xossatan, evfemizmlardan keng foydalanadilar. Sababi shuki, ular o‘zlarining nutqlarida yumshoqlik, muloyimlik va ehtiyotkorlikni namoyon etishga harakat qiladilar. Evfemizmlardan faol ravishda foydalanish ularning muloqotdagi maqsadlari va strategiyalarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR TAHLILI


O‘zbek tilida inson hayotida yuz beradigan barcha jarayon, hodisa, shaxslarning “birlamchi nom o‘rnida qo‘llanadigan evfemistik ifodalari mavjud, ular tilda mavjud nomlarning funksional-semantik sinonimlari” sifatida qo‘llaniladi. O‘zbek nutqi, jumladan, Namanganda istiqomat qiluvchi ayollar nutqining “tutqich bermas” ifoda-yu iboralari ko‘pligi, konnotativ sathning o‘zgaruvchanligi, yumor, kinoya usullarining o‘ziga xosligi diqqatga sazovor. Namangan viloyati, Namangan shahrida o‘tkazilgan ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatdiki, Namangan ayollari nutqidagi evfemizmlarni 5 ta yirik guruhga ajratish mumkin:

* nutqiy ko‘tarinkilik va diniy maqsadlar uchun qo‘llanadigan evfemizmlar
*tabu bilan bog‘liq evfemizmlar
*ma’nosi qo‘pol, aytish noqulay bo‘lgan so‘z va iboralar o‘rnida qo‘llanadigan evfemizmlar
*bid’at, irim qilish bilan bog‘liq evfemizmlar
*stilistik evfemizmlar.


O‘zbek tilida inson hayotida yuz beradigan barcha jarayon, hodisa, shaxslarning “birlamchi nom o‘rnida qo‘llanadigan evfemistik ifodalari mavjud, ular tilda mavjud nomlarning funksional-semantik sinonimlari” sifatida qo‘llaniladi. O‘zbek nutqining, jumladan, Namanganda istiqomat qiluvchi o‘zbeklar nutqining “tutqich bermas” ifodalari ko‘pligi, konnotativ sathning o‘zgaruvchanligi, yumor, kinoya usullarining o‘ziga xosligi diqqatga sazovor. Namangan (aynan, shahar) da istiqomat qiluvchi ayollar, asosan, “dabdabali”, “ko‘tarinki”, “ehtiromli” ma’no ottenkalari bilan keluvchi evfemizmlardan foydalanadilar. Masalan, “tug‘moq” so‘zi o‘rniga shunday ifodalardan foydalanadilarki, bu tushuncha tinglovchiga juda chiroyli tarzda yetkaziladi:

tug‘moq denotativ ma’nosini ifodalovchi evfemizmlar

Jild: 04, Nashr:11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz



Xomilador ayollarga nisbatan Namangan shahrida qo‘llaniladigan evfemistik vositalar ham nutqiy madaniyatda alohida ahamiyat kasb etadi:




Qolaversa, og‘ir vaziyatlarda, salbiy jarayonlarda hamdardlik, dardkashlik, o‘zaro hurmat ma’nosini yuklovchi evfemizmlarni faol ravishda ishlatadilar. Misol uchun, o‘zbek tilida o‘lim bilan bog‘liq evfemik vositalarning 300 ga yaqin varianti topilgan. Quyida Namangan shahrida yashovchi ayollar bilan o‘tkazilgan sotsiolingvistik so‘rovnoma natijalariga ko‘ra “o‘lmoq” so‘zining nutqda eng faol qo‘llanuvchi evfemik vositalari tadrijiy tarzda keltirilgan:

Denotativ ma’no	Evfemik vosita

Jild: 04, Nashr:11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz


O‘lmoq	1. Bo‘lmay qolmoq
	2. Berib qo‘ymoq (asosan, I shaxs tilidan aytiladi)
	3. Dunyodan o‘tmoq (shuningdek, dunyodan ketmoq, ko‘chmoq)
	4. Qazo qilmoq
	5. Jon bermoq (shuningdek, joni uzilmoq)
	6. Qulog‘i ostida qolmoq
	7. Mangulik uyquga ketmoq
	8. Vaqt-soati yetmoq (shuningdek, so‘nggi soati yetmoq)
	9. Tobutga olinmoq
	10. Joyi jannatda bo‘lmoq
	11. ko‘z yummoq
	12. Qatordan xato bo‘lmoq (shuningdek, qatordan o‘chmoq)
	13. Amaldan uzilmoq
	14. O‘lim bilan yuzlashmoq

Namangan ayollari turli tabulangan kasallik nomlari to‘g‘risida ham evfemizmlar orqali fikr almashadilar. *Tabu* tilshunoslikda muayyan so‘zlar, iboralar yoki atoqli otlarni qo‘llashni taqiqlash, man etishdir. Diniy e’tiqod, irim, qo‘rqish va shu kabilar ta’sirida ma’lum so‘z, harakat kabilardan tiyilish, ularni cheklash, man etish; ishlatilishi,qo‘llanilishi cheklangan, man etilgan so‘z, narsa, harakatning o‘zi ham *tabu* atamasi ostida jamlanadi. [3, 582] Namangan ayollari aynan “sovuq” so‘zlar o‘rnida ijobiy kayfiyat uyg‘otuvchi birikmalardan yuksak mahorat bilan foydalanadilar. Ularning nutqlarida *chayon* so‘zi “tili zahar”, “oti yo‘q”, “oti yomon”, eshak” so‘zlari bilan, *ilon* esa “arqon” so‘zi orqali ifodalanadi. “Otini atab bo‘lmaydigan” kasallik nomlari ham bor. Ayollar mazkur kasalliklarni vaqtincha kiyib, keyin yechib tashlanadigan ko‘ylakka nisbat berib, kasallikka chalingan insonni quyidagicha tavsiflaydilar:



Jild: 04, Nashr:11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

Namanganlik ulug‘ yoshli onaxonlarga e’tibor berilsa, ularning nutqlarida salmoqli miqdorda “qarg‘ish so‘zlar” uchraydi. Buvilar qarg‘ash asnosida yoshlarga baxt tilab, sog‘lik-omonlik tilab duo qiladilar. Qarg‘ishlar shunchalik *“yumshoq”* va *“yoqimli”*ki, farzandlarga hech *“botmaydi”*. Bu esa evfemizmlarning xalqimiz hayotida naqadar katta ahamiyatga ega ekanligidan darak beradi:



XULOSA VA TAKLIFLAR

Evfemistik vositalarning nutq jarayonida keng qo‘llanishi Namangan aholisining etik-estetik didi, milliy ruhi, odobi va nazokati , muomala madaniyatining o‘ziga xosligiga ishora qiladi. Evfemizmlarni kengroq tadqiq qilish, ularni tasniflash masalalariga e’tibor qaratish va ularni hududlar kesimida (amaliy tarzda) tahlil qilish evfemizmlarning bevosita millat qadriyatlari, shaxs va millat tafakkuri bilan dialektik bog‘liqligini namoyon etadi.

References:

1. Omonturdiyev A. “O‘zbek tilining evfemik asoslari”, ilmiy asar. – Toshkent, 2009. – 293b.
2. Qodirova X. “O‘zbek tilida evfemizm va disfemizm” (to‘ldirilgan qayta nashr) uslubiy qo‘llanma. – “Bookmany print” nashr. Toshkent, 2022. – 5-6-7-8-9-b.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 582-b.
4. Omonturdiyev A. Bir so‘z lug‘ati . – Termiz: Jayxun, 1996. – 45b.
5. Адмони В.Г. Основы теории грамматики. – Москва-Ленинград: Наука, 1964. – 104с.
6. Siddiq Mo‘min. “So‘zlashish san’ati” asari. – Farg‘ona, 1997. – 191b

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

APPROACHES TO TEACHING SECONDARY OR HIGH SCHOOL STUDENTS: ENHANCING ENGAGEMENT AND LEARNING OUTCOMES

Nargiza Mahmudova
Teacher of Ferghana State University

Hojarxon Akbaraliyeva
Student of Ferghana State University

Abstract: *This article explores the complex and rewarding journey of teaching high school students, focusing on the unique challenges educators face, effective methods for engaging adolescents, and the positive impact teachers have on students' lives. High school teachers encounter various obstacles, such as fostering student interest, meeting diverse academic needs, integrating technology meaningfully, and preparing students for important exams. The article highlights strategies like active learning, real-life application of lessons, encouraging analytical skills, building a positive classroom culture, and providing mentorship. Ultimately, high school teaching is deeply fulfilling, as teachers contribute significantly to students' growth, form lasting connections, and help prepare young adults for future success. This educational phase is crucial, equipping students with both academic and personal skills essential for their lives ahead.*

Key words: *High school teaching , Adolescent education , Student engagement , Academic challenges , Effective teaching strategies , Real-life applications , Critical thinking, Classroom environment , Mentorship , Personal growth , Student success , Teacher- student relationships , Future preparation , Professional fulfillment.*

Introduction

High school education requires a dynamic approach to meet the intellectual and emotional needs of students. Adolescents, typically between the ages of 12 and 18, are undergoing rapid developmental changes that impact their cognitive abilities, emotional regulation, and social relationships. Teachers must navigate these complexities by adapting their teaching methods to ensure that they engage students while also nurturing their intellectual curiosity, emotional growth, and academic development.

Understanding Adolescent Development:

Adolescence is a time of dramatic change, with students transitioning from concrete thinking to abstract reasoning. By the time students reach high school, they have developed the capacity for critical thinking and the ability to solve complex, hypothetical problems. However, emotional and social development continues to play a significant role in their behavior and learning. Teachers must recognize that these students are developing their identities, grappling with social influences, and increasingly seeking independence. Therefore, it's essential to provide a balanced learning environment that challenges them intellectually while supporting their emotional and social growth.

Effective Teaching Strategies:

1. Active Learning: Active learning strategies engage students directly in the learning process rather than having them passively receive information. Techniques such as group discussions, role-playing, problem-solving activities, and hands-on projects encourage students to apply what they've learned in real-world contexts. Research has shown that active participation leads to better retention and deeper understanding compared to passive learning methods (Bonwell & Eison, 1991). By encouraging students to take an active role in their education, teachers can boost engagement and critical thinking.

2. Differentiated Instruction: Since students come to class with varying levels of knowledge, skills, and interests, differentiated instruction offers a way to meet diverse needs. This approach involves tailoring lessons to accommodate different learning styles, readiness levels, and student interests. For example, a teacher might present content using different formats—text, video, hands-on activities, and interactive online tools—to ensure all students can access the material in a way that resonates with them. By personalizing learning, differentiated instruction helps ensure that each student is both challenged and supported at their level (Tomlinson, 2001).

3. Collaborative Learning: Collaborative learning is an approach that encourages students to work together, leveraging the diverse skills and perspectives within a group. Group projects, peer feedback sessions, and cooperative problem-solving tasks not only promote teamwork but also enhance communication skills and peer-to-peer learning. Research has shown that collaboration in the classroom increases student motivation, fosters social skills, and leads to better learning outcomes (Johnson & Johnson, 1999). High school students, in particular, benefit from such interactive and social learning experiences as they build relationships and develop interpersonal skills.

4. Inquiry-Based Learning: Inquiry-based learning encourages students to take responsibility for their learning by posing questions, conducting investigations, and synthesizing their findings. This approach allows students to develop a sense of ownership over their educational journey, promotes curiosity, and enhances critical thinking skills. Teachers serve as facilitators, guiding students as they explore topics and develop their research and analytical skills. By fostering a culture of inquiry, teachers can create an environment where students are motivated to explore ideas, test hypotheses, and solve problems independently (Bruner, 1961).

5. Technology Integration: The incorporation of technology into the classroom has revolutionized teaching and learning. Digital tools such as educational apps, interactive platforms, and online resources provide students with opportunities to explore content in innovative ways, access information at their own pace, and collaborate with peers across distances. The integration of technology can also cater to different learning styles, making education more interactive and personalized. Studies have shown that when technology is used effectively, it can increase student engagement, improve academic performance, and develop essential 21st-century skills (Hattie & Yates, 2014).

Results:

Classroom Management: Effective classroom management is essential for creating a positive and productive learning environment. High school students benefit from clear expectations, consistency, and a structured environment. Teachers should set clear rules and routines at the beginning of the year and be consistent in their enforcement. Positive reinforcement strategies, such as praise and rewards, help reinforce desirable behaviors, while addressing disruptions in a constructive manner ensures that all students can focus on learning. In addition, encouraging self-regulation and giving students some autonomy in decision-making fosters a sense of responsibility.

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

Building Teacher-Student Relationships:One of the most important factors in student engagement is the quality of the teacher-student relationship. High school students are more likely to engage in learning when they feel understood, respected, and supported. Teachers should take time to get to know their students personally, showing genuine interest in their lives and aspirations. By building trust and rapport, teachers can create a safe and supportive learning environment where students feel comfortable taking risks in their learning and discussing difficult topics. Positive teacher-student relationships also contribute to improved academic outcomes, as students are more motivated to succeed in an environment where they feel valued (Pianta, 2006).

Conclusion:

Teaching high school students is a multifaceted task that requires a blend of effective instructional strategies, understanding of adolescent development, and the ability to create a supportive classroom environment. By utilizing approaches such as active learning, differentiated instruction, and inquiry-based learning, teachers can enhance student engagement and academic achievement. Furthermore, the integration of technology and collaborative learning fosters deeper connections to the material and builds essential skills for the future. Ultimately, the key to success lies in understanding students' developmental needs, adapting to their learning styles, and fostering positive teacher-student relationships that encourage lifelong learning.

References:

1. Bonwell, C. C., & Eison, J. A. (1991). Active learning: Creating excitement in the classroom. ASHE-ERIC Higher Education Report No. 1.
2. Bruner, J. (1961). The Process of Education. Harvard University Press.
3. Hattie, J., & Yates, G. (2014). Visible Learning and the Science of How We Learn. Routledge.
4. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (1999). Learning Together and Alone: Cooperative, Competitive, and Individualistic Learning. Allyn & Bacon.
5. Pianta, R. C. (2006). Teacher-Student Relationships and the Development of Children. In Handbook of Child Psychology.
6. Tomlinson, C. A. (2001). How to Differentiate Instruction in Mixed-Ability Classrooms.ASCD

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

UBAYDIY TURKIY DEVONI TUZILISHI VA JANR XUSUSIYATLARI

Jo'rayeva Yulduz Qahramon qizi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyoti ta'limi yo'nalishi 2-kurs magistranti

Abstract: *Ushbu maqolada shoh va shoir Ubaydiy ijodi haqida fikr yuritilib, uning eng katta devoni – "Kulliyoti" haqida so'z boradi. Ushbu devonning salmoqli qismini tashkil qiladigan turkiy devonga alohida to'xtalib, uning tuzilishi hamda janr xususiyatlari ochib beriladi. Bu devon tarkibiga kiruvchi ba'zi janrlardan namunalar keltirilib, qisqacha tahlilga tortiladi.*

Kalit so'zlar: *Ubaydiy, Kulliyot, turkiy devon, janr, ruboiy, g'azal.*

O'zbek adabiyoti tarixida shoh va shoirlik maqomiga ega bo'lgan ijodkor orasida Shayboniylar sulolasining yirik vakillaridan biri Ubaydullaxon ajralib turadi. U XVI asrda yashab ijod qilgan. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, adabiyotshunos olima M.Mirzaahmedova ayni shu davr xususida shunday fikr aytib o'tadi: *"XVI asr madaniy hayotini ayrim tarixchilar tushkunlikka yuz tutgan davr deb talqin etadilar, ammo bu davr tarix asarlari, tazkiralarini sinchiklab o'rganish natijasida yuqoridagi fikr birmuncha to'g'ri emasligi aniqlandi"*[1]. Bundan bilib olishimiz mumkinki, sulolalar almashinuvi sodir bo'lgan davrda yuzaga kelgan beqarorliklarga qaramasdan, adabiy jarayon uchun yetarlicha muhit mavjud bo'lgan. Bu bevosita hukmron sulola vakillariga bog'liq bo'lib, Shayboniylar sulolasi asoschisi Shayboniyxonning ham mamlakatda hukm surayotgan madaniy-adabiy hayotni yanada yaxshilash uchun harakat qilganligi alohida e'tiborga loyiq. Uning ijod bilan shug'ullanganligi, ilm ahlini hurmat qilganligi, shaxsiy kutubxonasiga ega ekanligi fikrimiz dalili bo'la oladi. Shayboniyxon haqida Herman Vamberi shunday yozadi: *"Ul(Shayboniyxon) har holda eronlik dushmanlari tarafidan tasvir etilgancha, ne tilasa, shuni ushlab yuruvchi vahshiy bir sarsari emas edi "*[2].

Shayboniyxonning jiyani, Mahmud Sultonning o'g'li Ubaydullaxon bo'lib, uning ismi Xoja Ahror tomonidan qo'yilgan, ya'ni mashhur shayx o'z ismini qo'ygan. *"Alqissa, (Ubaydullaxon) tarix sakkiz yuz to'qson ikkinchi yilda yo'qlik biyobonidan borlik shahriga keldi va o'z valodati nuri (ning) ravshanligi bilan jahonni tamom yoritdi. Saodat maqtovli otasining (Mahmud Sultonning) iltimosi bilan qutblar qutbi va aql egalarining qiblagohi hazrat Xoja Nosiriddin Ubaydulloh, Tangri uning saroylarini serob qilib, orom joylarini jannat qilsin, unga qutli oqibat Ubaydulloh deb ism qo'ydilar. O'z nomlarini berishlari (uning) zo'r marhamatidan bo'ldiki, shuning uchun (ham) uning bebaho asarlari va yaxshi nomlari(ning) oqibatlari foniy olamda boqiydir "*[3](hofiz tanish al-buxoriy abdullanoma)

[1] Mirzaahmedova M. Xoja. – T.:Fan, 1975, 16-b.
[2] Vamberi H.Buxora yoxud Movarounnahr tarixi. – M.,1924. 84-bet
[3] Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma. 1- jild.- T.:Sharq, 1999.

U yolg‘iz farzand bo‘lgan, ushbu jihatni she’rlaridan birida ham ta’kidlab o‘tadi. O‘z davrb ining eng mashhur, yetuk ulamolaridan ta’lim-tarbiya olgan Ubaydullaxon yoshlik chog‘laridanoq ilmga chanqoqligi, o‘tkir zehni bilan ajralib turgan. Ikki tilni- arab va fors tillarini bilish bilan bir qatorda husnixatda ham tengsiz edi. Yetti xil xat yozishni bilgan, ayniqsa, ular orasidan nasx xatida judayam mohir edi. Qur’oni Karimdan bir nusxa ko‘chirganligi hamda bu muqaddas kitobga turkiy tilda tafsir yozganligi tarixiy manbalarda aks etgan.

Hasanxo‘ja Nisoriy Ubaydullaxonning ayni shu jihatiga alohida e’tibor berib, shunday deb yozib qoldiradi: *“Fazilatlarning eng yaxshi ko‘rsatkichlaridan biri u Qur’on mutolaa va qiroatini osonlashtirish uchun turkiy tilda yozgan Qur’on tafsirikim, dalillari suyaniladigan asosda bitilgan”*[4]

Ubaydullaxon yassaviya hamda naqshbandiya tariqatlariga e’tiqod qilib, shayx sifatida muridlar ham tarbiyalagan. U “Ubaydiy”, “Qul Ubaydiy”, “Ubaydulloh” taxalluslari bilan o‘zbek, fors va arab tillarida ijod qilgan.

“Nafoiz ul-maosir” asarida Ubaydullaxon haqida shunday deyilgan: *“Ilmi hadisda Ubaydullaxon hazrati Xoja mulloyi Isfaxoniyning shogirdidur va fiqhda mavlono Mahmud Azizonning shogirdikim, Movarounnahrda ulamolarning mashhurlaridan turur. Ilmi qiroatni Mavlono Yormuhammad Qorining xizmatlarida o‘tkazgan. Ul fanda bir ta’lif ko‘rgizdi im tamomi qorilarning tilini xatodin saqlar erdi. Muammoni yaxshi bilur erdi”*[5]. Ushbu ta’riflar orqali ham bilib olishimiz mumkinki, Ubaydullaxon yuksak bilim va salohiyatni o‘zida mujassam etgan yetuk shaxs bo‘lgan. O‘z sohasining mashhur ustozlaridan ta’lim olgan Ubaydiy diniy va dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan. Ustozlariga alohida hurmatda bo‘lgan.

Mahmud Sultonning vafoti munosabati bilan 1504-yilning oxirlarida 18 yoshida Ubaydullaxon taxtga o‘tiradi. Hukmronlik yillarida o‘zining mard, jasurligi ekanligi, qator janglarda ishtirok etib g‘alabaga erishganligi yuksak harbiy salohiyatga sohibi ekanligidan dalolat beradi. Shohlik bilan bir qatorda ijodkorlikni ham davom ettiradi, ilm ahli uchun adabiy-madaniy muhitni shakllantirishga alohida e’tibor qaratadi. Uning bizgacha yetib kelgan eng katta devoni “Kulliyot” nomi bilan atalib, Ubaydullaxon vafotidan so‘ng, Abdullaxon davrida, 1583-yilda Mir Husayn al-Husayniy tomonidan ko‘chirilgan. Ushbu devon hozirgi kunda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida 8931 raqami ostida saqlanib kelinmoqda. “Kulliyot”-uchala tildagi devonlarini o‘z ichiga olgan. Turkiy devon tarkibida 310 g‘azal, 430 ruboiy, 11 tuyuq, 18 masnaviy, 7 muammo, 2 yor-yor, diniy-tasavvufiy va axloqiy-didaktik ruhdagi “Omoatnoma”, “Shavqnoma”, “G‘ayratnoma, “Sabrnoma” manzumalari” mavjud. Forsiy devon esa 163 g‘azal, 418 ruboiy, 7 qit’a, 1 fard, 1 masnaviy, 1 tarje’band va 3 muammodan tarkib topgan. Arab tilidagi devoni esa 35 ga yaqin g‘azal, qit’a va fardlardan iborat. O‘zbek mumtoz adabiyotida uchta tilda devon tuzgan yagona shoir ham aynan Ubaydiy hisoblanadi. Uning ijodida diniy-tasavvufiy g‘oya yetakchilik qiladi. U Ahmad Yassaviy asos solgan hikmatnavislik an’anasini davom ettirgan hamda yanada rivojlantirgan. Ubaydiydan 1786 baytdan iborat 220 dan ortiq hikmat yetib kelgan. Bundan tashqari o‘zbek adabiyoti tarixida ruboiyning Boburdan keyingi taraqqiyoti Ubaydiy nomi bilan bevosita bog‘liq. Uning 2 tildagi ruboiylari 850 ga yaqin.

Ruboiy – sharq she’riyatida keng tarqalgan poetik janrlardan biri. Aniq bir g‘oya asosida badiiy va shakliy shartlarga binoan yaratiladigan 4 misradan iborat she’r. Ruboiy hazaj baxrining axram va axrab vaznlarida yoziladi hamda uning mavzusi asosan falsafiy-axloqiy, ta’limiy yoki ishqiy mavzuda bo‘ladi. Ruboiylar, asosan to‘rt misradan iborat bo'ladi. Har bir misra o‘zining ritmik va she’riy tuzilishiga ega bo‘lib, bu o‘ziga xos she’riyat shaklini tashkil etadi. Ruboiylarning eng katta

[4] Buyuk siymolar , allomalar. – T:Sharq, 1997, 26-bet.
[5] www.kh-davron.uz

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

xususiyatlaridan biri — ular qisqa, lekin mazmunli bo'lib, keng ma’lumot va fikrlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Har bir ruboiyda biror muhim hayotiy haqiqat yoki falsafiy g‘oya aks etadi. Ubaydiy ijodidan ruboiy janri namunalarini ko‘rib o‘tamiz.

Do‘stning uzrini qabul etmak

Do‘stluqning ulug‘ nishoni erur.

Kimki qilmas qabul uzri aning,

Bilkim ul do‘stning yomoni erur.

Insonlardagi ezgu fazilatlardan biri bu kechirimlilik bo‘lib, gina-kudurat qilmasdan uzrni qabul qilish eng yaxshi fazilatlardan ekanligi yuqorida keltirilgan ruboiyning asosiy g‘oyasida aks etgan. Do‘stlikning ulug‘ belgilaridan hisoblanadigan uzrni qabul qilish hamda yomon do‘st belgilaridan biri - uzrni rad etish orqali zid ma’no yuzaga kelgan, ya’ni tazod she’riy san’ati qo‘llangan. Ubaydiy qalamiga mansub ushbu ruboiy tili nihoyatda sodda tilda yozilgan bo‘lib, hech bir qiyinchiliksiz mazmunini anglash munkin. Bu jihat shoirning yozish uslubi xalqona tilga nihoyatda yaqin ekanligidan dalolat beradi.

Seningdek bu jahonda g‘amguzorim yo‘qtur,

Ko‘rmay seni bir yerda qarorim yo‘qtur,

Ey yor, demaki o‘zga yoring bor emish,

Yorim sen erursen, o‘zga yorim yo‘qtur.

Ubaydiyning ushbu ruboiysi a-a-b-a qofiyalanish tizimida yozilgan bo‘lib, o‘ziga xos ritmik ohangdorlikni yuzaga keltirgan. Ruboiylar ko'pincha taqdir, insonning ma'naviy qarashlari kabi masalalarini o'z ichiga oladi. O'zining qisqalikda to'liq fikrni ifodalash xususiyati sababli, ruboiylar ko'pincha chuqur va ma'noli bo'ladi. Bu jihatni ko‘plab ruboiylar misolida ham ko‘rib o‘tish mumkin.

Majnun ishidin ul kishikim ogohdur,

Ushshoq orasinda Ubaydullohdur.

Payvasta junun ahli erur hamroh anga,

Ul rahbar erur alarg‘ayu, ham shohdur.

Shoir bu ruboiysi orqali o‘zining holatini ham aks ettirgan, ya’ni majnunlikdan ogoh ekanligi hamda oshiqlar orasida Ubaydulloh nomi bilan tanilganligini aytib o‘tadi. Va yana shuni ta’kidlab o‘tadiki, unga hamroh bo‘lgan oshiq ahliga ham rahbar, ham shohman deya o‘zini e’tirof etadi. Ruboiy janrining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shoir o‘zining ijtimoiy holati, hayoti, turmush tarzidan kelib chiqqan holda, ayni shu xususiyatlarga urg‘u bergan holda uni qog‘ozga tushuradi.

G‘azal – sharq adabiyotida keng tarqalgan lirik janr. Arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, “oshiqona so‘z, ishq izhor etish, ayollarni madh etish” kabi ma’nolarni anglatadi. “G‘azal” atamasi dastlab VIII-IX asrlarda arab she’riyatida paydo bo‘lgan. Uning hajmi 3 baytdan 19 baytgacha qilib belgilangan, ammo ba’zi o‘rinlarda 21, hatto 27 baytli g‘azal namunalari ham uchrab turadi. Ubaydiy ijodida g‘azal janrining judayam ajoyib namunalarini topish mumkin. G‘azal janriga xos bo‘lgan xususiyat – shaxsiy hissiyotlarini, ichki kechinmalarini ifodalash Ubaydiy ijodida ham chiroyli dalillar orqali ochib berilgan. G‘azalning tasavvufiy ma’no bilan boyitilishi shoirlarning tasavvuf ilmidan xabardor bo‘lishlikka chorlaydi. Bu orqali insonning ruhiy yo‘li, ilohiy muhabbat va o‘zini anglash masalalari yoritib beriladi. Ubaydiy ijodidan g‘azallar ko‘rib o‘tamiz.

Yor istamakim, olam aro yor topilmas,

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

Topilsa dag‘i mushfiqu g‘amxor topilmas.

“Topilmas” radifli ushbu g‘azal tili xalqona tilga yaqin tarzda yozilgan. Matla’da tazod san’ati orqali ma’no kuchaytirilgan.

Axtarsang agar bir yaratib ikki jahonni,

Mendek senga bir zoru giriftor topilmas.

2-baytda oshiq o‘zining ishqiga sobit, yoriga vafodor ekanligi tasvirlanib, ikki jahonni axtarib ham mendek yor topolmaysan deya ta’riflaydi.

Hushyor netarsen tilabon, ey ko‘zi usruk,

Mastona ko‘zung davrida hushyor topilmas.

Ushbu baytda qo‘llangan “ko‘zi usruk” iborasi o‘zbek she’riyatida keng tarqalgan bo‘lib, uning ma’nosi “ko‘zlari porlaydigan, go‘zal ko‘zlar yoki ko‘zlarida nur bor” degan ma’nolarni anglatadi. “Usruk” so‘zi fors tilidan olingan bo‘lib, “yorug‘lik”, “nur” yoki “porlash” degan ma’nolarni anglatadi. Bu ibora, asosan, insonning go‘zal ko‘zlarini tasvirlash uchun ishlatiladi va ko‘zlarning go‘zalligi, porlashi yoki jiloligini bildiradi. Bu iborani munmtoz adabiyot namunalarida ko‘plab uchratish mumkin.

Usruk ko‘zing ashkolina har gah nazar etsam,

Qolmas xabarim, xoh inon, xoh inonma.

(Lutfiy “Xoh inon, xoh inonma”)

Usruk ko‘ziga toki ko‘ngul bo‘ldi mubtalo,

Hargiz bu telbani yana hushyor topmadim.

(Bobur “Topmadim”)

Ko‘p yor agarchi topilur senga valekin,

Jon berguchi men kabi vafodor topilmas.

Bu bayt orqali oshiq o‘zining boshqa oshiqlardan farqli ravishda vafodor ekanligini ta’kidlab o‘tmoqda. Yori uchun jon berishga ham tayyor ekanligi bayt ma’nosini yanada kuchaytirgan.

Diydor g‘animat turur, ey telba Ubaydiy,

Diydoridin ayrilmaki, diydor topilmas.

Mumtoz adabiyotda “diydor so‘zi”, asosan, “ko‘rinish”, “yuz”, “ko‘zga tashlanish” kabi ma’nolarda qo‘llaniladi. Ayniqsa, bu so‘z ishq-muhabbat masalalarida ma’shuqaning yuzini, jilvasini yoki ko‘rinishini tasvirlash uchun ishlatiladi. Maqta’ning ma’nosida esa yor bilan ko‘rishmoqlik ham g‘animat ekanligi haqida aytilib, diydordan ayrilmagin, keyin bunday imkoniyat topilmaydi deya ta’kidlanadi. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, xalqimiz orasida keng tarqalgan “Diydor shirin, diydor g‘animat” kabi iboralarning keng qo‘llanilishi mumtoz adabiyot namunalarida ham o‘z aksini topgan. Xususan, Ubaydiy ijodida ko‘p o‘rinlarda folklor unsurlarini uchratishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, mumtoz adabiyotimiz yuksak tafakkur, boqiy qadriyatlar jamlanmasi, boy madaniy merosni o‘zida mujassam qilganligi bilan ajralib turadi. Bunday merosni avlodlarga yetkazib qoldirishda ulkan hissa qo‘shgan shoh hamda shoir Ubaydiy ijodi ham mumtoz adabiyotda o‘z o‘rniga ega. Ayniqsa, uning “Kulliyot”i hozirgi kunda ham kitobxonlar uchun dasturilamal bo‘lib xizmat

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

qilmoqda. Uning tarkibiga kiruvchi turkiy, arabcha, forscha devonlar tarkibidagi turli xil janr namunalari mumtoz adabiyotimiz tarixida o‘sha janr rivoji uchun katta hissa qo‘shgan. Ahmad Yassaviy boshlab bergan “Hikmatnavislik” an’anasini davom ettirgan hamda uni yanada rivojlantirgan Ubaydiy serqirra ijodkordir. 3 tilda ijod qilishi bilan bir qatorda turli xil janr namunlarini ham yozib qoldirgan, shuningdek xalq og‘zaki ijodidagina mavjud bo‘lgan “yor-yor” janrida ham 2 ta namuna yozganligi alohida e’tirofga loyiq. Shohlikni ham, shoirlikni ham baravar olib borgan Ubaydullaxon ijodi barcha turkiy xalqlar uchun bugungi kunda ham o‘z qadr-qiymatini saqlab kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzaahmedova M. Xoja. – T.:Fan, 1975, 16-b.
2. Vamberi H.Buxora yoxud Movarounnahr tarixi. – M.,1924. 84-bet
3. Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma. 1- jild.- T.:Sharq, 1999.
4. Buyuk siymolar , allomalar. – T:Sharq, 1997, 26-bet.
5. www.kh-davron.uz

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

ШАХСНИНГ ОЗОДЛИГИГА ҚАРШИ ЖИНОЯТЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШНИНГ УМУМИЙ ЧОРАЛАРИ

Курбонов Давлат Равшанович
Ш.Рашидов номидаги Самарқанд давлат университети Юридик факультети "Жиноят ҳуқуқий фанлар" кафедраси мудири, юридик фанлари номзоди, доцент

Аннотация: *Мазкур мақолада шахснинг озодлигига қарши жиноятларнинг олдини олишнинг умумий чоралари, яъни жиноятчиликни олдини олиш (профилактика) «жиноятчиликни профилактика қилиш», «жиноятчиликни огоҳлантириш», «жиноятчиликнинг олдини олиш», болаликни муҳофаза қилиш, ёшлар ўртасида ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, вояга етмаганларга нисбатан жиноий-ижтимоий сиёсатнинг асосий эътиборсизлиги, жиноят қонунчилигига, умумеътироф этилган хулқ-атвор ва ахлоқ нормаларига, таълим ташкилотлари ва муассасаларини бошланғич, ўрта, олий ва қўшимча таълим зарур билим, кўникма ва малакалар, қизиқишлар, боланинг қобилиятлари очилиши, шунингдек олдини олиш масалалари атрофлича таҳлил қилинган. Шу билан бирга, вояга етмаганлар билан профилактика ишлари доирасида таълим муассасалари ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ва олий ўқув юртлари билан фаол ҳамкорлик қилиши, уларнинг ходимлари ва ўқитувчилари профилактика тадбирларини ўтказиши лозимлигини бўйича тегишли илмий-назарий хулосалар берилган.*

Калит сўзлар: *олдини олиш, жиноятчиликни профилактикаси, жиноятчиликни огоҳлантириш, жиноятчиликнинг олдини олиш, болаликни муҳофаза қилиш, ёшлар, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, вояга етмаганлар, жиноят қонунчилигиа, хулқ-атвор ва ахлоқ нормалари.*

Ўзбекистон Республикаси ҳанузгача бозор муносабатларига ўтиш даврини бошдан кечирмоқда. Бундай пайтларда жиноятчиликнинг кўпайиши хавфи доимо мавжуд. Шахсларни озодлигига қарши жиноятлар ҳуқуқий табиати, тизими ва квалификацияси билан боғлиқ нормаларни такомиллаштириш, мазкур тизимни ривожлантириш, шахснинг бузилган ҳуқуқларини тиклашнинг самарали механизмларини ишлаб чиқиш зарурати мавжудлигини кўрсатмоқда.

Жаҳонда шахснинг озодлигига қарши жиноятлар, хусусан одам савдоси, аёлни эрга тегишга мажбур қилиш ёки унинг эрга тегишига тўсқинлик қилиш, одам ўғирлаш ёки зўрлик ишлатиб ғайриқонуний равишда озодликдан маҳрум қилиш каби жиноятлар ҳуқуқий табиати, тизими ва квалификацияси билан боғлиқ нормаларни такомиллаштириш, шахснинг озодлигига қарши жиноятларнинг олдини олиш уларги карши кураш, миллий қонунчиликни халқаро стандартларга мослаштириш ва бу борада давлатлараро ҳамкорликни кучайтириш тенденцияси кузатилмоқда. Бу сабаблар кўпинча ғаразли-зўрлик жиноятларининг кўпайиши билан боғлиқ бўлиб, бу хавфли ҳодисага қарши курашиш учун уни синчковлик билан ўрганиш зарур. Зўрлик жуда ўзгарувчан ҳодиса, чунки у доимо такомиллашиб, янада мураккаб шаклларга эга бўлиб, тобора шафқатсиз

бўлиб бормоқда. Бунинг сабаби - жамиятдаги сиёсий, иқтисодий, мафкуравий ва маданий ўзгаришлар. Бу, айниқса, шахсга қарши қаратилган, унинг шаъни, эркинлиги, қадр -қиммати, соғлиги ва ҳаётига тажовуз қиладиган жиноятларга тегишлидир.

Маълумки, салбий ҳодисаларнинг барчаси, жумладан жиноятчилик ҳам маънавий қашшоқлик, маърифий кемтиклик шароитида вужудга келади. Жиноятчиликни олдини олиш фаолияти, энг муҳим криминологик институтлардан бири сифатида, қоида тариқасида, жиноят содир этган шахсга бевосита таъсир қилиш билан чекланадиган жиноятларга қарши курашдан кўлами анча кенгроқ.

Ўзининг кўлами, шакллари, усуллари, мазмуни ва субъектлари бўйича олдини олиш фаолияти анча глобалдир. Ҳозирги вақтда илмий доираларда "олдини олиш", "профилактика", "олдини олиб қолиш" ва "тўхтатиш" каби дефинициялларнинг аҳамияти ва мазмуни тўғрисида мунозаралар давом этмоқда. Биз ўз олдимизга қайд этилган таърифларни чуқур қиёсий таҳлил қилишни мақсад қилиб қўймаган ҳолда, ушбу таърифлар бўйича олимлар ўртасида шаклланган иккита йўналишни кўрсатиб ўтамиз. Айрим олимлар (В.Н.Бурлаков, Н.В.Кузнецова, Г.М.Минковский ва бошқалар) бу таърифларни синоним сифатида қабул қилиб, уларнинг барчасининг мазмуни "бирон бир нарсанинг олдини олишда" деб фикр юритишади[1]. Шу каби, миллий олимларимиздан бири, проф. З.Зарипов умумий таҳрири остида ёзилган “Криминология” дарслигида ҳам жиноятчиликни олдини олиш (профилактика) бир-бирига синоним тушунча сифатида кўрилади.[2] Худди шунингдек, проф. Қ.Абдурасулова ҳам таъкилайдики, «жиноятчиликни профилактика қилиш», «жиноятчиликни огоҳлантириш», «жиноятчиликнинг олдини олиш» тушунчаларининг ўзаро нисбати юзасидан ҳар хил фикрлар билдирганини эътиборга олиб, мазкур масала юзасидан мунозарага киришмасдан, юқорида зикр этилган тушунчалар бир хил маънони билдиришдан келиб чиққан муаллифларнинг қарашларига таянишини маъқул топади, зотан, унинг наздида мазкур тушунчаларни қарама-қарши қўйиш мазкур атамаларнинг маъносига зиддир[3].

Бошқа олимлар (Ю.М. Антонян, С.И. Герасимов, А.И.Долгова, В.И.Гладких ва бошқалар) ушбу дефинициялар ўзаро тубдан фарқ қилишини таъкидлаб, жиноятчиликнинг олдини олиш – бу умумий, жамловчи тушунча бўлса, профилактика, олдини олиб қолиш ва тўхтатиш – бу умуман олганда ва алоҳида ҳолатларда жиноятларга тайёргарлик кўриш ва содир этишни олдини олиш босқичларидир деб айтишади[4].

Биз иккинчи йўналиш нуқтаи назарини маъқуллаймиз, бизнинг фикримизча, жиноятчиликнинг олдини олиш турли хил қарши туриш чораларидан иборат мураккаб мажмуидир. Бундай мажмуа бир-биридан фарқ қиладиган, айни дамда бир-бирини ўз шакли, усуллари, воситалари, субъектлари ва бошқалар билан тўлдириб турадиган турли миқёсларда ўз аксини топади.

---

[1] Криминология: учебник для вузов / под ред. В.Н. Бурлакова, Н.М.Кропачева. - СПб., 2003. С.177-178; Криминология: учебник / под ред. Н. Ф. Кузнецовой, Г. М. Миньковского. - М., 1994. С.177.

[2] Kriminologiya. Darslik. Professor Z.S. Zaripovning umumiy tahriri ostida - Toshkent 2008 – B.21.

[3] Abdurasulova Q.R. Ayollar jinoyatchiligi va ularning oldini olish muammolari. O‘quv qo‘llanma / Mas’ul muharrir: yu.f.d.,prof. M.H.Rustamboyev. – T.: TDYI nashriyoti, 2009. -B.113.

[4] Антонян Ю.М. Криминология. Учебник для академического бакалавриата, 3-е изд., - М.: «Юрайт», 2016. 388с.; Иншаков С.М. Криминология. Практикум. Учебное пособие, 2-ое издание, - «Юнити-Дана», 2013. 367с.; Гладких В.И. Криминология (бакалавриат и магистратура). Учебник, - М.: Юстиция, 2017. 472с.

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

Жиноятчиликнинг олдини олиш чораларининг икки тури аҳолининг ижтимоий турмуш даражасини яхшилаш, иқтисодиётни барқарорлаштириш умумий олдини олиш, ҳамда бевосита жиноятлар сабаблари ва шароитлари махсус олдини олиш чоралари ҳисобланади.

Бироқ, уч даражали ёндашув нисбатан кўпроқ урф бўлган:

1. Умумижтимоий (бутун жамият даражасида амалга оширилади);

2. Гуруҳли (турли ғоялар остида бирлашган гуруҳларга қаратилади);

3. Индивидуал (объект – маълум бир шахс), у ўз навбатида қуйидаги турларга бўлинади: а) эрта профилактика; б) бевосита профилактика; в) жиноятлар профилактикаси; д) рецидивлар профилактикаси[5].

Шахснинг озодлигига қарши жиноятларни олдини олишнинг барча таркибий элементлари, шунингдек олдини олиш чораларини амалга ошириш даражалари, фикримизча, умумий стратегияда, яъни ушбу турдаги жиноятчиликни имкон қадар камайтириш мураккаб мақсадига эришиш усули сифатида узоқ вақтга мўлжалланган, оилага қарши жиноятчиликка қарши курашнинг умумий, деталлашмаган режасида бирлаштирилиши керак.

Назаримизда, ушбу стратегиянинг иккита асосий йўналишини ажратиб кўрсатиш мумкин. Биринчиси, шахснинг озодлигига қарши жиноятларнинг табиатини, яъни ушбу ҳодисани келтириб чиқарадиган сабаблар ва шароитларни бартараф этиш ёки уларнирнг оқибатларини пасайтириш мақсадида ушбу омилларни аниқлашга қаратилган бўлиши керак.

Ушбу йўналишда умумижтимоий чоралар иқтисодий, ижтимоий, ҳуқуқий дастурлар, шунингдек, жамиятнинг маънавий ва ахлоқий салоҳиятини ривожлантиришга қаратилган дастурлар тизимида амалга оширилиши мумкин.

Стратегиянинг иккинчи йўналиши жиноий кўринишларнинг конкрет ҳолатларига тўғридан-тўғри муносабат билдиришнинг аниқ ва самарали схемасидан иборат бўлиши лозим. Ушбу йўналиш умумий ва индивидуал даражаларда махсус криминологик йўналишдаги чораларни қўллашда амалга оширилиши мумкин.

Шахснинг озодлигига қарши жиноятларнинг олдини олиш чоралари жамиятнинг криминаллашувига қарши кураш ягона стратегияси элементларидан бири бўлган икки даражали тизим нуқтаи назаридан кўриб чиқилади.

Аниқланган криминоген омиллар илдизлари жамият ривожининг иқтисодий, ижтимоий, маънавий-ахлоқий, ҳуқуқий йўналишларидан келиб чиқади.

Жиноят қурбонига олиб келиши мумкин бўлган виктим ҳулқ-атворни олдини олиш керак. Бошқача қилиб айтганда, бепарволик ва эҳтиётсизлик орқали ноқонуний ҳаракатларни қўзғатмаслик шарт. Бунга, жумладан, бепарволик, ўз-ўзига ишониш, асоссиз таваккалчилик, фуқароларнинг ўзлари томонидан қонунбузарликларни содир этиши ёки ўз шахсига ёки мулкига қарши жиноят содир этишга ёрдам берадиган шарт -шароитларни яратишни айтиш мумкин.

Жамиятдаги қарама-қаршиликлар, номутаносиблик камайиши ўзида профилактик йўналишга эга. Ўз навбатида, зўравонлик жиноятлари махсус криминологик профилактикаси ушбу турдаги жиноятларни содир этишга сабаб бўлган сабаблар ва шарт-шароитларни бартараф этиш

[5] Старков О.В. Роль криминогенной ситуации в бытовых насильственных преступлениях: автореф. дисс… к.ю.н.: 12.00.08. - М., 1981.С. 12.

чораларини, шунингдек, конкрет шахсларга нисбатан индивидуал профилактик таъсир чораларини ўз ичига олади.

Ғаразли ва ғаразли-зўрлик ишлатиб содир этиладиган жиноятлар профилактикасида муваффақият уларнинг тўлиқ очилиши ва улар учун жазонинг муқаррарлигини таъминлашга боғлиқ. Бу талабларни бажармаслик тезда тегишли шахслар томонидан жиноятларни такроран содир этишга, шунингдек, уларни содир этишга янги иштирокчилар жалб қилинишига олиб келади.

Ёшлар ўртасида ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ҳар қандай ҳуқуқий давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан биридир. Вояга етмаганлар жиноят ишлари бўйича одил судловни амалга ошириш учун ихтисослаштирилган судлар тизимини яратиш мақсадга муофиқ ҳисобланади.

Давлатимиз томонидан вояга етмаганларга нисбатан жиноий-ижтимоий сиёсатнинг асосий эътиборсизлиги, аввалambор, уларда ҳуқуқбузарликлар содир этилишининг олдини олишга қаратилган профилактик чора-тадбирлар амалда бажарилмаётганлиги билан боғлиқ. Умуман олганда, ўсмир ўзига ташлаб қўйилган, аксарият ҳолларда фақатгина жиноят содир этгандан кейингина, жиноят қонунчилигига, умумеътироф этилган хулқ-атвор ва ахлоқ нормаларига зид ҳаракати юз бергандан кейингина давлат эътиборига тушади.

Профилактика тизимида таълим ташкилотлари ва муассасаларини муносиб ўрнини белгилаш зарурати туғилади, чунки айнан бошланғич, ўрта, олий ва қўшимча таълим муассасаларида зарур билим, кўникма ва малакалар, қизиқишлар, ижтимоий доира шаклланади ва боланинг қобилиятлари очилади. Балки барча даражадаги таълим муассасаларининг вояга етмаганлар ўртасида ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш субъектларига бириктирилиши уларнинг навқирон авлодни тарбиялашдаги тегишли бурчини ташкил қилади. Шу билан бирга, вояга етмаганлар билан профилактика ишлари доирасида таълим муассасалари ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ва олий ўқув юртлари билан фаол ҳамкорлик қилиши, уларнинг ходимлари ва ўқитувчилари суҳбат ва маърузалар тарзида тегишли профилактика тадбирларини ўтказиши, бу борада ўзини қандай тутмаслик керак ва суд ва бошқа ҳуқуқни қўллаш амалиётидан нима содир бўлиши ҳақида ёркин мисоллар келтириши зарур.

Ўзбекистон пенитенциар тизимининг ҳозирги ҳолати ва жамиятимизнинг умумий ривожланиш даражаси озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ бўлмаган жазони ижро этиш доирасида пенитенциар тизимни зудлик билан модернизация қилиш зарурати ҳақида гапиришга имкон беради. Зеро, тарбия колонияларида вояга етмаган маҳкумлар билан олиб борилган тарбиявий-профилактика ишлари қанчалик яхши йўлга қўйилмасин, жазони ижро этиш муассасаларида ўташ вояга етмаганнинг шахсий фазилатлари ва тақдирида ўчмас из қолдиради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Криминология: учебник для вузов / под ред. В.Н. Бурлакова, Н.М.Кропачева. - СПб., 2003. С.177-178; Криминология: учебник / под ред. Н. Ф. Кузнецовой, Г. М. Миньковского. - М., 1994. С.177.
2. Kriminologiya. Darslik. Professor Z.S. Zaripovning umumiy tahriri ostida -Toshkent 2008 – B.21.
3. Abdurasulova Q.R. Ayollar jinoyatchiligi va ularning oldini olish muammolari. O‘quv qo‘llanma / Mas’ul muharrir: yu.f.d.,prof. M.H.Rustamboyev. – T.: TDYI nashriyoti, 2009. –B.113.
4. А.Отажонов. Шахсга қарши жиноятлар. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, Т.2012. – Б.136.

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

5. Антонян Ю.М. Криминология. Учебник для академического бакалавриата, 3-е изд., - М.: «Юрайт», 2016. 388с.
6. Иншаков С.М. Криминология. Практикум. Учебное пособие, 2-ое издание, - «Юнити-Дана», 2013. 367с.
7. Гладких В.И. Криминология (бакалавриат и магистратура). Учебник, - М.: Юстиция, 2017. 472с.
8. Ильяшенко А.Н. Маслов А.В., Харьковский Е.Л., Игнатов Е.А. Предупреждение рецидивной преступности несовершеннолетних (по материалам субъектов Центрального федерального округа РФ). - Москва: ВНИИ МВД России, 2007. - С.

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

TURPNING SIRLI VA MUJIZALI XUSUSIYATLARI

Mahmudova Mexriniso Ergashevna
Osiyo xalqaro universiteti,
“Umumiy fanlar ”kafedrasi assestinti

Annotatsiya: *Turp(Raphanus altivus) karamdoshlar oilasiga mansub bo`lgan,ozuqaviy maqsadda iste`mol qilinadigan o`simlik.Uning shakli va ranglari turli hil bo`lib,eng keng tarqalgan turlari qora,oq,yashil turlaridir.Turpning tarkibida vitaminlar,minerallar,antioksidantlar va fibralarmavjud bo`lib,ularning barchasi inson salomatligi uchun foydalidir.Turp immune tizimini kuchaytirish,hazm qilishni yaxshilash va organizmni toksinlardan tozalashda yordam beradi.Hozirgi iqlimda balg`am ko`chiruvchi vosita sifatida ham shifobahish ta`sirga ega.Turpni taomlarda va salatlarda ishlatiladi.Bu o`simlik foydali hususiyatlari nihoyatda ko`p shu bilan bir qatorda ekologik jihatidan ham ahamiyatga ega.chunki yerni boyitib,agrotexnik shart sharoitlarni yaxshilaydi.*

Kalit so‘zlar: *Antioksidant, sabzavot, vitaminlar, minerallar, fbra, imun-tizimi, hazm qilish, toksinlar, ekologik, agrotexnik, salar, soliq, organic, ozuqaviy, tarkib.*

Turp (Raphanus sativus L.) — karamdoshlar oilasiga mansub ikki yillik o‘simlik. 5 ming yil muqaddam Qadimgi Misr, Yunoniston va Rimda ekilgan. Hozirgi paytda dunyodagi barcha mamlakatlarda ekiladi. Birinchi yili kesikli, tukli barglardan iborat to‘pbarg va ildizmeva hosil qiladi. Ikkinchinchi yili, ekilgach, gulpoya chiqarib, 35—40 kunda gullaydi. Gullashi bir oygacha davom etadi. Gul to‘plami — shingil. Guli 4 tojbargli, 2 jinsli, oq pushti, binafsha yoki ochsariq rangda, chetdan hasharotlar, asosan asalarilar yordamida changlanadi. Madaniy turp rediska va yovvoyi turp bilan oson chatishadi. Mevasi ochilmaydigan urchuq yoki silindrsimon shakldan iborat. Urug‘i yumaloq, oval shaklda, och, to‘q yashil rang,qora rang va oq rangda bo`ladi.Turp faqat ochiq yerda yetishtiriladi. Urug‘i 2—4°da unib chiqadi. 13—20°da yaxshi rivojlanadi, harorat 20°dan yuqori bo‘lsa ildizmevalarning o‘sishiga salbiy ta’sir qiladi. Turp namsevar o‘simlik. Namlik yetishmasa ildizmevasi yaxshi o‘smaydi. Ildizmevasi yirik, 200 g dan 4–5 kg gacha olsa bo`ladi. Tarkibida o‘rtacha 1,92% oqsil, 1,58% qand, 1,55% kletchatka, 8–29 mgvitamin S va boshqa bor. Asosan, yangiligida, ayrim vaqtlarda dorivor sifatida iste’mol qilinadi. Shuningdek, unda balg`am ko`chiruvchi va shamollashga qarshi vositalar va immunitetni ko`taruvchi vitamin bor, modda almashinuvi, ovkat hazmini yaxshilaydi. Turp O‘zbekistonning markaziy viloyatlarida iyul oxiri — avgust boshida, jan. mintakalarda, avgust 2 o‘n kunligida, 2— 3 sm chuqurlikka ekiladi. Maisa ko‘karib chiqquncha tuproq doimo nam holda tutiladi. Keyingi parvarish o‘tash va yaganalashdan iborat, o‘z vaqtida sug‘orib va kultivatsiya qilib turishdan iborat. O‘zbekistonda turpning Marg‘ilon va Andijon 9 tezpishar navlari davlat reyestriga kiritilgan. Hosildorligi: Marg‘ilon navi 350—360 s/ga; Andijon navi 480—500 s/ga teng.

Tanangiz madorsizlanayotganini sezayapsizmi, davosini uzoqdan axtarmangda, uydagi bor mahsulotlarga diqqat qarating. Misol uchun, kuzda pishadigan qarsildoq turpga. U shamollashda asqotishini hammamiz bilamiz, ammo xotirani charxlashi, sariq kasalidan keyin jigarga eng kerakli quvvatdori bo‘lishi, sochlarni qalinlashtirishi va kamqonlikni samarali davolashidan bexabardirsiz. Kamsuqumgina sabzavot o‘zida shuncha sir yashirganiga hayron bo‘lmasa ham bo‘ladi. Axir unda

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

barcha vitaminlar namoyon, kaliy va kalsiy, temir va magniy borligidan esa eng sara darmondori o‘rinini bosa olishiga shubha yo‘q



Qora turp adipogen transkripsiya omillari va lipid to'planishi, yallig'lanish va fibroz bilan bog'liq genlarni tartibga solish orqali jigarda lipidlar to'planishi, yallig'lanish va fibrozni yo`qotadi. Alkogolsiz gepatit va u bilan bog'liq metabolik kasalliklarni yaxshilashda qora ahamoyati juda kata.

Qora turning foydali hususiyatiga e`tiborimizni qaratamiz.





Jigarni himoya qilish

Jigarni himoya qilish, oksidlovchi stressdan kelib chiqqan zararni susaytirishi.

Yurak-qon tomir kasalliklarning oldini olish.

Qora turpdan foydalanishning foydasi Qora sabzi antosiyaninlar, fenolik kislotalar, karotinoidlar va boshqa biologik faol moddalarga boy bo'lib, ular dislipidemiya, glyukoza bardoshlik, gipertenziya va insulin qarshiligini yaxshilash orqali metabolik sindromni engillashtiradi. Qora turp tarkibidagi

antosiyaninlar yuqori antioksidant faollikka ega. Shu bilan birga, ba'zi hisobotlarda qora turp polifenollari gipertenziya, yurak fibrozisi, to'siqlarda endotelial funktsiya roli kabi turli metabolik sindromlarda rol o'ynashini tasdiqladi.

Qandli diabetning oldini olish ta'siri

Qondagi glyukoza kontsentratsiyasining ko'tarilishi insulinning cheklangan chiqarilishi yoki insulinni qabul qilishning kamayishi bilan bog'liq. Qora turp polifenolik birikmalari αamilaza va αglyukozidaza faolligiga va hujayradagi glyukoza so'rilishiga inhibitiv ta'sir ko'rsatadi, bu polifenollarning potentsial antidiyabetik xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi.

Ko'p surunkali kasalliklarning oldini olish.

Antosiyaninlar qora turp o'simlik sifatida faol moddalari bo'lib, ular yuqori antioksidant faollikka ega va turli kasalliklarni yordamchi davolashda profilaktika vositalari sifatida ishlatiladi. Qora turp tarkibidagi ushbu biologik faol moddalar saraton, diabet, yurak-qon tomir kasalliklari va boshqalarning ko'p turlarining oldini olishga yordam beradi va shuning uchun ko'plab kasalliklarning oldini olish va yordamchi davolashda qo'shimcha dori sifatida foydalanish mumkin va sintetik moddalarni suiiste'mol qilishni kamaytirishi mumkin. Sovet Ittifoqi mamlakatlarida bu sabzavotni ko'pchilik yoqtirmaydi. Shuning uchun u ikkinchi darajaga ko'tarildi. Eng qiziqarli narsa.

Qora turpdan foydalanishning foydasi

Karam oilasi o'simliklari Vetnam, Xitoy va Yaponiyaliklar orasida ayniqsa qadrlanadi. Achchiq ta'mga qaramay, turp mushakni foydali moddalar bilan oziqlantirishga qodir. Bundan tashqari, u tanadan toksinlar va toksinlarni olib tashlaydigan ajoyib vositadir.

Qora turpda oltingugurt borligi ma'lum. Bu esa bronxit va allergik reaktsiyalar bilan og'rigan odamlarni tezroq davolashga yordam beradi.

Urug'larda juda foydali yog'lari bor, va D, E. vitaminlari bor. Shunday qilib, D vitamini mineralizatsiya, tishlar va suyaklarning jarayonlarida faol ishtirok etadi. Bundan tashqari, organizmga ijobiy ta'siri tufayli saraton xujayralarining o'sishi susayadi. Ushbu vitaminni o'z ichiga olgan kundalik ovqatlanish vositalarini qo'shish orqali siz psoriazizni unutasiz, qichishishni kamaytirasiz va qizarishni olib tashlaysiz.E vitamini qon tomirlarining devorlarini faol ravishda mustahkamlaydi, terining yoshligini saqlaydi.

Qora turpdan tayyorlangan sharbatni diabet kasalliklarida uglevodlarni yaxshiroq so'rashga yordam beradigan kuchli dorivor vosita sifatida qo'llash muhim ahamiyatga ega.Aromatik asal bilan birgalikda sharbat atriyal fibrilatsiyali, kardioskleroz bilan og'riydigan bemorlarda yaxshi yordam beradi. Bundan tashqari, balg`am ko`chiruvchi va shamollashga judayam foydali ta`sir ko`rsatadi.

Qora turpning kaloriyali qiymatini ham eslatib o'tishimiz kerak. Bu faqat 30 kaloriya egadir. Bu shuni ko'rsatadiki, uni parhez ovqatlanish davrida salatlarga xavfsiz tarzda qo'shish mumkin.

Qora turp yana yo‘talga qarshi samarali vosita sanaladi. Aynan qora turpni olish kerak, zero bu nav o‘zida davolash uchun kerak bo‘lgan hususiyatga ega.

Turpning foydali xususiyati:

Turp- C vitaminining manbayi bo‘lib, organizmda yosh kollagen oqsilini ishlab chiqarishda yordam beradi va virus hamda kasalliklardan himoya qiladi. Bundan tashqari, turp tarkibida B guruhi vitaminlari, kaliy, kalsiy, magniy va temir bor.

Turpning 3 hil turi bor: qora (qishki) turp, yashil (Marg`ilon) turpi va daykon (yapon) turpi.Bir dona turpda 1,9 gr. oqsil, 0,2 gr. yog`, 6,5 gr. uglevodlar bor.

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

1. Turp sharbati va asal (1:1) aralashmasini o`t pufagidagi toshlardan xalos bo`lish uchun iching. Bir kunda 0,5 osh qoshiqdan boshlab 2 osh qoshiqqacha etkazing. Muolaja muddati –10 kun.

2. Yo`talga qarshi turpni o`rtasini uyib,uyilgan joyiga 1osh qoshiq toza asal solib,og`zini o`zining ostidagi qopqog`I bilan yopib bir sutkaga quyiladi va shundan ajralgab turp sharbatini bir osh qoshiqdan har soatda qabul qiling. Bu yo`l bilan yo`talingizni tez va oson davolaysiz.



3. Turpni mayda bo`laklarga bo`ling, idishga solib, shakar seping va duxovka pechiga 2 soatga qo`ying. Paydo bo`lgan sharbatni dokadan o`tkazib olib, 2 choy qoshiqdan 3-4 martadan taomlanishdan avval va uxlashdan oldin ichsangiz, shamollashlardan qutulasiz.

4. Ozish uchun- turpdan tayyorlangan engil salatlardan tamaddi qiling. Turpning ochlik hissini kamaytiruvchi xususiyati ham bor.

5. Ishtaha ochuvchi vosita sifatida ishlatilishi.

Agar ishtahangiz yo`q bo`lsa, har kungi taomnomangizga, albatta, yashil turpni qo`shing.

6. Kamqonmisizlikda u holda turp, lavlagi va sabzidan tayyorlangan sharbatni iching.

Sharbati ichak yo`llari faoliyatining to`g`ri yuritilishiga, sochlarni mustahkamlashga iste`mol qilinadi. Bu sabzavot kishining ovqat hazm qilish tizimiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi. Uning iste`moli aterosklerozning, shishlarning, o`t pufagi va peshob yo`llarida tosh paydo bo`lishining oldini olishda yaxshi foyda beradi.Qonda shakar miqdorini nazorat qilishga yordam beradi.Qondagi qand miqdorining keskin o‘zgarishi organizm uchun juda ko‘p noxush oqibatlarga olib keladi. Eng zararsizlari ishtahaning ortishi va ortiqcha ovqatlanish va natijada ikkinchi toifa diabetning rivojlanishidir. Turp tarkibidagi kimyoviy birikmalar esa qondagi glyukoza ko‘tarilishining oldini oladi va metabolik jarayonlarni tartibga soladi.

7. Antioksidantlarga boy.

Antioksidantlar surunkali kasallik va qarilikka qarshi kurashda eng katta yordamchilardir. Ular oksidlanish jarayonlari bilan samarali kurashadi va hujayralarni erkin radikallar shikastlashidan himoya qiladi. Turp boshqa ildizli sabzavotlar qatorida, turli antioksidant birikmalarga boy va ular nafaqat ildiz sabzavotning o‘zida, balki o‘simlikning barglari va urug‘larida ham uchraydi.

8. Parhezbop mahsulot.

Turp o‘zining barcha afzalliklari bilan birga past kaloriyali mahsulotdir. Bir stakan xom turpda atigi 20 kaloriya, kletchatka va hatto oz miqdorda o‘simlik oqsili bor. U salat, taom va sendvichlarga qo‘shilishi mumkin. Ildiz sabzavot nafaqat foydali, balki uzoq vaqt ochlikdan ham xalos qiladi.

9. Immunitet tizimini mustahkamlaydi.

Bir necha asrlar ilgari odamlar turli shamollashlarni asal va xom turp bilan davolagan. Ildiz sabzavot glikozidlarga boy bo‘lib, bu moddalar nafaqat o‘ziga xos ta’mni beradi, balki organizmni viruslar va patogen bakteriyalardan ishonchli himoya qiladi. Turp kuchli mikroblarga qarshi xususiyatlarga qo‘shimcha ravishda, vitamin va minerallarning, ayniqsa, C vitamini, kaliy, magniy va marganetsning ko‘pligi tufayli tananing immunitet himoyasini mukammal darajada mustahkamla

Xalq tabobatida qirg`ichdan chiqarilgan turpdan radikulitni davolashda foydalaniladi.

Qirg`ichdan o`tkazilgan xom turp va uning sharbati ishtaha ochuvchi, o`t pufagini bo`shatuvchi eng yaxshi vosita va organizmdagi ortiqcha suyuqlikni chiqarib yuboruvchi tabiiy dori sifatida tavsiya etiladi.

Buyrakdagi toshlarni parchalaydi! Achchiqlikka moyil glyukozid va xushbo`y efir moylari mavjudligidan turp o`zining xususiyatlari bilan peshob yo`llaridagi tosh paydo bo`lish kasalliklarida ularni eritib, tushirib yuborishdek mislsiz shifobaxshlikka ega.

O`zining foydali shifobaxsh xususiyatlari bilan turp ishtahani, ovqat hazm qilishni, organizmda modda almashinuvi jarayonini yaxshilaydi, oshqozon soki va o`t suyuqligi me`yorda ajralishiga yordam beradi.

Aterosklerozni davolaydi! Turp aterosklerozni davolashda yordam beruvchi sabzavotdir. Xalq tabobatida podagrada, buyrakda tosh paydo bo`lish kasalliklarida turpni ovqatga qo`shib iste`mol qilish tavsiya etiladi. Turp peshob haydash xususiyatiga ega.

Bronxitni bartaraf etadi! Turpni asalga qo`shib yo`talni, bronxitni, yuqori nafas yo`llari katarini davolashda iste`mol qilinadi. Sharbatini qovuq, yurak, bronxlar, revmatizm kasalliklarida ichiladi, shuningdek, bu sharbat balg`am ko`chiruvchidir.

Oshqozon-ichakka foydasi. Turp o`t paydo bo`lishini ko`paytiradi, ovqat hazm qilish bezlari faoliyatini yaxshilaydi, ichaklar peristaltikasi (oshqozon va ichaklarning to`lqinsimon kerilish yoki siqilish harakati)ni yaxshilaydi, antisklerotik xususiyatga ega. Uning bu xususiyatlari ishtahani ochishda, ichaklar atoniyasi (mushak va to`qimalar faoliyati tonusining pasayishi)ni davolashda, qabziyatda, xolesistitda va o`t pufagida paydo bo`lgan tosh kasalliklarini davolash jarayonida foyda beradi.

**Teri kasalliklarida qo`llanilishi**-Turpda mavjud bo`lgan vitamin S, fosfor, sink va V gruppasiga kiruvchi ba`zi vitaminlar inson terisi uchun juda foydali. Unda mavjud bo`lgan suv teri uchun zarur bo`lgan namlikni saqlashga yordam beradi. Qirg`ichdan chiqarilgan turpdan qilingan maska yuz terisini ajoyib ravishda tozalab, tiniqlashtiradi. O`zining dezinfeksiyalovchi xususiyatlari sababli turp quruqshagan, toshma toshgan, yorilgan terini davolashda chiroyli yordam beradi, shuningdek yuz terisi hujayralarini yangilaydi.

Tana haroratini me`yorlashtiradi

Turp tana haroratini pasaytiradi, ko`tarilgan harorat natijasida kelib chiqqan shamollashni olib bartaraf qiladi. Bunday holatda turp sharbatiga biroz tuz qo`shib ichish foyda beradi. Ajoyib dezinfeksiyalovchi vosita sifatida turp shuningdek, haroratning ko`tarilishiga sabab bo`luvchi infeksiyalarga qarshi kurashadi.

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

Quyidagi hollarda turpni ko`p miqdorda muolaja olish maqsadida iste`mol qilish mumkin emas:

Jigar va buyraklarning o`tkir shamollashi, ba`zi oshqozon kasalliklarida – masalan, gastritning giperasid ko`rinishida va ichaklarning yara kasalliklarida, yurak qon-tomir kasalliklarida turp iste`mol qilish mumkin emas.

Qonda shakar miqdorini nazorat qilishga yordam beradi.

Qondagi qand miqdorining keskin o‘zgarishi organizm uchun juda ko‘p noxush oqibatlarga olib keladi. Eng zararsizlari ishtahaning ortishi va ortiqcha ovqatlanish va natijada ikkinchi toifa diabetning rivojlanishidir. Turp tarkibidagi kimyoviy birikmalar esa qondagi glyukoza ko‘tarilishining oldini oladi va metabolik jarayonlarni tartibga soladi.

Homiladorlikda;

Ichak (yo`g`on va ingichka) shamollashida,oshqozon va o`nikkibarmoqli ichak yarasida;

Jigar va buyraklar (tosh paydo bo`lgan holatdan tashqari) kasalliklarida;

Kislotalilik yuqori bo`lgan gastritda;

Yaqinda infarktni boshidan kechirgan kishilarda turpni me`yoridan ortiq iste`mol qilish mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Адешара К.А., Бангар Н., Диван А.Г., Тупе Р.С. Аддукты гликирования плазмы и различные изоформы RAGE тесно связаны с окислительным стрессом и маркерами воспаления при диабете 2 типа. Метаб. диабета. Синдр. Клин. Рез. Ред. 2022:102441.
2. Галисия-Гарсия У., Бенито-Висенте А., Джебари С., Ларреа-Себаль А., Сиддики Х., Урибе К.Б., Остолаза Х., Мартин К. Патофизиология сахарного диабета 2 типа. Межд. Дж. Мол. наук. 2020; 21 :6275.
3. Манукумар Х.М., Кумар Дж.С., Чандрасекхар Б., Рагхава С., Умеша С. Доказательства диабетической и инсулино-миметической активности лекарственных растений: современное состояние и перспективы на будущее. Крит. Преподобный Food Sci. 2017 год; 57 : 2712–2729
4. Менесес М.Дж., Сильва Б.М., Соуза М., Сар Р., Оливейра П.Ф., Алвес М.Г. Противодиабетические препараты: механизмы действия и потенциальные последствия для клеточного метаболизма. Курс. Фарм. Дез. 2015 г.; 21 : 3606–3620.
5. Рехани П.Р., Ифтихар Х., Накадзима М., Танака Т., Джаббар З., Рехани Р.Н. Безопасность и механизм действия лекарств от диабета по сравнению с 5-аминолевулиновой кислотой (5-АЛК) J. Diabetes Res. 2019 год; 2019 : 4267357.

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

ZAXIRALARNI BOSHQARISHNING ASOSIY MUOMMOLARI

Ergashev Jakhongir Baxodirovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
"Marketing" kafedrasi Assitent-stajyori

Xoliyarov Jamshid Erkin o'g'li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola zaxiralarni boshqarishda an'anaviy yondashuvlarning cheklovlarini va zamonaviy texnologiyalarni integratsiya qilishning muhimligini ko'rsatadi. Iqtisodiy buyurtma miqdori (EOQ), ABC tahlili va Just-In-Time (JIT) modellari samarali bo'lsa-da, ular dinamik talab va taklif sharoitlariga moslashishda kamchiliklarga ega. Tadqiqotda raqamli texnologiyalar – sun'iy intellekt (AI), Internet of Things (IoT), ERP tizimlari va blokcheynning zaxira boshqaruviga ta'siri o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, bu texnologiyalar zaxiralarni real vaqt rejimida kuzatish, talabni prognozlash va ta'minot zanjirini shaffoflashtirishda samarali yechimlar taklif etadi. O'zbekiston sharoitida bu texnologiyalarni qabul qilish bizneslarning operatsion xarajatlarini kamaytirib, samaradorligini oshirishga yordam beradi. Kelgusi tadqiqotlar sun'iy intellekt, blokcheyn va IoT tizimlarining amaliy qo'llanilishiga doir yanada chuqurroq tahlillarni talab qiladi.*

Kalit so'zlar: *Zaxira boshqaruvi, an'anaviy modellar, sun'iy intellekt, IoT, ERP tizimlari, blokcheyn, talab prognozlash, ta'minot zanjiri.*

Zaxiralarni boshqarish har qanday korxona uchun strategik jihatdan muhim jarayon bo'lib, bu jarayon mahsulot ishlab chiqarishdan tortib, uni oxirgi iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan zanjirni samarali boshqarishga yordam beradi. Bugungi kunda korxonalar har qachongidan ham ko'proq zaxiralarni to'g'ri boshqarishga ehtiyoj sezmoqda, chunki talab va taklifning tez-tez o'zgarishi, raqobatning kuchayishi va global bozor sharoitlarining o'zgaruvchanligi an'anaviy zaxira boshqaruvi usullarini yangilashni talab etmoqda. Shu sababli, korxonalar uchun zaxira miqdorini optimallashtirish nafaqat xarajatlarni kamaytiradi, balki ular faoliyatining samaradorligini ham oshiradi. Bu esa korxonalar uchun muhim ustuvorlikka aylanadi, chunki ortiqcha zaxiralar xarajatlarni oshiradi, kamchilik esa mijoz ehtiyojini qondirishda muammolar tug'dirishi mumkin.

Ushbu tadqiqot O'zbekiston va xalqaro bozor sharoitida zaxiralarni boshqarish bilan bog'liq asosiy muammolarni o'rganishni o'z oldiga maqsad qilgan. Tahlil jarayonida ishlab chiqarish va savdo sohalaridagi korxonalar misolida muammolar aniqlandi va ushbu muammolarni hal etishga yordam beruvchi nazariy va amaliy asoslar o'rganildi.

Tadqiqotda EOQ (Economic Order Quantity), ABC tahlil, va JIT (Just-In-Time) kabi nazariy konsepsiyalar zaxiralarni boshqarishda qanday yordam berishi muhokama qilindi. Shuningdek, talab prognozi va xarajatlarni boshqarish uchun foydalaniladigan iqtisodiy modellar, raqamli texnologiyalar va zamonaviy boshqaruv tizimlari orqali yangi yondashuvlarni ishlab chiqish imkoniyatlari ham tahlil qilindi. Ushbu tadqiqot misolida tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish va

zaxiralarni boshqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini o‘rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi zaxiralarni boshqarish samaradorligini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalar, masalan, ERP tizimlari, sun’iy intellekt yordamida talab prognozi, va blokcheyn texnologiyalarining afzalliklarini o‘rganishdan iborat. Zaxiralarni boshqarishdagi mavjud bo‘shliqlar va yechimini topmagan masalalarni tahlil qilish orqali ushbu tadqiqot innovatsion yondashuvlarni taklif qiladi.

Yangi texnologiyalar va boshqaruv tizimlarini qo‘llashning kutilayotgan natijalari ortiqcha va yetarli darajada bo‘lmagan zaxiralarni bartaraf etish, transport va saqlash xarajatlarini optimallashtirish, va resurslardan samarali foydalanishga yordam beradi. Shunday qilib, tadqiqot natijalari ushbu jarayonlarning samaradorligini oshirish va korxonalarni global bozorning o‘zgaruvchan sharoitlariga tezkor moslashish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan.

Zaxiralarni boshqarish bo‘yicha dastlabki tadqiqotlarda EOQ (Economic Order Quantity) modeli klassik yondashuv sifatida qo‘llanilib, korxonalar uchun saqlash va yetkazib berish xarajatlarini minimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etgan. Ushbu model O‘zbekiston iqtisodiyoti sharoitida ham qo‘llanilib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda o‘ziga xos yondashuvlarni taqdim etgan (Usmonov, 2019)[1]. Keyinchalik bu modelning rivoji sifatida ABC tahlil va JIT (Just-In-Time) tizimlari taklif qilinib, bu usullar o‘zgaruvchan talab va taklif sharoitlarida zaxiralarni optimallashtirishda keng qo‘llanilmoqda (Ismoilov, 2021)[2].

Zamonaviy zaxiralarni boshqarish sohasida raqamli texnologiyalar, ayniqsa sun’iy intellekt yordamida talab prognozlash tizimlari joriy etilgan bo‘lib, ular O‘zbekiston korxonalari uchun xarajatlarni kamaytirish va operatsion samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini yaratmoqda (Karimov, 2020)[3]. ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlari orqali korxonalar real vaqt rejimida qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu ular uchun zaxiralarni samarali boshqarish yo‘lida yangi imkoniyatlar ochmoqda (Alimova va Oripov, 2018)[4].

Shu bilan birga, global va mahalliy miqyosda blokcheyn va IoT (Internet of Things) texnologiyalari yordamida yetkazib berish zanjirini shaffof boshqarish imkoniyatlari ham kengaymoqda. Blokcheyn orqali yetkazib berish jarayonlarini izchil kuzatib borish imkoniyati yaratilib, zaxira harakatlarini boshqarish ishonchliligi oshmoqda (Toshmatov, 2022)[5]. IoT texnologiyalari esa mahsulotlarni real vaqt rejimida kuzatish va talabga mos zaxira darajasini saqlash imkonini yaratadi (Jumayev va Ergashev, 2019)[6].

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda zaxiralarni boshqarishning asosiy muammolarini aniqlash va tahlil qilish uchun turli tadqiqot metodlari qo‘llanildi. Tadqiqot quyidagi uch asosiy qadamdan iborat:

---

[1] Usmonov, S., *Zaxiralarni boshqarishning iqtisodiy asoslari*, TDIU Nashriyoti, 2019.
[2] Ismoilov, A., *Korxonalarda zaxiralarni boshqarishning zamonaviy usullari*, Iqtisodiyot va Boshqaruv, 2021.
[3] Karimov, N., *Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt yordamida zaxiralarni boshqarish*, O‘zbekistonda Boshqaruv Masalalari Jurnali, 2020.
[4] Alimova, D., & Oripov, B., *Korxonalarda ERP tizimlaridan foydalanishning afzalliklari*, Samarqand Davlat Universiteti Nashriyoti, 2018.
[5] Toshmatov, M., *Blokcheyn texnologiyasi va uning logistika zanjirida qo‘llanilishi*, Iqtisodiy Tadqiqotlar Jurnali, 2022.
[6] Jumayev, X., & Ergashev, K., *IoT texnologiyalari yordamida zaxiralarni kuzatish va boshqarish*, Innovatsion Texnologiyalar Jurnali, 2019.

1. Ushbu tadqiqotda ma’lumotlar yig‘ish uchun ikkita asosiy manbaga murojaat qilindi:

- Xalqaro ilmiy maqolalar, nashr etilgan kitoblar, sohadagi ilg‘or tadqiqot ishlari va xalqaro standartlar asosida zaxiralarni boshqarish bo‘yicha mavjud nazariy va amaliy bilimlar yig‘ildi. Ushbu ikkilamchi ma’lumotlar yordamida sohadagi asosiy muammolarni tushunishga qaratilgan keng qamrovli sharh berildi.
- Zaxiralarni boshqarish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni batafsil tahlil qilish uchun turli korxonalar, ayniqsa, ishlab chiqarish, savdo va logistika sohalaridan statistik ma’lumotlar yig‘ildi. Ushbu ma’lumotlar talab va taklif muvozanati, saqlash xarajatlari, mijoz talabining o‘zgarishi, transport va yetkazib berish masalalariga oid statistik ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi.

2. Zaxiralarni boshqarishning samaradorligini oshirishga to‘sqinlik qiladigan muammolarni aniq belgilash va tasniflash uchun quyidagi tahlil usullari qo‘llanildi:

- Ma’lumotlar yordami bilan zaxiralarni boshqarish jarayonlarining umumiy ko‘rinishi berilib, asosiy muammolar va ularning korxonalarga ta’siri tahlil qilindi. Ushbu yondashuv yordamida mavjud zaxiralarni boshqarish amaliyotlarining kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi.
- Turli mamlakatlardagi, shuningdek, sanoat tarmoqlaridagi zaxiralarni boshqarish modellari o‘zaro solishtirilib, samarali va kamchiliklarga ega jihatlari aniqlanadi. Ushbu tahlil yordamida zaxiralarni boshqarishdagi muvaffaqiyatli yondashuvlar va eng yaxshi tajribalarni topishga harakat qilindi.
- Ma’lumotlar asosida matematik modellar va simulyatsiya usullari yordamida zaxiralarni boshqarish jarayonlaridagi potentsial muammolar va ularning yechim usullari tekshirildi. Bu usul yordamida talab va taklif muvozanatini ta’minlashga qaratilgan zaxira miqdorini aniqlash, transport va saqlash xarajatlarini minimallashtirish kabi masalalar o‘rganildi.

3. Zaxiralarni boshqarish jarayonini samarali amalga oshirish uchun mijoz talabining o‘zgarishini bashorat qilish va unga mos texnologik yondashuvlarni tahlil qilish zarur edi. Ushbu bosqichda quyidagi texnologiyalar va yondashuvlar o‘rganildi:

- Zaxiralarni real vaqt rejimida kuzatish va boshqarish uchun integratsiyalashgan ERP tizimlarining korxonalarga ta’siri o‘rganildi.
- Talab prognozini yaxshilash uchun AI asosida ishlab chiqilgan algoritmlar va mashina o‘rganish modellari tahlil qilindi. Ushbu texnologiyalar zaxiralarni optimallashtirish uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi.
- Blokcheyn asosida zaxiralarni boshqarish jarayonida yuzaga keladigan muammolar, ayniqsa, yetkazib berish vaqti va xarajatlari bilan bog‘liq masalalarni hal etishga qaratilgan tadqiqotlar o‘rganildi.

Natijalar. Mazkur tadqiqot zaxiralarni boshqarishning an’anaviy va zamonaviy yondashuvlarini o‘rganish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishning samarali usullarini aniqlashga qaratildi. EOQ modeli, ABC tahlili va JIT kabi klassik yondashuvlar korxonalarga zaxiralarni minimallashtirish va saqlash xarajatlarini kamaytirish imkoniyatini beradi. Biroq, ularning zamonaviy talab va taklif sharoitlaridagi cheklovlari aniqlanib, ularga qo‘shimcha ravishda raqamli texnologiyalar va ERP, blokcheyn, IoT kabi vositalarni qo‘llash zarurligi tasdiqlandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli texnologiyalar zaxiralarni real vaqt rejimida kuzatish va boshqarish imkoniyatini oshirib, ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi. Shu bilan birga, ushbu vositalar yordamida korxonalar talab prognozini yanada aniqroq amalga oshirishi va shu asosda zaxiralarni optimallashtirishi mumkinligi aniqlanadi.

Muhokama. Zaxiralarni boshqarishda yangi texnologiyalarni joriy qilishning iqtisodiy samaradorligini oshirishga qo‘shayotgan hissasi katta bo‘lsa-da, ushbu jarayonlar va ularning O‘zbekiston sharoitidagi qo‘llanilishiga oid chuqurroq tadqiqotlar talab qilinadi. Masalan, sun’iy intellekt vositasida talabni prognozlash zaxiralarni boshqarishda asosiy vosita sifatida e’tiborga olinishi mumkin. Biroq, raqamli va texnologik transformatsiya jarayonida tadqiqotchilar va amaliyotchilar uchun bilim bo‘shliqlari mavjudligi kuzatilmoqda. Ayniqsa, blokcheyn texnologiyasining logistika va yetkazib berish jarayonlaridagi xavfsizlik va izchillikni oshirishdagi roli chuqur o‘rganishni talab qiladi.

Shuningdek, O‘zbekiston iqtisodiyoti sharoitida raqamli texnologiyalardan foydalanishning iqtisodiy jihatdan qanday afzalliklar keltirishini o‘rganish va bunga mos amaliy tavsiyalar berish ham dolzarb muammolardan biri sifatida ko‘rilmoqda. Shu sababli, bu yo‘nalishlarda kelgusidagi tadqiqotlar an’anaviy va zamonaviy boshqaruv vositalari integratsiyasi va ularning samaradorligini oshirish yo‘llarini o‘rganishga qaratilishi kerak. Yangi bilimlarni olish uchun kompleks tadqiqotlar orqali qo‘shimcha ma’lumotlar to‘plash va tahlil qilish kelgusi izlanishlar uchun muhimdir.

Xulosa. Ushbu tadqiqot zaxiralarni boshqarishda zamonaviy texnologiyalar, jumladan, sun'iy intellekt, ERP tizimlari, blokcheyn va IoT texnologiyalarining muhim rolini ta'kidlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, an'anaviy modellardan, masalan, EOQ (Iqtisodiy buyurtma miqdori), ABC tahlili va JIT (Just-In-Time) yondashuvlari, zaxiralarni optimallashtirish va xarajatlarni kamaytirishda samarali bo'lsa-da, ular talab va taklifning dinamik o'zgarishlariga moslashishda cheklovlarga ega.

Raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish, zaxiralarni real vaqt rejimida kuzatish, talabni prognozlash va ta'minot zanjirining shaffofligini oshirishda sezilarli afzalliklarni taqdim etadi. Ushbu tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, O'zbekiston iqtisodiyoti sharoitida bizneslar bu texnologiyalarni qabul qilib, operatsion samaradorlikni oshirishi va logistik xarajatlarni kamaytirishi mumkin.

Kelgusidagi tadqiqotlar, xususan, sun'iy intellekt asosida talabni prognozlash modellari, blokcheynning ta'minot zanjiridagi xavfsizlikka ta'siri va IoT tizimlarining zaxiralarni real vaqt rejimida kuzatishda samaradorligi bo'yicha chuqurroq tahlilni talab qiladi. Shuningdek, turli sanoat tarmoqlari va iqtisodiyotlar bo'yicha solishtirma tadqiqotlar o'tkazish, ushbu texnologiyalarning har xil biznes muhitlariga qanday moslashishini va optimallashtirilishini yanada chuqurroq o'rganishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. M Boboyev N. Logistika. O’quv qo’llanma. - Samarqand: SamISI, 2021. - 330 b. ISBN: 978-9943-7641-5-6
2. Boboyev N. Logistika asoslari. Darslik - Samarqand: SamISI, 2023. - 292 b. ISBN: 978-9943-9457-6-0.
3. Usmonov, S., *Zaxiralarni boshqarishning iqtisodiy asoslari*, TDIU Nashriyoti, 2019.
4. Ismoilov, A., *Korxonalarda zaxiralarni boshqarishning zamonaviy usullari*, Iqtisodiyot va Boshqaruv, 2021.
5. Karimov, N., *Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt yordamida zaxiralarni boshqarish*, O‘zbekistonda Boshqaruv Masalalari Jurnali, 2020.
6. Alimova, D., & Oripov, B., *Korxonalarda ERP tizimlaridan foydalanishning afzalliklari*, Samarqand Davlat Universiteti Nashriyoti, 2018.
7. Toshmatov, M., *Blokcheyn texnologiyasi va uning logistika zanjirida qo‘llanilishi*, Iqtisodiy Tadqiqotlar Jurnali, 2022.
8. Jumayev, X., & Ergashev, K., *IoT texnologiyalari yordamida zaxiralarni kuzatish va boshqarish*, Innovatsion Texnologiyalar Jurnali, 2019.

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

O‘ZBEK TILINING DAVLAT TILI SIFATIDAGI O‘RNI VA XALQARO MIQYOSDAGI NUFUZINI OSHIRISH MASALALARI

Xokimjon Ikromov
Majburiy ijro byurosining Nazoratni tashkillashtirish, statistika va tahlil bo‘limi katta inspektori

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirishga to‘sqinlik qilib kelayotgan ayrim masalalar, davlat tiliga oid huquqbuzarliklarni aniqlash va javobgarlik masalasini hal qilishning muammoli jihatlari, davlat tiliga oid qonunchilik ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini tatbiq etish masalalari tahlil qilinib, Davlat tiliga oid qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.*

Kalit so‘zlar: *davlat tili, o‘zbek tili, “Davlat tili haqida”gi Qonun, qonunchilikni takomillashtirish.*

Kirish. O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylandi. So‘nggi yillarda davlat tili nufuzini oshirish borasida bir qator aniq chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Biroq, oldimizda bir qancha o‘z echimini kutayotgan muammolar mavjud.

Birinchidan, “Davlat tili haqida”gi Qonunning bir qator normalari deklarativ va umumiy xarakterga ega bo‘lsa, ikkinchidan, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksdagi birgina "Davlat tilini mensimaslik" mazmunidagi moddani inobatga olmaganda, bu yo‘nalishda javobgarlikni keltirib chiqaradigan hatti-harakatlar batafsil yoritib berilmagan.

Bundan tashqari, mamlakatimizda davlat tilining nufuzini oshirish maqsadida uni o‘rganish ehtiyoji yaratilmagan hamda davlat tiliga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashish maqsadida qat’iy jamoatchilik nazorati o‘rnatilmagan.

Sohada yuzaga kelayotgan vaziyat shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zbek tilining Davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish, mavjud muammolar va qonunchilikdagi bo‘shliqlarni bartaraf etish maqsadida davlat tiliga oid qonunchilik normalarini xorijiy davlatlarning tajribalarini inobatga olgan holda qayta ko‘rib chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

1-§. Davlat tili nufuzini oshirishga to‘sqinlik qilib kelayotgan ayrim masalalar.

“Davlat tili haqida”gi Qonunning bir qator normalari asosan tavsiyaviy xarakterga ega bo‘lganligi – bu borada olib borilayotgan ishlar sifatiga o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazib kelmoqda.

Misol uchun, “Davlat tili haqida”gi **qonunining 14-modasi** va “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonunining 6-moddasiga asosan murojaatlar davlat tilida va boshqa tillarda berilishi mumkin.


Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz


Bundan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tili deb qat’iy belgilab qo‘yilgan bo‘lsada, murojaatlarni ko‘rib chiqish sohasiga ushbu talab joriy etilmagan.

Ushbu nomutanosiblikka javob izlash uchun dastlab xorijiy davlatlarning bu boradagi tajribasini o‘rganib chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xorijiy davlatlarning bu boradagi tajribasini o‘rganish borasida o‘tkazilgan tahlilga ko‘ra, aksariyat rivojlangan davlatlarda muallif o‘zi istagan tilda davlat organlariga murojaat qilish huquqiga ega emas.

Misol uchun, Gruziya Demokratik Respublikasining “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonunining 11-moddasiga muvofiq, davlat organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning arizalarini qabul qilish, ko‘rib chiqish va javob berish davlat tilida ya’ni gruzinchada amalga oshirilishi belgilangan.





Solishtirish uchun, Gruziya aholisining 83,5 foizini gruzinlar, qolgan qismini ozarbayjon, arman, rus va boshqa millat vakillari tashkil etsa, O‘zbekiston aholisining 84,4 foizini o‘zbeklar, qolgan qismini esa tojik, qozoq, qoraqalpoq, rus va boshqa millat vakillari tashkil etadi. Ko‘rinib turibdiki, Gruziya aholisi tarkibida gruzinlar ulushi O‘zbekistondagi o‘zbeklar ulushidan kam bo‘lsada, murojaatlar faqat gruzin tilida bo‘lishi kerakligi haqida talab qo‘yilgan.

Yoki, Rossiya Federatsiyasining murojaatlar bilan ishlash bo‘yicha yo‘riqnomasining 19-moddasida xorijiy tillardagi murojaatlar ularning rus tiliga tarjimasi ilova qilingan taqdirdagina ko‘rib chiqilishi belgilangan hamda 41-moddasida boshqa tilda berilgan murojaatning rus tilidagi tarjimasi ilova qilinmagan bo‘lsa, ushbu murojaat muallif xabardor qilinmagan holda hisobdan chiqarilishi belgilab qo‘yilgan.

Shuningdek, Germaniya Federativ Respublikasi, Litva, Estoniya, Fransiyada ham davlat organlariga murojaatlar davlat tilida bo‘lishi kerakligi haqida qat’iy talab qo‘yilgan.

“Davlat tili haqida”gi **Qonunning 8-moddasida** davlat hokimiyati organlarining hujjatlari davlat tilida qabul qilinishi, ularning tarjimalari boshqa tillarda ham e’lon qilinishi belgilangan bo‘lsada, ayrim davlat idoralarida ushbu norma teskari talqin qilinib, hujjatni avval boshqa tilda qabul qilib, so‘ngra davlat tiliga tarjima qilish holatlari ko‘p kuzatilmoqda.

Hattoki, ko‘plab hujjatlar boshqa tilda qabul qilinib, uning davlat tilidagi tarjimasi ishlab chiqilmagan.

Misol uchun, bugungi kunda Qonun hujjatlari milliy bazasida *(Lex.Uz)* **3 ta** amaldagi hujjat matni faqat rus tilida keltirilib, *“Hujjat matni rus tilida keltiriladi”* deb, **330 ta** hujjat ilovasi faqat rus tilida taqdim etilib, *“Ilova rus tilidagi matnda berilgan”* deb izoh qoldirilgan.

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

Shuningdek, **Qonunning 10-moddasida** muassasa va tashkilotlarda ish yuritish, hisob-kitob va moliya hujjatlari davlat tilida yuritilishi belgilangan hamda ushbu moddaning ikkinchi qismida o‘zbek tilini bilmaydigan jamoalarda ish yuritish davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tilib, moddaning birinchi qismida qayd etilgan talabni aylanib o‘tishga imkon qoldirilgan.

Ushbu modda talablari chetlab o‘tilayotganiga yorqin misol sifatida O‘zbekiston Respublikasi tovar-xom ashyo birjasida davlat tashkilotlari ishtirokida tuzilayotgan shartnomalarning **41 foizi** *(2023 yilda tuzilgan shartnomalar statistikasiga ko‘ra)* davlat tilida tayyorlanmasdan imzolanayotganligini ko‘rsatish mumkin.

Shu kabi, ayrim xizmat ko‘rsatish sohalari *(kommunal, internet xizmatlari)* tomonidan shartnoma, dalolatnoma, ogohlantirish xati kabi hujjatlar aksariyat hollarda davlat tilida rasmiylashtirilmasdan kelinmoqda.

Qonunning 20-moddasida e’lon va boshqa ko‘rgazmali axborot matnlari davlat tilida e’lon qilinishi belgilanib, moddaning ikkinchi qismida boshqa tillarda tarjimasi berilishi mumkinligi belgilanganligi sababli ayrim savdo yoki xizmat ko‘rsatish sohalari tomonidan bevosita yoki internet tarmoqlari orqali berilayotgan e’lonlarda davlat tili talablariga rioya qilmaslik holatlari ko‘p uchramoqda.

Masalan, savdo yoki xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat yurituvchi savdo do‘konlari, umumiy ovqatlanish joylarida va ularning internet saytlarida xorijiy tilda yozilgan “skidka”, “dostavka” kabi so‘zlarni ko‘p uchratish mumkin. Vaholanki, ushbu so‘zlarning o‘zbek tilida “chegirma”, “etkazib berish”, kabi muqobillari mavjud.

Davlat tiliga oid qonunchilik normalarini yuqorida qayd etilgan masalalarni inobatga olgan holda qayta ko‘rib chiqilishi birinchi navbatda davlat tiliga bo‘lgan e’tibor yangi bosqichga olib chiqilishiga sabab bo‘lsa, ikkinchidan boshqa millat vakillarida eng minimum darajada bo‘lsada, o‘zbek tilini o‘rganishga bo‘lgan intilish yuzaga kelishiga hamda uning jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyati oshishga xizmat qiladi.

Mamlakatdagi hech bir qonun muayyan xalqning ona tilini behurmat qilishga olib kelishi mumkin emas. Ushbu talab konstitutsiya va qonunlarimizda mustahkamlab qo‘yilgan.

Biroq, davlat tili o‘z nomi bilan davlatning fuqarolar bilan rasmiy muloqot tili bo‘lishi kerak. Fuqarolarning o‘zaro shaxsiy muloqot tilini erkin tanlash huquqini kafolatlash bilan bir qatorda ularning davlat organlari bilan rasmiy muloqoti davlat tilida bo‘lishi muhimdir.

Aks holda davlat tilini o‘rganish ehtiyoji hech qachon yaratilmaydi. Davlat tilidan kundalik hayotda foydalanishda ehtiyoj yaratilmas ekan, iste’molda u doimo ikkinchi darajali til bo‘lib qolaveradi.

2-§. Davlat tiliga oid huquqbuzarliklarni aniqlash va javobgarlik masalasini hal qilishning muammoli jihatlari

Davlat tiliga bo‘lgan e’tibor siyosat darajasiga ko‘tarilgan bo‘lsada, bugungi kunda tilga oid normalarni tartibga soluvchi mukammal qonun hujjati mavjud emas.

O‘zbek tilining O‘zbekiston hududida davlat tili sifatida amal qilishining kafolati O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va “Davlat tili haqida”gi Qonuni bilan mustahkamlangan.

Shuningdek, ushbu sohadagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni ta’minlash maqsadida Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga "Davlat tili to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish" moddasi (42-modda) kiritilgan.

Shunday bo‘lsada, yuqorida qayd etilgan qonunchilik hujjatlarida davlat tilidan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish qoidalarini o‘zida mujassamlashtirgan normalar majmuasi mavjud emas.

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

Xususan, kodeksdagi birgina "Davlat tilini mensimaslik" mazmunidagi umumiy xarakterdagi moddani inobatga olmaganda, bu yo‘nalishda javobgarlikni keltirib chiqaradigan hatti-harakatlar batafsil yoritib berilmagan.

Ya’ni ayni bir harakat yoki harakatsizlik davlat tilidan foydalanish qoidalarini buzish sifatida baholanib, umumiy xarakterdagi javobgarlikni keltirib chiqarsada, bu qilmish Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda keltirilgan *"davlat tilini mensimaslik"* sifatida malakalanishi taraflarning haqli e’tiroziga sabab bo‘lishi tabiiy.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda yo‘l harakati qoidalarini buzilishi bilan bog‘liq har bir holatga alohida-alohida moddalar *(128[1]-telefondan foydalanish, 128[2]-monitordan foydalanish, 128[3]-tezlikni oshirish, 128[4]-svetoforning taqiqlovchi signaliga bo‘ysunmaslik va h.k)* kiritilgan bir paytda, ahamiyati va dolzarbligi jihatidan yo‘l harakati qoidalaridan qolishmaydigan davlat tili to‘g‘risidagi qoidalar buzilishi holatlariga alohida-alohida, moddaning gipoteza qismi to‘liq ochib berilgan moddalar *(peshlavhani imlo xato bilan yozish, reklamada o‘zbek tilidagi matnni chet tilidagi matndan kichik kiritish va h.k)* bilan to‘ldirilmagan.

Shu nuqtai nazardan davlat tili to‘g‘risidagi qonunchilik normalari buzilishiga bo‘lgan murosasiz kurashni boshlashdan avval, birinchi navbatda bu borada yo‘l qo‘yib kelinayotgan holatlar eng kichigidan boshlab eng kattasigacha mufassal yoritilgan, qaysi holatda javobgarlik masalasi yuzaga kelishi ya’ni huquqiy oqibat keltirib chiqaradigan holatlar aks ettirilgan qonun hujjatini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

3-§. Davlat tiliga oid qonunchilik ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini tatbiq etish masalalari

Har bir sohada joriy etilayotgan jamoatchilik nazoratini davlat tili to‘g‘risidagi qonunchilik normalari buzilishi sohasiga ham tatbiq etish o‘zining samarasini berishi tabiiy.

Bugungi kunda yo‘l harakati qoidalari buzilishi, soliq qonunchiligining buzilishi hamda ekologiya sohasida yo‘l qo‘yilayotgan huquqbuzarliklar haqida xabar berganlik uchun fuqarolarni rag‘batlantirish tizimi joriy etilgan.

Ushbu sohalarda fuqarolarni rag‘batlantirish tizimi joriy etilishi natijasi o‘laroq, qat’iy jamoatchilik nazorati o‘rnatilishiga turtki bo‘lib, o‘zining ijobiy samarasini ko‘p kuttirmadi.

Ijobiy ish tajribasini boshqa sohalar qatori davlat tili to‘g‘risidagi qonunchilik normalari buzilishiga nisbatan ham tatbiq etish – jamoat joylarida savodsizlik bilan yozilgan imlo xatoli peshlavhalar, chet tilida yozilgan, biroq o‘zbek tilidagi tarjimasi kiritilmagan bannerlar, kirill alifbosida yozilgan o‘zbek tilidagi e’lonlar va reklama matnlariga barham berilishi mumkin.

Buning uchun shu kabi holatlarni aniqlab, rasmga olib yuborish uchun maxsus portal ishlab chiqish va portalga kelib tushgan huquqbuzarliklar uchun qo‘llanilgan ma’muriy jarimalar summasidan u haqida xabar bergan jamoatchilik faollariga ma’lum qismini rag‘batlantirish tariqasida o‘tkazib borish tizimini yaratish lozim.

Bu tadbirlar birinchi navbatda davlat tiliga bo‘lgan e’tibor yangi darajaga olib chiqilishiga sabab bo‘lsa, ikkinchidan fuqarolarda davlat tiliga oid huquqbuzarliklarga befarq bo‘lmaslik kayfiyati shakllanishiga erishiladi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash mumkinki, o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomini mustahkamlash yo‘lida kuzatilayotgan muammolar, shuningdek, ushbu sohada jamoatchilik nazorati yo‘lga qo‘yilmaganligi o‘zbek tilining mahalliy va xalqaro maydondagi o‘rnini ko‘tarish borasidagi ishlarga salbiy ta’sir etmoqda.

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligi munosabati bilan so‘zlagan nutqida ta’kidlaganidek, “Bundan o‘ttiz yil muqaddam qabul qilingan “Davlat tili haqida"gi qonunni bugungi kun talablari nuqtai nazaridan har tomonlama chuqur tahlil qilib, takomillashtirish zarurati sezilmoqda”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi.
4. Gruziya Demokratik Respublikasining “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonuni *https://matsne.gov.ge/ru/document/download/2931198/0/ru/pdf*
5. Rossiya Federatsiyasining murojaatlar bilan ishlash bo‘yicha yo‘riqnomasi. http://council.gov.ru/services/messages/instruction/
6. Gruziya Demokratik Respublikasining aholi tarkibi haqidagi ma’lumotlar *https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%93%D1%80%D1%83%D0%B7%D0%B8%D1%8F*
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi *https://president.uz/oz/lists/view/2954*

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI
ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

СОСТОЯНИЕ ВНУТРИОРГАННОГО КРОВЕНОСНОГО РУСЛА БРЮШИНЫ ЧЕЛОВЕКА ПРИ ЦИРРОЗЕ ПЕЧЕНИ

Bilal Ahmad Khan
Assistant Teacher, Department Clinical Anatomy
Samarkand state Medical University

Резюме: *В статье изучено состояние органного кровеносного русла брюшины 13 трупов людей, погибших от цирроза печени с явлением портальной гипертонии и асцитом. Внутриорганная кровеносная система брюшины указанных областей в условиях длительно протекающего нарушения воротного кровообращения, которое наблюдается при циррозах печени, подвергается значительной перестройке.*

Ключевые слова: *брюшины человека, циррозе печени, кровеносной системы, венозных сосудов, воротной вены.*

Введение. В последнее время все большее внимание исследователей обращено вопросам компенсаторно-приспособительной функции сосудистой системы при различных функционально-патологических состояниях организма. В свете этих задач мы изучили структурные особенности строения кровеносного русла брюшины в условиях длительно протекающего нарушения воротного кровообращения, имеющего место при циррозе печени у человека. Клинические наблюдения и экспериментальные данные авторов по изучению циррозов печени дают основание предположить о наличии морфологических изменений в кровеносной системы брюшины при этом заболевании. Между тем, анатомия кровеносного русла брюшины при данных условиях патологии не получила должного отражения в доступной нам литературе.

Цель исследования: Изучение состояние органного кровеносного русла брюшины трупов людей, погибших от цирроза печени с явлением портальной гипертонии и асцитом.

Материал и методы исследования: Методом инъекции кровеносных сосудов брюшины водным раствором туши и импрегнацией их аммиачным раствором азотнокислого серебра по модифицированной в лаборатории проф. В.В. Куприянова методике при нами изучено состояние органного кровеносного русла брюшины 13 трупов людей, погибших от цирроза печени с явлением портальной гипертонии и асцитом. Объектом исследования явились тотально-инъецированные и импрегнированные различных отделов париетальной брюшины, серозной оболочки тонкой кишки и ее брыжейки, брюшинных листков желудочно-селезеночной связки, малого и большого сальников.

Результаты исследования и их обсуждение: Изучение препаратов показало, что внутриорганная сеть кровеносных сосудов и капилляров париетальной и висцеральной брюшины при циррозах печени претерпевает структурные изменения, характерные обычно для венозного застоя. Во всех случаях отмечается повсеместное увеличение в диаметре венозного отдела кровеносного русла брюшины. В большей степени расширению подвергаются венозные сосуды и капилляры брюшины задне-боковых отделов стенок живота и малого таза, серозной

оболочки тонкой кишки, брюшинных листков желудочно-селезеночной связки, малого и большого сальников. Менее выражены изменения сосудов брюшины переднего отдела брюшной стенки.

Следует отметить, что диффузно расширенные венозные сосуды и капилляры серозы имеют четкие и ровные контуры. Диаметр венозных сосудов по сравнению с нормой увеличивается на 50-120 мк, а поперечник капилляров – на 10-18 мк. Наряду с расширением венозного отдела русла брюшины наблюдается извилистость отдельных сосудов с образованием микроклубочков. В большинстве случаев в просвете расширенных вен и венул отмечается скопление форменных элементов крови; местами сосуды как бы нафаршированы ими, что косвенно свидетельствует о венозном застое. Кроме того, на некоторых препаратах брюшины боковой стенки малого таза и серозного листка желудочно-селезеночной связки можно увидеть сглаживание наблюдаемых в норме воронкообразных расширений устьев венозных сосудов.

Наряду с обычным увеличением в диаметре сосудов в некоторых случаях в брюшине брыжеечных синусов и серозного листка желудочно-селезеночной связки локально выявляются участки, венозные сосуды которых чрезмерно расширены, образуют озера или синусоиды. Обращает на себя внимание тот факт, что на фоне расширенных венозных сосудов и капилляров брюшины артериальные звенья ее органного русла представляются несколько суженными. Стенки венозных сосудов, растягиваясь, истончаются, ядра эндотелиальных клеток как бы отодвигаются друг от друга. Местами обнаруживаются незначительные выпячивания стенок сосудов. Паравазальные венозные капилляры и сосуды жировых прослоек представляются расширенными. Как правило, увеличение в калибре венозных капилляров происходит постепенно по направлению тока крови; их диаметр в среднем колеблется от 16 до 25 мк, вместо 7-10 мк в норме. Наряду с этим, в некоторых случаях на импрегнированных препаратах серозных листков малого сальника, желудочно-селезеночной связки и брюшины боковой стенки малого таза по ходу расширенных венозных сосудов и капилляров обнаруживаются варикозные расширения с пальцевидными слепыми выпячиваниями стенок. Последние бывают различной формы и величины, встречаются на препаратах в форме шаров, веретен и реторт. Кроме того, они могут быть одно и двусторонними. В венулах калибром 50-60 мк величина таких варикозных вяпячиваний колеблется от 130х175 до 170х200 мк, а у капилляров от 25х35 до 31х44 мк. В более крупных сосудах (диаметр 80-120 мк) расширения приобретают пальцевидную форму. Последние нами выявлены только на единичных препаратах брюшины боковой стенки малого таза. Эти слепые венозные выпячивания сильно варьируется по размерам, калибру и длине: от 50х120 до 150х250 мк. Степень выраженности и частота выявляемости выпячиваний и варикозных расширений стенок венозного русла брюшины, на наш взгляд, зависит от давности и степени тяжести нарушения воротного кровообращения при этом заболевания и, очевидно, связана с застойными явлениями в воротной системе. В связи с повсеместными расширением венозных звеньев органного русла брюшины сеть кровеносных сосудов и капилляров приобретает мелкопетлистое строение; раскрываются бывшие ранее плазматическими капилляры и артерио-венозные анастомозы. Встречаются слепые выросты кровеносных капилляров серозы, свидетельствующие о росте этих структур.

Вывод.Таким образом, но основании вышеизложенного можно заключить, что внутриорганная кровеносная система брюшины указанных областей в условиях длительно протекающего нарушения воротного кровообращения, которое наблюдается при циррозах печени, подвергается значительной перестройке. Кровеносные сосуды и капилляры брюшины, обладая высокой реактивностью, пластичностью и резервной способностью, принимают участие в компенсаторно-приспособительных процессах, протекающих в сосудистой системе организма

при циррозе печени. Кроме того, кровеносное русло брюшины, обеспечивая перераспределения крови, очевидно, участвует в разгрузке бассейна воротной вены, становясь дополнительным дренажем в системе порта-кавальных и порта-портальных анастомозов.

Использованная литература:

1. Маматалиев А. Р. Нервный аппарат внепеченочных желчных протоков у кролика после экспериментальной холецистэктомии //international journal of recently scientific researcher's theory. – 2024. – т. 2. – №. 4. – с. 161-165. Academic research in modern science.
2. Zohidova S. H, Mamataliyev A.R. "алгоритм лечения деструктивного панкреатита." journal of biomedicine and practice 9.2 (2024).
3. Маматалиев А. Р., Орипов Ф. С. Қуёнларда жигардан ташки ўт йулларининг одатда ва ўт халтасини олиб ташлагандан сўнги гистологик ўзгариш //journal of biomedicine and practice. – 2021. т. 6. – №. 3. – с.117- 125.
4. Абдуллаева Д. Р., Исмати А. О., Маматалиев А. Р. Анатомическое строения внепеченочных желчных протоков у крыс //golden brain. – 2023. – т. 1. – №. 10. – с. 493-499.
5. Зохидова С., Маматалиев А. Морфофункциональная и гистологическом строении эпителия языка крупного рогатого скота //евразийский журнал медицинских и естественных наук. – 2023. – т. 3. – №. 2. – с. 133- 139.
6. Зохидова, С. Х., Маматалиев, А. Р., Тухтаназарова, Ш. И., Мусурмонов, А. М., Омонов, А. Т., & Мусурмонов, Ф. И. (2023). Возрастной особенности гистологического строения различных отделов аорты у плодов и новорожденных. Central asian journal of innovations on tourism management and finance, 4(5), 115-121.
7. Маматалиев А.Р.Особенности нейрогистологическое строение интразонального нервного аппарата внепеченочных желчных протоков у крыс //экономика и социум. – 2024. – №. 3-2 (118). – с. 692-695.
8. Абдуллаева Д. Р., Исмати А. О., Маматалиев А. Р. Особенности гистологического строения внепеченочных желчных протоков у крыс //golden brain. – 2023. – т. 1. – №. 10. – с. 485-492.
9. Маматалиев А. Р. Нервный аппарат внепеченочных желчных протоков у кролика после экспериментальной холецистэктомии // international journal of recently scientific researcher's theory. – 2024. т. 2.№. 4. – с. 161-165.
10. Bobur Toshbekov 1 Abdumalik R. Mamataliyev 2 Bayramdurdi Sapaev 3 Abdijabbor S. Amanov 4 Nazora Xudoyberdiyeva 5 G'olib T. Kurbanov 6 Dadakhon M. Abdullaev 7 Ikrom Nasimov 8 Matluba K. Rasulova 9 Iroda K. Turakulova. Behavioral Adaptations of Arctic Foxes (Vulpes lagopus) in Response to Climate Change.Caspian Journal of Environmental Sciences . ISSN: 1735-3033
11. Санжар Садинович Усанов, Зиядулла Эркинович Хидиров (2024), kalamushlar jigarining morfometrik ko'rsatgichlarini poliprogmaziya sharoitida yallig'lanishga qarshi 4 hil vositalar ta'siri holatida o'rganish , Journal of new century innovations , 48(1), (113-119)
12. Санжар Садинович Усанов, Зиядулла Эркинович Хидиров, Ширин Шухратовна Абдурайимова (2024) , оқ зотсиз каламушлар жигарининг нормада морфологик параметрларини ўрганиш. tadqiqotlar. uz , 33(2) , (98-105).

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

O‘ZBEK XALQINING MADANIYATIDA OTA-ONANING O‘RNI

Murtazayeva Billura Hakim qizi
Shahrisabz davlat pedagogika institute
“Pedagogika” fakulteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi

Xaydarova Shaxnoza Musirmon qizi
Ilmiy maslahatchi

Annotatsiya: *Xalqimiz madaniyatida ota -onaning ahamyati. O‘zbek oilalarida farzand tarbiyasida ota-onaning burchlari, mas’uliyati, vazifalari.Farzand har bir ishda ota-onalariga taqlid qilishlari, tarbiya vaqtida ota-ona o‘zlari o‘rnak bo‘lishlari, shuningek, oilada tarbiya davomida insonparvarlik fazilatlariga alohida e’tibor berish kerakligi. Madanyatli ota -onalar tufayli butun millat xalq madanyatli bo‘lishi.Tarbiya oiladan boshlanishi va kelajak avlodlar ham buni davom ettirishi.*

Kalit so‘zlar: *Madaniyat, tarbiya, burch, mas’uliyat, taqlid, insonparvarlik, millat, avlod.*

Har doim ham har sohada ota -onaning o‘rni beqiyos ayniqsa ta’lim tarbiya madaniyat sohalarida.Millat madaniyatli ziyoli bo‘lib yitishishi uchun ota o‘zi ham bu xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak shundagina natijaga erishib bo‘ladi.Bola dunyoga kelib birinchi bo‘lib ko‘rgan kishilari-onasi, otasi, aka-opalari bo‘ladi. Qarindoshlarning mehr-muhabbati bolaga chaqaloqligidan singadi. Ota-ona bola uchun butunlay g‘amxo‘r, rahnamo bo‘lib gavdalanadi va bola ularning nasihati, tarbiyasiga ishonch bilan quloq soladi. Bola ota-onaga alohida ishonch bilan qaraydi.

Bola qalbi-oilaning surati. Unda oilaning ichki mohiyati aks etadi. Agar ota-ona manfaatparast, ta'magir kishilar bo‘lsa, ular bu illatlarini oyda-yilda ko‘radigan do‘stlaridan yashira oladi. Lekin o‘z farzandlaridan yashirish nihoyatda qiyin. Bola yosh davrida ko‘p qiziqadigan va juda taqlidchi bo‘ladi. Bu davrda ota-ona va boshqa oila a'zolari o‘zaro madaniyatli, yaxshi insoniy muomalada bo‘lishlari katta ahamiyat kasb etadi.Qush uyasida ko‘rganini qiladi deb bekorga aytishmagan.

Oiladagi insonlar qanday bo‘lsa bola shulardan tarbiya oladi shuning uchun ham bolaning o‘zini qanday tutishi ota onaning kimligini ko‘rsatadi Madaniyatli ziyoli bilimli insonlar oilasida dunyoga kelgan bolada ham bu xislatlar rivojlanadi.Inson eng avvalo o‘zi madanyatli bo‘lishi kerak shundagina bolalarini ham madaniyatli qilib tarbiyalaydi.Masalan o‘tmishda ham keldirilgani kabi

Xalq og‘zaki ijodida ota-bobolarimizning aytmoqchi bo‘lgan pandnasihatlari, el e’zozlagan odam bo‘lishning talab-qoidalari, Alp Erto‘nga, To‘maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi ajoyib yurt farzandlarining botirliklari, xalqimizning urf-odatlari, milliy fazilatlarimiz haqida san’at darajasiga ko‘tarilgan so‘z tizimlaridan iborat maqol, qo‘shiq, ertak, doston, bolalarga bag‘ishlangan asarlar va boshqa janrlardagi namunalarda ifodasini topadi. Shuning uchun ham xalq og‘zaki ijodini milliy qadriyatlar deb atash odat bo‘lgan. Xalq og‘zaki ijodi ilmda folklor deb yuritiladi. Bu atamani 1846-yilda ingliz olimi Uilyam Toms taklif qilgan bo‘lib, uning ma’nosi “xalq donoligi” degan tushunchadan

iborat. O‘zbek dostonlaridan biri Alpomish” - o‘zbekning o‘zligini namoyon etadigan, mard va tanti xalqimizning yurak-yuragidan chiqqan, ota-bobolarimiz avlodlardan avlodlarga o‘tkazib kelayotgan qahramonlik qo‘shig‘idirAlpomish” xalq qahramonlik eposi bo‘lib, unda qahramonlik, vatanparvarlik, birodarlik, sadoqat kuylanadi. Bu doston qadim zamonlarda vujudga kelgan.

Dostonda Alpomishning jasorati, Barchinoy sadoqati, Qorajon, Qaldirg‘ochoy kabi bir qator obrazlar tasvirlanganBuyuk bobokalonlarimizdan meros bo‘lib qolgan bebaho ma’naviy boylik – asl qadriyatlarimizning sarchashmalaridir. Ayniqsa, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Bahovaddin Naqshband, Imom al Buxoriy, Imom at Termiziy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi allomalarimizning umrboqiy asarlari bizni avvalo boy o‘tmishimiz, asl qadriyatlarimiz va boshqa milliy-ma’naviy boyliklarimizdan bahramand qiladi. Bugungi o‘smir-yoshlar ana shu ma’naviy boyliklarimizdan beminnat foydalanishlari mumkinligi qayta-qayta e’tirof etiladi.

O‘zbekiston sharoitida oila qadriyatlarining tiklanishi va qarindoshlik munosabatlari, har bir oilaning iqtisodiy, madaniy, kasb-kor jihatdan ravnaq topishini anglatadi. Oila va oila muammolari hamisha davlatning diqqat-e'tibori va himoyasida bo‘lib kelmoqda.Chunki oila jamyatning asosiy bug‘inidir.Tinch oilada voyaga yitgan farzandlarimiz ertaga jamyat uchun davlat uchun foydali ishlar olib boradi va xalqni o‘ylaydi

Oila a'zolarining fahm-farosati, qiziqish va qobiliyati, ehtiyoj va mayli, intilishi va hohishi, tiyrakligi va zukkoligi bir-birlariga o‘xshash bo‘lsa, u holda, ota-onaning inoq va ahil turmush kechirishi, shaxslararo munosabatning izchil va mustahkam bo‘lishiga zamin hozirlaydi. Mustahkam oila muhitini barpo etish uchun eng avvalo, oila boshliqlari o‘zaro bir-birlarini tushunib turmush kechirishlari, tarbiya maqsadi va vazifasidagi birlik, hamjihatlik, yaqinlik, uzviy bog‘liqlik yuzaga keladigan va kelishi mumkin bo‘lgan qarama-qarshiliklarni bartaraf etish uquvi nihoyatda zarur.

Shuni alohida ta'kidlab o‘tish kerakki, o‘zbek oilasida ota-onaning xoh o‘g‘il, hoh qiz, hoh to‘ng‘ich, hoh kenja farzand bo‘lsin ularga birday bo‘lishi tarbiya samaradorligini oshiradi. Ana shuning uchun farzandlarni haddan tashqari erkalatmaslik, ajoyib insonlar namunasi orqali o‘g‘il-qizlarning fe'l-atvor xislatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Albatta har bir ota-onaning eng muqaddas orzu-niyatlaridan biri bu farzand ko‘rish, uni har tomonlama rivojlangan etib tarbiyalash, yaxshi kasb, chiroyli qalb egasi, yetuk shaxs etib voyaga yetkazish. Shaxsning kim bo‘lishidan qat'iy nazar, eng avvalo insonparvarlik xususiyatlari, odamlarga bo‘lgan iliq munosabat o‘zaro hurmat, bir so‘z bilan aytganda, oilada insonparvarlik tarbiyasi har qanday tarbiyadan ustundir.Yoshligidan to‘g‘rilikka ezgulikka birovni haqqini yimaslikka halol to‘g‘ri so‘z vijdonli mehribonlikni singdirish kerak

Oilaviy tarbiya doimo mavjudligi, ko‘rsatmaliligi va serjiloligi bilan ajralib turadi. Unda odobga doir tadbirlarni bolaga to‘g‘ri o‘rgatish, maslahat berish, kattalar tajribasigina emas, balki oilaning yashash tarzi, muhiti, ota-onalarning kasb hunari, oila a'zolarining ma'naviy- ruhiy munosabatlari katta rol o‘ynaydi.

Shunisi quvonarliki, hozirda oilalarda ota-onalarning farzand tarbiyasiga bo‘lgan e'tibori kundan-kunga kuchaymoqda. Bunga sabab muhtaram yurtboshimiz tomonidan xalq manfaatlari uchun barcha sohalarga bo‘lgan e'tibor, olib borilayotgan islohotlar, yaratilayotgan shart-sharoitlar, berilayotgan imkoniyatlardir. Bunday imkoniyatlardan to‘laqonli foydalanib kelayotgan ota-onalar farzandlari tarbiasiga o‘ta ma'suliyat bilan qaramoqdalar. Chunki, farzand Olloh tomonidan ato etilgan ulug‘ ne'mat bo‘lishi bilan birga, u ota-onaga topshirilgan ma'suliyat hamda omonatdir. Farzandlar - kelajagimiz ekan, ularni ham jismonan, ham ruhan, ham ma'nan sog‘lom bo‘lib kamolga etkazish barchamizning asosiy vazifamiz bo‘lib qolishi kerak.Ulug‘ shoir Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asarida Oyto‘ldi o‘g‘li O‘gdulmishga bir qator nasihatlar beradi: - Mening yagona tashvishim, - deydi u, - sening keyingi hayotingdir.

Ota ona sifatida o‘z burchimizga mas’ulyat bilan qarashimiz va e’tibor berishimiz kerak chunki bu bizning asosiy vazifamiz hisoblanadi.

Oila xalqning, jamiyatning hayoti, turmushiga oid urf-odatlarni o‘zida sinovdan o‘tkazadi. Yaxshilarini o‘z bag‘rida asrab-avaylab kelajak avlodlarga yetkazadi. Oila o‘z farzandlarini tarbiyalab, ularga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish bilan ularga boshlang‘ich ijtimoiy yo‘nalish beradi. O‘z farzandlarini katta oqimga — jamiyatga qo‘shish bilan esa oila jamiyat yo‘nalishi, iqtisodiyoti, madaniyati va ma’rifatini ham belgilashga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham Sharqda oila qadim-qadimdan muqaddas qo‘rg‘on hisoblanib kelingan.

Xususan, o‘zbek oilalarining serildizlik, serbutoqlik xususiyatlari hozir ham saqlanib turibdi. O‘zbeklarda oilalarning muayyan turmush tarzi shakllanib hayotiy tajriba orttirib borishi, tejamli va sarishta ro‘zg‘or tutishi, farzandlarni odobli, ma’naviy yetuk bo‘lib kamol topishida keksalar, ota-onaning roli katta. Ota ona qanday bo‘lsa bola ham shunday bo‘lib o‘sadi.

Ma`lumki, jamiyatning muhim bo‘g‘ini bo‘lgan oilalar qanchalik tinch va totuv bo‘lsa, shundagina davlat tinch va barqaror ravnaq topishi mumkin. Shu jihatdan, oila qo‘rg‘onining mustahkamligi va unda ma`naviy jihatlarning shakllanishi hamda amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega. Binobarin oila deb atalmish muqaddas makonda farzandlar kamolga yetadi, ulg‘ayadi. Shunday ekan, jamiyatda yuzaga kelayotgan oilalar qanchalik mustahkam qurilmoqda, poydevori chi? Darhaqiqat, oilaning barpo etilishida kimlar yoki nimalar muhim rolь o‘ynaydi, tashqi ta`sirlar chi? Mavjud oilalar va yangi barpo etilayotgan kichik bir oila o‘z mavqeini qanchalik asramoqda? Oila – muqaddas qo‘rg‘on, oila – ma`naviy kamolot maskani va boshqa bir qancha so‘z va iboralar bilan oilaning mavqeini belgilaymiz.

Namunali oila deganda, oilaviy munosabatlar ma`naviy mezonlar asosida qurilgan, yaxshi va axloqli farzandlar tarbiyalagan, nurli, piru badavlat otaxon va onaxonalar ko‘z oldimizga Yoshi ulug‘ ota onalarimiz nabiralariga hatto yoshi yitgan farzandlariga ham nasihat berib to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishadi.Ularning borligi boshqalar uchun ibrat maktabidir. Ammo, afsus, bizni o‘ylantirgan masala bu – oila qo‘rg‘onining buzilishiga salbiy ta`sir ko‘rsatayotgan bir qancha tashqi va ichki omillardir. Tashqi omil sifatida g‘arbona yashash tarzining o‘zlashtirilishi bo‘lsa, ichki omil sifatida esa, yoshlarning oilaga ma`naviy jihatdan etarli tayyorgarlikka ega bo‘lmaslik Oila qurayotganda insonlar bunday katta mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga tayyor bo‘lishlari kerak aks holda oila degan buyuk qo‘rg‘onga shikast yitishi mumkin.

Bunga tayyor bo‘lgandagina oila deb atalmish muqaddas qo‘rg‘onni asrab avaylashga intiladi. Oilaning bir butunligini tashkil etayotgan er va xotin ma`nan boy, aqlan kamolga etgan bo‘lsa, har qanday zararli ta`sirlarni oldindan ko‘radi va oilasini himoya qila oladi. Ayni paytda, farzandlar tarbiyasiga ham shu mezonlardan turib yondashadi. Oila mustahkamligini ta`minlashda tajribali, ko‘pni ko‘rgan otaxon va onaxonlar o‘giti, purma`no nasihatlari, ularning ibratli hayot tarzi ham muhim o‘rin tutadi. Shu jihatdan olganda, jamiyatda yuzaga kelayotgan yangi oilalarga ular turmushi ibrat bo‘lsa, tajribasidan o‘rganishsa, o‘ylaymizki, oila yanada mustahkam va voyaga etayotgan farzandlar tarbiyali bo‘ladi. Binobarin, oila qo‘rg‘oni ma`naviy yetuklik va boy tajriba asosida yanada mustahkamlanib boriladi.

Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsa-da, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta’sirida o‘zgarib boradi. Shunga muvofiq, har bir jamiyat o‘zgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni o‘rnatadi.Oila qurgan har qanday inson oilani to‘g‘ri boshqara olsa bunga mehribonlik qilolsa o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lsa tashqi muhit o‘z salbiy tasirini ko‘rsatilmaydi.Shuning uchun ham kim bilan oila qurishga ahamiyat qaratish lozim.Chunki bir kishi ilmli odobli madanyatli bo‘lgani bilan ikkinchi tarafda bu xislatlar bo‘lmasa bu oiladan madanyatli ilmli farzandlar dunyoga kelishi qiyindir.

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

Insonning qanday oila qurishi bu o‘ziga bog‘liq hisoblanadi.Agar oila qanchalik tartibli, uning a’zolari o‘rtasidagi munosabat samimiy bo‘lsa, Oila tarbiyasi ham shunchalik muvaffaqiyatli bo‘ladi. Oila tarbiyasida ota-ona obro‘si, ularning kuzatuvchanligi, sezgirligi, hozirjavobligi muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Oila tarbiyasida tarbiya jarayoni zerikarli, quruq nasihatgo‘ylikdan iborat bo‘lib qolmasligi lozim. Bola hayotining ko‘p qismi oilada o‘tadi. Shu boisdan mavjud an’analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va marosimlarning ijobiy ta’sirida bola asta-sekin kamol topib boradi. An’ana va marosim Oila tarbiyasining qudratli qurolidir.

Oila tarbiyasi ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo‘lsagina, kutilgan natijalarga eri-shish mumkin. Xulosa qiladigan bo‘lsak oila tarbiyasida yutuklarga erishish ota-onalarning pedagogik bilimlarga egaligi, Oila tarbiyasi bo‘yicha tajribalar alma-shishi, ota-onalarni tarbiyaviy ishlarga qizg‘in jalb qilishga ham bog‘liqdir. Har bir ota-ona Oila tarbiyasida o‘zlarining burch va mas’uliyatlarini chuqur anglashlari lozim.Biz ota ona sifatida to‘g‘ri tarbiya berolsak albatta buning kamolini ko‘ramiz Davlatimiz uchun ham ilmli madanyatli jamyatga foydasi tegadigan farzand tarbiyalashimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Karimov I.A. Uzbekistan buyuk kelajak sari. - T.: Uzbekistan, 1998. - b. 5-66.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod - Uzbekistan taratskistining poydevori. - T.: Shark NMAK, 1997.
3. Karimov I.A. “Alpomish” dostonining 1000 yilligiga bagishlangan tantanali marosimda suzlagan nutki // Xalk suzi. - 1999.-9-noyabr.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. - T.: Ma’naviyat.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. // Xalq so‘zi. 2020-yil 25-yanvar, – № 19.
6. Alimov Usmonxon. Oilada farzand tarbiyasi: U.Alimov; mas’ul muharrir A.Mansur. – Toshkent: Movarounnahr, 2012.
7. Burhoniddin Marg‘inoniy. Hidoya. 1-jild. – Toshkent: Adolat, 2000.
8. Homidiy Homidjon. “Avesto”dan “Shohnoma” /Hamidjon Homidiy; mas’ul muharrir N.Komilov. – Toshkent: Sharq, 2007.

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

YOZUV VA MUMTOZ ADABIYOTDA OTA VA ONANING ÕRNI VA UNING GAVDALANISHI

Yõldosheva Charos To‘yli qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti “ Pedagogika“ fakulteti“ Boshlang‘ich ta'lim yo‘nalishi

Abdimurodov Doston Dilmurod o'g‘li
Ilmiy rahbar

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mumtoz adabiyotda ota- onaning tarbiyasi,axloqi qadriyatlari va shaxsiy sifatlarining o‘rnini o‘rganiladi.Mumtoz yozuvchilarning asarlarida ota-ona tasvirining madaniy va ma'noviy ahamiyati,shuningdek ota-onalarning farzandlariga bo‘lgan mehr-muhabbati drammalar orqali yoritilgan.Maqolada mumtoz adabiyotda ota-onaning ro'lii haqida tushuncha berilgan va zamonaviy adabiyotdagi ota-onaning o‘rni haqida tushunchalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Mumtoz, adabiyot, yozuv, ota-ona, farzand, zamonaviy, oila, qadriyatlar, urf-odatlar, ajdodlar.*

Ota -ona inson hayotida muhim ro‘l o‘ynaydi,bu ro'li mumtoz adabiyotda ham chuqur tahlil qilingan . Adabiyotda ota-ona qahramonlarning voyaga yetishish va rivojlanish jarayonida markaziy shaxslar sifatida ko‘rsatiladi.Asarlarda ularning farzandlari uchun yaratgan sharoiti,tarbiya usullari va o‘zaro munosabatlari hayotiy tajribani aks ettirishda muhim o‘rin tutadi.O‘zbek adabiyotlarining buyuk namoyondalari Abdulla Qodiriy ,Cho‘lpon,G‘ofur G‘ulom va Said Ahmad o‘z asarlarida ota-onaning tarbiyaviy qoidalari va farzand uchun o‘rnak bõla oladigan jihatlarini ko‘rsatgan.Har bir o‘zbek oilasi bola tarbiyasida yetachi õrinda turadi.Har bir oilada farzand tarbiyasiga alohida ahamiyat qaratiladi va milliylik ruhida tarbiyalab boriladi.Yoshgina chaqaloqlarga onalar alla aytish orqali o‘zlarining orzu-umidlarini farzandlariga singdiradilar,bolaning qalbiga Vatanparvarlik ruhini to‘ldirib boradilar va ularni iboli -hayoli,g‘ururli qilib tarbiyalaydilar.

Ko‘rar ko‘zim, alla-yo.

Suyar so‘zim, alla-yo,

Alla, bolam, alla-yo.

Shirin jonim, alla-yo,

Issiq nonim, alla-yo.

Alla, bolam, alla-yo, alla,

Do‘mboqqinam, alla-yo, alla

Shu bu fikrimizning dalili sifatida xalq ogʻzaki ijodining naʻmunasi boʻlgan ***“Alla“*** *da ona bolasini oʻzining koʻrar koʻziga,shirin soʻziga qiyoslaganini kõrishimiz mumkin.Oʻzbek xalqida juda chiroyli odatlar bor. [Xalq ogʻzaki ijodi]*

Buvilarimiz va onalarimiz tomonidan bolajonlarimizga õzbek xalqining ogʻzaki ijodi dostonlar, ertaklar va hikoyalar aytib beriladi va shu orqali ularda adabiyotga bõlgan muhabbat tuyĝusi shakllanadi.Markaziy Osiyo xalqlarining ***«Alpomish», «Kuntugʻmish», «Goʻroʻgʻli», «Oysuluv», «Layli va Majnun», «Yusuf va Zulayho», «Manas», «Qizibek», «Qozi Kurpesh Bayan suluv»*** *kabi dostonlarida erkak va ayol oʻrtasidagi sof insoniy munosabatlar, muhabbat, sadoqat, yorga vafo mavzusi tarannum etilgan. Ayol doimo erkak kishiga sodiq doʻst va yor, oqila, topqir, oilaviy tinchlikning posboni sifatida ulugʻlangan. Ayol – oilaga fayz kirituvchi farishta timsoliga aylangan. Shu hikoyalar va ertaklar orqali bolalar ota-onani va yaqin insonni hurmat qilishni, qadrlashni õrganib boradilar.Oʻzbek oilalarida shunday anʻana borki,ota-onalar farzandlariga birovning haqiga xiyonat qilmaslikni va imkoniyati yetsa yordamiga muhtoj insonlardan yordamini ayamaslikni õrgatib boradilar. Bu anʻanani hikoyalarda ham koʻrishimiz mumkin.,,Ichkariga kirib qiyiqchani ochsam,ustiga kõk piyoz sepilgan moshkichiri.Insof bilan aytganda qoyilmaqom qilib pishiribdi. Uch-toʻrt qoshiq olgan ham edimki,oyim kirib qoldi*

Nima bu?-dedi hayron boʻlib.

Iljaydim.

Onam yonimdagi stolga oʻtirib qoldi.

Nima?

Kulib yubordim.

Pora!Naim sartarosh pora obkepti.

Oyim goh menga, goh „garimdori“ nushali kossga qarab birdan rangi oʻchdi.

Endi shu hunarni oʻrgandingmi?-dedi rostakamiga ranjib.-Adang senga pora yeyishni oʻrgatgan emasdilar, shekilli“ *yuqorida keltirilgan parchadan olgan fikrimizni bayon qiladigan boʻlsak,ona shunday ulugʻ zotki uning har bir soʻzida buyuk maʻno yotadi.Masalan:* ***Oʼg'lim kimki ,sening yaxshilik qilganinga yomonlik bilan javob qaytarsa, sen umuman unga nisbatan yomonlik qilma,birovning haqiga xiyonat qilib, mening yuzimni yerga qarata ko'rma,biror kishi bir narsaga muhtoj boʻlib kelsa qoʻlingdan kelganicha yordam ber, urf- odatlarimizni,milliy-qadriyatlarimizni unitib qoʻyma.*** *[Õtkir Hoshimov.,,Dunyoning ishlar“153-b „Yangi asr avlodi“Toshkent 2019]*

Mumtoz adabiyotda Alisher Navoiyning asarlari yetakchi oʻrinlarda turadi.Asarlarida farzand tarbiyasi yetakchi o'rinda turadi va farzandlar ham ota-onalarni juda hurmat qilishadi va eʻzozlashadi,ayniqsa Navoiy asarlarida ibo-hayo ,ifat yetakchi oʻrinni egallay. ***„Xamsa"*** *dostonida kõrishimiz mumkin.,,Xamsa“ beshta dostondan tarkib topgan,xxusasan* ***„Farhod va Shirin"*** *dostonida Farhod podshoh oʼgʼli boʻlsa,ham odobli va tarbiyali ekanligi bilan boshqalarga oʼrnak bo'la oladi.Misol sifatida* ***„Xoqon farzandidagi qayg‘uni ketkizmak bo‘lib hamda uning har tomonlama kamolotga yetishganidan o‘zidan shohlikni qabul qilib, taxtga o‘tirishini so‘raydi. Farhod esa bu taklifni odob bilan, asosli uzrlar keltirib, davlatni boshqarish ishlarini o‘rganish uchun muhlat sõradi. O‘g‘lining oqilona javobidan behad xursand bo‘lgan shoh unga mamlakat xazinasini ko‘rsatadi“****. Yuqoridagi fikrlarimizning isboti sifatida Alisher Navoiyning asarida Farhod komil inson darajasiga yetganligining isbotini koʻrdik .Uning otasiga qilgan juda chiroyli muommalasida yuqoridagi fikrlarimizning dalilini ko'rdik.[Alisher Navoiy. ,,Xamsa“,Toshkent „Yangi asr avlodi“,nashri ,,Farhod va Shirin“ dostoni 115-b]*

Ota-onaning roli adabiyotda ijtimoiy tizim va an'analar bilan ham chambarchas bog'liq. Ko'plab asarlarda ota-onalar, avvalambor, tarbiyaning ustun va o'rinli shakllarini namoyish qiladilar. Ular o'z farzandlariga axloqiy qadriyatlar, an'anaviy haqiqiyliklar va milliy madaniyatni o'rgatishga harakat qiladilar. O'zbek oilalarda otaning õrni va qadri yuksak darajada shakllangan va yana shunday milliy qadriyatlar borki,hozirgi kecha-kunduzda ham barcha oilalar bir xil amal qiladi:Oila boshi ota dasturxon boshiga kelmasa,dasturxonga qo'l uzatishmaydi va ovqat tanavul qilinmaydi .Oilalardagi urf-odatlarga to'xtaladigan bo'lsak, mumtoz adabiyotlarda otalar o'z oila a'zolaring oldida ayyollariga o'z ismi bilan murojaat qilmaydi.Uning o'rniga to'ng'ich fanzandining ismi bilan murojat qiladi.Fikrimizning misoli sifatida ***"Choy ichib bo'lgandan keyin qutidor fotixa o'qib o'rnidan turdi:***

Men senga aytib qo'yay,Kumush,-dedi turar ekan qutidor Oftob oyimga, -bu kunga bir mehmon aytgan edim.Choyingni ichqarib mehmonxonani tozalat."

Abdulla Qodiriyning ***„O'tgan kunlar"*** *asaridan shunday fikrga kelishimiz mumkinki,o'zbek otalaring har tomonlama farzandlariga õrnak bõla olishi,g'ururi va hayosi bilan ajralib turadi.[A.Qodiriy. „O'tgan kunlar"Toshkent nashriyoti, „Yoshlar matbuoti"51-b]*

Ota-onalar bolalarining psixik rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ularning hissiy holatlari, bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchiga va ijtimoiy munosabatlariga ta'sir qiladi. Zamonaviy adabiyot asarlarida bu jarayon ko'pincha quyidagi jihatlar bilan ko'rsatiladi:

1. *Bolalar mehribon va tushunadigan ota-onalardan olingan tarbiya va ta'sir orqali ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli kiradilar.*
2. *Ota-onaning doimiy tanqidi, ulardan kutilayotgan yuqori talablar, bolalar psixologiyasida stress, past o'ziga ishonch va istiqbollarni pasaytirishi mumkin.Ota-onaning tarbiyadagi roli va ta'siri ko'plab psixologik nazariyalar bilan bog'liq. Masalan, Erik Eriksonning rivojlanish nazariyasi ota-onaning bolalarga nisbatan qanday munosabatda bo'lishi, ular orqali bolalarning hayotiy vaziyatlarga qanday munosabatda bo'lishini belgilaydigan muhim omil ekanligini ko'rsatadi.*

O'zbek kino filmlar va drammalari ham bola tarbiyasida yetakchi õrin egallaydi.Misol sifatida „Mahallada duv-duv gap" filmini olishimiz mumkin.Filmda Toshkentdgi yangi binolarning qurilishi va ajoyib to'y marosimlari haqida kartinalar bor.To'y marosimlariga tõxtaladigan bo'lsak, omborxona mudiri Arslon ammakilarning xonadonida kechadigan to'y marosimi o'zbek xalqining naqadar ochiq ko'ngil ,mehmondo'st xalq ekanligiga ana bir karta ko'rish imkoniga ega bo'lamiz,Oyposha xolaning to'y marosimida turmush o'tog'iga qilgan samimiy munosabatida bunga yaqol misol sifatida olishimiz mumkin.

Xulosa qilib oladigan bõlsak, Ota – ona insonga tarbiya berishda, uning hayoti va shaxsiyatini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydilar. Mumtoz adabiyotda bu mavzu ko'plab asarlarda yoritilgan. Ijtimoiy, madaniy va tarixiy kontekstda ota-onaning ahamiyati, ularning farzandlari ustidagi ta'siri ko'plab yozuvchilarning e'tiborini tortgan.Ota ta'siri – An'anaviy adabiyotda ota, ko'pincha kuchli va muhim figuralardan biri sifatida ko'rsatiladi. Ota farzandlarining tarbiyasida qatnashgan, ularga bilim berishda va hayotga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Klasik əsərlərdə, otalar ko'pincha qat'iyatlilik, kuch va murosasizlik ramzi sifatida qabul qilinadi.Ona ta'siri – Ona esa, mehr-muhabbat va parvarish ramzi sifatida tan olinadi. Mumtoz adabiyotda onaning o'zi yoki ulg'ayishidagi yutuqlari orqali ko'rsatiladi. U farzandlarining emotsional taraqqiyotida o'ziga xos ahamiyatga ega bo'ladi. Ota-onaning birgalikdagi ta'siri, farzandlarining hayoti va shaxsiyati shakllanishiga asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.Umumiy xulosa – Ota va ona tarbiyasining o'zaro aloqasi, yozuv va mumtoz adabiyotni boyituvchi muhim jihat bo'lib, bu munosabatlar orqali tarjima etilgan fikrlar ko'plab asarlar orqali etib boradi. Ularning qo'lida shakllangan shaxs, nafaqat o'z oilasining, balki umuman

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

jamiyatning kelajagini belgilaydi. Bu tema adabiyotda har doimbekham muhim va dolzarb ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar rõyxati:

1. Alisher Navoiy. „Xamsa“,Toshkent „Yangi asr avlodi“,nashri „Farhod va Shirin“ dostoni 115-b
2. Õtkir Hoshimov. „Dunyoning ishlar “Toshkent 2019 „Yangi asr avlodi“ nashriyoti.
3. A.Qodiriy. „Õtgan kunlar“ Toshkent nashriyoti, „Yoshlar matbuoti“51-b
4. Ibaydullayeva U.R. Ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi nizolarning ijtimoiy -psixologik xususiyatlari. Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori diss. – T.: 2022. – 5 b.

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

MIFOLOGIYA VA FOLKLORDA OTA - ONANING OBRAZLARI AHAMIYATI

Deryayeva Zarina Ilyos qizi
Shahrisabz davlat pedagogika institut
“Pedagogika” fakulteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi

Abdimurodov Doston Dilmurod o‘g‘li
Ilmiy maslahatchi

Annotatsiya: *Mazkur tadqiqot ishi xalq og‘zaki namunalari bo‘lmish mifologiya va folklorshunoslikda ota- ona obrazining ishlatilishi, turli xil obrazlarda gavdalanishiga bog‘ishlangan. Bu maqola ota-onaning folklordagi obrazlari va mifologiyadagi ahamiyatiga bag'ishlangan. Ota-onaning dunyoqarashidagi o'rni, ularning tarixdagi joylari, ma'nolari va aksariyatining yaratilish tarixi keltirib chiqiladi. Mifologiya esa, odamlarning qadimiy davrlardan buyon qo'shilgan riwayatlar va yaqin tarixiy xotiralar asosida yaratilgan va ularning bugungi dunyodagi ahamiyati ko'zlangan. Bu maqola shu mavzular yorliqida, ularning ahamiyati, ularning tasvirlash usullari va ularning voqealar uchun ahamiyati haqida tushuncha beradi.*

Kalit so‘zlar: *Mifologiya, foklor, folkorshunoslik, ota-ona obrazlari, mif, afsona, rivoyatlar.*

Ota- onalar - har bir inson hayotining eng muhim, eng mukammal, eng ulug‘ shaxslaridir.Ular nafaqat tarbiya beruvchi, himoya qiluvchi barkamol shaxs sifatida yetishiga ko‘maklashuvchi inson hisoblanishadi. Ota - onalar zamonaviy hayotda, balki qadimiy mifologiya va folklorda ham katta ahamiyatga ega shaxs hisoblanishadi.

Mifologiyada Ota-onalar ko‘pincha himoya qiluvchi, kuchli shaxs sifatida tasvirlanadi.Mifologik hikoyalarga ota- onalar obrazlari boshqa xalqlarning qadriyatlari,urf-odatlari milliy an'analari bilan syujetlanadi.Bu obrazlarning yaratilishi ko‘pincha jahonning yaratilishi, tabiat kuchlarning boshqarilishi inson hayotining mukammal ekanligi ko‘rsatib berilishi aks etgan.Misol uchun olaylik ko‘plab mifologik an'analarda Ota-Yerdagi kuch va hokimiyatning timsoli bo‘lib u insonlarni himoya qiladi va ularga yo‘l- yo‘riq ko‘rsatiladi.Ota shunday buyuk zotki oilaning boshi oila a'zolarining kam-ko‘stini to‘ldirib turuvchi,ota bola tarbiyasi bilan shug‘ullanadigan,bolaga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi,o‘rtasidagi munosabatlarda tabiiy mehr,muhabbat,g‘amxo‘rlik hurmat yotadi.Mifologiyada onaga ta'rif beradigan bo‘lsak, hayot tug‘lishning ramzi bo‘lib,juda katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

Barcha yutuqlarning egasi,bolani dunyoga keltirib,bir oyligidan ehtiyot qilib,dunyoga kelishiga qadar mehr berib,oq sutini,o‘zi yemay yedirib katta qiladi.Shuning uchun ona tug‘ilish ramzi hisoblanadi.Mifologiya hikmatlarning birida: "Ota-ona mehri - eng kuchli sehr." hisoblanadi.Bu hikmat tagida shunday ma’no turibdiki,Ota-onaning muhabbati va g‘amxo‘rligi hayotdagi eng katta ahamiyatga ega.Ya‘ni ota - ona bolalarning barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishiga hissalarini qo‘shib, ularning qalbida Vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga o‘z hissalarini qo‘shadilar.

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

O‘zbek oilalarda milliy an'analari va qadriyatlar juda yuksak darajada qadrlashadi.Xususan buni o‘zbek adiblarining lirik asarlarda ko‘rish mumkin.

Masalan: O‘zbek o‘g‘lonlarning Vatanga bo‘lgan muhabbati shunchalik kuchliki,hatto butun dunyo tan olgan eng go‘zal shahar Italiyaning poytaxti Rimni ham o‘zining kindik qoni to‘kilgan bir parcha yurgan alishmasligini, Parijning eng go‘zal restoranlariga , Onajon Vatanining bitta tandiriga alishmasligini ya‘ni o‘z yurtining dalalarini sog‘inishini aytgan. Ushbu fikrlarni yanada oydinlashtirishimiz uchun o‘zbek xalq shoiri Muhammad Yusufning" Iqror" she'ridan bir parcha keltirib o‘tamiz

O, ota makonim. Onajon o‘lkam,

O‘zbekiston, jonim to‘shay

soyangga.

Senday mehribon yo‘q,

Seningdek ko‘rkam.

Rimni alishmasman

bedapoyangga.

Parijning eng go‘zal restoranlarin,

Bitta tandiringga alishmasman men.

Na gapga ko‘nayin,

Na til bilayin,

Ko‘zdan uyqu qochdi, dildan halovat.

Ushbu she‘rimizda yosh avlodning Ona Vatanga bo‘lgan muhabbati shunchalik darajada jo‘sh urganki, u o‘z yurtining xasini ham Rim mamlakatiga alishmasligini aytgan [M.Yusuf. "Iqror " she‘ri].

Milliy qadriyatlarimiz va urf-odatlarimizni saqlab kelgan.Maqsud Shayxzodaning Jaloliddin Manguberdi trilogiyada ko‘rishimiz mumkin.Bunda o‘z yurtini sevuvchi Jaloliddin Manguberdi Vatanga bo‘lgan sevgisini, muhabbatini ko‘rish mumkin ya‘ni umrining oxirigacha Vatanimiz hududini yosh bo‘lishiga qaramay yovdan tozalashga harakat qiladi. Sarkarda haqiqatgo‘y,vatanparvar dushman qo‘liga tushib azoblangandan ko‘ra, o‘limni afzal bilib, hatto dunyodagi eng aziz zot - onasi va farzandlari daryoga cho‘ktirilishini ma’qul ko‘rgan Jaloliddin Manguberdi xalqqa ijobiy xotira qoldirgan.

Ko‘lardanmi, suvdanmi,yo yer tagidan,

Balki sahro bag‘ridan, tog‘ etagidan,

Bir kun paydo bo‘laman shu yurt,shu yerda,

Yurt shaydosi ko‘milmas g‘urbatda - go‘rda.

Ulug‘vor niyatlarga kor qilmas ajal,

Kim yurtdan yovni quvsa - mendurman o‘shal.

Ushbu trilogiyada o‘zbek yigitining Vatanga bo‘lgan shijoatini ko‘rib, kelajak avlodlarning ham ruhida Vatanga bo‘lgan muhabbatini uyg‘otib yuboradi [M.Shayxzoda.J.M trilogiya -163- bet].

Folklorda Ota-onaning o‘rni obrazlari haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, xalq ertaklari, afsonalarda, qo‘shiqlarida ta‘riflashimiz mumkin. Ota va ona farzandlarini muhabbat ruhida tarbiyalovchi, g‘amxo‘rlik qilib ularni himoya qiluvchi va o‘z hayotlaridan hayotiy tajribalarga ega bo‘lishiga yordam berib,kelajakda qanday qiyinchilik borligini uqtirib borishadi. Ona obrazi folklor adabiyotida mehribonligi,sabr -toqatlilik, shirinso‘zligi keltirilgan.Xalq ertaklarda onaga shunday ta'rif berilganki, yo‘l- yo‘riq ko‘rsatuvchi, muhim vaziyatlardan olib chiqadi. Bunday tasvirlar ota- onaning birlashishi umuman bir- birini inkor qilmaydigan, kuchlarini birgalikda olib borib farzandi uchun hissiyot va g‘amxo‘rlikni yaratishni yo‘lga qo‘yishadi.

Folklorda ota-onaning urf-odatlari va qadriyatlarida shunday deb aytishganki, ota-onalar folklar va mifologiyada faqat obrazlar sifatida emas, balki ijtimoiy qadriyatlar va milliy an'analar timsoli sifatida ham namoyon bo‘ladi.Ota - onasining ko‘rsatilgan tarbiyasi ,muomala madaniyati, xatti- harakatlari , o‘zini tutishi, ma‘naviy saboqlari, urf-odatlari ma'suliyat, o‘zaro mehr- muhabbat va hurmati avloddan-avlodga o‘tib xalqning etnik kimligini bildiradi.

Masalan: Ko‘plab urf-odatlarida ota- onalar farzandlariga ma‘naviy saboqlar berish an'analarining hurmat qilish, oilaviy bog‘lanishni mustahkamlash ya‘ni ota- ona shunday insonki farzandlari uchun jonini berib,to‘g‘ri yo‘lga solish uchun qancha qiyinchiliklar bo‘lsa ham hammasiga bardosh berib farzandini asrab- avaylab voyaga yetkazishadi.

Folklor va mifologiyada ko‘plab o‘rganib borilgan o‘zgarishlarda ota - onalarga qahramon deb ta'rif berishgan. Masalan, “Ona yer” , “Ona Vatan” ga deb ta'riflangan so‘zlarga e'tibor bersak, ya‘ni “Ona yer” deganda ona tabiatni, tumanni o‘zbek folkloriga ko‘rsatilgan. “Ona Vatan” ga ta‘rif bersak o‘zbek folklorida kindik qonimiz to‘kilgan joy, Aziz Vatanimiz, aziz tuprog‘imiz degan so‘zlar bilan ta'riflangan.

Ota- onalar farzandlariga shu bilan bir qatorda ma‘naviy tarbiya berishda eng avvalo qarindoshlar bilan munosabat o‘rnatishni yo‘lga qo‘yishadi. Ya'ni bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish, an'anaviy va diniy qadriyatlar haqida bilimlarini boyitishadi. Ota - onalar farzandlariga milliy bayramlar va an'analar haqida tushuntirib berib, amaliyotda qo‘llaydilar.

Masalan: Bayramlarga (Navro‘z ,Qurbon hayiti bayramlari va boshqalarni keltirishgan.Ota - onalar farzandlari bilan birga nishonlashib, muloqot qilishadi.An‘anaviy turli xil chuchvara,ko‘k somsa va boshqa taomlar birgalikda pishirishardi.Bu ma‘naviy tarbiya mifologiyada "Farzandlar ota- onasining iftihoridir." Degan hikmatlini so‘zga e‘tibor bersak mubolag‘a bo‘lmaydi.Ya‘ni Ota- onaning tarbiyasi va mehnatidan farzandlarining kelajakdagi qanday shaxs bo‘lib yetishishini bilib kelsa bo‘ladi.Bolaning kelajakdagi kamchiliklar va muvaffaqiyatga erishishi ota-onaning tarbiyasiga bog‘liq.

Mifologiyada ota - onaning farzandlariga to‘g‘ri yo‘lni tanlab faqat halol inson bo‘lib yetishishiga yordam beruvchi ulug‘ zot deb aytsak bo‘ladi.O‘z manfaati uchun do‘stisini sotib ketgan insonlarni ham uchratishimiz mumkin.Masalan : O‘tkir Hoshimovning **“Dunyoning ishlari” asaridan “Xiyonat”** novellasiga e’tibor bersak, bunda do‘stning xiyonat qilganidan bir parcha keltirib o‘tamiz.

- *Ko‘rdim,- dedi ming‘illab. - O‘zi otdi.Ko‘z oldim qorong‘ilashib ketdi.Uning nima deyayotganini yaxshi eshitmasdim.Faqat bitta gap qulog‘im ostida jaranglab turardi: "Ko‘rdim, o‘zi otdi ".*
- *Xayriyat! - o‘qituvchi bosh silkidi. - Oranglarda hech bo‘lmasa bitta mard bor ekan. O‘tir ,Qahramon. - U menga yuzlanib davom etdi.*
- *Sen yolg‘onchisan ! Yolg‘onchi bo‘lganing uchun qo‘rqoqsan.Dadangga borib ayt, hoziroq oynani joyiga keltirib qo‘ysin.*

Ushbu asarda ota - ona farzandiga shunday tarbiya berganki do‘stisining ustoziga o‘zi haqida yolg‘on ma'lumot bergani uchun uyiga kelib, do‘st tanlashda adashgani uchun his qildi. Uyiga kelib meni

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

aldashdi, meni aldashdi deb bir necha marotaba aytadi va do‘st tanlashda adashgani uchun ming bor afsuslanish.Onasi shunday to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatdiki, qo‘yaver, o‘g‘lim. Ba'zan shunaqasi ham bo‘ladi. Faqat o‘zing unaqa qilma.Ko‘rdingmi, yolg‘on gapirgani uchun o‘rtog‘ingdan nafratlanyapsan sen ham shunday yomon yo‘lga kirsang sendan ham nafratlanishadi deb aytgan [O‘.Hoshimov." Dunyoning ishlari" kitobi. " Xiyonat" novella - 31- bet].

Xulosa qiladigan bo‘lsak, ota- onaning o‘rni folklor va mifologiyada juda katta ekanligini bildik.Folklorda ota - onalarning qadriyatlarini, urf-odatlarini ertaklarda,afsonalarda keltirishgan ya‘ni ota- onaning roli oilada birinchi turishini ekanligini aytishgan.Mifologiyada esa otani mard, jasur sifatida keltirishgan,onani esa tug‘ilish ramzi ekanligi ta'riflashgan. Ota - onani ulug‘ zot ekanligini yana bir bor aytamiz.Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib ta‘rif bersak farzandlariga kim senga dushmanlik qilsa, ham umuman ikkilik qilma, o‘zi yaxshilikka yaxshilik qaytmaydi sen har doim yaxshilik qil.O‘zing do‘singari nisbatan nafrating ortdi sen ham birovga yomonlik qilsang hamma sendan nafratlanishadi deb farzandlarining quloqlariga singdirishadi.Eng yaqin do‘st bu ota- ona hisoblanadi, shuning uchun do‘stingman deb turgan insonlarga ishonma desak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. M.Shayxzoda."Jaloliddin Manguberdi" trilogiya - 163 - bet.
2. O‘. Hoshimov." Dunyoning ishlari "kitobi. "Xiyonat " novella -31- bet
3. Muhammad Yusuf. " Iqror " she‘riy to‘plami.
4. Abdimurodov D.D. Ingliz va o‘zbek tillari maqol va matallarida “ota-ona” allakonsepti(gomokonsepti)ning lingvokulturologik xususiyatlari.
5. Abdulla Qodiriy. "O‘tkan kunlar " - 1926 - yil.

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

“OTA-ONA” HAQIDAGI MAQOL VA MATALLARNING LINGVOKULTUROLOGIK ASPEKTLARDA ISHLATILISHI

Normurotova Gulruh Shokir qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
“Pedagogika” fakulteti Boshlang‘ich ta’lim yõnalishi

Abdimurodov Doston Dilmurod o‘g‘li
Ilmiy maslahatchi

Annotatsiya: *Mazkur maqola “Ota-ona” mavzusini lingvokulturologik jihatdan tahlil qilishga qaratilgan. An'anaviy ravishda ota-ona roli va ularning jamiyatdagi o'rni, madaniy merosi, tarbiyaviy vazifalari ko‘rib chiqiladi. Ota-ona haqidagi maqol va matallar orqali xalqning qadriyatlari, axloqiy me'yorlari, avlodlar o'rtasidagi aloqalar ko‘rsatilib, ularning zamon va makon doirasida qanday o'zgarishi tahlil qilinadi. Ushbu ishda, shuningdek, til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'lanish, shuningdek, ota-ona obrazining shaxsiy va ijtimoiy jihatlari o'rganiladi. Annotatsiyada ota-ona tasvirining til bilan ifodalash, madaniy kontekstda ahamiyati va kelgusidagi rivojlanishi ham yoritilishi ko‘zda tutiladi.*

Kalit so‘zlar: *Ota-ona, maqol, matallar, lingvokulturologik, aspekt.*

Har bir millat va elatning o‘zligini, tarixini, madaniyati va milliy qadriyatlarini, ota- onaga bo‘lgan hurmatini ifodalovchi omillardan biri bu xalq og‘zaki ijodidir. Xalq og‘zaki ijodining takrorlanmas janrlaridan biri bu maqoldir. Ota- ona haqidagi maqollarni kōradigan bōlsak,ota- ona haqidagi maqollar xalqimizning milliy qadriyatlari, urf-odatlarini,madaniyatini, xulq-atvorini ko‘rsatib berishgan asos qilib olsak mubolag‘a bo‘lmaydi.Masalan: “***Ota qattiq, ona shirin***” —bu muqolning izohini aytadigan bo‘lsak,bunda otaning qat’iy,shijoatliligini,dovyurakligini mardliligini ko‘rib o‘tilishi haqida gap boradi.**Ona shirin–** izohiga to‘xtaladigan bo‘lsak, onaning mehr-muhabbatliligi,shirin sōzligi matonatliligi,sabr- toqatliligi haqida gap boradi. Ota-ona haqidagi maqollarda “Ota o‘rni” yoki “Ona qadrini bilish” kabi iboralar odatga aylangan. Bu iboralar orqali ota-onaga hurmat va ehtiromni bildiriladi. ***“Yomon farzand ota– onani yerga qaratar, Yaxshi farzand ota –onani elga tanitar”—***ushbu maqolda ota-onaning tarbiyasi va farzandlarning ota-onaga bo'lgan munosabatini chuqur aks ettiradi. Ushbu maqolning ma'nosi shundaki:"**Yomon farzand ota-onani yerga qaratar** "yani farzand jamiyat oldida o‘zini tutishi-yu ,hatto gapirishi ham ota -onasi qanday tarbiya berayotganligini ko‘rsatib turadi. Bu nafaqat ularning obro'siga zarar keltiradi, balki jamiyatdagi o'rni va hurmatini ham pasaytiradi. Yomon farzand ota-onasini tanqid qilib, ularning ahamiyatini pasaytiradi va bu orqali o'zining ham, ota-onasining ham obro'sini tushiradi.**Yaxshi farzand ota-onani elga tanitar:** Yaxshi tarbiyalangan farzand esa ota-onasiga hurmat ko'rsatadi, ularni qadrlaydi va jamiyatda ularni yaxshi tomondan tanitadi. Yaxshi farzand ota-onasi bilan faxrlanadi, ularning mehnatini, ishini va tarbiyasini e'zozlaydi. Buning natijasida ota-onaning obro'si

ko'tariladi va ular jamiyatda taniladilar. Shuningdek, bu farzandning o'ziga bo'lgan hurmatini oshiradi va jamiyatdagi ijtimoiy o'rnini mustahkamlashga yordam beradi.

Maqol ota-onaning farzand tarbiyasi orqali jamiyatda o'z ifodasini topishini ta'kidlaydi. Yaxshi farzand ota-onasining mehnatini qadrlaydi va ularni o'zining shaxsiy tarbiyasi va muvaffaqiyatlari bilan tanitadi. Shu bilan birga, yomon farzand esa ota-onasining obro'sini pasaytiradi. Maqol insonni nafaqat o'z oilasiga, balki butun jamiyatga nisbatan mas'uliyatli va mehribon bo'lishga undaydi.Bu maqol ota-ona va farzandlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning muhimligini va jamiyatdagi ijtimoiy ahamiyatini ko'rsatadi.

*"***Ota- ona davlating, Farzandlaring savlating***"*—ushbu maqolga yaqqol misol qilib Ōtkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asaridagi "Gilam paypoq" novellasida kōrishimiz mumkin ,ushbu hikoyada Onalar doim bolasining dardi bilan yuradi–yu ôzining dardi esiga ham kelmaydi , asar qahramoni kôp kasal bôlganini va bir kuni isitmasi chiqib ketganini sôzlab beradi, onasi esa sovuqda ôziga qaramay yengil kiyinib bolasini Hoji buvinikiga olib borganini ham sôzlab ôtadi .Bolasi tuzalib ketadi. " ...Ertasiga onasi yotib qoldi . Uzoq yotdi . Dadam bir joydan qarğa otib keldi . Hoji buvi qôlidan kelgancha dori -darmon qildi ... Keyin oyim tuzaldi . Biroq salqin tushishi bilan oyoqlari shishib , azob beradigan bôlib qoldi ...Har yili dam olishga borganimda onamga gilam paypoq olib kelardim "– deydi asar qahramoni . Onalar doim bolam , bolam deb yurar ekanda deydi. [O.' Hoshimov."Dunyoning ishlari"asari Toshkent 2019,,Yangi asr avlodi"17-b] . ***"Bola loy bōlsa,ona kulol"***- maqolining ma'nosi shundaki, ona farzandining tarbiyasini, shakllanishini va rivojlanishini belgilovchi asosiy shaxsdir. Bu maqol orqali xalqimiz bolalar tarbiyasiga katta ahamiyat bergan va farzandning shaxsiyati, xulqi va sifatlari onaning tarbiyasi orqali shakllanadi degan fikrni ifodalaydi. Loyga ishlov berish, uni shakllantirish, kerakli holatda qayta ishlash mumkin. Shunday qilib, "bola loy" iborasi bolaning shakllanishi, o'sishi va rivojlanishida uning ota-ona, xususan, onaning tarbiyasi muhim rol o'ynashini anglatadi. **Ona kulol** – maqolida shuni bilishimiz mumkinki , bu yerda ona kulolga o'xshatiladi, chunki ona ham bola tarbiyasini shakllantiruvchi, uni "yetaklovchi" va ma'lum bir yo'nalishga yo'naltiruvchi shaxsdir.Bola onasining tarbiyasi, e'tibori va ta'limi orqali shakllanadi. Ona o'z farzandini qanday tarbiyalasa, bola shunday bo'ladi. Onaning so'zlari, harakatlari va muomala usullari bolaning kelajagi uchun katta ahamiyatga ega.Bu maqol, shuningdek, tarbiyaning muhimligini ta'kidlaydi.

"Onangni quyosh bilsang,otangni oy bil" –maqolining mazmuni insonning ota-onasiga nisbatan hurmat va ehtiromni ta'kidlaydi. Bu maqol orqali ota-onaning farqli xususiyatlari va ularning rolini tan olish kerakligi aytiladi. ***"Onangni quyosh bilsang"*** — ona, farzandning hayotida nurli, issiq, va mehribon rolni o'ynaydi, uning sevgisi va g'amxo'rligi bilan doimo yo'naltiruvchi va himoya qiluvchi bo'ladi. Quyosh — hayotning manbai, nur beruvchi kuch sifatida ona obrazini ifodalaydi. ***"Otangni oy bil "*** — otaning roli esa, ko'proq yo'l ko'rsatish, donolik, sabr va farzandni ma'naviy jihatdan tarbiyalashga qaratilgan. Oy -tinchlantiruvchi va o'ylantiruvchi nisbatan "issiq" bo'lmagan, lekin hayotni uyg'otuvchi va yo'naltiruvchi kuch sifatida tasvirlanadi.

Umuman olganda, bu maqol ota-onaning bir-birini to'ldiruvchi rollarini tushuntirib, har biri farzand uchun alohida ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi.

"Bolaning qōli shilinsa,onaning kōngli shilinar"— bu o'zbek xalq maqolidir va uning ma'nosi hayotiy tajribalarga asoslangan chuqur psixologik va madaniy mazmunga ega. Bolaning qo'li shilinsa — Bu qismda *"qo'l shilinishi"* iborasi bolada jismoniy yoki ruhiy og'riq,

qiyinchiliklarni ifodalaydi. Odatda bolalar boshidan turli xil musibatlar, og'riqlar, qayg'ularni kechirishi mumkin, va bu holat bolalar uchun yengilmas yuk bo'lishi mumkin. Shunday qilib, bu ibora bolalarning o'zlariga qarshi kurashayotganini yoki ular jismonan yoki ruhiy jihatdan zarar ko'rganini bildiradi. ***Onaning ko'ngli shilinar***— Bu qismda esa ona bu og'riqni o'zida sezadi. Ona bolalarining

har qanday dardini, ularning qayg‘ularini o‘zining ichki dunyosida his qiladi. Ona uchun bolalari yuzaga kelgan har qanday qiyinchilik uning ruhiy holatini bevosita ta'sir qiladi, va bu qiyinchiliklar ona ko‘nglini og‘ritadi, ya'ni onaning dardi va qayg‘usi kuchayadi.

Maqolning umumiy ma'nosi shundan iboratki, agar bola qiyinchilikka uchrasa, bu ona uchun ham ayni tarzda dard va qayg‘u bo‘ladi. Bola dunyodagi eng qadrli va muhimi bo‘lgani uchun, uning har bir muammosi ona uchun ham og‘riqli va qayg‘uli bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, bu maqol ona va bola o‘rtasidagi chuqur hissiy aloqani va o‘zaro bog‘liqlikni ta'kidlaydi. O‘zbek xalqining qadriyatlarida ona sevgisi va onaning bolaga bo‘lgan mehr-muhabbati juda katta o‘rin tutadi, va bu maqol ham shunday yuksak tuyg‘ularni aks ettiradi.

Ota-onaga bo‘lgan muhabbatni,mehribonlikni,sadoqatni farzandlarda ham ko‘rishimiz mumkin.Masalan: o‘zbek xalq shoiri Mirtemirning " Onaginam" she' rini olsak, bunda farzand onaning qanchalik mushtipar ekanligini, onasi bolasining balog‘atga yetmay turib ko‘z yumganini ko‘rishimiz mumkin.Bola shunday zirqiraydiki,onajon yonimda bo‘lsangiz bir bor oyog‘ingizga boshimni qo‘yay, onalik mehringizga to‘yib olay, bergan oq sutingizni oqlay,deyishimga ko‘zim yetsaydi deb yolvoradi.

Dunyoga qayta kelishimga ko‘zim yetsaydi,

Yigit yoshim to‘lmay turib,

Ayriliq zaylida qoq yog‘ochday qurib.

Jon bergan onamni ko‘rishimga ko‘zim yetsaydi,

Tizzasiga bir nafas bosh qo‘yishimga ko‘zim yetsaydi,

Onalik mehriga o‘bdon to‘yishimga ko‘zim yetsaydi,

Oq sutingni oqlay, deyishimga ko‘zim yetsaydi,

Maqollarni ya'na o‘zbek milli urf-odatlarida ko‘rishimiz mumkin masalan “***Onasini kōrib qizini ol***” maqolini oladigan bo‘lsak bu urf odatga azal-azaldan rioya qilinib kelinmoqda. Maqolning asosiy ma'nosi shuki, qizning qanday bo‘lishi, asosan, uning onasiga o‘xshashligini anglatadi. Demak, qizning tashqi ko‘rinishi va fe'l-atvori ko‘pincha onasidan meros bo‘lib o‘tadi.Bundan tashqari, maqolning chuqur ma'nosi shundaki, oilaviy, ayniqsa, onaning ta'siri bolalar tarbiyasida katta rol o‘ynaydi. Onaning tarbiyasi, qadriyatlari, xulqi va hayotga bo‘lgan qarashlari bolalariga ham o‘rnak bo‘lib qoladi. Maqol, shuningdek, onaning faqat tashqi ko‘rinishi emas, balki tarbiyaviy roli ham muhimligini ta'kidlaydi. Hattoki buyuk sarkarda Amir Temur ham o‘z kelinlarining yetti avlodini so‘rab surishtirib ko‘rganligi haqida ba'zi manbalarda ma'lumotlar keltirilgan.Shuni aytishimiz mumkinki o‘zbek xalq maqollari ichida ya'na bir maqolini oladigan bo‘lsak***“Onaning ko‘ngli bolada ,bolaning ko‘ningli dalada”*** maqolida shunday tushunchalar mavjud, bu maqol, insonning ichki dunyosi va xohish-istaklari, o‘zaro aloqada bo‘lishi va tashqi muhit bilan bog‘liq bo‘lishini tasvirlaydi. **Onaning ko‘ngli bolada**: Bu ibora onaning farzandiga bo‘lgan chuqur mehr-muhabbatini va qayg‘ularini ifodalaydi. Ona har doim o‘z farzandining ahvolini, yomon va yaxshi tomonlarini, har bir holatini o‘zi sezib turadi va unga eng yaxshisini tilaydi. Onaning qalbi farzandida bo‘ladi, uning baxti va farovonligi uchun qayg‘uradi.**Bolaning ko‘ngli dalada**: Bolaning qalbi esa mustaqil va erkin bo‘lishi mumkinligini anglatadi. U ko‘pincha tabiatga, o‘zining kutilgan orzulariga yoki o‘z faoliyatiga qarashadi. Bu erda *“dala”* so‘zi bolaning ichki erkinlikni va o‘zining mustaqil fikrlashini anglatadi. Bola ko‘proq tashqi dunyoga qiziqadi, uning orzulari, istaklari va yangi narsalarni kashf etishga intilishi ko‘rsatilgan. Maqolning umumiy ma'nosi shundan iboratki, ona bolasi uchun qayg‘uradi va uning barcha his-tuyg‘ularini his qiladi, ammo bola mustaqil ravishda o‘zining orzu-havaslari, xohishlarini amalga oshirishga intiladi. Bu ikki holat o‘rtasidagi farqni, ya'ni onaning mehribonligi va bolaning erkinlikka intilishiga o‘xshash ikkilamchi tasvirlaydi."**Ota-onasini tanimagan tangrisini**

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

tanimas" maqoli o‘zbek xalq hikmatlaridan biri bo‘lib, insonning ildizlari, kelib chiqishi va tarbiyasi muhimligini ta'kidlaydi. Maqolning ma'nosi shundaki, ota-ona tarbiyasini olmagan yoki ularni hurmat qilmagan shaxs o‘zining ichki qadriyatlarini va axloqiy me'yorlarini tushunib yetmaydi. Ota-onaning tarbiyasi va ular orqali olingan dunyoqarash, shaxsning to‘liq rivojlanishi va haqiqiy ma'naviyatini anglashda asosiy omildir. Ushbu maqollarni ko‘rar ekanmiz ota-onalarimizning bizlar uchun qilayotgan ishlarini ko‘rib ularni qanchalik e’zozlashimiz kerakligi ya'na bir bor shu maqollar orqali ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O.‘ Hoshimov."Dunyoning ishlari"asari Toshkent 2019,,Yangi asr avlodi" -17 b.
2. Khamraev, M. (2014). "Lingvokulturologiya: nazariya va amaliyot".
3. Yunusova, R. (2017). "O‘zbek xalq maqollari: til va madaniyat".
4. Bakhodirov, A. (2016). "Lingvokulturologiya: nazariy asoslar va amaliy tadqiqotlar".
5. Turaeva, S. (2019). "Ota-onaning tarbiyadagi roli: maqollar va matallarning mazmuni".

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

O‘ZBEK VA INGLIZ MADANIYATLARI O‘RTASIDA MUQOBILLIKLAR

Saibova Madina Sodiq Qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
“Pedagogika” Fakulteti “Boshlang‘ich ta’lim”
yo‘nalishi

Abdimurodov Doston Dilmurod o‘g‘li
Ilmiy maslahatchi

Annotatsiya: *Har bir xalqning o‘ziga xos madaniyati, urf-odati bor bo‘lganidek o‘zbek va ingliz millatlarining madaniyatlari turlicha. Bir-biriga o‘xshash va bir-biriga qarama -qarshi jihatlari ham bor. Ikkala madaniyat ham o‘zlarini ifodalash va madaniyat haqidagi bilim va tushunchalarini namoyish qilish uchun tildan foydalanadi. Ushbu maqolada biz o‘zbek va ingliz madaniyati haqida bilimlarimizni oshiramiz mumkin.*

Kalit so‘zlar: *Madaniyat, mexmondo‘stlik, unversal konsept, ligvomadaniyat, urf-odat, millat, to‘y marosimlari.*

Madaniyati, bir xalq yoki jamoaning uyg‘un tasavvuridir. Bu, san'at, urf-odatlar, tilda ifodalanadigan barcha qiymatlar va qoidalar bilan bog‘liq. Madaniyat, ko‘pincha aminozdan kelib chiqqan shaxsiy va ijtimoiy sharoitlarni ommaviy ko‘rsatadi. Hozirgi zamon tilshunosligida lingvomadaniy va konseptual yo‘nalishlar universal va milliy o‘ziga xos qirralarni aniqlash va ochib berish nuqtai nazaridan dolzarblik kasb etmoqda. Ko‘plab taniqli tilshunoslarning fikriga ko‘ra, konsept olam manzarasining bir bo‘lagi, butun lingvistik jamoaning qadr-qiymat tushunchalarini aks ettiradi, madaniyatni yaratadi va undan paydo bo‘ladi. Til xalqning madaniyati va milliy mentalitetini o‘zida aks ettiradi. Mentalitet birliklari esa madaniy va milliy konseptlar orqali anglashiladi.

O‘zbek xalqi mentalitetiga xos ham madaniy, ham milliy konseptlardan biri bo‘lgan ***“mehmondo‘stlik”*** ingliz millatida ham qadrli bo‘lib, ushbu tushuncha ikki xalq o‘rtasidagi ***“universal konsept”*** hisoblanadi. Mehmondo‘stlik tushunchasini konsept sifatida o‘rganilishiga sabab u bevosita xalq madaniyati, uning urf–odatlari, qadriyatlari bilan bog‘likligidir. Madaniyat qanchalik chuqur bo‘lsa u tilda shunchalik chuqur iz qoldiradi. Ana shu ***“izlar”*** tilning leksik qatlamidagi so‘z va so‘z birikmalari, maqol, matal, hikmatli so‘zlar, iboralarida namoyon bo‘ladi. Mehmondo‘stlik tushunchasini konsept sifatida o‘rganilishiga sabab u bevosita xalq madaniyati, uning urf–odatlari, qadriyatlari bilan bog‘likligidir. Madaniyat qanchalik chuqur bo‘lsa u tilda shunchalik chuqur iz qoldiradi. Ana shu “izlar” tilning leksik qatlamidagi so‘z va so‘z birikmalari, maqol,matal, hikmatli so‘zlar, iboralarida namoyon bo‘ladi. Tahlil ingliz va o‘zbek yozuvchilarining roman janridagi asarlaridan yig‘ilgan misollar asosida olib borildi. Abdulla Qodiriyning **“O‘tgan kunlar”** va Sharlotta Brontening **“Jane Eyre”** hamda Somerset Maugxamning **“The moon and sixpence”** nomli romanlaridan yig‘ilgan misollar orqali o‘z xalqlaring madaniyatlarini til sur’atida qanday namoyon bo‘lishi tahlil qilindi.

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

O‘zbek tilida ***«mehmondo‘stlik»*** tushunchasi -shaxsning, shuningdek oilaning, odamlar guruhining yoki butun bir xalqni o‘z uyida mehmon qilishni anglatadi. Mehmon kutish stereotip sifatida ingliz va o‘zbek halqlarining oilaviy an’analarida o‘z ifodasini topgan. Maqollar va idiomalarni tahlil qilib aytish mumkinki, o‘zbeklarda mehmonni fahr va hursandchilik bilan kutib olish qoidasi borligini sezish mumkin. Masalan, Ochiq chehra bilan; Hush ko‘rdik idiomalari va ***«ochiq yuz –ne’matdan yahshi»; «Oshing oz bo‘lsa ham, fe’ling soz bo‘lsin».*** Mehmonni kutib olish o‘zbek madaniyata uni uyning eng yahshi joyiga o‘tkazish bilan ham belgilanadi. Mehmonni ranjitib qo‘ymaslik uchun, uni qulay, toza, chiroyli joyga o‘tkazish maqsadida mezbon shoshib qoladi. Odatda mehmon uyning “to‘ri”ga taklif qilinadi, bu mezbonni mehmonga ko‘rsagan hurmati deb tushuniladi. Bularning barchasi o‘zbek madaniyatining xususiyatlariga kiradi.

Ingliz tilida ***«hospitable/ hospitality»*** tushunchasining nominativ ma'nosi bu begonalarga, mehmonlarga xayrixoh, do‘stona munosabatda ifodalanadi: ***“They said we should stay another night, but I didn’t want to take advantage of their hospitality”. «Hospitable»*** tushunchasining metaforik ma'nosi to‘g‘ridan-to‘g‘ri, fikrlar va harakatlarning ochiqligini umumiy ma'no bilan belgilashdan iborat: ***«open to suggestions», «receptive, open, ready or willing favouribly, receptive to the proposals»: “hospitable to new ideas”***

Ushbu lingvokulturalarda «mehmondo‘stlik» konsepsiyasining emblematik belgisi bu turli xil gastronomik belgilardan foydalanishdir. Shunday qilib, ***«choy»*** dominanti mehmonga taklif qilishning emblematik formulasi hisoblanadi. O‘zbeklarda **«choyga marhamat», « keling choy ichamiz», « bir piyola choy ustida», inglizlarda «come and have some tea», «Will you come to tea tomorrow?** kabi etiket ifodalar tushunchalari mavjud. Choy marosimi mehmondo‘stlikning elementi sifatida hayotda muhim o‘rin tutadi. Va choy tayyorlash va uni mehmonlarga ulashish mezbonning mutlaq vakolati hisoblanadi. O‘zbek madaniyatida mehmonga tortishdan oldin, issiq choy idishda 3 marta chayqatiladi va to‘rtinchi marta toza piyolada mehmonga uzatiladi. Bunga ajablanmaslik kerak. Birinchidan, buning natijasida choy yanada mazaliroq bo‘ladi, mehmonga choy quyilgan toza idish esa chuqur hurmat va munosabatlar pokligining belgisidir. Ingliz madaniyatida odamlar juda qiziqarli. an'analari katta soni, madaniy o‘ziga xos xususiyatlarini va mentaliteti xushfe'lligi u o‘rganishga juda qiziqarli mavzu qilish.

O‘zbek madaniyatida oila markaziy rollarga ega bo‘lib, avlodlar o‘rtasidagi aloqalar kuchliyiga e'tibor qaratiladi. Oilaviy qiymatlar keng tarqalgan bo‘lib, hurmat, fidoyilik va g‘amxo‘rlik kabi qadriyatlar asosiy hisoblanadi. An'analar, masalan, to‘y va marosimlar, oilaviy hayotning muhim qismlaridir, va bu harakatlar avloddan avlodga o‘tadi.

Ingliz madaniyatida esa oila muhim bo‘lsa-da, individualizm ko‘proq ta'kidlanadi. Odamlar o‘z mustaqilliqlarini va shaxsiy erkinliklarini qadrlashadi, bu esa ko‘plab holatlarda qarorlar qabul qilishda individual fikrga ustunlik beradi. Bu madaniyatda masshtabli oilalar kamroq uchraydi va insonlar o‘z shaxsiy maqsadlari va hayot yo‘llariga ko‘proq e'tibor qaratishlari odatiy.

Shunday qilib, O‘zbek madaniyatida oilaviy hamjihatlik ko‘proq ahamiyat kasb etsa, ingliz madaniyatida individualizm va shaxsiy erkinliklar oldinga suriladi.

Nikoh to‘yi — kelin va kuyovning nikohini jamoatchilikka ma’lum qilish tantanasi. Bu marosim davrlar o‘tishi bilan qisman o‘zgarib borgan va har bir etnik guruhda o‘ziga xos xususiyatlari bilan o‘zaro farq qilgan. Nikoh to‘yi tizimida bir qancha marosimlar mavjud: ***sovchilik, unashtirish, uy ko‘rar (qiz ko‘rar), fotiha to‘yi, to‘y yuborish, qiz oshi (qizlar majlisi), nikoh o‘qitish, kelin tushdi, kelin salom, charlar, quda chaqiriq*** kabi marosimlar va ular bilan bog‘liq urf-odatlar. Ularning aksariyati hozirgacha saqlanib, amal qilinib kelinadi. Nikoh to‘yi kuni yoki bir kun oldin qiz tomonga to‘yning oshini pishirib yoki xomligicha yuboriladi. Qiz xonadonida jamoaga osh tortiladi. Ba’zan

kuyovnikida ham osh beriladi. To‘y kuni yoki bir kun oldin qizning otasinikida nikoh marosimi o‘tkaziladi.

Kuyov yaqin jo‘rasi, tog‘asi bilan bo‘lajak kelin xonadoniga borgan. Imom kuyovga er-xotinlik burchi va huquqlarini tushuntirgach, qizning yangasi orqali ruxsatini olib keyin ***"Xutbai nikoh" (nikoh haqidagi duo)*** o‘qigan. Qad. o‘zbekchilik udumiga ko‘ra, nikoh to‘yi tantanalari kuyovnikida o‘tkaziladi. To‘y oqshomi kuyov jo‘ralari bilan, karnay-surnay, childirma-yu nog‘oralar sadolari ostida sho‘x o‘yin-kulgi va zavkli qiyqiriqlar bilan ke-linnikiga keladi. Ular chimildiq tor-tilgan xonada, noz-ne’matlar to‘la das-turxon atrofida siylanadilar. Suyuq ovqat, osh yeyilib bo‘lingach, kuyov jo‘ralaridan biri kelin tomondan kuyov sarposini "sotib oladi". Kuyovni qibla tarafga qaratib unga qizning onasi tayyorlagan chopon, salla kiygiziladi. Kuyov jo‘ralar muborakbod etgach, surnay xonishi ostida kuyovni qizning onasi, xola-ammalari bilan ko‘rishgani olib kelishadi. Ona va buvining oqfo-tihasi, ezgu duolarini olib kuyov o‘z jo‘ralari bilan uyiga qaytadi. Kelinga oq libosini kiydirib, otasi, buvasi va tog‘a, amaki kabi yaqin qarindoshlar bilan xayrlashgani olib chiqadilar. Kelin yangalari, dugonalari davrasida otasining oldiga kelib ta’zim ila bergan nonu tuziga rozilik so‘raydi. Otasi qizining peshonasidan o‘pib, yelkasidan quchib roziligini bildiradi, baxt tilaydi. Qiz onasi oldiga borib "ona-jon, bergan oq sutingizga rahmat" deb bag‘riga singib rozi-rizolik so‘raydi.

Kelin mashinaga chiqmasidan avval ota unga oq fotiha beradi, baxt tilaydi. Ishtirokchilarning hammasi duoga qo‘l ochib unga jo‘r bo‘ladilar. Eng qadim odatimizga muvofiq kelin kuyovning uyiga qadar yor-yor bilan kuzatib ko‘yiladi. Bu odatlar har viloyatda, qishloklarda o‘ziga xos tarzda o‘tkaziladi.O‘zbekiston Respublikasida Nikoh to‘yilarida milliylikni saqlagan holda dab-dababozlikka berilmay, isrofgarchiliksiz, ixcham o‘tkazishga qaratilgan hukumat qarorlari qabul qilingan.

Buyuk Britaniyada to‘y marosimi an'anaviy va zamonaviy elementlarni birlashtiradi. Odatda, to‘y marosimlari quyidagi bosqichlardan iborat.

1. Taklifnoma: To‘y taklifnomalari muhim ahamiyatga ega. Qiz va o‘g‘ilning oilalari mehmonlarni taklif qiladi.

2. An'anaviy kiyimlar: Qiz odatda oq to‘y libosini kiyadi, o‘g‘il esa tux kashtalar, kostyum va galstuk bilan to‘yda qatnashadi.

3. Rasmiy marosim: To‘y, odatda, cherkovda yoki boshqa joyda o‘tkaziladi. Diniy marosimlar ko‘plab britaniyaliklar uchun muhim hisoblanadi.

4. Qabul: To‘y marosimidan so‘ng, mehmonlar uchun qabul tashkil etiladi. Bu yerda ovqat, ichimliklar va ko‘plab raqslar bo‘ladi.

5. Tort kesish: To‘y tortini kesish ham an'ana hisoblanadi. Qiz va o‘g‘il tortni birgalikda kesib, mehmonlarga tarqatadi.

6. Raqs: "Birinchi raqs" odatiy ko‘plab to‘ylar uchun muhimdir, unda yangi juftlik birinchi raqsni raqsga tushadi.

7. Kichik an'ana va o‘ziga xosliklar: Ba'zi juftliklar o‘zlarining shaxsiy touchlarini kiritishadi, masalan, to‘y qismini yoki maxsus dastur qo‘shish.

Britaniya to‘y marosimlari har doim go‘zallik va tuyg‘u bilan to‘la bo‘ladi va ko‘plab an'analar bilan boyitilgan.

Xulosa qilib aytmoqchi bo‘lsak, xar bir millat va elatning o‘ziga xos madaniyati , urf-odati, mentaliteti bor. Har bir milliat o‘zing madaniyati bilan boshqalaridan ajralib turadi. Ayniqsa o‘zbeklardagi “***mexmondo‘stlik"va inglizlardagi "kechki choyxo‘rlik”*** ana'analari juda ham bir biriga o‘xshash ekan. Umuman bir biridan farq qiladigan to‘y marosimlari ham juda o‘zgacha. O‘zbek to‘ylari —

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

O‘zbek millatining o‘ziga xos o‘rin tutuvchi an’anasi. O‘zbek millatining to‘ylari har bir viloyatda o‘zgacha o‘tkaziladi. Toshkent shahrida faqat kelin tomon osh bersa, Qashqadaryo viloyatida kuyov tomon ham osh beradi. Bundan tashqari to‘ylarda turli mashhur insonlar ham ishtirok etishadi. Xulosa o‘rnida shuni aytishni joiz ko‘rdikki, inson baxtini o‘z qo‘llari bilan yaratadi. Zero, uni poymol qilish xam o‘zining qo‘lidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Arutyunova, N. D. Haqiqat. Yaxshi. Go‘zallik: tushunchalarning o‘zaro ta'siri / N. D. Arutyunova // tilni mantiqiy tahlil qilish. Estetika tillari: chiroyli va xunuk / Otv kontseptual maydonlari. N. D. Arutyunov tomonidan tahrirlangan. -M.: Indrik, 2004 Yil. –c. 5-30.
3. Popova Z.D, Sternin I.A. Semantiko-kognitivniy analiz yazika. Voronej: «Istoki», 2006. 226 s.
4. Rikert, G. (1994). Hayot qadriyatlari va madaniy qadriyatlar / / EON. Eski va yangi madaniyat almanaxi. Masala 1-M., p. 43.
5. Raxmatova, M. M. (2018). Tilda estetik qadriyatlarning aks etishi: inglizcha "chiroyli" va inglizcha "chiroyli". // Ta'sir: xalqaro gumanitar, san'at va adabiyot tadqiqotlari jurnali. Val.6. Masala 6. Hindiston, s. 40.

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

ABDULLA AVLONIY ASARLARI ORQALI YOSHLARGA ODOB-AXLOQ VA TARBIYA G‘OYALARINI SINGDIRISH

Abdumutalova Shirin Axmad qizi
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yetuk olim va pedagog Abdulla Avloniyning yangi jadid harakatlari, pedagogik qarashlari orqali ta’lim va fan sohasi hamda dars jarayoniga bir qancha o‘zgarish va yangilanishlar olib kirgani, uning pedagogik qarashlari asosida maktab va oliy ta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida interaktivlik, faollik, o‘zaro hurmat va tarbiya masalalariga o‘z yechimini topishi, uning pedagogik asarlarida ham tarbiya va odob-axloq tamoyillari va ta’lim sohasiga jiddiy e’tibor berilgani, uning pedagogik qarashlari hamda asarlaridagi tarbiya masalasi haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *pedagogika, odob, tarbiya, ta’lim, ko‘nikma, tadqiqot, metodika, metod, innovatsiya.*

Yetuk olim va pedagog Abdulla Avloniy inson tarbiyasini bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan uch yo‘nalishga bo‘ladi: badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi va axloq tarbiyasi. Inson uchun avvalo badan salomat bo‘lmog‘i zarurdir, badan sog‘ bo‘lgandagina inson uchun zarur bo‘lgan boshqa amallarni singdirish mumkin. Buning uchun inson badanini bevaqt zalolatga, tubanlikka olib boruvchi, salomatlikka zarar, “ba’zi harom, ba’zi makruh” narsalardan asrashi kerak. Bu esa Avloniyning yozishicha, fikr tarbiyasi uchun zamin yaratadi. Fikr tarbiyasi farzandni komil inson darajasiga ko‘tarishda muhim omil hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirishda asosiy mas’uliyat o‘qituvchi zimmasiga tushadi. Chunki muallim dars jarayonida o‘quvchilarni fikrlashga, hari qanday voqyeahodisaning mohiyatini chuqur idrok qilishga o‘rgatadi. Farzand tarbiyasi shaxsiy masala emas, u davlat, jamiyat ahamiyatiga ega bo‘lgan buyuk ijtimoiy ishdir, u shu darajada buyuk ishki, Vatan istiqboli ham, millat taqdiri ham tarbiya bilan bog`liq. Avloniy so‘zlari bilan aytganda “... tarbiya bizlar uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidur”.

Bu o‘rinda A. Avldoniy ta`lim va tarbiya birligiga alohida ahamiyat beradi. Inson aqliy faoliyatinnig ifodasi bo‘lmish fikr tarbiyasi orqaligina katta sharafga, barkamollikka erishadi, bu o‘rinda o‘kituvchinnig fikrlash doirasining kengligi, bilim saviyasinnig har jihatdan yuksakligi o‘quvchilari tarbiyasida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Fikrlash qobiliyatini rivojlantirish aql bilan ish tutishga olib keladi: o‘quvchilarni yaxshi xulqlar bilan yomon xulqlarni farqlashga, komil inson uchun zarur bo‘lgan yaxshi xulqlarni egallashga, insonni zalolatga yetaklovchi yomon xulqlardan uzoq bo‘lishga o‘rgatadi.

Avloniyning fikricha, sog‘lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma'rifatga ega bo‘lish uchun badanni tarbiya qilish zarur. “Badanning salomat va quvvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o‘qumoq, o‘qutmoq, o‘rganmoq va o‘rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdir”. Abdulla

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

Avloniy badan tarbiyasi masalasida bolani sog‘lom qilib o‘stirishda ota-onalarga murojaat qilsa, bolani fikr tomondan tarbiyalashda o‘qituvchilarning faoliyatlariga alohida e'tibor beradi. “Turkiy guliston yoxud axloq” kitobi ma'rifatparvarlik g‘oyalarini targ‘ib qiladi.

Abdulla Avloniy kitobda ilm to‘g‘risida bunday deydi: “Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidur. Ilm inson uchun g‘oyat oliy, muqaddat bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakatimizni oyina kabi ko‘rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkur qilmoq,... Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidur...”. Avloniy ilmni umuman emas, balki uning amaliy va hayotiy foydalarini aytib, “Bizlarni jaholat, qorong‘ulikdan qutqarur. Madaniyat insoniyatni ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzug‘ ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va odob sohibi qilur... Alhosil butun hayotimiz, salomatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g‘ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilma bog‘lidur”

Adibning obrazli ifodasiga ko‘ra, ilm bamisoli bodomning ichidagi mag‘iz. Uni qo‘lga kiritish uchun mehnat qilish, ya'ni chaqib uni po‘chog‘idan ajratib olish kerak. U ilmning jamiyat taraqqiyotidagi rolini yaxshi tushunadi. Shuning uchun ham u, yoshlarni ilm sirlarini bilishga, hodisalar mohiyatini yechishga, kitob mutolaa qilishga chaqiradi. Uning fikricha, ilm agar jamiyat manfaatiga xizmat qilmasa, xalq farovonligi yo‘lida qo‘llanmasa, u o‘likdir. A.Avloniy o‘z ilmini amalda qo‘llay oladigan kishilarga yuksak baho beradi, ularni dono insonlar, deb ataydi.

Avloniyning “Ikkinchi muallim” kitobi «Birinchi muallim» kitobining uzviy davomidir. Biz birinchi kitobini, shartli ravishda, alifbe deb, ikkinchi kitobini xrestomatiya deb atasak joiz bo‘lar, desak xato bo‘lmas. Kitob maktabni olqishlovchi she'r bilan boshlanadi:

Maktab sizi inson qilur,

Maktab hayot ehson qilur,

Maktab g‘ami vayron qilur,

G‘ayrat qilib o‘qing, o‘g‘lon!

Maktabdadur ilmu kamol,

Maktabdadur husnu jamol,

Maktabdadur milliy xayol,

G‘ayrat qilib o‘qing, o‘g‘lon!

Bu she’rda Avloniy maktabni insonning najot yo‘li, hayotning gulshani, kishilarni kamolot sari safarbar qiluvchi kuch, deb maqtaydi. Abdulla Avloniyning pedagogikaga oid asarlari ichida «Turkiy guliston yoxud axloq» asari XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotini o‘rganish sohasida katta ahamiyatga molikdir. «Turkiy guliston yoxud axloq» asari axloqiy va ta'limiy tarbiyaviy asardir. Asarda insonlarni «yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlardan qaytaruvchi» bir ilmaxloq haqida fikr yuritiladi. Abdulla Avloniy pedagog sifatida bola tarbiyasining roli haqida fikr yuritib «Agar bir kishi yoshligida nafsi buzulib, tarbiyasiz, axloqsiz bo‘lib o‘sdimi, allohu akbar, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq yerdan turub yulduzlarga qo‘l uzatmak kabidur», - deydi. Uning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar g‘oyat katta ahamiyatga ega.

She’rda maktab tinchlik, omonlik uyi, hayot manbai, qalblarga yaxshilik, ravshanlik keltiruvchi joy sifatida tasvirlanishi bilan birga, u axloq-odob uyi, Allohning ehsoni va bir ajib gulshan sifatida talqin etiladi. Muallifning “Maktab gulisnoni” kitobidagi “Maktab” she’rida ham ushbu fikrlar mantiqan davom etadi:

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

Firdavsi jinon maktab, nodonlara jon maktab,

Bilgan kishiga qadrin, bir dorulomon maktab.

Johillara g'am maktab, yalqovlara kam maktab,

Husnixat kishilarga chin ruhi ravon maktab.

Jonim, o'qungiz maktab, boru yo'qingiz maktab,

Sizlar uchun, avlodim, bog'u guliston maktab.

Shunga o'xshash, "Maktab" nomli she'r A.Avloniyning "Adabiyot yoxud milliy she'rlardan 2-juzv" kitobida ham uchrashi bejiz emas. Unda maktab ta'rifining yanada yangi qirralari bo'rtib turadi. Ko'rinadiki, she'rlar mavzu jihatdan bir, ammo ularnin talqini, badiiy ifodasi murakkablasha borgan. Birinchi she'rda shoir yosh kitobxonni o'qishga, ilm-ma'rifatga targ'ib qilsa, ikkinchi she'rda maktabning kimlarga foydayu qanday kishilarga zarar ekani qiyoslanadi; uchinchi she'rda esa maktabning alohida manfaatlari xususida emas, umummillat va yurtga keltiradigan foydalari tilga olinadi.

Abdulla Avloniy o'tmish mutafakkirlari kabi yoshlarni foydali kasb-hunar egallashga chaqiradi. Adib boylik ketidan quvuvchilarni, ularning odamgarchilikka to'g'ri kelmaydigan ishlar bilan shug'ullanayotganini ko'rib, ulardan nafratlanadi. Avloniyning xalqni ma'rifatga tashviq qilganidan dalolat beruvchi misralaridan biri quyidagidir:

Idrok ila aqling-la ayur yaxshi-yomonni,

Behudaga sarf etma, shu qimmatli zamonni.

Sa'y et, jadal et, ilmu fununa harakat qil,

Boq, nayladilar hikmat ila ushbu jahonni.

Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlarida axloq masalasi asosiy o'rinda turadi. U axloqiy tarbiyaning insoniyat hayotidagi buyuk roliga keng to'xtaladi va bolalarni yoshlik chog'idan boshlab tarbiyalash zarur deb uqtiradi. Adibning ta'kidlashicha, tarbiya o'z vaqtida berilmasa, bolada dunyoqarash shakllangach, unga tarbiya ta'sir etmaydi:

Agar bir qushning yosh bolasin olib,

Bo'lur tarbiyat birla yo'lg'a solib,

Onasin olib asrag'on birla rom,

Qilmas, kishi sa'y qilsa mudom.

Kerak tarbiyat yoshlikdan demak,

Ulug' bo'lsa lozim kelur g'am yemak,

Egur bemashaqqat kishi navdani,

To'g'unchi egur kuydirib kavdani.

Abdulla Avloniyning fikricha, bolada axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit nuhim ahamiyat kasb etadi. Haqiqiy insoniy axloqni o'zida barqaror qilgan kishilar yoshlarning mehr-shafqatli, oqibatli, sofko'ngil va odobli bo'lib tarbiyalanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadilar.

Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston..." asarida "Vatanni suymak" degan bob bor. Unda yosh qalblarda o'z Vatani Turkistonga nisbatan muhabbat tuyg`ularini mavjga keltiruvchi shunday misralar bor:

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

Vatan, Vatan deya jonim tanimdan o‘lsa ravon,

Banga na qam, qolur avlodima o‘z Vatanim.

G’ubora do‘nsa qamim yo‘q vujud zeri vahm,

Choraki, o‘z Vatanim xokidur go‘ru kafanim.

Tuqib o‘san yerim ushbu Vatan vujudim xok,

O‘lursa aslina roje` bo‘lurmi man g`amnok.

Ushbu asar yozilgan davrni - Vatanimiz mustamlaka iskanjasida fojei ahvolga tushgan, kelgindilar oyoqi ostida toptalgan davrini to‘la his qilib, “Vatanni suymak” bobi o‘qilsa, Vatan istiqloli, ozodligi uchun inson hatto jonini ham fido qilishi kerak, degan qoya asar qatlariga singdirib yuborganligini sezish qiyin emas. Vatan tuproqi muqaddas: unda ajdodlarimizning xokilari bor unda kelajak nasllarimiznnig haqlari bor. Shuning uchun ham Vatanni oddiygina sevish mumkin emas, uning istiqboli uchun kuyunish, kurashish, kelguvchi avlodlarga to‘la-to‘kis, ozod farovon holda topshirish hissi ham mavjud.

Xulosa qilib aytganda, ma’rifatparvar adib Abdulla Avloniy ta’lim-tarbiyaning barcha muhim jabhalari haqida keng mushohada yuritadi. Uning asarlari o‘zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘langanki, shu jihatdan uning boy adabiy pedagogik merosi milliy pedagogika taraqqiyotida qimmatbaho manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Avloniy.Turkiy guliston yoxud axloq. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992.-160-b;
2. Abdulahatov N., Abubakirova O. “Allomalar to‘g‘risidagi asotirlar” F.: 2012;
3. Barakayev R. “Abdulla Avloniy va bolalar adabiyoti”. T.:Fan, 2004;
4. Xo‘jayeva D. Abdulla Avloniyning ta’lim-tarbiya xususidagi qarashlari//Til va adabiyot ta’limi, 2003, 3-son.-B.71.
5. Kadirova M., The need for improving the methodology of teaching folklore in distance learning. current research journal of philological sciences, 2022, 3(03), 1–THE NEED FOR IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING FOLKLORE IN DISTANCE LEARNING | CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES (inlibrary.uz)
6. Kadirova M.N. Improvement Of Students' Competences on Folklore Genres in Distance Learning Environment. https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/410
7. Kadirova M.N.. The need for improving the methodology of teaching folklore. International scientific-online conference: Intellectual education Netherlands. https://staff.tiiame.uz/storage/users/829/articles/nyOCfZLWmrPLJiMMJmugxLcoqGUmIvB9cP2PPxaq.pdf

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

VIZANTIYA IMPERIYASI MADANIYATI

Xurramova Mahliyo
Toshkent davlat pedagokika universiteti
Tarix fakulteti tarix yo`nalishi
2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *ushbu maqolada Vizantiya imperiyasining tashkil topishi, VI-VII-asrlardagi taraqqiyoti, Yustinian hukmdorligi uning davrida imperiya hududining kengayis, Vizantiya madaniyati hi haqida ma`lumotlar beriladi.*

Ma'lumki tarix muhim fanlardan biri. Dunyodagi bironta joy yoqki tarixi bo'lmasa. Har bir mamlakatning o'z tarixi bo'lganidek hozirgi turkiya hududida (Istanatbul shahri) da Vizantiya davlati mavjud bo'lgan. Tarixni o'rganish biz uchun o'ta muhim va kechiktirib bo'lmas ishdir. Negaki, tarixni bilmagan inson o'zligini bilmaydi va anglolmaydi. Viznantiya o'z davrida nihoyatda katta imperiya tuza olgan, bu davlat nafaqat jahonda balki, o'rta Osiyoda xususan mamlakatimimiz tarixida ham muhim hisoblanadi. Vizantiya tarixi qiziqarli va to'liq o'rganilmagan hisoblanadi. Bugun shu davlatning ma'lum bir tarixi haqida bilganlarimni qolganlarga foydali bo'lishi uchun qisqacha bayon etish niyatida yozishni boshladim.

Kalit so'zlar: *vizantiyaning tashkil topishi, madaniyati, Yustinian davri, Yustinian harbiy yurishlari, imperiya dunyo nigohida.*

Rim imperiyasi imperatori Konstantin o'ziga konstantinopol shahrini qurdiradi. Imperator Feodisiyning vafotidan keyin o'gíllari o'rtasida 395-yildam sharqiy va gárbiy rimga bo'lib olinadi. Arkadiy ga tekkan Sharqiy rimga Bolqon yarimoroli, Kichik Osiyo va Misr, gárbiy rimga Italiya, Yevropa va Shimoliy afrika hududlari kirgan. Viznatiya o'rnida yunonlarning Megara kolonyasi bo'lganlida ko'p hollarda Vizantiya deb atalardi. Vizantiyaga Kichik Osiyo, Suriya, Misr, Bolqon, Krit va Kipr orollari kirgan. Vizantiya yevropa va osiyoni bog'lovchi oltin ko'prik vazifasini o'tagan. Davlat tili IV-VI asrlarda lotin tili, keyinchalik yunon tili bo'lgan. Hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanish darajasi, shahar turmushining jo'shqinligi jihatidan o'sha davrda Vizantiya G'arbiy Yevropa mamlakatlaridan ancha ilgarilab kettan edi. Arabiston, Qora dengiz bo'yi, Eron, Hindiston, Xitoy bilan savdo-sotiq bir oz ko'paydi. Vizantiya geografik jihatdan qulay joylashganligi tufayli Sharq bilan G'arb o'rtasida madaniy-iqtisodiy aloqalarning kuchayishiga sabab bo'lgan, siyosiy va harbiy markazga aylangan.Vizantiya oltin puli "numisma" ko'p yillar davomida xalqaro savdo puli sifatida ishlatilgan. Aleksandriya, Edisseya, Antioxia, Fessaliya kabi savdo hunarmandchilik shaharlari mavjud bo'lib, dunyoning turli burchaklaridan savdogarlar oqib kelardi. Suriyaning zigírdan to'qilgan movut gazlamalari, Misrning papiruslari, Bayrutning chetdan keltirilgan ipakdan to'qilgan gazlamalari, Konstantipolning zeb ziynat buyumlari uzoq o'lkalarda ham yuksak qardlangan.

Shahar aholisi tarkibi murakkab bo'lib, ularning ko'pchiligini hunarmandlar, savdogarlar, xammolar tashkil etgan. Yirik shaharlar aholisi maxsus sport jamoalar (dimlar) tuzib, u orqali ippodromlarda musobaqolar o'takazib turilgan. Qullar mehnati asosan yirik shaharlarda bo'lgan. Polisni boshqarish

quldor zodagonlar –**Kurillar** qo'lida bo'lgan. Ular jamoatchilik binolarini qurish, tamirlash, bayramlar va tomoshalar tashkil qilish, kambahallarni ozuqa bilan taminlashlari shart bo'lgan. Kurillar soliqlarning yigílishiga o'z mil mulki bilan javobgar bo'lishgan.

Imperiya boshqaruvi: Imperator oliy hukmdor. Qonunlarni joriy qilivchi, bosh sudiya va harbiy qo'mondon edi. Vizantiyada IV-asrdayoq "imperator xoxish istagi" qonun kuchiga ega tamoyilli shakllangan.

Xristianlik qabul qilinishi bilan imperator hokimiyati xudoning nazli, xoxish irodasi sifatida talqin etila boshlagan. Lekin Vizantiyada imperator unvoni dastlabki vaqtlarda merosiy bo'lmagan. Imperatorni yirik zodagonlardan tashkil topgan sinklit(senat) saylagan. Imperiyada ma'muriy idoralar ko'p lekin amalda, hokimiyat yirik zodagonlar qo'lida edi. Xususan, Konstantinopol xokimi (eparx) shahardagi sud hokimiyatini boshqargan. Xalq lashkari deb ataluvchi qo'shin IV-asrdan o'z mavqeyini yo'qata boshlagan. Vizantiyada soliq tizimi o'ziga xos bo'lib qochoq kolon yeri qo'shnilariga o'tkazib berilgan va ular hamma soliqlarni to'lagan. Har 15yilda soliq tolovchilar mulkiy holati roýxatdan o'tkazilib soliqlar oshib borgan. Boj soligí chetdan keladigan molar narxining 1\8 (16.5%) tashkil qilgan.

Imperiya madaniyati: Vizantiya san'ati IV asrda uning maydoniga xristian dinining kirib kela boshlagan davridan shakllana bordi. Bu xususiyat Vizantiyaning dastlabki gullagan davri VI—VII asrlarda yaqqol namoyon bo'ldi. Konstantinopol bu davrda katta Vizantiya imperiyasining faqat siyosiy markazi emas, balki madaniy o'chog'iga ham aylandi. „Ikkinchi Rim" deb nom olgan bu shaharda mahobatli qurilish san'ati rivojlandi. Bu yerda hashamatli monastir va ibodatxonalar majmuasini yaratish yetakchi o'rini egalladi. Bu ansambl tiplari rang-barangligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, Vizantiya uchun antik ijtimoiy ma'muriy binolarini qurish san'ati an'analari asosida qurilgan markaziy gumbazli va cho'ziq bazilika tipidagi ibodatxonalar qurilishi xarakterlidir. Bu binolarda ichki interyerning fazoviy kengligi xristian ibodatlari talabi asosida qurilgan. Bu binolar tashqi ko'rinishidan sodda, vazmin, lekin ichki kenglik nihoyatda nafis va serhashamdir. Shu maqsadda me'mor interyer uchun yorqin, ser'jilo marmar, oltin va shunga o'xshash qimmmatbaho materialiardan keng foydalangan. Xona ichida nur va soyaning xiraligi unga alohida sirli va sehrli kuch baxsh etgan. Ilk Vizantiya ibodatxonasining namunasi — Ravennadagi uch minorali Sant Apollonare Nuovobazilikasida shu xususiyat o'z ifodasini topgan. Cho'ziq-bazilika tipida ishlangan bu ibodatxonaning markaziy keng minoralari tepadagi darchalardan tushayotgan nurlar hisobiga yanada tantanavorlik kashf etadi. Yon tarafdagi ustunlarning ritmini bu tantanavorlikni yanada oshiradi. Asosiy diqqatni diniy marosimlar o'tkaziladigan maydon tortadi. Ravennadagi markaziy qubbali (gumbazli) San Vitale cherkovining (521—547) ichki qismi — devor va pollari rangga boy mozaika bilan bezatilgan, marmar bilan pardozlangan. Vizantiya me'morchiligi uslubi grek va Rim me'morchiligi an'analarining mahalliy an'analar bilan uyg'unlashishidan vujudga keldi. Jumladan, Konstantinopoldagi Sofiya ibodatxonasi o'z konstruktiv tuzilishi jihatidan Panteon ibodatxonasi konstruksiyasiga o'xshab ketadi, lekin bu o'xshashlik birmuncha yashiringan holda talqin etilishi bilan xarakterlanadi. Vizantiyaliklar grek va rimliklarning arka-gumbaz tizimidan ham o'z maqsadlarini ifodalash uchun foydalanganlar. Vizantiya me'morchiligida xona kengligiga alohida e'tibor berilishini ta'kidlash lozim. Interyer a'zosi aktiv, ta'sirchan, hayajonli bo'ladi. Xona ichining kengligi, cheksiz va ulug'vor bo'lib tuyulishi, serhashamligi bilan kishiga psixologik ta'sir o'tkazishga qaratilgan. Vizantiya san'atida rang-tasvir yetakchi o'rinni egallaydi. Bu yerda birinchi bor haykaltaroshlik o'zining yetakchiligini yo'qotdi. Shu yerdan antik mavzudan yangi xristian mavzusiga o'tish amalga oshirila boshlandi. Iso obrazining ikonagrafik tasviri, apostollar, Bibi Mariyam va avliyolar tasviri ikonografiyasi yaratilib, boshqa yerlarga tarqatildi. Vizantiya rang-tasvirining nodir namunasi — XII asr I yarmida konstantinopollik usta tomonidan ishlangan „Vladimir Bibi Maryami" ikonasi hisoblanadi. Vizantiya san'ati va madaniyati jahon xalqlari san'ati va madaniyatining rivojlanishiga kattata ta'sir o'tkazdi. Jumladan, bu madaniyat janubiy slavyanlarga o'z ta'sirini

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

ko‘rsatdi, Rus san’ati va madaniyati taraqqiyotida muhim rol o‘ynadi. Vizantiya me’morchiligi, ikona ishlash san’ati, amaliy san’at namunalari ko‘pgina xalq san’atkorlari uchun namuna maktabi vazifasini o‘tadi.

Yustinian davri: Yustinian I (taxminan 482 yoxud 483, Taurisiy, Yuqori Makedoniya — 565.14.11, Konstantinopol) — Vizantiya imperatori (527 yildan 565-yilgacha). Imperatorning mutlaq hokimiyatini o‘rnatish, quldorlikni mustahkamlashga qaratilgan siyosat yurgizgan. Yustinian oddiy dehqon oilasida tugílib keyinchalik imperatorlik tojini kiyadi. Amakisi Yustin davrida saroyda tarbiyalanadi. Yustinian aktrisa Feodoraga uylanadi. Mehnatsevar, qattiqqo’l va o’z so’zidan qaytmaydigan hukmdor bo’lish bilan birga siyosatdonlarga xos ikkiyuzlamachilik, makkorlik hislatlari ham bo’lgan. Yustinian davrida tuzilgan Rim qonunlari “ Fuqarolik qonunlar to’plami” (Yustinian qonunlari) tashqari, rim imperatorlari qonunlar to’plami, degestlar va boshqa qonunlar qulchilikni mustahkamlashga qaratilgan edi. Yustinian farmoni asosida 529-yili Afina oliy makabi yopib qoýildi. Yustinianning maqsadi rimni qayta tiklash edi, bu maqsad yo’lida 533-534-yillarda Italiyada joylashgan Ostgotlarga qarshi yurish qilib, poytaxti Ravenna bo’lgan mustaqil knyazlik tuzdi. Undan tashqari shimoliy afrikadagi Vestgot qiroligiga qarshi sarkarda Valisariy boshchiligida qo’shin yubordi. Yustinian Konstantinopolda 532-537-yillarda avliyo Sofiya ibodatxonasini qurdirdi. Bu hozirda masjidga aylantirilgan bo’lib, birhina shu binoni ko’rish uchun yiliga 10milliondan oshiq odam Istanbulga kelyapti. 532-yilli Yustinian siyosatiga qarshi Nika qo’zgóloni ko’tariladi, lekin Yustinian ning xotini Feadora vaziyatni o’z qo’liga olib qo’zgólonni bostiradi. Qo’zgólonda 30ming kishi halok bo’ladi. Ayo Sofiya ibodatxonasini qurib mashhur bo‘lgan me’mor va muhandis trallik Anfiliy o‘t oldiruvchi ko‘zgular ishiga doir yangi talqinini taklif qildi. IX asrga kelib tabiiy fanlar borasida bir oz yuksalish kuzatildi. Ixtirochi Lev Matematik birinchi marta harflardan algebraik timsollar sifatida foydalandi. Ma’lumotlarga ko‘ra, XII asrda arab raqamlarini joriy qilishga urinish bo‘lgan bo‘lsa kerak. So‘nggi Vizantiya matematiklari sharq faniga juda qiziqishgan. Trapezund olimlari (Grigoriy Xioniad, XII asr uning izdoshlari Grigoriy Xrisokokk va Isaak Argir,XIV asr) arab va fors matematikasi va astronomiyasini o‘rganishgan. Sharq fani merosining o‘rganilishi Feodor Melitinnotaning „Uch kitobdagi astronomiya“ (1361) majmua asarining yaratilishiga yordam berdi. Kosmologiya sohasida vizantiyaliklar an’anaviy tasavvurlarga rioya qilishgan. Ulardan ba’zilari Bibliyada keltirilgan dunyoqarashlarga ishongan bo‘lsa, boshqalari Yerning sharsimonligi haqidagi ta’limot Bibliyaga zid emas, deb hisoblaganlar. Ilmi nujum inson taqdirini osmon yoritqichlarining harakati bilan bog‘langani uchun pravoslav ilohiyotchilari tomonidan qattiq tanqid qilindi va ta’qibga duchor bo‘ldi. XIV asrda Nikifor Grigora taqvim (kalendar)ni isloh qilishni taklif etdi, quyosh tutilishini oldindan aytib berdi. Bu taklif va bashoratlar astronomiya kuzatuvlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan.

Xulosa: Tarixni o’raganib undan xulosa chiqarishimiz, tarixdagi xatolarni takrorlaslik, ajdodlarimizga munosib avlod bo’lishimiz kerak. Biz nafqat O’zbekiston tarixi balki, jahon tarixini mukammal o’rganib kelajak avlodga munosib tarixchilarni yetkazib berishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T.O`.Salimov, F.E.Sultonov “7-sinf jahon tarixi” darsligi 2017
2. T.O`Salimov “Jahon tarixi yevropa mamlakatlari V-XV asrlarda” 2014
3. Vikipedia
4. M.Lapasov “jahon tarixi”

ISSN: 2181-3477
JILD:04 NASHR: 11 2024 yil
SCIENCE BOX
SIYOSATSHUNOSLIK, HUQUQ VA XALQARO MUNOSABATLAR JURNALI

YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA TALABALARGA MILLIY QADRIYATLAR TARIXINI O'RGATISH METODIKASI

Andayeva Shaknoza
TMC instituti katta o‘qituvchisi

Kirish (Introduction)

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng milliy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Shavkat Mirziyoyev o'z chiqishlaridan birida ta'kidlaganidek, “Bizning milliy qadriyatlarimiz yosh avlodning ma'naviy asosini shakllantiradi va ularni kelajakda kuchli ma'naviy o'zlik bilan yetuk etib tarbiyalashimiz kerak”[1]. Ushbu yondashuv yoshlarning ma'naviy tarbiyasini rivojlantirish va milliy merosga hurmatni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Talabalarga milliy qadriyatlarni o'rgatish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilangan, chunki bu jamiyatning barqaror rivojlanishi va yoshlarning ma'naviy boyligi uchun muhim omildir.

Ta'lim tizimi o'z oldiga milliy qadriyatlarni o'rgatishning innovatsion usullarini joriy etishni maqsad qilib qo'ymoqda. Xususan, "Oliy ta'lim tizimida o'quv dasturlarini modernizatsiya qilish" dasturi doirasida, milliy qadriyatlar tarixini o'rgatish bo'yicha yangi texnologik yondashuvlar va interaktiv usullar joriy etilmoqda. Mazkur jarayon o'zida nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy mashg'ulotlar va talabalarning faol ishtirokini ham o'z ichiga oladi. O'zbekistonda yoshlarning milliy qadriyatlarga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularni milliy madaniyatga jalb qilishga qaratilgan dasturlar amalga oshirilmoqda, bu esa o'quv jarayonini boyitishda muhim rol o'ynaydi[2].

Mazkur maqola yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida milliy qadriyatlar tarixini talabalarga o'rgatish jarayonining metodikasini o'rganishga bag'ishlangan. Maqsad — ushbu metodikaning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash, innovatsion yondashuvlar va ilg‘or tajribalarni tahlil qilishdir. Shuningdek, milliy qadriyatlar tarixi darslari orqali talabalarning ma'naviy dunyosini boyitish va ularning milliy o'zligini shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rni muhokama qilinadi. Bu jihatlar nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki O'zbekistonning kelajak avlodining ma'naviy va madaniy rivojlanishini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodologiya (Methods)

Ushbu tadqiqotning maqsadi yangilanayotgan O‘zbekistonda talabalarga milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatishning samaradorligini baholash hamda ushbu jarayonda foydalaniladigan metodikalarning dolzarbligini tahlil qilishdir. Tadqiqotda sifatli va miqdoriy usullar birgalikda qo‘llanishi rejalashtirilmoqda, bu esa natijalarni har tomonlama o‘rganishga imkon beradi.

Ma'lumot yig'ish usullari

1. Intervyu. Intervyu usuli orqali o‘qituvchilar, pedagoglar va milliy qadriyatlar tarixi darslarini olib boruvchi mutaxassislardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma'lumot olish rejalashtirilmoqda. Ushbu ma'lumot

[1] Mirziyoyev, Sh. (2018). Prezidentning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
[2] F R. Jo‘rayev O‘QUVCHI YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARNING O‘RNI // Inter education & global study. 2024. №5.

yig‘ishda yarim strukturalangan intervyu formati qo‘llanishi maqsadga muvofiq, ya'ni tadqiqotchi intervyularni oldindan tayyorlangan savollar asosida olib borar ekan, respondentlarning fikrlariga asoslangan qo‘shimcha savollar bilan suhbatni boyitishi mumkin. Intervyularni Toshkent, Samarqand va Buxoro shaharlaridagi uchta oliy ta'lim muassasalarining o‘qituvchilari bilan o‘tkazish rejalashtirilgan. Intervyular talabalarga milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatish metodikasining afzalliklari va kamchiliklarini o‘rganishga qaratiladi. O‘qituvchilarning ushbu jarayonda qanday usullarni qo‘llashi, qanday qiyinchiliklarga duch kelishi hamda talabalarning qiziqishini oshirish uchun qanday texnologiyalardan foydalanishi haqida ma'lumot yig‘iladi.

Misol sifatida intervyu savollari:

rivojlangan insoniyat jamiyati sifatida ta’riflanadi. Ushbu konsepsiyaga ko‘ra, tarjimon madaniy rivojlanish masalasini hal qilgan holda matnni tarjima qilishi mumkin. Bu holda Nyumark tarjimaning madaniy qadriyatga ega ekanligiga, ya’ni tarjima butun dunyo madaniyatlari rivojiga hissa qo‘shishiga ishonch hosil qiladi. Sivilizatsiya alifbo, lug‘atlar kabi ochiq muloqot usullarini yaratishga, tillar va adabiyotlarning ulkan rivojlanishiga olib kelsa-da, bu jarayon madaniy tarjima sohasida yangi savollarni tug‘diradi. Madaniyat mafkuraviy jihatdan mamlakat jamiyati va siyosatiga juda katta ta’sir ko‘rsatadi. Even-Zohar, Susan Bassnett va Trivedi kabi ba’zi tarjimon olimlariga ko‘ra, madaniyat ham hokimiyatga bo‘lgan ishtiyoq va odamlarning bu kuchga qanday da’vo qilishlari bilan bog‘liq. Shu ma’noda tarjima mafkuraviy tizimlarni kitobxonlar uchun moslashtirish bilan shug‘ullanadi. Shunday qilib, tarjimada madaniy o‘ziga xoslikning o‘tkazilishi axloq bilan bog‘liq bo‘lib, yangi fikrlash tarzini tushuntiradi. Bunday tarjima tarjima qilingan matnlar orqali kontekst va shaxsiy fikrlash tarzini ko‘rsatishi kerakXXI asr insoniyat rivojlanishining yangi bosqichining boshlanishi bilan belgilanadi. Bu inson jamiyatining rivojlanishidagi eng muhim yo‘nalishlarni belgilab beruvchi, globallashuvning barqaror jarayoni bo‘lib qoldi. Ushbu jarayondan kelib chiqqan holda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar zamonaviy dunyo qiyofasini sezilarli darajada o‘zgartirib, yer yuzidagi deyarli barcha odamlarning hayotiy faoliyatiga ta’sir ko‘rsatdi. Globallashuvdan kelib chiqqan turli aloqalarni kengaytirish, turizmning o‘sishi, chet elda ta’lim olish imkoniyati, turli talabalarning fikr almashinuvi, xorijiy amaliyotlar va boshqa ko‘plab hodisalar va faktlar madaniyatlararo muloqot va o‘zaro hamkorlik muammolarini dolzarblashtirdi. Bu jarayon bizning mamlakatimizni ham chetlab o‘tmadi. O‘zbeklar tobora xalqaro siyosiy, iqtisodiy tashkilotlar, xalqaro tadbirlarda ishtirok etmoqdalar, ko‘p millatli kompaniyalar faoliyati, ayrim talabalar chet elda ta’lim olmoqdalar hamda o‘zbek sayyohlari butun dunyo bo‘ylab sayohat qilishmoqda.Turli mamlakatlar vakillari bilan muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun nafaqat tegishli tilni, balki chet el madaniyati qoidalarini ham bilish kerak: xulq-atvor, psixologiya, madaniyat, boshqa mamlakatlar tarixi va eng muhimi, boshqa madaniyat vakillarini noto‘g‘ri tushunishdan qochish uchun aloqa mexanizmini tushunish kerak. Bizning ishimiz mavzusining dolzarbligi bugungi kunda dunyoda dolzarbligi keskin oshayotgan aloqa. Madaniyatlararo muloqot- turli madaniyat vakillari o‘rtasida amalga oshiriladigan muloqot hisoblanadi. Madaniyatlararo muloqotning samarasi va muvaffaqiyati faqatgina turli madaniyatlar va tillarni biluvchisi bo‘lgan kommunikatorlarning har biri “turlicha” ekanliklari va har biri muqobil ravishda “begona” suhbatdoshlarini anglab yetganda sodir bo‘ladi.Boshqa xalqlar madaniyati bilan tanishish tarjima va tarjimonning professional muloqot sohasidagi eng muhim ijtimoiy vazifalaridan biridir.Til - ijtimoiy hodisa bo‘lib, usiz ijtimoiy faoliyat yo‘q. Tarjima jarayonida xorijiy madaniyat bilan yuzlashamiz. Shu sababdan ham, tarjimada muvaffaqiyatimiz xorijiy madaniyatni qanchalik tushunishimizga bog‘liq, zero tarjima madaniyatlararo hodisadir.Madaniy tarjima, shubhasiz, madaniy tarjima atamasini to‘g‘ri tushunish uchun aniqlanishi kerak bo‘lgan madaniyat tushunchasini anglatadi. Madaniyat ikki xil ma’noga ega: birinchisi madaniyatni rivojlangan davlatdagi sivilizatsiyalashgan jamiyat deb ta’riflasa, ikkinchisi madaniyatni odamlarning xulq-atvori va turmush tarzi yig‘indisi deb qaraydi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, madaniyat tarjimada muhim rol va ahamiyatga ega. Katanning fikriga ko‘ra, madaniyat — bu dunyoning umumiy modeli, odamlarning harakatlari va munosabatlariga rahbarlik qila oladigan e’tiqodlar, qadriyatlar va strategiyalarning ierarxik modeli. Madaniyatni turli yo‘llar bilan, masalan, ta’lim orqali olish mumkin. Sivilizatsiya atamasi odamlar tufayli o‘z madaniyatini yaratishga muvaffaq bo‘lgan rivojlangan insoniyat jamiyati sifatida ta’riflanadi. Ushbu konsepsiyaga ko‘ra, tarjimon madaniy rivojlanish masalasini hal qilgan holda matnni tarjima qilishi mumkin. Bu holda Nyumark tarjimaning madaniy qadriyatga ega ekanligiga, ya’ni tarjima butun dunyo madaniyatlari rivojiga hissa qo‘shishiga ishonch hosil qiladi. Sivilizatsiya alifbo, lug‘atlar kabi ochiq muloqot usullarini yaratishga, tillar va adabiyotlarning ulkan rivojlanishiga olib kelsa-da, bu jarayon madaniy tarjima sohasida yangi savollarni tug‘diradi.

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

Madaniyat mafkuraviy jihatdan mamlakat jamiyati va siyosatiga juda katta ta’sir ko‘rsatadi. Even-Zohar, Susan Bassnett va Trivedi kabi ba’zi tarjimon olimlariga ko‘ra, madaniyat ham hokimiyatga bo‘lgan ishtiyoq va odamlarning bu kuchga qanday da’vo qilishlari bilan bog‘liq. Shu ma’noda tarjima mafkuraviy tizimlarni kitobxonlar uchun moslashtirish bilan shug‘ullanadi. Shunday qilib, tarjimada madaniy o‘ziga xoslikning o‘tkazilishi axloq bilan bog‘liq bo‘lib, yangi fikrlash tarzini tushuntiradi. Bunday tarjima tarjima qilingan matnlar orqali kontekst va shaxsiy fikrlash tarzini ko‘rsatishi kerak.

XULOSA: Tarjima qilishdagi eng qiyin muammolardan biri buyumlar yoki voqea-hodisalarning leksik ekvivalentligini topishdir. Tarjima faqat ikki tildagina emas, balki ikki madaniyatni taqqoslaydi. Shunday qilib,madaniyatlarning farqi tufayli tarjima qilinadigan tildagi tushunchalarda tarjima qilinayotgan tilda leksik ekvivalent bo‘lmasligi mumkin. Bu geografiya, urf-odatlar, e’tiqodlar, dunyoqarashlar va boshqalaming turlichaligi tufayli bolishi mumkin. Tarjimon tushunchalarni ifodalash uchun tarjima tilida yangi yo‘l va usullarni topishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI:

1. Achilov O. Ilgari surish vositalarining umumiy va o’ziga xos xususiyatlari, kognetiv-semantik aspekti.
2. Orakbaevna K. D. Mamlakatimizda chet tillarini o’rganishdagi zamonaviy metod va metodoliya.
3. Achilov O. Hozirgi zamon tilshunosligida ilgari surish hodisasini talqin etishning nazariy asoslari.
4. Orakhbaeva K.D. Glaballashuv davrida ta’lim va tarbiyaning uzviyligi.
5. Achilov O. Badiiy matnlarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigantransformatsiya va ularning qiyosiy tahlili.

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

EFIR MOYLI (KASHNICH, ARPABODIYON VA QORA ZIRA) O'SIMLIKLARNING AHAMIYATLI JIHATLARI XUSUSIDA

Amonova G. R.
Osiyo Xalqaro universiteti, o'qituvchisi,
Buxoro, O'zbekiston

Annotatsiya: *Maqolada efir moyli (Kashnich, Arpabodiyon va Qora zira) o'simliklarning foydali xususiyatlari, ularning tarkibidagi moddalar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Ayniqsa, dorivorlik xususiyatlari va kasalliklarni davolashdagi o'rni bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Texnik moy, linalol, prometrin, liker, spirt, namsevar, atenol, mentol, yevgenol yorug'sevar.*

Alohida ta'kidlash joizki, tabiiy holda o'suvchi dorivor o'simliklar zaxiralarining chegaralanganligi tufayli kelgusida farmatsevtika sanoati korxonalarning dorivor o'simliklar xom-ashyosiga bo'lgan talabini qondirish, asosan, dorivor o'simliklar yetishtirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Mustaqillikning dastlabki yillaridan (1992 y) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori bilan hozirgi vaqtda mamlakatimizda dorivor o'simliklar o'stirish bilan shug'ullanuvchi "Shifobaxsh" IIChM tashkil etilib, uning tarkibida8 ta ixtisoslashgan xo'jaliklar tashkil qilingan. Bundan tashqari ko'plab o'rmon xo'jaligi tizimida, fermer va boshqa mulkchilik shaklidagi xo'jaliklarda ham dorivor o'simliklarni yetishtirish va ularni xom-ashyosini birlamchi qayta ishlash yo'lga qo'yilgan. Hozirgi paytda Respublikamizda yiliga o'rtacha 850 tonna dorivor o'simliklar xom-ashyosi tayyorlanmoqda, uning 51% dorivor preparatlar ishlab chiqarish uchun, 42 % oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish uchun va 7% texnik xom-ashyo olish uchun ishlatiladi.

Efir moyli ekinlar — efir moylari olish uchun yetishtiriladigan ekinlar guruhi; texnika ekinlari. Ayrim organlari (guli, urug'i, mevasi, poyasi, ildizpoyasi, bargi va boshqalar) yoki tanasida efir moylari (xushbo'y moddalar) to'playdi. Efir moyli ekinlarining daraxt, buta va bir va ko'p yillik o'tlar turlari bor. Ular tropik, subtropik mintaqalarda ko'p tarqalgan, mo'tadil iqlimli hududlarda ham ekiladi. O'zbekistonda efir moyli o'simliklarning 50 oilaga kiruvchi 233 turi mavjud, lekin ayrimlari (arpabodiyon, jambil, kashnich, qora zira, yalpiz va boshqalar) maxsus ekiladi. Efir moyli ekinlarining ba'zi turlarining mevasi va bargi tarkibida 1,5% dan 6—7% va undan ortiq efir moyi (*atenol, mentol, yevgenol* va boshqalar), shuningdek, 11—27% texnik moy bor. Jahon dehqonchiligida Efir moyli ekinlaridan atirgul, yorongul, lavanda, yalpiz asosiy ahamiyatga ega. O'simliklarning xushbo'yligi efir moylarining miqdori, tarkibi va sifatiga bog'liq.

Sistematikasi. Kashnich soyabonguldoshlar Apiaceae oilasiga, Coriandurum sativum L . avlodiga mansub bo'lib, bir yillik o'simlikdir.

Biologiyasi. Kashnich qurg'oqchilikka chidamli, ammo gullash davridagi suvni tanqisligi hosilni kamaytiradi. Urug'i 6 C da unib chiqadi, maysa -10 C sovuqqa chidamaydi. O'sish davrining dastlabki kunlarida sekin o'sib, begona o'tlardan shikastlanadi. O'simlikda 7-9 ta barg rivojlangandan so'ng tez o'sa boshlaydi. O'sish davri 90-100 kun. Tuproq unumdorligiga talabchan.

Ahamiyati. Kashnich efir moyli ekinlarga kiradi. Mevasining tarkibida 1,4-2,1% efir va 11-27% *texnik moyi* bo'ladi. Moyi tarakibida 60-70% *linalol* spirti, kunjarasida 18-20% moy qoladi, u matbaachilikda va to'qimachilik sanoatida ishlatiladi. Kashnich guli asalchil bo'lib, ko'kati va urug'i zirovar sifatida oziq-ovqatda ishlatiladi. Ko'pincha pishirishda ishlatiladigan Ekma kashnich urug'lari kori kukunlarida ishlatiladi, bu yerda ular eng katta komponent bo'lib, ko'pincha Hindistonda maydalangan tuzilishga ega. Urug'larni sho'rvalarda ham ishlatish mumkin. Ekma kashnich ziravorlar va pudinglarni marinadlashning tarkibiy qismi bo'lib, ko'k, non va boshqa pishirilgan mahsulotlarda ham qo'llaniladi. Dorivor maqsadlarda Ekma kashnich ovqat hazm qilish kasalliklarini davolashda qimmatli o'simlik hisoblanadi. Yangi sutga qo'shilgan bir yoki ikki choy qoshiq Ekma kashnich sharbati ovqat hazm qilish, ko'ngil aynishi, dizenteriya, gepatit va yarali kolit uchun juda foydali. Bu tif isitmasida ham foydalidir. Quruq Ekma kashnichdiareya va surunkali dizenteriyani davolaydi, shuningdek, yuqori kislotalilik uchun ham foydalidir. Quritilgan Ekma kashnich, yashil chili, maydalangan hindiston yong'og'i, zanjabil va urug'siz qora uzum-oshqozon og'rig'iga davo. Ekma kashnichni muntazam iste'mol qilish qondagi xolesterin darajasini pasaytirishga yordam beradi va buyraklarni yaxshilaydi. Ekma kashnich urug'lari ortiqcha hayz ko'rishni to'xtatadi. Urug' yog'i oziq-ovqat aromati sifatida, parfyumeriya, sovun ishlab chiqarish va hokazolarda ishlatiladi. Bundan tashqari, u fungitsid va bakteritsid xususiyatlarga ega. O'sayotgan o'simlik shira va Ekma kashnich barglari ekstrakti junli shiralarga qarshi juda samarali(G. Lal, Parmeshwar Lal Saranva boshqalar, 2014)

Yetishtirish texnologiyasi. *O'tmishdosh*. Kashnich uchun yaxshi o'tmishdosh kuzgi don ekinlari, dukkakli-don ekinlari, makkajo'xori, kartoshka. Bir ekilgan yerga 4-5 yildan keyin qayta ekish mumkin. Kashnichdan bo'shagan yerlarga kuzgi va bahorgi ekinlar ekiladi.

Arpabodiyon-(Pimpinella Anisum)

Sistematikasi. Arpabodiyon- (Pimpinella Anisum) soyabonguldoshlar Apiaceae oilasiga, Anisum vulgare Caertn avlodi va turiga mansub bo'lgan bir yillik o'simlik. Arpabodiyon keng tarqalgan o'simlik, 1000 ta mevasining vazni 3,5-4,0 g bo'ladi. O'sish davri 120-130 kun, hosildorligi-bir gektardan 0,5-1,5 t urug' olingan.

Kimyoviy tarkibi. Mevasi tarkibida 1.2-3.2 foiz efir moyi, 8-28.4foiz moy, oqsil, shakar, shilimshiq moddalar va 10 foizgacha mineral tuzlar bor. Bundan tashqari 80-90 foiz styereopten-anetol, 10 foiz metilxavikol, anis aldegidi va ketoni, kislotasi, kumarinlar; skopoletin, umbelliprenin va boshqalar bor. XIDF ga ko'ra meva tarkibida 1.5 efir moyi bo'lishi kerak.Efir moyi maydalangan va pishgan mevalardan suv bug'i yordamida haydab olinadi va suvdan ajratilib, suv bug'i bilan yana bir marta haydab, tozalanadi. Toza efir moyi 15 gradusda oq kristall shaklda qotadi va 20 gradusda eriy boshlaydi. Efir moyi rangsiz yoki och sarg'ish suyuqlik bo'lib, o'ziga xos hidi va shirinroq mazasi bor. Zichligi 0,979-0,991, refraksiya soni 1,552-1,560; qutblangan nur tekisligini og'dirish burchagi -2-0

Ahamiyati. Mevasida 1,5-3,5% efir moyi bo'ladi, tarkibida 80% gacha atsetol spirti bo'ladi. Moyi tabobatda, liker, spirt va qandolatchilik sanoatida ishlatiladi. Urug'ida 16-20% texnik moyi ham bo'ladi, u sovun qaynatishda qo'llanadi. Kunjarasi yuqori to'yimli ozuqa hisoblanadi. Arpabodiyon asal beruvchi o'simlik. Arpabodiyon mevasi preparatlari va moyi tibbiyotda bronxit kasalligida balg'am ko'chiruvchi, ichak faoliyatini yaxshilovchi, el haydovchi dori sifatida hamda farmatsevtikada dorilar mazasini yaxshilash uchun ishlatiladi. Arpabodiyon urug'idan olingan moy sovun pishirishda keng qo'llaniladi. Mevasi va efir moyi oziq-ovqat sanoatida, anetol esa parfyumeriyada ishlatiladi. Tibbiyotda mevasi va efir moyi ishlatiladi. Arpabodiyon mevasi preparatlari va moyi tibbiyotda bronxit kasalligida balg'am ko'chiruvchi, ichak faoliyatini yaxshilovchi, yel haydovchi vosita sifatida ishlatiladi. Arpabodiyon urug'idan olingan moy sovun pishirishda keng qo'llaniladi. Mevasi va moyi oziq-ovqat sanoatida, efir moyi esa atir-upa, sanoatida ishlatiladi. Arpabodiyon-bu urug'larning o'ziga

xos ta'mi tufayli ziravor sifatida gastronomiyada ishlatiladigan aromatik o'simlik. Darhaqiqat, bu qo'shimcha souslar, go'sht va baliqlarni, shuningdek pirojnoe va boshqa qandolat mahsulotlarini kiyintirish uchun quruq va maydalangan holda ishlatiladi. Boshqa tomondan, bargiar va novdalar aromatik o'tlar sifatida, lampochka esa retseptlarga o'ziga xos lazzat beradigan sabzavot sifatida ishlatiladi. Ba'zi mintaqalarda piyoz va lampochka qizilmiya lazzatiga ega ichimlik yoki likyor tayyorlash uchun xom ashyo hisoblanadi. Quritilgan barglarning konsentrlangan infuzioni bilan bosh terisining ishqalanishi sochni mustahkamlaydi va sochlarning yo'qolishini oldini oladi. Og'izdan chiqqan hid yoki halitoz bilan bog'liq muammolar ovqatni iste'mol qilgandan keyin arpabodiyon urug'ini chaynash orqali tarqaladi. Arpabodiyon urug'idan olinadigan efir moyi terapevtik xususiyatlari tufayli muqobil tibbiyotda keng qo'llaniladi. Altsgeymerni terapevtik davolash uchun peshonani va orqani arpabodiyon moyi bilan surtish tavsiya etiladi. Nozik to'qimalardan olingan sharbat kon yunktivit, uslublar yoki glaukomalar tufayli charchagan va timash xususiyati beruvchi ko'zlarni yo'qotish uchun ishlatiladi. Xuddi shu tarzda, urug'larni tayyorlashni filtrlash kuniga bir necha marta ko'zlarni yuvish orqali shunga o'xshash natijalar bilan qo'llaniladi. Qorin ustiga qo'yilgan qaynatilgan va ezilgan barglardan yasalgan qoraqarag'ay qorinda og'riq qoldiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Boshqa tomondan, bir litr suvning kaynatilishini hammom suvida 50 grammmevalar bilan suyultirish organizmga taskin beruvchi ta'sir ko'rsatadi.

QORA ZIRA- *Carum carvi.*

Sistematikasi. Qora zira soyabonguldoshlar Apiaceae oilasiga, *Carum carvi*

L. avlodiga mansub ikki yillik o’simlikdir. Birinchi yili o’q ildizi va barg dastasi rivojlanadi, ikkinchi yili meva hosil qiladi. Gul to’plami soyabon, mevasida 2 ta urug’ bo’ladi, 1000 ta mevasining vazni 2,3-2,5 g, mevaning tarkibida 4-7% moy bo’ladi.

Biologiyasi. Issiqlikka talabchan emas, sovuqqa chidamli. Birinchi yili barg dastasi davrida qishlaydi, Namsevar va yorug’sevar o’simlik.

Yetishtirish texnologiyasi. O’tmishdosh. Qora zira uchun o’tmishdosh: toza va band shudgor, bir yillik o’tlar, silosbop ekinlar, sabzavot va don ekinlari.

Ahamiyati. Mevaning tarkibida 4-7% moy bo’ladi. Uning tarkibiga uglevod kiradi, u liker ishlab chiqarishda va parfyumeriyada qo’llanadi. Bundan tashqari urugida 14-16% texnik moy bo’ladi. Urug’i ziravor sifatida konserva ishlab chiqarishda va non yopishda qo’llanadi. Yaxshi asal beruvchi o’simlik. Xalq tabobatida ziraning foydalari haqida buyuk bobokalonimiz Ibn Sino shunday degan: “Unda qizdiruvchi kuch bo‘lib, yellarni haydaydi va tarqatadi. Suv bilan aralashtirilganini ichilsa, nafas olish qiyinlashganda yordam beradi. Jolinusning aytishicha, “tikka nafas olishga”, hamda sovuqdan bo‘lgan xafaqonga foyda qiladi. Shuningdek, ziraning oshqozon gastriti, sariq kasal, ishtahani ochishda, uyqusizlikda, kishilar quvvatini oshirishda juda ham katta foydasi bor.

Hozirgi zamon shifokorlari ham zira haqida ijobiy baho berib, haddan tashqari to‘lalikda, meteorizm (qorin dam bo‘lishi)da, oshqozon-ichak yo‘llaridagi yengil xastaliklarda, yurak kasalliklarida va emizikli bolalarda ovqat hazm qilish jarayoni buzilganida onasi zirani muayyan tarzda iste’mol qilish nihoyatda foydali ekanini ta’kidlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Mustafoyev.S.M. Botanika Toshkent, 2002.
2. G'.H. Hamidov, M.X Akbarova, M.A. Davidov, M.R.Holiqulov "O'zbekiston asalli o'simliklari va asalarichilikning rivojlanish istiqbollari" - Farg'ona 2019.

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

3. Meliboyev S., Isroilov Z., Abdunazarov., Tursunova Sh. “O’zbekiston florasida uchraydigan dorivor o’simliklar” // Farg’ona nashiryoti 2018 yil.
4. Atabayeva X.N , Xudoyqulov J.B. "O'simlikshunoslik" Toshkent "Fan va texnologiya "nashriyoti 2018-y.
5. Artukmetov Z. A. "Qishloq xo'jaligi asoslari". Toshkent 2012-y.
6. Oripov O.R, Xalilov X.N." O'simlikshunoslik " Toshkent "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati " nashriyoti. 2007-y.
7. " O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" 1-jild Toshkent 2000-2005 y.
8. Yormatova D.Xushvaqtova. H. Ergasheva.H."O'simlikshunoslik" Toshkent. "Ilm-Ziyo" 2016.
9. Tuyg’unovna, Sh.S.(2024). Tarkibida efir moylar bo’lgan dorivor o’simliklar.Ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali 4(3), 164-167.

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI
ONLAYN ILMIY JURNALI


Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

BENTONIT LOYLARNING SORBSION QOBILIYATI

Rashitova Shahnoza Shuhrat qizi
Osiyo Xalqaro Universiteti kimyo fani o'qituvchisi 100000, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro sh., Gijduvan 74. Osiyo Xalqaro Universiteti

Montmorillonitlar kation almashinish sig'imining asosiy qismi panjaradagi izomorf almashinishi bilan tushuntiriladi va ular pH muhit o'zgarishiga bog'liq emas, ammo montmorillonit zarrachalaridagi gidroksil gruppalar mavjud bo'lganida pHga bog'liqligi ko'rsatib o'tilgan. Alyumosilikatlar yuzasida metall ionlar adsorbsiyasi asosan uch xil shaklda bo'ladi: ichki sfera komplekslari shaklida, tashqi sfera komleksi va diffuziya qatlamida

1-rasmda adsorbsiya o'tadigan qatlamli silikatlar yuzasidagi aktiv markazlarning turlari ko'psatilgan.



1-rasm. Montmorillonit yuzalarining turlari

Manfiy zaryadga ega bo'lgan ayrim qatlamlar yuzalari almashinadigan kationlar asosiy massasiga javobgar bo'ladi. Bazal yuzalarda kislorod anionlari va gidroksil gruppalapi joylashgan. Qirralar yuzasida kompensatsiyalanmagan elektrovalent bog'lap mavjud va yana turli zaryadlangan kationlar va anionlar adsorbsion markazlar-Si, Al, O, Mg, OH, atomlari va gpurralari bo'lib asosan musbat zaryadga ega (1-chi turdagi yuza)

Ma'lumki, bentonit va kaolin minerallaridagi adsorbsiya jarayonlari ion almashinish, elektrostatik o'zoro ta'sir, komplekslanish jarayonlari, solvat qatlamlari, pH muhiti, oddiy va kompleks ionlarga aylanishi xususiyati ularning eritmada zaryadlangan seolit yuzasi bilan elektrostatik ta'sirlashish

qobiliyatiga ta’sir etadi . Shu bilan birga, bentonit zarrachalari suvda gidratlanishi natijasida ular yuzasida qo‘sh elektr qavat hosil bo‘ladi .

Giltuproqli minerallar tuzilishining kristallokimyoviy o‘ziga xosligi sababli epitma pHi o‘zgarganda loy zarrachalarining yon qismi qayta zaryadlanadi. Bu oktaedrik to‘r yon qirra amfoter xususiyatlari bilan tushuntiriladi uning xossalari ammoniy gidroksidga o‘xshaydi. Ishqoriy muhitda oktaedrik to‘p qirrasi kislotali mexanizm bo‘yicha dissotsilanadi;

$Al(OH)_3 \leftrightarrow (AlOH)_2O^- + H^+$

kislotali muhitda esa ishqoriy mexanizm bo‘yicha boradi:

$Al(OH)_3 \leftrightarrow Al(OH)_2^+ + OH^-$

Buning natijasida loy zarrachasining yon qirrasi ishqoriy muhitda manfiy zaryadlanadi, neytral va kislotali muhitlarda esa o‘zgaruvchan zaryadli qo‘sh elektr qavat hosil bo‘ladi. Montmorillonitning adsorbsiyalanish xususiyatini yuqoriligi ion almashinishi nafaqat tashqi yuzasida amalga oshadi, balki kristallik panjapa ichida xam yutilishi bilan tushuntiriladi. Giltuproq minerallari ifloslangan oqava suvlarni tozalash mexanizmi ancha murakkab xamda turli kimyoiy bog‘lanishlar: vodopod bog‘lanish, qutbli kovalent bog‘lanish, ion bog‘lanish va Van-der-Vaals kuchlari bilan tushuntiriladi.

Tabiiy minerallarning asosiy qismi ionitlar xossalariga ega, bitta asosiy prinsip asosida tuzilgan – ularda ortiqcha zaryadga ega qarshi ionlap bor. Montmorillanit gruppasidagi minerallar g‘ovak qatlamli strukturali alyumosilikatorlar qatoriga kirib interlaminar bo‘kish xususiyatiga ega. Ulardagi qarshi ionlar qatlamaro sohada joylashib kation almanishinuvi sodir bo‘lishi mumkin. Hamda alyumosilikatlar bo‘lgan montmorillonitlar anionitlarda ta’sir etishi mumkin; bunda gidpoksil gruppalar anionlarga almanishinadi. Giltuproqlarda og‘ip metallarning sorbsiyasi ion almashinish va mineral yuzasidagi gidroksil gruppalari bilan xelat komplekslar hosil qilish bilan sodir bo‘ladi. Tabiiy mineral tarkibi o‘zgarganda sorbsion o‘tish mexanizmi ham o‘zgarishi mumkin. Ca2+-montmopillonitli loyda sorbsiya jarayoni ion almashinishi mexanizmi bo‘yicha o‘tadi va natijada kalsiy, natriy va magniy ionlari ekvivalent miqdorda og‘ir metallar ionlarga almashinadi

Ion padiusi oshgan sapi uning gidpatatsiya dapajasi kamayadi va uning almashinish kompleksining adsorbsion qatlamiga kirish engillashadi. Ion radiusi oshgan sari gidratatsiya darajasi kamayadi va uninig almashinish sorbsiyasi bo‘lib, unda biron ionning yutilishi albatta seolitdan o‘tadigan zaryadli ion ekvivalent miqdorda chiqib ketishiga bog‘liq

Tashqi sferali sorbsiyaning asosiy yutuvchi kuchi bo‘lib qarama-qarshi zaryadlarning tortilishi (ehtimol vodorod bog‘lanishda protonlar donori bo‘ladigan gidroksillar yoki yuzadagi suv molekulalapi ishtirokida) xizmat qiladi [48].

Yuza gidroksil gruppalari Al-OH va Si-OH tashqi yuzada Al-O-Al, MgO-Si va Si-O-Si strukturalarining tuzilishidan hosil bo‘ladi va montmorillonit plastinkasimon zarrachalarining qirra va qovupg‘alarida joylashadi .

Shunday qilib, anionlar uchun musbat zaryadlangan markazlarning selektivligi kationlar uchun manfiy zaryadlangan markazlarga qaraganda ancha yuqori. Bu ushbu markazlarning o‘ziga xos xususiyati va ularning past darajadagi gidratsiyasi bilan bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rashitova, S. (2023). USE OF INTERACTIVE METHODS IN CHEMISTRY. International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research, 3(10), 115-119.

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

2. Rashitova, S. (2023). BENTONIT GIL KUKUNINI SORBSION XOSSASINI KIMYOVIY USULDA FAOLASHTIRISH. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(10Part 3), 98-102.
3. Shukhrat, R. S. (2023). PROCUREMENT OF SORBENTS WITH HIGH SORPTION
4. PROPERTIES AND WASTEWATER TREATMENT ON THEIR BASIS. EUROPEAN
5. JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE, 3(12), 75-76.
6. Рашитова, Ш. (2023). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АКТИВИРОВАННОГО СОРБЕНТА ДЛЯ ОЧИСТКИ СТОЧНЫХ ВОД. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(12), 135-140.
7. Рашитова Ш.Ш. (2023). ПРИМЕНЕНИЕ АКТИВИРОВАННОГО СОРБЕНТА ДЛЯ ОЧИСТКИ СТОЧНЫХ ВОД . Новости образования: исследование в XXI веке, 2(16), 656–672.ELEMENTLARINI O’RGANISH.TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMI
8. Rashitova Shahnoza Shuhrat qizi. (2024). KOLLOID ERITMALARNING TIBBIYOTDA TUTGAN O’RNI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 39(3), 187–192. Retrieved from
9. Rashitova Shahnoza Shuhrat qizi, NITROFURAL MOLEKULASINING NITROREDUKTAZA FERMENTI BILAN MOLEKULYAR DOKINGI , TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI: Vol. 4 No. 4 (2024): ТАЪЛИМ ВА РИВОЖЛАНИШ ТАҲЛИЛИ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ
10. Rashitova Shahnoza Shuhrat qizi. (2024). “NOORGANIK BIRIKMALARNING MUHIM SINFLARI” MAVZUSINI O’QITISHDA TEXNOLOGIK USULLARDAN FOYDALANISH . ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 38(7), 95–101.
11. Rashitova Shahnoza Shuhrat qizi. (2024). BUFER SISTEMALARNING VA ULARNING TURLARINI INSON ORGANIZMGA TA’SIRINI O’RGANISH . ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 38(7), 87–94.

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

ABDURAUF FITRATNING JADIDCHILIK HARAKATIDAGI ROLI VA UNING MILLIY UYG‘ONISHGA QO‘SHGAN HISSASI

Keldiyeva Shaxnoza
Andijon Pedagogika Instituti o`qituvchisi

Madolimova Rayxonoy
Andijon Pedagogika Instituti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Abdurauf Fitratning jadidchilik harakatidagi o‘rni va uning milliy uyg‘onish davriga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Fitratning ta’lim islohotlari, adabiy va ilmiy merosi, diniy islohotlarga oid qarashlari va milliy ongni shakllantirish yo‘lidagi sa’y-harakatlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Fitratning faoliyati jamiyatni modernizatsiya qilish va milliy o‘zlikni anglash jarayonida muhim ahamiyat kasb etgan.*

Kalit so‘zlar: *Abdurauf Fitrat, jadidchilik, milliy uyg‘onish, ta’lim islohoti, milliy ong, adabiyot.*

Kirish

Abdurauf Fitrat va Jadidchilik Harakatiga Qo‘shgan Hissasi

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda milliy uyg‘onish jarayoni keskin rivojlanib, jadidchilik harakati paydo bo‘ldi. Ushbu harakat jamiyatni qoloqlikdan qutqarish, taraqqiyotga yo‘naltirish va ilm-ma’rifatni keng yoyish maqsadida amalga oshirildi. Jadidchilikning yetakchi namoyandalaridan biri, shubhasiz, Abdurauf Fitrat edi. U o‘zining ijodiy, ilmiy va ijtimoiy faoliyati orqali millatning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan.

Fitrat jadidchilik harakatining asosiy g‘oyalarini ilgari surgan va jamiyatni zamonaviylashtirish yo‘lida ko‘plab islohotlarni amalga oshirgan. U ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, milliy madaniyatni rivojlantirish, adabiyot va ilm-fanni keng targ‘ib qilish orqali o‘z davrida ko‘plab o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Fitratning asarlari va faoliyati, ayniqsa, milliy tilni rivojlantirish, ma’rifatparvarlikni kuchaytirish va diniy islohotlar borasidagi yangi qarashlar orqali jamiyatni yangilashga qaratilgan edi..

Asosiy qism.

Ushbu maqolada Abdurauf Fitratning jadidchilik harakatidagi ahamiyati, uning ta’lim sohasidagi islohotlari, adabiyotdagi innovatsiyalari, ilmiy ishlari va milliy uyg‘onish jarayoniga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Fitratning ilm-fan va ma’rifatga bo‘lgan e’tibori, o‘z zamonining ilg‘or fikrlaridan biriga aylanishi, uning bugungi kundagi O‘zbekiston ma’rifat va madaniyatini rivojlantirishdagi o‘rni bilan ham aloqadordir.

Abdurauf Fitratning Jadidchilik Harakatidagi Asosiy Faoliyati

Abdurauf Fitrat Markaziy Osiyoda milliy uyg‘onish davrida jadidchilik harakatining yirik figuralaridan biri sifatida tanilgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida u musulmon jamiyatlarining modernizatsiyasiga hissa qo‘shdi. Quyida Fitratning jadidchilik harakatidagi asarlarini va faoliyatini ko‘rib chiqamiz.

1. Ta’lim Islohotlari va Ma’rifiy Faoliyat: Fitrat ta’limni zamonaviylashtirishni o‘z faoliyatining asosiy yo‘nalishi deb bilgan. U yangi usuldagi maktablarni rivojlantirish va ta’lim dasturlarini o‘zgartirishga katta e’tibor bergan. Fitratning “Maktab bolalari uchun dastur” kabi asarlari zamonaviy pedagogika prinsiplari asosida ishlab chiqilgan.

2. Adabiyot va Dramaturgiya: Fitrat, adabiyot va drama janrida milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish va ijtimoiy adolatni o‘rnatish uchun o‘z asarlarini yozgan. “Qiyomat” va “Abulfayzxon” dramalari xalqni ijtimoiy tenglik va adolat uchun kurashishga chaqirdi.

3. Milliy Til va Madaniyatni Rivojlantirish: Fitratning eng muhim hissalaridan biri milliy tilni rivojlantirish bo‘ldi. Uning “O‘zbek tili grammatikasi” asari ona tilini ilmiy asosda o‘rganishga undagan. Shuningdek, Fitrat o‘zbek xalqining tarixiy merosini o‘rganish va uni yangi avlodga yetkazish bo‘yicha faoliyat olib borgan.

4. Din va Islohotlar: Fitrat diniy islohotlarni jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismi deb hisoblagan. U diniy qarashlarga yangicha, zamonaviy yondashuvlarni ilgari surdi. Fitratning diniy islohotlarga oid g‘oyalari, jamiyatni ilg‘or, ilmiy va axloqiy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan edi.

Xulosa.

Abdurauf Fitratning jadidchilik harakatidagi o‘rni va uning milliy uyg‘onish jarayoniga qo‘shgan hissasi katta ahamiyatga ega. U jamiyatni rivojlantirishda ma’rifat, ta’lim va adabiyot kabi vositalarni kuchli manba sifatida ko‘rgan. Fitratning yangi usuldagi maktablarni targ‘ib qilishi, milliy tilni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy ishlari va xalqni zamonaviy fikrlar bilan tanishtirgan asarlari millatni orqaga qaytishga qarshi kurashda muhim rol o‘ynagan.

Fitratning ijodiy faoliyati va amalga oshirgan islohotlari jadidchilik harakatining asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi. U milliy madaniyatni boyitish, tarixiy o‘zlikni anglash va ijtimoiy ongni rivojlantirishga katta hissa qo‘shdi. Shuningdek, uning diniy islohotlar borasidagi yondashuvlari islomni zamonaviylik bilan uyg‘unlashtirib, jamiyatning ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga xizmat qilgan.

Fitratning merosi bugungi kunda ham ahamiyatini yo‘qotmagan. Uning g‘oyalari zamonaviy O‘zbekistonning ma’rifat, milliy o‘zlik va madaniyatni rivojlantirish yo‘lida ilhom manbai bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bois, Fitratni nafaqat jadidchilik harakatining etakchi vakili, balki milliy uyg‘onish davrining buyuk shaxsiyati sifatida tan olish zarur.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro‘yxati

1. Abdurauf Fitrat. "O‘zbek tili grammatikasi". Toshkent: Fan nashriyoti, 1923.
2. Fitrat, Abdurauf. "Hind sayohati". Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1926.
3. Boltaev, M. "Jadidchilik harakati tarixi". Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti, 1999.
4. Vohidov, A. "O‘zbek adabiyoti tarixi". Toshkent: Sharq nashriyoti, 2005.
5. Azimov, Sh. "Milliy uyg‘onish davri va jadidchilik". Toshkent: Ma’naviyat, 2007.
6. Alimova, D. "O‘zbek jadidchiligi: tarixiy-siyosiy tahlil". Toshkent: Universitet nashriyoti, 2010.
7. Karomatov, M. "Fitratning ijtimoiy-falsafiy qarashlari". Toshkent: Fan, 2008.
8. Aminov, M. "Jadidchilik va o‘zbek milliy uyg‘onish harakati". Toshkent: Akademnashr, 2012.
9. Vanosselaer, E. "Jadidism and Modernization in Central Asia". Leiden: Brill, 2017.
10. Khalid, A. "The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia". Berkeley: University of California Press, 1998.

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

HALIMA XUDAYBERDIYEVA SHE`RIYATI STRUKTURASI HAMDA INDIVIDUALLIK

Xamidova Dinora Muhammadi qizi
SamDu, Adabiyotshunoslik fakulteti magistranti

Annotatsiya: *Halima Xudayberdiyevaning she'riyati o'ziga xos struktura va individual badiiy uslub bilan ajralib turadi. Uning asarlarida milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, tabiat go'zalligi, insoniy his-tuyg'ular va ayollik mavzulari chuqur poetik tasvir bilan namoyon bo'ladi. Shoiraning she'rlarida metaforalar, ramzlar va ruhiy kechinmalarning nozik tasviri uning individual ijodiy uslubini shakllantirgan. H.Xudayberdiyevaning poeziyasi milliy adabiyotning boy madaniy-tarixiy an'analariga asoslanib, zamonaviy talqin va ijodiy yangilik bilan boyitilgan. Uning she'riyati nafaqat shakl va mazmun uyg'unligi, balki inson qalbidagi kechinmalarni poetik obrazlar orqali ochib berishda ham o'ziga xoslik kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *Halima Xudayberdiyeva, she'riyat struktura, badiiy individualism, poetika, milliy qadriyatlar, metaforalar va ramzlar, ayollik mavzusi, ruhiy kechinmalar, o'zbek poeziyasi, zamonaviy talqin.*

Halima Xudayberdiyeva o'zbek adabiyotining yorqin shoiralaridan biri bo'lib, uning ijodiy merosi o'ziga xos badiiy strukturasi va individual uslubi bilan ajralib turadi. Uning she'riyati mazmun va shakl uyg'unligi, milliy ruh, chuqur falsafiylik hamda zamonaviylikni o'zida mujassam etgan. Shoira o'z ijodida milliy qadriyatlar, insoniy tuyg'ular, hayot falsafasi, tabiat go'zalligi va ayollik mavzularini yuksak badiiy darajada tasvirlaydi.

Halima Xudayberdiyeva she'riyatining strukturasini tahlil qilar ekanmiz, uning asarlarida uchraydigan o'ziga xos xususiyatlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. **Shakl va mazmun uyg'unligi**: Shoiraning she'rlari ritmik tuzilishi va ohangdorligi bilan ajralib turadi. Har bir satrda kuchli hissiy ta'sirni uyg'otuvchi tuyg'ular mujassam etilgan bo'lib, ular insonning ichki dunyosi bilan uyg'unlashadi.
2. **Ramz va metaforalardan foydalanish**: Halima Xudayberdiyeva she'riyatida ramziy ifodalar muhim o'rin tutadi. Tabiat manzaralari, mavsumlar almashuvi, quyosh, oy kabi obrazlar orqali inson hayotining falsafiy mazmuni ochib beriladi. Masalan, "Bahor kelar, yurtimda g'uncha ochilar..." kabi satrlar tabiatning uyg'onishini inson qalbining yangilanishi bilan bog'laydi.
3. **Shaxsiy kechinmalar va milliylik**: Shoira she'rlarida shaxsiy va milliy tuyg'ular mahorat bilan uyg'unlashtirilgan. Milliy qadriyatlar, ota-onaga hurmat, vatanparvarlik uning asarlarining markaziy mavzulari hisoblanadi.

Individuallik. Halima Xudayberdiyevaning she'riyati o'zining individual uslubi bilan ajralib turadi. Shoiraning ijodida quyidagi individual xususiyatlarni ko'rish mumkin:

1. **Ayollik mavzusining chuqur talqini**: Shoira ayolning ichki dunyosini, hissiyotlarini va hayotdagi o'rnini tasvirlashda alohida mahorat ko'rsatadi. Uning she'rlari orqali ayol obrazlari nafaqat uy

bekasi yoki onaning ramzi sifatida, balki kuchli, mustaqil va ruhiy barkamol shaxs sifatida gavdalanadi.

2. **Ijodiy talqin va zamonaviylik**: Halima Xudayberdiyeva o‘z asarlarida milliy an’analarni zamonaviy yondashuvlar bilan uyg‘unlashtiradi. Uning she’rlari sodda, ammo ta’sirchan tilda yozilgan bo‘lib, o‘quvchini hayajonlantiradi va chuqur o‘ylantiradi.
3. **Ruhiy kechinmalarni badiiy ifodalash**: Shoiraning ijodida inson qalbidagi ruhiy iztiroblar va quvonchlarni tasvirlash ustuvor o‘rin tutadi. Bu uning she’rlarini chuqur falsafiy ma’no bilan boyitadi.

Halima Xudayberdiyeva she’riyati o‘zining badiiy strukturasi va individual xususiyatlari bilan o‘zbek adabiyotida alohida o‘rin tutadi. Uning she’rlari nafaqat badiiy asar sifatida, balki inson ruhiyatini o‘rganish uchun ma’naviy manba bo‘lib xizmat qiladi. Shoiraning ijodidagi nozik badiiylik va hissiy ifoda o‘quvchini uning she’riyat dunyosiga olib kirib, inson va hayot haqidagi teran falsafiy mulohazalarga undaydi. Halima Xudayberdiyevaning ijodi o‘zbek poeziyasida nafaqat ayol ijodkor sifatida, balki yuksak badiiy darajadagi iste’dod sohibasi sifatida ham alohida e’tirofga loyiqdir.

Halima Xudayberdiyeva – o‘zbek adabiyotining yorqin vakilasi, o‘zining nozik hissiyotlari va teran mazmunga boy she’rlari bilan adabiy olamda alohida o‘rin egallagan shoiradir. U o‘z ijodi orqali milliy qadriyatlarni yuksak badiiy darajada ifodalab, ayol qalbining nafisligini va insoniy his-tuyg‘ularning go‘zalligini poeziyada aks ettirgan.

Halima Xudayberdiyeva 1947-yil 17-mayda Toshkent viloyatining Boyovut tumanida dunyoga kelgan. Shoira bolalikdan kitob o‘qishga, san’at va adabiyotga qiziqqan. U Toshkent davlat universitetining (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti) filologiya fakultetida tahsil olgan.

Ijodiy faoliyati bilan birga, Xudayberdiyeva jurnalistika va muharrirlik faoliyatida ham faol ishtirok etgan. U O‘zbekiston davlat nashriyotida muharrir, “Saodat” jurnalida bosh muharrir bo‘lib ishlagan. Bu jarayonlarda u o‘zbek ayollari hayoti va madaniyati haqida chuqur tahliliy maqolalar yozgan, bu esa uning ijodida ayollik mavzusining keng yoritilishiga sabab bo‘lgan.

Halima Xudayberdiyevaning ijodi o‘zbek adabiyotida ayol qalbi va ichki kechinmalari haqida yozilgan eng go‘zal asarlaridan biridir. U milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, insoniylik va ayollik mavzularini o‘z she’riyati markaziga qo‘yadi. Uning she’rlari sodda, ammo chuqur mazmunli bo‘lib, o‘quvchini hayajonga soladi va ruhiy kechinmalarini uyg‘otadi.

Ijodining asosiy mavzulari:

1. **Ayollik va onalik mavzusi**: Shoiraning she’rlari ayolning ichki dunyosini, hissiyotlarini, oiladagi o‘rnini chuqur aks ettiradi. Onalik, muhabbat va ayolning jamiyatdagi rolini tarannum etadi.
2. **Vatanparvarlik va milliylik**: Uning she’rlari Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarni yuksak darajada ulug‘lash va mustaqillik g‘oyalarini aks ettiradi. Shoiraning “Sen bahor bergan eding...” kabi she’rlari inson qalbida Vatanga bo‘lgan mehrni uyg‘otadi.
3. **Ruhiy kechinmalar**: Halima Xudayberdiyeva inson qalbining nozik kechinmalarini, hayotning falsafiy qirralarini ramziy obrazlar orqali ifoda etadi. Tabiat tasvirlari orqali inson va uning hayotiy sinovlarini poetik shaklda tasvirlash uning ijodida keng o‘rin egallaydi.

Asarlari:

Halima Xudayberdiyevaning bir nechta she’riy to‘plamlari va poeziya kitoblari chop etilgan. Ularning eng mashhurlari:

- **“Chaman”**

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

- **“Ona yurak”**
- **“Baxmal”**
- **“Ayol haqida qo‘shiq”**

Bu to‘plamlarda shoiraning Vatan, muhabbat, insoniylik, oilaviy qadriyatlar va ruhiy kechinmalar haqidagi she’rlari jamlangan. Halima Xudayberdiyeva o‘z ijodiy faoliyati uchun bir qancha davlat mukofotlariga sazovor bo‘lgan. U O‘zbekiston xalq shoiri unvoniga ega bo‘lib, milliy madaniyatni rivojlantirishga qo‘shgan hissasi uchun keng e’tirofga loyiq topilgan. Halima Xudayberdiyeva o‘zbek adabiyotida ayollik, milliylik va insoniy qadriyatlarni badiiy ifodalashda alohida o‘rin tutadi. Uning she’rlari nozik va hissiy bo‘lib, har bir satrda inson qalbining tub mohiyati ochiladi. Shoiraning ijodi o‘zbek adabiyoti xazinasining yorqin sahifalaridan biri bo‘lib, kelajak avlod uchun ilhom manbai bo‘lib qoladi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Xudoyberdiyeva, H. "Ilk muhabbat." Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1968. — Shoiraning ilk she’riy to‘plami.
2. Xudoyberdiyeva, H. "Oq olmalar." Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1973. — Shoiraning ikkinchi she’riy to‘plami.
3. Xudoyberdiyeva, H. "Chaman." Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1974. — Shoiraning uchinchi she’riy to‘plami.
4. Xudoyberdiyeva, H. "Suyanch tog‘larim." Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1976. — Shoiraning to‘rtinchi she’riy to‘plami.
5. Xudoyberdiyeva, H. "Bobo quyosh." Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1977. — Shoiraning beshinchi she’riy to‘plami.

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

АГРАР ЛОЙИҲАЛАРДА НАТИЖАДОРЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Умаров Жаҳонгир Нусратович
БМА магистри

Аннотация: *Мақолада аграр соҳадаги лойиҳаларда хўжалик юритиш шаклларининг маҳаллий ва хорижий тажрибалар ёритилган. Шунингдек асосий йўналишларини белгилаш бўйича таклиф ва тавсиялар берилган.*

Жаҳон иқтисодиётининг ривожланиш тенденцияси шундан гувоҳлик берадики, кишилик жамиятининг барча соҳа ва жабҳаларида, айниқса глобал иқлим ўзгариши таъсирида сайёрамизнинг кўплаб минтақаларида тобора авж олаётган қашшоқлик ва очарчиликка барҳам беришнинг асосий омилларидан бири сифатида қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари етиштирувчи, шунингдек уларга турли йўналишларда хизмат кўрсатувчи субъектларнинг хўжалик юритиш фаолиятларини инновациялар асосида ташкил этиш стратегик аҳамият касб этиб, ушбу жараённи узлуксиз такомиллаштириш давр талабига айланиб бормоқда.

Жаҳонда Россия, АҚШ, Польша, Мексика ва Европанинг бошқа мамлакатларида хўжағат етиштиришнинг мақсадли йўналтирилган илмийтадқиқот ишлари самарадорлигини оширишга, ишлаб чиқаришда серҳосил, биокимёвий таркиби яхши, меванинг товар хусусияти юқори бўлишини таъминлашда ҳамда хосилдорлигини оширишда турли хил ўғитларни қўллаш бўйича илмий тадқиқот ишларини олиб бориш устида изланишлар олиб борилмоқда. Республикамизда хўжағат турларини етиштиришда экиш схемаларини белгилаш ва парваришлашнинг айрим элементларини ишлаб чиқиш бўйича бир қатор тадқиқотлар олиб борилиб, муайян натижаларга эришилган. Бироқ, етиштирилаётган хўжағат навлари орасида Давлат реестрига киритилган навлар мавжуд эмаслиги ҳамда уларнинг ҳосилдорлигини оширишга қаратилган агротехнологиялар ҳилма-хиллиги етарли даражада эмаслиги ушбу йўналишда тадқиқотлар олиб бориш заруратини юзага келтирган. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича 2022-2026 йилларга мўлжалланган «Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси» нинг 30-бандида «Қишлоқ хўжалигини илмий асосда интенсив ривожлантириш орқали деҳқон ва фермерлар даромадини камида 2 баравар ошириш, қишлоқ хўжалигининг йиллик ўсишини камида 5 фоизга етказиш» масалалари алоҳида белгилаб қўйилган. Хўжағат етиштиришда серҳосил ремонтант навлар билан бойитиш, уларни етиштириш агротехнологиясини такомиллаштириш республикамиз қишлоқ хўжалиги соҳасида долзарб масала ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 октябрдаги ПҚ4850-сон “Ўзбекистон Республикасида ўрмон хўжалиги тизимини ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” ги, 2020 йил 28 январдаги ПҚ-455-75-сон «Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган стратегиясида белгиланган вазифаларни амалга ошириш чора тадбирлари тўғрисида»ги, 2019 йил 20 мартдаги ПҚ-4246-сон «Ўзбекистон Республикасида боғдорчилик ёки интенсив мева-сабзовотчилик ва иссиқхона хўжалигини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарорлари ва бошқа мазкур

фаолиятга тегишли меъёрий-хуқуқий ҳужжатлардаги вазифаларни амалга оширишда ушбу илмий-тадқиқот ишимизда муайян даражада хизмат қилади.

Бироқ, тан олиш лозимки, аграр тармоқ ўзининг табиий-иқлим омилларига таъсирчанлиги ва боғлиқлиги сабабли инновацияларни яратиш ва татбиқ этишда бошқа соҳаларга нисбатан бир қатор мураккабликларга эга ва шунинг учун ҳам уни инновацион модернизациялаш асосида ривожлантириш ўзига хос ва мос инновацион йўналишларда чуқур илмий-тадқиқот ва тажриба-кашфиётчилик ишларини (ИТТКИ) мунтазам такомиллаштириб боришни тақозо қилади.

Фикримизча, мамлакатимиз иқтисодиёти тармоқлари, шу жумладан, қишлоқ хўжалиги билан боғлиқ фан ва техника-технология янгиликларини яратиш ҳамда инновацион фаолиятни ривожлантириш жараёнини республикамиз ичидаги тор доирада эмас, балки индустриал тараққий этган хорижий давлатларнинг ушбу йўналишлардаги инновацион фаолият ютуқлари билан уйғун тарзда олиб бориш мақсадга мувофиқ. Зотан, дунё миқёсида ахборот-технологиялар асри деб тан олинган XXI аср бўсағисиданоқ барча соҳаларда инновациялар яратиш ва уларни татбиқ этиш жараёнларини ривожлантириш ва рағбатлантириш деярли ҳамма мамлакатлар иқтисодий сиёсатининг асосий ўзагини ташкил этмоқда.

Шу боисдан ҳам, инновацион фаолият ва фаолликни, инновациялар яратувчи ва уларни самарали жорий этувчи субъектларни рағбатлантириш механизмларини ягона тизим доирасида тадқиқ этиш, уларни такомиллаштириш йўналишларини ишлаб чиқиш муҳим илмий-амалий аҳамиятга эга.

Зеро, агросаноат мажмуи тармоқлари, шу жумладан, қишлоқ хўжалигида ишлаб чиқариш жараёнларининг ўзига хос хусусиятлари инновацион фаолиятни шакллантириш ва рағбатлантиришда алоҳида ёндашишларни тақозо қилади. Чунки, бу соҳаларда ишлаб чиқариш жараёни кўп жиҳатдан табиий-иқлим омиллари (қуёш нури, ҳавонинг намлиги ва иссиқлик даражаси, тупроқ тури ва сифати кабилар)га боғлиқ равишда ривожланиш тенденциясига мойилдир. Айрим йилларда табиий-иқлим шароитларининг ноқулай келиши, маълумки, қишлоқ хўжалиги, айниқса, деҳқончилик маҳсулотлари етиштириш даражасига катта салбий кўрсатади. Шунга кўра ҳам қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришига инновацияларни татбиқ қилиш жиддий хавф-хатар ва таваккалчилик таъсирига дуч келади.

Бу эса, ўз навбатида, нафақат қишлоқ хўжалик корхоналари раҳбар-мутахассисларини, шунингдек молиялаштириш муассасаларини ҳам тармоққа инновациялар жорий этишга маблағ сарфлашларида ишончсизлик ва сусткашликка олиб келади. Бундан ташқари тармоққа татбиқ этиладиган у ёки бу йўналишдаги инновация маҳсулотига қилинадиган харажатлар ва ундан олинадиган натижа (фойда) ўртасидаги фарқ ҳамда инновацияларга талабнинг ноаниқлиги, ижобий натижалар олиш узоқ муддат талаб қилиши, шунингдек, илмий-тадқиқот ишларини молиялаштиришда хавф-хатарлар мавжудлиги ҳам қишлоқ хўжалигида инновацион фаолият ривожланишига салбий таъсир кўрсатади.

Амалиётдан маълумки, инновацион фаолиятни рағбатлантириш объектлар нуқтаи назардан икки гуруҳга бўлиниб, биринчисига инновация маҳсулоти ва ечимларини ишлаб чиқиш билан шуғулланувчи ИТТКИ муассасалари кирса, иккинчи гуруҳни эса уларни истеъмол қилувчи субъектлар ташкил қилади. Ҳар иккала инновацион фаолият иштирокчиларини рағбатлантириш бевосита ва билвосита гуруҳларга кирувчи механизм ва манбалар ёрдамида амалга оширилади.

Жумладан, инновацион фаолиятни молиялаштириш ва рағбатлантиришнинг бевосита манба ва йўналишлари, биринчи навбатда, давлат ва муниципал (вилоят) даражасидаги бюджетлардан ажратиладиган маблағлар ҳисобланиб, улардан ташқари хўжаликларнинг ўз маблағлари, банк

кредитлари, хусусий инвестициялар, хорижий инвестициялар ва бошқа ҳомий ташкилотлар сармоялар ҳам шулар жумласига киради.

Шунингдек, инновациялар ишлаб чиқиш ва улардан самарали фойдаланиш кўп жиҳатдан давлат томонидан инновацион инфратузилмани шакллантириш ва ривожлантиришга чамбарчас боғлиқ қуйидаги тузилманинг асосий мақсадларидан бўлиб:

биринчидан, инновациялар яратувчи субъектлар ўртасидаги алоқаларни ўзаро моддий манфаатдорлик механизмларига асосан ташкил қилиш ва узвий ривожлантириш;

иккинчидан, инновация маҳсулот ва ишланмаларини товар мақомига етказиш ва уларни экспорт қилиш чора-тадбирларини амалга ошириш;

учинчидан, хўжалик юритиш субъектларига фан ва техника-технология янгиликларини самарали жорий этишлари учун барча шароитларни яратиш;

тўртинчидан, ривожланган хорижий давлатлар билан инновациялар соҳасидаги алоқаларни ташкил қилиш ва ривожлантириш;

бешинчидан, хўжалик юритиш субъектлари раҳбар ва мутахассисларининг инновацион билим ва малакаларини ошириш чора-тадбирларини амалга ошириш ва ҳ.к.

Бироқ, таъкидлаш лозимки, фақатгина юқорида қайд этилган йўналишлар ва инновацион фаолиятни тўғридан-тўғри молиялаштириш ушбу жараённи ривожлантириш ва рағбатлантириш учун барча имконият ва шароитларни яратиб бера олмайди.

Гап шундаки, инновацион фаолиятда иштирок этувчи субъектларни, яъни инновациялар яратувчи ва истеъмол қилувчиларни биргина бюджет ва бошқа манбалар ҳисобидан тўғридан-тўғри молиялаштириш улар фаолиятида боқимандалик руҳини кучайтиради ва инновацияларга йўналтирилган инвестициялардан кўпгина ҳолатларда мақсадсиз ва самарасиз фойдаланилишига олиб келади.

Бошқа томондан эса, нафақат ИТТК муассасаларини, балки уларнинг инновация товарларини ишлаб чиқаришга татбиқ этувчи хўжалик субъектларини ҳам инновацион фаолиятни молиялаштиришнинг янги манбаларини излаб топишга ундайдиган чора-тадбирларни амалга оширишларига салбий таъсир кўрсатади. Бундай бир томонлама ёндашиш, шунингдек, хусусий инновацион якка тадбиркорликнинг шаклланиши ва ривожланишига жиддий тўсиқ бўлишини ҳам эътироф этиш ўринлидир.

Шунга қарамасдан, фикримизча, юқорида қайд этилган ва бошқа салбий ҳолатларни табиий-иқлим омилларига кўпроқ боғлиқ бўлган қишлоқ хўжалиги шароити ва тармоқдаги хўжалик субъектлари фаолиятида алоҳида эътиборга олиш талаб қилинади. Чунки, аввал ҳам таъкидлаб ўтилганидек, қишлоқ хўжалик корхоналари юқори даражадаги таваккалчилик ва олдиндан билиб бўлмайдиган ноаниқ табиий-иқлим шароитида иш юритиб, аксарият ишлаб чиқариш йилларини асосан паст рентабелли ёки зарар билан якунлашади. Натижада, уларнинг ўз маблағлари инновацияларни молиялаштириш учун умуман ёки етарли ҳажмда бўлмайди. Бу ҳолат қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришини инновацион модернизациялаш жараёнларига жиддий салбий кўрсатади.

Хусусан, қишлоқ хўжалигида инновацион фаолиятни тўғридан-тўғри молиялаштириш билан бир қаторда уни билвосита механизмлар асосида ривожлантириш ва рағбатлантириш муҳим аҳамиятга эга.

Тадқиқотлар кўрсатишича, давлат томонидан соҳада инновацион фаолиятни билвосита рағбатлантириш тизими:

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

- инновация маҳсулот ва ишланмаларини патентлаш;
- имтиёзли солиқлар белгилаш;
- тезкор амортизациялаш механизмини қўллаш;
- корхоналарга инновацияларни татбиқ этиш учун бюджетдан тўғридан-тўғри дотациялар ажратиш;
- имтиёзли кредитлаш;
- кредитларнинг фоиз ставкаларини қоплаш учун субсидиялар бериш;
- молиявий лизинг ва суғурталаш тизимида имтиёзлар қўллаш;
- инновация муаллифлари ва истеъмолчиларини моддий рағбатлантириш каби иқтисодий механизмлар орқали амалга оширилади.

Бироқ, таъкидлаш жоизки, агросаноат мажмуи тармоқ ва корхоналари, шу жумладан, қишлоқ хўжалигида инновацион фаолият ва фаолликни ривожлантиришда юқоридаги рағбатлантириш манба ва механизмларини айри ҳолда қўллаш кутилган ижобий натижаларни тўлиқ таъминлай олмайди.

Бунинг асосий сабаблари қуйидаги ҳолатларга бориб тақалади:

- тармоқ миқёсида юқори даражада фойда олиш имкониятлари тўлиқ равишда таъминланмаганлигига;
- қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари таннархи юқорилигича қолаётганлигига;
- кўрилаётган чора-тадбирларга қарамасдан қишлоқ хўжалик корхоналарининг дебиторлик ва кредиторлик қарзларини қоплаш масаласи тўлиғича ҳал этилмаётганлига;
- айланма воситаларнинг етарли эмаслиги кўпгина ҳолларда тегишли технологик тадбирларни тўлиқ амалга ошириш имкониятини яратиб бера олмаётганлигига;
- тармоқдаги мавжуд асосий ишлаб чиқариш воситалари, айниқса, техника ва автотранспорт воситалари моддий ва маънавий жиҳатдан эскирган бўлиб, уларни янгилаш ва инновациялар асосида такомиллаштириш жараёнлари суст кечаётганига;
- деҳқончилик ва чорвачилик маҳсулотларини етиштириш жараёнларини инновациялар асосида технологик такомиллаштириш тадбирлари суст олиб борилаётганига;
- хўжалик юритишнинг ташкилий-иқтисодий ва ижтимоий механизмлари бозор муносабатлари талабларига мос тўлиқ шаклланмаганлигига;
- чорвачилик, айниқса қорамолчилик соҳаси кўпроқ майда товар маҳсулотлари ишлаб чиқарувчи деҳқон хўжаликлари ҳиссасига тўғри келганлиги ва уларда чорва моллари сонининг камлиги механизациялаш тадбирларини амалга ошириш имконини бермайди ва натижада мазкур тармоқда маҳсулотлар таннархи юқори бўлиб, хўжаликларнинг аксарият ҳолларда сурункали зарар билан ишлашига олиб келаётганлигига;
- қишлоқ хўжалигида янги сермаҳсул, касаллик ва зараркунандаларга чидамли экинлар навлари ва чорва моллари зотларини ҳудудлар шароитига мос яратиш масаласи асосий муаммолардан бири бўлиб қолмоқда;
- тармоқ ва хўжалик юритиш субъектлари фаолиятига инновацион маҳсулот ва ишланмаларни татбиқ этиш тизими соҳани модернизациялаш талабларига жавоб бермайди;

- қишлоқ хўжалигини инновацион модернизациялаш ва бозор конъюнктурасига мос диверсификациялашда катта тажрибаларга эга индустриал ривожланган давлатлар билан яқиндан ўзаро ҳамкорлик алоқалари ўрнатиш, улардаги малакали олим ва мутахассисларни республикамизга жалб қилиш масаласига етарли даражада эътибор қаратилмаётганига;
- қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари етиштириш билан боғлиқ техника ва агротехнологиялар соҳасида инновациялар билан шуғулланувчи хусусий якка тадбиркорлик субъектлари фаолияти йўлга қўйилмаганлигига;
- қишлоқ хўжалиги тармоғи билан боғлиқ ИТТКИга йўналтирилаётган инвестиция ресурсларининг камлиги ҳам маълум даражада соҳада инновацион модернизациялаш жараёнларини истиқболли ривожлантиришга тўсиқ бўлаётганига;
- қишлоқ хўжалик ва агросервис корхоналарининг илмий-тадқиқот ва тажриба-конструкторлик муассасалари билан ҳамкорлик қилиш тизими ва механизмалари замон талаблари даражасида ташкил этилмаганлиги сабабли инновациялардан фойдаланиш жараёнлари суст ривожланаётгани ва ҳ.кларга.

Қишлоқ хўжалигида инновацион фаолиятни ривожлантиришга жиддий тўсиқ бўлаётган юқоридаги ва бошқа муаммоларнинг ҳар бирини якка тартибда ҳал этиш яхши самара бермаслиги ҳаммага маълум. Шунинг учун ҳам, фикримизча, давлатнинг аграр соҳадаги инновацион сиёсатини такомиллаштириш мақсадида иқтисодиётни бозор муносабатларига мос модернизациялаш стратегиясини, унинг асосий босқич ва йўналишларини қамраб олувчи махсус Давлат дастури ишлаб чиқиб, уни амалга ошириш истиқболдаги асосий вазифалардан бири сифатида тан олиниши ва ҳал этилиши лозим.

Ушбу Дастурнинг асосий таркибий қисмлари сифатида, бизнингча, қуйидагилар белгиланиши мақсадга мувофиқ:

а) қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришига доир инновациялар яратувчи ИТТК муассасалари ва уларнинг инновацион маҳсулотларини истеъмол қилувчи хўжалик юритиш субъектлари ўртасида ўзаро ҳамкорлик ва моддий манфаатдорликка асосланган кооперация ва интеграция шакл ва муносабатларини ташкиллаштириш ва ривожлантириш;

б) қишлоқ хўжалигини модернизациялаш самарадорлигини ошириш, халқаро стандартларга жавоб берадиган экологик тоза сифатли деҳқончилик ва чорвачилик маҳсулотлар етиштирш ва уларни экспорт қилиш орқали дунё озиқ-овқат маҳсулотлари бозорида мустаҳкам ўрин эгаллаш каби устувор вазифаларни ҳал этиш мақсадида республика миқёсида Инновацион жамғарма ташкил қилиб, унинг молия манбаларини белгилаш ва кенгайтириш.

Ушбу жамғармадан маблағлар фақатгина бевосита инновациялар яратиш, уларнинг муаллифлари ва истеъмолчиларини моддий рағбатлантириш, хўжалик юритиш субъектларининг инновацион фаолияти ва фаоллигини ошириш, инновацияларни ишлаб чиқаришга татбиқ этиш тизимини ривожлантириш каби чора-тадбирларга йўналтириш лозим;

в) ривожланган хорижий давлатларнинг қишлоқ хўжалигида юқори самара бераётган инновация маҳсулот ва ишланмаларини республикамизга олиб кириш, уларни ҳудудларнинг табиий-иқлим ва тупроқ шароитларига мос равишда оқилона татбиқ этиш билан шуғулланувчи субъектларни ўз ичига олувчи махсус тузилма ташкил этиш, унинг мақоми ва функцияларини ишлаб чиқиш ҳамда молиялаштириш манбаларини белгилаб бериш;

г) қишлоқ хўжалигида инновацион фаолият ва фаолликни ривожлантиришда давлатнинг мувофиқлаштирувчи ва рағбатлантирувчи ролини янада кучайтириш. Яъни, қишлоқ хўжалиги билан боғлиқ давлат бошқарув органлари, молия, солиқ, суғурта муассасалари, агросервис

ташкилотлари ва бошқа тегишли корхоналар томонидан деҳқон ва фермер хўжаликларининг инновацияга бўлган талабларини қондириш, уларни самарали татбиқ этиш ва ўз ишлаб чиқариш фаолиятларини юқори даромад билан якунлашлари учун тегишли йўналишларда имтиёзли механизмларни қўллаш ва ҳ.к.

Мамлакатимизнинг аграр инновацион сиёсатини илмий-техника тараққиёти талабларига мос ривожлантиришда давлатнинг мувофиқлаштирувчи функциялари қуйидаги йўналашларда олиб борилиши, фикримизча, яхши самара беради. Яъни:

- илмий-техника ютуқларини ишлаб чиқариш жараёнларига жорий этишнинг қисқа, ўрта ва узоқ муддатларга мўлжалланган йўналиш ва башорат кўрсаткичларини белгилаш;
- ишлаб чиқариш самарадорлиги ва маҳсулотлар рақобатбардошлигини оширишга тезкор ва кучли туртки берувчи инновацияларни танлаш ва реализация қилиш;
- агросаноат мажмуи тармоқларининг моддий-техника базасини ривожлантириш ва инвестиция ресурсларини кўпайтириш;
- инновация истеъмолчиларининг фан ва техника янгиликларини татбиқ этиш имкониятларини кучайтириш учун уларнинг тўлов қобилиятларини таъминловчи иқтисодиймолиявий механизмларни такомиллаштириш ва имтиёзлар тизимини қўллаш;
- хусусий ва кичик инновацион тадбиркорлик субъектларини ривожлантириш ва молиявий қўллаб-қувватлаш;
- давлат даражасида қишлоқ хўжалиги тармоғи ва корхоналарининг инновацион фаолияти ва фаоллигини муттасил ривожлантиришга кенг шароит яратиб берувчи инновацион сиёсатнинг иқтисодий механизмаларини такомиллаштириш чора-тадбирларини ишлаб чиқиб, амалга ошириш;
- қишлоқ хўжалигини инновацион ривожлантириш ва ушбу жараён иштирокчиларининг моддий манфаатларини ҳимоя қилишнинг ҳуқуқий-институционал асосларини такомиллаштириш;
- қишлоқ хўжалигини инновацион ривожлантириш ва малакали кадрлар билан таъминлаш йўналишларида халқаро ҳамкорлик тизимини шакллантириш ва ҳ.к.

Иқтисодий адабиётларда давлатнинг инновацион сиёсатини юқорида қайд этилган ва бошқа функциялар доирасида учта сценарий асосида, яъни: а) инерцион ривожлантириш; б) аграр соҳа таркибий тармоқ ва корхоналарининг ишлаб чиқариш жараёнларини инновациялар асосида техник-технологик модернизациялаш ва в) мажмуавий инновацион ривожлантириш чора-тадбирлари орқали ташкил қилиш ва такомиллаштириш тавсия этилади.

Бироқ, бозор муносабатлари ва рақобатлари таъсирининг муттасил кучайиш тенденцияси шароитида инерцион ривожлантириш сценарийси соҳани интенсивлаштириш самарадорлигини ошириш талабларига етарли даражада жавоб бермайди. Зотан, бу сценарий мавжуд ишлаб чиқариш воситаларини янгилаш эмас, балки аввалгиларининг ўрнини айнан муайян турдаги ўхшаш воситалар билан қайта тиклашни назарда тутади.

Шу сабабларга кўра ҳам, бизнингча, республикамизнинг аграр соҳаси, айниқса, қишлоқ хўжалигининг жаҳон озиқ-овқат бозоридаги ўрни ва рақобатбардошлигини ошириш, аҳолини деҳқончилик ва чорвачилик маҳсулотлари билан, тегишли саноат тармоқларини эса хом ашё билан ички имкониятлардан унумли фойдаланиш эвазига таъминлаш масалаларини ҳал этишга устуворлик бериш мақсадга мувофиқ.

Бунинг учун эса, мамлакатимиз қишлоқ хўжалиги моддий-техника базасининг ҳозирги ҳолатида биринчи навбатда ишлаб чиқариш жараёнларини инновациялар асосида техник-технологик ташкил қилиш сценарийсига мувофиқ ривожлантиришга муҳим йўналиш сифатида қаралмоғи лозим. Бу сценарийнинг аҳамияти ва самараси шундан иборатки, инновациялар асосида такомиллашган техника, технологияларни жорий этиш, биринчидан, ҳам ресурстежамкорлик, ҳам қишлоқ хўжалик экинлари ва чорва молларини парваришлаш тадбирларини ўз вақтида сифатли бажариш имкониятларини кенгайтирса, иккинчидан, экинлар ҳосилдорлиги ва чорва моллари маҳсулдорлигини ошириш орқали уларга қилинадиган сарф-харажатларни камайтириб, хўжалик юритиш субъектларининг даромадлилик даражасини юксалтиришга олиб келади.

Бу ўз навбатида хўжаликларнинг хусусий маблағлари ҳисобига инновацияларни жорий қилиш, провардида эса уларнинг инвестицион-инновацион фаоллигини ошириш учун мустаҳкам замин яратади. Бироқ, қишлоқ хўжалигини модернизациялаш самарадорлигини ошириш йўллари ва чора-тадбирлари фақатгина ишлаб чиқариш жараёнларини инновациялар асосида техник-технологик ташкил қилиш сценарийсига таянган ҳолда эмас, балки у билан баравар равишда мажмуавий инновацион ривожлантириш сценарийси назарда тутувчи йўналишларни ҳам ҳисобга олган ҳолда амалга оширилиши лозим.

Кейинги сценарий ўзининг кенг қамровлиги жиҳатдан ҳам катта афзалликларга эга бўлиб, у ишлаб чиқариш, техника-технология, селекция ва генетика, ташкилий-бошқарув, ахборотқоммуникация, иқтисодий-ижтимоий, экология ва айрим вазиятларда сиёсий йўналишларга боғлиқ инновацияларни уйғун тарзда жорий қилишга асосланган. Мажмуавий инновацион ривожлантириш сценарийси доирасидаги инновацион йўналишлар классификацияси ва уларни уйғун тарзда амалга оширишнинг объектив зарурияти ва аҳамияти исбот талаб қилмайдиган ҳақиқатдир.

Умуман олганда, тадқиқотлар натижаларига кўра олинган асосий хулосалардан бирининг моҳияти шундан иборатки, аграр соҳа билан боғлиқ давлат инновацион сиёсатининг энг муҳим ва ҳал қилувчи таркибий йўналишлари сифатида доимий равишда олдиндан башоратлаш мураккаб бўлган табиий-иқлим омиллари таъсирида ривожланиш тенденциясига эга қишлоқ хўжалигининг инновацион фаолиятини молиялаштириш, кредитлаш ва суғурталаш тизимларида давлатнинг рағбатлантирувчи функциясини сақлаб қолиш ва ривожлантириш объектив зарурият эканлигини эътироф этиш лозим.

Шу билан бирга истиқболда давлатнинг аграр соҳадаги инновацион сиёсати ва рағбатлантириш тизимида қишлоқ хўжалиги товар маҳсулотлари ишлаб чиқарувчи субъектларнинг инновацион фаоллигини ошириш, кооперация асосида уларнинг инновация яратувчилар билан ҳамкорлик қилиш тизимини ривожлантиришга асосий эътибор қаратиш тақозо этилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 23 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5853- сонли Фармони (https://lex.uz/).
2. Ўзбекистон Республикасининг “Фермер хўжалиги тўғрисида”ги қонуни 30.04.1998 й. n 602-i (янги таҳрири); 2. Ўзбекистон Республикасининг “Деҳқон хўжалиги тўғрисида”ги қонуни Қонунчилик палатаси томонидан 2021 йил 13 январда қабул қилинган. Сенат томонидан 2021 йил 12 мартда маъқулланган(https://lex.uz/).
3. Ўзбекистон Республикасини ижтимоий-иқтисодий ривожланиши. Статистик тўплам.- Тошкент, ДСҚ. 2023 йил

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистонннинг тараққиёт стратегияси тўғрисидаги ПФ60 сонли Фармони. (https://lex.uz/).
5. Қ.А.Чориев. Қишлоқ хўжалигида инновацион фаолиятни ташкил қилиш ва рағбатлантиришнинг асосий механизм ва йўналишлари.
6. Попов Н.А. Экономика сельского хозяйства. –М.: Дело и Сервис, 2005. – 56 с.
7. Сомов В.Л. Экономико-статистический анализ развития сельского хозяйства Саратовской области.// Вопросы статистики, 2019,Т.26, № 6. – С. 47-54.
8. Хўжақулов Х.Д. Аграр соҳада ишлаб чиқариш жараёнларининг хўжалик юритиш шакллари бўйича статистик таҳлили //Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар илмий электрон журнали, 2014, № 3.
9. Жумаев Қ.Х. Қишлоқ хўжалик маҳсулотларини етиштиришнинг иқтисодийстатистик таҳлили //Ўзбекистон статистика ахборотномаси илмий электрон журнали, 2021 йил 4-сон
10. Утанов Б. Кўп тармоқли фермер хўжаликлари фаолиятини самарадлорлигини ифодаловчи интеграл кўрсаткичлар //Ўзбекистон статистика ахборотномаси илмий электрон журнали, 2019 йил 1-сон
11. Бердиқулов Қ.Ғ. Қишлоқ хўжаликида амалга оширилаётган таркибий ўзгаришни статистик таҳлили // Ўзбекистон статистик аҳборотномаси илмий электрон журнали, 2021 йил, 1-сон
12. Муродов Ч. Особенности либерилизации сельского хозяйства Узбекистана. // Достижения наука и техники АПК. –2001.– №5.41–42 б.
13. Беркинов Б.Б., Эргашева Ш.Т. Минтақада экин майдонларини оптимал таркибини шакллантириш. Вопросы моделирования и информатизации экономики. Сборник научньх трудов. Институт кибернетики – Т.: 2000, № 19. б. 88-91
14. Чориев К.А., Беркинов Б. Деҳқон ва фермер хўжаликларини ташкил этиш ва юритишнинг ҳуқуқий-меъёрий асослари. – Т.: Шарқ.2002. – 16 б.
15. Панков Б.П. Экономика агропромышленного комплекса; методы хозяйствования. – М.: Знание, 2006. – 223 с 12.

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

MUSIQA VA RAQS SAN'ATI – INSON MA'NAVIYATINING OZUQASI

Xurshida Abdullayeva
Andijon iqtisoslashtirilgan san'at maktabi
Xalq raqsi ijrochisi bo'limi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada o'zbek milliy musiqa va raqs san'atining tarixi, evolyutsiyasi, musiqa va raqsning jamiyat hayotidagi ma'naviy-tarbiyaviy o'rni haqida so'z yuritilgan. Musiqa san'atining o'ziga xosligi, raqs plastikasi, raqs harakatlarining tabiiy unsurlarga, turli mavjudotlarning harakatlariga nisbatan taqlidan yaratilishi borasida mutaxassislarning fikrlari, O'zbekistonda milliy musiqa va raqs san'atining istiqbollari haqidagi mulohazalar bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *milliy, musiqa, soz, kuy, ashula, maqom, raqs, san'at, plastika, tarbiya, raqqosa, usul, muqallid, marosim, o'yin, jamiyat, tarbiya.*

O'zbek xalqining egiz saneati sanalmish musiqa va raqs merosi juda boy va qadimiy tarixga ega. Uning ajoyib an'analari hozirgi kunda ham o'z badiiy va estetik qiymatini saqlab kelmoqda. Xalq musiqa merosidan, kuy va qo'shiqlaridan ilhom olmagan musiqa san'atining biror-bir sohasini topish qiyin. Musiqashunos, raqsshunos olimlar, tarixchi – arxeologlarning ilmiy izlanishlari va O'rta Osiyo zaminidan yetishib chiqqan qomusiy olim va mutafakkirlarning ilmiy-tadqiqotlarining dalolat berishicha qadimiy Xorazm, Baqtriya va So'g'd zaminida eramizdan bir necha asr oldin nihoyatda boy va rang-barang musiqa san'ati mavjud bo'lgan. Ayritom, Tuproq qal'a, Afrosiyob kabi ko'hna shaharlaridan topilgan tasviriy san'atga oid topilmalar musiqa hayotning turli sohalariga keng joriy qilinganligidan va har bir davrning o'ziga xos musiqa cholg'ulari, kuy-qo'shiq, raqslari bo'lganligi, ular tarixiy rivojlanish jarayonida takomillashib borganligidan darak beradi [1-2].

O'zbek xalqining milliy iftixori bo'lgan raqs san'ati necha-necha asrlar davomida shakllandi, rivoj topdi. Lekin bu san'at turi yozma ravishda o'z aksini topmaganligi bois turli davrlarda unutilib ketar, mohir usta san'atkorlar davrida yana shakllanar edi. Ular shu ko'rinishda bizning davrimizgacha qisman yetib kelgan. O'zbek raqs daholari yaratgan g'oyaviy-badiiy jihatdan yuksak mumtoz raqslar xalqimizni asrlar davomida insonparvarlik, ona Vatanga muhabbat, jasorat, fidokorlik, kurashchanlik, go'zal xulq ruhida tarbiyalashga yaqindan yordam berib kelmoqda. Kelajak avlodni voyaga yetkazish, xalq orasida haqiqiy insoniylik munosabatlarini shakllantirishda o'zbek xalqining merosi bo'lgan bugungi kunda muhim estetik tarbiya vositasi sifatida xizmat qilmoqda. Inson tarbiyasi estetik, ahloqiy-madaniy tarbiya sohalari bilan uzviy bog'liqdir.

Raqs – so'zsiz she'riyat, qo'shiq, xalq qalbini o'ziga singdiradigan hissiy solnomadir. U musiqa ko'magida hislar va voqealar tarixini o'ziga xos tarzda hikoya qiladi. Kishilar musiqaga hamohang ijro etilayotgan raqsni tomosha qilish asnosida hayotni anglaydi. Raqs tushayotib esa uni plastik harakatlarda ifodalaydi. Musiqa va raqsda har bir xalq o'z hayotini aks ettiradi. Shuning uchun ham ulardagi plastik obrazlar betakrordir. O'zbek raqslarining betakrorligi nafaqat obrazlarning plastik tarkibida, balki ularning ijro usullarida, musiqasi ohanglarida, liboslarning rang-barangligi va o'ziga xosligida ko'rinadi.

Ma’lumki, raqslarda tabiat obrazi yaratiladi. Ularda qo‘l jilvalari, o‘rmon yo‘laklari, ariq jildirashi, daraxt gullari, qushlar parvozi o‘z aksini topadi. Bu raqslarda namoyon bo‘ladigan obrazlar ijrochilarni ham, tomoshabinlarni ham majoziy fikrlashga undaydi. Bularning bari musiqa bilan uyg‘unlikda betekrorlik kasb etadi. Musiqa ohanglari ta’sirida raqqosalarning har biri ijro chog‘ida o‘zini butunning qismi sifatida his qilib, goh barg, goh gul, goh suv ko‘rinishi namoyon etadi. Bu badiiy usulning shartliligini, raqs tasvirlarida poetik umumlashma mavjudligini, unda hayolot, tasavvur kengligi, obrazli fikrlash borligini anglatadi. Qadimgi raqs ijodkorlari ham dunyoni obrazli tafakkur qilishgan. Bu esa o‘z-o‘zidan inson ma’naviy-ruhiy dunyosining boyishiga muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

Eng qadimiy ibtidoiy davrdan to bugunga qadar jamiyat hayoti bilan hamoxang yashab kelayotgan musiqa va raqs san’ati tuyg‘ularni kuy, qo‘shiq, harakat va xolatlarda, imo-ishoralarda(mimika) shunday nafis ifodalaydiki hayratlanmay iloj yo‘q. Oddiy harakatlarga musiqiy jon baxsh etish, u orqali badiiy obraz yaratish bilan chinakam raqs asari yaraladi. Musiqa va raqs, uning tasviri, kompozitsiyasi haqida o‘ylab, bir jihatning ikkinchisiga o‘tishi, ularning aloqasi mantig‘ini tushungandek bo‘ldim. Buni tushunganingdan keyin uning uyg‘unligi, ohangdorligi kelib chiqadi, mutanosibligi vujudga keladi. Bu raqs san’atidagi eng muhim jihatdir. Musiqaga xos harakatlar asnosida rang-barang nafosat namoyon bo‘ladi. Aks holda, u shunchaki badantarbiya, quruq harakatdan iborat bo‘lib qoladi. Tussiz, rangsiz harakatlar takrorlanaveradi. Faqat musiqa hisobga olingandagina raqsda mazmun, ifodaviylik zohir bo‘ladi.

Bizgacha yetib kelgan raqslarning tur va janrlari rang-barangligi hayratga solarli darajada. Shu kunlardagi raqs san’atimizda bir qancha qatlam aniq ko‘rinib turadi: kelib chiqishiga ko‘ra ajdodlarimizning ibtidoiy tasavvurlariga aloqador muqallidlar va marosim o‘yinlari; bir zamonlar zardushtiylikning ramziy obrazlari va muqaddas kitobi “Avesto” arkonlari bilan bog‘liq holda maydonga kelgan raqslar, o‘rta asrlarda maqom musiqasi bilan mustahkam aloqada shakllangan mumtoz raqslar; Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklari hududlarida tarkib topgan Buxoro, Xorazm va Farg‘ona raqs uslublari; XX asrda professional va havaskorlik ansambllari faoliyatida keng rivojlangan xalq musiqasi va sahnaviy raqslari, zamonaviy estrada, sirk, teatr musiqa va raqslari, bolalar musiqa va raqsi va hokazo.

O‘zbekiston mustaqillikning ilk yillarida umumxalq Mustaqillik va Navro‘z bayramlari, Buxoro, Xiva, Termiz, Shaxrisabz shaharlari hamda buyuk olimlar, allomalar, davlat arboblari yubileylari munosabati bilan o‘tkazilgan bayram tomoshalarida o‘ziga xos maydon raqsi vujudga keldi. Tabiiyki, raqs san’atining mana shu barcha turlari, janrlari, uslublari bir-biridan ajratilmagan, balki malakali artistlar va havaskorlar ijodida xalq va professional ansambllar faoliyatida ular bir-biri bilan bog‘langan va o‘zaro ta’sirlangan holda yashab keladi.

Hamon o‘zbek raqs san’atida bir-biridan gavda holatlari, qo‘l va oyoq harakatlari, tarkibi, kompozitsion tuzilishi, liboslari bilan farq qiluvchi Xorazm, Buxoro va Farg‘ona uslublari aniq ko‘zga tashlanib turadi. Shuningdek, ularning musiqasida ham o‘ziga xoslik mavjud bo‘lib, har bir hududning xarakter-xususiyatlari musiqiy asarlarida o‘z aksini topadi. Kompozitor va bastakorlar, raqs ustalari, baletmeyster, ansambllarning rahbarlari musiqa va raqs uslublarining o‘ziga xosligini, estetik xususiyatlarini sof saqlashga harakat qilib kelishadi. Xorazm va Buxoroda hozir ham qayroq bilan usul berish, qo‘l va oyoqlarga qo‘ng‘iroqchalar bog‘lab chiqish (zang), Xorazm raqqosalarining jig‘ali qalpoqlari va ko‘krakka taqiladigan bargaklari. Buxoro raqqosalarining ko‘pincha zardo‘zi keng ko‘ylaklari va baland qasavali bosh kiyimlari hamon qadrlidir. Farg‘ona raqsida esa doira usullari, puxta ishlangan qo‘l harakatlari, jilvalari muhim o‘rin egallab keladi.

Mana shunday boy tarixga, betakror ijro yo‘nalishiga ega bo‘lgan milliy musiqa va raqs san’atimiz xalqimizning bebaho boyligi sifatida e’tirof etiladi. U inson ruhiyatiga ijobiy ta’sir etuvchi, his-

tuyg‘ularni tarbiyalovchi, ushbu san’at turlari bilan mashg‘ul bo‘lgan yosh avlod ham jismonan, ham ma’nan yetuk shaxs bo‘lib voyaga yetishishi bilan ahamiyatlidir.

Inson ma’naviyatining kamolotga yetishida muhim sanalgan musiqa va raqs san’atiga mustaqillik davrida, ayniqsa so‘nggi uch yil ichida e’tibor kuchaydi.

Zero, bugungi kunda miliy madaniyat, urf odat va an’analar zamiridan uzoqlashish holatlari milliy qadriyatlar tizimiga jiddiy xavf solmoqda. Ayniqsa, so‘nggi yillarda globalizmning jiddiy xavfi “ommaviy madaniyat” unsurlarini toboro ko‘payib borishiga sabab bo‘lmoqda. Bunday vaziyatda san’at va madaniyat orqali inson qalbini poklash, ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga katta ishonch va umid bor. Bu san’atlar tizimida musiqa va raqs san’ati taraqqiyotini milliy qadriyatlar zimirida shakllantirish va rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda ma’naviy barkamol insonni tarbiyalash umumdavlat vazifasi darajasida ko‘tarilgan ushbu davrda yuqoridagi kabi davlat dasturlari asosida mustaqil davlatimizning ma’naviy-ma’rifiy islohatlarida san’at ahlining faol ishtiroki va yoshlarni yurtga sodiq, barkamol avlod qilib tarbiyalash muhim ahamiyati turli hil tadbirlarda qo‘yilayotgan muammolar va masalalar xususida atroflicha mulohaza yuritish va chuqur mushohada chig‘rig‘idan o‘tkazish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbek musiqa va raqs san’atining tarixiy an’analarini va usullarini tiklash, avaylab-asrash hamda boyitish, millatimizning o‘ziga xos sharqona fazilatlari, boy ma’naviyatiga monand milliy musiqa va raqslarni targ‘ib etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, musiqa va raqs san’atini xalqimizning yuksak ma’naviyati va nozik didiga zid bo‘lgan, yuzaki, noo‘rin taqlidga asoslangan musiqiy ijro, xatti-harakat va liboslar xurujidan saqlash, maxsus ta’lim tizimini takomillashtirish, o‘zbek xalqining asrlar davomida shakllangan va avloddan avlodga noyob meros sifatida o‘tib kelayotgan betkror musiqa va jozibali raqs namunalarini to‘plash, boyitish; xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod ongiga bu bebaho boyliklarga chuqur hurmat va havas tuyg‘ularini singdirish, ularda milliy ma’naviyatimiz, qadriyatlarimizga nisbatan ehtirom hislarini yuksaltirishga qaratilgan barcha isloxotlarda biz kabi shu sohaning barcha vakillari zimmamizga yuklatilgan mas’uliyatni chuqur anglashimiz lozim.

Faoliyatimizdagi kamchiliklar, muammolarni birlashib bartaraf etish, yangidan yangi marralarga erishish, muvaffaqiyatlar qozonishda birdam bo‘lishimiz zaruratdir. O‘zbekiston nufuzini dunyo hamjamiyatida yanada yuksaltirish, o‘z san’atimiz orqali millatimizning boy tarixiy an’ana va urf-odatlari, betakror madaniyati va san’ati borligini doimo namoyon etishimizda yaratilayotgan imkoniyatlardan munosib foydalanishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. https://dergipark.org.tr/en/download/article-file/3922354, 2-b.
2. Avdeeva L.A. O‘zbek milliy raqsi tarixidan - T.: M.Turg‘unboeva nomidagi “O‘zbekraqs” milliy raqs birlashmasi, 2001.
3. Globallashuv jarayonida xoreografiya san’ati sohasida milliylikni saqlash muammolari. Respublika ilmiy –amaliy anjumani materiallari to‘plami. –Toshkent: Iqtisod – moliya nashriyoti, 2012 y.
4. Rahmonov M. O‘zbek teatri tarixi. Qadim zamonlardan XIX asrga qadar.- Toshkent: Fan, 1975 y. 170 b.

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

MEROS HUQUQIDA ISHONCHLI BOSHQARUV INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY MUAMMOLARI

Xudaybergenov Artur Germanovich
Fuqarolik ishlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek tumanlararo sudining sudyasi

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada mamlakatimizda shakllanayotgan mol-mulkni ishonchli boshqarish va bu shartnomani meros huquqida qo'llash bilan bog'liq masalalar, ya'ni ishonchli boshqaruv institutini taraqqiy ettirishda qabul qilingan hujjatlar, ishlar, kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari, shuningdek, xorijiy tajriba bilan bog'liq masalalar ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. SHuningdek maqolada, ingliz-amerika huquq tizimidagi qonunchiliklar, xorijiy davlatlar, Buyuk Britaniya, Rossiya Federatsiyasi, Belorussiya, Fransiya va boshqa xorijiy davlatlarning ishonchli boshqaruv sohasidagi tajribalarini o'rganish, milliy va chet el olimlarining ilmiy adabiyotlaridagi qarashlar tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Ishonchli boshqaruv, meros huquqi, meros obektlari, raqamli mulk, trustm, sud vakolatlari.*

Kirish. Ishonchga asoslangan munosabatlar hozirgi rivojlangan davlatlar orasida juda muhum ahamiyatga ega hisoblanadi. Ko'pchilik olimlar tomonidan ishonch instituti ingliz qonunchiligi yurisdiksiyasi tarixidagi eng buyuk natija deya ta'kidlashadi. Uning qachon va qanday paydo bo'lishi haqida turli xil fikrlar mavjud. Ko'pgina huquqshunoslar mulkni ishonchli boshqarish instituti va unga tegishli ishonch instituti qayerdan va qachon paydo bo'lganligi to'g'risida aniq bir to'xtamga kelishmagan. Mixeeva L.Yu. bu institut o'rta asrlarda, XII-XIII asrlarda Angliyada paydo bo'lgan degan fikrni ta'kidlaydi. Aksariyat olimlar mulkni ishonchli boshqarish institutining paydo bo'lishini Romano-Germaniya huquq tizimiga noma'lum bo'lgan va tenglik huquqining asosiy asosi bo'lgan tenglik qonuni kabi ingliz hodisasi bilan bog'lashadi. Svaygert K. va Kyots X. ta'kidlashlaricha "XII-XIII asrlarda vassallar mulkdordan olingan mulkdan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan feodal burchlaridan qochib, ishonchli shaxsga topshirish holatlarini afzal ko'rganlar". Dastlab, O'rta asrlarda Angliyada ishonch tushunchasi feodalning o'z qarindoshlari foydasiga ritsar sifatida egalik qilishi tushunilgan va u dunyoviy feodallarning cherkov foydasiga yerga egalik qilishini bildirgan. Shu tariqa ritsar mulklari va cherkov mulki bilan bir paytda trastlar shakllanishi ham boshlangan. Shunday qilib, 1080 yilgi shartnomaga ko'ra, ritsar o'z yeriga egalik huquqini singlisi foydasiga abbotga o'tkazgan. XIII asrdan boshlab feodal mulklarini boshqalar foydasiga doimiy egalik qilish maqsadida begonalashtirish amaliyoti allaqachon keng tarqalgan edi. Angliyada mulkni ishonchli boshqarishni rivojlantirishda cherkov alohida ahamiyatga ega edi. Ko'pincha yerlar qandaydir maqsadlarda katolik cherkovining muassasalariga o'tkazilish holatlari uchrab turardi. Bu yer egasining feodal majburiyatlari uchun to'lovlardan qochish istagi bilan bog'liq edi. Ishonch yaratish usullaridan biri bu ijara institutini vujudga keltirishdir. Uzoq muddatli ijara muddati yordamida yer feodal majburiyatlari rejimidan chiqarilardi. XVII asrning o'rtalarida "ishonch" atamasi o'sha paytda mavjud bo'lgan ishonchli mulkning barcha turlariga allaqachon kiritilgandi. Ishonchli mulk to'g'risidagi qonun birinchi marta 1893-yilda Angliyada qabul qilingan. Lekin ishonch instituti O'rta asrlarda Angilya

qonunchiligida ajralib chiqqanligi va mana shu davrdan boshlab mustaqil institut bo‘lib faoliyat yurita boshlaganligi haqida ko‘p olimlarning yakdilligi keltiriladi.[1] Chunki mulkni ishonchli boshqarish institutlari ko‘p yillar da‘vomida turli huquq tizimlarida mavjud bo‘lgan. Dunyoda eng keng mashxur tarqalganlardan biri bu **ishonch instituti** hisoblanib, u XII-XIII asrlarda Angliyada paydo bo‘lganligi va ingliz tilidan tarjima qilinganda “*foydalanish*”, degan ma’noni anglatgan.[2] **Lekin** ishonch institutining eng dastlabki tarixi mil.avv XVIII asrga, ya’ni Xammurapi qonunlariga borib taqaladi. Ushbu qonunlar to‘plamida ishonchli idorani(ishonch instituting datslabki shaklini) qayd etilgan. Dastlabki ishonchli shaxs tamoyillari va prinsiplari esa yapon va yunon jamiyatlari tarixida aniqlangan. Olim C. B. Roys Yaponiya tarixini tadqiq qilganida, u o‘rgangan manbaalarga ko‘ra boy samuraylarning mulki ularning vasiyatlarida kodeks sifatida kapital va vasiylikni boshqarish qoidalari mavjudligi haqida ma’lumotlar borligini qayd etgan. Lekin ko‘zga tashlangan yorqin ishonch munosabatlari milodiy 1-3 asrlarda Qadimgi Rim qonunchiligida boshqa bir shaxsga tegishli mulkni bir shaxsga ishonch shartnomasi asosida mulkni xavfsiz saqlash yoki uni boshqarishga berish kabi holatlarini keltirishimiz mumkin. Qadimgi Rim qonunchiligi o‘sha davrda uchta asosiy ishonch munosabatlar turni tan oldi: **“fiducia cum amico”, “fiducia cum kreditor” va “fideicommissum”.**

Fiducia cum amico so‘zini ternimologik jihatdan o‘rganilganda ishonch munosabatlari ko‘p hollarda yaqinlari ya’ni do‘stlari, tanishlari orqali amalga oshirilganligi qayd etilgan. *Amicus* so‘zi ham lotinchada “do‘st” degan ma’noni anglatadi. Shuning uchun rim fuqarolari o‘rtasida **amicusni** tanlash juda ham muhum hisoblangan.[3] Amicus ishonchli boshqaruvchi maqomidaligini ko‘rishimiz mumkin.

Asosiy qism. Meros huquqida ishonchli boshqaruv O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida o‘ziga xos ahamiyatiga ega bo‘lgan, yangi va o‘ziga xos murakkab bo‘lgan mexanizm hisoblanadi. Ishonchli boshqaruv institutini O‘zbekiston Respublikasida mol-mulkni boshqarishda, ko‘chmas mulkni boshqarishda, davlat korxonalarni boshqaruvida qo‘llanilganligini ko‘rishimiz mumkin. Shuning uchun dastlab biz ishonchli boshqaruv instititining mohiyatini milliy qonunchiligimiz orqali o‘rganib olishimiz lozim.

Dastlab biz ishonchli boshqaruv tushunchasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, **O‘z.Res Fuqarolik kodeksining 49-bob** Mol-mulkni ishonchli boshqarish bobi deb nomlanib, mol-mulkni ishonchli bosqarish shartnomasi *real, haq evaziga tuziladigan ikki tomonlama shartnoma hisoblanadi*. **Subyektlari boshqaruv ta’sischisi, ishonchli boshqaruvchi va foyda oluvchi**. Mol-mulkni ishonchli boshqarish shartnomasi bo‘yicha bir taraf (boshqaruvning muassisi) ikkinchi tarafga (ishonchli boshqaruvchiga) mol-mulkini muayyan muddatga ishonchli boshqaruvga topshiradi, ikkinchi taraf esa ushbu mol-mulkni boshqaruvning muassisi yoki u ko‘rsatgan shaxs (foyda oluvchi) manfaatlarini ko‘zlab boshqarish majburiyatini oladi. Milliy qonunchiligimizga binoan mol-mulkni ishonchli boshqarishga topshirish bu mol-mulkka mulk huquqining ishonchli boshqaruvchiga o‘tishiga olib kelmasligi bilan o‘ziga xos hisoblanadi.

Ana endi biz meros huquqida qachon ishonchli boshqaruvni amalga oshirsa bo‘ladi degan savolga javob beradigan bo‘lsak, fuqarolik kodeksiga binoan fuqaro bedarak yo‘qolgan yoki vafot etgan deb topilgan taqdirda meros ochiladi va shaxsiy majburiyatlari tamom bo‘ladi. Shuningdek fuqaroni vafot etgan deb topish tartibi esa sud tomonidan amalga oshiriladi. ***Fuqarolik kodeksi 1116- moddasiga binoan fuqaroning o‘limi va sud tomonidan vafot etgan deb topilishi natijasida meros ochiladi.***

[1] T.P. Gallanis. (Winter, 2012). The trust in continental Europe: A brief comment from a U.S. observer. The Colombia Journal of European Law Online. Volume 18, 2. [online]. Available: http://www.cjel.net/wpcontent/uploads/2012/08/CJEL-Trust-Law-Final1.pd

[2] From the History of the Development of Trust and Terminological Units. Irina Gvelesiani. Faculty of Humanities at Ivane Javakhishvili Tbilisi State University.

[3] Fideicommissum. Merriam-Webster online dictionary. [online]. Available: http://www.merriam-webster.com/dictionary/fideicommissum

Meros qoldiruvchining o‘lgan kuni (zarurat bo‘lganda payti ham), u vafot etgan deb e’lon qilinganda esa, agar sudning qarorida boshqa muddat ko‘rsatilgan bo‘lmasa, vafot etgan deb e’lon qilish to‘g‘risidagi sudning qarori kuchga kiradigan kun meros ochilgan vaqt deb hisoblanadi.[4] Ya’ni vorislik huquqi qoidalariga binoan meros ochilgandan keyin agarda merosxorlar orasida voyaga yetmagan, muomalaga layoqatsiz, mehnatga qobilyatsiz bolalari, farzandlikka olgan bolalari mehnatga qobilyatsiz eri(xotini) va ota-onasi yoki muomala layoqati cheklangan shaxslar mavjud bo‘lganda qonun bo‘yicha voris bo‘lganlarida ulardan har biriga tegishi lozim bo‘lgan ulushning kamida yarmini (majburiy ulush) meros qilib oladilar. Mana shunday holatlarda ular voyaga yetgunlarigacha sud tomonidan vasiylik va homiylik organlariga voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan tuman, shahar xalq ta’limi muassasalari faoliyatini metodik ta’minlash va tashkil etish bo‘limlari tomonidan, **sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan fuqarolarga, shuningdek sog‘lig‘iga ko‘ra** vasiylikka muhtoj bo‘lgan voyaga yetgan layoqatli fuqarolarga nisbatan esa **tuman, shahar tibbiyot birlashmalari tomonidan vasiylik va homiylik faoliyatini topshiradi.** Vasiylik - 14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan etim bolalar va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni, shuningdek sud tomonidan muomala layoqati cheklangan fuqarolarni boqish, tarbiyalash va o‘qitish, ularning mulkini va mulkini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shaklidir.[5] **Vasiylik etim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan 14 yoshga** to‘lmagan bolalar, shuningdek sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar ustidan belgilanadi. Vasiylik ularni boqish, tarbiyalash va o‘qitish, mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida **tuman, shahar hokimining qarori bilan** belgilanadi.[6] Sog‘lig‘i sababli o‘z huquqlarini mustaqil ravishda amalga oshira olmaydigan va o‘z majburiyatlarini bajara olmaydigan voyaga **yetgan** fuqarolarga nisbatan ushbu shaxslarning iltimosiga binoan vasiylik belgilanishi mumkin. Vasiylik unga vasiylikka muhtoj bo‘lgan shaxsning yashash joyi bo‘yicha, agar shaxsning aniq yashash joyi bo‘lmasa, **vasiyning oxirgi yashash joyi bo‘yicha belgilanadi.[7] Tuman, shahar hokimi** vasiy yoki homiy bo‘lish istagini bildirgan shaxsning yozma arizasiga ko‘ra vasiy yoki homiy tayinlaydi. Vasiyni yoki homiyni tayinlashda uning **ma’naviy** va boshqa shaxsiy fazilatlari, o‘z vazifalarini bajarish qobiliyati, vasiy, homiy va homiy o‘rtasidagi munosabatlar, vasiy yoki homiy oilasining homiylikka bo‘lgan munosabati, shuningdek, homiyning xohish-istaklari hisobga olinadi. Agarda **vasiylik yoki homiylik bolaning manfaatlari uchun** zarur deb hisoblansa **ota-onalar yashash joyida vaqtinchalik yo‘qligida**, agar bola olti oydan ortiq vaqt davomida ular tomonidan qarindoshlari yoki boshqa yaqin shaxslarning qaramog‘ida va nazoratida qolgan bo‘lsa, bolaga vasiylik yoki homiylik belgilanishi mumkin. Yuqoridagi malumotlar va O‘zbekiston Respublikasining “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi qonun, “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi qonun va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 22 sentabrdagi 269-son qaroriga binoan biz vasiylik va homiylik organlarini ishonchli shaxs deb olsak ham bo‘ladi. Chunki ushbu organlari sud tomonidan belgilanib, merosxo‘rlarni foydasiga ular voyaga yetgunlariga qadar boshqarish majburiyatini ham olishlari mumkin. Ularning huquq va majburiyatlari yuqoridagi normativ-huquqiy hujjatlarga va boshqa qonunhiliklarga binoan tartibga solinadi va nazorat qilinadi. Shuningdek, ishonchli boshqaruv institutini o‘limlar tomonidan o‘rganib chiqilganda hozrgi adabiyotlarda mulkka ishonchli boshqaruvni ikki xil yondashuvi borligi ta’kidlaydilar. Ya’ni:

- Ya’ni birinchi yondashuvni S. A. Xoxlov, V. A.D ozortsev, N. D. Egorov, E. A. Suxanov, A. L. Makovskiy kabi olimlar ishonchli boshqaruvni majburiy huquqiy modelini ma’qullaydilar.

[4] https://lex.uz/docs/-180552#-198602
[5] https://lex.uz/ru/docs/-1297315
[6] https://lex.uz/docs/-2467536
[7] https://lex.uz/ru/docs/-2307826#-2307991

- Ikkinchi yondashuvni esa ishonchli boshqaruv ham cheklangan mulk huquqi kab bir xilligini yoqlaydilar.

Ikkala yondashuv ham uziga xos xususiyatlari mavjud. Chunki boshqaruvchining vakolatlari shartnomada yoki qonunda cheklangan ham bo‘lishi mumkin. Yoki qonun chiqaruvchi boshqaruvning muassisining manfaatdorligini nafaqat ma’lum xizmatlarni ko‘rsatganlik uchun haq olishdan ko‘radi. Agar shartnoma tekinga tuzilgan bo‘lsa, ishonchli boshqaruvchi boshqa sabablarga ko‘ra harakat qiladi. Masalan, qarindoshining mulkini saqlab qolish uchun tekinga ham harakat qilishi mumkin. Bu esa ishonchli boshqaruvni haq evaziga emas bepul tarzda ham amalga oshirilish mumkinligi kabi o‘ziga xos tabiati hisoblanadi. Ushbu shartnomanda javobgarlik masalasini aniqlash biroz murakkab. Chunki javobgarlik masalasini aniqlash uchun dastlab, moddiy huquq va majburiyatlarni ajratib olishimiz lozim. Ishonchli boshqaruv shartnomasi majburiyatlar asosida paydo boladi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining **853-moddasida, ishonchli boshqaruv shartnomasi besh yildan** ortiq bo‘lmagan muddatga tuzilishini belgilaydi. Shunday qilib, ishonchli boshqaruvchi ishonchli mulkni boshqarish va uchinchi shaxslar bilan turli xil huquqiy munosabatlarga kirishish orqali ishonchli boshqaruv muassisi va foyda oluvchi manfaatlarini ko‘zlab huquqiy majburiyatlarning subyekti sifatida harakat qiladi. Shu bilan birga, tegishli mulkning huquq egasi bo‘lgan holda, u uchinchi shaxslarning noqonuniy harakatlaridan mutlaq himoya oladi. Bundan tashqari, agar muassis va boshqaruvchi o‘rtasidagi huquqiy munosabatlar majburiy bo‘lsa va boshqaruvchi va uchinchi shaxslar o‘rtasidagi huquqiy munosabatlar haqiqiy bo‘lsa, ishonchli boshqaruvning huquqiy tabiati mulkiy elementlar bilan majburiydir, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Mazkur shartnomaning ta’rifidan ko‘rinib turibdiki, ushbu shartnoma real deb tuzilgan bo‘lib, demak, mulkni ishonchli boshqarish to‘g‘risidagi shartnoma ishonchli boshqaruv muassisi tegishli mol-mulkni ishonchli boshqaruvchiga topshirgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi. **Mol-mulkni ishonchli boshqaruv shartnomasi tuzishda majburiyatni boshlanishi sifatida ikkita asosiy omil bo‘lishi lozim:**

- Tomonlarni shartnomani imzolashi;
- Shartnomaning obyekti ishonchli boshqaruvchiga topshirilishi.

Misol uchun meros huquqida yoki mol-mulk huquqida tomonlar shartnomani imzolashlari va shartnoma obyektini ishonchli boshqaruvchiga o‘tkazishlari lozim. Ba’zan meros huquqida ishonchli boshqaruvga doir harakatlarni sud tomonidan vasiyilik va homiylik organini tanlash va ularga ishonchli boshqaruvchini tayinlash majburiyatini ham qo‘yishi mumkin. Shuningdek tomonlar shartnomani yozma shaklda tuzadilar, topshirish dalolatnomasini tuzadilar va mulkni ishonchli boshqaruvga o‘tkazishni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun ariza beradilar. Fuqarolik huquqi bo‘yicha olim L. Yu. Mixeevning so‘zlariga ko‘ra, “Ushbu shartnomani konsensual sifatida ishlab chiqish mumkin emas” deb ta’kidlaydi. Ishonchli boshqaruvchiga mol-mulk topshirilganda ushbu mol-mulk muassisi yoki foyda oluvchi manfaatlari ko‘zlab har qanday harakatlarni amalga oshirishlari mumkin, lekin bu mol-mulkni sotish yoki qayta ishlash degani emas. Chunki tomonlarni amalga oshirish mumkin bo‘lgan harakatlari va shartnomaning obyekti qanday holatda bo‘lishi shartnomada ishonchli boshqaruvchi va mol-mulk muasssi tomonidan kelishib olinadi. Ushbu mulk sotilganda yoki qayta ishlanganda uning moddiy shakli o‘zgaradi, shuning uchun boshqaruv obyekti yo‘qoladi. Binobarin, bunday mol-mulkni sotish yoki qayta ishlash holatida ishonchli boshqaruv shartnomasi aslida *vositachilik shartnomalari (komissiyalar, ko‘rsatmalar) turlaridan biriga aylanadi*. Shu sababli, ishonchli boshqaruvchi boshqaruv uchun mo‘ljallangan mol-mulkni sotgan yoki qayta ishlagan taqdirda ishonchli boshqaruv shartnomasi haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Fuqarolik kodeksining **849-moddasi 4-qismiga ko‘ra**, ishonchli boshqarishga topshirilgan mol-mulk yuzasidan bitimlarni ishonchli boshqaruvchi o‘z nomidan amalga oshiradi, bunda u o‘zining shunday boshqaruvchi ekanligini ko‘rsatadi. Agar yozma tarzda rasmiylashtirishni talab qilmaydigan harakatlar amalga

oshirilayotganida ikkinchi taraf ishonchli boshqaruvchi bu harakatlarni ana shunday boshqaruvchi sifatida amalga oshirayotganligidan xabardor qilingan bo‘lsa, yozma hujjatlarda esa ishonchli boshqaruvchining ismi yoki nomidan keyin tegishli belgi qo‘yilgan bo‘lsa, mazkur shartga rioya qilingan hisoblanadi. Bunday belgi bo‘lmagan taqdirda, ishonchli shaxs uchinchi shaxslar oldida shaxsan javobgar bo‘ladi va ular oldida faqat o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulk bilan javob beradi.[8] ***Meros huquqida ham ishonchli boshqaruv shartnomasi pullik yoki bepul ekanligini darxol aniqlash qiyin***. Shuningdek ishonchli boshqaruvchiga albatta shartnomada haq to‘lash tartibi va shakli belgilangan bo‘lishi lozim. Agar ushbu shartnoma haq to‘lanadigan shartnoma sifatida tuzilgan bo‘lsa, unda ish haqi miqdori va shakli ko‘rsatilishi kerak. Mulkni ishonchli boshqarish shartnomasida haq to‘lash nazarda tutilgan bo‘lsa-da, lekin uning hajmi va shakli belgilanmagan bo‘lsa, u tuzilmaydi, chunki haq miqdori va shaklini ko‘rsatish ushbu shartnomaning muhim shartidir. Agar ushbu shartnoma tekinga tuzilgan bo‘lsa, unda bu haqda bevosita ko‘rsatma ham bo‘lishi kerak, chunki O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining **355-moddasining 3-qismiga ko‘ra**, agar qonunchilikdan, shartnomaning mazmuni yoki mohiyatidan boshqacha hol anglashilmasa, shartnoma haq evaziga tuzilgan shartnoma hisoblanadi. Aks holda, ushbu shartnoma tuzilmagan deb e’tirof etiladi, shu jumladan tomonlar ushbu shart bo‘yicha kelishib olishni unutgan bo‘lsa ham. Shunday qilib, ishonchli boshqaruv shartnomasi ham pullik, ham bepul bo‘lishi mumkin. Boshqa barcha fuqarolik huquqiy shartnomalardan tub farqi shundaki, mol-mulkni ishonchli boshqarishda mulk egasining boshqa mol-mulkidan - ishonchli boshqaruv muassisi va ishonchli boshqaruvchining mulkidan ajratiladi. Natijada, mulk muomalasida ishonchli boshqaruvchining alohida mulki o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladi. Shuingdek, **Fuqarolik kodeksning 228, 229, 231, 232-moddalari va 857-modda 4-qismiga muvofiq** biz ishonchli boshqaruvda bo‘lgan mol-mulkka huquqlarni himoya qilish uchun ishonchli boshqaruvchi o‘zining huquqlari har qanday buzilishini bartaraf etishni talab qilish huquqiga egaligini ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari mulkni ishonchli boshqarish shartnomasi nafaqat boshqaruv muassising manfaatlarini ko‘zlab, balki uchinchi shaxs manfaatlarini ko‘zlab ham tuzilishi mumkin. Bunday sharoitda ishonchli boshqaruv shartnomasi shartnomaning ayrim xususiyatlarini uchinchi shaxs foydasiga bo‘ladi. Bundan tashqari, mol-mulkni boshqarish uchun zarur bo‘lgan muayyan harakatlarni (ishonchli boshqaruvchi nomidan) bajarishni boshqa shaxsga topshirish imkoniyatiga ega bo‘lish uchun ishonchli boshqaruvchi foyda oluvchining emas, balki muassisning roziligini olishi kerak. Shuningdek, foyda oluvchi manfaatlarini ko‘zlab tuzilgan mulkni ishonchli boshqarish shartnomasiga nisbatan taraflar tomonidan uchinchi shaxsning roziligisiz shartnomani bekor qilish to‘g‘risidagi umumiy qoida qo‘llanilmaydi. Ishonchli boshqaruvchi bilan muassis o‘rtasidagi shartnomani bekor qilish ishonchli boshqaruvchi tomonidan mulkni ishonchli boshqarishni shaxsan amalga oshirish mumkin emasligi munosabati bilan nazarda tutiladi. Muassis, shartnomada nazarda tutilgan haqni ishonchli boshqaruvchiga to‘lash sharti bilan, shartnomani boshqa sabablarga ko‘ra rad etish istagini bildirishi mumkin. **Me’ros huquqida ishonchning paydo bo‘lishi uchun esa dastlab asoschi va ishonchli shaxs o‘rtasidagi kelishuv yoki qonunning ko‘rsatmasi bo‘lishi mumkin. Ikkinchi holda, “konstruktiv” deb ataladigan ishonch paydo bo‘ladi, ya’ni boshqa** birovning mulki muayyan sharoitlarda bir shaxsning egaligida yoki nazoratida bo‘lishi sababli qonun asosida yaratilgan ishonchli mulk deya talqin etiladi. Ishonchning huquqiy munosabatlarida, eng avvalo, unga berilgan mulkning qonuniy egasi vazifasini bajaruvchi ishonchli shaxsning xususiyati o‘ziga xos. Bu har qanday subyektlar, ya’ni yuridik qobiliyatli shaxs yoki korporatsiya bo‘lishi mumkin. Mulk egasi (muassis) o‘zini ishonchli vakil deb e’lon qilishi mumkin, ammo bu holda u bir vaqtning o‘zida foyda oluvchi bo‘la olmaydi. Hozirgi vaqtda mulkni yuridik shaxslarga ishonchli boshqaruvga o‘tkazishga ustunlik beriladi. Shuni ta’kidlash kerakki, “ishonchli mulk” (ishonch) dizaynida bir nechta benefitsiarlar bo‘lishi mumkin va ularning soni cheklanmagan. Benefitsiarlarning

[8] https://zenodo.org/records/6541929

nomlari ko‘rsatilgan yoki ularni alohida aniqlash mumkin bo‘lsa, ishonch xususiy ishonch deb ataladi. Agar nafaqa oluvchilarning tarkibi aniqlanmagan bo‘lsa va ma’lum bir shaxslar doirasi (maktab o‘quvchilari va boshqalar) sifatida ko‘rsatilgan bo‘lsa, u holda jamoat ishonchi deb ataladigan “davlat” yoki “xayriya” deb ataladigan ishonchli mulk paydo bo‘ladi.

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, ishonchli boshqaruv shartnomasi boshqa fuqarolik-huquqiy shartnomalardan farq qiladigan mustaqil turdagi shartnomadir, degan xulosaga kelish mumkin. Bundan tashqari meros ochilganda mol-mulkni ishonchli boshqarish qachon vujudga kelishi esa muassis va ishonchli boshqaruvchi bilan shartnoma tuzilganda, vasiyatning ijrochisi tayinlangan vasiyatnoma bo‘lganda, sudning qarori va vasiylik va homiylik organining vasiylikka olingan shaxslarning mol-mulki ustidan vasiylik belgilash to‘grisida qaror bolganda yuzaga keladi.

O‘zbekiston Respublikasi **FKning 1144-moddasiga** binoan qonun bo‘yicha meros olinganida merosni muhofaza qilish va uni boshqarishga doir qoidalar belgilangan. Lekin milliy qonunchiligimizda vasiyatnoma ijrochisini tayinlashdan keying protsedurasi, agarda u o‘z majburiyatlarini yetarli darajada bajarmaganda yuzaga keladigan javobgarlik masalasi yetarli darajada tartibga solinmagan. Ya’ni mol-mlkning bir qismi vasiyatnoma bo‘yicha meros qilib olingan taqdirda, meros qoldiruvchi tomonidan tayinlangan vasiyatnoma ijrochisi (ishonchli boshqaruvchi maqomida) butun merosni, shu jumladan uning qonun bo‘yicha vorislik tartibida o‘tadigan qismini ham muhofaza qiladi va boshqaradi. Meros ochilgan joydagi notarius o‘z tashabbusiga ko‘ra, merosxo‘r yoki merosxo‘rlarning arizasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari yoki fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari murojaatlari bo‘yicha meros mol-mulkni muhofaza qilish yuzasidan choralarni ko‘radilar. Meros mol-mulkni muhofaza qilish merosni qabul qilish uchun belgilangan muddat tugagunga qadar davom etadi. Meros mol-mulkni muhofaza qilish xarajatlari merosxo‘rlar tomonidan ularning merosdagi ulushiga muvofiq qoplanadi. Agar vorislik nafaqat vasiyatnoma bo‘yicha, shuningdek qonun bo‘yicha ham amalga oshirilayotgan bo‘lsa, **meros qoldiruvchi tayinlagan vasiyat noma ijrochisi butun merosni muhofaza qilish choralarini ko‘radi**. Qonun bo‘yicha merosxo‘rlar merosning qonun bo‘yicha vasiyat qilingan qismini muhofaza qilish choralarini ko‘radigan boshqa shaxsni tayinlash huquqiga ega. Agar meros tarkibida uning tegishli holatda bo‘lishini ta’minlash uchun saqlash, parvarish qilish va boshqa faktik yoki yuridik harakatlarni amalga oshirish talab etiladigan mol-mulk bo‘lsa, merosxo‘rlar yoki vasiyatnoma ijrochisi bo‘lmagan holatda notarius boshqa shaxs bilan merosni boshqarish haqida shartnoma tuzadi. Merosni boshqaruvchi shaxs meros qabul qilingunga yoki merosxo‘rlar kelgunga qadar merosni saqlashga qaratilgan har qanday zaruriy harakatlarni amalga oshirish huquqiga ega. Ushbu shaxs o‘z vazifalarini bajarganlik uchun haq olishga haqli hisoblanadi.

Yuqoridagi milliy qonunchiligizdan ko‘rishimiz mumkinki ishonchli boshqaruvchini meros huquqida javobgarlik masalasi aniq tartibda belgilanmagan. Faqatgina ishonchli boshqaruvchini tayinlash, uning majburiyatlari kabilar keltirilgan. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 215-sonli “Ustav fondida davlat ulushi bo‘lgan korxonalarning samarali boshqarilishini va davlat mulkining zarur darajada hisobga olinishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra davlat ulushi bo‘lgan korxonalarni ishonchli boshqaruvga berilishi, davlat korxonasini ta’sis etish xususiyatlari, davlat korxonasini boshqarish, muassisning huquq va majburiyatlari va asosiysi bizga aloqador bo‘lgan joyi sifatida davlat aktivlarini ishonchli boshqaruvga berish tartiblari, ishonchli boshqaruvchining maqomi, huquqlari va majburiyatlari, tomonlarning javobgarliklari va ishonchli boshqaruv huquqini to‘xtatish masalalari yoritib berilgan. Unga binoan ishonchli boshqaruvchi o‘ziga ishonib topshirilgan aktivlarning saqlanishi, agar ushbu zararlar yengib bo‘lmaydigan kuch yoxud O‘zbekiston Respublikasining Xususiylashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi huzuridagi Davlat aktivlarini boshqarish markazining xatti-harakatlari oqibatida yuz berganligini isbotlay olmasa, o‘z harakati (harakatsizligi) tufayli yetkazilgan zararni qonunchilikka muvofiq hisobot va axborotning o‘z vaqtida taqdim etilishi va ishonchliligi uchun qonunchilikda

oltin, kumush buyumlar va kiyim-kechak ham bo‘lgan. To‘y marosim Diniy marosimlar Tibetchi buddizm Oyrotlarning diniy hayotining ajralmas qismi bo‘lganligi sababli, to‘y oldidan va davomida buddist lamalar tomonidan duo va marosimlar o‘tkazilgan. Lama kelinning yangi oilasida baxtli va barakali hayot kechirishi uchun maxsus duo o‘qigan. Kuyovning kelinni olib ketishi: To‘y marosimining asosiy qismi kuyovning kelinni o‘z uyiga olib ketish marosimi bo‘lgan. Bu jarayon ramziy ravishda "kelin o‘g‘irlash" ko‘rinishida bo‘lib o‘tgan. Kuyov otliq do‘stlari bilan kelinning uyiga kelgan, kelinning yaqinlari esa uni ramziy himoya qilishga harakat qilgan. Bu jarayon ko‘pincha o‘yin-kulgi va shodiyonaga aylangan. Kelinning yangi oilaga kirishi: Kelinning kuyovning uyiga kelishi maxsus marosim bilan kuzatilgan. Uyga kirishdan oldin kelin ostonada o‘choq yoki o‘t atrofida aylanib, yangi oilasiga baraka va totuvlik tilagan.Mehmondorchilik va bayram To‘y ziyofati: Oyrot to‘ylari ko‘pincha ochiq havoda o‘tib, ulkan ziyofatlar tashkil etilgan. Qimiz (achitilgan sut ichimligi), ot go‘shti va boshqa an’anaviy taomlar to‘y dasturxonining ajralmas qismi bo‘lgan. Qo‘shiqlar va raqslar: To‘yda an’anaviy cholg‘u asboblari jo‘rligida kuy-qo‘shiqlar aytilgan va raqslar ijro etilgan. Oyrotlarning jangovar madaniyatidan kelib chiqib, ba’zan chavandozlik o‘yinlari va musobaqalar ham o‘tkazilgan. Diniy va ramziy mazmun Tuyalarni qurbonlik qilish: Ba’zi hollarda muhim to‘y marosimlarida tabiat ruhlarini va ajdodlarni xursand qilish uchun tuya yoki qo‘y qurbonlik qilingan. Ushbu urf-odat tibetchi buddizm va Oyrotlarning an’anaviy shamanistik e’tiqodlari uyg‘unligidan kelib chiqqan. Tabiatga hurmat: To‘y davomida tabiat kuchlariga (osmon, yer va suv) hurmat ko‘rsatilib, sut yoki qimiz sepish marosimi o‘tkazilgan. To‘ydan keyingi urf-odatlar Kelinning maqomi: To‘ydan so‘ng kelin yangi oila va qabila hayotiga moslashishi kerak bo‘lgan. Unga yangi oilaning odatlari va qoidalari o‘rgatilgan. Ikki oila munosabatlari: To‘y faqat ikki yoshning emas, balki ikki oila va qabilaning birlashuvini anglatgan. Bu orqali siyosiy va iqtisodiy aloqalar mustahkamlangan. Xulosa Oyrotlarning to‘y marosimlari ularning ko‘chmanchi hayoti, buddist e’tiqodi va an’anaviy shamanistik qarashlarini aks ettirgan. Ushbu marosimlar nafaqat oilaviy, balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib, qabilalar o‘rtasidagi birlikni mustahkamlashda muhim rol o‘ynagan. Bugungi kunda ham Oyrotlarning ayrim to‘y an’analari ularning avlodlari orasida saqlanib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boltayev, O. (2023). A GENERAL DESCRIPTION OF THE POLITICAL AND DIPLOMATIC PROCESSES IN CENTRAL ASIA IN THE MIDDLE OF THE 18TH CENTURY. Modern Science and Research, 2(9), 145–149. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/scienceresearch/article/view/24063
2. B Okhun Evidences from Beruni's Work" Moniques Left from Ancient People" In Discovering the Personality of Iskandar Zulqarnain EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION 4 (9), 195-198
3. Muyiddinov, B. (2023). XII-XIII ASRLAR DAVRIDA BUXORODA ILM – FANNING RIVOJLANISHI. SCHOLAR, 1(28), 341–345. https://doi.org/10.5281/zenodo.10027071
4. Muyiddinov Bekali. (2023). MO’G’ULLAR BOSQINI DAVRIDA BUXORONING AYANCHLI TAQDIRI. TADQIQOTLAR.UZ, 25(2), 212–215. Retrieved from http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/308
5. Muyiddinov Bekali. (2023). THE ROLE OF BUKHARA AND OTHER CITIES IN THE MILITARY ART AND ARMY STRUCTURE OF KHOREZMSHAHS . ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 35(3), 55–58. Retrieved from https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/10035
6. Muyiddinov, B. (2024). BARTHOLD'S "СОЧИНЕНИЯ. ТОМ I. ТУРКЕСТАН В ЭПОХУ МОНГОЛЬСКОГО НАШЕСТВИЯ" THE HISTORY OF THE CREATION OF THE WORK.

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(1), 699–702. https://doi.org/10.5281/zenodo.10552555

7. Gulyamov, A. A. (2024). JAMIYATIMIZNING IJTIMOIY-IQTISODIY, MA'NAVIY-MADANIY SOHALARIDA OILANING ROLI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, *36*(2), 149-153.
8. Azizovich, G. A. (2024). Trade Relations of Population in Bukhara Emirate, Shariah Rules and Regulations in Commercial Affairs, Partnership Relations. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, *4*(9), 189-194.
9. Azizovich, G. A. (2024). Family-Marriage and Inheritance Relations of the Population in the Bukhara Emirate. *Miasto Przyszłości*, *53*, 964-969.
10. Vahobovna, S. G. (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA'LIM–TARBIYA MUASSASALARIGA QARATILAYATGAN E'TIBOR.
11. Vahobovna, S. G. (2024). JAHON IQTISODIY INQIROZI DAVRIDA KANADA IQTISODIYOTI.
12. Srojeva, G. (2024). TA'LIM SOHASIDA XALQARO HAMKORLIK.
13. Vahobovna, S. G. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM–TARBIYA MUASSASALARI MODDIY TEXNIKA BAZASINI MUSTAHKAMLASH.
14. Vahobovna, S. G. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASIDA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA VA MA'RIFIY ISHLARNING SAMARALI SHAKLLARI
15. Ilniyazovich, S. F. (2024). Historiography of Various Expeditions and their Results in the Regions Inhabited by Karakalpaks in the First Half of the 20th Century. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, *4*(9), 159–165. Retrieved from http://www.inovatus.es/index.php/ejine/article/view/4062

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

THE CONSTRUCTION HISTORY OF THE BUKHARA EMIRATE

Sayfutdinov Feruz Ilniyazovich
Teacher of the Department of History and Philology of the International University of Asia

Introduction

The Bukhara Emirate, a historically significant polity in Central Asia, existed from 1785 to 1920. Centered in present-day Uzbekistan, it served as a prominent cultural and economic hub on the Silk Road. The emirate's construction history reflects a blend of Islamic, Persian, and Turkic influences, mirroring its role as a crossroads of civilizations. This article explores the formation, architectural advancements, and socio-political infrastructure of the Bukhara Emirate.

Formation of the Bukhara Emirate

The Bukhara Emirate emerged in the late 18th century following the decline of the Astrakhanid dynasty. In 1785, Shah Murad, a member of the Manghit dynasty, established the emirate after consolidating power in the region. By seizing control from rival factions, Shah Murad initiated a centralized state under theocratic principles, positioning Islam as the guiding force for governance and societal structure.

The emirate's capital, Bukhara, had long been a seat of power and cultural significance, dating back to its Sogdian origins. The city's pre-Islamic and Islamic legacies provided a strong foundation for the Manghit rulers to build upon.

Architectural Developments

The emirate's architectural identity was rooted in its Islamic heritage. The rulers invested heavily in the construction and restoration of mosques, madrasas, minarets, and caravanserais. Key projects from this period include:

1. **Restoration of the Po-i-Kalyan Complex**

One of Bukhara's most iconic landmarks, the Po-i-Kalyan Complex, underwent significant restorations under the Manghit dynasty. The 48-meter Kalyan Minaret, originally built in the 12th century, became a symbol of the emirate’s resilience and architectural grandeur.

2. **Expansion of Madrasas**

Education was central to the emirate’s ideology. Structures like the Mir-i-Arab Madrasa were expanded to accommodate growing numbers of students. These madrasas, adorned with intricate tilework and geometric patterns, highlighted the emirate’s commitment to Islamic scholarship.

3. **Public Works**

The rulers developed urban infrastructure to enhance trade and daily life. Caravanserais and bazaars were constructed to facilitate commerce along the Silk Road, while irrigation systems ensured agricultural productivity in the surrounding oases.

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

Political and Social Infrastructure

The construction of the emirate extended beyond physical buildings to include the establishment of administrative and religious institutions. The emir, regarded as the supreme ruler, combined political and spiritual authority. This duality was reflected in the construction of palaces and religious institutions that symbolized unity between governance and faith.

The emirate's strategic location made it a focal point for diplomatic relations, particularly with the Russian Empire, British India, and the Ottoman Empire. Fortifications were built to protect key cities like Bukhara and Samarkand from external threats, underscoring the emirate's military preparedness.

Decline and Legacy

By the late 19th century, the Bukhara Emirate became a vassal state under the Russian Empire. Despite this diminished sovereignty, the emirate retained its cultural and religious significance until its dissolution in 1920 following the Bolshevik invasion.

The architectural and cultural achievements of the Bukhara Emirate continue to attract scholars and tourists alike. UNESCO has recognized Bukhara as a World Heritage Site, ensuring the preservation of its historical monuments.

Conclusion

The Bukhara Emirate's construction history encapsulates the interplay of religion, politics, and culture in Central Asia. Its architectural marvels and robust infrastructure stand as enduring symbols of its historical importance. Understanding the emirate's construction legacy provides valuable insights into the broader dynamics of Silk Road civilizations.

Reference:

1. Sayfutdinov , F. (2024). MANG'IT AMIRLARI DAVRIDA BUXORO AMIRLIGI ME'MORCHILIK SOHASI RIVOJI. Modern Science and Research, 3(10), 620–629. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/45335
2. Ilniyazovich, S. F. (2024). Historiography of Various Expeditions and their Results in the Regions Inhabited by Karakalpaks in the First Half of the 20th Century. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 4(9), 159–165. Retrieved from http://www.inovatus.es/index.php/ejine/article/view/4062
3. Sayfutdinov , F. . (2024). ILLUMINATION OF THE SPIRITUAL LIFE OF THE KARAKALPAK PEOPLE IN RESEARCH. Journal of Universal Science Research, 2(5), 441–452. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/universal-scientific-research/article/view/34891
4. Sayfutdinov Feruz Ilniyoz o'g'li. (2023). XIX ASRDA XONLIKLARNING O'ZARO SAVDO MUNOSABATLARI. JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING, 2(8), 111–114. Retrieved from http://jsrt.innovascience.uz/index.php/jsrt/article/view/284
5. Sayfutdinov, F. (2024). HISTORIOGRAPHY OF INFORMATION ABOUT THE POPULATION OF THE ZARAFSHAN OASIS. (20TH CENTURY). Modern Science and Research, 3(2), 911–914. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29503
6. Sayfutdinov, F. (2023). ILLUMINATION OF KARAKALPAK PEOPLE IN ETHNOGRAPHIC STUDIES. Modern Science and Research, 2(12), 910–917. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/27281

7. Sayfutdinov Feruz Ilniyozovich, . (2023). STUDY OF THE KARAKALPAK PEOPLE IN ETHNOLOGICAL SCIENTIFIC WORKS HISTORY . International Journal Of History And Political Sciences, 3(12), 61–68. https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue12-11
8. Sayfutdinov , F. (2024). ETHNIC COMPOSITION OF THE ZARAFSHAN OASIS (2ND HALF OF THE 20TH CENTURY). Modern Science and Research, 3(1), 577–581. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28335
9. Ilniyoz o'g'li, S. F. (2023). XIX ASRDA XONLIKLARNING O 'ZARO SAVDO MUNOSABATLARI. JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING, 2 (8), 111–114.
10. Sayfutdinov, F. (2023). THE IMPORTANCE OF DIGITAL TECHNOLOGY IN TEACHING HISTORY. Modern Science and Research, 2(10), 719–723. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24678
11. Sayfutdinov Feruz Ilniyazovich, . (2023). USING GIS SOFTWARE AND THE IMPORTANCE OF DIGITAL HISTORY IN THE STUDY OF HISTORY . International Journal Of History And Political Sciences, 3(10), 31–33. https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue10-06
12. Sayfutdinov, F. (2023). ANALYSIS OF DATA ON LAND OWNERSHIP AND LIVESTOCK FARMING OF KARAKALPAKS. Modern Science and Research, 2(10), 650–657. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25727
13. Sayfutdinov Feruz Ilniyozovich, . (2023). LAND OWNERSHIP RELATIONS BASED ON THE NATIONAL ECONOMY OF KARAKALPAK. International Journal Of Literature And Languages, 3(11), 20–27. https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue11-04
14. Haqqulov, M. Y. O. G. L. (2022). Markaziy Osiyoda ilk diplomatik munosabatlar tarixi. Science and Education, 3(10), 385-389.
15. Yunusovich, H. M. (2024). Experiences Related to the Fine Fiber Cotton of Uzbekistan during the Years of Soviet Authority. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 4(9), 129-132.
16. Yunusovich, H. M. (2024). The Formation, Development and Role of the High Seljuk Empire Founded by the Turkic Peoples in the Islamic World. Miasto Przyszłości, 53, 956-959.
17. Vahobovna, S. G. (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA'LIM–TARBIYA MUASSASALARIGA QARATILAYATGAN E'TIBOR.
18. Vahobovna, S. G. (2024). JAHON IQTISODIY INQIROZI DAVRIDA KANADA IQTISODIYOTI.
19. Srojeva, G. (2024). TA'LIM SOHASIDA XALQARO HAMKORLIK.
20. Vahobovna, S. G. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM–TARBIYA MUASSASALARI MODDIY TEXNIKA BAZASINI MUSTAHKAMLASH.
21. Vahobovna, S. G. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASIDA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA VA MA'RIFIY ISHLARNING SAMARALI SHAKLLARI
22. Muyiddinov, B. (2023). XII-XIII ASRLAR DAVRIDA BUXORODA ILM – FANNING RIVOJLANISHI. SCHOLAR, 1(28), 341 345. https://doi.org/10.5281/zenodo.10027071
23. Muyiddinov Bekali. (2023). MO'G'ULLAR BOSQINI DAVRIDA BUXORONING AYANCHLI TAQDIRI. TADQIQOTLAR.UZ, 25(2), 212–215. Retrieved from http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/308

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

24. Muyiddinov Bekali. (2023). THE ROLE OF BUKHARA AND OTHER CITIES IN THE MILITARY ART AND ARMY STRUCTURE OF KHOREZMSHAHS . ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 35(3), 55–58. Retrieved from https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/10035
25. Muyiddinov, B. (2024). BARTHOLD'S "СОЧИНЕНИЯ. ТОМ I. ТУРКЕСТАН В ЭПОХУ МОНГОЛЬСКОГО НАШЕСТВИЯ" THE HISTORY OF THE CREATION OF THE WORK. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(1), 699–702. https://doi.org/10.5281/zenodo.10552555
26. Muyiddinov, B. (2024). THE ROLE OF MILITARY REFORMS IN THE BUKHARA KHANATE IN THE LIFE OF THE STATE UNDER THE SHAYBANIDS. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(2), 646–648. https://doi.org/10.5281/zenodo.10668887
27. Muxamedovna, G. M. (2024). PARANJI TARIXI, YOXUD O'RTA ASR AYOLLARINING KIYIMI HAQIDA.
28. Muxamedovna, G. M. (2024). Millatimiz Faxri-Buxoro Ma'rifatparvari. Miasto Przyszłości, 52, 557-562.
29. Muxamedovna, G. M. (2023). MAKTABLARDA TARIX FANINI O'QITISH AHAMIYATI. Научный Фокус, 1(5), 178-180.
30. Muxamedovna, G. M. (2023). TARIX FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. Научный Фокус, 1(5), 175-177.
31. Gadayeva, M., & Ismoilova, Z. (2024). The Importance Of Studying The Science Of Youth Psychology In Improving People'S Lives. Modern Science and Research, 3(2), 676-683.
32. Gadayeva, M., & Hamroqulova, N. (2024). The Basis Of The Use Of Development-Pedagogical Skills In Pedagogical Activity. Modern Science and Research, 3(2), 684-689.
33. Gadayeva, M. (2024). ABOUT THE HISTORY OF THE VEIL OR MEDIEVAL WOMEN'S DRESS. Modern Science and Research, 3(2), 1097-1103.

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

“OTA-ONA” HAQIDA ASARLARNING LINGVISTIK TAHLILI O‘ZBEK BADIIY ASARLARI MISOLIDA

G‘ayratova Laylo Nusratulloyevna
Talaba, Shahrisabz davlat pedagogika institute, “Pedagogika” fakulteti, Fizika va astronomiya yo‘nalishi

Abdimurodov Doston Dilmurod o‘g‘li
Ilmiy rahbar

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ota-ona mavzusiga oid badiiy asarlarning lingvistik va kontrologik jihatlari tahlil qilinadi. Asarlar tahlili orqali ularning mazmuniy boyligi, qahramonlarning ruhiy olami va jamiyatga ta'siri o‘rganiladi. Tadqiqot asarlardagi ota-onaning obrazlari va ular orqali yozuvchi tomonidan yoritilgan jamiyat muammolari haqidagi ma'lumotlarni o‘z ichiga oladi.*

Kalit so‘zlar: *ota-ona, tarbiya, farzand, asar, oila, jamiyat, sadoqat, obraz, mehr.*

Ota-ona – har bir inson hayotidagi eng muqaddas va aziz shaxslar bo‘lib, ular oilaning va jamiyatning asosiy poydevori hisoblanadi. Badiiy adabiyotda ota-ona mavzusi ko‘plab asarlarning markaziy mavzusi bo‘lib kelgan. Ushbu maqola ota-ona haqidagi badiiy asarlarni lingvistik va kontrologik tahlil qilish orqali ular orqali yoritilgan ma'naviy va ijtimoiy mavzularni chuqurroq o‘rganish va tushunish maqsadini ko‘zdatutadi.

Ota-ona obrazining lingvistik tahlili:

Badiiy asarlar tilining ifodaviyligi, uslubi va qo‘llanilgan lingvistik vositalar uning ta'sirchanligini oshiradi. Ota-ona haqida yozilgan asarlarda ko‘pincha quyidagi til vositalari uchraydi:

1. Metaforalar: Ota-ona sevgisi ko‘pincha quyosh, yulduz, daraxt kabi tabiat obrazlari orqali tasvirlanadi. Epitetlar: Ota-onalarga nisbatan ishlatiladigan “mehribon”, “mustafo”, “qudratli” kabi sifatlar.Tafakkur tili va dialoglar: Asarlarda qahramonlar o‘rtasidagi muloqot va ularning ichki dialoglari ota-onaning qadrini, ularning o‘zaro munosabatlarini ko‘rsatadi. 2. Kontrologik tahlil: Kontrologik tahlil orqali ota-onaning asarlardagi roli va ularning ijtimoiy kontekstdagi o‘rni aniqlanadi. Bunda: Jamiyat va urf-odatlar: Ota-onalar turli jamiyatlarda qanday obro‘ga ega ekanligi va ularning qiyinchiliklarga qanday javob berishi tahlil qilinadi.

Asarlarning tarixiy konteksti: Ota-ona haqidagi asarlar yozilgan davrning ijtimoiy va madaniy holati ulardagi obrazlarning shakllanishiga qanday ta'sir qilgani o‘rganiladi.

I. Qahramonlarning tahlili: Misol tariqasida Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asaridagi Yusufbek hoji obrazi va uning oila boshlig‘i sifatida faoliyati tahlil qilinadi. Chingiz Aytmatovning “Oq kema” asari: Bu asarda bolakayning bobosiga bo‘lgan mehr-muhabbati, oilaviy qadriyatlarning yuksakligi tasvirlangan. Ota-boboning asar davomida bolakayga o‘rgatgan hayotiy darslari uning kelajakdagi insoniy qiyofasini shakllantiradi.

Erkin Vohidovning she'rlari: Uning she'rlari orqali ota-onalarga bo‘lgan chuqur ehtirom va hurmat ifodalanadi. *"Asrga tatigulik kun"* asarida ona obrazining tasviri juda muhim va ta’sirli bo‘lib, bu obraz orqali muallif ona tasvirining chuqur hissiy va ijtimoiy o‘lchamlarini ochib beradi. Ona obrazida mehr, sadoqat va murosasizlikning o‘rni katta. U o‘zining farzandlariga bo‘lgan cheksiz sevgisi va himoyasi bilan ajralib turadi. Asar davomida onaning farzandlariga bo‘lgan muhabbati, ular uchun qilishga tayyor bo‘lgan qurbonliklari, o‘zining shaxsiy orzu-umidlaridan voz kechishdagi sadoqati yoritiladi. Ona faqat farzandlariga tarbiya beruvchi, balki ularning ruhiy va ma’naviy o‘sishiga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.

Ona obrazidagi asosiy jihatlardan biri uning farzandlari uchun bag‘ishlagan muhabbati va o‘zini ayirishga tayyorligi, bu orqali u jamiyatda ona obrazining naqadar muhimligini, uning ta’sirini va o‘rnini ko‘rsatadi. Asar onaning farzandlariga bo‘lgan g‘amxo‘rligi va ularga bo‘lgan hurmatini yuksaltiradi, ona sifatidagi bu hissiy tajriba orqali o‘zaro oila bog‘lanishining mustahkamligini ta’kidlaydi.

Shu bilan birga, onaning insoniyat va jamiyatdagi o‘rni haqida ham fikr yuritiladi. U nafaqat oilaviy qadriyatlarni, balki milliy, madaniy qadriyatlarni ham shakllantiradigan asosiy figura sifatida tasvirlanadi.

"Asrga tatigulik kun" asarida ona obrazining tasviri juda chuqur va mazmunli bo‘lib, u o‘z farzandlariga nisbatan o‘z sevgisi, himoyasi va qurbonliklari bilan ajralib turadi. Asarda O‘zganoy ismli ona tasvirlanadi. O‘zganoy – bu obraz orqali muallif onaning farzandlarining eng katta qo‘llab-quvvatlovchisi va himoyachisi sifatida yuksak darajada namoyon bo‘ladi. U o‘z farzandlarini boqish va ularga yaxshi tarbiya berish uchun barcha qiyinchiliklarga chidashga tayyor. Uning yuragida nafaqat o‘z farzandlariga, balki butun oilaga nisbatan doimo mehr-muhabbat va g‘amxo‘rlik hissi bor.

O‘zganoy, ayniqsa, o‘zining o‘g‘li va qizi uchun o‘z orzularidan voz kechadi va ularni qo‘llab-quvvatlashni eng oliy burchi deb biladi. Uning tasvirida onaning nafaqat shaxsiy, balki jamiyat oldidagi mas’uliyati, oilaga bo‘lgan muhabbati va burchi ko‘rsatiladi. Bu obraz orqali ona, o‘z farzandlarining kelajagini shakllantiruvchi, jamiyatdagi axloqiy qadriyatlarni ta’minlovchi muhim figura sifatida tasvirlanadi.

O‘zganoyning figura orqali muallif onaning mas’uliyatini, sevgisini va farzandlariga bo‘lgan e’tiborini ta’kidlaydi, bu obrazda ona nafaqat oilaning, balki jamiyatning mustahkamligiga xizmat qiluvchi poydevor sifatida namoyon bo‘ladi(.Abdulla Qodiriy, Asrga tatigulik kun (1950), sahifa 45.)

Yana, asarlardan biri kinokamediya bulgan asar ***"Kelinlar qo‘zg‘oloni"*** bo‘lib, bu asarda ona "Farmonbibi" obrazi, Abdulla Qodiriy tomonidan yozilgan "Kelinlar qo‘zg‘oloni" asarida muhim o‘rin tutadi. Farmonbibi jasurj va mehnatkash ayol sifatida tasvirlangan. Uning obrazida jamiyatdagi ayollarning o‘rni, adolatsizliklarga qarshi kurashish va insoniy huquqlarni himoya qilish kabi mavzularni ko‘rish mumkin. Asar davomida Farmonbibi ko‘plab murakkab psixologik va ijtimoiy jihatlarni aks ettiradi, uning tasviri jamiyatning o‘zgarayotgan turlarida qahramon ayolning qanday ro‘l o‘ynashini ifodalaydi.

Farmonbibi — an’anaviy o‘zbek oilasining me’yorlariga sig‘maydigan, mustaqil va o‘z huquqlarini himoya qilishga tayyor ayol sifatida tasvirlanadi. Uning obrazida ayolning ijtimoiy roli va huquqlarini talab qilishning ramzi ko‘rinadi. Farmonbibi o‘z oilasini himoya qilish uchun kurashishda jasorat ko‘rsatadi. U oilaviy tizimdagi adolatsizliklarga qarshi chiqadi va bu uning o‘zini, o‘z farzandlarini va oila qadriyatlarini saqlab qolish uchun kurashini anglatadi.

"Mahallada Duv-Duv Gap" asarida Mehri Onaga bo‘lgan hurmat, ayniqsa, uning ona sifatidagi roli orqali alohida ta'kidlanadi. Mehri Ona obrazining o‘ziga xosligi shundaki, u nafaqat o‘z oilasining

rahbari, balki o‘zining onalik fazilatlari bilan ham hurmatga sazovor. Uning mehribonligi, o‘g‘illari va boshqa oiladagi insonlarga bo‘lgan g‘amxo‘rligi jamiyatda katta e'tibor qozonadi.

Ona sifatida uning rahbarligi va ta'lim-tarbiyasi yuqori baholanadi, chunki u o‘z farzandlarini nafaqat axloqiy qadriyatlar bilan, balki yashash uchun zarur bo‘lgan hayotiy tajriba va donolik bilan ham tarbiyalaydi. Mehri Onaga bo‘lgan hurmat, uning onalik vazifalarini ustalik bilan bajarganligi, oilaviy va ijtimoiy vazifalarini o‘z vaqtida va samarali amalga oshirganligi uchun yanada kuchayadi.

Bundan tashqari, ona sifatida Mehri Ona jamiyatdagi boshqa ayollar uchun ham namuna bo‘lib, uning odatlari va qarashlari jamiyatda ijobiy o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Bu, asarda ona bo‘lishning nafaqat oila, balki butun mahalla hayotidagi ahamiyatini ochib beradi.Ota-ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlar ko‘plab asarlarda bosh qahramonlarning ichki kurashlari, axloqiy qarorlar va tarbiyaviy o‘zgarishlar orqali tasvirlanadi. Misol uchun, o‘zbek adabiyotining mashhur namunalari bo‘lmish “O‘tkan kunlar” romanida, Abdulla Qodiriy ota-ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlarni, oilaning tarbiyaviy roli va bu munosabatlarning jamiyatdagi o‘rnini juda nozik tasvirlaydi. Romandagi bosh qahramon, Mirza Muhammad, ota-ona sevgisi va ularning o‘z farzandlariga bo‘lgan mas’uliyatini ko‘rsatib, ota-ona tarbiyasining inson hayotidagi ahamiyatini ta’kidlaydi.

Bundan tashqari, Alisher Navoiyning ***“Xamsa”*** asarlarida ham ota-ona talqini ko‘rsatiladi. Ayniqsa, “Farhod va Shirin” dostoni, ota-ona sevgisi va tarbiyasining bola uchun qanday muhim ekanini ko‘rsatadi. Shirinning ota-onasidan o‘rgangan qadriyatlari va ma’naviy dunyosi, uning keyinchalik Farhod bilan bo‘lgan munosabatlarida aks etadi. Navoiy asarlarida ota-ona tomonidan ko‘rsatilgan tarbiya, axloqiy to‘g‘rilik, mehr va sabr kabi fazilatlar yuksak qadriyat sifatida ko‘rsatilgan.

Ota-ona talqini faqat oilada emas, balki jamiyatda ham katta ahamiyatga ega. Ota-ona farzandini nafaqat shaxs sifatida, balki jamiyatning mas’uliyatli a’zosi sifatida tarbiyalaydi. Turg‘un Alimatovning ***“Nodir”*** asarida ota-ona tarbiyasining jamiyatdagi o‘rni va farzandning ijtimoiy mas’uliyati alohida ta’kidlanadi. Nodirning ota-onasidan o‘rganadigan narsalar jamiyatdagi to‘g‘ri qarorlar va faollikni ko‘rsatadi. Jamiyatda adolat va axloqiy normalarni tushunish, aynan ota-ona tomonidan ta’lim va tarbiya orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Erkin Vohidovning ***"Kechagi kun"*** asarida ota-ona va bola o‘rtasidagi qarshiliklar aniq ko‘rsatilgan. Asarda, ota-bolalar o‘rtasidagi munosabatlardagi tushunmovchiliklar va ikki avlod o‘rtasidagi farqlar ochiq-oydin ifodalangan. Ota, o‘zining tarixi, tajribasi va qadriyatlarini bolaga yetkazishga harakat qilsa ham, bola yangi zamon talablariga javob berishga intiladi. Bu adabiy asarda qarshiliklar nafaqat oilaviy munosabatlarni, balki ijtimoiy va jamiyatdagi o‘zgarishlarni ham aks ettiradi ***"Shum bola"*** filmi, o‘zining ota-ona va bola o‘rtasidagi munosabatlar masalasiga bo‘lgan yondashuvi bilan ajralib turadi. Filmda bola o‘z ota-onasining ko‘rsatmalariga zid ravishda o‘ziga xos yo‘lni tanlaydi, lekin oxir-oqibat ota-ona tarbiyasining uning shaxsiyatini shakllantirishdagi muhim rolini anglaydi. Ota-ona va bola o‘rtasidagi murakkab munosabatlar, o‘zaro tushunmovchiliklar va ularga qarshi kurashishning qanday tarbiya bilan bog‘liq ekanligi haqida so‘z boradi.

Zamonaviy adabiyotda ota-ona talqini va farzandlarga bo‘lgan munosabatlar yangi shakllarda tasvirlanadi. Bugungi kunda ota-ona tarbiyasi va uning bolaga ta’siri, ijtimoiy, madaniy va texnologik o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Zamonaviy asarlarda, ota-ona talqini ko‘pincha ota-onalarning bolalariga o‘z orzularini yuklash va ularni mustaqil qarorlar qabul qilishga tayyorlash o‘rtasidagi kurashni aks ettiradi.

Zamonaviy adabiyotda, Hamid Ismoilovning ***"Yoqilgan ko‘zlar"*** asarida, ota-ona va bola o‘rtasidagi o‘zgarishlar, jamiyatdagi yangi talablar, texnologiyalarning tarbiya jarayoniga ta’siri tasvirlangan. Ota-ona, bola bilan bo‘lgan aloqalarida an’anaviy tarbiya usullarini qo‘llash bilan birga, bolaning zamon

talablari va texnologiyalarni o‘zlashtirishini ham inobatga oladi. Bu asarda, ota-ona va bola o‘rtasidagi munosabatlar, yangi jamiyat sharoitida qanday o‘zgarishini ko‘rsatadi.

Erkin Vohidovning ***"Yulduzli tunlar"*** asarida ota-ona va bola o‘rtasidagi munosabatlar, ayniqsa, ota va bola o‘rtasida tarbiya va axloqiy qadriyatlarni o‘zlashtirish masalalari keng tasvirlangan. Ota o‘z farzandini kattalarga xos yuksak axloqiy qadriyatlar bilan tarbiyalashga harakat qiladi, lekin bola o‘zining shaxsiy o‘rni va fikrlash tarzini shakllantirishga intiladi. Asarda ota-ona tarbiyasining bola uchun qanday mas’uliyat, vaqti-vaqti bilan o‘zgaradigan dunyoqarashni shakllantiruvchi omil ekanligi ko‘rsatiladi. Ota-ona talqini va tarbiyasi mavzusi adabiyotda har doim o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. O‘zbek adabiyotida bu mavzu turli asarlarda yana-da boy va rang-barang shakllarda ifodalangan. Asarlar orqali ota-ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlar, tarbiya, o‘zaro hurmat va sevgining qanday shakllanishi ko‘rsatiladi. Har bir asar ota-ona talqini va uning bolaga ta’sirini yangi burchakdan yoritib, o‘quvchiga hayotdagi muhim saboqlarni o‘rgatadi.

Ota-ona talqini va tarbiyasi – har bir bolani hayotda muvaffaqiyatga erishishga undovchi, uning shaxsiyatini shakllantiruvchi eng muhim omillardan biridir. O‘zbek kinosidagi eski asarlarda bu mavzu keng yoritilgan va ota-ona hamda farzand o‘rtasidagi munosabatlarning murakkabligini, o‘zaro mehr-oqibat va sabr-toqatning ahamiyatini ko‘rsatgan. Ota-ona tarbiyasining farzandning hayotidagi ta’siri, uning axloqiy va ma'naviy qiyofasini shakllantirishdagi roli, oilaviy qadriyatlarning qanday kuchga ega ekanligi ko‘plab kinolarda ifodalangan.

Kino asarlari orqali, ota-ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlar nafaqat oilaning mustahkamligini, balki jamiyatdagi o‘zgarishlarga moslashuvchanligini ham ta’minlaydi. Farzandning shaxsiyatini shakllantirishda ota-ona mas’uliyati katta, shuning uchun ularga ta’lim va tarbiya orqali o‘z orzulariga erishish imkoniyati yaratish zarur. Kino orqali bu jarayonlarning tasviri, oilaning o‘zaro hurmati va sevgi, tarbiyaning yuksak qadriyatlarini namoyish etadi. Ota-ona tarbiyasi, farzandni nafaqat o‘qish va kasb-hunar bilan ta’minlash, balki uning ichki dunyosini boyitish, mehnat va sabr-toqatni qadrlashga o‘rgatishdek nozik jihatlar bilan ham ahamiyatlidir.

Shu bilan birga, kinoshunoslikda ota-ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlar nafaqat tarbiya, balki hayotiy muammolarga qarshi kurashishda, hayotda to‘g‘ri yo‘l tanlashda, o‘zini anglashda, insoniy fazilatlarni rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega ekanligi ochiq-oydin ko‘rsatilgan. O‘zbekiston kinosining eski asarlarida ota-ona va bola o‘rtasidagi munosabatlar, oila va jamiyatni mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida yoritilib, bugungi kunda ham o‘zining ahamiyatini yo‘qotmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Abdulla Qodiriy "O‘tkan kunlar".
2. Hamid Olimjon "Kattalar".
3. Eshqon Ahmedov "Ota" .
4. U. I. Jabborov "O‘zbek tilida leksik-semantik tadqiqotlar".
5. S. M. Murodov "Lingvistika va adabiyot".
6. A. A. Rahmonov "O‘zbek adabiy tilining sintaksisi" .
7. Q. R. Xudoyberdiev "O‘zbek adabiyotidagi ota-ona obrazlari.
8. N. N. To‘raqulov "Ota-ona va bolalar o‘rtasidagi munosabatlar" .

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

Onlayn resurslar:

1. O‘zbek adabiyotiga oid ilmiy maqolalar va tadqiqotlar uchun O‘zbekiston Milliy kutubxonasi yoki MATBUOT.UZ saytlari.
2. Google Scholar orqali akademik maqolalar qidirish.

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

BALATMEYSTER AKBAR MO‘MINOVNING RAQS MEROSI

Shavkat Ataxonov
O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: *mazkur maqolada o‘zbek raqs san’atining ulug‘ nomoyondasi O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi Mo‘minov Akbar Nishonovichning o‘zbek raqs san’atiga qo‘shgan munosib hissasi, yaratgan xoreografik asarlaridagi o‘ziga xosligi tadqiq etilgan. Shuningdek, maqolada A.Mo‘minovning ommaviy bayramlar uchun yaratgan xoreografik kompozitsiyalari ilmiy yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqs, xoreografiya, san’at, kompozitsiya, arbob, meros, bayram, madaniyat, an’ana, tarix.*

San’at turlari ichida raqs inson ruhiyatiga o‘zgacha bir sehrli ta’sir ko‘rsatadi.Sahnada musiqa ohanglariga mos ibo ila yengil harakat qilib xirom aylayotgan raqqosaga ko‘zingiz tushishi bilan qalbingizda o‘zgacha bir his uyg‘onadi. Agar, raqs atalmish sirli harakatlar sizni o‘z olamiga g‘arq eta olsa, bu raqs san’atining qudratidir. Raqs, san’atning boshqa turlari kabi, inson hayotini va butun olamni o‘rganishning badiiy usuli hisoblanadi. Raqs san’atining paydo bo‘lishi olis tarixga borib taqaladi. Raqs san’atining bizgacha yetib kelishi va rivojlanishida bu sahnaga fidoiy bo‘lgan raqs ustalarining o‘rni beqiyosdir.

Shu bois o‘zbek milliy raqs san’ati millatimizning madaniy-ma’naviy boyligi bo‘lib ko‘z qorachig‘idek asrab avaylab kelinmoqda. O‘zbek raqs san’atining rang-barang va serjilo janrlari, shakl va turlari o‘zining betakror ijro jozibasi, yorqin ifodaviyligi, mazmuni va emotsional kuchi bilan hech kimni befarq qoldirmaydi, o‘ziga maftun etib hayratga soladi. Milliy qadriyatlarimizni boyitayotgan raqs san’atining an’analari bugungi kunga qadar ham badiiy-estetik qimmatini yo‘qotgani yo‘q.

Binobarin, zamonaviy an’anaviy raqslar guruhini tasvirlashda shu hol qayd etiladiki, sof professional xoreografiya yagona raqs madaniyatiga xos bo‘lib, o‘ziga xos raqs uslublariga ega bo‘lgan bo‘lgan uch guruhga – Farg‘onacha, Xorazmcha, Buxorocha raqslarga bo‘linadi.

Farg‘onacha raqslar yengil, aylanma qo‘l harakatlari bilan ajralib turadi. Tana harakatlarining tabiiyligi, tananing erkin turishi, tana yuqori qismining yengil harakatlanishi, oyoq uchlarida yengil yugurushlari Farg‘ona vodiysining boy tabiatiga mos keladi. Farg‘onacha “katta” raqslar qahramonona harakatlarga boy bo‘lib, dramatik ehtiroslarni ifodalaydi. Xorazmliklarda, shimolliklarning mag‘rur raqslariga xos bo‘lgan keskinlik yo‘q.

Xorazmliklarning tarixiy xususiyatlari raqsni oshkora hissiyotchanlik, mardlik bilan boyitishga yordam bergan. Ma’lumki, asrimiz boshida xon qo‘shini qoshida raqqosalar bo‘lgan, ular jang boshlanishdan oldin jangchilarning ruhini ko‘targanlar. Uning nomi Xorazmdagi eng ommaviy raqs “Lazgi”dir. Bu raqs jo‘shqinlik, olovli ehtiros, mag‘rur xalqning harakatlarini aniq ifodalagan.

Buxorocha raqsda tananing nozik egilishlari, raqs harakatlarining murakkab tuzilishi shundan dalolat beradiki, bu raqs xalq o‘yinlaridan oziqlanib, katta ijodkorlar davrasida rivojlanib kelgan. Ularda jonli tabiat va inson tuyg‘ulari aniq ifoda etilgan. Raqslar ritmik jihatdan tez, shiddatli va mag‘rur.

O‘zbek xalq raqslari hayotdagi turli voqeliklarni harakatlar orqali aks ettirib, ifodalovchi san’at turlaridan biri bo‘lib qoldi. Bundan tashqari raqs insonning ichki dunyosini aks ettiruvchi vositasidir. Xalq raqslari quyidagilarga bo‘linadi:

1. Farg‘ona, Xorazm, Buxoro mahalliy ijodiy maktablari.
2. “Katta va kichik” o‘yinlarni yaratuvchi asosiy ijro usuli.

Shu tariqa o‘zbek xalq lirik raqsida uchta janr bor: mardonavor-qahramonlik janri, lirik-dramatik janr va yumoristik-komik janr.

O‘zbek xalq sahnaviy raqsining shakllanishi birinchi galda Asqar hoji Xaydaraliyevning XX asr boshida faoliyat ko‘rsatgan ansambli va atoqli raqqos Hamdamxon nomi bilan chambarchas bog‘liqdir. Hamdamxon Farg‘ona vodiysi shaharlarida, Toshkent va Samarqandda, 1905- yilda esa kavkazorti mamlakatlarida o‘zbek xalq raqsini yangi asosda sahnalarda ijro etib, yangi yo‘nilishni boshlab berdi. Ayniqsa, xalq sahnaviy raqsi taraqqiyotida Usta Olim Komilov, Yusufjon qiziq Shakarjonov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg‘unboyeva, Isaxor Oqilov, Gavhar Raximova, Qunduz Mirkarimova, Roziya Karimova va boshqa o‘nlab raqs ustalarining, “Bahor”, “Shodlik”, “Lazgi” kabi ansambllarning xizmati katta. Baletmeysterlar va bastakorlarning say-harakati bilan o‘nlab yakka tartibda ijro etiladigan o‘yinlar, duetlar, ommaviy raqslarmamlakatimiz va jahon tomoshabinlarining bir qancha avlodini maftun etib, o‘zbek raqs san’ati zahirasidan joy oldi. “Tanavor”, “Munojot”, “Katta o‘yin”, “Bahor”, “Pilla”, “Paxta”, “Lazgi”, “Dilxiroj”, “CHo‘pon o‘yin”, “Namanganning olmasi”, “Andijon polkasi” va boshqalar shular jumlasidandir. Ular mumtoz raqslarga aylangan. Shu asosda raqqos va raqqosalarning bir qancha avlodi kamolga yetdi. Raqs uslublari, mahorat asoslari, harakatlar silsilasi avloddan-avlodga o‘tib, yashab kelmoqda.

Darhaqiqat, qadim-qadimdan dono va ziyoli ajdodlarimiz kelajak avlod uchun boy tarixiy, madaniy, badiiy va ma’naviy merosimizni saqlab qolishga harakat qilganlar. Raqs ham shular jumlasidandir. Zero, har-bir xalqning madaniyati hamda raqs san’ati uning o‘zligida saqlangandir.

O‘zbek milliy raqs san’atini boyitishda esa O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi Mo‘minov Akbar Nishonovichning xizmatlari kattadir. U yaratgan raqslar merosiy raqslar sirasiga kirishga arzigulik baddiy asarlardir. Shu o‘rinda uztoz tomonidan sahnalashtirilgan eng mashhur raqslar haqida so‘z yuritsak.

Avvalo, A.Mo‘minovning dunyo raqs san’ati ixlosmandlari e’tirofiga sazovor bo‘lgan raqslari orasida "Jon O‘zbekiston" raqs-syuitasining o‘rni alohidadir. Ushbu raqs-syuita musiqasini N.Xalilov, so‘zini O‘zbekiston xalq shoiri Po‘lat Mo‘min yozgan bo‘lib, bu raqs O‘zbekistonni madh etuvchi asar hisoblanadi. Unda yurtimiz tabiati, o‘zbek yigitlarining shiddatli, muhabbatli ekanini, qizlarimizning ibosi, go‘zalligi, latofati raqs harakatlarida namoyon bo‘ladi. Bu raqs-syuita milliy harakatlar bilan birga klassik raqs harakatlari uyg‘unlikda yaratiladi va bu o‘zbek milliy raqs san’atidagi ilk yangicha uslub sifatida namoyon bo‘ladi.

Mana shunday yangicha uslubdagi milliy raqslardan yana biri “Dugonajonim” raqs-kompozitsiyasi bo‘lib, ushbu raqs musiqasini ham buyuk bastakor N.Xalilov bastalaydi. “Dugonajonim”dagi o‘zgacha yangilik bu – raqqosalar likobcha va angishona bilan raqs ijro etishlari bo‘lgan. Uning syujeti milliy urf-odatlarimizdan olinib, huddi “Qizlar majlisi”, “Qizlar davrasi” kabi o‘zbek qizlarga xos tadbirlarni badiiy tarzda raqs harakatlari orqali ifoda etadi. A.Mo‘minovning ijodiy yangilikka intiluvchanligi bois sakkiz nafar raqqosalar likobcha va angishona bilan ijro etishgan, bu raqsda ham ustoz milliylikka

alohida ahamiyat qaratganidandir. “Dugonajonim” ham o‘zbek qizlarining ibosi, sharm-hayosi, nafosati haqida “so‘zlaydi”.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, yetuk bastakaor Sayfiddin Yo‘ldoshev musiqasiga sahnalashtirilgan “Sayribog‘” xoreografik-kompozitsiyasi ham yuqoridagi raqslar kabi ijodiy yangilikka va milliylik, an’anaviylik hamda zamonaviylik uyg‘un holda yaratilgan raqs asarlaridandir. Ushbu xoreografik-kompozitsiyada yosh yigit-qizlarning bog‘dagi uchrashuvlari, quvnoq o‘yin-kulgulari, bir so‘z bilan aytganda yoshlik zavqi “kuylanadi”. “Sayribog‘” tomoshabinga zavq ulashuvchi, yoshlikning farahbaxsh onlarini yodga soluvchi badiiy asar sifatida ahamiyatga molikdir. Bu asarda ham o‘zbek yigitlarining g‘ayrati, shijoati, qizlarning nozikligi, nafosati namoyon bo‘ladi. Raqs harakatlariga klassik raqs harakatlari bu raqsda ham uyg‘unlik kasb etadi va bu raqsning yanada zavqli hamda ifodali bo‘lib yaralishida zamin yaratadi. Liboslar ham milliylik va zamonaviylik kasb etadi. Milliy raqslardagi kabi “Sayribog‘”da raqossalar libos bilan lozimda emas, libos ostidan kalta yubka kiyishgan, libosning yenglari keng emas, fonar tarzida tikilgan edi. O‘z davriga monand raqslarning liboslari ham o‘ziga xos qilib tayyorlangan. Bunda A.Mo‘minov doimiy o‘z fikrini dizayner-tikuvchilarga bildirib turgan.

M.Mirzayev musiqasiga A.Mo‘minov Eng qadimiy milliy an’anamiz, umumxalq bayramimiz sanalgan Navro‘z bayramini tarannum etuvchi huddi shu nomli xoreografik-kompozitsiyani sahnalashtiradi. Ushbu raqs asari bahorning yangilanish, yosharish fasli ekanini, Navro‘z o‘zbek xalqiga sevimli bayramligi, undagi urf-odatlar ifoda etiladi. Raqsni sakkiz nafar raqqosa va bitta yakkaxon raqqosaga sahnalashtiriladi. Yakkaxon raqqosa Bahor obrazida sahnaga chiqib keladi va tabiatni uyg‘otgan kabi sahnada qotib turgan raqqosalarni “uyg‘otadi”. Qizlar tabiatni uyg‘onishini raqs harakatlari orqali go‘zal tarzda ijro etishadi[1].

O‘zbekiston xalq artisti To‘xtasin Jalilovning “Farxod va Shirin” musiqali dramasidan olingan kuy asosida sahnalashtirilgan eng mashhur raqslardan biri bu – “Keldimu” raqsi bo‘lib, bu raqs ham milliy afsonaviy qaxramonlar Farxod va Shirin uchrashuvi syujeti asosida sahnalashtiriladi. Ushbu raqs ommaviy raqs sifatida yaratilib, undagi liboslar ham tarixiy obrazlarga xos tayyorlangan edi. Bu raqsda ham A.Mo‘minov har bitta harakatni did bilan tanlab oladi. Har bir raqs harakati musiqa bilan qorishib ikki qalb sevgisi haqida go‘yo “so‘zlaydi”.

Ushbu raqslarni ustoz Q.Mo‘minov bilan birga qayta sahnalashtirish jarayonida shunga amin bo‘ldimki, A.Mo‘minov o‘z davrining chinakam novatori bo‘lgan buyuk baletmeysterdir.

Bu raqslardan tashqari A.Mo‘minov Ikrom Akbarovning “Orzu” baletining uyg‘urcha raqs musiqasi olinib “Kuyovto‘ralar (Jenixi)” raqs kompozitsiyasi sahnalashtiradi. Ushbu raqsda yakkaxon raqqosa qiz besh nafar raqqos yigitlar ichidan o‘ziga munosibin tanlashi kerak, ijro davomida har bir yigit qizga o‘z sevgisini, nimalarga qodir ekanini namoyish etadi. Yigitlar o‘zaro go‘zal qizga men munosibman deb baxslashadilar. Bularning barchasi an’anaviy va klassik raqs harakatlari uyg‘unligida ifoda etiladi. “Kuyovto‘ralar” ham yigitlarimizning muhabbatni ulug‘lovchi, go‘zallikni sevib, qadrlovchi, o‘zbek qizlarimizning or-nomusli, g‘ururli, qalbi pok va go‘zal ekanini raqs haraktlarida “jonlantirishadi”[2].

O‘zbek milliy raqs san’atining merosiy raqslari sirasiga kiritilgan raqslardan biri “Yigitlar” (Jigiti) A.Mo‘minovning o‘lmas asralari ichida eng avvldagi raqsdir. Buyuk san’atkor M.Turg‘unboyevadan aynan shu raqs uchun dakki eshitgani hafida yuqoida so‘zlab o‘tdik. Ustozlarning tanqidi, xalqning mehriga sazovor bo‘lgan bu raqsda o‘zbek erkak raqqoslarining ijro mahorati, iste’dodi qolaversa yigitlarimizning shijoati, mardonavorligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Ot choptirgan shiddatkor

[1] O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi Akbar Mo‘minov bilan suhbat. 04.12.2020
[2]O‘zbekiston xalq artisti Qodir Mo‘minov bilan suhbat. 30.11.2020

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

yigitlarning qamchi o‘ynatishi, bir-biridan o‘zarga harakat qilishlari shiddatli raqs harakatlari orqali badiiy tarzda ifodalanadi. Bu raqs milliy erkaklar raqslari ichida toj hisoblangan raqsdir.

A.Mo‘minov yakkaxon raqslar sahnalashtirishda ham ilg‘or bo‘lib birinchi marta o‘zining eng sevikli shogirdi Qizlarxon Do‘smuxamedovaga “Terimchi qiz” raqsini sahnalashtiradi. Ushbu raqsda paxta dalalarida zavq bilan paxta terayotgan mirishkor terimchi qiz obrazi yaratiladi. Bu raqsning yaratilishiga sabab Q.Do‘smuxammedovaning Misrga ijodiy safari edi. “Terimchi qiz” bilan u Misrda barcha raqs ixlosmandalari olqishlariga, e’tirofiga va ko‘plab yutuqlarga erishib qaytadi.

Shuningdek, iste’dodli raqqosa Ra’no Beshimovaga “Hilola” raqsini, yigit raqqoslarga “Cho‘ponlar” raqsini sahnalashtirgan A.Mo‘minov davlat tadbirlarida “Munojot” kabi ommaviy (massoviy) raqslarni sahnalashtiradi.

A.Mo‘minov mustaqillikning ilk yillaridanoq umumxalq bayramlari, turli davlat tadbirlarida baletmeyster sifatida ijodiy faoliyat olib boradi. Ko‘plab syujetli ommaviy va yakkaxon raqslarni sahnalashtiradi. Qolversa, viloyatlardan Toshkent shahridagi umumxalq bayramiga ishtirok etishga kelgan havaskor jamoalar bilan birga ishlab, ularning raqslarini ham mukammal ijrosiga ko‘makalashadi.

Bu borada ustozning Qashqadaryo viloyati havaskor jamoalariga bergan ko‘magi alohida e’tiborga molikdir. A.Mo‘minov juda ko‘p marotaba bu viloyatga ijodiy safarlar uyushtirgan va ko‘plab folklor jamoalarning shakllanib, rivojlanishida beminnat yordam berib kelgan[3].

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, A.Mo‘minov tinib-tinchimas, ijodiy yangiliklarga o‘ch, badiiy didi o‘tkir, yangi iste’dodlarni kashf etishda mohir ustoz, baletmeyster, pedagog bir so‘z bilan aytganda o‘zbek raqs san’atining buyuk namoyondalaridan biridir. U chin ma’noda ustozlariga munosib shogird, shogirdlariga haqiqiy ibrat bo‘la olgan san’at fidoiysidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi Akbar Mo‘minov bilan suhbat. 04.12.2020.
2. O‘zbekiston xalq artisti Qodir Mo‘minov bilan suhbat. 30.11.2020 y
3. Ўзбекистон санъати. Тўплам. –Тошкент, 2001.
4. Sagatov K.S., Muxamedova M.A., O‘zbekiston madaniyati va san’ati fidoyilari. T.: 2019.
5. Shokirov U., Ashrafiy F., Shokirova I. O‘zbekiston madaniyati namoyandalari. (mo‘jaz ijodiy chizgilar).–T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001. 174b.

[3] O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi Akbar Mo‘minov bilan suhbat. 04.12.2020

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

OTA-ONA HAQIDAGI MAQOLLARNI PSIXOLOGIK TAHLIL QILISH

Olimova Dildora
Shahrisabz Pedagogika Instituti Pedagogika, Fakulteti Boshlang'ich Ta'lim Yo'nalishi, 3-Bosqich Talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ota-ona haqidagi maqollarning inson psixologiyasiga ta'siri, tarbiyaviy ahamiyati va oiladagi munosabatlarni shakllantirishdagi roli psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Maqollar – xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribasi va dunyoqarashining ifodasi sifatida oilaviy qadriyatlarni yoritib beradi. Ota-onaga hurmat, ularning qadrlanishi va oilada sog'lom muhit yaratishda maqollarning roli qanday ekanligi tahlil qilinib, bu boradagi milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rganiladi. Shu bilan birga, maqollarning psixologik asoslari, ularning bolalar ongiga qanday ta'sir qilishi va tarbiyaviy ahamiyati o'rganiladi.*

Kalit so'zlar: *Ota-ona, Maqollar, Psixologik tahlil, Tarbiyaviy ahamiyat, Oilaviy qadriyatlar.*

Ota-ona va bola o'rtasidagi munosabatlarning psixologik asosi: Ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlar bolalar xarakteri va ruhiyatining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Maqollar ota-onaga hurmat va minnatdorchilik tuyg'ularini shakllantiradi. Masalan, "Ota uyda ona burchda" yoki "Onasi borning yuragi to'q" kabi maqollar oila muhitida mehr va hurmatning ahamiyatini ta'kidlaydi.

Maqollarning tarbiyaviy roli va psixologik ta'siri: Xalq maqollari tarbiya vositasi sifatida oila a'zolariga ma'naviy qadriyatlarni o'rgatadi. Psixologik nuqtai nazardan, maqollar bola ongiga ota-onaning ahamiyatini singdiradi, ularni qadrlash hissini uyg'otadi. Masalan, "Ota-onang rozi bo'lsa, ishlaring oson bo'lar" maqoli farzandlarda ota-ona roziligiga intilish tuyg'usini kuchaytiradi.

Maqollarda ifodalangan oila qadriyatlari: Ota-onaga bag'ishlangan maqollarda oila qadriyatlari, ya'ni mehr, hurmat, vaqti kelsa, ularga xizmat qilish kabi tuyg'ular aks etadi. Maqollar bolalarning kattalarga nisbatan hurmat va minnatdorlik tuyg'usini rivojlantiradi. Shu bilan birga, oila a'zolarining o'zaro hurmat va birlikka intilishi ham aks etadi.

O'zbek xalq maqollarining psixologik ahamiyati: O'zbek xalq maqollarida ota-onaga mehr, hurmat va ular bilan munosabatlarni tartibga solish qoidalari ifodalangan. Bu maqollarda xalqning hayotiy tajribasi, ota-onaga nisbatan farzandlarning burchlari ifodalangan. Maqollarning bolalar ongiga ta'siri shundaki, ular hayotiy qadriyatlar, ota-onaga bo'lgan hurmat, ularga xizmat qilishning ma'nosini o'rgatadi.

Maqollar orqali shakllangan milliy va umuminsoniy qadriyatlar: Maqollar milliy qadriyatlarni tarbiyalash bilan birga umuminsoniy qadriyatlarni ham yoritadi. Ota-onaga bo'lgan hurmat – har bir jamiyatda asosiy qadriyat sanaladi. Shu nuqtai nazardan, ota-ona haqidagi maqollar nafaqat o'zbek xalqining, balki boshqa xalqlarning ham qadriyatlar sistemasida muhim ahamiyat kasb etadi.Ota-ona va farzand munosabatlarining ta'siri: Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, farzandning ruhiy

rivojlanishida ota-ona bilan bo‘lgan munosabatlari muhim ahamiyatga ega. Bu munosabatlar bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, xavfsizlik hissi, o‘zini anglash va ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ota-onaning e'tibori va mehribonligi bilan tarbiya topgan bola o‘zini himoyalangan va qo‘llab-quvvatlangan his qiladi. Maqollarda aks etgan ota-onaga bo‘lgan hurmat va minnatdorchilik tuyg‘ulari esa farzandning psixologik jihatdan muvozanatli rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Maqollarning psixologik roliga umumiy nuqtai nazar: Xalq maqollari ota-ona va bola o‘rtasidagi sog‘lom munosabatlarni ifodalaydi va ularni kuchaytirishga xizmat qiladi. Masalan, “Ota uyda ona burchda” degan maqolda ota va onaning oila poydevoridagi o‘rni, vazifalari va mas'uliyati yotadi. Bunday maqollar bolaga oilaviy qadriyatlarni o‘rgatadi, ota-onaning oiladagi o‘rnini anglashga yordam beradi va farzandning ularni hurmat qilishini rag‘batlantiradi. Bu maqol psixologik jihatdan bolalarda oilaning xavfsiz va qulay muhit ekanini his qilishlariga olib keladi.

Maqollarda ifodalangan hurmat va minnatdorchilikning psixologik asosi: Maqollardagi "Onasi borning yuragi to‘q" kabi jumlalar ota-ona bilan bog‘liq tinchlik va himoya hissini ta'kidlaydi. Psixologik nuqtai nazardan bu maqol bola ruhiyatida mehribonlik va minnatdorchilikni mustahkamlaydi. Ota-onasi borligi va ularning g‘amxo‘rligini qadrlash hissini rivojlantiradi, bu esa bolalarda hayotda mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Ota-ona namunasi va rol modellari: Psixologlar ta'kidlaganidek, bola yoshligida ota-onasini roli modeli sifatida ko‘radi. Farzand ota va onasidan mehribonlik, mas'uliyat, mehnatsevarlik, va mehrni o‘rganadi. Maqollarda ota-onaning mehnati va hurmatini qadrlash tuyg‘usi bu o‘rnakni kuchaytiradi, ularning qadrini tushunishga yordam beradi. Bola shunday qadriyatlarni ongida mustahkamlab, o‘z hayotida ham ularni amalga oshirishga harakat qiladi. Shu jihatdan qaraganda, ota-onaga bag‘ishlangan maqollar oila a’zolarining bir-birlariga bo‘lgan munosabatlarini yanada mustahkamlaydi.

Maqollar orqali hurmat hissini rivojlantirish: “Ota-onang rozi bo‘lsa, ishlaring oson bo‘lar” kabi maqollar farzandlarda ota-onaning roziligini qozonish, ularning hurmatiga sazovor bo‘lish istagini kuchaytiradi. Bu psixologik jihatdan shaxsiy mas'uliyat va burch tuyg‘ularini rivojlantiradi. Bolalar o‘z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni sezishni, oilaviy qadriyatlar asosida harakat qilishni o‘rganadilar.

Oila muhitida mehr va hurmatning o‘rni: Sog‘lom oilaviy muhitda hurmat va mehr o‘zaro munosabatlarning asosi hisoblanadi. Maqollar orqali ota-onaga hurmatni o‘rgangan bola kelajakda jamiyatda ham xuddi shunday mehr va hurmatni davom ettiradi. Bu esa ijtimoiy hayotda ham muvozanatli shaxsiy munosabatlar qurishga yordam beradi.

Umuman, ota-ona va bola o‘rtasidagi munosabatlarni maqollar orqali o‘rganish va ularda ifodalangan hurmat tuyg‘ularini bolaga singdirish, bolalarning ruhiy salomatligi va ijtimoiy hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Maqollar orqali o‘rgatilgan bu qadriyatlar bolalarning shaxsiy va jamiyatdagi o‘rnini topishida, ijobiy shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.Maqollar va Tarbiya vositasi sifatida ularning ahamiyati

Xalq maqollari asrlar davomida xalqning ijtimoiy hayot tajribasini o‘zida aks ettirib, tarbiyaviy vosita sifatida shakllangan. Maqollar oilaviy qadriyatlarni tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi, ular ota-onaga bo‘lgan hurmat, kattalarga izzat, va hayotiy mas’uliyat tuyg‘ularini singdirishda yordam beradi. Ayniqsa, "Ota-onang rozi bo‘lsa, ishlaring oson bo‘lar" kabi maqollar ota-onaga hurmat qilishning muhimligini bolalarga anglatadi. Bunday iboralar bola ongiga ota-onaning rozi bo‘lishi va ularning farzand hayotiga qo‘ygan hissasi bilan bevosita bog‘liqligini tushuntirishga yordam beradi.

Psixologik ta’siri: Hurmat va Minnatdorlikni shakllantirish

Psixologik jihatdan qaraganda, ota-onaga bag‘ishlangan maqollar bolalar ongida hurmat va minnatdorlikni kuchaytiradi. Maqollar farzandlarda ota-onaning roziligini qadrlash hissini rivojlantiradi va ota-onaga minnatdorchilik bildirish tuyg‘usini singdiradi. Bu jarayon psixologiyada "ijobiy armatura" deb atalib, bola xulqini ijobiy tomonlama shakllantiradi: ota-onaning roziligi, farzandning o‘zini yaxshi his qilishiga va o‘z-o‘ziga ishonchning oshishiga olib keladi.

Maqollarda shakllangan ijtimoiy qadriyatlarning farzand tarbiyasidagi roli

“Ota-onang rozi bo‘lsa, ishlaring oson bo‘lar” maqolida oilaviy qadriyatlar va ijtimoiy norma sifatida ota-onaga hurmat qilish, ular bilan yaxshi munosabatda bo‘lish, katta ahamiyat kasb etadi. Bola bu qadriyatlarni maqollar orqali bilib oladi va hayotida ularni qo‘llashga intiladi. Shu orqali bola kattalar bilan muloqotda samimiy, ochiq va hurmatli bo‘lish kabi fazilatlarni egallaydi.

Maqollarning tarbiyadagi ijobiy dastak roliga oid psixologik izohlar

Maqollardagi donolik bola tarbiyasida ota-onaning tasirini mustahkamlaydi. Bolalar uchun ota-ona roziligini olishga intilish – psixologik jihatdan "rag‘batlantiruvchi omil" sanaladi, bu esa ularni intizomli va mas’uliyatli bo‘lishga chorlaydi. Masalan, bolaning ota-onaga hurmat bilan munosabatda bo‘lish istagi, oilaviy qadriyatlarni hurmat qilish kabi tarbiyaviy jihatlari bola shaxsining shakllanishiga katta ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Maqollarning ota-onaga bo‘lgan hissiyotlarni kuchaytirishdagi roli

Bola uchun ota-onaga hurmat, mehr va minnatdorlik kabi hislar asosan ular bilan o‘zaro munosabatlarda shakllanadi. Maqollar bolalarning ongiga ota-onaning o‘rni va ahamiyatini singdiradi, ularni qadrlash va ularning o‘gitlarini hayotda qo‘llash zarurligini ta'kidlaydi. Bunday maqollar bolaning ichki olamini, hissiy rivojlanishini boyitadi va ota-onaga mehr bilan munosabatda bo‘lish tuyg‘ularini rivojlantiradi.

Ota-ona roziligiga intilishning bolaga ta’siri

Psixologiyada farzandning ota-onaga bo‘lgan roziligini olishga intilishi bolaning ijtimoiylashuv jarayonida muhim omil hisoblanadi. Bu tuyg‘u farzandda ota-ona roziligini qozonishga intilish, ularning xursand bo‘lishini istash tuyg‘ularini shakllantiradi. Maqol orqali ota-onaning roziligini olish bilan muvaffaqiyat, qulaylik va xotirjamlik topish mumkinligi bolaga anglashiladigan tarzda ifodalanadi, bu esa farzandning o‘z maqsadlarini ota-onaga moslab qurishiga turtki bo‘ladi.

Xulosa:

Mazkur maqolada ota-ona haqidagi maqollarning inson psixologiyasi va tarbiyasidagi o‘rni psixologik tahlil qilinadi. Xalq maqollari oila ichidagi munosabatlarni sog‘lom shakllantirish, ota-onaga hurmat va minnatdorchilik hissini bolalar ongiga singdirishda muhim ahamiyatga ega. “Ota uyda ona burchda”, “Onasi borning yuragi to‘q” kabi maqollar oiladagi har bir a’zo o‘z o‘rnini bilishi va bir-birini qadrlashi kerakligini ta’kidlaydi, bu esa farzandlar ruhiyatida mehr, hurmat va mas’uliyat tuyg‘ularini shakllantiradi.

Psixologik jihatdan, maqollar bolalarga ota-ona roziligini qadrlashni, ularning qo‘llab-quvvatlashi va mehrini tushunishni o‘rgatadi, bu esa sog‘lom oila muhitini saqlashga yordam beradi. Ota-ona bilan o‘zaro hurmatli munosabatlarni targ‘ib qiluvchi maqollar nafaqat milliy, balki umuminsoniy qadriyatlarni ham shakllantirib, yosh avlodni ijtimoiy jihatdan moslashuvchan va psixologik jihatdan sog‘lom shaxs bo‘lib yetishishida muhim rol o‘ynaydi. Shunday qilib, ota-ona haqidagi maqollar farzandlar ongida ota-ona va oilaning hayotdagi asosiy tayanch ekanligini chuqur singdirishga xizmat qiladi.

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hojiahmedov, A., & Ashurmatova, R. (2007). Oila va tarbiya. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
2. Navoiy, A. (1981). Maqollar va hikmatlar. Toshkent: Fan.
3. Ergasheva, Z. (2016). "O‘zbek xalq maqollari va ularning psixologik tahlili".
4. Erkaev, M. (2012). O‘zbek xalq og‘zaki ijodi.
5. Shahkarimov, K. (2018). "Ota-ona va farzand munosabatlarining psixologik tahlili".
6. Asqarova, S. (2015). Oila psixologiyasi: nazariya va amaliyot. Toshkent: Ma’naviyat.

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

LOGISTIK STRATEGIYANING ISHLAB CHIQISH BOSQICHLARI VA USULLARI

Ergashev Jakhongir Baxodirovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
"Marketing" kafedrasi Assitent-stajyori

Raximkulova Dilnoza Ravshan qizi
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola O'zbekistonning mintaqaviy sharoitlariga moslashtirilgan logistik strategiyalarni ishlab chiqish va ularni optimallashtirishga qaratilgan. Zamonaviy bozor sharoitida samarali logistik tizimlar nafaqat moddiy resurslar oqimini boshqarishni, balki xarajatlarni minimallashtirish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirishni talab qiladi. O'zbekistonning logistik infratuzilmasi va global savdo tarmoqlariga integratsiyasi rivojlanayotgan bo'lsa-da, mavjud logistik strategiyalarda mintaqaviy sharoitlarni hisobga olishdagi kamchiliklar mavjud. Oldingi tadqiqotlar, ayniqsa, SWOT va ABC tahlil kabi zamonaviy usullarni mintaqaviy ehtiyojlarga moslashtirishda bilimlar bo'shlig'ini ko'rsatgan. Ushbu tadqiqotda mazkur usullarni qo'llash orqali O'zbekiston logistik tizimlarining samaradorligini tahlil qilish maqsad qilindi. Tadqiqot natijalari, mavjud logistik strategiyalarda raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan tizimlarning samarali qo'llanilmaganini ko'rsatdi. Xalqaro tajribalarni O'zbekistonning mintaqaviy sharoitlariga moslashtirish orqali yangi logistik strategiya modeli ishlab chiqildi. Natijalar, logistik jarayonlarni avtomatlashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish korxonalar samaradorligini oshirishiga xizmat qiladi. Tadqiqotning kelajakdagi istiqbollari, mintaqaviy sharoitlarga mos strategiyalarni yanada chuqurroq o'rganish va raqamli texnologiyalarni qo'llashga qaratilgan tadqiqotlarni davom ettirishni talab qiladi.*

Kalit so'zlar: *Logistika strategiyalari, SWOT tahlili, ABC tahlili, Avtomatlashtirish, Raqamli texnologiyalar, Mintaqaviy modellar, Samaradorlik, Innovatsion strategiyalar.*

Raqobatbardosh bozor sharoitida logistika tizimlari muvaffaqiyatli korporativ strategiyaning ajralmas qismi hisoblanadi. Logistika faqat moddiy resurslar harakatini boshqarish emas, balki xarajatlarni minimallashtirish, jarayonlarning tezkorligi va sifatini ta'minlash bilan bir qatorda mijozlar talablarini qondirishning samarali tizimini yaratishga qaratilgan. Zamonaviy korxonalar uchun logistik strategiyani ishlab chiqish murakkab bo'lib, turli metodologiyalarni sintez qilishni talab etadi. Raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan tizimlarning rivojlanishi logistik faoliyatni yangi bosqichga olib chiqdi va strategiyani shakllantirishni yanada dolzarb masalaga aylantirdi.

O'zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlarda logistik infratuzilmani rivojlantirish davlatning strategik ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Transport koridorlari va savdo markazlarining o'sishi bilan mamlakatning global savdo tarmoqlariga integratsiyasi jadallashmoqda. Shu bilan birga, mintaqaviy tafovutlarni bartaraf etish va xalqaro logistika standartlariga moslashish jarayonida korxonalar zamonaviy logistik strategiyalarni ishlab chiqishga ehtiyoj sezmoqda. O'zbekistonning geografik

joylashuvi (Markaziy Osiyoning markazi) unga tranzit va transport markazi sifatida ustunlik beradi. Shu sababli logistik strategiyalar mintaqaviy va global miqyosdagi imkoniyatlardan samarali foydalanishga yo‘naltirilishi kerak.

Logistik strategiya tushunchasi ko‘plab nazariy tamoyillarga asoslanadi. Mintzbergning strategik boshqaruv modeli (1994) logistik tizimlarning ichki va tashqi muhitni hisobga olgan holda moslashuvchan strategiyalar ishlab chiqishga asoslanadi. Bundan tashqari, Lambertning logistika tarmoqlarini boshqarish modeli (2008) ta’minot zanjirining samaradorligini oshirishga qaratilgan. Ushbu tadqiqot ushbu nazariy asoslar orqali logistik strategiyani rejalashtirish va optimallashtirishning mintaqaviy modelini ishlab chiqishni maqsad qiladi.

Tadqiqotlar tahlili. Logistika va strategik boshqaruv bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazilgan. Masalan, Christopher (2016) logistik jarayonlarda mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifati va xarajatlarni minimallashtirish o‘rtasidagi muvozanatni ta’kidlaydi. Chopra va Meindl (2020) logistika tarmog‘ining integratsiyasini ta’minlashga qaratilgan strategiyalarni chuqur o‘rgangan. O‘zbekistondagi tadqiqotlar (masalan, Mirkhamidov, 2021) logistik tizimlarning rivojlanish imkoniyatlari bilan bog‘liq, biroq ularning strategik boshqaruv vositalarini qo‘llashdagi cheklovlari borligini ko‘rsatgan. Oldingi tadqiqotlarda mintaqaviy sharoitlarda logistik usullarning maxsus qo‘llanilishi kam yoritilgan.

Oldingi tadqiqotlarning ko‘pchiligi logistika strategiyalarini umumiy nazariy jihatdan tahlil qilish bilan cheklangan. Xususan, O‘zbekistondagi mintaqaviy logistika tizimlari va korxonalar uchun moslashtirilgan strategiyalarni ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar yetarli darajada emas. SWOT va ABC tahlil kabi amaliy usullarni mintaqaviy sharoitlarga moslashtirish imkoniyatlari hali chuqur o‘rganilmagan.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi logistik strategiyani ishlab chiqishning bosqichlarini aniq belgilash, eng samarali usullarni tahlil qilish va ularni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirishdan iborat. Shu orqali korxonalar faoliyatini optimallashtirishga qaratilgan yangi yondashuvlarni taklif qilish rejalashtirilmoqda.

Ushbu maqola mintaqaviy logistika sharoitlarida SWOT va ABC tahlil kabi usullarni qo‘llash samaradorligini tahlil qiladi. Natijada yangi strategik model taklif etiladi, bu esa korxonalar logistika jarayonlarini avtomatlashtirish, monitoring qilish va nazorat qilishni soddalashtirishga yordam beradi. Bu mintaqaviy va xalqaro logistika standartlariga moslashuvchan tizimni shakllantirish uchun nazariy va amaliy asos yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot logistik strategiyani ishlab chiqishning bosqichlari va usullarini aniqlash uchun nazariy va amaliy yondashuvlarni o‘z ichiga oldi. Tadqiqot dizayni SWOT va ABC tahlil kabi strategik boshqaruv vositalariga asoslangan.

Ma’lumotlar yig‘ish

- ✓ O‘zbekiston logistika korxonalari bilan intervyu va so‘rovnomalar.
- ✓ Ilmiy maqolalar, xalqaro hisobotlar va davlat statistikasi.

Bosqichlar

1. Mintaqaviy logistika tizimidagi asosiy muammolar aniqlash.
2. SWOT va ABC usullari yordamida kuchli va zaif tomonlarni baholash.
3. Xalqaro tajribalarni integratsiya qilish orqali mintaqaviy sharoitga mos strategiya taklif qilish.
4. Ishlab chiqilgan strategiyani mutaxassislar tomonidan baholash.

Natijalar va Muhokama. Ushbu tadqiqotda logistik strategiyani ishlab chiqishning bosqichlari va usullarini tahlil qilish, shuningdek, O‘zbekistondagi mintaqaviy sharoitlarga mos strategiyalarni ishlab chiqish maqsad qilingan. Tadqiqot davomida SWOT va ABC tahlil kabi amaliy usullarni qo‘llash orqali logistik tizimlarning samaradorligini oshirishga erishildi. Natijada, O‘zbekistondagi logistik tizimlar uchun aniq tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning asosiy natijalaridan biri shundaki, mintaqaviy logistika tizimlari uchun mavjud strategik boshqaruv vositalarining cheklanganligi aniqlandi. O‘zbekistonda logistik tizimlar asosan xalqaro tajribalarga asoslanib, ammo mintaqaviy sharoitlar va maxsus talablar inobatga olinmagan. SWOT va ABC tahlili yordamida, ayniqsa, tashqi va ichki omillarni hisobga olgan holda strategiyalarni optimallashtirish zarurligi ta’kidlandi. Xususan, mintaqaviy korxonalarda logistik faoliyatni avtomatlashtirish va monitoring qilish imkoniyatlari mavjud bo‘lishiga qaramay, bu jarayonlar hali ham samarali qo‘llanilmagan.

O‘rganilgan metodologiya, ayniqsa, SWOT tahlili orqali korxonalar ichidagi zaif tomonlarni aniqlash va kuchli tomonlarni kuchaytirish bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar berdi. Bu o‘z navbatida, korxonalar uchun samarali logistik strategiyalarni ishlab chiqishda yordam beradi. ABC tahlili esa ta’minot zanjirining har bir bosqichidagi xarajatlarni minimallashtirishga imkon yaratdi. Tadqiqotda olingan natijalar, shu bilan birga, mintaqaviy sharoitlarga moslashtirilgan strategiyalarning samarasizligini va innovatsion texnologiyalarning qo‘llanilmasligini ko‘rsatdi.

Mintaqaviy logistika tizimlarida muvaffaqiyatli strategiyalar ishlab chiqish uchun nazariy va amaliy jihatlar birlashtirilgan. Xalqaro tajribalarni o‘rganish va ularni O‘zbekistonning logistika sharoitlariga moslashtirish zarurligi ta’kidlandi. Bunday yondashuv O‘zbekistonda logistika tarmoqlarining samaradorligini oshirish, transport va ta’minot zanjirlaridagi muammolarni bartaraf etish imkonini beradi.

Tadqiqotda ko‘rsatilganidek, logistik strategiyalarning nazariy tahlili va amaliy qo‘llanilishi orasida ma’lum bo‘shliqlar mavjud. Bu bo‘shliqlarni to‘ldirish uchun kelajakda mintaqaviy sharoitlarga moslashtirilgan logistik strategiyalarni yanada chuqurroq o‘rganish zarur. Ayniqsa, avtomatlashtirilgan tizimlar va raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi bo‘yicha ilmiy izlanishlar talab etiladi. Bundan tashqari, O‘zbekistonning geografik va iqtisodiy sharoitlariga mos keladigan innovatsion logistika modellarini ishlab chiqish zarur.

O‘rganilgan tadqiqotlarda O‘zbekiston uchun maxsus logistik strategiyalarni ishlab chiqishda ko‘plab bilimlar bo‘shlig‘ini ko‘rish mumkin. Ayniqsa, zamonaviy raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan tizimlar va mintaqaviy integratsiya bo‘yicha chuqur nazariy va amaliy tadqiqotlar yetishmayapti. Bu bilimlar bo‘shlig‘ini to‘ldirish uchun yangi metodologiyalarni ishlab chiqish va mavjud amaliy usullarni yanada mukammallashtirish zarur.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mintaqaviy logistik strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda hozirgi paytda yetarlicha amaliy qo‘llanma yo‘q. SWOT va ABC tahlili kabi usullarni O‘zbekistonning maxsus sharoitlariga moslashtirish, shuningdek, yangi texnologiyalarni joriy etish korxonalarning samaradorligini oshirishi mumkin. Shuningdek, kelajakda bu masalalarni chuqurroq o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish zarur.

Ushbu tadqiqot, O‘zbekistonning mintaqaviy sharoitlariga moslashtirilgan logistik strategiyalarni ishlab chiqishning ahamiyatini ta'kidlaydi va tashqi va ichki omillarni hisobga olgan holda maxsus yondashuvlarning zarurligini ko‘rsatadi. Tadqiqot O‘zbekistonning logistik tizimlarida SWOT va ABC tahlil kabi strategik boshqaruv vositalarining qo‘llanilishida jiddiy cheklovlar mavjudligini aniqladi, ayniqsa avtomatlashtirilgan tizimlar va raqamli texnologiyalarni integratsiya qilishdagi bo‘shliqlarni ko‘rsatdi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, xalqaro tajribalar qabul qilingan bo‘lsa-da, ular ko‘pincha

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

mahalliy xususiyatlarni hisobga olmaydi, bu esa samaradorlikni pasayishiga olib keladi. Tadqiqotning natijalari shunday xulosaga keladi: O‘zbekistonning logistik sektori avtomatlashtirish va real vaqtda monitoring tizimlarini o‘z ichiga olgan yanada moslashtirilgan va innovatsion strategiyalarni joriy etishdan katta foyda ko‘rishi mumkin. Kelajakdagi tadqiqotlar raqamli texnologiyalarni yanada chuqurroq integratsiya qilish, mintaqaviy logistik modellarning rivojlanishini va global standartlarga mos ravishda logistik jarayonlarni optimallashtirish uchun ilg‘or metodologiyalarni o‘rganishga qaratilishi lozim. Bu O‘zbekistonning iqtisodiy va geografik sharoitlariga moslashgan samarali va barqaror logistik strategiyalarni yaratishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. **Rahmatov, K., & Karimov, Z.** (2019). *O'zbekiston iqtisodiyotida logistika va transport tizimini boshqarish.* Toshkent: «O'zdavlibrary» nashriyoti.
2. **Sodiqov, M.** (2018). *Logistikada innovatsion yondashuvlar: O'zbekiston misolida.* Toshkent: Innovatsiya va Raqamli iqtisodiyot akademiyasi.
3. **Nazarov, S., & Yuldashev, J.** (2020). *O'zbekistonda logistika va ta'minot zanjirining rivojlanish tendensiyalari.* Toshkent: "O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiyot va Sanoat Vazirligi".
4. **Ismailov, A.** (2022). *Ta'minot zanjirini boshqarishda raqamli texnologiyalarning roli.* Toshkent: O'zbekiston iqtisodiyoti nashriyoti.
5. **Abduvokhidov, T.** (2017). *Logistika: Nazariya va amaliyot.* Toshkent: O'zbekiston davlat iqtisodiyot universiteti nashriyoti.
6. **Muminov, M.** (2020). *Logistika va transport tarmoqlarini boshqarish.* Toshkent: "Yuksalish" nashriyoti.

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

КИСЛОТАЛИ МУХИТДАГИ ЭЛЕКТРОКИМЁВИЙ ФАОЛЛАШТИРИЛГАН СУВГА МИКРОЭЛЕМЕНТНИ КОМПОЗИЦИЯЛАШНИНГ ЭРИТМА МИНЕРАЛЛАШУВИГА ТАЪСИРИ

Абдуллаев Мураджон Турсунович
Наманган Муҳандислик Қурилиш институти профессори, қишлоқ хўжалик фанлари номзоди,профессор

Зокиров Карим Розиқжонович
Наманган Муҳандислик Қурилиш институти, мустақил изланувчи

Аннотация: *Ҳозирги кунда дунёнинг турли мамлакатларида табиий сувга турли физик омилларни таъсир эттириб, унинг физик, кимёвий ва биологик хоссаларини ўзгартирган ҳолда кимёвий ва биологик жараёнларга таъсирини ўрганиш бўйича кенг кўламда тадқиқот ишлари олиб борилмоқда. Айниқса кейинги йилларда кимё технологиясида кенг кўламда электролиз жараёнининг шакл ўзгариши сифатида юзага келган йўналиш-электролизга учраган сувда ҳосил бўладиган махсулотларни мембраналар ёрдамида анолит ва католит қисмларга ажратиш юзасидан олиб борилаётган тадқиқотлар кенг кўлам касб этмоқда. Бунда, икки қисмга ажратилган электролиз маҳсулотларидан бири кислотали (анолит мембрананинг анод қисмидаги суюқлик) ва иккинчиси ишқорий (католит мембрананинг катод қисмидаги суюқлик) бўлиб, улар ўз водород кўрсаткичи билангина фарқ қилмасдан, балки физик, кимёвий ва биологик хоссалари билан ҳам бир-биридан, шунингдек, табиий сувдан ҳам фарқ қилади.Шу нуқтаи назардан тадқиқот очиқ дала ва иссиқхона шароитида полиз экинлари етиштиришда уруғларга экишдан олдин ишлов беришда электрокимёвий фаоллашган сув ва унинг микроэлементли композицияларидан фойдаланиш технологиясини яратишга қаратилган бўлиб, технологияда оддий канал ёки водопровод сувига электр токи билан қисқа вақт (15-20 минут) ишлов берилиб, ундан уруғларга экишдан олдин ишлов беришда фойдаланилади. Бунда уруғ электрокимёвий фаоллашган сувнинг кислотали муҳитдаги (анолит, pH=2,5-3,5) эритмаси ҳамда унинг жуда оз концентрациядаги (0,01%) микроэлементли (Cu) композициясида 30 минут ивитиш ва 24 соат давомида ишқорий муҳитдаги электрокимёвий фаоллашган сувда намланган муҳитда 24оС дан кам бўлмаган ҳароратда сақлаб экиш асосида амалга оширилади.Электрокимёвий ишлов беришда олинган сув таркибидаги тузлар унга қўшилган микроэлементлар билан таъсирлашиб, турли физик-кимёвий ўзгаришларга учраши мумкин. Шу нуқтаи назардан мақолада кам минералашган таркибли табиий канал ва водопровод сувларини электрокимёвий фаоллаштириш ҳамда унинг кислотали муҳитдаги (pH=2,5-3,5) қисмига микроэлементни композициялашнинг олинган эритма минералашувига таъсирини ўрганишга оид тадқиқот натижалари келтирилган.*

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

Калит сўзлар: *канал сувлари, водопровод суви, электрокимёвий фаоллашган сув, электролизёр, диафрагма, pH, электрод, анолит, католит, сувнинг минералашганлик даражаси, чучук сув.*

Ҳозирги кунда дунёнинг турли мамлакатларида табиий сувга турли физик омилларни таъсир эттириб, унинг физик, кимёвий ва биологик хоссаларини ўзгартирган ҳолда кимёвий ва биологик жараёнларга таъсирини ўрганиш бўйича кенг кўламда тадқиқот ишлари олиб борилмоқда. Айниқса кейинги йилларда кимё технологиясида кенг кўламда электролиз жараёнининг шакл ўзгариши сифатида юзага келган йўналиш-электролизга учраган сувда ҳосил бўладиган махсулотларни мембраналар ёрдамида анолит ва католит қисмларга ажратиш юзасидан олиб борилаётган тадқиқотлар кенг кўлам касб этмоқда. Бунда, икки қисмга ажратилган электролиз маҳсулотларидан бири кислотали (анолит мембрананинг анод қисмидаги суюқлик) ва иккинчиси ишқорий (католит мембрананинг катод қисмидаги суюқлик) бўлиб, улар ўз водород кўрсаткичи билангина фарқ қилмасдан, балки физик, кимёвий ва биологик хоссалари билан ҳам бир-биридан, шунингдек, табиий сувдан ҳам фарқ қилади (1,2,3,4,5).

Шу нуқтаи назардан биз тадқиқотимизда очиқ дала ва иссиқхона шароитида полиз экинлари етиштиришда уруғларга экишдан олдин ишлов беришда электрокимёвий фаоллашган сув ва унинг микроэлементли композицияларидан фойдаланиш технологиясини яратишни мақсад қилганмиз. Чунки технологияда оддий канал ёки водопровод сувига электр токи билан қисқа вақт (15-20 минут) ишлов берилиб, ундан уруғларга экишдан олдин ишлов беришда фойдаланиш мумкин ва арзон.

Тадқиқот натижаларининг назарий аҳамияти полиз экинлари уруғларига экишдан олдин электрокимёвий фаоллашган сувнинг кислотали муҳитдаги (анолит, pH=2,5-3,5) эритмаси ҳамда унинг жуда оз концентрациядаги (0,01%) микроэлементли (Cu) композициясида 30 минут ивитиш ва 24 соат давомида кислотали муҳитдаги электрокимёвий фаоллашган сувда намланган муҳитда 24°С дан кам бўлмаган ҳароратда сақлаб экиш асосида амалга оширилади. Бундай усулда уруғларга ишлов беришда қўшилган микроэлементнинг далага уруғ билан бирга бир текисда тақсимланишига, зарарли микроорганизмлардан тозаланишига хам имкон яратилади.

Тадқиқотлардан маълумки микроўғитлар тупроққа экишдан олдин солиш, қўшимча озиқлантириш (микроэлементларнинг 0,1—0,05% эритмасини пуркаш), уруғликка экишдан олдин ишлов бериш (уруғликни уларнинг 0,02—0,05% эритмалари билан ҳўллаш) усулларида ишлатилади ва бунда асосан эритувчи сифатида оддий ариқ, канал ва водопровод сувларидан фойдаланилади. Тажрибада эса оддий сув ўрнида электрокимёвий фаоллаштилган сувдан фойдаланганлигимиз учун қўшилган микроэлементнинг фаоллаштирилган эритмадаги турғунлигини, айниқса эритма минералашиш даражасига таъсирини ўрганишни муҳим деб ҳисобладик.

Сув таркибидаги ионларнинг, молекулаларнинг ва турли бирикмаларнинг йиғиндиси унинг минераллашувини кўрсатади. Амударё ва Сирдарёнинг кўп йиллик гидрогеологик ва гидрохимик режими кўрсаткичларини таҳлил қилиш натижалари шуни кўрсатадики, дарё, сувлари минераллашиш даражаси қанчалик пасайган сари унинг сифати ҳам шунчалик ёмонлашади. Лаборатория шароитида сувларнинг минераллашуви қуруқ чўкма оркали ифодаланади. Қуруқ чўкма миллиграмм/литр, грамм/литр, ёки шўр ва номокоп сувларда миллиграм, грамда ифодаланади. Қуруқ чўкманинг миқдорига (минераллашганлик) қараб

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

О.А.Алекин табиий сувларни беш синфга ажратган. Унга кура биринчи синфга кирувчи чучук сувларда қуруқ қолдик миқдори 0-1 г/л бўлиши (айрим адабиётларда 1-1,5 г/л) сувнинг менералашиш даражаси меъёрида эканлигини англатади (6).

Юқорида келтирилган маълумотлар сабабли кам минералашган таркибли табиий канал ва водопровод сувларини электрокимёвий фаоллаштириш хамда унинг кислотали муҳитдаги (pH=*2,5-3,5*) қисмига микроэлементни композициялашнинг олинган эритма минералашувига таъсирини ўрганиш бўйича тадқиқотлар ўтказдик.

Тадқиқотлар Наманган муҳандислик-қурилиш институти “Кимёвий технология” кафедраси қошидаги илмий тадқиқот лабораториясида, Наманган “Сувоқава” ДУК марказий лабораторияси (ўзаро ҳамкорлик шартномаси № 2/2021) да ўтказилди.

Тадқиқот учун ишлатилган сувни электрокимёвий фаоллаштириш Россия федерациясида ишлаб чиқарилган МЕЛЕСТА рутений (ТУ 5156-002-32064510-2007, ЕАЭС № RU Д – RU.MH10.B.01343/20) қурилмасида амалга оширилди (1-расм).




1-расм. Мелеста қурилмаси

Электрокимёвий фаоллаштириш қурилмаси диафрагма билан икки қисмга ажратилиб, ўзгармас электр токи берилганда сувдаги мусбат зарядланган катионлар катодга қараб, манфий зарядланган анионлар анодга қараб ҳаракатланади. Ўз навбатида катодда оксидланиш, анодда қайтарилиш жараёнлари содир бўлади. Биринчи навбатда сув оз миқдорда бўлса ҳам водород катиони ва гидроксил анионларига диссоциланган ҳолатда бўлади. Шунингдек, табиий канал ва водопровод сувида учрайдиган тузлар ҳам катион ва анионларга диссоцияланган бўлади. Электрод электр занжирига уланганда катионлар минус электродга, анионлар плюс электрод томон ҳаракатланади. Анодда гидроксил ионлари OH^- ўз электронларини беради, яъни оксидланиш жараёни кетади. Анодда сувда мавжуд бўлган хлорид ионлари қолади ва улар ўзига водород катион H^+ ларини бириктириб, кислотали муҳит ҳосил қилади

Анодда хлорид ионлари электродга ўз электронларини бериб, эркин хлорга айланади ва натижада катод атрофида Ca^{2+} ионлари қолиб, улар ўзига гидроксил анионларини бириктириб, ишқорий муҳит ҳосил қилади. Натижада (-) электрод мавжуд бўлган эритмадаги майдоннинг (+) га яқин қисми ишқорий, анодга яқин актив қисми эса кислотали муҳит бўлиб қолади (1-схема).

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz



1-схема. Сувга электрокимёвий ишлов бериш механизми

Схемада кўриниб турибдики, катоддаги асосий кимёвий реакциялар водородни ҳосил бўлишидир, иккинчи томондан - эриган кислородни гидроксил ионигача тикланишидир, бунинг ҳисобига муҳит ишқорланади. Гидроксил ионлари металл ионлари билан бирикиб, гидродсидларни ҳосил қилади. Эритмада магний гидроксиди - қийин эрувчан асос бўлганлиги сабабли, чўкмага тушади. Магний гидроксиди тўла чўкиб бўлгандан сўнг кальций гидроксиди ҳосил бўлади, эритмада pH=11,5 га етганда, Ca^{2+} ионлари сувда доимо мавжуд бўлган CO_3^{2-} ионлари билан таъсирланиб, навбатдаги чўкмани ҳосил қилади. Яъни ишқорий сувнинг қаттиқлиги пасаяди. Анодда эса кислород ва хлорнинг ажралиши содир бўлади. Хлор сув билан ўзаро таъсирлашиб, гипохлорит кислота (HClO) ҳосил қилади, бунинг натижасида муҳит кислотали бўлади.

Кам минералашган таркибли табиий канал ва водопровод сувларини электрокимёвий фаоллаштириш хамда унинг кислотали муҳитдаги (pH=*2,5-3,5*) қисмига микроэлементни композициялашнинг олинган эритма минералашувига таъсирини ўрганиш бўйича тажрибалар 3 та вариантда 3 такрорийликда ўтказилди. Бунда 1-вариантда шимолий Фарғона канали сувидан, 2-вариантда Наманган канали сувидан ва 3-вариантда Наманган шахар худудидан олинган водопровод сувидан фойдаланилди. Тажриба учун намуналар тегишли объектлардан 60 литр хажмда 2023 йилнинг 1 ноябрь санасида олинди.

Тадқиқотда олинган намунларнинг табиий ҳолатдаги (назорат варианти сифатида), электрокимёвий фаоллаштиришдан кейинги ва электрокимёвий фаоллаштирилган сувнинг кислотали муҳитига микроэлементни композициялашгандаги эритма муҳити барча вариантларда халқаро стандартдалар асосида сертификатланган ўлчов қурилмалари ёрдамида аниқланди. Бунда эритмалар муҳити (водород кўрсаткичи, pH) EZ-9901/986 маркали pH-метрда ва минераллашиш даражаси “HANNA”HI 5321 маркали кондуктометр ёрдамида лаборатория шароитида аникланди (2 ва 3 расмлар).

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz



1-расм. EZ-9901/986 маркали pH-метр



2-расм. “HANNA”HI 5321 маркали кондуктометр

Бунда 1 – вариант табиий холадаги шимолий Фарғона канали сувининг 18°С хароратда pH=7,8, минералашиш даражаси 340,7мг.л. (340,7 ppm), минерал тузларнинг умумий концентрацияси 1,4%, 2-вариант табиий ҳолдаги Наманган канали сувининг 17°С ҳароратда pH=7,7, минералашиш даражаси 388,7мг.л. (388,7 ppm), минерал тузларнинг умумий концентрацияси 1,5% ва 3-вариант Наманган шахри худудидан олинган водопровод сувининг 17°С хароратда pH=6,6, минералашиш даражаси 332,1мг.л. (332,1 ppm), минерал тузларнинг умумий концентрацияси 1,2% ни ташкил этди.

Олинган намуналар назорат вариантлари буйича таҳлилдан сўнг МЕЛЕСТА курилмасида 20 минут давомида фаоллаштирилди. Сўнгра ҳосил бўлган кислотали ва ишқорий муҳитдаги электрокимёвий ишлов берилган сувнинг минераланганлик даражаси ва муҳити ўлчанди.

Бунда кислотали муҳитдаги (анолит) 1 – вариант шимолий Фаргона канали сувининг 26°С ҳароратда pH=2,64, минералашиш даражаси 730,8 мг.л. (730,8 ppm), минерал тузларнинг умумий концентрацияси 3,1%, 2-вариант Наманган канали сувининг 29°С ҳароратда pH=2,5, минералашиш даражаси 1059,2мг.л. (1059,2 ppm), минерал тузларнинг умумий концентрацияси 4,1% ва 3-вариант водопровод сувининг 29°С ҳароратда pH=2,6, минералашиш даражаси 758,0мг.л. (332,1 ppm), минерал тузларнинг умумий концентрацияси 3% ни ташкил этди.

Ишқорий муҳитдаги (католит) 1 – вариант шимолий Фарғона канали сувининг 26,6°С ҳароратда pH=10,2, минералашиш даражаси 220,8мг.л. (220,8 ppm), минерал тузларнинг умумий концентрацияси 0,9% 2-вариант Наманган канали сувининг 27,8°С ҳароратда pH=10,7, минералашиш даражаси 255,2мг.л. (255,2 ppm), минерал тузларнинг умумий концентрацияси 1% ва 3-вариант водопровод сувининг 28,6°С ҳароратда pH=10,8, минералашиш даражаси 202,0 мг.л. (202,0 ppm), минерал тузларнинг умумий концентрацияси 0,8%, ни ташкил этди (2-жадвал).

Қурилмада икки кисмга ажаратилган электрокимёвий фаоллаштилган сувнинг кислотали муҳитга эга бўлган қисмига барча вариантларда 0,01% микдорида мис (мис купроси асосида) микроэлементли эритмаси тайёрланди ва қўшилган тузнинг эритма минералашувига таъсири ўрганилди. Бунда электрокимёвий ишлов берилган 1 – вариантдаги шимолий Фарғона канали сувининг кислотали муҳитдаги (анолит) қисмининг 25°С ҳароратда pH=2,4, минералашиш даражаси 960,1 мг.л. (960,1 ppm), минерал тузларнинг умумий концентрацияси 3,8%, 2-вариант Наманган канали сувининг кислотали мухитдаги (анолит) қисмининг 26°С ҳароратда pH=2,3, минералашиш даражаси 1236мг.л. (1236 ppm), минерал тузларнинг умумий концентрацияси 4,8% ва 3-вариант водопровод сувининг кислотали муҳитдаги (анолит) қисмининг 26,7°С

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

хароратда pH=2,1, минералашиш даражаси 958,9мг.л. (958,9 ppм), минерал тузларнинг умумий концентрацияси 3,6% ни ташкил этди (1-жадвал).


1-жадвал. Кислотали муҳитдаги ЭФСга микроэлементни композициялашнинг эритма минераллашувига таъсири

Т.р.	Тажриба вариантлари	Назоратда	Кислотали муҳитда	Микроэлемент Cu^{2+} композицияланганда
1.	ШФК суви	340,7	730,8	960,1
2.	КНК суви	388,7	1059,2	1236,0
3.	Водопровод суви	332,1	758,0	958,9

Таҳлиллар назорат вариантларига нисбатан, электрокимёвий ишлов берилгандан сўнг кислотали муҳитда pH ўртача 2,5-2,6 оралиғида, ишқорий муҳитда эса 10,2-10,8 оралиғидаги қийматларда ўзгарганлиги кузатилди. Айниқса кислотали муҳитда эритманинг минералашиш даражаси барча вариантларда кескин ортганлиги, ишқорий муҳитда эса камайганлиги аниқланди.

Кислотали муҳитдаги электрокимёвий ишлов берилган сувда мис тузи эритилганда ҳам эритманинг минералашиш даражаси барча вариантларда кескин ортганлиги кузатилди (1-диаграмма)

1-диаграмма



Ўтказилган тадқиқотлар асосида қуйидаги хулосалар қилинди

- таҳлиллар табиий холадаги канал ва водопровод сувларининг 17,3 ºС даги ўртача pH=7,36, минералашиш даражаси 353,8 мг.л. (353,8 ppм), минерал тузларнинг умумий концентрацияси эса 1,4% ни ташкил этди;
- электрокимёвий фаоллаштирилган сувнинг анолит қисмига мис микроэлементини қўшилганда унинг тўла эриши кузатилиб, чўкма ҳосил қилмайди;
- назорат вариантларига нисбатан, тажриба вариантларида электрокимёвий ишлов берилгандан сўнг кислотали муҳитда pH ўртача 2,5-2,6 оралиғида, ишқорий муҳитда эса 10,2-10,8 оралиғидаги қийматларда ўзгарганлиги кузатилди;
- кислотали муҳитда эритманинг минералашиш даражаси барча вариантларда кескин ортганлиги, ишқорий муҳитда эса камайганлиги аниқланди.

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Бахир В.М., Кирпичников П.А., Лиакумович А.Г. Механизм изменения реакционной способности активированных веществ //Изв. АН УзССР. Сер. Техн. Наук. – 1982. – №. 4. – С. 70-74.
2. Джурабаев М., Мамаджанов А. Биостимулирующее средство (эл. акт. вода) //Сельское хозяйство Узбекистана.- 1984.- № 2.- С. 42
3. Прилуцкий В.И., Бахир В.М. Электрохимически активированная вода: аномальные свойства, механизм биологического действия. – Москва: ВНИИИМТ АО НПО «Экран», 1997. – 228 с.
4. Абдуллаев М.Т., Хайитов Б,А., Юсупов Д.Р. Изучение нормативных условий выкормки восковой моли на основе электрохимический активированной воды //Международного научного журнала. – Киев, 2016. – № 6. – С. 103-104.
5. Абдуллаев М.Т, Хайитов Б.А., Пўлатов А.С., Рахимов У. Электрокимёвий фаоллаштирилган сувдан биологик воситалар кўпайтиришда фойдаланиш //ФарПИ илмий техника журнали. – Фарғона, 2017. – № 3. – Б. 98-102.
6. Алекин О.А. Основы гидрохимии. I. Гидрометеоиздат, 1970.
7. Абдуллаев М.Т,Зокиров К.Р., Хайитов Б.А.-Иссиқхона шароитида бодринг уруғларига экишдан олдин электрокимёвий фаоллашган сув билан ишлов беришни ўсимликнинг унииши ва ривожланишига таъсири // Science and innovation.-international scientific journal- volum -1 issue 6.-138-150 p
8. Karimjon Zakirov and Murodjon Abdullayev –Stadi of regulatori conditions electrochemical water purification and the composition of mikroelements in it // E3S Web of Conferences , 452 02015(2023) IPFA2023

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Noyabr - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

THE IMPACT OF GLOBALIZATION ON LOCAL ECONOMIES AND CULTURES

Sokhibov Azizbek

Tashkent state university of economics Student of accaunting faculty

Abstract. *The article analyzes the impact of globalization on local economies and cultures, the essence and main forms of the globalization process from the point of view of the world economy, which forms the main trends of the development of countries in modern conditions.*

Kalit so'zlar: *globalization, national economy, globalism, macroeconomics, regulation, finance, social sphere, information, culture.*

INTRODUCTION

In order to create a clear picture of the current period, it is necessary to take into account the fact that the world history until the beginning of the 20th century consisted of civilizations that developed independently and did not seriously affect each other. Today, the world has changed significantly and turned into a whole organism as a result of the active integration of all aspects of social life in the last hundred years. As a result of this, serious changes began to take place in the social consciousness of some peoples and the entire humanity, determined by global processes and the general (world-wide) problems they cause. It became clear that the world community has entered a new stage of its development, which differs from the previous stages not only by the scale of changes, but also by the level of activity and its universal character.

The whole complex of these changes, as well as their causes, was called globalization (lat. Globus - globe) in the 1990s. Globalization is the process of universalization and formation of structures, connections and relations characteristic of the entire planet Earth in various aspects of society's life. Also, globalization is characterized by the interconnectedness of the global space, a single world economy, general ecological interdependence, global communications, etc.

Globalism. Many efforts to understand the latest trends in world development have led to the emergence of globalistics, an interdisciplinary field of scientific research aimed at understanding the nature, trends and causes of globalization processes, the global problems that arise under their influence and their consequences. came processes. In a broader sense, the term "globalism" refers to

the scientific, philosophical, cultural and practical studies of various aspects of globalization and global problems, including their results, as well as practical activities related to their implementation in the economic, social and social spheres. political fronts, both at the level of some countries and at the international level. Globalistics as an independent scientific direction and field of social practice began to form in the late 1960s, but the objective foundations of its emergence were formed much earlier.

DISCUSSION AND RESULTS

Development realities of the modern economy largely determine the process of any country's participation in world economic processes. This participation can be spontaneous or it can be regulated, aimed at improving the welfare of the population and increasing the efficiency of the economy. The choice determines the macroeconomic regulation of the national economy. As a result of the world crisis, the understanding of the need to qualitatively change the role of the state in the economy expanded. The crisis clearly demonstrated the ineffectiveness of standard macroeconomic regulators. World experience shows that the effective levers of state policy implementation are moving to the institutional sphere. Analysis of the characteristics of economic policy determines the need for research related to the search for ways to harmonize national and international components in macroeconomic regulation. The current stage of globalization is characterized by global instability resulting from the intensification of international competition, the influence of a number of factors of an economic, financial, social, informational, cultural, and religious nature, which increases the contradictions and asymmetries of world economic development. The economic phenomenon of recent years, which has caused an uncertain assessment by many experts and ordinary citizens of most countries of the world, is the deepening of the risks associated with the changes of globalization and the increasing interdependence of the economic development of countries and regions. In the conditions of globalization, the interdependence of national economies leads to an increase in the vulnerability of a particular country to global risks, therefore, the study of the problems of macroeconomic regulation is one of the current directions of economic thought.

The problems of globalization and economic regulation have been studied by economists of many countries. The most famous among foreign authors are J. M. Keynes, J. Galbraith, J. Stiglitz, J. Attali, J. Hicks, E. Hansen, J. Robenson, P. Samuelson. Manifestations and features of modern globalization processes, theory of market economy regulation, macroeconomic policy problems V. V. Zhuravlev, O. T. Bogomolov, V. I. Savchuk, V. N. Livshits, Yu. Knyazev. Considered in the works of K. et al. One of the important forms of the manifestation of globalization changes in the economy of countries

is the formation of the international division of labor, the movement of industrial, human, financial, and information resources throughout the planet, and the standardization of legislative, economic, and technical processes. The emergence and settlement of globalized markets predetermines the dependence of the development of the world economy on external factors.

According to experts, this dependence is average for developed countries 30%, and 60% for developing markets. Downside risks to the global economy have receded, but the recovery remains fragile. The observed patterns of development of globalization of market processes in the world occur unevenly in different types of markets and in different regions. Today, the world economy has moved to the "three-stage" mode of development, successfully developing countries (this is part of the developing countries). Countries where the situation is improving (USA, Sweden, Switzerland) and countries that have to go a certain way (euro area and Japan). New regional integration groups are being created, empires of multinational corporations are being replaced, and an increasing part of business operations is being carried out within the framework of global production complexes and information systems.

Macroeconomic regulation is a set of measures aimed at stabilizing the economy, providing employment and realizing potential production. According to the authors, the main directions of macroeconomic regulation in such conditions are related to restoration of economic growth and increase of labor productivity. For this purpose, it became necessary to create favorable conditions for competition, implement structural reforms, and raise the level of education.

An important direction of macroeconomic regulation is the revision of the state's social policy. In recent decades, the economic policy of Western countries has given priority to strategies aimed at economic efficiency, reduced the importance of social security and social protection programs. However, in times of crisis and general economic uncertainty, governments must ensure a certain level of social stability and social protection. In addition, future economic results are related to the implementation of industrial policy aimed at the development of certain industries. This means that some sectors of the economy, which are a priority for the state, should receive such types of support as cheap loans, direct subsidies. However, this new industrial policy is not about making big sectoral shifts in production, but about coordinating ways to solve problems and overcome barriers to private investment in new industries and technologies, as well as challenges that market mechanisms cannot overcome by themselves. is to eliminate.

Performance of regulatory functions by the state has a significant impact on the entire direction of economic development and changes the character of the market economy. It is the combination of the two beginnings in a certain ratio for each historical stage and economic situation that determines its objective and subjective factors. That interaction is an important feature in the overall process of evolution determined. Although market processes remain primitive today, they develops under the significant influence of state activities, which are economic entities ensures the balance of interests.

The next problem of globalization is the functioning of world financial markets. These processes, along with the liberalization of capital and financial sector movements, lead to a reduction of systemic risks, but different financial and trade relations between institutions and markets allow redistribution of individual risks to the international level. Financial globalization increases the general instability of the world market, increases the likelihood of developing threats to the country's economic security and macroeconomic stability.

Today is a period of rapid development of globalization.

In fact, as long as there is progress, there will be globalization.

Globalization it is not possible to opt out or bypass the process.

Therefore, understanding the essence of globalization, researching its positive and negative effects for our society from a scientific point of view is of great theoretical and practical importance. It is known that threats to the peace and stability of the country cannot be eliminated by themselves. For this, it is necessary to confront and fight against them. Development of modern mechanisms and technologies and their application are important in this struggle. The issue of protecting young people from various ideological attacks has always been an important issue. Especially in today's era of globalization, this issue is one of the number one problems for most countries. One of them is the introduction of various harmful ideas and ideologies that are foreign to the thinking of our people. Protecting our people, especially our youth, from such foreign and harmful ideological attacks is one of the urgent tasks before us. Globalization is such a process that not to study it in depth, not to develop strategy, tactics and technology for its use is equivalent to leaving the country's economy, culture, and spirituality in a stormy river flowing down the mountain.

The analysis of the research conducted and conducted by the scientists of our country during the period of independence shows that the work in this field is just beginning. Globalization also affects national spirituality and culture. If we assume that any policy, including economic policy and spirituality, will

be successful only if it has a scientific basis, then we have to admit that our scientists provide sufficient support to our politicians in this matter.

If we want our country's policy in the world arena to be more effective and successful, it is necessary to deeply research and analyze the nature, directions, and characteristics of globalization. It is through a deeper analysis of this process that it is possible to create an opportunity for politicians to choose the right path and make decisions.

Global development is penetrating all aspects of social and political life.

It is difficult to find any area that has not been affected by this process. Because today including the great changes of the era, they are the most remote in the world at a fast pace is echoing in the corner. The rapid factor common to all of these is called globalization. If we pay attention to the essence of this concept, the first President of our country, I.A. Karimov, interpreted it as follows: "When talking about the phenomenon of globalization, it should be noted that today this term has a very broad meaning as a scientific-philosophical and vital concept. From a general point of view, this process represents the formation of a completely new economic, social-political, natural-biological global environment and, at the same time, the transformation of existing national and regional problems into global problems.

In fact, the problems in the world political arena, as aspects related to the whole of humanity, put a great responsibility on the members of the Earth, they are trying to unite and find an acceptable solution to the problems.

In the sixties of the last century, the term globalization appeared in scientific and popular dictionaries, various views on this concept and this scientific studies expressing the essence of the category began to appear.

As a result, the leader of our country Sh. M. Mirziyoev's information factor in ensuring peace, stability, inter-ethnic harmony in the conditions of democratic development, the importance of the mass media, the state and the people in the conditions of democratization communication, conceptual ideas created about the tasks of the state in the conditions of ideological struggle are very important.

Globalization is an increase in interaction and connection between the economy, culture, spirituality, and people of different countries. Assessing "globalization" only as a negative phenomenon and opposing it can lead to the denial of various natural and social connections in social life.

The process of globalization should be free from "ideology" and its goals.

Three dimensions of the globalization process:

1. Globalization is a continuous historical process;

2. Globalization is the process of homogenization and universalization of the world;

3. Globalization is the process of "washing away" of national borders.

Supporters of globalization are called globalists. Among them there are more statesmen, politicians, industrialists and businessmen.

Opponents of globalization are called anti-globalists, and among them there are more representatives of leftist forces, trade unions and youth organizations.

There are ideas that come knocking on our door with an open face. There are also ideas that look for a hole like a "thief". Knock on the door coming ideas serve to enrich and develop national spirituality. This are universal ideals.

CONCLUSION

In conclusion, we emphasize that the state's competitiveness is determined by its ability to provide favorable positions for the national economy in the system of international relations, to increase the rate of economic growth, to increase employment and real income of the population. It is impossible to implement directions of macroeconomic regulation of the economy of Uzbekistan without taking into account the impact of globalization trends on the development of national economic potential. Natural, human, and financial potential actively participates in integration processes and cooperation with foreign countries, regions, organizations, and enterprises. The deepening of globalization processes is an effective mechanism of state regulation of integration into the world economic system requires adaptation of the national economy to global changes through development.

List of used literature:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent.:Ma’naviyat, 2008. – B. 111.
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent:O‘zbekiston,2016.
3. Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug‘at. T.: Sharq, 2006. 47- b.
4. Jahon iqtisodiyoti uchun pasayish xavfi kamaydi, ammo tiklanish zaif bo'lib qoladi - Moody's 16.02.2013 dan. [Elektron resurs.

Jild: 04, Nashr: 11 | Noyabr - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

5. Knyazev Yu.K.Zamonaviy iqtisodiyot- bozor va ijtimoiy tartibga solish sintezi: Yu.K. Knyazev: [Monografiya] - M .: INFRA-M, 2014. - 176 p.

6. Krichevskiy N. A., Inozemtsev V. L. Pikalevskayadan keyingi Rossiya: Yangi siyosiy va iqtisodiy voqelik. [Elektron resurs]. - Kirish rejimi: http: //periferic.h16.ru/postpikalevo.

7. Yevroosiyo siyosiy iqtisodi: Darslik / Ed. I. A. Maksimtsev, D. Yu. Miropolskiy, L. S. Tarasevich. - Sankt-Peterburg: Sankt-Peterburg davlat iqtisodiyot universiteti nashriyoti, 2016 yil - 684 p.

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
IoT, sun’iy intellekt va blokcheyn texnologiyalarini joriy qilishning iqtisodiy samaradorligi tahlillari transport va omborlash xarajatlarini mos ravishda 20% va 15% ga qisqartirish imkonini ko‘rsatmoqda. Ushbu texnologiyalar ta'minot zanjiri jarayonlarini avtomatlashtirish va kuzatish samaradorligini oshiradi.

Muhokama. Tahlil natijalari O‘zbekiston logistika tizimida transport xarajatlarining yuqori ekanligini tasdiqlab, logistika samaradorligini oshirish zaruriyatini ko‘rsatdi. Jahon bankining **Logistika**

samaradorligi indeksi (LPI) bo‘yicha tadqiqotlari O‘zbekistonning bojxona jarayonlari va transport infratuzilmasidagi kamchiliklarini yoritib beradi. Bu esa xalqaro tajribani mahalliy sharoitlarga moslashtirish zarurligini ta'kidlaydi.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalarni qo‘llashda mahalliy korxonalar orasida bilim va ko‘nikmalar yetishmasligi aniqlangan. Yevropa va Osiyo mamlakatlari tajribasi logistika sohasidagi innovatsiyalar samarasini tasdiqlab, O‘zbekistonda ushbu yondashuvlarning joriy etilishi dolzarbligini ko‘rsatmoqda.

Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy bo‘shliqlar aniqlandi:

1. Logistika xarajatlarining aniq tuzilmasini chuqur tahlil qilish bo‘yicha yetarli tadqiqotlar yo‘qligi.
2. IoT va sun’iy intellekt kabi texnologiyalarning iqtisodiy samarasini hisoblashga qaratilgan empirik tadqiqotlarning yetishmasligi.
3. Hududiy solishtirma tahlillarning cheklanganligi sababli, O‘zbekistonning mintaqaviy raqobatbardoshligiga ta'sir qiluvchi omillar to‘liq yoritilmagan.

Kelgusidagi tadqiqot yo‘nalishlari

1. Logistika tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun matematik modellar ishlab chiqish. Raqamli texnologiyalarning ta'minot zanjiriga ta'sirini chuqur o‘rganish.
2. Transport va saqlash jarayonlarida raqamli texnologiyalarni eksperimental joriy etish orqali ularning samaradorligini aniqlash.
3. O‘zbekistonning logistika tizimini Markaziy Osiyo davlatlari bilan taqqoslash va samarali boshqaruv yondashuvlarini aniqlash.

Logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, bojxona jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish, shuningdek, IoT va sun’iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish orqali O‘zbekiston logistika tizimini sezilarli darajada takomillashtirish mumkin. Ushbu yondashuvlar logistika xarajatlarini qisqartirish va ta'minot zanjirining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston logistika tizimida xarajatlarni optimallashtirish va samaradorlikni oshirish uchun strategik yondashuvlarning ahamiyatini ko‘rsatdi. Mamlakatning geografik joylashuvi natijasida yuqori transport va saqlash xarajatlari kuzatilayotgani, bu esa xalqaro savdodagi raqobatbardoshlikka salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani aniqlangan. Regression tahlillari transport infratuzilmasi va bojxona jarayonlarining soddalashtirilishi xarajatlarni sezilarli darajada qisqartirish imkonini berishini tasdiqladi. IoT, sun’iy intellekt va blokcheyn kabi zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish imkoniyatlarini baholash orqali raqamlashtirishning iqtisodiy samarasi haqida chuqur tushuncha berildi. Ushbu topilmalar nafaqat logistika tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirishga, balki mahalliy va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini kuchaytirishga qaratilgan strategiyalarni shakllantirishga hissa qo‘shadi. Shu bilan birga, tadqiqotda infratuzilma kamchiliklari, raqamlashtirish darajasi pastligi va me’yoriy-huquqiy islohotlarning chegaralangan ta’siri kabi muhim bilim bo‘shliqlari aniqlangan bo‘lib, bu mavzuni kelgusida yanada chuqurroq o‘rganish zaruratini ko‘rsatdi. Keyingi tadqiqotlar logistika sohasida innovatsion texnologiyalarning qo‘llanilish samaradorligini ko‘rsatadigan kengroq empirik ma’lumotlarni yig‘ishga va mintaqalararo taqqoslash orqali strategik yechimlar ishlab chiqishga qaratilishi lozim.

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Boboyev N. Logistika asoslari. Darslik - Samarqand: SamISI, 2023. - 292 b. ISBN: 978-9943-9457-6-0.
2. M Boboyev N. Logistika. O'quv qo'llanma. - Samarqand: SamISI, 2021. - 330 b. ISBN: 978-9943-7641-5-6
3. S. A. Tursunov, *Transport va logistika tizimlari: nazariy asoslar va amaliyot*, Toshkent, 2019
4. Z. M. Karimov, *Maxsus iqtisodiy zonalar: rivojlanish istiqbollari va tartibga solish*, Toshkent: Iqtisodiyoti va tizimlarni rivojlantirish markazi, 2018
5. A. S. Abdurakhmonov, *Xorijiy investitsiyalar va ularning O'zbekistonda ta'siri*, Toshkent: O'zbekiston iqtisodiyoti, 2020
6. M. K. Nasirova, *Ijtimoiy va iqtisodiy infratuzilma: rivojlanish muammolari va yondoshuvlar*, Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat boshqaruvi akademiyasi nashriyoti, 2021
7. I. N. Abduvokhidov, *Logistika va transport tizimlarining samaradorligini oshirish*, Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti, 2017
8. R. Sh. Karimov, *Investitsiya strategiyalari va O'zbekistonda chet el kapitalining o'rni*, Toshkent: Akad. Press, 2022
9. D. S. Raxmatov, *Maxsus iqtisodiy zonalardagi soliq imtiyozlari va ularning ta'siri*, Toshkent: Iqtisodiyot va tadbirkorlik nashriyoti, 2019
10. N. Sh. Alimova, *O'zbekistonda logistika xizmatlarining rivojlanish istiqbollari*, Toshkent: Toshkent moliya institutining nashriyoti, 2021

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI
Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

IJTIMOIY-EKOLOGIK MADANIYATNING NAZARIY ASOSLARI VA UNING SHAKLLANISHI

Mamajonova Fotimaxon Uktamovna
Andijon davlat tibbiyot institute, Akademik litsey biologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ijtimoiy-ekologik madaniyatning nazariy asoslari va uning shakllanish jarayonini tahlil qilingan. Ijtimoiy-ekologik madaniyatni inson va jamiyatning tabiatga mas'uliyatli munosabatini ifodalovchi ijtimoiy hodisa sifatida ta'riflab, uning tarkibiy qismlari, ta'sir etuvchi omillari va rivojlantirish yo'nalishlarini yoritilgan. Tadqiqot ijtimoiy-ekologik madaniyatni shakllantirishda ekologik ong, axloqiy qadriyatlar va amaliy faoliyatning ahamiyatini ta'kidlaydi.*

Maqola barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga oshirishda ekologik ta'lim, huquqiy mexanizmlar, axborot texnologiyalari va ommaviy axborot vositalarining rolini ko'rsatib beradi. Shuningdek, ekologik madaniyatni rivojlantirishda davlat siyosati va jamoatchilik faolligining o'rni tahlil qilinadi. Унда ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirish zamonaviy ekologik muammolarni hal qilish va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun muhim omil ekanligini yoritilgan.

Kalit so'zlar: *ijtimoiy-ekologik madaniyat, ekologik ong, barqaror rivojlanish, ekologik axloq, tabiiy resurslar, ekologik ta'lim, ekologik muammolar, ekologik qadriyatlar, ijtimoiy mas'uliyat va ekologik xulq-atvor.*

Kirish. Insoniyatning tabiiy muhitga nisbatan munosabati, rivojlanish jarayonlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, hozirgi global ekologik muammolar ushbu munosabatni qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, chiqindilar muammosi, tabiiy resurslarning cheklanishi kabi hodisalar zamonaviy dunyoda eng dolzarb masalalardan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Ushbu muammolar nafaqat ekologik muvozanatni buzmoqda, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga ham jiddiy xavf tug'dirmoqda. Bu esa ekologik mas'uliyatni oshirish va ijtimoiy-ekologik madaniyatni shakllantirish zaruriyatini kun tartibiga keltirmoqda.

Ijtimoiy-ekologik madaniyat, inson va jamiyatning tabiatga bo'lgan ongli va mas'uliyatli munosabatini ifodalaydi. Ushbu madaniyat nafaqat tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishni o'z ichiga oladi, balki barqaror rivojlanish tamoyillariga mos ravishda inson faoliyatini muvofiqlashtirishni ham ta'minlaydi. Ijtimoiy-ekologik madaniyatning shakllanishi, avvalo, ekologik ong va xulq-atvor, ekologik axloq va qadriyatlar tizimi orqali jamiyatning umumiy madaniyatiga integratsiyalashgan holda rivojlanadi.

Bugungi global ekologik vaziyatni hisobga olgan holda, ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirish bo'yicha nazariy va amaliy tadqiqotlarni olib borish muhim ilmiy vazifadir. Ijtimoiy-ekologik madaniyat, bir tomondan, tabiiy muhitni himoya qilishni ta'minlaydigan axloqiy me'yor va qadriyatlar tizimi sifatida, ikkinchi tomondan esa jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiluvchi vosita sifatida ko'rib chiqilishi lozim.


Ushbu maqola ijtimoiy-ekologik madaniyatning nazariy asoslarini o'rganishga va uning shakllanish

jarayonini tizimli tahlil qilishga qaratilgan. Maqola doirasida ijtimoiy-ekologik madaniyatning tarkibiy qismlari, shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar va uni rivojlantirish yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi. Bundan tashqari, ekologik ongni rivojlantirish va barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga oshirishda ijtimoiy-ekologik madaniyatning o‘rni ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan samarali yondashuvlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish zaruriyatida namoyon bo‘ladi.

Asosiy qism. Ijtimoiy-ekologik madaniyat – bu insoniyatning tabiiy muhitga mas’uliyatli munosabatini ifodalovchi, ekologik ong, axloq va xulq-atvorga asoslangan ijtimoiy hodisadir. Ushbu madaniyat tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ijtimoiy-ekologik madaniyatning nazariy asoslari ekologiya, ijtimoiy fanlar va barqaror rivojlanish tamoyillarining o‘zaro uyg‘unlashuviga asoslanadi.

Ekologiya va ijtimoiy fanlarning integratsiyasi ijtimoiy-ekologik madaniyatning shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Ekologiya tabiiy muhitning holatini tahlil qilsa, ijtimoiy fanlar jamiyatning tabiiy resurslarga ta’siri va bu ta’sirning oqibatlarini o‘rganadi. Ushbu fanlarning sintezida ekologik axloq va mas’uliyat tushunchalari rivojlanadi.

Barqaror rivojlanish kontseptsiyasi esa ijtimoiy-ekologik madaniyatni shakllantirishning nazariy bazasi hisoblanadi. Bu kontseptsiya hozirgi avlodning ehtiyojlarini qondirish bilan birga kelajak avlodning imkoniyatlarini cheklamaslik



1-rasm. Ijtimoiy-ekologik madaniyatning tuzilishi.

tamoyiliga asoslanadi. Barqaror rivojlanish ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy muvozanatni ta’minlash orqali ekologik madaniyatni kengaytirishni nazarda tutadi.

Ijtimoiy-ekologik madaniyat bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan bir nechta asosiy tarkibiy qismlardan tashkil topgan. Ushbu qismlar ekologik ong, axloqiy qadriyatlar va amaliy faoliyat orqali ifodalanadi. Хусусан:

1. Ekologik ong va tafakkur. Ekologik ong insonning tabiat va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglashidan iborat bo‘lib, uning asosida tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan xatti-harakatlar shakllanadi. Bu tushuncha odamlarning ekologik muammolarga bo‘lgan munosabatini belgilaydi. Ekologik ong rivojlanishi uchun quyidagi omillar muhimdir:

- *ekologik ta'lim va tarbiya.* Maktab va oliy ta'lim muassasalarida ekologik bilimlarni o'rgatish orqali ekologik ongni mustahkamlash;
- *ijtimoiy xabardorlik.* Media va axborot texnologiyalari yordamida ekologik muammolar haqida ma'lumot tarqatish.
- *madaniy muhit.* Jamiyatdagi ekologik qadriyatlarning kuchayishi.

2. Axloqiy me'yorlar va ekologik qadriyatlar. Ekologik axloq inson va tabiat o'rtasidagi mas'uliyatli munosabatni belgilaydigan axloqiy me'yorlar tizimidir. Ushbu me'yorlar ekologik mas'uliyatni oshiradi va barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan xatti-harakatlarni rag'batlantiradi. Ekologik qadriyatlar esa jamiyatda ekologik ongni rivojlantirish uchun axloqiy yo'riqnomalar vazifasini bajaradi. Ushbu qadriyatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tabiatni himoya qilish;
- chiqindilarni qayta ishlashni targ'ib qilish;
- resurslardan oqilona foydalanish.

3. Amaliy faoliyat va ekologik xulq-atvor. Ekologik xulq-atvor insonlarning kundalik hayotida tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan xatti-harakatlar majmuidir. Bu chiqindilarni ajratish, suv va energiyani tejash, yashil hududlarni ko'paytirish kabi odatlarni shakllantiradi. Jamoaviy ekologik aksiyalar va loyihalar esa jamiyatda ekologik xulq-atvorni kuchaytirishda samarali vositadir.

Misol uchun:

- *chiqindilarni boshqarish loyihalari.* Jamiyatda chiqindilarni ajratish va qayta ishlashni yo'lga qo'yish.
- *daraxt ekish kampaniyalari.* Hududlarni ko'kalamzorlashtirish va tabiiy muhitni tiklash.
- *ekologik targ'ibot tadbirlari.* Ekologik muammolarni jamoatchilikka yetkazish uchun seminarlar va treninglar tashkil qilish.

Ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirish ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ulardan eng muhimlari quyidagilardir:

1. Ta'lim va tarbiya. Ekologik ta'lim va tarbiya ijtimoiy-ekologik madaniyatni shakllantirishning poydevorini tashkil etadi. Maktab va oliy ta'lim muassasalarida ekologik bilimlarni chuqur o'rgatish, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish va o'quvchilarni ekologik muammolarni hal qilishga jalb qilish orqali yosh avlodning ekologik ongini oshirish mumkin. Shuningdek, ekologik aksiyalar va loyihalar orqali yoshlarning amaliy faoliyatga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish zarur.

2. Axborot texnologiyalari va media. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali ekologik mas'uliyatni targ'ib qilish jamiyatda ekologik ongni rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Media ekologik muammolarni yoritish, aholiga axborot yetkazish va ekologik xulq-atvorni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

3. Huquqiy va siyosiy omillar. Davlatning ekologik qonunchiligi va siyosati ijtimoiy-ekologik madaniyatni shakllantirish uchun huquqiy asos yaratadi. Ekologik qonunlar, chiqindilarni boshqarish bo'yicha qoidalar va davlat tomonidan ekologik dasturlarni amalga oshirish jamiyatda mas'uliyatni oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, davlat va nodavlat tashkilotlarning hamkorligi ekologik muammolarni hal qilishda katta ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi zamonda ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirish qator global va mahalliy muammolar bilan bog'liq. Iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi va chiqindilar muammosi kabi

masalalar bu madaniyatni shakllantirishda asosiy dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ushbu muammolarni hal qilishda quyidagicha yondashuvlar muhim:

1. Parij kelishuvi va barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish.
2. Chiqindilarni qayta ishlash, daraxt ekish va suvni tejash bo‘yicha mahalliy dasturlarni kengaytirish.
3. Jamiyatning barcha qatlamlarini ekologik muammolarni hal qilishga jalb qilish.

Ijtimoiy-ekologik madaniyatning shakllanishi jamiyatning barqaror rivojlanish yo‘lida mas’uliyatli yondashuvini ta’minlaydi. Ushbu madaniyat nafaqat tabiiy muhitni muhofaza qilishga, balki jamiyatning ekologik farovonligini oshirishga ham xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ekologik ta’limni rivojlantirish, ommaviy axborot vositalari orqali xabardorlikni oshirish va davlat siyosatini mustahkamlash ushbu madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan tadqiqotlar yangi ilmiy yondashuvlar va innovatsion texnologiyalar bilan boyib bormoqda. Global iqlim o‘zgarishi, chiqindilarni boshqarish va tabiiy resurslarning tanqisligi kabi muammolar ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishni shunchaki tavsiyalar darajasidan strategik jarayonga aylantirishni talab qilmoqda. Shu sababli, ekologik madaniyatni ilmiy asosda o‘rganish nafaqat ekologik, balki ijtimoiy-iqtisodiy masalalar uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. Бу борада қуйидаги аспектлар муҳим ўрин тутади:

I. Ekologik ma’lumotlarni boshqarish bo‘yicha raqamli texnologiyalar So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar ekologik ta’lim va madaniyatni rivojlantirishda muhim o‘rin tutmoqda. Sun’iy intellekt va “Big Data” texnologiyalari atrof-muhit monitoringi, chiqindilarni boshqarish va tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha samarali qarorlar ishlab chiqishda keng qo‘llanilmoqda. Masalan:

а) ekologik kuzatuv tizimlari. Sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlari va IoT (Internet of Things) texnologiyalari yordamida hududiy ekologik muammolarni aniqlash va ularga yechim topish;

б) raqamli ekologik o‘yinlar. Yoshlar orasida ekologik ongni rivojlantirish uchun ekologik muammolarni aks ettiruvchi interfaol o‘yinlar yaratish.

в) chiqindilarni boshqarish bo‘yicha ilovalar. Chiqindilarni qayta ishlash va ularni ajratish jarayonlarini rag‘batlantirish uchun mobil ilovalar va platformalar ishlab chiqish.

II. Ekologik axloq va ongni rivojlantirishga qaratilgan ta’lim modellari. Ekologik ta’lim ijtimoiy-ekologik madaniyatni shakllantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy yondashuvlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

а) interfaol ta’lim metodikasi. Onlayn platformalar orqali ekologik muammolarni muhokama qilish va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish;

б) STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvi. Ekologik masalalarni texnik va ijodiy yondashuv orqali o‘rganish, bu esa yangi ekologik texnologiyalarni yaratishga yo‘naltirilgan;

в) hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga asoslangan ta’lim. Yoshlarni ekologik xulq-atvor, mas’uliyat va ekologik qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga o‘rgatish.

3. Mahalliy va global ekologik hamkorlik. Ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishda xalqaro va mahalliy tashabbuslarning integratsiyasi muhim ahamiyatga ega. Jumladan:

а) mahalliy ekologik loyihalar. daraxt ekish, yashil hududlarni kengaytirish va chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha dasturlar;

б) xalqaro kelishuvlar va tashabbuslar. Parij kelishuvi, BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari

(SDGs) va boshqa xalqaro ekologik dasturlarning jamiyatga tatbiq etilishi.

в) jamoatchilik faolligi. Ekologik harakatlarda volontyorlik va fuqarolik tashabbuslarining o‘rni.

Ekologik iqtisodiyot barqaror rivojlanishni ta’minlashda yangi yondashuvlarni taklif etmoqda. Ijtimoiy-ekologik madaniyatni shakllantirishda yashil iqtisodiyot modellarini joriy etish ekologik mas’uliyatni oshirish va iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashga yordam bermoqda. Misol uchun:

- uglerod chiqindilarini minimallashtirish orqali atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish;
- quyosh, shamol va bioenergiya kabi manbalardan keng foydalanish;
- tovar va materiallarni qayta ishlash orqali chiqindilarni kamaytirish;

Hozirgi davrda ekologik muammolarni hal qilishda zamonaviy tahlil usullari keng qo‘llanilmoqda. Masalan:

1) **hayot sikli tahlili (Life Cycle Assessment).** Mahsulotning ishlab chiqarishdan tortib utilizatsiyagacha bo‘lgan ekologik ta’sirini baholash;
2) **ekotizim xizmatlarini iqtisodiy baholash.** Tabiiy resurslarning iqtisodiy ahamiyatini o‘lchash;

   So‘nggi tadqiqotlarda ijtimoiy ekologiya tamoyillarining jamoat ekologik harakatlariga ta’siri o‘rganilmoqda. Ushbu nazariyalar ekologik mas’uliyatni shaxsiy qarorlardan jamoaviy harakatlarga aylantirish mexanizmlarini tavsiflaydi.
3) **texnologiyalar va ta’limni uyg‘unlashtirish.** Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalaridan foydalangan holda ekologik bilimlarni ta’limga tatbiq etish;
4) **ekologik innovatsiyalarni rag‘batlantirish.** Barqaror rivojlanishni ta’minlovchi texnologiyalarni moliyalashtirish va qo‘llab-quvvatlash;
5) **fuqarolik jamiyatining roli.** Mahalliy ekologik loyihalarni amalga oshirishda jamiyatning barcha qatlamlarini jalb qilish;
6) **iqlimga moslashish strategiyalari.** Iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va joriy etish.

Ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirish nafaqat tabiatni muhofaza qilish, balki barqaror rivojlanishni ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Ilmiy yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va xalqaro hamkorliklar ushbu madaniyatni yangi bosqichga olib chiqib, zamonaviy ekologik muammolarni hal qilishga xizmat qiladi. Bu esa ekologik mas’uliyatli jamiyatni shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa. Ijtimoiy-ekologik madaniyat zamonaviy ekologik muammolarni hal qilish va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun muhim omil hisoblanadi. Ushbu madaniyatning shakllanishi ekologik ong va axloqni rivojlantirish, tabiatga bo‘lgan mas’uliyatli munosabatni mustahkamlash hamda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ekologik tamoyillar bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan.

Mazkur tadqiqotda ijtimoiy-ekologik madaniyatning nazariy asoslari, tarkibiy qismlari va shakllanish jarayoni tizimli tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ekologik ong va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishda ta’lim, tarbiya, huquqiy mexanizmlar va axborot texnologiyalari muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Shuningdek, ekologik madaniyatni shakllantirishda jamoatchilik faolligi va davlat siyosatining muvofiqligi hal qiluvchi rol o‘ynashi ta’kidlandi.

Bugungi global muammolar, iqlim o‘zgarishi, chiqindilarni boshqarish, suv va tabiiy resurslarning tanqisligi – ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirish zaruratini kuchaytirmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish uchun quyidagi yo‘nalishlardaи chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

- ekologik ta’limni kengaytirish va interfaol metodlarni joriy etish;
- axborot texnologiyalari orqali ekologik ongni oshirish;
- barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- innovatsion texnologiyalar va ekologik iqtisodiy modelni joriy etish.

Umuman olganda, ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirish nafaqat tabiatni muhofaza qilish va resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlaydi, balki jamiyatda ekologik mas’uliyatni kuchaytirib, barqaror va sog‘lom hayot tarzini shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, kelgusida ijtimoiy-ekologik madaniyatni yanada chuqurroq o‘rganish va uning rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv ekologik xavfsizlikni ta’minlash va kelajak avlodlar uchun barqaror yashash muhitini yaratishda katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Pulatova N. Ijtimoiy ekologik ong va ekologik madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 16. – С. 42-49.
2. Rotarangi S. J., Stephenson J. Resilience pivots: stability and identity in a social-ecological-cultural system //Ecology and Society. – 2014. – Т. 19. – №. 1.
3. Turner N. J., Davidson-Hunt I. J., O'flaherty M. Living on the edge: ecological and cultural edges as sources of diversity for social—ecological resilience //Human Ecology. – 2003. – Т. 31. – С. 439-461.
4. Rotarangi S., Russell D. Social-ecological resilience thinking: Can indigenous culture guide environmental management?. – 2009.
5. Andrachuk M., Armitage D. Understanding social-ecological change and transformation through community perceptions of system identity //Ecology and Society. – 2015. – Т. 20. – №. 4.

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Косимова Гуллола Муллажоновна
Независимый научный сотрудник
Андижанского государственного
педагогического института

Сеитмеметова Алина Руслановна
студентка 3 – курса, заочного обучения
Андижанского государственного
педагогического института

Аннотация: *В этой статье даётся информация об инновационных технологиях на уроках математики в начальных классах. Инновационные технологии являются неотъемлемой частью современных уроков математики.*

Kalit so'zlar: *инновационные технологии, развитие, действие, урок математики.*

Инновационные технологии на уроках математики в начальных классах — это тема, активно изучаемая в педагогической практике, поскольку применение современных технологий позволяет значительно повысить эффективность обучения, развить у учеников критическое мышление и улучшить усвоение математических понятий. В последние десятилетия информационные технологии (ИТ) становятся неотъемлемой частью образовательного процесса. Особенно это актуально для начального школьного образования, где важно заложить фундамент для дальнейшего успешного освоения дисциплин. В частности, применение информационных технологий на уроках математики в начальных классах открывает новые возможности для развития учеников, делает процесс обучения более интерактивным и доступным.

Математика зачастую воспринимается детьми как трудная и скучная дисциплина. Введение в обучение информационных технологий может существенно изменить отношение учеников к предмету. Использование мультимедийных средств, анимаций, интерактивных игр позволяет сделать обучение более динамичным и увлекательным, что стимулирует интерес к математике. С помощью информационных технологий учитель может эффективно организовать работу в классе, учитывая индивидуальные особенности и потребности учеников. Современные образовательные платформы позволяют детям работать в своем темпе, предлагая задания, соответствующие их уровню знаний и способностей. Таким образом, каждый ученик может получать именно ту информацию и задания, которые ему необходимы для дальнейшего развития. Использование информационных технологий на уроках математики способствует развитию критического мышления у детей. Взаимодействие с электронными образовательными ресурсами, анализ и решение различных задач помогает развивать умения логически мыслить, анализировать, делать выводы.Также современные технологии позволяют учителям легко отслеживать прогресс каждого ученика, выявлять проблемные зоны и оперативно

вносить коррективы в образовательный процесс. Автоматизированные системы позволяют быстро и точно оценивать выполнение заданий, что ускоряет процесс обратной связи.

На уроках математики можно использовать различные виды технологий, включая:

1. Использование интерактивных досок

Интерактивные доски позволяют активно работать с учебным материалом. Учитель может показывать визуальные примеры, решать задачи, моделировать различные математические ситуации. Ученики могут выходить к доске, что стимулирует их активность и вовлеченность в процесс.

2. Математические образовательные программы и приложения

Современные образовательные программы, такие как **GeoGebra**, **Mathematics Classroom** и другие, позволяют наглядно демонстрировать математические концепции, проводить эксперименты с геометрическими фигурами, числами, графиками и т. д. Программы и мобильные приложения (например, **Mathway** или **Khan Academy**) помогают детям практиковаться в решении задач, отрабатывать навыки и получать немедленную обратную связь.

3. Игровые технологии

Компьютерные игры и игровые приложения могут быть использованы для закрепления математических знаний. Это могут быть как игры с простыми арифметическими задачами, так и более сложные, которые развивают логическое мышление и внимание. Игровой процесс помогает детям легче воспринимать материал и повышает мотивацию.

4. Визуализация и анимации

Использование анимаций и графических средств помогает сделать абстрактные математические идеи более понятными. Например, визуализация процесса сложения, вычитания, умножения или деления на примере моделей или анимаций помогает детям легче усваивать эти операции.

5. Мультимедийные презентации

Презентации с использованием текстов, графиков, видео и аудио материалов могут разнообразить уроки и сделать их более интересными. Например, для изучения геометрических форм можно показать не только картинки, но и анимации их преобразований.

6. Использование онлайн-ресурсов для самостоятельной работы

Дети могут использовать онлайн-курсы, видеоматериалы и тесты, чтобы учиться в удобное время и в своем темпе. Такие ресурсы как **Ziyonet.uz**, предлагают огромное количество ресурсов и тестов по математике, что позволяет ученикам закреплять материал.

7. Обратная связь и анализ результатов

Информационные технологии дают возможность учителю оперативно отслеживать успехи учеников, анализировать их ошибки и предоставлять персонализированную помощь. С помощью образовательных платформ можно автоматически проверять работы, выставлять оценки и даже давать дополнительные рекомендации.

8. Использование роботов и конструкторов

Для начальных классов интересными могут быть занятия с программируемыми игрушками и роботами, такими как **Lego WeDo** или **Cubetto**, которые позволяют интегрировать математику с элементами программирования. Ученики могут учиться планировать действия робота, используя математические алгоритмы

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

Литература

1. **Деревянко, Л. А.** Современные информационные технологии в образовании. — М.: ВЛАДОС, 2010
2. **Гузикова, Н. А.** Применение информационных технологий в обучении математике: опыт и практика. — М.: Просвещение, 2012.
3. **Шмидт, М. Е.** Компьютерные технологии в обучении младших школьников математике. — М.: Академия, 2011.
4. **Пахомова, Т. В.** Информационные технологии как средство развития познавательной активности младших школьников. — М.: Ювента, 2014.
5. **Конев, В. В., Филиппов, С. И.** Технологии и методика компьютерного обучения. — М.: Речь, 2019.

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF DIFFERENT WORLD VIEWS AND ATTITUDES IN FORMING ADOLESCENT PERSONALITY

Aminjonova Xolisxon
Fargona Davlat Universieteti talabasi

Zaxro Mamadaliyeva
Fargona Davlat Universieteti Oqituvchisi

Abstract: *In this thesis, the main attention is focused on the interesting and decisive stage of adolescence, and it is aimed at comprehensive analysis of the psychological and social characteristics of this period of development. The social context of development is studied, the specific characteristics of basic activities are emphasized, and the psychological changes during adolescence are described. Specific features of intellectual, emotional and personal development of young people are considered.*

Key words: *social context, intellectual development, emotional qualities, cognitive activity.*

Adolescence, from about 16 to 23 years of age, usually marks the socio-psychological beginning of an individual's independent, adult life.

From 16 to 23 years, broadly speaking, adolescence constitutes an integral period in terms of both age and social-psychological stage of personality development.

In addition, the following age periods are distinguished in adolescence: 16-17 years - early youth, 17-21 years - correct youth and 22-23 years - late youth. Although each of these age periods has its own characteristics, they share many common characteristics.

The main socio-psychological and age-related characteristics and factors of any period of personality development include the social status of personality development, the priority type of activity, the scope of social interaction, psychological development, parameters of intellectual development, and emotional qualities.

The social situation of personality development during adolescence is characterized, first of all, by the need for boys and girls to independently enter the labor market and determine their place in society. Consequently, there are changes in the social expectations placed on adolescents, as well as changes in the social conditions that shape their personal formation: they must be ready for work, family life, and civic responsibilities. [1]

Adolescence is a time for both young men and women to make life choices, get higher education, study and work in chosen fields (including looking for them), start a family, and for young men, enter the military.

In the current period of socio-economic and political development of our society and state, young people are manifesting themselves in the conditions of the ongoing instability of values in the social consciousness. Currently, there are no fixed ideals from the past, but a new, suitable reference for

future development - social, professional and personal self-identification - has not yet been defined. Consequently, it is very difficult for young people today to understand and assimilate the standards of adult life. This leads to confusion and uncertainty about the future of many young people. [2]

In addition, the modern stage of society's development has "pushed" the limits of maturity (including social maturity) to previous periods from a psychological and "activity-oriented" point of view. This process takes place in various socio-economic and political dimensions and paradoxically reinforces social infantilism among young people. However, unlike in the relatively recent past, society now refers to young people who have recently graduated from universities as "already adults", and society's expectations of young students are increasing. Therefore, the importance of adolescence, in general, increases for the successful formation of the personality of boys and girls and the effective social development of society.

With the complexity of life in adolescence, there is not only a quantitative expansion of traditional (social) roles and interests, but also a qualitative change. In the modern era of social development, the adolescent ("student") age stage witnesses the emergence of more "adult" social roles, accompanied by greater autonomy and social responsibility for young men and women.

In modern times, teenagers (mostly already young men and women) get a passport at the age of 14 (previously 16); At the age of 18, young people have the right to actively vote and get married; At the age of 14, juveniles (actually socially responsible persons) are held responsible for serious criminal offenses, and from the age of 16 they are held responsible for almost all criminal offenses. Full "adult" criminal responsibility, according to the law, begins at the age of 18. Almost all young men and women are actively thinking about choosing a career, including getting an education in the fields of their choice; many started their careers during their student years and so on. All these parameters represent the elements of adult social status for individuals in the adolescent (student) age group. [3]

The main activity during adolescence is, in general, educational and professional activities. Social motivations are related to the future, and the desire for education is activated during youth (including during the student period). During adolescence, there is more choice in academic subjects. The main motive of cognitive activity in youth is the desire to acquire a profession of social importance.

The psychological basis of professional self-determination in youth is, first of all, young men and women taking on the role of adults, realizing themselves as members of society and defining themselves in the world, their is a social need to understand their abilities as well as their role and purpose.

Another decisive factor that forms the psychological basis of young people's professional self-determination and preparation for adult life is the presence of abilities and needs that will allow them to maximize self-satisfaction in their civil life, work and future family life. These include the need for communication and mastering the methods of its construction; the ability to think and act in various forms of theoretical knowledge (scientific, artistic, moral, legal), which serve as the established foundations of scientific and civil worldview, as well as developed theoretical reflection, which provides a conscious and critical attitude; the need for work and ability to work, acquisition of work skills that allow to engage in production activities based on creative principles.

Many factors can contribute to emotional arousal (emotional reactions) in people during adolescence. The ways of expressing emotions are very diverse, and due to the peculiarity of short-term emotional variability, long-lasting emotional reactions can occur. In addition, the psychological defense mechanisms in young people, the complexity and development of individual responses in conflict situations are further improved and developed. [4]

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

List of used literature:

1. Bern E. People who play games, games people play M., 1997.
2. Raising a difficult child / Ed. M.I. Rozhkova M., "Vlados" 2001.
3. Lichko A.E. Psychopathology and character accentuation in adolescents. M., 1983.
4. Rutter M. "Helping difficult children" M., 1987.

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

IBRATNING HAYOT YO‘LI

Murtazayeva Feruza Oybek qizi
TDPU O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti, 3-kurs

Pardayeva Nigora
Ilmiy rahbar:f.f.f.d (PhD)

Annotatsiya: *Maqolada jadid adabiyotining serqirra ijodkorlaridan bo‘lgan Is’hoqxon to‘ra Ibratning hayot yo‘li haqida ma’lumotlar keltirilgan. Adibning ijodiy faoliyati, asarlari xususida mulohaza bildirilgan. Shoirning “Tarixi chopxona”, “Mezon uz - zamon” (“Zamon tarozusi”) asarlari tahlil maydoniga olib kirilgan hamda xulosa chiqarilgan.*

Kalit so‘zlar: *Is’hoqxon to‘ra Ibrat, bosmaxona, “Tarixi chopxona”, “Mezon uz - zamon”, tahlil, xulosa.*

O‘zbek adabiyoti tarixida jadid adabiyoti katta davrni qamrab olishi, mavzularning kengligi, yangilikka boyligi, yangi g‘oyalarga egaligi bilan ajralib turishi ma’lum. Jadid adabiyoti namoyondalarining hayot yo‘li, ijodiy faoliyati, asarlarini chuqur tadqiq va tahlil qilish, ular ijodini adabiyotshunoslik mezonlari asosida qayta baholash adabiyotimiz oldida turgan vazifalardan biridir. Bu jarayonga, ayniqsa, mustaqillik yillarida katta e’tibor qaratildi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab ijod etgan shoir, pedagog, tilshunos, islomshunos, publitsist, tarixnavis adib Is’hoqxon to‘ra Ibratdir. Adib ilk sabog‘ini mehribon, munis onasi Hurbibi qo‘lida oladi. Bu haqida ijodkor shunday yozadi: “Avvalgi vaqtdagi mahalla maktabida 5 yilda 3 adad muallimda o‘qub, oxiri savodim chiqmay, keyin qizlar maktabida, o‘z uyimda volidayi marhumamdan o‘qub savod chiqardim. Ikki sana qiblagohimdan husnixat mashq etdim” (Is’hoqxon Ibrat, 2020, 36-37-betlar)

Adib madrasani tugatgach, qishlog‘iga qaytib keladi hamda ilk faoliyatini pedagog sifatida o‘zi tug‘ilib o‘sgan qishlog‘ida boshlaydi. U 1886-yili “usuli qadim”, ya’ni hijo metodidan tubdan farq qiluvchi yangicha usuldagi maktab ochadi. To‘raqo‘rg‘onda “Matbaai Is’hoqiya” nomli Farg‘onada birinchi nashriyotni tashkil qiladi. Uning tashkil qilinishidagi maqsadi to‘g‘risida “Tarixi chopxona” nomli she’rida shunday yozadi:

Ming uch yuzu yigirma oltida chopmaxona,

Ochmoqg‘a bo‘ldi ruxsat va so‘z berib zamona.

Maqsad bi ishdan erdi olamg‘a ilm kasri,

Ham qo‘ymoqg‘a asarlar yodovari jahona. (Is’hoqxon to‘ra Ibrat, 2020, 58-bet)

Unda o‘zga kitoblar bilan bir qatorda o‘zi tomonida yozilgan asarlari ham chop ettiriladi. Masalan, Ibrat xattot Mirrajab Bandiy bilan hamkorlikda “San’ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy ”asarini nashr qiladi. Ilmi Ibrat” (1909) she’rlar to‘plami,” “Jome ul-xutut” (1912), Abdurauf Samadovning

“Mahramlar” (1911), Dadamirza qori ibn Abdurazzoq qorining ”Miltoh ul- avval” (1916), Husayn Makayevning “Ilmi hol” (1910) o‘quv qo‘llanmalari shular jumlasidandir.

Shoirning yigirmadan ortiq asari mavjud bo‘lib bizgacha uning o‘n ikkitasi yetib kelgan. Jumladan, 1900-yilda “Ilmi Ibrat”she’riy kitobi, 1901-yilda “Lug‘ati sittati alsina” nomli olti tilli lug‘ati, “Mirajab Bandiy” risolasi, “Fiqhi Kaydoniy” nomli tarjima kitoblari. Adibning tarixshunoslikka oid “Tarixi Farg‘ona”, ”Tarixi madaniyat” va “Mezon uz-zamon” asarlari ham qimmatli ma’lumotlari bilan ajralib turadi. Ibrat devon ham tuzgan, ming afsuski uning “Devoni Ibrati” devoni bizgacha yetib kelmagan.

Ibratning “Lug‘ati sittati alsina”(“Olti tilli lug‘at”) nomli lug‘ati mahalliy aholini rus tili va boshqa tillarni yaxshi o‘rganishi uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda ruscha, arabcha, forscha, hindcha, turkcha, sartcha (o‘zbekcha) so‘zlarni o‘z ichiga olgan. Ushbu kitobda muallif barcha insonlarni o‘ylagan holda ruscha so‘zlarni ham arab yozuvida beradi. Bu esa eng mushkul vazifalardan biri edi. Shoir buni muvaffaqiyatli bajardi. Asar nashrdan chiqmasidanoq qo‘lma-qo‘l bo‘lib ketadi. Asar 1901-yili Toshkentdagi V.I.Ilin bosmaxonasidan nashrdan chiqadiu. Kitob mingdan ortiq so‘zni o‘z ichiga olib 53 betdan iborat ikki qismdan tashkil topgan. Ibrat asari uchun ma’lumot to‘plar ekan, jonli tilda ko‘p qo‘llanadigan eng faol so‘zlarni kiritishga alohida e’tibor qaratgan. Bu asarda istimoldan chiqib ketgan arxaik so‘zlarni deyarli uchratmaymiz. Ishoqxon Ibratga qadar ham lug‘atlar yaratilgan, lekin bu asarlardan kitobxonlar unumli foydalana olishmaydi, chunki bu kitoblar rus tilida yartilgan edi. O‘zbek tilini o‘rganuvchi ruslar va rus tilidan savodi bor sanoqli o‘zbeklar uchun mo‘ljallangan edi. Is’hoqxonning bu asarini arab yozuvida yaratishining sababini shuning bilan izohlashimiz mumkun.

Isxoqxon Ibrat shariat-din ahkomlarini ham mukammal bilgani uchun yigirma yildan ortiq vaqt davomida To‘raqo‘rg‘on va Namanganda xalq qozisi lavozimida ishlaydi. Shu nuqtayi nazarda uning faoliyatiga xos “Mezon uz - zamon” (“Zamon tarozusi”) islomiy-ta’limiy risolasini yozadi. Asar adib ijodida alohida o‘rin tutadi. Bu asarda yangi zamondagi evrilishlar va ularga millatdoshlarning munosabati masalasiga e’tibor qaratadi. Is’hoqxon to‘ra har qanday zamonda har bir musulmon ”Zamon tarozusiga” ega bo‘lmog‘i lozimligini zamondan orqada qolish musulmon uchun ayb ekanligini zamon bilan hamqadam bo‘lish uchun esa ilm-u ma’rifat kerakligini alohida takidlaydi. Shoir “Islohi millat” she’rida shunday yozadi:

Ahli Turkiston bu kunda, shukr, beisloh emas,

Intishori ma’rifat xattida beimlo emas.

Millatimizda ma’rifat o‘rnida vahshat edi,

Madaniyat ta’lim etti emdi beinsho emas. (Is’hoqxon to‘ra Ibrat, 2020, 63-bet).

“Mezon uz - zamon” asari to‘qqiz mezondan tashkil topgan. Har bir mezonda muayyan bir masala haqida adib mulohaza bildiradi, tahlil qiladi. Birinchi mezonda adib yangi paydo bo‘lgan narsa-buyumlarga munosabat bildiradi, ularni o‘zari taqqoslaydi, xulosa chiqaradi. Shoir shunday yozadi: ”Ashyoyi jadida va asbobi adidalarni ko‘rub, bular hama xalqi Ollohga ato qilingon nimarsalar ekan...” (Is’hoqxon to‘ra Ibrat, 2020, 161-bet). Ikkinchi mezonda islom dinining ulug‘ligi, Qur’on Karim suralari va ularning ma’nolari izohlari, turli firqalarga ajralishdan qaytarish hamda ular o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilish, ittifoq va ittihodga chaqirish mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, adib mana bunday fikr bildiradi: “Islom dini va shariat iborati ittihod va ittifoqdur” (Is’hoqxon to‘ra Ibrat, 2020, 164-bet). Uchinchi mezon sudxo‘rlik va tijoratga xiyonat masalasiga bag‘ishlanadi. To‘rtinchi mezonda ilm va tafakkur haqida, avlod tarbiyasi va usuli savtiya maktablarining millat hayotidagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Beshinchi mezonda xalqimizning avvalgi davrlardagi harakatlari va yangi zamondagi ishlari haqida ma’lumotlar keltiriladi.Oltinchi mezon bid’at va ortiqcha sarf xarajatlarga ruju qo‘yish, fikirsizlik illatlarining muolajasi haqida bo‘lsa, yettinchi va sakkizinchi

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

mezonlar libos haqida o‘sha davrda odamga emas, libosga ixlos qo‘yishning, dunyoparastlikning yomon oqibatlari xususida keltiriladi. So‘nggi to‘qqizinchi mezonda o‘tmish va zamon vaqealari tahllil qilinadi. Bu asar garchi tugallanmagan bo‘lsa-da, lekin Ibrat asarlari ichida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. (Dolimov U, 2022, 69-bet).

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak jadidchilik harakatining eng oldingi saflarida bo‘lgan Ishoqxon Ibrat tarixchi, shoir, tilshunos, o‘qituvchi, balki o‘z davrining yetuk diniy ilmlar ulomosi, qozisi hamdir. Uning boy madaniy merosi nafaqat mamlakatimizda hatto chet ellarda ham tadqiq etilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Dolimov U. (2022). Jadidlar Ishoqxon to‘ra Ibrat. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi.

2. Is’hoqxon Ibrat. (2020). Mezon uz-zamon. II daftar. Toshkent: Ma’naviyat.

3. Is’hoqxon to‘ra Ibrat. (2020).Tanlangan asarlar. Toshkent: Ma’naviyat.

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

MENEJMENTDA LOGISTIKANING O'RNI, MAQSADI VA FUNKSIYALARI. LOGISTIK MENEJMENT KONSEPSIYASI, UNING MAQSADI VA PRINSIPLARI

Babayev Nasim
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
"Marketing" kafedrasi dotsenti, i.f.n.

Suvonov Shahrizod Zayniddin o'g'li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada O'zbekistonda logistika menejmentining samaradorligi va raqamli transformatsiyasining ta'siri o'rganiladi. Tadqiqotda logistika tizimlarining optimallashtirilishi va zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishining muhimligi ta'kidlangan. Biroq, bu sohada mavjud bo'lgan bo'shliq va muammolar, xususan, eskirgan infratuzilma va malakali kadrlar etishmasligi, hali ham mavjud. Tadqiqot metodologiyasi sifatida anketalar, so'rovlar va statistik tahlil usullari qo'llanilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, kompaniyalar raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali operatsion samaradorlikni sezilarli darajada oshirishgan, ammo bunday texnologiyalarni keng miqyosda joriy etish uchun ko'plab qiyinchiliklar mavjud. Bu tadqiqot, shuningdek, "yashil logistika" amaliyotlari va raqamli vositalarning ahamiyatini oshirish zarurligini ta'kidlagan. Kelajakdagi tadqiqotlar, ayniqsa, O'zbekistonda logistika tizimlarida barqarorlik va ijtimoiy madaniy omillarni hisobga olishni o'z ichiga olishi lozim.*

Kalit so'zlar: *Logistika menejmenti, raqamli transformatsiya, samaradorlik, yashil logistika, ta'minot zanjiri, innovatsiyalar, O'zbekiston.*

Bugungi kunda global iqtisodiyotning doimiy o'zgaruvchan sharoitlari va raqobatbardosh talablar, har bir tashkilotning samarali va optimallashtirilgan logistika tizimiga bo'lgan ehtiyojini yanada kuchaytirdi. Logistika – bu tovarlar va xizmatlarning, xususan, ularning ishlab chiqarishdan iste'molchiga yetkazilishigacha bo'lgan jarayonlarini boshqarish, muvofiqlashtirish va optimallashtirish jarayonidir. Ushbu jarayonlarning samarali boshqarilishi kompaniyalar va tashkilotlar uchun iqtisodiy jihatdan katta foyda keltirishi mumkin.

Logistika menejmenti – bu resurslarni boshqarish va ularni eng samarali tarzda taqsimlashning o'ziga xos usulidir. Logistika menejmentining asosiy maqsadi – mahsulot yoki xizmatlarni kerakli vaqtda, to'g'ri joyda va minimal xarajat bilan yetkazib berishdir. Shuningdek, logistika menejmenti tashkilotning barcha ishlab chiqarish, transport va omborlash jarayonlarini yagona tizim sifatida boshqaradi. Shu bois, logistikaning menejmentdagi o'rni nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarini tezlashtirishda, balki mahsulot sifatini yaxshilashda, xarajatlarni kamaytirishda va kompaniyaning umumiy samaradorligini oshirishda ham katta ahamiyatga ega.Biroq, logistika menejmentining amaliyotda to'liq samarali bo'lishi uchun, u global iqtisodiyotdagi o'zgarishlarga moslashish va yangi texnologiyalarni tatbiq etish, ilgari qabul qilingan yondoshuvlarni yangilashni talab qiladi. Xususan,

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

global savdo va raqobat muhiti, yangi texnologiyalar va raqamli inqilob logistika tizimlarini optimallashtirishda muhim omilga aylangan.

Mazkur tadqiqotda logistikaning menejmentdagi o'rni va uning amaliyotga ta'siri, xususan, O'zbekiston Respublikasidagi iqtisodiy va sanoat sharoitlari doirasida tahlil qilinadi. O'zbekistonda so'nggi yillarda logistika tizimining rivojlanishiga katta e'tibor berilmoqda. Mamlakatda transport infratuzilmasi, omborlash tizimlari va yetkazib berish tarmoqlarining rivojlanishi eksport va import jarayonlarining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Logistika menejmentining ahamiyati ayniqsa, O'zbekistondagi yirik sanoat korxonalari, eksport-import faoliyati bilan shug'ullanayotgan tashkilotlar uchun muhimdir. O'zbekistonning geografik joylashuvi, Asiya va Yevropa o'rtasidagi strategik aloqalarning o'sishi va ishlab chiqarish sanoatining jadal rivojlanishi bu mamlakatni logistika va transport tizimlari bo'yicha mintaqada yetakchi o'rinda turishga undamoqda. Shu bilan birga, tadqiqotda O'zbekistondagi logistik tizimlar, ularning samaradorligi va mavjud muammolar o'rganiladi, bu esa ushbu sohada amalga oshirilishi kerak bo'lgan takomillashtirish choralarini ko'rishga yordam beradi.

Logistika menejmentining nazariy asoslari o'zining ilmiy rivojlanish jarayonida bir nechta yondoshuvlarni o'z ichiga olgan. Asosiy kontseptual tushunchalar logistik tizimlar, ta'minot zanjirlari, inventarizatsiya boshqaruvi, tashish va transport tizimlarining optimallashtirilishi, tovarlarning oqimi va ma'lumotlar oqimining muvofiqlashtirilishiga qaratilgan.

3. Mutalova M.A., Khasanov A.A., Masidikov E.M. « Extraction of a Tungsten-Containing Product from the Left Tails of the Ingichin Factory» // International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology Vol. 7, Issue 5, May 2020. – P. 13850-13856.
4. Mutalova M.A. «Foydali qazilmalarni boyitish», O'quv qo'llanma,Toshkent, Vneshinvestrprom, 2021
5. Odilovich, Q. M. (2024). Rationale and Choice Technologies Production at Coal Formations. *Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science*, *2*(5), 346-352.
6. Khasanov, A., Khasanov, U., Toshtemirov, U., Abdurakhmanov, D., & Melnikova, T. (2024). Studying the condition of tungsten-containing man-made waste in the territory of Uzbekistan. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 538, p. 03023). EDP Sciences.
7. Mutalova, M., Khasanov, A., Toshtemirov, U., Melnikova, T., & Yuldashava, N. (2024). Modern technology for enrichment of tailings from an enrichment plant processing tungsten ores. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 538, p. 01002). EDP Sciences
8. Ilmuratov, U. H. (2019). Selection and Substantiation of the Method of Exploiting the Tebinbulak Deposit. *Scienceweb academic papers collection.*
9. Ilmuratov, U. (2020). Selection and Justification of Methods for Opening the Southbay Field. *Scienceweb academic papers collection*.
10. Shamayev, M. K., Toshtemirov, U. T., Alimov, S. M., Melnikova, T. E., Berdiyeva, D. K., & Ismatullayev, N. A. (2022). Determination of the Installation Density of Anchors in the Walls of a Working with a Quadrangular Cross Section. *Child Studies in Asia-Pacific Contexts*, *12*(1), 362-367.
11. Yormatov, O. S., Mamirov, U. M., Yulchiboyev, I. I., Safarov, M. M., & Toshtemirov, U. T. (2023). ELASTICITY-DEFORMATION OF ROCKS OF MINE SOIL WALLS STATUS STUDY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *11*(2), 184-186.
12. Nishonov, A. I., & Toshtemirov, U. T. (2023). STUDY OF THE GRAPH ANALYTIC METHOD OF DETERMINING THE WORKING MODE OF A PUMP DEVICE FOR REDUCING THE MINE FROM GROUNDWATER.
Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, *11*(2), 181-183.

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

KREATIVLILIK KOMPITENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA IRSIYATNING TUTGAN O'RNI

Mukumova Feruza Xudoyqulovna
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'quvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda irsiyatning o'rni masalalari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim, tarbiya, rivojlanish, munosabat, bilim, KO'nikma, malaka, ijodkorlik, kompetentlik, boshlang'ich sinf o'qituvchisi, qobiliyat, emotsiya, tajriba.*

Har bir ota-ona farzandining kelgusida kim bo'lib yetishishi haqida o'ylaydi. Ba'zilar: "Ha, uning otasi olim, bola ham olim bo'ladi" yoki "Mana, qarab turasiz, onasi chevar, bu qizaloq onasiga tortadi", deyishadi. Xo'sh, bu gaplar qanchalik to'g'ri?

Albatta, qobiliyat o'zi nima ekanligini bilmay turib, uning to'g'ri-noto'g'riligi haqida fikr yuritish qiyin. Buning uchun mazkur jarayon va hodisalar irsiyat bilan bog'liqmi, talant avloddan avlodga irsiy yo'l bilan o'tadimi? degan masalalarni hal qilib olmoq lozim.

Amaliy hunarmandchilik san'atida qobiliyatning avloddan avlodga o'tishi xususidagi ko'plab misollar shohidimiz. Masalan, Qo'qonlik Lutfulla Fozilov va Xivalik Madraim Otajonovlarning metallga gul o'yish san'ati avloddan avlodga o'tib kelgan. Jo'raqulovlar 300 yildan buyon kulolchilik bilan shug'ullanishadi. Toshkentlik o'ymakor usta Toir To'xtaxo'jaev, muzika asbobsozi Usmon Zufarov va shu kabi ustalar ham ota-buvalari san'atini davom ettirishgan.

Kishida muayyan kreativlilik kompitensiyaning shakllanishida tashqi muhit va irsiy munosabatlar ma'lum darajada rol o'ynashiga odamlar qadimdayoq e'tibor berishgan. Qadimgi Sparta quldorlik davlatida shu davlat uchun maqbul kishilar yaratishga harakat qilganlar, biroq tarixdan ma'lumki, bu tadbir achinarli ahvolga olib keldi.

Keyinchalik bir qancha tadqiqotchilar geniy(daho)larning kreativ qobiliyati borasida tuzgan sistema va sxemalarda ularning shajaralarini tasvirlashdi.

Bunday tadqiqotlar Mosart, Betxoven, Tolstoy, Pushkin, Leonardo da Vinchi, Eynshteyn va boshqalarning iste'dodi sabablarini oshkor etish uchun o'tkazilgandi. Masalan, mazkur sohada izlanish olib borgan N.K.Kolsov o'zining bir maqolasida "geniyning asosiy irsiy kreativlilik qobiliyati, ishbilarmonligi, ijodkorligi, jismonan sog'lomligi va chidamliligа xos bo'lib, tarixan uzoq davom etgan hayot uchun biologik kurash jarayonida tabiiy tanlanish "imtihon"idan o'tdi", deb yozadi. Kreativlik qobiliyatning shakllanishida irsiy qonuniyatlarning ahamiyati haqida gapirar ekan, genetik (genetika-hayvon va o'simliklar irsiyoti, uning o'zgaruvchanligi haqidagi fan) olim ijtimoiy sharoitga katta ahamiyat beradi. "Kishi,-deydi u,-ijtimoiy organizm, demak, u ijtimoiy muhitsiz yashay olmaydi". XX-asrning 30-yillarida shaxs kreativlik qobiliyati va daholik muammosi irsiyat va o'zgaruvchanlik jarayonlari bilan uzviy bog'liqlikda o'rganildi.

Shu o'rinda o'z zamonasining yetuk olimi, juda ko'p tillarni bilgan, faylasuf, matematik va vrachi (tibbiyotchisi) Sharqda "Muallimi avval" ("Birinchi muallim") unvonini olgan Aristoteldan keyin

“Muallimi soni” (“Ikkinchi muallim”) degan nom olgan Abu Nasr Forobiyning[1] aytgan fikrlari butun jahon xalqlari, jumladan Sharq va O‘rta Osiyo xalqlarining inson kamoloti haqidagi pedagogik nazariyasining yuzaga kelishi va rivojlanishidagi roli benihoya kattaligini alohida ta’kidlashga ehtiyoj seziladi. U qobiliyatning mohiyatini “...insonga uning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarini amalga oshirishiga xalaqit beruvchi qobiliyatlari va o‘rgangan ixtiyoriy harakatlari inson yomonligidir va aksincha, insonga uning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarini amalga oshirishiga yordam beruvchi qobiliyatlari va o‘rgangan ixtiyoriy harakatlari inson yaxshiligidir”, deb izohlaydi. Shuningdek u inson qobiliyatning ahamiyatini “Inson hayotining oliy maqsadi ham baxt-saodatga erishuvdan iborat. Insonning baxtli bo‘lishi esa uning qobiliyati va irodasiga bog‘liq. Inson yuksak kamolotga erishuv yo‘lida harakat qilgandek, aqliy bilishga ham harakat qilsa, hech shubhasiz o‘zi intilayotgan so‘nggi darajadagi baxt-saodatga erishadi” deya e’tirof etadi.

Forobiy tug‘ma mutlaq g‘oyalar va daholik qobiliyatlarni tan olmaydi. Ammo tug‘ma fazilatlar fikriy fazilatga buysunishi kerak. Insonning kasb-hunar va san’atdagi fazilati tug‘ma emas. “Agar kasb-hunar fazilati tug‘ma bo‘lganda, podshohlar ham o‘zlari istab va harakat qilib emas, balki podshohlik ularga faqat tabiiy ravishda muyassar bo‘lgan, tabiat talab qilgan tabiiy bir majburiyat bo‘lib qolar edi”.

Kasb-hunar fazilati tug‘ma bo‘lmas ekan, “xalqlar va shahar ahllarida axloq, odob, rasm-rusm, kasb-hunar, odat va irodani hosil qilish uchun insondan zo‘r kuch va qudrat talab qilinadi. Bu ikki yo‘l bilan: ya’ni ta’lim va tarbiya bilan qilinadi. Ta’lim degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir”.

“Ta’lim,- deya u so‘zini davom ettirib, - faqat so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan, ... kasb-hunarga berilgan. bo‘lishi, o‘rganishidir" . Bu ishni ustozlar va murabbiylar bajaradilar, deydi.

Biroq mutlaqo kreativlik qobiliyatisiz, iste’dodsiz (ruhiy va fiziologik jihatdan normal kishilar nazarda tutilyapti, albatta) va haddan tashqari kreativlik qobiliyatli inson ham yo‘q. Har bir kishi muayyan qobiliyatga ma’lum darajada moyil bo‘ladi. Bunday qobiliyatlar qulay ijtimoiy sharoitlar mavjudligidagina imkoniyatdan kreativ voqelikka aylanishi mumkin.

Kreativlik qobiliyati muayyan genetik imkoniyatning ijtimoiy va tarixiy sharoitlar bilan o‘zaro muqarrar va murakkab ta’siri orqaligina vujudga keladi.

Bularning hammasi ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liq muhit va ta’lim-tarbiya mahsuli bo‘lmish inson faoliyati mohiyatidan ajralmasdir, uning me’yoriy-ijodkorlik mehnati samarasi bilan izohlanadi.

Mashhur olim G.Mendelning fikricha, muayyan kreativlik qobiliyatining “nishonalari” har bir kishida bor, biroq ularning rivojlanishi ijtimoiy ishlab chiqarishning muayyan sharoitlarida tarkib topgan ijodkorlik mehnatiga bog‘liqligini alohida ta’kidlab o‘tgan edi.

Qobiliyatlarning ijtimoiy shakllanishi barqarorlik va o‘zgaruvchanlik o‘zaro ta’sirining juda murakkab jarayonidir. Bu jarayon mazkur muammoning genetik nuqtai nazaridan ajralmasdir. Ushbu muammoni hal etish dialektikasi mazkur jaraenda ijtimoiy va genetik hodisalarning dialektik o‘zaro ta’sirini e’tirof etishni talab qiladi. Bunday o‘zaro ta’sir barqarorlik va o‘zgaruvchanlik imkoniyat va voqelik jarayonlarining o‘zaro ta’sirini nazarda tutadi. Ijtimoiy omil muayyan kreativlik qobiliyati nasliy “nishonalari”ning shakllanishi hamda namoyon bo‘lishi uchun zarur va asosiy sharoit hisoblanadi. Imkoniyat tarzidagi irsiy “nishonalar” faqat ijtimoiy omillar orqaligina voqeylikka aylanishi mumkin. Genlarning muayyan uyg‘unlashuvidan hosil bo‘ladigan nasliy “nishonalar” ijtimoiy sharoitlardan tashqarida, quruq, mavhum yo yuzaki imkoniyatdangina iborat bo‘lib qoladi. Biroq muayyan

[1] Я.Шермуҳамедов. “Иккинчи муаллим” Инсоний камолот ҳақида. Фан ва турмуш. 1975 й.,№ 10, 28-31 бетлар.

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

qobilyatning ma’lum nasliy “nishonalari” ob’ektiv bo‘lishi lozim, chunki har qanday maqbul ijtimoiy sharoitda ham yo‘qdan hech nima bor bo‘lmaydi. Darhaqiqat, masalan, qobiliyatsiz bastakorga ijtimoiy jihatdan risoladagidek sharoit yaratib bergan bilan, u buyuk ijodkor bo‘lish, u yoqda tursin, hatto uning yaqiniga ham yo‘llay olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Blum B . The development of an Integred Science Curriculum. Information Scheme Fur. // Science Yeducation 1981, vol.3, –P. 1 https://doi.org/10.12691/yeducation4–3–3
2. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking andproblem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – P. 4.14.
3. Jasqueline S, Bryan R. Cole, Quelity Management in Education: Building exellene and equity in Student Perfomance. QM.J Vol.9, № 4/2002.
4. Ministerial forum global dialogue on ict and Education innovation – towards sustainable development goal for Education (sdg 4) proceedings. 18–19 april 2018 • Moscow • Russian federation. http://ru.ite.unesco/org/publications.
5. Miyakawa H. Industrial Technology Education. For All. Aichi University of Education. Japan, 2004.
6. Mukumova F.Kh. Creativity and the formula of psychological foundation Electronic journal of actual problems of modern science, education and training. December, 2020-VI. (13.00.00; №24).
7. Spencer L.M. Competence at work: models for superior performance / L.M. Spenser, S.M. Spenser. – New York (etc.): John Wiley, 1993.
8. Teaching national crafts in schools. EPRA International Journal of.
Research &Development(IJRD) Volume: 5, Issue:4, April 2020P.60-61-pages

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

IMPORTANT ASPECTS OF FAMILY AND NEIGHBORHOOD IN RAISING STUDENTS' SPIRITUALITY

N. S. Mirsagatova
Senior Lecturer of the Department of Continuing Education Pedagogy, Oriental University

Abstract: *This article highlights the role of the family and community in educating the spiritual aspects of students and young people based on the concept of cooperation "Family-Neighborhood-Educational Institution".*

Keywords: *family, neighborhood, morality, parents, spirituality, personality, society, peace, youth.*

INTRODUCTION

Large-scale measures are being taken to further strengthen and develop the institution of the family, which is the main link in our society, to protect the legal and socio-economic interests of families, especially young families, to strengthen the role of the family in raising a physically healthy, spiritually mature and comprehensively developed generation, to form a healthy family, to strengthen the position and role of mothers, and to further develop the reforms underway in our country.

MATERIALS AND METHODS

Every parent is responsible for the upbringing of their child. An important condition for raising our children is that families are built on a strong, spiritually sound foundation, especially the upbringing of the parents themselves. Parents are the teachers of their children today. Because it is from the family that children are interested in learning languages and reading books. Nowadays, in order to protect our children from any vices that distance them from humanity, it is necessary to be able to interest them in learning and reading books. Every parent should feel their responsibility in raising their child every moment. Spirituality is a characteristic that is inherent only to a person. Only when connected with spirituality is a child of a person. A person is entitled to the great and honorable name of a person. But spirituality is not an innate characteristic of a person. It is formed and developed only in the family, as a result of life experience.

RESULTS AND DISCUSSION

Key Aspects of Family Influence:

Moral and Ethical Guidance: Families play a pivotal role in instilling moral values such as honesty, kindness, respect, and responsibility. These values are often aligned with spiritual teachings, helping children form a strong ethical framework. For example, parents who emphasize the importance of compassion and forgiveness provide their children with spiritual tools to navigate life's challenges and conflicts.

Religious Practices and Rituals: For many students, the family serves as the first place where they learn about religious practices and rituals. Whether it is through daily prayers, attending religious services, or observing religious holidays, these practices not only teach spiritual concepts but also foster a sense of community and belonging. Spiritual practices within the family provide a foundation for personal faith and spiritual development.

Emotional Support and Nurturing: A nurturing family environment that offers emotional support fosters the development of spiritual maturity. When children feel loved, safe, and accepted within their family, they are more likely to develop a strong sense of self-worth and inner peace, key components of spiritual well-being. Moreover, supportive families encourage children to engage in self-reflection and develop emotional resilience, which helps in facing life's spiritual and ethical challenges.

Practical Implications [1]:

Families should prioritize open communication and teach their children to reflect on their actions and feelings.

Encourage family activities that foster spiritual growth, such as meditation, prayer, or community service, to create shared moments of spiritual reflection.

As our wise people say, the upbringing of a child should begin before he is born, with the father, mother and all family members working together. Everything in the universe is created in pairs. Living in pairs is a law of nature, but living in a family is unique to humans among all creatures. The family is the first and primary unit, a particle of society. Society is made up of these small particles. A third world, created from the union of two living beings, two worlds, a husband and wife, is the family. The family should be based on purity and innocence, mutual love and loyalty. This is an important factor in the upbringing of children. The spirituality of a person, his worldview, and the set of skills for faith are formed mainly in the family. Therefore, the role of family spirituality in the upbringing of young people is incomparable. The role of the family in raising a spiritually mature person is enormous. In fact, the family is a structural part of society. All processes taking place in society directly affect the family and the lifestyle of people. Every person, starting from his youth, is nourished by the sources of spirituality in the family [2]. First of all, the role of parents in the family, their relationship with other family members is a school for the child. In managing family relationships, parents and older people mainly play a special role. A person lives under the influence of the family throughout his life. He not only develops individual and social skills, but also forms parental competence in establishing relationships. The family is a decisive factor in the formation of a person's spiritual activity. In the family, traditions and customs that have been passed down from generation to generation for centuries are continued and instilled in each family member. For example, mutual respect in the family is ingrained in everyone's blood. Also, the opinion of older people always plays a decisive role in the family. They must be respected. There are traditions such as placing older people in the front of the house, blessing them, being the first to reach out to the table, or listening to an older person speak, which every family member must follow. Customs such as respect for parents and respect for other family members are the cornerstone of the Uzbek family. The environment and situation in the family should correspond to the environment and situation in society. Otherwise, society cannot accept such family members. When a person completes a construction or enterprise and starts producing products, he is infinitely happy. However, few people realize that bringing a person into the world and raising him as a perfect and impeccable person is a greater and more difficult task than producing products. However, building a family, giving birth and raising children, and doing household chores are not just work. Perhaps it is precisely as a result of these processes that a full-fledged person becomes an adult. Another key factor in raising a person to the level of maturity is upbringing. The sources of upbringing in social life are many and diverse [3].

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

If the family environment is not good, that is, parents are indifferent to their children and there are always quarrels, this will have a strong impact on the upbringing and development of the child. Because the family is the first school of upbringing of the child. Unfortunately, there are also such parents among us who are overly attentive to all the needs of the child and tolerate all their stubbornness. As a result, the child will become a person with bad character and harm to society in the future. To prevent such problems from arising, we must properly educate the future young generation and teach them justice, honesty, truthfulness and respect.

The spiritual development of students is not confined to either the family or the neighborhood alone. The interaction between these two spheres—home and community—can create a powerful synergy that enhances students' spiritual maturity. When students see their family engaging in similar practices as those of their neighbors or the wider community, they develop a deeper sense of continuity and meaning in their spiritual journey.

The family and neighborhood both play essential roles in raising a student's spirituality. A nurturing family environment that instills moral and spiritual values, coupled with the influence of a supportive and diverse neighborhood, helps students cultivate empathy, resilience, and ethical responsibility. By providing students with the emotional, moral, and spiritual tools needed to navigate life's challenges, both family and community contribute to the development of well-rounded individuals with a strong sense of spiritual maturity. To maximize the impact on students' spirituality, it is essential to encourage collaboration between family, neighborhood, and educational institutions, creating a holistic approach to spiritual development [4].

CONCLUSION

In conclusion, the main educational center in the upbringing of the younger generation is the school. Boys and girls from different families with different behavioral characteristics come to school. It is very difficult for them to form habits of school laws and rules, to form the habit of being with the team. If this is done in cooperation between the family and the school, and if negative features in the behavior of children are resolved through consultation, then there will be no poorly educated students.

We know that everything starts with the neighborhood. One of the effective ways of educating young people and their spiritual maturity is the close cooperation of state law enforcement agencies, the public education system, and public organizations of neighborhoods.

REFERENCES

1. Roth, J. & McDonald, R. (2016). Spirituality and Social Work: The Contribution of Social Work to Spiritual Maturity. Oxford University Press.
2. Hawkins, A. J., & Dollahite, D. C. (2017). Beyond the Nuclear Family: A Grandparent-Extended Family Perspective. Sage Publications.
3. Park, C. L. (2015). Religion and Spirituality: A Scientific Perspective on Spiritual Growth. The Oxford Handbook of the Psychology of Religion.
4. Smith, C. & Denton, M. L. (2015). Soul Searching: The Religious and Spiritual Lives of American Teenagers. Oxford University Press.

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

A STRATEGY FOR MODERNIZING THE YOUTH OF THE THIRD RENAISSANCE

S. A. Djumayeva
PhD, Associate Professor of the Department of Continuing Education Pedagogy, Oriental University

Abstract: *This article discusses the fact that young people are the creators of the third renaissance. It describes the conditions that are being created for young people today, the comprehensive support and all opportunities that are being created to mobilize all their talents and minds to work selflessly for the development of the homeland.*

Keywords: *Third Renaissance, model, totalitarian, willpower.*

INTRODUCTION

We have set ourselves the main goal of creating a new Renaissance in Uzbekistan, that is, the foundation of the third Renaissance, through large-scale democratic changes in our country, including educational reforms. Speaking about this, first of all, the content - essence of the third Renaissance should be deeply understood by each of us, our entire society.

The Renaissance is a period of special cultural and intellectual development that occurred in Central Asia, Iran, China (9th-12th and 15th centuries) and Western Europe. The term "Renaissance" was originally applied to the cultural and educational upsurge in Italy (14th-16th centuries), which was considered a stage of transition from the stagnation of the Middle Ages to a new era. According to sources, the first dirham coin minted in Samarkand during the Renaissance, that is, in the 9th-10th centuries, constituted one third of the money in circulation in all of Europe and the Middle East. The Ancient East, which has always been the cradle of spirituality and culture, has produced thousands of geniuses, wise men, and scholars. It is impossible not to say that many discoveries have been made on the soil of this land. In the embrace of this amazing place, masterpieces that will last for centuries have been created and have become immortal. It is an inexhaustible source of spiritual nourishment for humanity. Of course, in any era, an enlightened society has always been superior to any ideological society.

MATERIALS AND METHODS

Totalitarian - characterized by violence, aimed at limiting or eliminating democratic freedoms and individual liberty. Over the past few years, in a very short period of time from a historical perspective, the world has been recognizing the emergence of a new Uzbekistan. The state, which was previously described as one of the last surviving islands of the Soviet totalitarian regime, which remained outside the avenues of human development, refused to make changes and real reforms as much as possible, and chose palliative half-measures as its "own model" of development, suddenly became one of the leaders of world reforms. Uzbekistan appeared on the international stage with a completely different image. The prestige and influence of our country in the world has increased to an unprecedented level.

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

RESULTS AND DISCUSSION

A model is an informational image of an object, person or system. This term originally referred to the plans of a building in English at the end of the 16th century. It is derived from the word "module" in French and Italian. After gaining independence, we had to study and engage in national revival for a quarter of a century. Now, after we have moved from national revival to national rise, the head of state has set the strategic task of achieving the third Renaissance. In fact, historically, we have experienced two Renaissances: the first in the 10th - 12th centuries, the second in the last quarter of the 14th century - the first quarter of the 16th century. In the first Renaissance, great geniuses from our country such as Ferghani, Khorezm, Faroubi, Beruni, Ibn Sina, Yusuf Khos Khajib, Mahmud Kashgari, Mahmud Zamakhshari, great hadith scholars - Bukhari, Termizi, mutakallim - Maturidi and Abul Muin. In the Second Renaissance - Ulugbek, Ghiyosiddin Jamshid Koshi, Qazizoda Rumi, Ali Kushchi, Lutfi, Jomi, Navoi, Behzod, great architects, composers, painters, historians emerged and created works that amaze the world even today. During both Renaissances, we were among the advanced, developed nations of the world. If we want to reach such a level again, we need to implement the Third Renaissance.

It encourages us to mobilize all our talents and minds to work selflessly for the development of the homeland. The reforms and their literal essence are understood first of all by young people, their progressive representatives, the young people. Because one of the most important tasks facing modern personnel is to rationally organize the work of those around them, knowing their identity, their abilities, individuality, personal qualities and characteristics, as qualified specialists, and to be active as a talented professional in all areas of socially useful work. This work, in addition to itself, serves to fulfill the important task of instilling in the minds of those around them the most progressive ideas that serve the strength of the Motherland.

In all centuries, the future of the country has been for the youth. The driving forces of revolution, progress and development have always been young people. The state relied on them during the war, in the post-war period, in times of crisis. The reason is that these young, healthy people built new, solid buildings, created incredible inventions and discoveries and put them into practice. The task of the older generation is to help young people find their rightful place in this complex world, to help them realize themselves as much as possible. This article conducts a small study of the strong difference between the youth of the first and third Renaissance, as well as the potential, wide opportunities, and results of the work to be done by the youth of the third Renaissance. When it comes to the topic of new Uzbekistan and the third wave of the Renaissance, it should be noted, first of all, that in international experience there are few statesmen and public figures who would enrich world political terminology with new concepts. From this perspective, the introduction of the concept of "New Uzbekistan" by the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev into the lexicon of world politics is of incomparable scientific importance. New Uzbekistan is a noble idea put forward by the head of our state and today has taken a deep place in the hearts of all our people, becoming a nationwide movement. At the heart of this idea, on the one hand, is the noble goal of our current and future generations to lay the foundation for the "Third Renaissance", on the other hand, the aspirations and dreams of our great ancestors, our scholarly grandfathers, who laid the foundation for the first and second renaissances in our national history, and on the third, creativity, innovation, and a call to always study and research. Today, we are on the threshold of the third renaissance. Even if we fully delve into the essence of the laws, decrees and resolutions signed by the President of Uzbekistan in the last five years, the development of only one direction of our life, namely enlightenment, education and science, the State programs approved, and the new initiatives put forward, there is no doubt that the center of the next Enlightenment Renaissance is New Uzbekistan. Presidential schools have been established in each region, where education is conducted in English and the "STEAM" (natural

sciences, technologies, technical creativity, art, mathematics) program has been introduced. In Uzbekistan, which is striving for the Third Renaissance, a special system has emerged for revealing and educating the potential of gifted children. Presidential, specialized and creative schools have become an important part of this system. Thus, instead of working with talents that have already manifested themselves, a system has emerged of selecting talented children from among those studying at school and training them in a targeted manner. The fact that each child is talented in some area and that specialized schools are being established in various directions provides an opportunity to choose for future manifestation in the world of science or creativity.

CONCLUSION

What do today's youth decorate their lives with? How do they understand the meaning of life and existence? Wise people say that "Youth is the flower of the flower of life." Youth is a great opportunity for every person to realize their identity, strive for perfection, and find their worthy place in life. Today's enlightened society's creators should feel that the future of our homeland, the future of New Uzbekistan, is in their hands. In order to increase their position and responsibilities in today's society, they should seize every moment, correctly assess the value of youth, if it is not returned, and be diligently committed to building the Third Renaissance. In short, any great plans, great ideas will gain vitality and reality only if they are directly related to human needs, improving their lives, freedom, growth, and spiritual maturity. Otherwise, they will remain just a whim. Our President's congratulatory speech outlined the main directions and tasks. Now all of us, our entire society, must begin to implement them.

REFERENCES

1. Shavkatov, I. (2021). The Role of Youth in the Development of Modern Uzbekistan: A Strategic Approach. Tashkent: Academy of State and Social Sciences.
2. Boqijonov I. Mir Arab secondary specialized Islamic educational institution. 2020
3. Karimova M. Psychology. Tashkent: 2022. 200 p. Abdulla Qodiriy People's Heritage Publishing House.
4. Saidov, A. (2020). Education and Youth: Strategic Approaches to the Modernization of the Educational System in Uzbekistan. Journal of Central Asian Studies, 12(3), 45-60.
5. Mukhammadiev, S. & Khakimov, F. (2022). The Role of Cultural and Historical Heritage in the Modernization of Youth in Uzbekistan. Tashkent: National Press.

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

ТАКРОРИЙ ЭКИЛГАН КУНГАБОҚАРНИ ЎСИШИ, РИВОЖЛАНИШИ ВА ҚУРУҚ ВАЗН ТЎПЛАШИГА ГУМИМАКС СТИМУЛЯТОРИНИ ТАЪСИРИ

Таджиев Карим Марданакулович
қ.х.ф.доктори, Термиз давлат мухандислик ва агротехнологиялар университети, Термиз ш.

Турсунов Шокир Чориевич
қ.х.ф.н... доцент, Термиз давлат университети

Аннотация: *Кузги буғдойдан кейин экиладиган кунгабоқар экинини парваришлаш агротехникасини такомиллаштиришнинг илмий асосини яратишда самарали таъсир этувчи физиологик фаол ўсишни созловчи моддаларни уруғ экиш олдидан ва вегетация даврида ўсимликка қўллаш технологиясининг илмий назариясини яратиш ва назарий асосларини ишлаб чиқиш долзарб ҳисобланади.*

Сурхондарё вилояти шароитида такрорий экилган кунгабоқарнинг Жаҳонгир навидан юқори ва сифатли ҳосил етиштиришда Гумимакс стимуляторини қўллаб ўрганилган. Кунгабоқар уруғига экишдан олдин Гумимакс билан 0,75 л/т ва 3-4 барг чиқарганда 0,4 л/га меъёрида ишлов берилганда ниҳолларни униб чиқишига, ўсиши, ривожланиши ва уруғ ҳосилига ижобий таъсир қилган.

Калит сўзлар: *кунгабоқар, стимулятор, Гумимакс, уруғга ва ўсимликка ишлов бериш, униб чиқиш, ўсиш, ривожланиш, уруғ ҳосил.*

Республикамиз жанубий вилоятларида кузги буғдой ҳосили йиғиштириб олингандан кейин 130-140 кун совуқ бўлмайдиган давр бўлиб, бу даврда ўсимликлар учун ижобий ҳароратлар 2400-3200^0 С ни ташкил қилади. Кунгабоқар учун фойдали ҳарорат йиғиндиси тезпишар навлар учун 1850°, ўртапишар навлар учун 2150° С га тенг. Демак мавсумнинг бу давридаги самарали ҳароратлардан унумли фойдаланиб кунгабоқар экиб ҳосил етиштириш мумкин.

Сурхондарё вилоятида ёзда ғарбий, жануби-ғарбий, қишда эса шимоли-шарқий шамоллар кўп эсади, уларнинг ўртача тезлиги 2,6 м/сек, лекин баъзан 15 м/сек гача боради. Аммо жануби-ғарбдан эсадиган Афғон шамоли қуруқ, чанг тўзонли шамол бўлиб, унинг тезлиги секундига 15 м ва ундан ҳам ортади. Бу эса тупроқни эрозияга олиб келади ва ўсимликнинг ўсиши, ривожланишига қисман салбий таъсир кўрсатади. Ёзнинг энг иссиқ кунларида ҳаво ҳарорати 39,5-48^{0}С даражага етади. Бу ойларда эсадиган иссиқ ва қуруқ гармсел шамол ҳаво ҳароратини кўтариб, нисбий намликни 12-20 фоизгача, ҳатто ундан ҳам камайтиради. Бундай шароитда ўсимликларда стресс ҳолат кузатилиб ўсимликларни гормонал фаолияти бузилади, натижада кўплаб ҳосил нишоналарини тўкиб юборади.

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

Бундай ноқулай об-ҳаво шароити туфайли экинлардан кўзланган ҳосилни етиштириш имкони бўлмай қолмоқда. Бунинг натижасида йилдан-йилга кўплаб сезиларли йўқотишлар бўлиб қишлоқ хўжалигида кўплаб иқтисодий зарар кўрилмоқда. Бундай шароитда кузги буғдойдан кейин экиладиган экинлардан барқарор юқори ва сифатли ҳосил етиштиришда ўсишни созловчи моддаларни қўллаш муҳим аҳамиятга эга. Ўсишни созловчи моддалар ўсимликларни ноқулай шароитларга чидамлилигини ва иммунитетини ошириб, метаболизм жараёнини тезлаштиради, оқсил ва углеводларнинг синтезини фаоллаштиради. Бу борада қатор ишлар амалга оширилган ва ижобий натижаларга эришилган.

Кўпгина тадқиқотчилар ўсимликларнинг ўсиши, ривожланишини жадаллаштирадиган, атроф муҳитга салбий таъсир қилмайдиган, тупроқ тузилиши, буферлиги ва ион алмашинуви хусусиятлари ва микроорганизмлар фаолиятини яхшилайдиган, минерал элементларни ўсимликлар томонидан ўзлаштириши учун қулай шаклга айлантирадиган гумин таркибли препаратлардан ўсимликлар уруғларига ва ўсув даврларида ишлов беришда фойдаланилади [5].

Гумин моддалари ўсимлик организмидаги барча биокимёвий жараёнларни фақат уруғ униб чиқиши ва илдиз тизими шаклланишининг дастлабки босқичида эмас, балки ўсимликларнинг ўсиш ва ривожланишини ҳам жадаллаштиради [2].

Келиб чиқиши табиий, экологик хавфсиз гумин моддалари ўсимликларга кўп қўлланиладиган ўғитлар ва айрим ҳолларда пестицидларга муқобил препарат сифатида ишлатилмоқда [1].

Кузги буғдойдан бўшаган майдонларга экилган кунгабоқарга Гумимакс стимулятори қўлланганда ниҳолларнинг униб чиқиши тезлашиб, ўсиши, ривожланиши яхшиланган, вегетатив ва генератив органлар сони ва салмоғи ошиб юқори ва сифатли ҳосил етиштирилган [3, 4].

Шунинг учун кузги буғдойдан кейин экилган такрорий кунгабоқар экинидан юқори ва сифатли ҳосил етиштиришда Гумимакс стимуляторини қўллашнинг мақбул муддат ва меъёрларини ишлаб чиқишни олдимизга мақсад қилиб олдик.

Тадқиқот натижалари. Тажрибада кузги буғдойдан сўнг такрорий экилган кунгабоқар уруғига Гумимакс стимулятори билан турли меъёрларда ишлов беришни ниҳоллар униб чиқишига таъсири аниқланди.

Ниҳолларнинг униб чиқиши аввало тупроқ намлиги ва ҳароратига, қолаверса уруғларни экишга тайёрлаш усули ва стимуляторлар билан ишлов бериш меъёрларига ҳам боғлиқлиги аниқланди.


Тажрибада ниҳолларни униб чиқиши тахлил қилинганда такрорий экилган кунгабоқар уруғига Гумимакс стимуляторлари билан 0,5; 0,75; 1,0 л/т меъёрда ишлов берилган вариантларда ишлов берилмаган вариантга нисбатан ниҳоллар 1-2 кунга эртаки бўлганлиги аниқланди.

Назорат вариантда 70,9 фоиз ниҳоллар униб чиқди. Кунгабоқар уруғига экишдан олдин Натрий гумат билан 0,8 кг/т меъёрида ишлов берилганда 80,2 фоиз ниҳоллар униб чиқиб назоратга нисбатан 1,3 фоизга кўп бўлди.

Кунгабоқар уруғига экишдан олдин Гумимакс стимулятори билан 0,5 л/т, 0,75 л/т ва 1,0 л/т меъёрларида ишлов берилганда 80,4; 82,6; 85,0; 82,4 фоиз ниҳоллар униб чиқиб назоратдан 11,5; 11,7; 14,1; 11,5 фоизга кўп бўлди.

Такрорий экилган кунгабоқар уруғига Гумимакс стимулятори билан 0,75 меъёрида ишлов берилганда юқорироқ маълумотлар олиниб ниҳоллар униб чиқиши 85,0% ни ташкил қилди.

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz



Расм. Кунгабоқар ниҳолларини униб чиқишига Гумимакс стимуляторининг таъсири

Демак, такрорий экилган кунгабоқар уруғига Гумимакс стимулятори билан 0,5; 0,75 ва 1,0 л/т меъёрида ишлов берилганда ферментлар фаоллиги ошиб, уруғларни тинчлик даври бузилиб, тупроқ намидан унумли фойдаланиб ниҳолларни униб чиқиши тезлашган.

Изланишларимизда Гумимакс стимуляторини такрорий экилган кунгабоқар уруғига ва 3-4 барг даврида қўллаш ниҳоллар униб чиқиш динамикасига таъсири бўйича олинган илмий маълумотлар, кунгабоқарнинг кейинги даврларидаги ўсиши ва ривожланишига ҳам бевосита таалуқли бўлганлиги аниқланди.

Такрорий экилган кунгабоқарни амал даври охирида (22-сентябрь) ўтказилган кузатувларда назорат вариантда кунгабоқар бўйи 129,9 см, барглар сони 19,8 донани ташкил қилди.

Эталон Натрий гумат стимулятори билан уруғга 0,8 кг/га меъёрда ишлов берилганда ўсимлик бўйи 137,4 см, барги 22,9 дона бўлиб, назоратдан ўсимлик бўйи 17,5 смга баланд, барги 3,1 донага фарқ қилди.

Такрорий экилган кунгабоқар уруғига Гумимакс стимулятори билан 0,5; 0,75; 1,0 л/т меъёрда ишлов берилганда ўсимлик бўйи вариантларга мос ҳолда 140,3; 141,5; 140,2 см, барги 23,0; 23,3; 23,6 донани ташкил қилиб, назоратдан бўйи 10,4; 11,6; 10,3 смга баланд, барглар сони 3,2; 3,5; 3,8 донага кўп бўлди.

Кунгабоқар уруғига экишдан олдин 0,5; 0,75; 1,0 л/т ва 3-4 барг даврида 0,4 л/га меъёрда ишлов берилганда ўсимликнинг бўйи тегишлича 142,0; 143,8; 141,6 см, барглар сони 23,5; 23,8; 23,8 дона бўлиб, назоратдан вариантларга мос ҳолда ўсимлик бўйи 12,1; 13,9; 11,7 смга баланд ва барглар сони 3,7; 4,0; 4,0 донага фарқ қилди. Кунгабоқарни 3-4 барг даврида Гумимакс стимулятори билан 0,4 л/га ишлов берилганда ўсимлик бўйи 137,8 см, барглар сони 20,0 дона бўлиб, назоратдан ўсимлик бўйи 7,8 смга баланд, барглар сони 0,2 донага кўп бўлди.

Хулоса қилиш мумкинки, кунгабоқарнинг ўсиши ва ривожланиши бўйича нисбатан юқорироқ маълумотлар Гумимакс стимулятори билан уруғга 0,75 л/т меъёрида ишлов бериб сўнгра 3-4 барг даврида 0,4 л/га қўлланилганда кузатилиб бунда назоратдан ўсимлик бўйи 13,9 см га баланд, барглар сони 4,0 донага, эталон Натрий Гумат препарати қўлланилган вариантдан ўсимлик бўйи 5,4 смга баланд, барглар сони 0,9 донага кўп бўлди.

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Перминова И.В. Гуминовые вещества в контексте зеленой химии /И.В. Перминова, Д.М. Жилин / Зеленая химия в России (сборник статей). - Издательство Московского университета, 2010.- С. 146-163.
2. Попов А.И. Гуминовые вещества. Свойства, строение, образование / Под ред. Е.И. Ермакова. — СПб.: Изд-во С.-Петерб. ун-та, 2004. 248 стр.
3. Таджиев К.М. Такрорий экилган кунгабоқарни қуруқ вазн тўплашига Гумимакс стимуляторини таъсири // “International scientific-online conference: Scientific approach to the modern education system" Part 3, 5 th April 2022 Colletions of Scietific Works Parij, 2022. Pp. 28-31
4. Таджиев К.М., Абдуалимов Ш.Х. Влияние стимулятора роста Гумимакс на урожайность подсолнечника при повторном посеве на юге Узбекистана // Роль вузовской науки в развитии Агропромышленного комплекса Материалы международной научно-практической конференции - Нижний Новгород. 2021. 13-15 октября. 190-193 стр.
5. Фирсова С.А. Агроэкологическое обоснование эффективности гумата «Плодородие» /С.А. Фирсова, Е.Ф. Дмитриченко, Д.А Швырков // Агрохимический вестник 2008.- № 3. -С. 35-36.

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

IJTIMOIY - MADANIY INQIROZLI VAZIYATLARDA AVLODLAR MENTALITETINING TRANSFORMATSIYALASHUVI: MILLIYLIGIMIZGA TO‘G‘RI KELMAYDIGAN ODATLAR HAQIDA

Begimkulova Zamira Sheraliyevna
Toshkent shahridagi Puchon universiteti ta'lim menejmenti magistranti

Abduvaliyev Fathulla Najimiddinovich
Toshkent shahridagi Puchon universiteti dotsenti, PhD.

Annotatsiya: *muallif tomonidan ijtimoiy - madaniy inqirozli vaziyatlarda avlodlar mentalitetining transformatsiyalashuvi, milliyligimizga to‘g‘ri kelmaydigan odatlar haqida ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ijtimoiy-madaniy inqirozlar, transformatsiya, “g’arbona hayot tarzini”, geosiyosiy manfaatlar konteksti, Sharq sivilizatsiyasi.*

KIRISH

Ijtimoiy-madaniy inqirozlar insonlar hayotida turli o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi, bu o‘zgarishlar avlodlar mentalitetiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Jamiyatda iqtisodiy qiyinchiliklar, globallashuv jarayonlari va axborot texnologiyalari ta’sirida yoshlar dunyoqarashida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Ushbu transformatsiya milliy qadriyatlar, an’analar va jamiyat normalariga zid bo‘lgan ba’zi odatlarning shakllanishiga olib kelishi mumkin. Keyingi yuz yillik oxirlaridan boshlab (ayniqsa, dunyoda siyosiy tizim mafkuralari qarama-qarshiligi rasman barham topgandan keyin), Sharq va G’arb davlatlari munosabatlarida “g’arbona hayot tarzini” sharq xalqlari milliy taraqqiyoti modellariga transformatsiya qilishga harakatlar kuchayib ketdi. Xususan, “demokratiya eksporti” yoki “ommaviy madaniyat” eskalatsiyasi an’anaviy shakllangan sharqona hayotnini izdan chiqarishi, muayyan maqsadni amalga oshirish, manfaatni himoya qilishga yo’naltirilgan. Aniqroq qilib aytganda, G’arbning Sharqni “yashashga o’rgatishi”, unga egalik qilish va boshqarish maqsadini, manfaatini namoyon qiladi.

Shuning uchun ko’pchilikni qiziktirgan G’arb va Sharq munosabatlari mohiyatini aniqlash uchun g’arb-sharq sivilizatsiyalari, ularning transformatsiyasi to’g’risidagi muqobil qarashlarni (geosiyosiy manfaatlar kontekstida) qiyosiy tahlil qilib, umumiy tasavvurga ega bo’lish kerak. Chunki. bu muammoga turli (xususan, siyosiy yoki konfessional) manfaatlar asosida yondashuvlar, yagona haqiqatlikka davogar turli muqobil nazariyalarni, ta’limotlarni ilgari surilishiga, ularning ustuvorlashuviga olib kelmoqda.

Aksariyat tadqiqotchilar fikriga ko'ra, faqat Gegelь unga haqiqiy falsafiy umumlashgan ta'rif bergan, ya'ni madaniyatlar va sivilizatsiyalar tarixini o'rganida muammo mazmuniga muqobil ilmiy yondashuvlar tarkibida, birinchilar qatorida, dialektik usulni qo'llagan. Xususan, Gegelь barcha narsa va hodisalarni "qutblarga" ajratib, ularni "G'arb" va "Sharq" munosabatlari kontekstida izohlagan edi. Shu nuqtai nazardan, Gegelь butunnni qismlarga ajratish tamoyilining har bir narsa va hodisaga xosligini asoslashga harakat qilgan. Uning fikricha, planetamizda shakllangan dunyoqarashlar tizimini ham, sivilizatsiyalarini ham, katta magnit qutblariga o'xshatish mumkin.

Dunyo tarixida Sharq sivilizatsiyasi xususiyatlari va muammolarini gegelcha talqin qilishning boshqa faylasuflardan farqi shundaki, u G'arb-Sharq, dixotomiyasini taqqoslab, bu "qutb"lar xalqlarni bir-biridan ajratadigan badiiy-siyosiy ustqurmaga emas, balki insoniyatning universal, umumlashgan "ma'naviy aloqasi" imkoniyatlari, degan xulosaga kelgan. Frantsiyalik tadqiqotchi M.Hlenning fikriga ko'ra, Gegelь tomonidan Sharq sivilizatsiyasiga oid maxsus kontseptsiya yaratilgan bo'lib, unga asosan G'arb madaniyati, qandaydir harakatsiz, tarixiy berk ko'chaga kirib qolgan hodisadan qochadigan yagona marra tarzida tushuniladi.

G'arb va Sharq sivilizatsiyasining falsafiy kontseptsiyalari, xususan teologik tahlili, ularning umumiy jihatlari mavjudligini ko'rsatadi. Ya'ni dunyoning azaldan G'arb va Sharqqa bo'linishi, faqat mexanistik tarzda geografik "qutb"larga ajratish emas, balki tabiat tomonidan belgilangan tartibni e'tirof etishdir. Masala, bu tartibni anglash asosida munosabatda bo'lish va unga "qutblarning" o'zaro moslashish adaptatsion potentsialidan foydalanishdadir.

Shunday qilib, bizning fikrimizcha, Sharq va G'arb hayot tarzi, sivilizatsiyalari xususiyatlari hamda transformatsiya imkoniyatlari yagona ob'ektiv ontologik asosga ega bo'lib, ularning bir-biridan farqi, vujudga kelish genezisiga ko'ra: xususiy-individual ildizlarga, retrospektiv-tarixiy asoslarga egaligidadir. Boshqacha qilib aytganda, bu umumiy universiumni – Inson, Kosmos va Mikrokosmosni ("qutblar" dunyoviy ilmlarida ham, teologik ta'limotlarida ham) e'tirof qilishda namoyon bo'ladi. Shuning uchun o'zining universal mohiyatiga ko'ra, "Sharq sivilizatsisi" va "G'arb sivilizatsiyasi" ijtimoiy borliq umumiyligining konkret ko'rinishlari bo'lsa ham, ontologik-teologik asosiga ko'ra, bir-biriga mos va bir butunlik yaxlitligini bildiradi.

Tasavvuf falsafasining yirik namoyondasi Ibn Arabiy (1165-1240) o'zining "Donolik usullari" asarida "Sharq" ko'zga ko'rinib turgan (irratsional.) borliq, "G'arb" nazardan panadagi ko'rinmas (ratsional) tuyg'u, deb yozgan edi. Boshqacha qilib aytganda, "G'arb" va "Sharq" universiumining gnoseologik chegaralarini belgilaydi va birida – sezgilar bilan (Sharq), boshqasida – aql bilan (G'arb) idrok qilinadigan dunyo yotishini ko'rsatgan edi.

Makrokosmosni teologik tushinish masalasida, insonning sharqona va g'arbona faoliyat usulidagi farq, shartli va nisbiy xarakterga ega. Chunki "Sharq va G'arb odami" mohiyatiga ko'ra, Inson dunyosining "yarim sharlari" bo'lib, bir butunlik tarzida e'tirof etilishida jiddiy asos mavjud. Xususan, German Gress ularning umumiyligi haqida: "Sharq va G'arb hikmatlarida biz o'zaro kurashayotgan dushmanlik kuchlarini emas, oraliqda silkinayotgan qutblarni ko'ramiz" , deb yozgan edi.

XIX-XX asrlar falsafasi tarixida "Sharq va G'arb" sivilizatsiyalari o'zaro munosabati muammosi (ayniqsa, diniy konfessional kontekstda) hamda ularning ahamiyati yetarli darajada yoritilmagan. Chunki, XIX-XX asr xalqlari sivilizatsiyasi tarixini (tanqidiy yondashuvsiz, qiyosiy tahlilsiz), ularning mazmunini, ahamiyatini to'liq ochib berish mumkin emas edi.

Shuning uchun ham K.S.Gadjievning "Zamonaviy Sharq ijtimoiy-madaniy, milliy tarixiy-madaniy xududlarni qamrab olgan. Ya'ni Yaqin Sharqda – arab-turk, Markaziy Osiyoda – turkiy xalqlar musulmonchiligi, Sharqiy Osiyoda: budda-sinto, konfutsion-hind, hind-buddiy-musulmonchiligi va boshqa dunyolarning har biri o'zining xususiyatlariga ega va tegishli yondashuvni talab qiladi. Shu

o’rinda Sharqqa g’arbona yondashuvda gegelcha tasavvur ustuvorligi, sharqona mentalitet rivojlanishining texnologik va boshqa shakllariga loqaydligi va ishonchsiziligi orqali belgilanadi”, degan fiqrida bu sivilizatsiyalarga teologik yondashuv ustuvor bo’lsa ham, muayyan haqiqat mavjud.

Zamonaviy mualliflar Osiyo davlatlarini modernizatsiyalashtirish, sekulyarizatsiyalashish imkoniyatlarini, ularning o’zidan emas, balki tashqaridan izlashadi, diqqatni faqat tashqi ekzogen omil roliga, (xususan, demokratiyani eksport qilishga, prozelitizmga, “ommaviy madaniyat” transformatsiyasiga, inqilob fenomenga, davlat va jamiyat qurilishi institutlarining dominantligiga, erkinlikni mutlaqlashtirishga) qaratishmoqda. Buning amaliy ko’rinishiga, bugungi kunda Yevropa davlatlarida Yaqin Sharq, Afrika va boshqa rivojlanayotgan davlatlardan qochoqlar ommaviy migratsiyasi bilan bog’liq inqirozni misol qilib keltirish mumkin.

Bunda ayrim mualliflar Sharq-G’arb yoki G’arb-Sharq (qaysini birinchi o’ringa qo’yish, uning funktsional ahamiyatini mutlaqlashtirishini ko’rsatadi) ijtimoiy munosabatlari tizimida muayyan tomonlarni, ya’ni “G’arbda” – shaxs, individualistik-ratsionalizm, “Sharqda” esa – ma’naviy-ijtimoiy irratsionalizm, jamoaviylik tamoyillari ustuvorligini e’tirof qilishadi. Bunday “dualistik” qarashlar asosida sivilizatsiyaning “geoijtimoiy-madaniy sindromini”, uni identifikatsiyalashtiruvchi va asosiy determinlashtiruvchi omillarni mutlaqlashtirish ko’zga tashlanadi.

Har ikki yondashuv, o’ziga xos tarzda, ijtimoiy-madaniy va ruhiy jihatlardan integratsiyalashgan umumiy, unitar sivilizatsiyani ijtimoiy makon doirasida chegaralashga olib keladi. Lekin falsafa tarixida, yuqorida ko’rsatilgan “dualizmni” (ayniqsa, xristian va islom monizmini) o’zaro murosaga keltirishga, muvofiqlashtirishga urinishlar alohida o’ringa ega. Xususan, Gegelь: Sharq – butun dunyo tarixining boshlanishi, Yevropa uning davomidir, deb hisoblagan. Uning fikricha, Sharqda “tashqi fizik quyosh chiqadi”, G’arbda esa “ichki o’z-o’zini anglash quyoshi” chiqadi .

Bunday qarashlar XX asrning 50-70 yillarigacha ayrim G’arb olimlari tomonidan rivojlantirilgan. Ular Yevropa va Osiyo (ayniqsa, Afrika) jamiyatlari sivilizatsiyasini har xil tipdagi ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida tasvirlanganlar. Ya’ni, Afroosiyo jamiyatlari ichki taraqqiyot potentsiyaliga ega bo’lmagan, qoloq tuzum sifatida baholanib, G’arbning “etakchilik rolini” mutlaqlashtirganlar.

G’arbning Sharq madaniyati, sivilizatsiyasi bilan murakkab aloqalari haqidagi zamonaviy nazariyalarda, ularning an’anaviy modernizatsiyasi, simbiozi masalalariga katta ahamiyat berilmoqda. Chunki Sharqda XIX asr boshlarida, bir tomondan, jamiyat hayotining: ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-mafkuraviy yo’nalishlari, konservativ-arxaik tarixiy an’analari doirasidan chiqib, modernizatsiyalashish jarayoni boshlanganligini, yangi sivilizatsiyalashgan global jamiyat shakllanishi va uning ijtimoiy transformatsiyasi sifatida qarash kerak. Boshqacha aytganda, bu hodisa tarixiy jarayonlar kompleksi globallashuvi bilan bog’liq bo’lib, turli jamiyat va mamlakatlarning umumjahon sivilizatsiyasi jarayoniga integratsiyalashuvi natijasi bo’ldi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

1. Globallashuv va ommaviy madaniyat ta’siri: Yoshlar orasida globallashuv jarayonlari tufayli boshqa madaniyatlarning qadriyatlarini qabul qilish holatlari kuzatilmoqda. Bu o‘z navbatida, oila, urf-odatlar va milliy qadriyatlarga nisbatan befarqlikni kuchaytirishi mumkin.

2. An’anaviy qadriyatlarning zaiflashuvi: Milliy madaniyat va tarbiyaviy qadriyatlarning yosh avlodga to‘g‘ri yetkazilmasligi natijasida ular o‘zlarini xalqning bir qismi sifatida his qilmay qolish xavfi mavjud. Masalan, ota-onaga hurmat, mahalladagi birdamlik kabi qadriyatlar ayrim yoshlar tomonidan zamonaviy talablar bahonasida inkor etilmoqda.

3. Individualizmning kuchayishi: Ko‘proq o‘zini tanitish, mustaqillik va shaxsiy manfaatlarni ko‘zlash milliy hamjihatlikka salbiy ta’sir qilishi mumkin. An’anaviy jamiyatlarda jamoatchilik mas’uliyati kuchli bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi avlod bu prinsipni unutmoqda.

Ba’zi yoshlar o‘rtasida boshqa mamlakatlarning milliyligiga xos bo‘lgan, lekin bizning an’analarimizga zid bo‘lgan urf-odatlarni qabul qilish holatlari ko‘p uchraydi. Masalan, to‘y va marosimlarda haddan ziyod isrofgarchilik yoki g‘arblik madaniyatini ko‘r-ko‘rona taqlid qilish. Milliy axloqiy normalarga mos kelmaydigan turmush tarzini olib borish (masalan, oilaviy qadriyatlarni mensimaslik yoki begonalashish) jamiyatda tarbiya va mentalitetdagi muvozanatni buzadi.Ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalgan axborot oqimlari yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, o‘zligini anglashga to‘sqinlik qilmoqda. Bu, o‘z navbatida, milliylik va jamoaviy mas’uliyatni zaiflashtiradi.

- Ota-onalar va ta’lim muassasalari milliy qadriyatlarni yosh avlodga yetkazishda faol bo‘lishi lozim.
- Yoshlarni milliy madaniyat va urf-odatlarga qiziqtiradigan loyihalar va dasturlarni yo‘lga qo‘yish kerak.
- Har qanday xorijiy madaniyatni qabul qilishdan avval uning milliy an’analar va qadriyatlarga mosligini o‘rganish zarur.

Shunday qilib, ijtimoiy-madaniy inqirozlar davrida avlodlar mentalitetini saqlab qolish va milliylikni mustahkamlash uchun jamoaviy harakat va chuqur o‘ylangan strategik chora-tadbirlar zarur.

- Mentalitetning dinamik tabiati: Har qanday inqiroz davrida avlodlar dunyoqarashi, qadriyatlari va madaniy xulq-atvori o'zgarishga moyil bo'ladi. Bu jarayon axborot oqimining tezlashuvi, globalizatsiya va jamiyatning ijtimoiy tuzilishidagi o'zgarishlar bilan kuchayadi. Oqibatda, avvalgi avlodlarning qadriyatlari bilan keyingi avlodlarning ideallari o'rtasida qarama-qarshiliklar yuzaga keladi.

XULOSA

- Milliylik va globalizm o'rtasidagi ziddiyat: Inqiroz davrlarida ayrim yoshlar o'zlarini zamonaviy va global jamiyatning bir qismi sifatida namoyon qilishga intilib, milliy urf-odat va qadriyatlarni rad etishi mumkin. Bu holat milliylikni yo'qotish xavfini tug'diradi.
- Milliylikka zid odatlarning kirib kelishi: Madaniy inqirozning bir qismi sifatida boshqa madaniyatlardan qabul qilingan, lekin milliy qadriyatlarga mos kelmaydigan odatlar jamiyatda keng tarqalishi mumkin. Masalan, individualizmning kuchayishi, kollektivizmga asoslangan milliy qadriyatlarni zaiflashtiradi.
- Milliylikni saqlash va avlodlar mentalitetini muvozanatlash uchun: Tarbiya va ta'lim tizimida milliy qadriyatlarga urg'u berish; Madaniy merosni targ'ib qilish; Zamonaviy texnologiyalar va axborot vositalaridan foydalangan holda milliy qadriyatlarni innovatsion shaklda tanitish zarur.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy-madaniy inqiroz sharoitida avlodlar mentaliteti o'zgarish jarayonida milliylikni yo'qotmaslik, aksincha, uni mustahkamlash jamiyatning asosiy maqsadi bo'lishi lozim. Bu esa milliy g'urur, qadriyatlar va urf-odatlarning yangi sharoitlarga moslashish qobiliyatiga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G‘afurov, A. (2015). O‘zbek milliy mentaliteti va zamonaviy dunyoqarash. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Karimov, I. A. (1998). O‘zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat va mafkura. Toshkent: O‘zbekiston.

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

3. Norboyeva, Z. (2020). Madaniyatlararo muloqot va uning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni. Toshkent: Yangi asr avlodi.
4. Vahobov, R. (2017). Globalizatsiya va milliy o‘zlik. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti.
5. Jalolov, A. (2018). *Ijtimoiy va madaniy inqirozlarning jamiyatga ta’siri. Toshkent: Universitet nashriyoti.

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

TIBBIYOT MUASSASALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAN RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Ne'matov Nizom Ismatullayevich
Samarqand davlat tibbiyot universiteti assistenti

Utaboyev Umidjon Oripovich
Samarqand viloyati Urgut tumani Stomatologi

Maxmayusupov Muxiddin Berdiqulovich
A.Z Med klinikasi shifokori

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqola tibbiyot muassasalarining samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning o'rnini o'rganishga bag'ishlangan. Hozirgi davrda tibbiyot muassasalarida raqamli texnologiyalarni keng qo'llash natijasida davolash sifati va jarayonlarning tezkorligi sezilarli darajada yaxshilanmoqda. Maqolada elektron ma'lumotlar tizimlari (EMT), teletibbiyot, robot-assistentlar va avtomatik tizimlarning qo'llanilishi hamda ularning samaradorlikka ta'siri tahlil qilinadi. Shu bilan birga, maqola ma'lumotlarni boshqarish va xavfsizligi, qonuniy va etik masalalarni ham ko'rib chiqadi. Ma'lumotlarni boshqarish tizimlari orqali davolash jarayonining izchilligi va aniqligi oshadi, telemeditsina yordamida esa bemorlar bilan masofaviy aloqalar o'rnatiladi. Ushbu texnologiyalarning O'zbekiston va boshqa mamlakatlardagi muvaffaqiyatli namunalarini tahlil qilib, maqola samaradorlikni oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar beradi.*

Kalit so'zlar: *raqamli texnologiya,teletibbiyot, ma'lumot, robot-assistant.*

Kirish

Hozirgi kunda tibbiyot muassasalarining samaradorligini oshirish muhim masalalardan biri bo'lib, bunda raqamli texnologiyalar muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada elektron ma'lumotlar tizimlari, teletibbiyot, robot-assistentlar va boshqa zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali tibbiyot muassasalarining ish faoliyatini qanday yaxshilash mumkinligi o'rganiladi.

O'zi raqamli texnologiya deganda nimani tushunamiz: Raqamli texnologiyalar hayotimizga shunchalik singib ketdiki, bugungi kunda nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu jumladan xizmat ko'rsatish tizimiga xam kirib bormoqda. Tabiiyki, boshqa sohalarda bo'lgani singari raqamli texnologiyalarni servis korxonalarida joriy etish ham uning faoliyatini tubdan o'zgartirmoqda. Xususan, tizimda yagona elektron platformani yaratish orqali ma'lumotlarni kiritish, to'plash, shakllantirish, tahlil qilishning zamonaviy uslubi yo'lga qo'yildi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib boryapti va har bir sohada zamon bilan hamqadam odimlashni taqozo etadi. Masalan, sun'iy intellekt texnologiyasini joriy etish servis korxonalarida ma'lumotlarni tahlil qilish va takrorlanuvchi jarayonlarni avtomatlashtirish hamda shaffoflikni oshirishda qo'l kelsa, katta hajmli ma'lumotlar — Big data esa servis korxonalariga kelib tushadigan katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash, tushumlarni yanada yaxshiroq bashorat qilish hamda hujjat almashinuvini yaxshilash imkoniyatini beradi Sun'iy intellekt va big data

ko'makka kelmoqda Ma'lumot uchun artificial intelligence, ya'ni, sun'iy aql- informatikaning alohida sohasi bo'lib, kompyuter yoki mashinaning inson ongidagi imkoniyatlarga taqlid qilishi, sodda qilib aytganda, sun'iy aql kompyuterlarni odam kabi o'ylash va yechim topishga yo'naltirilgan texnologiya hisoblanadi. Big Data — salmoqli ma'lumot atamasi kuniga 100 gigabaytdan ko'p ma'lumot tushadigan oqimlarga nisbatan qo'llanib kelingan. Keyinchalik ma'lumotlarning keskin ko'payishi oqibatida bu tushuncha yanada keng qamrov kasb eta boshladi. Ushbu atama odatda terabayt, ekzabayt va petabaytlar darajasidagi katta hajmdagi ma'lumotlarga nisbatan qo'llaniladi. Yangi texnologiyalar afzalliklari hozirgi kunda ko'plab mamlakatlar sog'liqni saqlash, transport, mudofaa va milliy xavfsizlik kabi ko'plab sohalarda sun'iy intellekt afzalliklaridan foydalanib kelmoqda. PricewaterhouseCoopers (PwC) konsalting kompaniyasi tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, global sun'iy aql 2030-yilga kelib jahon iqtisodiyotiga 15,7 milliard trillion AQSH dollari miqdorida hissa qo'shishi kutilmoqda. Bu jahon yalpi ichki mahsulotini 26 foizga o'sishiga olib keladi. Hujjatlar to'plamidan aniq ma'lumotlarni topish bu pichan ichidan igna qidirish kabi zahmatni talab qiladi. Aslida algoritmlaridan foydalanib, katta miqdordagi ma'lumotlarda noodatiy yozuvlarni aniqlay oladigan, sun'iy aqlni qo'llab-quvvatlaydigan tizimlarni yaratish mumkin. Takroriy vazifalarni avtomatlashtirish uchun sun'iy intellektni qo'llab-quvvatlaydigan robotlarning qo'llanilishi mutaxassislarga hujjatlar ustida ishlashni kamaytirishga xizmat qilsa, shaffoflikni oshirish esa, xizmat ko’rsatishning avtomatlashtirilgan jarayonida inson mehnati qiyinchiligini kamaytirshga yordam beradi. Raqamli texnologiyalar taraqqiy etgan asrda eng muhum omil bu ma'lumotlar hisoblanadi. Ularni to'plab, o'rganishlar asosida xulosalar chiqarishda Big Data texnologiyasining ahamiyati katta. Undan qo'pincha salmoqli ma'lumotlarning prognozli tahlillariga yoki ma'lumotlardan qiymat chiqarib olishning boshqa usullariga murojaat qilishda ham foydalaniladi. Big Data texnologiyalaridan olinadigan daromadlar yildan yilga o'sib bormoqda. U 2019-yilda 189,1 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 274,3 milliard dollarga etishi kutilmoqda. AQSH, Avstraliya kabi mamlakatlarda katta hajmli ma'lumotlar texnologiyalarini rivojlantirish va moliyalashtirish bo'yicha maxsus davlat dasturlari ishlab chiqilgan.

Elektron Ma'lumotlar Tizimlari (EMT)

Elektron ma'lumotlar tizimlari tibbiyot muassasalarida bemorlarning ma'lumotlarini saqlash, boshqarish va ulashish jarayonini avtomatlashtirish orqali ishlov berishni tezlashtiradi. Bu tizimlar nafaqat ma'lumotlarni xavfsiz saqlashni ta'minlaydi, balki davolash jarayonining izchilligini ham oshiradi. Shu bilan birga, EMT orqali tibbiyot xodimlari bemorlarning holatini doimiy kuzatib borishlari va tezkor tibbiy xizmat ko‘rsatishlari mumkin.

Teletibbiyot va Telemeditsina

Teletibbiyot va telemeditsina texnologiyalari masofaviy tibbiy xizmat ko‘rsatishni amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu texnologiyalar yordamida bemorlar va shifokorlar orasidagi masofaviy bog‘lanish osonlashadi. Bemorlar o‘z uylaridan chiqmasdan shifokor bilan maslahatlashishlari va ularning holatini kuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu nafaqat vaqtni tejaydi, balki tibbiy xizmatlar sifatini ham oshiradi.

Robot-Assistentlar va Avtomatik Tizimlar

Robot-assistentlar va avtomatik tizimlar tibbiyot muassasalarining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu texnologiyalar yordamida oddiy va murakkab jarrohlik amaliyotlarini avtomatlashtirish, bemorlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash va ish jarayonini samarali tashkil qilish mumkin. Robotlar bemorlarning muolajalarini aniq va to‘g‘ri bajarishlari, hamda xodimlarning yukini kamaytirishlari orqali samaradorlikni oshiradi.

Ma'lumotlarni Boshqarish va Xavfsizligi

Ma'lumotlarni boshqarish tizimlari orqali tibbiyot muassasalarida ma'lumotlar oqimini izchillik bilan boshqarish va xavfsizligini ta'minlash mumkin. Bu tizimlar yordamida tibbiyot xodimlari bemorlar

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

haqidagi ma'lumotlarga tezkorlik bilan kirishlari va ma'lumotlarni xavfsiz saqlashlari mumkin. Shu bilan birga, ma'lumotlarni boshqarish tizimlari yordamida tibbiyot xodimlari o‘rtasidagi aloqa yaxshilanadi va jarayonlar samaradorligi oshadi.

Qonuniy va Etik Masalalar

Raqamli texnologiyalarni qo‘llashda qonuniy va etik masalalar ham muhim ahamiyatga ega. Tibbiyot muassasalarida raqamli texnologiyalarni qo‘llashda ma'lumotlarni xavfsiz saqlash, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va qonuniy talablarga rioya qilish zarur. Shuningdek, bemorlarning roziligini olish va ularning ma'lumotlarini saqlashda maxfiylikni ta'minlash talab etiladi.

Qo‘llanilgan Namunalarning Tahlili

Maqolada O‘zbekistonda va boshqa mamlakatlarda raqamli texnologiyalarni qo‘llashning muvaffaqiyatli namunalarini tahlil qilish va ularning samaradorlikka ta'sirini o‘rganish kerak. Bu tahlillar orqali tibbiyot muassasalari uchun foydali takliflar va strategik rejalari ishlab chiqilishi mumkin.

Xulosa

Tibbiyot muassasalarida raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi zamonaviy tibbiyot sohasini rivojlantirishda va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Elektron ma'lumotlar tizimlari (EMT), teletibbiyot, robot-assistentlar va avtomatik tizimlar tibbiy jarayonlarni yanada tezkor va aniq amalga oshirish imkonini beradi. Bu texnologiyalar yordamida bemorlar va shifokorlar orasidagi aloqa yaxshilanadi, davolash sifati oshadi va ish jarayoni samaradorligi sezilarli darajada ko'tariladi.

Ma'lumotlarni boshqarish va xavfsizligini ta'minlash tibbiyot muassasalarining uzluksiz ishlashida va bemorlarning ma'lumotlarini xavfsiz saqlashda katta rol o'ynaydi. Raqamli texnologiyalarni qo'llashda qonuniy va etik masalalarga rioya qilish ham muhimdir, chunki bu bemorlarning ma'lumotlarini himoya qilish va tibbiyot muassasalari ish faoliyatini tartibga solishga yordam beradi.

O'zbekiston va boshqa mamlakatlarda raqamli texnologiyalarni qo'llashning muvaffaqiyatli namunalarini tahlil qilish orqali tibbiyot muassasalarida samaradorlikni oshirish uchun foydali takliflar va strategik rejalar ishlab chiqilishi mumkin. Natijada, tibbiyot muassasalarining samaradorligini oshirish, davolash sifatini yaxshilash va zamonaviy tibbiyot sohasini rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalar muhim vosita bo'lib qoladi.

Adabiyotlar:

1. Abdullayeva S., Maxmudova Z., Xujakulov S. TIBBIY TA’LIMDA VR TEXNOLOGIYA //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – T. 2. – №. 11. – C. 1140-1144.
2. Abdusamatovich K. S., Olimjonovna T. F. Application of web applications in medicine //Eurasian Research Bulletin. – 2022. – T. 14. – C. 46-50.
3. Nabiyeva, S. S., Rustamov, A. A., Malikov, M. R., & Ne'matov, N. I. (2020). Concept of medical information. European Journal of Molecular and Clinical Medicine, 7(7), 602-609.
4. Malikov, M. R., Rustamov, A. A., & Ne'matov, N. I. (2020). STRATEGIES FOR DEVELOPMENT OF MEDICAL INFORMATION SYSTEMS. Theoretical & Applied Science, (9), 388-392.
5. Berdiyevna, A. S., & Olimjonovna, T. F. (2022). INNOVATIVE APPROACHES IN THE EDUCATION SYSTEM TO INCREASE YOUTH PARTICIPATION. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(3), 674-677.

6. Esirgapovich, K. A. (2022). THE EASIEST RECOMMENDATIONS FOR CREATING A WEBSITE. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(2), 758-761.
7. Toxirova, F. O., Malikov, M. R., Abdullayeva, S. B., Ne'matov, N. I., & Rustamov, A. A. (2021). Reflective Approach In Organization Of Pedagogical Processes. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(03), 2020.
8. Ne'matov, N., & Rustamov, T. (2022). SANATORIYLAR ISHINI AVTOMATLASHTIRISH: BRON XIZMATI VA UNING STRUKTURASI. Eurasian Journal of Academic Research, 2(11), 763-766.
9. Ne'matov, N., & Ne'matova, N. (2022). OLIY TA'LIM TIZIMI TALABALARIGA O'ZBEK TILINI O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI. Академические исследования в современной науке, 1(19), 37-38.
10. OB Akhmedov, AS Djalilov, NI Nematov, AA Rustamov // Directions Of Standardization In Medical Informatics // Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 2(2), 1-4 p. 2021
11. Ne'matov, N., & Isroilov, J. (2022). TIBBIY VEB SAYTLAR YARATISH YUTUQ VA KAMCHILIKLARI. Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot, 1(25), 162-164.
12. Ne'matov, NI. (2022). TIBBIY VEB SAYTLAR YARATISH SAMARADORLIGI. Academic Research in Educational Sciences (ARES) 3 (2), 118-124
13. Berdiyevna, A. S., Fazliddinovich, S. R., & Uralovich, R. N. (2022). Use of Information Technology in Improving the Quality of Education. Eurasian Research Bulletin, 14, 134-138.Abdullayeva, S. B., & Dosmurodova, S. S. (2022). THE ROLE OF THE FAMILY IN THE FORMATION OF VALUE DIRECTIONS IN YOUTH. Procedia of Theoretical and Applied Sciences, 1(1), 93-95.
14. Olimjonovna, T. F. (2023). SOCIO-HISTORICAL FOUNDATIONS OF FORMATION OF INTEREST IN THE PROFESSION AND DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL THINKING THROUGH PEDAGOGICAL COMMUNICATION.
15. Berdiyevna, A. S., & Shokirovich, X. S. (2023). Prospective Directions of Implementation of Modern Information Technologies in Education. Eurasian Journal of Research, Development and Innovation, 17, 7-11.
16. Berdiyevna, A. S., Akramovna, M. M., & Olmasovna, R. P. (2023). Research in the Process of Education of Medical Students Shaping Their Abilities. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 17, 95-99.
17. Ismatullayevich, N. N. (2023). The role of educational websites in the development of student's higher education systems. Eurasian Journal of Research, Development and Innovation, 17, 17-20.
18. Ismatullayevich N. N., Ilxomovna M. Z. Automation of Sanatorium Work: Reservation Service and its Structure //Miasto Przyszłości. – 2022. – T. 29. – C. 65-67.
19. Olimjonovna T. F. Pedagogical Communication and its Role and Significance in Developing the Professional Thinking of Students //Eurasian Scientific Herald. – 2023. – T. 16. – C. 82-86.
20. Berdiyevna, A. S., Ilhomovna, M. Z., & Ogli, K. S. S. (2023). Modern methods of information exchange in polyclinic conditions. Genius Repository, 25, 16-20.

21. Abdullayeva, S., Maxmudova, Z., & Xo'jaqulov, S. (2023). MODERN METHODS OF INFORMATION EXCHANGE IN POLYCLINIC CONDITIONS. Modern Science and Research, 2(10), 304-310.
22. Махмудова, З. И., & Аббосова, Р. Р. (2023). ТЕМА: РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИИ В ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ ОТРОСЛИ. Gospodarka i Innowacje., 33, 164-169.
23. Илхомовна, М. З., & Ражабоевна, А. Р. (2023). ТЕМА: РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИИ В ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ ОТРОСЛИ.
24. Maxmudova, Z. (2023). THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE PHARMACEUTICAL INDUSTRY. International Bulletin of Engineering and Technology, 3(3), 52-54.
25. Maxmudova, Z., Mehmonov, A., Maxsiddinova, O., & Tirkashev, A. (2023). SCIENTIFIC STUDIES SHOWING HOW MUCH PART OF THE BRAIN A PERSON USES. Modern Science and Research, 2(10), 960-964.
26. Tohirova, F., & Esanmurodova, D. (2024). THE IMPORTANCE, ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF THE MODULAR PROGRAM IN THE EDUCATIONAL SYSTEM. Modern Science and Research, 3(1), 789-794.
27. Olimzhanovna, T. F. (2023). Facts About the Poisonous Mammal-Loris. Miasto Przyszłości, 42, 592-594.
28. Elamanova, M., & Toxirova, F. (2023). FACTS ABOUT THE POISONOUS MAMMAL-LORIS. Modern Science and Research, 2(12), 226-229.
29. Olimjonovna, T. F. (2023). FERMENTLAR VA ULARNING INSON ORGANIZMIDAGI O'RNI.
30. Olimjanovna, T. F. (2023). ZAHARLI SUTEMIZUVCHI-LORIS HAQIDA FAKTLAR.
31. Olimjonovna, T. F., Rustamjonovna, T. P., & Zafarovna, I. S. (2023). Causes Leading to Baldness and How to Deal With Them. Miasto Przyszłości, 42, 216-220.
32. Abdusamatovich, K. S., & Olimjonovna, T. F. (2023). Information technologies in the economy. Genius Repository, 26, 30-33.
33. Olimjonovna, T. F. (2023). TELEMEDITSINA TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH.
34. Olimjonovna, T. F. (2023). AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI TA'LIM JARAYONIDA QO 'LLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI.
35. Karabaev, S., & Toxirova, F. (2023). DEVELOPMENT OF TELEMEDICINE TECHNOLOGIES. Modern Science and Research, 2(4), 698-702.
36. Karabaev, S., & Toxirova, F. (2023). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF USING INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS. Modern Science and Research, 2(4), 703-707.
37. Abdusamatovich, K. S., & Olimjonovna, T. F. (2023). Information technologies in the economy. Genius Repository, 26, 30-33.
38. Ne'matov, N., & Sobirova, K. (2024). THE ROLE OF WEBSITES IN IMPROVING THE WORK OF MEDICAL INSTITUTIONS. Modern Science and Research, 3(2), 530-532.

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

39. Berdiyevna, A. S. (2024). AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VA VOSITALARIDAN TA'LIM JARAYONIDA FOYDALANISHNING ISTIQBOLLI YONALISHLARI VA KELAJAGI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(2), 152-157.
40. Абдуллаева, С., & Раупова, Р. (2024). ТАЪЛИМ ВА ТАРБИЯ МЕТОДЛАРИ ВА ВАЗИФАЛАРИНИ ЎРГАНИШ-БЎЛАЖАК ПЕДАГОГЛАР ФАОЛИЯТИНИНГ АСОСИЙ ОМИЛИДИР. Modern Science and Research, 3(1), 91-97.
41. Ilhomovna, M. Z., Berdiyevna, A. S., Shaxboz o'g'li, Y. T., & Mirkobilovna, S. R. (2023). The Importance of IT Technologies in Ultrasound Examinations. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 2(12), 121-125.
42. Berdievna, A. S., Sobirovich, S. O., & Ibrahimovna, N. N. (2023). Distinctive Features of the Distance Learning System in Medical Education: the Opportunity to Learn at a Convenient Time, Place and Environment. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 2(12), 33-38.
43. Абдуллаева, С. Б. (2023). ТИББИЁТДА ТАЛАБАЛАРГА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВА ЖАРАЁНЛАРНИ МАТЕМАТИК МОДЕЛЛАШТИРИШ ФАН МОДУЛИНИ ЎРГАТИШДА МОТИВАЦИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(12), 27-30.
44. Berdiyevna, A. S., Eshmamatovna, D. N., & Shukhratovna, D. S. (2023). THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN MEDICAL DISEASE PREDICTION. EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE, 3(3), 5-9.

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

BARQAROR BIRIKMALARNING NUTQDAGI AHAMIYATI

Dilafruzxon Yunusaliyeva
Dang'ara tuman 2-son kasb-hunar maktabining
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *O'zbek tili har jihatdan boy til .Til millatning qalbi ,uning o'tmishi ,buguni va kelajagi sanaladi.Shu ma'noda har bir millatning ona tilisida uning bebaho xazinasi, minglab so'zlar saqlanadi.Bu so'zlarni asrlar davomida xalq yaratadi,unga sayqal beradi,asrab-avaylaydi.*

Kalit so'zlar: *iboralar, barqaror birikmalar, maqollar, hikmatli so'zlar, hikoya.*

Shunday so'zlarga barqaror birikmalarni misol qilishimiz mumkin.

Barqaror birikmalar nutqqa tayyor holda olib kirilishi,tarkibiy qismlarining barqarorligi belgisiga ko'ra umumiylikni tashkil etsa ham ,ma'no butunligi nuqtayi nazaridan turlichadir.Shunga ko'ra barqaror birikmalar :iboralar ,maqol va matallar,aforizmlarga bo'linadi.

Barqaror birikmalarning bir guruhi tarkibidagi so'zlar ma'no jihatdan uyg'unlashib ,mazmuniy yaxlitlikni vujudga keltiradi va ko'chma ma'noda ishlatiladi.

Iboralar bir so'z ma'nosiga teng so'zlar hisoblanib ,ular orqali kerakli ma'noni anglab olamiz: kapalagi uchib ketdi-bexosdan cho'chib ketmoq;istarasi issiq-xush ko'rinishli,ich etini yemoq-ruhan azoblanmoq,mazasi qochdi-sog'ligi yomonlashdi,tinkasi qurimoq-darmonsizlanmoq, ko'zi to'rt bo'ldi-kelishini kutmoq,xamirdan qil sug'urganday-oson bajarmoq kabi.

Frazeologik birliklarning ma'nodoshlari ham nutqda faol ishlatiladi: boshi osmonga yetdi,og'zi qulog'ida yetdi ,terisiga sig'may ketdi iboralari xursand bo'lmoq ma'nosini;tarvuzi qo'ltig'idan tushdi,xafsalasi pir bo'ldi iboralari amalga oshmagan rejalar ma'nosini;tepa sochi tikka bo'ldi,joni chiqdi iboralari esa o'ta darajada g'azablanmoq ma'nosini ;qildan qiyiq axtarmoq,tirnoq ostidan kir qidirmoq iboralari yomon niyat bilan aybi yo'q odamning faoliyatidan ayb topishga harakat qilmoq ma'nolarini bildiradi.

Frazeologik iboralarning deyarli barchasi ekspressivlikka,obrazlilikka ,alohida ifodalilikka egadir.Iboralar turmushdagi turli voqea hodisalarga guvoh bo'lish ,kishilarning xilma-xil harakat - holatlariga baho berish ,tajribalarni umumlashtirish asosida xalq chiqargan aniq-tiniq xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalaridir.Shuning uchun ham ular nutqning ifodaliligini ta'minlashda betakror vositalardir.So'z san'atining ustalari tildagi bu vositalardan unumli foydalanadilar.

Yaratish zavqidan sipqorgin to'yib,

Kelajak poyiga baxsh etgin jonni.

Ozodlik,obodlik baxtini suyib,

Boshingga ko'targin O'zbekistonni . (O'tkir Rahmat)

Ushbu satrlardagi jonni baxsh etmoq,boshga ko'tarmoq iboralari nutqiy ta'sirchanlikni oshirmoqda.

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

Maqollar xalqning hayotiy tajribasi,donishmandligi natijasida maydonga keladi.Ular nutq jarayoniga qadar tilda tayyor holda barqaror birikma sifatida mavjud bo'ladi. Maqollar fikrni ta'sirchan ,bo'yoqdor qilib ifodalovchi qudratli vositadir.

Masalan,Shamol bo'lmasa daraxtning uchi qimirlamaydi.Bolta tushguncha to'nka dam oladi.Ayolning sarishtasi-odamning farishtasi.Do'sting bo'lsa bog'ing chamandir,Do'sting bo'lmagani –fe'ling yomondir.Telbaga tilmoch kerak emas. Arslon izidan qaytmas,yigit so'zidan kabi maqollar obrazlilikni yuzaga keltirgan.

Matallar ham huddi shunday maqollar singari xalqning hayotini uzoq davrlar mobaynida kuzatish orqali hosil qilgan hayotiy tajribasining ixcham shaklda ifoda topishidir.

Masalan, Yaxshidan bog' qoladi,yomondan dog'.Qimirlagan qir oshar.

Daryo suvini bahor toshirar,odam qadrini mehnat oshirar kabi.

Avval o'yla ,keyin so'yla matali orqali jamiyat a'zolari o'zaro munosabatlarda so'zlashish odobiga qat'iy rioya qilishlari zarurligi ta'kidlanadi.Kishi aytadigan har bir so'zini avval o'ylab olishi,so'ngra so'zlashi lozim.O'ylamay aytilgan so'z kishini noqulay ahvolga solib qo'yishi mumkin. Hatto bu xususida Alisher Navoiy "So'zni ko'ngilda pishqarmaguncha ,tilga keltirma va har nekim ko'ngilda bor tilga surma",- degan edi.Bu matalni variantlari ham bor:"O'ynab gapirsang ham ,o'ylab gapir","O'n qatim o'yla ,bir qatim so'yla","Tez so'zlagan tez pushaymon bo'lar" va hakozo.

Hikmatli so'zlar (aforizmlar)barqarorlik ,mazmuniy yaxlitlik belgilariga ko'ra boshqa barqaror birliklar bilan umumiylik kasb etsa ham ,aniq muallifining borligi bilan ulardan farqlanadi.

Hikmatli so'zlarni o'rganib ,xotirada saqlab ,nutqda to'g'ri qo'llay bilish kishining so'z san'atkori,donishmand bo'lishini ta'minlaydi.

"Kimki ilm bilan aqlini oshirishni xohlasa ,mol-u davlat o'zi kelaveradi".

"Vatanni sevish hissi- bu shunchaki tug'ma mayl emas,u sarbaland va muqaddas tuyg'udir".

"Dehqoni boy yurt qudratli bo'lur,qudratli yurtning dehqoni boy bo'lur " kabi hikmatli so'zlar fikrlashga ,mag'zini chaqishga undaydi.

Barqaror birikmalar so'zlashuv uslubida faol ishlatiladi,bunday birikmalar fikrni tinglovchiga tez va ta'sirli yetib borishini ta'minlaydi. Badiiy adabiyotlarda ham yozuvchilar tomonidan qo'llanilgan birikmalar asar mazmunini boyitadi.So'z ustasi ,o'zbek hikoyachilik janri taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan Abdulla Qahhor ijodini kuzatar ekanmiz ,turg'un birikmalardan g'oyatda ustalik bilan foydalanganini guvohi bo'lamiz.

Yozuvchi hikoyalariga tanlangan epiraflar orqali butun asarning mazmun -mohiyatini anglash mumkin.Masalan "O'g'ri" hikoyasiga "Otning o'limi - itning bayrami"epigrafining qo'llanishi orqali boshiga og'ir kun tushgan insonni jamiyatdagi mansabiga noloyiq kimsalarning talon-taroj qilishi aks ettirilgan bo'lsa , "Bemor"hikoyasida "Osmon yiroq -yer qattiq"mazmunidagi epifrag misolida "tanasidan qon oldirgan bemor"holiga tushgan butun jamiyatning holati tasvirlanadi."Anor" hikoyasida esa "Uylar to'la non,och-nahorim bolam.Ariqlar to'la suv tashnai zorim bolam"epigrafi orqali ayni anor pishig'ida xomilador ayoliga bir dona anor olib kelolmagan Turobjon misolida davr muhitini his qilasiz.

Said Ahmadning "Kuyov", "Kelinlar qo'zg'oloni" kabi dramatik asarlarida ham xalq maqollaridan mohirona foydalanilgan ."Kelinlar qo'zg'oloni"da o'rtancha kelin Bashoratni har bir gapiga maqol qo'shib gapirishi o'zbek kitobxoniga o'zgacha zavq beradi.

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

“Har bir tovuqqa ham don kerak,ham suv kerak”,”Bor tovog’im ,kel tovog’im,bormasang o’rtada sin tovog’im “,”Bir balosi bo’lmasa ,shudgorda quyruq na qilur”,”Qizim senga aytaman,kelinim sen eshit”, deganlaridek, o’zbek xalqi uchun barqaror birikmalar nutqimizning bir bol’agiga aylanib bo’lgan. Chunki barqaror birikmalar orqali tinglovchi fikrni tez anglaydi.

Ota-bobolarimizning hikmatli so’zlari hayot yo’llarimizning ravon bo’lishini ta’minlaydi.” Hamisha ilm payida bo’l,qalbing ham,ko’zing ham doimo bedor bo’lsin”, “Uyqu va oromni o’ylab bugungi ishni ertaga qo’yma”,” Hamma bilan gaplashganda kamtarlikni qo’ldan berma”, “Birovni xor sanama ,hamisha adolatni o’zingga shior qil “ ,”Ulamolar suhbatida bo’l,pok ,sof niyatli kishilarga talpin”,’Kechira olishlik mardlik,kechira bilmaslik nomardlikdir”,kabi hikmatli so’zlar katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Barqaror birikmalardan o’rinli foydalanish ,nutq go’zalligini ta’minlaydi,shuning uchun ular nutqimiz ko’rki hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hozirgi o’zbek adabiy tili 2015 yil

2. Ona tili darsligi 11-sinf 2018 yil

3. Abdulla Qahhor “Ayajonlarim” asarlar 1988 yil

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI
Jild: 04, Nashr:11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

Modernization of the Preparation of Preschool Children for School Education

Amonqulova Zamira Azim qizi

Finnish Pedagogical Institute of Uzbekistan, Education - Theory and Methodology of Education (Preschool Education) 1st stage Master's student Scientific supervisor: Associate Professor, Sh.N. Fayzullayev

Annotation. *The following article is devoted to the modernization of the process of preparing preschool children for school education. Innovative pedagogical technologies, didactic tools and methodological approaches are important to ensure the effective adaptation of children during the transition from preschool to school education. The article considers the existing problems in preschool education and methods for their elimination, as well as the pedagogical and psychological foundations of the implementation of modern technologies. New methods that serve to increase the intellectual, psychological and social readiness of children are analyzed..*

Key words: *orientation, preschool education, preparation, modernization, innovative technologies, pedagogical methods, psychological adaptation.*

Bugungi kunda ta'lim tizimida maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash jarayoni jamiyat rivojlanishining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Maktab ta'limiga o‘tish davrida bolalar nafaqat intellektual jihatdan, balki psixologik va ijtimoiy jihatdan ham tayyor bo‘lishi lozim. Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish orqali ushbu jarayonni samarali tashkil qilish mumkin. Maqolada maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning dolzarb masalalari, bolalarni maktabga tayyorlash uchun pedagogik-psixologik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalar tahlil qilinadi.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim jarayonida interfaol usullar innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib, ta’limning samaradorligni ko‘tarishga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilganda pedagoglar egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. Pedagog bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchi vazifasini bajaradi. Bunday o‘quv jarayonida pedagog asosiy figuraga aylanadi.

Pedagog olimlarning yillar davomida ta’lim tizimida, Nega o‘qitamiz? Nimani o‘qitamiz? Qanday o‘qitamiz? degan savollarga javob izlash bilan bir qatorda Qanday qilib samarali va natijali o‘qitish mumkin? degan savoliga javob beradilar. Bu esa olim va amaliyotchilarni o‘quv jarayonini texnologiyalashtirishga, ya’ni «O‘qitishni ishlab chiqarishga oid aniq kafolatlangan natija beradigan

texnologik jarayonga aylantirishga urinib ko‘rish mumkin», degan fikrga olib keladi. Bunday fikrning tug‘ilishi pedagogika fanida yangi pedagogik texnologiya yo‘nalishini yuzaga keltiradi. Bugungi kunda ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiyaviy jarayonda pedagogik texnologiyalardan foydalanishiga alohida e’tibor berilayotganligining asosiy sababi quyidagilardir: Pedagogik texnologiyalar o‘quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi;

Pedagogik texnologiya pedagogni ta’lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo‘lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi. O‘quv-tarbiya jarayonida pedagogik jarayonning to‘g‘ri tashkil etilishi pedagogning bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa tinglovchilardan ko‘p mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab qiladi. Har qanday pedagogik texnologiyalarning o‘quv- tarbiya jarayonida qo‘lanilishi shaxsiy jihatdan kelib chiqqan holda tinglovchini kim o‘qitayotganligi va pedagog kimni o‘qitayotganiga bog‘liq. Pedagogik texnologiya asosida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o‘z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini oshirib, ularda fikrlashga, o‘z nuqtayi nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Hozirgi davrda sodir bo‘layotgan innovatsion jarayonlarda ta’lim tizimi oldidagi muammoarni hal etish uchun yangi axborotni o‘zlashtirish va o‘zlashtirgan bilimlarini o‘zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslarga aylanadi.

Metodologiya

Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash jarayonida foydalaniladigan metodlar o‘quvchilarni intellektual, psixologik va ijtimoiy jihatdan rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Quyida ushbu jarayonda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan asosiy metodlar haqida ma’lumot berilgan:

1. Amaliy tadqiqot metodlari

- **Kuzatish:** Bolalarning faoliyatini bevosita kuzatish orqali ularning qiziqishlari va qobiliyatlari haqida ma’lumot yig‘ish.
- **Eksperiment:** Innovatsion ta'lim texnologiyalari va metodlarini joriy etish natijasida bolalar rivojlanishini baholash.

2. Interaktiv metodlar

- **Rolli o‘yinlar:** Bolalarni yangi ijtimoiy rollarga tayyorlash uchun o‘quv faoliyatiga rolli o‘yinlarni kiritish.
- **Hamkorlikda o‘rganish:** Bolalarni guruhlarga bo‘lib, birgalikda topshiriqlarni bajarish orqali jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

3. Ekspert baholash metodlari

- Pedagog va psixologlar yordamida bolalarning tayyorgarlik darajasini diagnostika qilish. Bu usul bolalarning qaysi sohalarda rivojlanishga ehtiyoj borligini aniqlashga yordam beradi.

4. **Diagnostika va monitoring metodlari**

- Testlar, so‘rovnomalar va psixologik diagnostika vositalari yordamida bolalarning aqliy va ijtimoiy rivojlanishini baholash.
- Bolalarning rivojlanish dinamikasini kuzatish uchun monitoring tizimini joriy etish.

5. **Innovatsion texnologiyalar metodlari**

- **Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT):** Multimediali o‘yinlar va interaktiv darsliklar orqali ta'lim jarayonini boyitish.
- **Simulyatsiya va virtual muhitlar:** Maktabga moslashuv uchun maxsus dasturlar va simulyatsiyalarni qo‘llash.

6. **Ekskursiyalar va amaliy mashg‘ulotlar**

- Bolalarni maktab muhiti bilan tanishtirish uchun ekskursiyalar o‘tkazish. Masalan, sinf xonalari, kutubxona va sport zallarini ko‘rsatish.
- Amaliy mashg‘ulotlar orqali maktabdagi muhit va intizomni o‘rganishga yordam berish.

7. **Ota-onalar bilan ishlash metodlari**

- Bolalarning maktabga moslashishida ota-onalar bilan hamkorlik qilish. Seminarlar, treninglar va maslahatlar orqali ota-onalarga qo‘llab-quvvatlash

8. **Nazariy tahlil**

- Ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va ilg‘or tajribalarni o‘rganish orqali bolalarni maktabga tayyorlashga oid mavjud bilimlarni tahlil qilish. Bu metod orqali muammolarni aniqlash va ularni hal qilish yo‘llari taklif etiladi.

9. **O‘yinli metodlar**

- Didaktik o‘yinlar, rolli mashg‘ulotlar va qiziqarli topshiriqlar orqali bolalarning qiziqishini oshirish va bilimlarini mustahkamlash. Bu metod bolalarni faol ishtirokchi sifatida jalb qiladi.

10. **Interaktiv usullar**

- Bolalar bilan ishlashda interaktiv yondashuvlar, masalan, guruh mashg‘ulotlari, muloqotli o‘yinlar yoki multimedia texnologiyalaridan foydalanish. Bu usullar bolalarda jamoaviy ishlash va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

11. **Suhbat va intervyu metodlari**

- Bolalar, ularning ota-onalari va pedagoglar bilan muloqot qilish orqali ularning ehtiyojlari va fikrlarini o‘rganish. Bu metod maktabga tayyorgarlik jarayonini yaxshilash uchun samarali bo‘ladi.

Bu metodlardan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga samarali tayyorlash uchun yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etish imkonini beradi. Har bir metod bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari va ehtiyojlariga mos ravishda tanlanishi muhim.

Xulosa

Maktabgacha ta'lim tizimining modernizatsiyasi bolalarni maktab ta'limiga yanada samarali tayyorlash imkonini beradi. Innovatsion texnologiyalar va zamonaviy pedagogik yondashuvlar bolalarda intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish, psixologik moslashuvni ta’minlash va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Maqolada ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish uchun taklif va tavsiyalar keltirilgan. Kelajakda bu yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlar ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (2019). "Maktabgacha ta'limni rivojlantirish to‘g‘risida."
2. Sh.N.Fayzullayev. MAKTABGACHA TA’LIMDA O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI VA PEDAGOGIK JARAYONNI LOYIHALASHTIRISH O‘QUV QO‘LLANMA Samarqand: SamDU, – 2023. – 204 bet
3. Akramova, G. (2021). *Maktabgacha ta'limda innovatsion yondashuvlar.* Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti.
4. Karimov, Sh. (2020). *Bolalar psixologiyasi va ta'lim texnologiyalari.* Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti nashriyoti.
5. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.* Harvard University Press.
6. Dewey, J. (1938). *Experience and Education.* New York: Macmillan.
7. Saliev, Y. (2022). *Maktabgacha ta'limni modernizatsiya qilishning dolzarb masalalari.* Toshkent: Talqin nashriyoti.
8. Smith, J., & Brown, L. (2019). *Early Childhood Education: Principles and Practices.* Cambridge University Press.
9. Nishonova, S. (2018). *Pedagogik texnologiyalarni ta'limda qo'llash usullari.* Toshkent: Fan nashriyoti.
10. UNESCO. (2021). *Innovative Practices in Early Childhood Education.* Paris: UNESCO.
11. Bronfenbrenner, U. (1994). *Ecological Models of Human Development.* Oxford University Press.

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI
Jild: 04, Nashr:11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

Modern methods of designing pedagogical processes in preschool education

Majidova Shohsanam Sherali qizi

Finnish Pedagogical Institute of Uzbekistan, Education - Theory and Methodology of Education (Preschool Education) 1st stage Master's student Scientific supervisor: Associate Professor, Sh.N. Fayzullayev

Annotation. *This article is devoted to improving the quality and efficiency of education in the preschool education system, introducing innovative technologies, as well as analyzing pedagogical approaches that serve the development of children. The main attention is paid to the importance of game technologies, interactive methods and modern approaches. The current issues of preparing children for school through the development of their individual abilities and the effective organization of the educational process are considered.*

Key words: *preschool education, innovative technologies, game technologies, interactive methods, child development, educational effectiveness.*

Kirish qism

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida ta’lim tzimining rivojlantirilishi haqidagi qaror va qonunlarning qabul qilinishi bilan uzluksiz ta’lim tizimi orqali zamonaviy pedagog kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi. Jumladan, maktabgacha ta’lim tashkilot(MTT)lari murabbiy-ustozlarini kun sayin oshib borayotgan axborot-ta’lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko‘rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o‘rgatish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Maktabgacha ta’lim tizimi mamlakatimizda ta’limning birinchi va eng muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, maktabgacha ta’lim tizimi farzandlarimizning kelajagi va jamiyatning taraqqiyoti uchun muhim zamin yaratadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish uchun o‘yinli va interfaol texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ushbu texnologiyalar bolalarning faolligi, tasavvuri va ijodkorligini rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi. Maqolada o‘yinli texnologiyalarning nazariy va amaliy ahamiyati, innovatsion yondashuvlar va pedagogik mahoratning ahamiyati haqida so‘z boradi.

Pedagogik jarayon – bu o‘qituvchi va o‘quvchi (yoki tarbiyachi va tarbiyalanuvchi) o‘rtasida amalga oshiriladigan o‘zaro faoliyat bo‘lib, uning asosiy maqsadi shaxsni har tomonlama rivojlantirish va jamiyat talablari asosida tarbiyalashdir. Pedagogik jarayon ta'lim, tarbiya va rivojlanishning yagona, uzviy bog‘liq bo‘lgan tizimi hisoblanadi.

Pedagogik jarayonning asosiy tarkibiy qismlari**:**

1. **Ta'lim**
   - O‘quvchilarga bilim berish, ularning fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni.

2. **Tarbiya**
   - Axloqiy, ma’naviy va madaniy qadriyatlarni shakllantirish.
3. **Rivojlantirish**
   - Shaxsning intellektual, ijtimoiy, jismoniy va emotsional qirralarini rivojlantirish.

Pedagogik jarayonning ahamiyati**:**

- Shaxsni jamiyat talablariga mos ravishda rivojlantirish.
- O‘quvchilarni ijodkorlikka, mustaqil fikrlashga va hayotiy muammolarni hal qilishga tayyorlash.
- Jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan shaxslarni tarbiyalash.

Pedagogik jarayon ta'lim va tarbiya jarayonini birlashtirib, shaxsni har tomonlama rivojlantirishni ta’minlaydi. Shu sababli, bu jarayonning ilmiy asosda tashkil etilishi va zamonaviy usullar bilan takomillashtirilishi muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirishning zamonaviy usullari

Maktabgacha ta’lim tizimi har bir bolaning hayotida eng muhim davrni tashkil etadi. Bu bosqichda bolalar qobiliyatlarini rivojlantirish, bilimga bo‘lgan ishtiyoqni shakllantirish va ularning shaxs sifatida kamol topishi uchun mustahkam zamin yaratish kerak. Zamonaviy ta’lim jarayonini loyihalashtirish esa ana shu maqsadlarga erishish uchun innovatsion yondashuvlarni talab qiladi.

Hozirgi zamonaviy ta’lim usullari ta’lim jarayonini faqat bilim berish bilan chegaralanmay, balki bolalarning qiziqishlarini, ularning individual ehtiyojlarini hisobga olishga yo‘naltirilgan. Loyihalashtirish jarayonida o‘yinli texnologiyalar, interfaol metodlar va innovatsion yondashuvlarning roli beqiyosdir.

O‘yinli texnologiyalarning ahamiyati

Bolalar uchun o‘yin asosiy faoliyat hisoblanadi. Shuning uchun ta’lim jarayonini loyihalashtirishda o‘yin elementlarini kiritish juda muhim. Masalan, didaktik o‘yinlar bolalarning qiziqishini oshiradi va o‘zlashtirish darajasini yaxshilaydi. Masalan, “Raqamlarni toping” yoki “Ranglarni ajrating” kabi o‘yinlar orqali bolalar nafaqat bilimlarni o‘zlashtiradi, balki kuzatuvchanlik, fikrlash va diqqatni jamlash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Interfaol metodlarning samaradorligi

Interfaol metodlar bolalarning faol ishtirokini ta’minlaydi. Guruhli mashg‘ulotlar, rolli o‘yinlar va muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar bolalarning muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, birgalikdagi “Tabiatni asraylik” loyihasida bolalar o‘z bilimlarini jamiyat foydasiga yo‘naltirishni o‘rganadilar. Bu esa ularni ijtimoiy faoliyatga tayyorlaydi.

STEAM yondashuvi: Yangi davr talabi

Zamonaviy ta’lim loyihalarida STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi muhim ahamiyatga ega. Bolalar kichik konstruktorlar bilan ishlash, rasmlar chizish va oddiy tajribalar qilish orqali o‘z bilish va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu usul bolalarning tabiat va texnologiya haqida dastlabki bilimlarni o‘zlashtirishiga yordam beradi.

Ko‘rgazmali va audiovizual vositalar

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tasavvuri asosan ko‘rgazmalilikka asoslanadi. Shu sababli ta’lim jarayonida rasmlar, diagrammalar, videoroliklar va multimedia ilovalari qo‘llaniladi. Masalan, “Quyosh tizimi” mavzusini o‘rgatishda animatsion filmlar yoki virtual ekskursiyalar bolalarning qiziqishini oshiradi va tushunishni osonlashtiradi.

Individga yo‘naltirilgan yondashuv

Zamonaviy ta’lim loyihalarida har bir bolaning ehtiyojlarini hisobga olish muhimdir. Har bir bolaning rivojlanish sur’ati va qiziqishlari o‘ziga xos bo‘lgani sababli, loyihalashtirish jarayonida differensial yondashuv qo‘llaniladi. Masalan, ba’zi bolalar ijodkorlik mashg‘ulotlariga ko‘proq qiziqsa, boshqalari mantiqiy o‘yinlarni afzal ko‘rishi mumkin.

Maktabgacha ta’limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirishning zamonaviy usullari bolalarning qiziqishlarini uyg‘otish va ularning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash uchun xizmat qiladi. O‘yinli texnologiyalar, interfaol metodlar va STEAM kabi yondashuvlar bu jarayonni boyitadi. Pedagogning kasbiy mahorati va innovatsion yondashuvlari bolalarning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun mustahkam poydevor yaratadi. Zamonaviy usullardan foydalanish orqali biz kelajak avlodni bilimdon, ijodkor va ijtimoiy mas’uliyatli shaxslar sifatida tarbiyalaymiz.

Metodologiya
Maqolada quyidagi metodologik yondashuvlardan foydalanilgan:

1. **Nazariy tahlil**
   - Ilmiy adabiyotlar va xorijiy tajribalarni o‘rganish orqali maktabgacha ta’limda innovatsion yondashuvlarning nazariy asoslari tahlil qilindi.
2. **Amaliy kuzatuv**
   - Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi pedagogik jarayonlarni kuzatish orqali o‘yinli va interfaol texnologiyalarning samaradorligi o‘rganildi.
3. **Eksperiment**
   - Interfaol metodlar va o‘yinli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga ta’sirini sinovdan o‘tkazish uchun maxsus mashg‘ulotlar tashkil etildi.

4. **Proektli yondashuv**
   - Bolalarning bilish va ijodiy faoliyatlarini rivojlantirish uchun kichik loyihalar ishlab chiqildi va joriy etildi.
5. **Interaktiv yondashuv**
   - Bolalar, ota-onalar va pedagoglar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni tashkil qilish orqali ta’lim jarayonining sifatini oshirish choralari ko‘rildi.
6. **Taqqoslash va tahlil**
   - An’anaviy va innovatsion pedagogik texnologiyalarning samaradorligi o‘zaro taqqoslandi.

Xulosa

Maktabgacha ta’limda innovatsion texnologiyalarni joriy etish ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. O‘yinli va interfaol texnologiyalar bolalarning intellektual, psixologik va jismoniy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi. Pedagoglarning kasbiy mahorati, innovatsion yondashuvlarni samarali qo‘llashi va bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish orqali ta’lim jarayoni yanada samarali bo‘ladi. Maktabgacha ta’limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning keyingi ta’lim bosqichlariga muvaffaqiyatli tayyorlanishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (2017). "Maktabgacha ta’limni rivojlantirish to‘g‘risida."
2. Sh.N.Fayzullayev ,MAKTABGACHA TA’LIMDA O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI VA PEDAGOGIK JARAYONNI LOYIHALASHTIRISH O‘QUV QO‘LLANMA Samarqand: SamDU, – 2023. – 204 bet
3. Nishonova, S. (2021). *Pedagogik texnologiyalar va ularning ta’limdagi o‘rni.* Toshkent: Fan nashriyoti.
4. Akramova, G. (2020). *O‘yinli texnologiyalar: Maktabgacha ta’limda qo‘llanilishi.* Samarqand: SamDU nashriyoti.
5. UNESCO. (2021). *Innovative Practices in Early Childhood Education.* Paris: UNESCO.
6. Montessori, M. (1949). *The Absorbent Mind.* Oxford University Press.
7. Dewey, J. (1938). *Experience and Education.* New York: Macmillan.
8. www.Ziyonet.uz
9. www.edu.uz

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

ICHKI ISHLAR ORGANLARI FAOLIYATIDA JAMOATCHILIK NAZORATI OB'EKTLARI VA SUB'EKTLARINING HUQUQIY TAVSIFI

Subanov Olimjon Suyarkul o'g'li
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Malaka oshirish Instituti Yuridik fanlar kafedrasi
katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ichki ishlar organlari faoliyatida jamoatchilik nazorati ob'ektlari va sub'ektlarining huquqiy tavsifi masalalari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Jamoatchilik nazorati, ichki ishlar organlari, EKOSOS, ommaviy axborotlashuv, korrupsiya, jamoatchilik nazorati sub'ektlari.*

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining birinchi yo'nalishida jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish vazifasi belgilab berilgan. Xususan, bu borada, O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonuni (2018-yil 12-aprel) qabul qilinganligi mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining ijtimoiylashuvi hamda korrupsiyaga qarshi kurashning yangi bosqichini boshlab berdi.

Ma'lumki, ichki ishlar organlari faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri fuqarolik jamiyati institutlari bilan konstruktiv muloqotni amalga oshirishga qaratilgan jamoatchilik nazoratini samarali yo'lga qo'yish hisoblanadi. Shu bois, mamlakatimiz Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5005-son Farmonida ichki ishlar organlari faoliyatida qonuniylikni ta'minlashga qaratilgan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish vazifasi alohida belgilab berildi".

Aytish o'rinliki, ichki ishlar organlari va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning xususiyati mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatning muhim ko'rsatgichlaridan biri hisoblanadi, chunki aholi ichki ishlar organlari misolida davlat vakilini ko'radi. Shu boisdan bejizga emas, Prezident Shavkat Mirziyoev 2017-yilning 9-fevral kuni ichki ishlar organlari faoliyatida, tizimda mavjud muammo va kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish, istiqboldagi vazifalarni belgilab olishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida so'zlagan nutqida "Ichki ishlar organlari shunday ishlashi kerakki, toki xalq davlatdan rozi bo'lsin", deb alohida ta'kidlagan. Buning zamirida ichki ishlar organlariga yuksak mas'uliyat yuklatilishi barobarida davlatning xalq bilan bevosita ish olib boruvchi vakili – ichki ishlar organlari xodimlariga, ham ishonch, ham yuksak mas'uliyatni his etgan holda xalq manfaati yo'lida fidoiylik bilan xizmat qilish vazifasini yuklaydi. Shuning uchun ham ichki ishlar organlari faoliyati

ustidan samarali jamoatchilik nazoratining o‘rnatilishi fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

Chunonchi, ichki ishlar organlari faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratini amalga oshirish orqali, jamiyat uchun muhim bo‘lgan maqsadlarga erishiladi, ya’ni u orqali ichki ishlar organlari faoliyatida inson huquqlari va erkinliklarining himoya qilinishi, fuqarolar va jamoatchilik tashkilotlarining qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan qarorlar qabul qilinishida jamoatchilik fikrining inobatga olinishi ta’minlanadi. Aynan jamoatchilik nazorati ichki ishlar organlari faoliyatida qonun ustuvorligini ta’minlash, uning faoliyati samaradorligini oshirish, qonunga xilof va jamoat manfaatlariga zid bo‘lgan qarorlarni qabul qilish va amalga oshirish xavfini bartaraf etishning muhim vositasi hisoblanadi.

Shuni qayd etish joizki, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda huquqiy me’yorlar poydevor vazifasini bajaradi. Huquqiy me’yorlarning asos vazifasini bajarishi jamoatchilik nazoratining har bir qadami mavjud hujjatlar asosida qo‘yilishini taqozo etadi.

Jumladan ichki ishlar organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati O‘zbekiston Respublikasining Jamoatchilik nazorati to‘g‘risidagi qonuni talablari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-iyuldagi “Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ3837-son qarori, 2020-yil 16-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5980-son Farmoni hamda Ichki ishlar vazirining 2018-yil 28-martdagi “Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 83-sonli, 2018-yil 15-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati huzuridagi Jamoatchilik kengashi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 164-sonli, 2018-yil 20-iyundagi“Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi tarkibini tuzish haqida”gi 165-sonli, 2019-yil 14-noyabrdagi “Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 381-son buyruqlari va boshqa hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 16-sentabrdagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonunida ichki ishlar organlarining jamoatchilik nazorati ob’ektlariga aniqlik kiritilmagan, garchi, ushbu Qonunning 9-moddasi (Ochiqlik va shaffoflik prinsipi) jismoniy va yuridik shaxslarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda foydalanilishi qonun bilan cheklangan axborotlardan tashqari ichki ishlar organlarining faoliyati haqida, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlariga bevosita daxldor bo‘lgan haqqoniy axborotni olish huquqini beradi.

Vaholanki, jamoatchilik nazorati ob’ektini tegishli normativ hujjatda aniq ifodalanmasligi olimlar tomonidan bahs-munozaraga sabab bo‘layotgan holatdan hisoblanadi. Chunki sub’ekt tomonidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdan qanday maqsad ko‘zlanganligini va uning muayyan sohaning aynan qaysi ob’ektiga yo‘nalganligi anglanmasdan turib, kutilgan natijaga erishib bo‘lmaydi. Ammo, yuqorida ta’kidlaganimizdek, biror bir normativ hujjatda ichki ishlar organlarining qaysi tuzulmalari faoliyati jamoatchilik nazoratining ob’ekti bo‘lishi mumkinligi hamda ularning jamoatchilik nazorati sub’ektlari bilan hamkorligini ta’minlashga oid alohida tartib nazarda tutilmagan. Shundan kelib chiqib, ichki ishlar organlari faoliyatida jamoatchilik nazorati ob’ekti haqida gapirilganda, avvalambor, ichki ishlar organlari tizimi haqida batafsil tassavvurga ega bo‘lish talab etiladi. Binobarin, ushbu sohada jamoatchilik nazorati ob’ektini aniq belgilash uchun mamlakatimizning ma’muriy-hududiy tuzilishi va shunga mos tarzda shaklantirilgan ichki ishlar organlarining ma’muriy tizimlashtirilganligini tahlil qilish lozim bo‘ladi.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasidan iborat. Shunga muvofiq ichki ishlar organlarida vertikal va

gorizontal boshqarish tizimini joriy qilish hamda mamlakatimizning ma'muriy-hududiy tuzilishi bo'yicha aholiga samarali xizmat ko'rsatadigan va jinoyatchilikka qarshi kurashishga qaratilgan hududiy tuzilmalari shakllantirilgan. Shu nuqtai nazardan, "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonunga muvofiq (13-modda), "Ichki ishlar organlari tizimiga O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari, tumanlar va shaharlar ichki ishlar boshqarmalari (bo'limlari), transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmalari (bo'limlari), jazoni ijro etish muassasalari, ichki ishlar organlarining o'tamuhim va toifalangan ob'ektlardagi bo'linmalari, shaharcha ichki ishlar bo'linmalari va ichki ishlar organlarining tayanch punktlari, shuningdek ta'lim va tibbiyot muassasalari, ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun tashkil etiladigan boshqa bo'linma va tashkilotlar, shuningdek, o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilari uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda huquqlar va imtiyozlardan foydalanadigan qorovul qo'shinlari hamda xalqaro aeroportlarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha qo'shinlar kiritilgan.

Ko'rib turganimizdek, bunday yondoshuv, albatta, keng ko'rinishga ega, ammo samarali jamoatchilik nazoratini amalga oshirish oldida turgan vazifalar majmui, bunday ob'ektlar tizimiga muayyan sohaning barcha tuzilmalarini maksimal darajada kiritilishini taqozo etadi. Demak, ichki ishlar organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining ob'ekti sifatida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, uning sohaviy va hududiy tuzilmalari, shuningdek ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun tashkil etilgan boshqa bo'linma va tashkilotlarni kiritishimiz mumkin.

"Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonunning 7-moddasiga muvofiq, ichki ishlar organlari huquqni muhofaza qiluvchi organ hisoblanadi. Shu jihatdan, Ichki ishlar vazirligi davlat va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va aholini mamlakatdagi kriminogen vaziyat, huquqtartibotni muhofaza qilish va jamoat xavfsizligini ta'minlash holati, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar, shuningdek Vazirlik va ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatilgan boshqa vazifalarning amalga oshirilishi to'g'risida tizimli ravishda xabardor qilib boradi. Shuning uchun, ichki ishlar organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining samarali tizimini shakllantirish muammosi ichki ishlar organlariga fuqarolarning hayoti, sog'lig'i, huquq va erkinliklari, mulk va jamiyat manfaatlarini jinoiy va boshqa qonunga xilof tajovuzlardan himoya qilishga qaratilgan vazifalar ijrosini samarali hal qilish bilan bevosita bog'liqdir. Biroq, ichki ishlar organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishningasosiy ob'ektlaridan tashqari, huquqni muhofaza qilish funksiyasi yuklatilmagan uning tarkibiy tuzilmalaridan iborat bo'lgan qo'shimcha ob'ektlarini ham ajratish talab etiladi. Ayni paytda bunday tuzilmalar Ichki ishlar vazirligining markaziy apparati va hududiy bo'linmalarining faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan faoliyat olib boradi. Masalan, Ichki ishlar vazirligining Kadrlar bosh boshqarmasi, Moliya va moddiytexnika ta'minoti bosh boshqarmasi, Tibbiyot boshqarmasi, Axborottexnologiyalari, aloqa va axborotni himoyalash boshqarmasi, Ichki ishlar vazirligining ta'lim muassasalari va boshqa shu kabilar bunga misol bo'la oladi. Shu sababli, jamoatchilik nazorati nafaqat ichki ishlar organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lib qolmasdan, balki uning mazkur yo'nalish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa sohalariga ham qaratilishi lozimdir.

Bundan tashqari, e'tiborga olish kerakki, ichki ishlar organlari o'z funksiyasiga ko'ra maxfiy ma'lumotlar bilan ishlaydigan bo'linmalariga ham ega hisoblanadi. Shu bois ichki ishlar organlarining bunday bo'linmalari faoliyati jamoatchilik nazoratining ob'ekti bo'lishi mumkin emas yoki u ma'lum darajada cheklangan xususiyatga ega bo'ladi. Zero, "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, "Jamoatchilik nazorati sub'ektlarining axborot olishga bo'lgan huquqi, agar mazkur axborot

shaxsga doir ma’lumotlar yoxud davlat sirlarini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma’lumotlar jumlasiga kiritilgan bo‘lsa, cheklanishi mumkin”.

Biz ko‘rib chiqadigan dolzarb masalalardan yana biri ichki ishlar organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati o‘rnatishi mumkin bo‘lgan sub’ektlar muammosi hisoblanadi.

Qonunchilikka ko‘ra, ichki ishlar organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati turli sub’ektlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Xususan, “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonunda (9-modda) “Ichki ishlar organlari o‘z faoliyatini ochiq va shaffof tarzda, davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, boshqa tashkilotlar va fuqarolar, shuningdek ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda amalga oshiradi”, deb belgilangan. Bundan tashqari, “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasida, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari jamoatchilik nazorati sub’ektlari sifatida nazarda tutilgan. Shuningdek, ushbu normaga muvofiq jamoatchilik nazorati jamoatchilik kengashlari, komissiyalari va boshqa jamoatchilik tashkiliy tuzilmalari tomonidan ham qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi mumkinligi ko‘rsatilgan.

Shu o‘rinda, aytish joizki, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017-yil 3-avgust kuni milliy madaniyatimiz namoyandalari, ijod ahli bilan uchrashuvida bu sohadagi ijodkorlarga nisbatan “Nima uchun madaniy hayotimizda tanqidiy ruh sezilmaydi? Sog‘lom tanqid, bahs va tortishuv bo‘lmagan joyda chinakam ijod bo‘lishi mumkinmi o‘zi?” debmurojaat qilganligini eslash diqqatga sazovordir. Chunki, bahs-munozara, oshkoralik, shaffoflik bo‘lmagan joyda hech qachon taraqqiyot, rivojlanish bo‘lmaydi. Zero, oshkoralik korrupsiya yoki fuqarolarning huquq vamanfaatlari buzilishini oldini oladi, bu sohadagi mavjud muammolarga haqqoniy va o‘z vaqtida yechim topadi. Shu bois fikrimizcha, mamlakatimizda axborot va so‘z erkinligini ta’minlash, mamlakat media-bozorini rivojlantirish orqali ommaviy axborot vositalarini tom ma’nodagi “to‘rtinchi hokimiyat” darajasiga yetkazishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotganligini inobatga olib, ommaviy axborot vositalari davlat yoki nodavlat xususiyatga ega bo‘lishi yoxud davlat budjetdan moliyalashtirilishi yoki moliyalashtirilmasligidan qat’i nazar jamoatchilik nazorati subekti sifatida tan olinishi maqsadga muvofiqdir.

Demak, aytilganlardan kelib chiqqan holda, ichki ishlar organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati to‘g‘ridanto‘g‘ri O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, shuningdek, jamoatchilik kengashlari, komissiyalari va boshqa jamoatchilik tashkiliy tuzilmalari tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Negaki, ushbu sub’ektlar ichki ishlar organlarining ayrim xodimlari tomonidan yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklar, qonun buzilish holatlari to‘g‘risida ob’ektiv va ishonchli ma’lumot olishdan manfaatdor hisoblanadi. Zotan, fuqarolar jamoatchilik nazoratiga oid tadbirlarni o‘tkazish uchun ko‘proq manfaatdor bo‘ladilar, chunki davlat hokimiyati organlari tomonidan qonun buzilish holatlarining oqibatlari birinchilardan bo‘lib ularga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham aynan fuqarolar davlat organlarini mavjud qonunbuzilish holatlariga nisbatan e’tiborini qarata olishlari va ularni barataraf etishga yo‘naltira olishlari mumkin. Garchi, O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi shaxs bilan davlatning doimiy siyosiy-huquqiy aloqasini belgilab beruvchi mezondirki, bu aloqa ularning o‘zaro huquqlari va burchlarida ifodalanadi. Negaki, fuqarolarning ichki ishlar organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish jarayoniga jalb qilish orqali jamoatchilikning ichki ishlar organlariga bo‘lgan ishonchini oshirish, ichki ishlar organlari xodimlarining korrupsion xatti-harakatlariga nisbatan murosasizlik kayfiyatini shakllantirish hamda ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini oshirish kabi muhim vazifalar hal qilinadi.

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

Shu sababdan jamoatchilik nazorati sub'ektlari qatorida O'zbekiston Respublikasining fuqarolari alohida o'ringa ega hisoblanadi. Ular o'z navbatida jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'zvakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega.

Bunday ishtirok etish davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Fuqarolar jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda bevosita yoki jamoat birlashmalari, boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari tarkibida ham ishtirok etish huquqiga ega. Ayni paytda fuqarolarning jamoatchilik nazoratida ishtirok etishi erkin va ixtiyoriy bo'lishi lozim. Hech kim fuqaroga uni jamoat nazoratida qatnashishga majburlash uchun ta'sir o'tkazishga, shuningdek uning jamoat nazoratida ishtirok etish huquqini amalga oshirishga to'sqinlik qilishga haqli emas.

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

MASOFAVIY TA’LIM UCHUN INTERAKTIV PLATFORMALARNI ISHLAB CHIQISH VA JORIY ETISH

Sharipova Maxmuda Zoitovna
Tashkent International University,
Xorijiy tillar kafedrasi, katta o’qituvchi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada masofaviy ta’lim uchun interaktiv platformalarni ishlab chiqish va joriy etishning dolzarb masalalari tahlil qilinadi. Masofaviy ta’lim bugungi kun talablaridan kelib chiqib, o‘quv jarayonini raqamli shaklda tashkil etishning muhim vositasidir. Ushbu maqolada interaktiv platformalarni yaratishning asosiy bosqichlari, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, foydalanuvchi ehtiyojlarini aniqlash, hamda pedagogik jarayonga moslashtirish usullari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, platformalarni samarali joriy etish, ulardan foydalanishda duch kelinadigan muammolar va ularning yechimlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Interaktiv platformalarning o‘quv jarayonini personalizatsiya qilish va bilim olish samaradorligini oshirishdagi roli alohida yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *masofaviy ta’lim, interaktiv platformalar, raqamli texnologiyalar, ta’lim innovatsiyalari, personalizatsiya, e-o‘quv muhit, foydalanuvchi tajribasi, platforma dizayni, ta’limni raqamlashtirish, onlayn ta’lim tizimi.*

Bugungi global texnologik rivojlanish sharoitida masofaviy ta’lim ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylangan. Raqamli o‘quv platformalari orqali ta’lim olish jarayoni o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi masofani bartaraf etib, bilim olishni yanada qulay va samarali qiladi. Ushbu maqolada masofaviy ta’lim uchun interaktiv platformalarni ishlab chiqishning bosqichlari, joriy etish jarayoni va ulardan samarali foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ko‘rib chiqiladi.

Masofaviy ta’lim platformalari ta’lim jarayonini yanada moslashuvchan va qamrovli qilishga imkon beradi. Ular quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

- O‘quvchilar istalgan joyda va istalgan vaqtda ta’lim olish imkoniyatiga ega.
- Har bir o‘quvchining individual ehtiyojlariga mos darslarni tashkil etish.
- Vizual, audio va boshqa multimediya elementlari yordamida o‘quv materiallarini yanada qiziqarli va tushunarli qilish.
- Platforma orqali o‘quvchilarning faoliyati va bilim darajasini tahlil qilish.

Masofaviy ta’lim zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanib, o‘quv jarayonini har qanday joydan va istalgan vaqtda tashkil etish imkonini bermoqda. Shu nuqtai nazardan, masofaviy ta’lim uchun interaktiv platformalarni ishlab chiqish va ularni joriy etish bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biridir.

Interaktiv platformalar o‘quvchilarga individual va guruhiy tarzda bilim olish uchun qulay muhit yaratadi. Ular o‘qituvchilarga o‘quv jarayonini samarali boshqarish imkoniyatini beradi. Bunday platformalar nafaqat masofaviy ta’limning texnik jihatlarini yaxshilash, balki ta’lim jarayonining

sifatini oshirish, o‘quvchilarning qiziqishi va ishtirokini ta’minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, pandemiya kabi global o‘zgarishlar davrida interaktiv platformalar an’anaviy ta’limning o‘rnini muvaffaqiyatli to‘ldira olish imkoniyatlarini ko‘rsatdi.

Ushbu maqolada masofaviy ta’lim uchun interaktiv platformalarni ishlab chiqish bosqichlari, ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni va samaradorligi, shuningdek, platformalarni joriy etish jarayonida duch kelinadigan muammolar va ularning yechimlari ko‘rib chiqiladi. Zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlardan foydalanish orqali ta’lim jarayonini raqamli shaklda takomillashtirishning ahamiyati batafsil tahlil qilinadi.

Interaktiv platformalarni ishlab chiqish bosqichlari

1. Talablarni tahlil qilish

- O‘quvchilarning ehtiyojlari va o‘quv dasturi talablari asosida platforma funksiyalarini aniqlash.
- Texnologik imkoniyatlarni o‘rganish va maqsadga muvofiq yechimlarni tanlash.

2. Dizayn va funksionallikni rejalashtirish

- Foydalanuvchilarga qulay interfeys yaratish.
- Platformada quyidagi funksiyalarni ta’minlash:
- Videodarslar.
- Testlar va topshiriqlar.
- Onlayn muloqot (chat, forumlar, videoqo‘ng‘iroqlar).
- O‘quv jarayonini kuzatish tizimi.

3. Platformani ishlab chiqish

- Raqamli texnologiyalarni qo‘llash: HTML5, JavaScript, Python kabi dasturlash tillari yordamida platforma yaratish.
- Mobil qurilmalar va kompyuterlar uchun moslashuvchan dizayn ishlab chiqish.

4. Sinovdan o‘tkazish

- Platformaning ishlash tezligi, funksionalligi va xavfsizligini sinab ko‘rish.
- Foydalanuvchilar (o‘quvchilar va o‘qituvchilar) fikrini inobatga olib, platformani takomillashtirish.

5. Joriy etish

- Platformadan foydalanish bo‘yicha o‘qituvchilar va o‘quvchilarga trening o‘tkazish.
- Platformani ta’lim tizimiga integratsiya qilish.

Platformalarni joriy etishda duch kelinadigan muammolar va ularning yechimlari:

Muammo 1: Internetga ulanish muammolari

- **Yechim**: Platformaning offline rejimda ishlash imkoniyatini yaratish.

Muammo 2: Texnik savodxonlikning pastligi

- **Yechim**: Platformadan foydalanish bo‘yicha oson tushunarli qo‘llanmalar va video darsliklar yaratish. Muammo 3: Moliyaviy cheklovlar
- **Yechim**: Ochiq kodli platformalar va bepul vositalardan foydalanish.

Platformalarning samaradorligini oshirish usullari:

1. **Gamifikatsiya elementlari**: Platformaga o‘yin elementlarini qo‘shish orqali o‘quvchilarning qiziqishini oshirish.
2. **Multimediya kontent**: Videolar, audio darsliklar va grafik materiallar yordamida bilimlarni vizualizatsiya qilish.
3. **Teskari aloqa**: O‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasida samarali muloqotni ta’minlash.
4. **Analitika vositalari**: O‘quvchilarning faoliyatini kuzatib borish va natijalarga ko‘ra o‘qitish jarayonini moslashtirish.

Masofaviy ta’lim uchun interaktiv platformalar yaratilishi ta’lim jarayonini zamonaviylashtirishda muhim qadam hisoblanadi. Sun’iy intellekt, virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari bilan uyg‘unlashgan platformalar yaqin kelajakda ta’lim samaradorligini yanada oshiradi.

Masofaviy ta’lim uchun interaktiv platformalar ta’lim jarayonini yangicha bosqichga olib chiqmoqda. Platformalarni ishlab chiqish va joriy etish jarayonida talabalarning ehtiyojlariga mos, innovatsion va qulay yechimlarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga ega. Ushbu texnologiyalar ta’lim sifati va qamrovini oshirishda muhim rol o‘ynaydi, bu esa kelajak avlodni raqamli dunyoda muvaffaqiyatli shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Masofaviy ta’lim uchun interaktiv platformalarni ishlab chiqish va joriy etish bugungi kunda ta’limni zamonaviylashtirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu platformalar o‘quvchilarning bilim olish jarayonini qulayroq, samaraliroq va moslashuvchanroq qiladi. Shu bilan birga, ular o‘qituvchilarga dars jarayonini boshqarish, talabalarning faoliyatini nazorat qilish va o‘qitish usullarini diversifikatsiya qilish imkoniyatini taqdim etadi. Ammo platformalarni ishlab chiqish va joriy etish jarayoni bir qator texnik, pedagogik va tashkilotchilik masalalarini hal qilishni talab etadi.

Interaktiv platformalarni ishlab chiqishda quyidagi masalalar muhokama qilinishi kerak:

- Har bir platforma turli yoshdagi va qobiliyatdagi foydalanuvchilarning ehtiyojlarini hisobga olishi zarur. Masalan, qulay interfeys, foydalanishning soddaligi va ko‘rish yoki eshitish imkoniyati cheklangan foydalanuvchilar uchun mos texnologik yechimlar talab etiladi.
- Platforma ta’lim jarayonining barcha bosqichlarini qamrab olishi, jumladan, videodarslar, testlar, interaktiv mashqlar, guruhiy muhokamalar va individual kuzatuvni ta’minlashi lozim.
- Platforma barqaror ishlashni ta’minlaydigan texnologik infratuzilmaga asoslanishi, internet tezligi past hududlarda ham ishlash imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

Masofaviy ta’lim platformalari bir qancha afzalliklarni taqdim etadi:

- Platforma har bir o‘quvchining bilim darajasini hisobga olib, individual o‘quv rejalarini shakllantirish imkoniyatini beradi.
- Raqamli vositalar orqali o‘quv materiallarini taqdim etish va o‘zlashtirish jarayonini optimallashtiradi.
- Platformalar orqali talabalar nafaqat dars materiallarini o‘rganadi, balki xalqaro darajadagi ma’lumotlardan ham foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.
- Multimediya vositalarining qo‘llanilishi bilim olishni yanada qiziqarli va intuitiv qiladi.
- Interaktiv platformalarni joriy etish jarayonida bir qator qiyinchiliklarga duch kelinadi:
- Ayrim o‘qituvchilar va talabalar zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalariga ega emas.

- Platformalarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish ko‘pincha katta xarajatlarni talab qiladi.
- O‘quvchilar va o‘qituvchilarning barqaror internetga va mos qurilmalarga ega bo‘lmasligi masofaviy ta’limni to‘liq ta’minlashda to‘siq bo‘lishi mumkin.
- Ba’zi platformalarda o‘quvchilar bilan jonli muloqot qilish imkoniyati yetarli darajada rivojlanmagan.
- O‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun texnologiyalarni o‘rgatishga qaratilgan maxsus treninglarni tashkil qilish lozim.
- Moliyaviy cheklovlarni bartaraf etish uchun bepul va ochiq kodli vositalardan foydalanish mumkin.
- Internetga ulanish cheklovlarini kamaytirish uchun platformalarda offline rejimni joriy qilish.
- Foydalanuvchilar fikr-mulohazalari asosida platformalarni doimiy yangilab borish.

Masofaviy ta’lim uchun interaktiv platformalarni ishlab chiqish va joriy etish ta’lim tizimini zamonaviylashtirish yo‘lidagi muhim qadamdir. Ular nafaqat o‘quv jarayonining qamrovini kengaytiradi, balki ta’lim sifatini oshirishga ham xizmat qiladi. Texnologiyalarni ishlab chiqish va ulardan foydalanishni optimallashtirish orqali masofaviy ta’limni barcha uchun qulay va samarali qilish mumkin. Platformalarni ishlab chiqish va joriy etishda innovatsion yondashuvlar va uzluksiz takomillashtirish asosiy omil bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Abdullayev, A. A. (2020). "Masofaviy ta'limda interaktiv platformalarning o'rni va ahamiyati." O'zbekiston pedagogika jurnali, 3(45), 12-18.
2. Karimov, B. K. (2019). "Elektron ta'lim platformalarini yaratishda zamonaviy yondashuvlar." Axborot texnologiyalari va ta'lim, 2(10), 22-29.
3. Ismoilov, D. D. (2021). "Masofaviy ta'lim tizimida interaktiv vositalardan foydalanish samaradorligi." Ta'lim va innovatsiyalar, 4(12), 35-42.
4. Nazarova, S. S. (2020). "Onlayn ta'lim platformalarini joriy etishda duch kelinadigan muammolar va ularning yechimlari." Pedagogik innovatsiyalar jurnali, 1(5), 50-57.
5. Rasulov, M. M. (2018). "Masofaviy ta'limda interaktiv darsliklarni yaratish texnologiyalari." Oliy ta'lim muammolari, 3(15), 60-66.

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

TA'LIMDA KENGAYTIRILGAN VA VIRTUAL HAQIQAT TEXNOLOGIYALARI

(AR va VR o‘rganish va faollikni qanday o‘zgartirishi mumkinligini o‘rganing)

Sharipova Maxmuda Zoitovna
Tashkent International University,
Xorijiy tillar kafedrasi, katta o’qituvchi

Annotatsiya: *Mazkur maqola ta’lim sohasida kengaytirilgan haqiqat (AR) va virtual haqiqat (VR) texnologiyalarining qo‘llanilishi, ularning o‘quv jarayonidagi o‘rni va samaradorligini o‘rganishga bag‘ishlangan. AR va VR texnologiyalari an’anaviy ta’lim yondashuvlarini boyitib, talabalar uchun interaktiv va vizual ravishda o‘rganuvchan muhitni yaratadi. Ushbu texnologiyalar yordamida o‘quvchilar nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lib, bilimlarni yanada samarali o‘zlashtirishga erishadilar. Maqolada AR va VR texnologiyalarining afzalliklari, joriy etish usullari, ta’lim jarayonidagi yutuqlar va texnik cheklovlar haqida batafsil ma’lumot keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *kengaytirilgan haqiqat (ar), virtual haqiqat (vr), interaktiv ta’lim, raqamli texnologiyalar, ta’lim innovatsiyalari, vizual o‘quv muhiti, simulyatsiya, amaliy o‘quv muhit, innovatsion pedagogika.*

Zamonaviy ta’lim texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida kengaytirilgan haqiqat (AR – Augmented Reality) va virtual haqiqat (VR – Virtual Reality) texnologiyalari ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuv sifatida kirib kelmoqda. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarning bilim olish jarayonini qiziqarli, interaktiv va samarali qiladi. AR va VR texnologiyalari yordamida ta’lim nazariy bilimlarni vizualizatsiya qilish va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatini taqdim etadi.

AR va VR texnologiyalari: ta’rif va o‘rni

- **Kengaytirilgan haqiqat (AR):** Ushbu texnologiya real muhitga raqamli elementlarni qo‘shish orqali ma’lumotni vizual tarzda taqdim etadi. Masalan, o‘quvchilar kitob sahifasidagi diagrammalarni AR ilovalari orqali 3D formatda ko‘rishi mumkin.
- **Virtual haqiqat (VR):** VR texnologiyasi yordamida o‘quvchilar to‘liq virtual muhitga kirib, ma’lum bir mavzuni o‘z ko‘zlari bilan his qilganidek o‘rganadilar. Masalan, tarix darslarida qadimgi shaharlarni VR orqali "sayohat" qilish.

AR va VR texnologiyalarining ta’limdagi afzalliklari

1. **Interaktivlik va vizualizatsiya:**

- An’anaviy ta’lim materiallarini qiziqarli va tushunarli shaklda taqdim etadi.
- Murakkab mavzularni 3D modellar va simulyatsiyalar orqali oson o‘rganish imkonini beradi.

2. **Amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish:**

- VR laboratoriyalar yordamida fizika, kimyo yoki biologiya tajribalarini xavfsiz muhitda amalga oshirish mumkin.
- Muhandislik yoki tibbiyot sohasida amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlashda yordam beradi.

3. **Qiziqishni oshirish:**

- O‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, chunki texnologiya ular uchun yangi va qiziqarli muhit yaratadi.
- Gamifikatsiya elementlari yordamida ta’lim jarayoni o‘yin shakliga keltiriladi.

4. **Masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish:**

- AR va VR masofaviy o‘quvchilarni real dars jarayonlariga yaqinlashtiradi.
- Onlayn ta’lim platformalariga integratsiya qilingan AR/VR dasturlari global darajada ta’lim sifatini oshiradi.

Amaliy qo‘llanilish sohalari

1. **Tabiiy fanlar:** Biologiya, kimyo va fizika laboratoriya tajribalarini simulyatsiya qilish.
2. **Tarix va geografiya:** Tarixiy joylarni virtual ekskursiya shaklida o‘rganish yoki geografik ma’lumotlarni interaktiv xaritalar orqali tushunish.
3. **Tibbiyot:** VR yordamida jarrohlik amaliyotlarini xavfsiz muhitda mashq qilish.
4. **Muhandislik:** Texnologik qurilmalar va muhandislik tizimlarini o‘rganishda 3D modellar bilan ishlash.
5. **Til o‘rgatish:** Virtual til muhitlari yordamida talabalarni real hayotdagi muloqotga yaqin sharoitlarda o‘rgatish.

AR va VR texnologiyalarini joriy etishdagi muammolar va yechimlar

- **Muammo:** Texnologik qurilmalarning yuqori narxi.
- ✓ **Yechim:** Dastlabki bosqichlarda AR ilovalari kabi nisbatan arzonroq texnologiyalardan foydalanish.
- **Muammo:** O‘qituvchilarning texnologiyaga oid bilimlari yetarli emasligi.
- ✓ **Yechim:** O‘qituvchilar uchun AR/VR texnologiyalari bo‘yicha trening va seminarlarni tashkil etish.
- **Muammo:** Internet va texnik infratuzilmaning yetarli emasligi.
- ✓ **Yechim:** Platformalarni offline rejimda ishlash imkoniyati bilan ta’minlash.

AR va VR texnologiyalari ta’lim jarayonini tubdan o‘zgartirish qudratiga ega. Sun’iy intellekt va AR/VR texnologiyalarining uyg‘unligi individual o‘quv rejalarini yanada moslashtirishga imkon beradi. Yaqin kelajakda ushbu texnologiyalar qishloq hududlarida ham keng joriy etilib, ta’limda teng imkoniyatlar yaratadi.

Mayer, R. E. (2009). Multimedia Learning. Bu kitob multimedia texnologiyalarining ta’limdagi o‘rni va ahamiyatini o‘rganadi. Mayerning tadqiqotlari AR va VR texnologiyalaridan foydalanish ta’lim jarayonini samarali qiladigan asosiy omillarni ochib beradi. Xususan, vizual va interaktiv elementlarning o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga bo‘lgan ta’siri haqida batafsil ma’lumot beradi. Asosiy yutuq: AR/VR ta’lim vositalari o‘quv materiallarini tushunishni osonlashtirib, ularning uzoq muddatli xotirada saqlanishiga yordam beradi.

Johnson, L., Levine, A., & Smith, R. (2011). The Horizon Report: K-12 Edition. Mazkur hisobot AR va VR texnologiyalarining maktab ta'limida qanday ishlatilishi haqida ma'lumot beradi. Mualliflar ushbu texnologiyalarning rivojlanish bosqichlari, o'quvchilarning qiziqishini oshirishdagi roli va ularni keng miqyosda joriy qilish uchun zarur infratuzilmalarni tahlil qiladilar. Asosiy yutuq: Hisobot AR/VR texnologiyalarining pedagogik samaradorligini oshirish uchun o'qituvchilarni tayyorlash muhimligini ta'kidlaydi.

Ta'limda kengaytirilgan va virtual haqiqat texnologiyalarini qo'llash nafaqat o'quv jarayonini innovatsion darajaga olib chiqadi, balki talabalar uchun qiziqarli va samarali o'quv muhitini yaratadi. Ushbu texnologiyalar yordamida o'quvchilarning nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalari mustahkamlanib, ta'lim sifati yangi bosqichga ko'tariladi. Shu bois, AR va VR texnologiyalarini ta'lim tizimida keng joriy etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Kengaytirilgan va virtual haqiqat texnologiyalari ta'lim jarayonini tubdan o'zgartirib, o'quvchilar uchun qiziqarli va samarali o'quv muhitini yaratadi. Yoritilgan adabiyotlar AR va VR texnologiyalarining afzalliklari, amaliy qo'llanilishi va joriy etishda duch kelinadigan muammolar haqida muhim ma'lumot beradi. Bu texnologiyalar o'quvchilarni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham tayyorlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ta'limda kengaytirilgan haqiqat (AR) va virtual haqiqat (VR) texnologiyalarining qo'llanilishi innovatsion yondashuv sifatida ta'lim jarayonida muhim o'rin egallamoqda. Ushbu texnologiyalar ta'limni interaktiv va samarali qilishga imkon berib, o'quvchilarni yanada chuqurroq va qiziqarli o'quv tajribasi bilan ta'minlaydi. Muhokamada AR va VR texnologiyalarining o'quv jarayoniga ta'siri, afzalliklari, qiyinchiliklari va kelajakdagi istiqbollari yoritiladi.

1. AR va VR texnologiyalarining ta'limdagi afzalliklari

1.1 Interaktiv o'quv muhiti yaratish

AR va VR texnologiyalari o'quvchilarga nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi. Bu usul murakkab mavzularni, masalan, biologiya, fizika yoki tarix fanlaridagi abstrakt tushunchalarni osonroq o'zlashtirishga yordam beradi. Masalan:

- VR yordamida o'quvchilar qadimgi shaharlarga virtual sayohat qilishlari mumkin.
- AR ilovalari yordamida murakkab kimyoviy reaksiyalarni interaktiv tarzda ko'rib chiqish mumkin.

1.2 Motivatsiyani oshirish

AR va VR texnologiyalari o'quv jarayonini o'yin shaklida tashkil qilish imkoniyatini beradi. Bu esa o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va faol ishtirokni ta'minlaydi. Gamifikatsiya elementlari orqali o'quvchilar yanada faol o'quv muhitiga jalb qilinadi.

1.3 Real hayotiy tajribalar yaratish

VR texnologiyasi xavfsiz virtual muhitda o'quvchilarga murakkab yoki xavfli amaliyotlarni bajarish imkonini beradi. Masalan:

- Tibbiyot sohasida VR jarrohlik amaliyotlarini simulyatsiya qilishda qo'llaniladi.
- Muhandislikda qurilish va texnik tizimlarni virtual shaklda sinab ko'rish imkoniyati yaratiladi.

2.1 Texnologik infratuzilma yetishmasligi

AR va VR texnologiyalarini keng joriy qilish uchun yuqori darajadagi texnologik infratuzilma talab etiladi. Ayrim hududlarda internetga ulanishning cheklanganligi yoki yuqori narxlardagi qurilmalarga ega bo'lmaslik ushbu texnologiyalardan foydalanishni qiyinlashtiradi.

2.2 O‘qituvchilarning tayyorligi

Ko‘plab o‘qituvchilar AR va VR texnologiyalarini ta’lim jarayonida qo‘llash uchun zarur bo‘lgan texnik ko‘nikmalarga ega emaslar. Bu muammoni hal qilish uchun o‘qituvchilarni maxsus treninglar orqali tayyorlash zarur.

2.3 Yuqori xarajatlar

AR va VR texnologiyalari bilan ishlash uchun maxsus qurilmalar, dasturiy ta’minot va texnik qo‘llab-quvvatlash talab qilinadi. Bu esa moliyaviy cheklovlarni keltirib chiqaradi.

3. Kelajakdagi rejalar quyidagicha:

3.1 AR va VR texnologiyalarini kengaytirish

Yaqin kelajakda AR va VR texnologiyalari yanada arzonlashib, oson kirish imkoniyatiga ega bo‘lishi kutilmoqda. Sun’iy intellekt bilan uyg‘unlashgan AR va VR vositalari ta’lim jarayonida yanada moslashtirilgan va personalizatsiya qilingan o‘quv rejalarini taqdim etadi.

3.2 Masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish

AR va VR texnologiyalari masofaviy ta’lim uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Talabalar jismonan boshqa joyda bo‘lishlariga qaramay, virtual muhitda to‘liq dars jarayonida ishtirok etishlari mumkin.

3.3 STEM va boshqa yo‘nalishlarda qo‘llanish

STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) yo‘nalishlarida AR va VR texnologiyalarining qo‘llanilishi o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlaydi va innovatsion tadqiqotlarga zamin yaratadi. AR va VR texnologiyalari ta’lim jarayonida yangi imkoniyatlar yaratib, an’anaviy o‘quv usullarini sezilarli darajada boyitadi. Ushbu texnologiyalar orqali o‘quvchilar nafaqat bilimlarni chuqurroq o‘zlashtiradi, balki real hayotiy vaziyatlarda foydalanish uchun zarur ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi. Texnik va pedagogik cheklovlarni yengib o‘tish orqali AR va VR texnologiyalarining ta’limdagi qo‘llanilishi yanada kengayishi mumkin. Bu esa ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi va o‘quvchilarni kelajakdagi muammolarga tayyorlaydi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Yuldasheva, G. G. (2019). "Elektron ta'lim platformalarini ishlab chiqishda pedagogik dizaynning ahamiyati." Ta'lim texnologiyalari va innovatsiyalar, 2(8), 45-52.
2. Tursunov, K. K. (2021). "Masofaviy ta'limda interaktiv platformalardan foydalanish tajribalari." O'zbekiston ta'lim tizimi jurnali, 5(20), 30-37.
3. Saidova, L. L. (2020). "Onlayn ta'lim platformalarini joriy etishda texnologik yondashuvlar." Axborot texnologiyalari va ta'lim, 4(12), 15-21.
4. Qodirov, N. N. (2019). "Masofaviy ta'limda interaktiv platformalarning samaradorligini oshirish usullari." Pedagogik tadqiqotlar jurnali, 2(7), 38-44.
5. Xolmatova, Z. Z. (2021). "Elektron ta'lim platformalarini ishlab chiqishda dasturiy ta'minot tanlash mezonlari." Ta'lim va axborot texnologiyalari, 3(9), 25-32.

SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

KORXONALARDA INVENTARIZATSIYA O'TKAZISH JARAYONIDA YUZAGA KELUVCHI ASOSIY MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Mamataliyeva Dilnoza Raxmonovna
Termiz davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: *Inventarizatsiya korxonalarda aktivlar va majburiyatlarning buxgalteriya hisobi ma'lumotlari va haqiqiy mavjudligi o'rtasidagi tafovutlarni aniqlash imkonini beradi. Maqolada inventarizatsiya o'tkazishda bajariladigan vazifalar qisqacha ko'rsatilgan. Korxonalarda inventarizatsiya qilishda yuzaga keladigan muammolar ko'rib chiqilgan. Korxona mulki va majburiyatlarni inventarizatsiya qilishda keng tarqalgan xatolar ko'rsatilgan. Keltirilgan misollarda muammolarni tuzatish bo'yicha takliflar berildi. Keltirilgan takliflar korxonalarda inventarizatsiyani o'tkazishda xatolar sonini kamaytirish imkonini beradi.*

Kalit so'zlar: *Uzoq muddatli aktivlar, tovar moddiy zahiralar, birlamchi hujjatlar, moddiy javobgar shaxs, inventarizatsiya, xatolar, moliyaviy hisobotlar.*

KIRISH

Bugungi kunda buxgalteriya hisobini to'gri yuritishda tashkilotning mulki va majburiyatlarini inventarizatsiya qilishning ahamiyati katta hisoblanadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, inventarizatsiya o'tkazish natijasida buxgalteriya hisobi ma'lumotlari va haqiqiy mavjudligi o'rtasida ko'p sonli tafovutlar aniqlanadi [2].

Maqolada korxonalardagi mulk va majburiyatlarni inventarizatsiya qilishda eng ko'p uchraydigan asosiy xatolarga misollar keltirildi va ushbu xatolarni hal qilish bo'yicha takliflar umumlashtirildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Inventarizatsiya buxgalteriya hisobi va hisobotlarining ishonchliligini ta'minlaydi. Foydalanuvchilarga ishonchli hisobot berish talabi O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi 2016 yil 13 apreldagi O'RQ-404-sonli qonunining 16-moddasida belgilangan [1].

Inventarizatsiyaning asosiy maqsadi korxonalarda mol-mulk va moliyaviy majburiyatlarning haqiqiy mavjudligini buxgalteriya hisobi ko'rsatkichlari bilan taqqoslashdir [4].

Inventarizatsiya - bu ma'lum bir vaqtga mablag' va ularning manbalarini haqiqiy mavjudligini, inventarizatsiya qilinayotgan ob'ektni natura shaklida sanash, ya'ni qoldiqlarini hisoblash yoki hisob yozuvlarini tekshirish yo'li bilan haqiqiy qilingan xarajatlarni belgilash [6].

Inventarizatsiyani o'tkazishda eng ko'p uchraydigan xatolar quyidagilarda kuzatiladi:

1. ko'pgina korxonalarning hisob siyosatida asosiy vositalarni inventarizatsiya qilish har yilda bir marta o'tkazilishi kerakligi ko'rsatiladi, ammo korxonalar buni e'tiborsiz qoldiradi va o'z vaqtida o'tkazmaydilar.

2. materiallar va ishlab chiqarishdagi yarim tayyor mahsulotlarni inventarizatsiya qilish vaqtida komissiya jismonan mas'ul shaxslar ishtirokida hisoblash, o'lchash yoki tortish yo'li bilan haqiqiy mavjudligini tekshirishi shart.
3. Inventarizatsiyani hujjatlashtirishda yo'l qo'yiladigan eng keng tarqalgan xatolar quyidagilardan iborat bo'ladi:

- inventarizatsiya jarayonini noto'g'ri tashkil etilishi;
- inventarizatsiya vaqtida inventarizatsiya o'tkazish to'grisida berilgan buyruqda ko'rsatilgan barcha komissiya a'zolarining ishtirok etmasligi;
- inventarizatsiya komissiyasi a'zolari tomonidan moddiy javobgar shaxslardan barcha zaruriy hujjatlar va kvitansiyalar buxgalteriya bo'limiga taqdim etilganligi to'g'risida tilxat olinmasligi;
- inventarizatsiyadan so'ng natijalar kirim hujjatiga nisbatan noaniq birlikda ko'rsatilishi;
- inventarizatsiyadan keyin olingan natijalar buxgalteriya bo'limiga belgilangan muddatlarda taqdim etilmasligi.

4. Inventarizatsiya natijalariga ko'ra, xaridorlar, mijozlar va tashkilot xodimlarining shubhali va umidsiz qarzlari aniqlanadi.
5. Pul mablag'larini inventarizatsiya qilishda qimmatli qog'ozlar va pul hujjatlarining haqiqiy mavjudligini sanoqdan o'tkazilmasligi, shuningdek, hisobvaraqlarda ko'rsatilgan summalar va schyot-fakturalar ma'lumotlarni solishtirish yo'li bilan amalga oshirilishmasligi.
6. Hujjatlarda bo'sh qatorlarning qoldirishi mumkin emas, oxirgi sahifalarda bo'sh satrlar chizilgan bo'lishi lozim. Hujjatlar inventarizatsiya komissiyasining barcha a'zolari, shuningdek, moliyaviy javobgar shaxslar tomonidan imzolanishi kerak [3].

Inventarizatsiya o'tkazishda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolarga bir nechta misollarni ko'rib chiqamiz:

Yillik hisobot berishdan oldin asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o'tkazishda korxona quyidagilarni aniqladi:

1. Moddiy javobgar shaxsning aybisiz 10 million so'mlik kompressorning yetishmasligi aniqlandi (2 million so'm qoldiq qiymati va 8 million eskirish qiymati).

Bunday holda, buxgalteriya hisobiga quyidagi yozuvlar kiritiladi:

Asosiy vositalarning yetishmasligi aniqlansa, moddiy javobgar shaxslarning tushuntirishlari, inventar varaqlariga ilova qilinadi. Ushbu tushuntirishlar asosida inventarizatsiya va buxgalteriya ma'lumotlari o'rtasidagi farqlarni tartibga solish to'g'risidagi qaror qabul qilinadi.

T/r	Ho'jalik muomalalarining mazmuni	summa	Schyotlarning bog'lanishi	
			Debet	Kredit
1	Kamomad yoki buzilish natijasida asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatini hisobdan chiqarish	10 000 000	9210	0190
2	Asosiy vositani kamomad yoki buzilish natijasida unga haqiqatda hisoblangan	8 000 000	0290	9210

	eskirishni hisobdan chiqarish			

2) Moddiy javobgar shaxsning aybi bilan 6 million so'mlik bo'yoq mahsulotlarining kamomadi aniqlandi.

T/r	Ho'jalik muomalalarining mazmuni	summa	Schyotlarning bog'lanishi	
			Debet	Kredit
1	TMZning yo'qolishi va buzilishidan kamomadlar	6 000 000	5910	1010
3	Aybdor shaxslardan undirilishi lozim bo'lgan summalar	6 000 000	4730	5910

